


83 2/507140 2

796



**BERDAK YUSUF**

**MUMTOZ ADABIY  
ASARLAR LUG'ATI**



FF0000002468

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ АЛИШЕР НАВОЙИЙ НОМИДАГИ  
ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ

БЕРДАК ЮСУФ

# Мумтоз адабий асарлар луғати

“ШАРҚ” НАШРИЁТ-МАТБАА  
АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ  
БОШ ТАХРИРИЯТИ  
ТОШКЕНТ — 2010

83.3 (502) 4021  
1996

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR  
AKADEMIYASI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TIL VA ADABIYOT INSTITUTI

BERDAK YUSUF

# Mumtoz adabiy asarlari lug'ati

Ўзбекистон Республикаси  
Кутубхонаси

Alisheiy nomidagi  
TIL VA  
ADABIYOT-RESURS  
MARKAZI

922847

2048

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
2404  
TIL VA  
ADABIYOT-RESURS  
MARKAZI

"SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK kompaniyasi

BOSH TASHKIRIYATI T-RESURS MARKAZI  
TOSHKENT — 2010

Mas'ul muharrir:

filologiya fanlari nomzodi **Qodirjon Ergashev**

Taqrizchilar:

**Filologiya fanlari nomzodi Vahob Rahmonov,  
Abdurasul Eshonboboyev**

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy  
nomidagi Til va adabiyot instituti ilmiy kengashi  
nashrga tavsiya etgan**

**Yusuf, Berdak.**

Mumtoz adabiy asarlar lug'ati (B.Yusuf; muhar. Q.Ergashev. Taqrizchilar: V. Rahmonov, A. Eshonboboyev; O'zbekiston Respublikasi FA, A. Navoiy nomidagi Til va adabiyot in-ti. — T.: «Sharq», 2010. — 528 b.

Mumtoz adabiyot namunalari o'rta maktablarning 5–9-sinflarida o'rganiladi. Taniqli tilchi va lug'atshunos Berdak Yusuf tomonidan tuzilgan ushbu asarga o'rta maktab dasturida, sinfdan va sinfdan tashqari o'rganishga mo'ljallangan yozma yodgorliklardagi, asosan, eskirib iste'moldan chiqqan, o'quvchilar uchun tushunilishi quyin bo'lgan arab, fors, turkiy so'zlar, so'z birikmalari, izofalar kiritilgan.

Mazkur lug'at maktab o'quvchilari, talabalar, umuman, mumtoz adabiyotimiz ixlosmandlariga mo'ljallangan.

**BBK 83.3 (50')ya2**

**ISBN 978-9943-00-345-3**



## So'zboshi

Mumtoz adabiyot namunalari o'rta maktablarning V—IX sinflarida o'rganiladi. O'quvchilar uchun ilk bor lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida tuzilgan ushbu «Mumtoz adabiy asarlar lug'ati»ga so'zlar V—XI sinflar darslik-majmualaridagi mumtoz adabiyot namunalari tanlab olindi, shuningdek, mumtoz adabiy asarlarda ko'p uchraydigan ba'zi so'zlar ham kiritildi.

Mumtoz adabiy asarlar uzoq vaqt mobaynida, O'rxun-Enasoy obidalari yaratilgan paytlardan tortib to XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrda yuzaga kelgan. Bu davrlarda «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq» kabi yozma yodgorliklar va Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Turdi, Mashrab, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat kabi adiblarning shoh asarlari yaratilgan.

Mazkur asarlarning yuzaga kelganiga ko'p asrlar bo'ldi. Shuning uchun mumtoz adabiy asarlarda hozirgi o'quvchiga notanish bo'lgan so'zlar uchrashi tabiiy. O'sha davrlarda ishlatilgan ko'pgina arabcha, forsha, umumturkiy so'zlar hozirgi tilimizda uchramaydi yoki juda kam uchraydi. Masalan, 8-sinflar uchun mo'ljallangan darslik-majmuada «Qutadg'u bilig»dan keltirilgan quyidagi baytga e'tibor bering:

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman*

*Anin tutsa el kend ko'tursa tuman.*

Bu baytdagi **qilinch** (xarakter, fe'l-atvor, qiliq, xatti-harakat), **edgu** (yaxshi, ma'qul, ezgu), **erdam** (fazilat, yaxshi xislat), birinchi misradagi **tuman** (o'n ming), **anin** (u bilan, uning vositasida), **el** (davlat; mamlakat), **kend** (shahar; kent), **ko'turmak** (o'rtadan ko'tarmoq, yo'q qilmoq, yo'qotmoq), ikkinchi misradagi **tuman** (zulmat, jaholat) o'quvchi uchun tushunarsizdir. Yoki 7-sinf darslik-majmuasidagi ushbu baytni ko'zdan kechiraylik.

*Kiribon zavraq ichra soyir o'lub,*

*Ul jazoyir to'shida zoyir o'lub. (S.S.)*

Bu matndagi **zavraq** (qayiq), **soyir** (sayr qiluvchi, sayyoh), **jazoyir** (orol), **to'sh** (atrof), **zoyir** (ziyosat qiluvchi, ziyoratchi), **o'lmoq** (bo'lmoq) so'zlarini o'quvchi lug'atsiz tushunmaydi. Bundan tashqari, shunday so'zlar borki, ular qadimgi turk yoki eski

o'zbek tilida hozirgi o'zbek tilidagidan butunlay boshqa ma'noda qo'llaniladi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida **mehnat**, **mehnatkash**, **o'rtaq**, **dugona** kabi so'zlar hozirgi tilimizdagi ma'nolaridan butunlay boshqa ma'nolarda ishlatilgan. Chunonchi, **mehnat** «azob, mashaqqat, ranj», **mehnatkash** «mashaqqat tortgan, jafokash», **o'rtaq** «sherik, hamkor», **dugona** «juft» ma'nolarini anglatgan. Endi «Sab'ai sayyor» dostonidan olingan quyidagi she'riy parchaga diqqat qiling:

*Ul haromig'a tig'i kin sursak*

*Keragidek jazog'a tegursak.*

7-sinf adabiyot darslik-majmuasidan keltirilgan bu baytdagi **haromi** so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ma'nosida emas, balki «qaroqchi, yo'lto'sar» ma'nosidadir. Mazkur so'zlarning Alisher Navoiy asarlaridagi ma'nolarini aniq bilmaslik, ularni hozirgi tilimizdagi ma'nolari kabi tushunish o'quvchini chalg'itadi, mumtoz adabiy asarlar matnini to'g'ri tushunishni qiyinlashtiradi. Bunday so'zlarni to'g'ri tushunish uchun lug'at zarur bo'ladi. «Mumtoz adabiy asarlar lug'ati» bu va bunga o'xshash izohtalab arabcha, forsha, umumturkcha notanish so'zlarning ma'nosini oydinlashtirishga, ularni to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Birdan ortiq ma'noli so'zlarning har bir ma'nosi arab raqami bilan ko'rsatildi va deyarli har bir ma'nosi misollar bilan ta'minlandi. So'zlarning, asosan, darslikka kiritilgan matnlardagi ma'nolari olindi. So'zning ko'chma ma'nosi *ko'ch*. (*ko'chma*) belgisi bilan berildi. Omonimlar esa an'anaga ko'ra rim raqami bilan ifodalandi.

Lug'atga, asosan, so'zlar asos qilib olindi. Ularning soni 4677 tadan ortiqroqdir. Ammo matnni to'la tushunishni osonlashtirish maqsadida ba'zi qo'shma so'zlar, izofa, ibora va so'z birikmalari ham kiritildi.

Lug'at kartoteka materiallarini to'plashda N.Shoimova, N.Rustamiy, M.Mengliboyevalar ishtirok etishdi.

## Foydalanilgan lug'atlar

1. M.Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch jildli. S.M.Mutallibov tarjimasi. T. 1960—1963.
2. Э. Фазылов. Староузбекский язык. т. I—II. Т. 1966—1969.
3. Древнетюркский словарь. Ленинград, 1969.
4. Farhangi zaboni tojiki. Ikki jildli. Moskva, 1969.
5. P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug'ati. T. 1972.
6. V.Rahmonov. O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at. T. 1983.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt jildli. T. 1983—1985.
8. F.Develliog'lu. Osmanlica-Türkçe ansiklopedik lügat. Ankara, 1990.
9. J.Lapasov. Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati. T. 1994.

## QISQARTMALAR

- a. – arabcha  
A. – Atoyi  
a.-f. – arabcha-forscha  
Amir. – Amiriy  
A.N.Far. – Alisher Navoiy.  
Fardlar  
A.N.Qit. – Alisher Navoiy.  
Qit'alar  
A.N.Rub. – Alisher Navoiy.  
Ruboiylar  
A.N.Tuy. – Alisher Navoiy.  
Tuyuqlar  
A.Y. – Ahmad Yassaviy  
ayn. – aynan  
A.O'. – Avaz O'tar  
B. – Bobur  
B.B. – Badoyi' ul-bidoya  
Bn. – Boburnoma  
B.V. – Badoye' ul-vasat  
D.L.T. – Devonu lug'otit-turk  
F. – Furqat  
f.-a. – forscha-arabcha  
Faz. – Fazliy Namangoniy  
Fit. – Fitrat  
F.K. – Favoyid ul-kibar  
Fuz. – Fuzuliy  
F.Sh. – Farhod va Shirin  
G. – Gulxaniy  
H. – Hamza  
h. – hindcha  
H.A. – Hayrat ul-abror  
H.G. – Haft gulshan  
H.H. – Hibat ul-haqoyiq  
H.P.M. – Holoti Pahlavon  
Muhammad  
H.S.H.A. – Holoti Sayyid Hasan  
Ardasher  
K. – Muhammadniyoz Komil  
ko'm. – ko'makchi  
L. – Lutfiy  
lat. – latincha  
L.M. – Layli va Majnun  
L.T. – Lison ut-tayr  
M. – Muqimiy  
m. – mo'g'ulcha  
Mash. – Mashrab  
Max. – Maxmur  
M.L. – Muhokamat ul-lug'atayn  
Mn. – Muhabbatnoma  
M.N. – Majolis un-nafois  
M.Q. – Mahbub ul-qulub  
M.U. – Mirzo Ulug'bek(shoir  
Muhammad Solihning o'g'li)  
Mu. – Munis  
Mun. – Munshaot  
M.S. – Muhammad Solih  
N. – Nodira  
N.M. – Nasoyim ul-muhabbat  
N.N. – Navodir un-nihoya  
N.Sh. – Navodir ush-shabob  
N.J. – Nazm ul-javohir  
Og. – Ogahiy  
Q.B. – Qutadg'u bilig  
qo'sh. – qo'shiq  
R. – Rabg'uziy  
r. – ruscha  
S. – Sakkokiy  
s. – so'g'dcha  
S.I. – Saddi Iskandariy  
S.Sar. – Sayfi Saroyi  
S.S. – Sab'ai sayyor  
sur. – suryoniycha  
T.A.H. – Tarixi avliyo va hukamo  
tat. – tatarcha  
T.M.A. – Tarixi muluki Ajam  
T.F. – Turdi Farog'iy  
To'n. – To'nyuquq bitigtoshi  
und.s. – undov so'z  
V. – Vaqfiya  
y. – yunoncha  
yukl. – yuklama  
X. – Xoja  
x.-f. – xitoycha-forscha  
X.M. – Xamsat ul-mutahayyirin  
X.Q. – Xalq qo'shiqlari  
Z. – Zavqiy  
O'.E.O. – O'rxun-Enasoy obidalar  
G'.S. – G'aroyib us-sig'ar  
Shn. – Shayboniynoma  
Zm. – Zarbulmasal

## Aa

- ABAD** *a.* Abadiy, mangu.  
*Bizga kim bo'lg'usidur anda madad,  
Qolgumiz qal'ada mahbus abad. (Shn.)*
- ABAS** *a.* Foydasiz, bekor, behuda.  
*Erkan abas o'z elidin do'stdorlig',  
Yaxshi kunumda har kishikim qildi yorlig',  
Do'ngach zamona, ayladi dushman shiorlig'. (K.)*
- ABR** *f.* Bulut. **Abri ehson** Ehson buluti.  
*Shoh Bahrom abri ehsoni,  
Lutf bila ko'kartti oni. (S.S.)*  
**Abri nayson** Bahorgi bulut, bahor buluti.  
*Subhidam tushub shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,  
Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar. (F.)*
- ABROR** *a.* Yaxshi kishilar, pok insonlar, yaxshilar.  
**Hayrat ul-abror** Yaxshilarning hayrati.  
*Hayrati abror ko'rub zotini  
«Hayrat ul-abror» dedim otini. (H.A.)*
- ABRO'** *f.* Qosh.  
*Ey ko'ngul, qasri asosi tan buzulmasdin burun,  
Toqi abro', kursiyi dandon to'kulmasdin burun. (T.F.)*
- ABUSHQA** Keksa, qari, chol.  
*Bir kun bir qari abushqa o'g'lonini yetaklab,  
Nuhqa keldi. (R.)*
- ABVOB** *a.* (birligi **bob**) Eshiklar.  
*Ochibon elga sitam abvobini  
Qilg'ali paydo tarab asbobini. (H.A.)*
- ABYOT** *a.* (birligi **bayt**) Baytlar, she'rlar.  
*Turki abyoti erur sharbati nob,  
Forsiy she'rlari ham serob. (Shn.)*
- ADAD** *a.* Son, sanoq.  
*To'rt yuz erdi barchasig'a adad  
Har biri ojizi hakimi xirad. (S.S.)*
- ADADSIZ** Son-sanoqsiz, cheksiz.  
*Bo'lub shul asr hikmat ahli hadsiz,  
Fatonat ahli donishmand adadsiz. (F.)*
- ADAM** *a.* Mavjud emaslik, yo'qlik.  
*Og'zim so'zin aylagach takallum,  
Bo'lurmu ekin adam aro gum? (L.M.)*

- Adam o'lmoq** Yo'q bo'lmoq.  
*Tun-kun yuqu g'aflatda bo'lub ayladuk odat,  
 Shul uchun adam o'ldi, mana bizlarda diyonat. (H.)*
- ADAMVOR** a. -f. Yo'qday, yo'q kabi.  
**Adamvor aylamak** Yo'q etmoq.  
*Alarni davri charx aylab adamvor,  
 Mening jismimni xud tufroqqa hamvor. (F.Sh.)*
- ADIL** a. O'xshash, monand, teng.  
*So'zni aylab alar so'ziga adil,  
 Balki tag'yir etib berib tabdil. (S.I.)*
- ADIM** a. Yo'q, bo'lmagan.  
**Misli adim** O'xshashi yo'q, tengi yo'q.  
*Erur sunnatullohi rasmi qadim,  
 Bilurda sening dag'i misling adim. (S.I.)*
- ADIN** Boshqa, bo'lak, tashqari.  
*Adin ma bu besh neng yiraq tutg'u beg  
 Ati edgu bo'lsa ku jav bulg'u beg. (Q.B.)*
- ADIRMAQ** Ajratmoq, ajratib olmoq, tanlamoq.  
*Tugal o'n sekiz ayda aydim bu so'z,  
 O'durdum, adirdim so'z evdib tera. (Q.B.)*
- ADIZ** Baland, yuksak.  
*Kan'on aydi: «Men adiz tog'larg'a  
 sig'ing'aymen». (R.)  
 Dunyoda qayu tog' adiz ersa, aning ustunda qirg  
 qari suv erdi. (R.)*
- ADL** a. Adolat, odillik.  
 Adl eshigin elga kushod ayladi,  
 Taxt uza o'lturdi-yu dod ayladi. (H.A.)  
**Adl bobini qurmoq** Adolat o'rnatmoq.  
*Shohlig' uldurki, aning hukmi so'zi bir kerak,  
 Adl bobini qurub, rostnishon tir kerak. (T.F.)*  
**Adl qilmoq** Adolat qilmoq, odillik bilan ish yuritmoq.  
*Bo'lmag'il hech nafs g'aflat ila,  
 Adl qil, yo'q esa bo'l ishrat ila. (F.K.)*  
**Adl so'zuni tuzmak** Adolat o'rnatmoq.  
*Zulm torini ul sifat uzmish,  
 Adl so'zuni ul sifat tuzmish. (S.S.)*
- ADO** a. Bajarish, o'tash.  
*Shah dedi: «Shar' etsa bu yanglig' ado,  
 Shar'i nabi hukmig'a jonim fido». (H.A.)*

- A'DO** *a.* (**birligi aduv**) Dushmanlar, yovlar, g'animlar.  
*Temurbiy qayon bordi turmay ravon*  
*Ki, a'do aro solmish erdi qiron.* (Og.)
- ADOLAT** *a.* Odillik va xolislik bilan ish yuritish,  
haqqoniylik, haqqoniyat.  
*Tuzdi buzug'larni imorat bila,*  
*Zulmni daf' etdi adolat bila.* (H.A.)  
**Adolat jahoni** Odillik dunyosi.  
*Asolat sipehrida raxshanda mehr,*  
*Adolat jahonig'a oliy sipehr.* (S.I.)  
**Adolat partavi** Adolat nuri.  
*Adolat ayni partavidin zulm zulumotin iturmak.* (N.J.)  
**Adolat tariqi** Odillik qonuni, adolat yo'l-yo'rig'i.  
*Bu qonundin ar bo'lsa ish muxtalif,*  
*Adolat tariqi bo'lur munharif.* (S.I.)
- ADOQ I** Oyoq.  
*Boshim doyim adoqingqa yarashur.* (Mn.)
- ADOQ II** Chorjo'y bilan Xorazm o'rtasidagi bir joy.  
*Yuz, ikki yuzcha kishi birla qazoq,*  
*Gah yeri Xorazm edi, gohi Adoq.* (H.A.)
- ADOVAT** *a.* Dushmanlik, o'zaro nizo.  
**Adovat ko'rguzmak** Qarshilik qilmoq.  
*Buxl aylasa nafsingg'a adovat ko'rguz,*  
*Har nimaki topilsa, saxovat ko'rguz.* (N.J.)
- ADRUQ** Farq, tafovut, ayirma.  
*Yag'i qilmag'usun qilinchi qilur,*  
*Yag'i bu yag'idin ne bar adruqi.* (Q.B.)
- ADUV** *a.* Dushman, g'anim, yov.  
*Ayo sohibqironi kim uzarlar,*  
*Qilichingdin aduvlar, qon ichinda.* (Mn.)  
*Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,*  
*Seni aduv domidin aylay xalos.* (S.S.)
- AFANDI** *yun.* Hurmatli kishi; sohib, ega, xo'jayin.  
*Gerak o'ldur, gerak qo'y, hukm-hukmung, roy-royingdur,*  
*Ko'zum, jonim, afandim, sevdigim, davlatli sultonim.* (Fuz.)
- AFGANDA** *f.* Ojiz, kuchsiz, quvvatsiz.  
*Jahon shohlarin aylamish bandasi,*  
*Zabardastlar bo'lmish afgandasi.* (S.I.)

**Afgandai bee'tibor** Kamtarlik yuzasidan «men» olmoshi o'rnida ishlatiladi.

*Bandai xoksor agarchi tufrog'din o'ksuk erdim, ammo ul quyosh tarbiyati bilan rango-rang gullar ochtim va bu afgandai bee'tibor agarchi zarradin kamrak erdim...* (M.L.)

**AFGOR** f. 1. Yaralangan, majruh.

*Tayoq a'zosin andoq afgor qildikim...* (M.Q.)

2. O'rtangan, g'amli, anduhli.

*Oh, gulruxsora jonon, xordurman ishqida,  
Dil aro qon, siynasi afgordurman ishqida.* (U.)

**AFLOK** a. (birligi **falak**) Falaklar, osmon, koinot.

*Yig'labon bo'ldi asru ko'p g'amnok,*

*Bu sitamdinki ayladi aflok.* (S.S.)

**Yetti aflok** Yetti qavat osmon.

*Yetti afloku sakkiz jannat makonni naylayin?*

*Bul sababdin, do'stlar, ko'ngulga yog'du kelmadi.* (Mash.)

**AFSONA** a. 1. Gap, so'z, xabar.

*Ul eshitgach bu nav'i afsona,*

*Tengriga sajda qildi shukrona.* (S.S.)

2. Haqiqatdan uzoq gap, uydurma, yolg'on.

*Emas afsona, chin ushbu bitilmish,*

*Bu chin afsonatek ishqda yetilmish.* (S.Sar.)

3. El orasida ko'p gapirilgan, og'izga tushgan narsa yoki shaxs; doston.

*Xirad birla jahon afsonasi men,*

*Vale zanjiringiz devonasi men.* (Mn.)

**Afsonai ishq** Sevgi-muhabbat haqidagi gaplar, ishq afsonasi.

*So'zi bori bo'lub afsonai ishq,*

*Maqomu maskani koshonai ishq.* (F.Sh.)

**Afsonai dard** Ishq afsonasi, ishqiy asar, alamli qissa.

*Chu avvalg'i fasihi Ganjaparvard,*

*Raqamzad qildi bu afsonai dard.* (F.Sh.)

**AFSUN** a. Avrash, hiyla, nayrang.

*Sher ko'p afsun bila chun qildi jahd,*

*Sidq ila durroj dag'i qildi ahd.* (H.A.)

**AFSUNGAR** a. -f. Sehrgar, jodugar.

*Zahr ila yashil bo'lubon paykari,*

*Bulbul aning boshida afsungari.* (H.A.)



- AFSUNSOZ** *a. -f.* Mohir soʻz ustasi, mohir dostonchi.  
*Boʻlubon soʻz demakka afsunsoz,*  
*Qildi andoq sanou madh ogʻoz. (S.S.)*
- AFSURDA** *f.* Ruhi tushgan, ruhsiz, ezilgan, tushkun, gʻamli.  
*Hasratingda afsurdaman,*  
*Furqatingda ozurdaman. (M.A.)*
- AFTODA** *f.* Notavon; zaif; bechora.  
*Xonavayronlar bilur aftodalarning holini,*  
*Eyki, mahram boʻlmasang, chashmi tarimni kavlama.*  
 (Mash.)
- AFV** *a.* Kechirish, gunohidan oʻtish.  
*Afvin aning tutmasang ummid sen,*  
*Bilki tamugʻ oʻtida jovid sen. (H.A.)*  
**Afv etmak** Kechirmoq, gunohidan oʻtmoq.  
*Mendin agar boʻldi ayon iztirob,*  
*Lutfila afv etki, men oʻldum xarob. (S.S.)*
- AFVOJ** *a. (birligi favj)* Guruhlar, toʻdalar.  
*Qabob kulbam aro qoʻymay chiqorgʻa sarsar afvoji,*  
*Mani mahrum qildi el bila borish-kelishdin qish. (Og.)*
- AFZOYISH** *f.* Oshirish, koʻpaytirish, orttirish.  
*Qadrigʻa bergach aning afzoyish,*  
*Koʻziga uyqu soldi osoyish. (S.S.)*
- AFZUN** *a.* 1. Koʻp, ziyoda, ortiq.  
*Telbalikdin, vahki, har dam dardim afzundur, agar*  
*Ul pari ishqida har dam dardim afzun boʻlmasa. (B.V.)*  
 2. Ustun, afzal, ortiq.  
*Soʻzung shirin, oʻzung Xusravdin afzun,*  
*Boʻlur Layli sening husnunggʻa Majnun. (Mn.)*
- AFGʻON** *f.* Figʻon, nola, yigʻi, faryod.  
*Pand eshitmas edi durroji mast,*  
*Kizbdin etmas edi afgʻonni past. (H.A.)*  
**Afgʻon chekmak** Figʻon qilmoq, faryod chekmoq.  
*Nolavu afgʻon chekibon tortib oh,*  
*Dediki: «Ey shohi shariatpanoh. (H.A.)*
- AFʻOL** *a. (birligi feʻl)* Feʻllar, feʻl-atvorlar, xarakterlar.  
*Shayboqxondin noshoyist harakot va afʻolekim, Hiriya*  
*sodir boʻldi. (Bn.)*
- AGAR** *f.* Agarda, gar, bordi-yu.  
*Bizing mazhabta oshiqlarni sizlar,*

*Agar o'ltursangiz tovon yo'q, ey jon. (Mn.)*

*Agar qarlug'och ul kuni oncha ezgulik qilmasa*

*erdi, qamuq odamiylar yilong'a yem bo'lg'ay erdilar. (R.)*

**AGARCHAND** f. Garchi.

*Agarchande ziyorat qilmadim men Ka'bai zohir,*

*Tariqat hojisidurmanki, Baytullog'a sig'mamdur. (Mash.)*

**AGARCHI** f. Garchi, garchand.

*Shaynda qoplondin agarchi fuzun,*

*Nafs itining ilgida lekin zabun. (H.A.)*

**AHBOB** a. (birligi **habib**) Do'stlar, o'rtoqlar.

*Ahbob yig'ilmoqni farog'at tutungiz,*

*Jamiyatingiz borini davlat tutungiz. (B.)*

**Ahbob muloqoti** Do'stlar suhbat.

*Yo'q bodai vasl, obi hayvon ul emish,*

*Ahbob muloqoti dema jon ul emish. (G'.S.)*

**AHD I** a. Zamon, davr.

*Ahdg'a bu holu ammo Xizravi ahd,*

*Aning daf'ig'a aylar sa'y ila jahd. (F.Sh.)*

**AHD II** a. Qat'iy va'da, so'z berish, so'z.

*Ayo nomehribon ahdi baqosiz,*

*Jahon yeltek, umr gultek vafosiz. (Mn.)*

**Ahdi mahkam** So'zida qat'iy turuvchi.

*Bo'lmas emish dilrabolar ahdi mahkam, ey rafiq,*

*Gar kishi derkim bo'lur, tutma musallam ey rafiq. (G'.S.)*

**Ahdi yolg'on** Va'daboz, aldamchi, va'dasi yolg'on.

*Va'dai vaslig'a yetmay o'lganimni, ey rafiq,*

*Qilg'aysen, har yerda ko'rsang ahdi yolg'onimg'a arz. (G'.S.)*

**AHIBBO** a. (birligi **habib**) Do'stlar, o'rtoqlar, jo'ralar.

*Boshi uza jam o'lub ahibbo,*

*Hozir qilur erdilar atibbo. (L.M.)*

**AHL** a. 1. Odamlar, kishilar, xalq.

**Ahli adab** Odobli kishilar.

*Topmog'lig' ani ahli adabni o'rtar,*

*Totmog'lig' ani xud ikki labni o'rtar. (N.J.)*

**Ahli davlat** Badavlat kishilar, boylar.

*Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dargo'sh edim.*

*Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdo'sh edim. (T.F.)*

2. Bir dinga, bir mazhabga mansub kishilar, ummat.

*O'g'li Kan'onni kivurayin tesa yorlig' keldi:*

«Kivurmagil, kofir turur». Aydi: «Ilohiy, ahlingni kivur teb sen ayding». Yorlig' keldi: «Ul sening ahling emas.» (R.)

**Ahli ayol** Oila, bola-chaqa.

*Ahli ayol, qarindosh hech kim bo'lmaydur yo'ldosh, Mardona bo'l, garib-bosh umrung yeldek o'taro.* (A.Y.)

**Ahli donish** Bilimli kishilar, bilimdonlar.

*Ahli donish birla har dam aylangiz bazmi kitob, Jam'i nodonlar bila izhori ulfat qilmangiz.* (Mu.)

**Ahli diyor** Mamlakat kishilari, yurt ahli.

*O'tru chiqorib ahli diyorimni mening, Ko'yida qo'yung tani nazorimni mening.* (G'.S.)

**Ahli funun** Ilm ahli, olimlar, hunar egalari.

*Tab'i har fanda chun muloyim o'lub, Anga ahli funun mulozim o'lub.* (S.S.)

**Ahli gunoh** Gunohkorlar.

*Zulfining har halqasida bir shikandur o'ylakim, Habs zanjirida har tav' ichra bir ahli gunoh.* (N.Sh.)

**Ahli hol** Tasavvuf ahli, so'fiylar.

*Nay tuz uchun istar ani ahli hol, Chun tuz emas, egri ko'rar go'shmoil.* (H.A.)

**Ahli jahon** Barcha odamlar, butun insoniyat.

*Yaxshilig' ahli jahondin istama Bobur kibi, Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'.* (B.)

**Ahli olam** Olam ahli, butun insoniyat, barcha odamlar.

*Davlatning borida bordur ahli olam oshno, Qaytg'ach davlat, jahonda topilur kam oshno.* (Mu.)

**Ahli maoniy** Bilimdonlar, bilag'onlar.

*Nazmki ma'ni anga marg'ub emas, Ahli maoniy qoshida xo'b emas.* (H.A.)

**Ro'zgor ahli** Zamon kishilari.

*Shukr shahdin bilmadim kufroni ne'mat ayladim, Zaxmi nishi ro'zgor ahlini talxi tundiman.* (T.F.)

**Safar ahli** Safarga chiqqan kishilar.

*To safar ahli ko'pi o'ldi talaf, Tushti har bir kema bir o'zga taraf* (S.S.)

**Ahli vuquf** Voqif kishilar, biluvchilar.

*Yo'lda bir vodiy edi asru maxuf, Qilmayin andin murur ahli vuquf.* (S.S.)

**Yaman ahli** Yamanliklar, Yaman xalqi.

*Andoq etsangki, bahrdin qutulub,  
Yaman ahli sori ravona bo'lub. (S.S.)*

**AHODIS** *a.* (birligi hadis) 1. Payg'ambar so'zlari. 2. Gap-so'zlar.

*O'shning fazilatida xeyli ahodis vorid bo'lubtur. (Bn.)*

**AHMAR** *a.* Qip-qizil, qizil.

*Ey yuzi husnu jamol bog'ining ahmar guli,  
Jon ila ko'nglum erur ushbu guling bulbuli. (K.)*

**AHSAN** *a.* Eng yaxshi, eng go'zal.

*Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,  
Yuz ul fanliq aro har qaysi yakfan. (F.Sh.)*

**AHSANTA** *a.* Ofarin, balli, barakalla.

*Dedi: ahsanta muxbiri sodiq,  
Siddiq aro kimga kim desang foyiq. (S.S)*

**AHVOL** *a.* (birligi hol) Kayfiyat, holat.

*Rost yarim tunga degin hol bu,  
Ham sanga, ham xaylinga ahvol bu. (H.A.)  
Ayayin emdi bir qit'a eshitgil,  
Nechukmen holu ahvolimni bilgil. (Mn.)*

**AHZON** *a.* G'amlar, qayg'ular.

**Kulbai ahzon** G'am uyi, g'amxona.  
*Kulbai ahzonima bo'lsang agar mehmon,  
Komili mahzuninga rostini etgil bayon. (K.)*

**AJAB** *a.* Ajablanarli, g'alati, qiziq, g'aroyib.

*Ikki muhlik ajab g'am o'ldi anga,  
Motam ustiga motam o'ldi anga. (S.S.)*

**AJAL** *a.* Kishining qazosi yetgan payt, o'lim.

*Kim ush yeltekk kechar ayyomi foniy,  
Ajaldin hech kishining yo'q amoni. (Mn.)*

**AJAM** *a.* Arablardan boshqa xalqlar, ko'pincha forslar.

*Arab va ajamning otasi Som turur. (R.)*

**AJAMIY** *a.* Go'l, sodda.

**Ajamiy aylamak** O'zini go'llikka solmoq, atayin  
o'zini nodon ko'rsatmoq.  
*Kim ajamiy aylab o'zni yona,  
Bu nav' surar labing fasona. (L.M.)*

**AJDAHOKUSH** *f.* Ajdar o'ldiruvchi; jasur, botir.

*Dimog'imdin olib bir jom ila hush,  
Meni qil devbandu ajdahokush. (F.Sh.)*

**AJDAROSO** *f.* Ajdar kabi, ajdarhodek.

*Yo'q-yo'qki, shubonliq ichra Muso,  
Ilgingda aso ham ajdaroso. (L.M.)*

**AJIB** *a.* Hayron qolarli, hayratga soladigan.

*Yo'l necha tuz, yo'lchig'a maqsad qarib,  
Xamlig'idin tushsa yiroq yo'q ajib. (H.A)*

**A.ILOF** *a.* (*birligi jilf*) Go'llar, bilimsizlar, johillar.

*Turk elida ajlof va sodda el sarddin ziyodadur. (M.L.)*

**AJMAL** *a.* Eng go'zal, eng chiroyli, eng yaxshi.

*Qayu mazharki ajmal kelsa mavsuf.  
Ajab yo'q anda ko'prak bo'lsa mash'uf. (F.Sh.)*

**AJUN** Dunyo, olam, jahon.

*Kiming himmati bo'lmasa ul o'lug  
Ekagun ajunda bu bulmas ulug. (Q.B.)  
Ajun tutg'uchi Jahonni zabt etuvchi, jahongir.  
O'yunqa avinsa ajun tutg'uchi,  
Elin buzdi bo'ldi o'zi qultg'uchi. (Q.B.)*

**AJUNCHI** Jahonni zabt etuvchi, jahongir; podsho, hukmdor.

*Ajunchi bo'gu beg nelug ganch urur,  
Erat qayda bo'lsa anug ganch urur. (Q.B.)*

**AJZ** *a.* Ojizlik, kuchsizlik, zaiflik.

*Necha izhori ajz qildi Suhayl,  
Qilmadi kinavar javobig'a mayl. (S.S.)*

**AJZO** *a.* Butunning qismlari, bo'laklar, parchalar.

*Surub hay'at sori chun fikrati raxsh,  
Sipehr ajzosin aylab jav-bajav paxsh. (F.Sh.)*

**AKBAR** *a.* Ulug', buyuk.

*Jahon bo'ldi jamolingdin munavvar,  
Zihi husnu jamol allohu akbar. (Mn.)*

**AKMAL** *a.* Eng mukammal, eng yetuk.

*Ulumu fanda Aflotundin afzal,  
Kamolu aqlu donish bir akmal. (F.)*


**AKNUN** *f.* Hozir, shu on, endi

*Meni badbaxt to zarbulmasal bo'ldum tabibliqta,  
Jahon voricha aknun ko'p haqoratlarga boydaman. (Max.)*

**AKOBIR** *a.* (*birligi akbar*) Ulug'lar, buyuklar, martabali kishilar.

*Akobirki mulk ichra mavjud edi,  
Kim ul xayl mulk ichra maqsud edi. (S.I.)*

~~922647~~



- AKRAM** *a.* Eng saxiy, o'ta himmatli; xudoning sifatlaridan biri.  
**Akram ul-akramin** Saxiylarning saxiyi, o'ta saxiy; xudo yoki payg'ambarning sifati.  
*Chu sen mukrim ahli karamdur sabab,  
 Desam akramul-akramin ne ajab.* (S.I.)
- AKS** *a.* 1. Biror narsaning silliq sathdagi ko'rinishi.  
*Quyosh aksi yuzungdin roh ichinda,  
 Seningtek yo'q chechak uchmox ichinda.* (Mn.)  
 2. Insonning ko'zgudagi tasviri.  
*Birovkim aks ko'rgach hushi ketsa,  
 O'zin ko'rgach ne tong, jon tarkin etsa.* (F.Sh.)
- AL** **Qo'l.**  
*Neku ter eshitgil urub yegli er,  
 Urub al, ey alp er, yana erka ber.* (Q.B.)  
*Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur,  
 Ki aning chiqsa egni, sinsa ali.* (A.N. Qit.)  
**Aldin chiqarmoq** Qo'ldan chiqarmoq, yo'qotmoq.  
*Garchi mumkin yo'q vale bir qatla kirsang ilgima,  
 Borsa bosh, aldin chiqarmoq o'zga ne imkon seni.* (B.B.)
- ALAK** Paxtadan to'qilgan gazlama; silliq bo'z.  
*Chit birla bir yerda alak,  
 Bozori toru tang ekan.* (M.)
- ALAM I** *a.* Ruhiiy qiynoq, dard, dard-hasrat, iztirob.  
*O'nginda tushdakin ko'rganda u shod,  
 Alam toshi sinib, dil bo'ldi ozod.* (S.Sar.)  
*Ul alam garchi soldi boshima dud,  
 Bildim o'rtanmagimda yo'qtur sud.* (S.S.)
- ALAM II** *a.* Bayroq, tug'.  
**Alam qilmoq** Bayroq qilmoq.  
*Mast agar o'lsam asog'a bog'labon zunnorni,  
 Qil alam ko'yung aro aylab mazor, ey mug'bacha.* (N.Sh.)
- AL'AMON** *a.* Qutqarish, ogohlantirish, iltijo bildiruvchi undov so'z.  
*Tag'i bular yaxshiyu, bizlar yomon,  
 El tamizidin hazar et, al'amon.* (M.)
- ALAMPARVARD** *a.f.* Dardli, g'amli, hasratli.  
*Dedikim: Ey ulusta nodiru fard,  
 Bo'lmasun xotiring alamparvard.* (S.S.)
- ALAMSANJ** *a.-f.* G'amli, g'amnok, azoblanuvchi.  
*Ko'p bo'ldi sening uchun alamsanj,  
 Ko'ngliga ishingda yoqti ko'p ranj.* (L.M.)

- ALAR** 3-shaxs kishilik olmoshining ko'pligi, ular.  
*Alar uzra to'kildi, ko'mdi tuproq,*  
*Bu sirni tanho sahro bildi ko'proq. (S.Sar.)*
- ALAST** «Emasmanmi?» Xudoning azalda ruhlarni yaratgandan keyin ularga «Alastu birabbikim» degan xitobiga ishora.  
**Subhi alast** Azal tongi, azal.  
*Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast,*  
*Aning nash'asidin ko'ngul erdi mast. (G'.S.)*
- ALAYHISSALOM** *a.* (unga tinchlik bo'lsin) Payg'ambar nomiga qo'shib aytiladigan so'z.  
*Bir kun Nuh alayhissalom uziyur erdi, yel esandi. (R.)*
- ALD** Tag, tub, ost.  
*Kemi uch qat erdi, aldida yilqi-qaralar erdi,*  
*o'rtada Nuh qavmi birla, ustunda qush-qurtlar erdi. (R.)*
- ALF** *a.* Ming (1000).  
*Kitobatda birdektur alfu alif,*  
*Hisob ichradurlar base muxtalif. (S.I.)*
- ALFOZ** *a.* (birligi **lafz**) So'zlar; so'z.  
*Vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mafhum*  
*bo'lmaydur. (Bn.)*
- ALHAMDULILLO** *a.* Xudoga shukur, allohga shukur.  
*Alhamdulillah, bexatar,*  
*Keldim Muqim aylab safar. (M.)*
- ALHON** *a.* (birligi **lahn**) Yoqimli ovozlar, ovozlar; xonishlar.  
*Mug'anniylarg'a bulbullar bikin zor,*  
*Hazonon nav'i alhon vaqti bo'ldi. (A.)*
- ALIF** *a.* Eski o'zbek (arab) alifbosining birinchi harfi.  
*Tuzluk ila chun «alif» urdi salo,*  
*Ko'rki, ani ostig'a olmish balo. (H.A.)*  
*Jonimdag'i «jim» iki dolingg'a fido,*  
*Andin so'ng «alif» toza niholingg'a fido. (A.N. Rub.)*
- ALIG** Qo'l.  
*Yumushta erat bo'lsa kuchlug alig,*  
*Yuritsa to'ru tuz yetursa bilig. (Q.B.)*
- ALIL** *a.* Illatli, xasta, kasal.  
*Dami alillarg'a davo va xastalarg'a shifo. (M.Q.)*
- ALINGLANMAQ** Alanganmoq, o't olmoq.  
*Alinglansa tutnub, g'azab, inad o'ti,*  
*Halimlig suvin sach, ul o'tni o'chur. (H.H.)*

- ALMAQ** Qo'lga kiritmoq, olmoq.  
*Qilich baldu bu el saqchisi*  
*Qilichin alir beg budun bashchisi. (Q.B.)*
- ALIM** a. Alamli, og'ir, azob-uqubatli.  
*Tan xok esa xasmdin, salim angla ani,*  
*Zarbeki habib urar, alim angla ani. (N.J.)*
- ALIN** Peshona, manglay.  
*Achuq tut yuzungni yaruq tut alin.(Q.B.)*
- ALLO** a. ayn. Alloh.  
*Shukurlar etayin allog'a ming bor,*  
*Ki yetkurdi manga sentek gunash yor. (S.Sar.)*
- ALLOH** a. Xudo, tangri.  
*Jahon bo'ldi jamolingdin munavvar,*  
*Zihi husnu jamol allohu akbar. (Mn.)*
- ALLOH-ALLOH** Hayrat, taajjub bildiradigan undov.  
*Alloh-alloh, bu ne so'z o'lg'ay,*  
*Ul qavmg'a tengri uzr qo'lg'ay. (L.M.)*
- ALLOMA** a. (birligi **olim**) Ulkan olim, ilmli kishi, bilimdon, donishmand.  
*Men ne bo'lg'umkim, agar allomalar,*  
*Sursa yillar vasfing ichra xomalar. (L.T.)*
- ALO** a. Ey! Hoy! Ogoh bo'!! Eshit!  
*Alo, to quyosh zarfishon o'lg'usi,*  
*Sahob ilgi gavharfishon o'lg'usi. (S.I.)*
- A'LO** a. Oliy, yuksak.  
*Agar bersa suyurg'ab haq taolo,*  
*Kerakmas sensizin firdavsi a'lo. (Mn.)*
- ALOLO** a. To's-to'polon, shovqin-suron, qiy-chuv, g'avg'o.  
*Bazmda ul lahza aloloni ko'r,*  
*Ko'yi xarobot aro g'avg'oni ko'r. (H.A.)*
- ALOMAT** a. Biror voqea, vaziyat, holat kabilardan darak beruvchi belgi, nishona.  
*Unda alomati balog'at zohir bo'lub, ko'zi suzulub ovozi buzulub, onasining to'g'ri so'zlariga egri so'zlay boshladi. (Zm.)*
- ALOQA** a. Salla pechi.  
*Ul zamonlar dastorlar tamom chorpech edi, bechin chirmah,*  
*aloqa qo'yar edilar. (Bn.)*
- ALOXON: Aloxonu alomon** Uy-joysiz, xonumonsiz, xonavayron, talangan, bechora, faqir.



*Xonumondin ayirib qilg'anda zindon ichra hibs,  
Qilma lutfung men aloxonu alomondin judo. (B.V.)*

**AI.QOB** *a. (birligi laqab)* Laqablar, taxalluslar.

*Nozim o'lub so'z durri serobig'a,  
Charx Nizomiy yozib alqobig'a. (H.A.)*

**AI.TOF** *a. (birligi lutf)* Lutflar, lutf, iltifot, marhamat.

*Shah altofini chun ko'rub beqiyos,  
Qo'pub royi Hind ayladi iltimos. (S.I.)*

**AI.CHAQ** Muloyim, xushmuomala, kamtar.

*Beg alchaq kerak bo'lsa qutqi ko'ngul,  
Muni teg yo'q ersa sen andin to'ngul. (Q.B.)*

**AMAL** *a. 1.* Qilinadigan, amalga oshiriladigan ish, faoliyat, harakat.

**Amali xayr** Yaxshi ish, xayrli ish.

*Ne amali xayr senga dastgir,  
Ne sitaming ko'rguchi po'zishpazir. (H.A.)*

*2. Kuy, ohang.*

*Mavloni Sohib Balxiy... o'z g'azallarini o'z amallarig'a  
bog'labdur. (M.N.)*

**AMIN** *a.* Sadoqatli, ishonchli.

*Dediki: Mendin sanga yo'q qasdu kin,  
Emin o'lu bil meni dog'i amin. (H.A.)*

**AMIQ** *a.* Chuqur, teran.

*Ul su to'ldiyu bahr erdi amiq,  
Kemayu kema ahli bo'ldi g'ariq. (S.S.)*

**AMIR** *a.* Amr qiluvchi, podshoh, hukmdor.

*Hukmin surubon amirlardek,  
Laylini chekib asirlardek. (L.M.)*

**AMIR UL-UMARO** *a.* Amirlarning amiri (Podshoh saroyidagi bir lavozim).

*Mir Husayn Ali Jaloyir ... Ali Jaloyirning o'g'lidurkim, otasi  
Yodgor*

*Mirzo eshigida amir ul-umaro va sonib ixtiyor erdi. (M.N.)*

**AMIRZODA** *a.-f.* Amirning o'g'li, podshoning o'g'li, shahzoda.

*Ul yerda bog' yasarg'a amorat siytin solg'an amirzodalar,  
balki saltanat ko'sin cholg'an shahzodalar. (V.)*

**AMLOK** *a. (birligi mulk)* Mulklar, yerlar, ko'chmas mulk.

*Hama avqofni sadr amlok etib,  
Vale ko'pragin may uchun tok etib. (G'.S.)*

- AMMA** *a.* Otaning singli yoki opasi.  
*Ham yana Erhubbi bo'ladur tag'o,*  
*Ammamizning erlaridur Nurato. (M.)*
- AMMO** *a.* Lekin, biroq.  
*Ammo Boyo'g'lining bir qizi bor erdiki, mehri xovariy yuziga*  
*banda erdi. (Zm.)*  
*Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,*  
*Kelturan amvojq'a bahri talotum Turdiman. (T.F.)*
- AMN** *a.* Tinchlik, omonlik.  
*Bu bazm ichra ne amnu ayshkim, har davr ayog'inda,*  
*Yiqar bir notavonni gunbazi davvor har soat. (F.K.)*  
**Amnu amon**Tinchlik.  
*Shoh uldurki, raiyyatqa tarahhum qilsa,*  
*Yo'q esa, qoidai amn-u amon, barcha abas. (N.)*
- AMNIYAT** *a.* Tinchlik, omonlik, xotirjamlik.  
*Mulk aro chun ki bo'ldi amniyat,*  
*Yuzlanur mulk eliga jam'iyat. (S.S.)*
- A'MO** *a.* Ko'zi ko'rmaydigan, ko'zi ojiz, ko'r.  
*Ne bilur qadringizni tekma nodon,*  
*Guhar qadrini a'mo bilmas, ey jon. (Mn.)*
- A'MOL** *a.* (birligi **amal**) Ishlar; ish, faoliyat.  
*Chun hasham-u xayldin ayrilg'asen,*  
*Deki, bu a'mol ila ne qilg'asen. (H.A.)*
- AMOMA** *a.* Salla.  
*Boshig'a qo'ydilar amoma dag'i,*  
*Anda sandal nasim shamoma dag'i. (S.S.)*
- AMON** *a.* Xavfsiz, xatarsiz, eson-omon.  
*Kim ush yeltek kechar ayyomi foni,*  
*Ajaldin hech kishining yo'q amoni. (Mn.)*  
*Hayot uyiga marg solib xalal,*  
*Amon raxnasi mahkam aylab ajal. (S.I.)*
- AMORAT** *a.* Amirlik. **Amorat siyti** Amirlik shon-shuhrati.  
*Ul yerda bog' yasarg'a amorat siytin solg'an amirzodalar,*  
*balki saltanat ko'sin cholg'an shahzodalar. (V.)*
- AMR** *a.* 1. Buyruq, farmon.  
*Qabzai hukmida, jahon kishvari,*  
*Amrig'a inson kibi devu pari. (H.A.)*  
 2. Ish, yumush.  
*Men edim ul amrda beixtiyor,*

*Har ne sen etsang manga ne ixtiyor. (H.A.)*

**Amr qilmoq** Buyruq bermoq, buyurmoq

*Amr qilibdur necha xizmat sanga,*

*Ro'zi etibdur necha san'at sanga. (H.A.)*

**AMTOR** a. Yomg'irlar; yomg'ir.

*Tutulg'ach erur fayzi amtor anga,*

*Havoda bormu yana osor anga. (S.I.)*

**AMUL** Muloyim, xushmuomala, bosiq.

*Aqiliq kerak begka qisqi ko'ngul,*

*Bu qusqi ko'ngul birla qilqi amul. (Q.B.)*

**AMULLUQ** Bosiqliq, vazminlik, sipolik.

*O'ruglug amulluq bo'lur begka ko'rk*

*Bu beglik ichinda bu-ul bag'u o'rk. (Q.B.)*

**AMVOL** a. (birligi **mol**) Mollar, mol-mulk, mol-dunyo, boylik.

*Yuklabon necha jung aro amvol,*

*Anda mavjud har ne qilsa xayol. (S.S.)*

**AMVOJ** a. (birligi **mavj**) Mavjlar, to'lqinlar.

*Ochg'och jori bo'lub keldi qanotli qush kibi,*

*Kaf bila amvojdin go'yo chiqordi bol suv. (K.)*

**Amvojj'a kelturmak** To'lqinlantirmoq, mavjlantirmoq.

*Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,*

*Kelturan amvojj'a bahri talotum Turdiman. (T.F.)*

**ANBAR** a. Kitsimonlar tanasidan olingan xushbo'y modda.

*To gulshani jamoling ochar gul chaman-chaman,*

*Zulfi muanbaring sochar anbar suman-suman. (K.)*

**ANBIYO** a. (birligi **nabiy**) Payg'ambarlar.

**ANDA** 1. U kishida, unda.

*Shahni derlar sipoh birlan shoh,*

*Shoh emastur yo'q esa anda sipoh. (S.S.)*

2. U yerda.

*Yo'q erdi suv, yemakka anda o'tmak,*

*Agar bo'lg'anda ham aqchasi lak-lak. (S.Sar.)*

3. Shunda, shu payt.

*Anda yapaloqqush aydi: «Andin bizning nima kamligimiz bor».*

*Anda Ko'rqush aydi: «Borliqtin maqtanma». (Zm.)*

**ANDALIB** a. Bulbul.

*Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor?*

*Qaysi bulbulning seningdek bir guli bexori bor? (Mu.)*

**ANDAG'LUQ** Qimmatbaho, qimmatli.

*Andag'luq xil'atlar anga kizdurdi, oltun toj boshung'a urdi.*  
(R.)

**ANDAG'UQ** Shunday qilib.

*Andag'uq urug'lari hindular, habashiylar,  
zangilar qamug'i aning urug'i tururlar.* (R.)

**ANDESHA** f. 1. O'y, fikr, mulohaza.

*Saburdin yaxshi yo'qtur pasha qilsam,  
Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam.* (Mn.)

2. Xavf, hadiksirash, qo'rquv.

*Har kishikim, tuzluk erur peshasi,  
Kajrav esa charx, ne andeshasi.* (H.A.)

**ANDESHAVAR** f. Mulohazali, andishali.

*Chu Farhodg'a bo'ldum andeshavar,  
Tuz ettim base tog' bo'lub teshavar.* (S.I.)

**ANDIN** 1. U yerdan, u joydan, undan.

*Ul choh ichra qilurdi sokin,  
Chiqmoq andin emas edi mumkin.* (S.S.)

2. U kishidan, undan.

*O'ylakim bo'lmag'ay asar andin,  
Demagay hech kim xabar andin.* (S.S.)

**ANDOM** f. Tana a'zosi, mucha, uzv, organ.

*Nuh etagin ko'turdi, uvut andomi ochildi.* (R.)

**ANDOQ** Unday, undoq, u kabi, unaqa.

*Anga dog'i gardishi charxi barin,  
Saltanat ichra berib andoq nigin.* (H.A.)

**ANDOZA** f. Chek, chegara, had, me'yor.

*Bo'ldi ketgan azo yana toza,  
Qolmadi dardu g'amg'a andoza.* (S.S.)

**ANDOG'** Unday, undoq, u kabi.

*Roviylar andog' rivoyat qilurlarkim...* (Zm.)

**ANFOS** a. (birligi nafas) Nafaslar.

*Yiqib jismini anfosi shitobi,  
Teshib ko'ksini ko'ngli iztirobi.* (F.Sh.)

**Anfosi Masiho** Iso nafasi. Musulmonlar e'tiqodiga ko'ra  
Isoning nafasidan o'liklar tirilar ekan.

*Suvrati Yusuf, nigoro, sendadur,  
Doyim anfosi Masiho sendadur.* (L.)

**ANOSIR** a. (birligi unsur) Unsurlar, elementlar.

*Jismida anosiri murattab,  
Kim ayladi paykarin murakkab.*(L.M.)

**ANGA** 1. U kishiga, unga.

*Deyub anga Suhayl: Ne gul terursen?  
O'zung gulshanda ko'rkli gul erursen.* (S.Sar.)

2. U narsaga, unga.

*Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,  
Ahli maoniy qoshida xo'b emas.* (H.A.)

**ANGAR** Unga, u kishiga.

*So'zi chin kerak beg ne qilqi butun  
Inansa angar xalq tirilsa qutun.* (Q.B.)

**ANGLADIK** Anglasin, bilsin, tushunsin.

*Har kishikim, istasa, tuzlukka g'avr,  
Angladik anikim, erur ikki tavr.*(H.A.)

**ANGLAMOQ** 1. Biror narsaning mohiyatiga tushunmoq, uqmoq, fahmlamoq.

*Hoyu g'uludin bu nishoting kuni,  
Anglamayin kimsa muazzin uni.* (H.A.)

2. ... deb hisoblamoq, ... deb bilmoq.

*Boqmasa dehqon chamanin kun-u tun,  
Naxli tarin angla qurug'on o'tun.* (H.A.)

3. Xabardor bo'lmoq, voqif bo'lmoq, bilmoq.

*Bu navohida anglasam sizni,  
Qo'ymag'umdur tirik biringizni!* (S.S.)

**ANHOR** a. (birligi **nahr**) Daryolar, katta ariqlar.

*Tashqari bog'lar ichra anhor,  
Ichkari suvsiz ulus yig'lab zor.* (M.S.)

**ANI** 1. Uni, u kishini.

*Qayu erda bo'lsa uqush birla o'g  
Ani er atag'il necha o'gsa o'g.* (Q.B.)

2. U narsani, uni.

*Yilon aydi: Qayu et totlig' bo'lsa ani bergil.* (R.)

**ANIN** U bilan, uning vositasida.

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman  
Anin tutsa el kend ko'tursa tuman.* (Q.B.)

**ANING** 1. U kishining, uning.

*Nuh ani ko'rdi, aning so'zin eshitdi.* (R.)

2. U narsaning, uning.

*Ammo aning havosi xush va bodi dilkash.* (Zm.)

3. Uniki, o'shaniki.

*Bal haqiqat aro aningdur Mehr,  
Ki, bu mansuba zohir etti sipehr.* (S.S.)

*Aning bo'ldi dunyo bu ne'mat bila  
Tilasa o'zung ye, tilasa ula.* (Q.B.)

**Aning uchun** Shuning uchun.

*Burung'ilar aning uchun: «Evi birlan so'zlaganning qurboni  
bo'l» degan ekanlar.* (Zm.)

**Aning birla** – u bilan.

*Qila boshlab aning birla parxosh,  
Ishlari kema ichra bo'ldi savosh.* (S.S.)

**ANINGDA** Unda, u kishida.

*Qayu beg eratni sevundurmasa  
Qilich qinda chiqmas aningda basa.* (Q.B.)

**ANINGDEK** Unday, u kabi, unga o'xshash.

*Kim aningdek Suhaylu sayyora  
Charx zulmidin o'lg'ay ovora.* (S.S.)

**ANINGDEKKIM** Xuddi, kabi.

*Turubtur ko'zda qaddingiz xayoli,  
Aningdekkim suv uzra tol niholi.* (Mn.)

**ANINGDIN** Undan, u kishidan.

*Tugal beg bo'lur bu budunqa bashi  
Aningdin bulur edgu tekma kishi.* (Q.B.)

**ANINGTEKKIM** ayn. Aningdekkim.

*Suhayl ohidin shu dam qo'pti bo'ron,  
Aningtekkim, buzuldi charxi davron.* (S.Sar.)

**ANJUM** a. (birligi **najm**) Yulduzlar.

*Zolni anjum kibi siymi ravon,  
Zoli falaktek qilibon navjuvon.* (H.A.)

**Anjum sipoh** Qo'shinlari son-sanoqsiz bo'lgan, behisob qo'shinli.

*Tushti ayog'ig'a bo'lub uzrxoh,  
Dediki «Ey xisravi anjum sipoh.* (H.A.)

**ANJUMAN** f. Yig'ilish, yig'in, o'tirish, bazm.

*Jamoling vasfini qildim chamanda,  
Qizordi gul uyottin anjumanda.* (A.)

**Anjuman ahli** Yig'in qatnashchilari.

*Anjuman ahli yuzni gulgun qilali may birla,  
Mehrudin topquncha anjum gullari bir-bir shikast.* (G'.S.)

**Anjumani g'am** G'am yig'ini.

*Kim bu sifat anjumani g'am aro,*

*G'am demayin, majma'i motam aro. (H.A.)*

**ANJUMSHUNOS** *f.* Munajjim, astronom.

*Qilib hikmat ahli base iltimos,*

*Xususan Arastui anjumshunos. (S.I.)*

**ANIS** *a.* Do'st, o'rtoq, jo'ra, ulfat.

**Anis bo'lmoq** Ulfat bo'lmoq, do'st bo'lmoq.

*Qat' o'lub shah bazmig'a bo'lsaq anis,*

*Tuhfaye vojibdurur behad nafis. (L.T.)*

**Anisi jovidoniy** Abadiy do'st, mangu ulfat.

*Dedikim: ayo rafiqi joniy,*

*Yo'q, yo'qki anisi jovidoniy. (L.M.)*

**Anisi xilvat** Sirdosh do'st.

*O'ylakim eldin uzuldi ulfatim,*

*Ul kitob erdi anisi xilvatim. (L.T.)*

**ANQO** *a.* Go'yo Qof tog'ida yashagan afsonaviy qush.

**Adam anqosi** Yo'qlik, mavjud emaslik.

*Kezib dashti muhabbatni, so'rog'i do'stni topmay,*

*Adam anqosidek nomu nishonidin adashganman. (F.)*

**ANUQ** Tayyor, tayyorlangan.

*Ajunchi bo'gu beg nelug ganch urur,*

*Erat qayda bo'lsa anuq ganch alur. (Q.B.)*

**Anuq tutmaq** Tayyorlanmoq.

*Bu so'zka tanuqi bu baytig' o'qi,*

*Bu so'zka anuq tut ko'ngul o'g taqi. (Q.B.)*

**ANVAR** *a.* Eng nurli, eng yorug', eng porloq.

**Subhi anvar** Nurli tong.

*Majoziy ishq bo'ldi subhi anvar,*

*Haqiqiy ishq anda xurshidi xovar. (H.A.)*

**ANVOR** *a.* (*birligi nur*) Nurlar, shu'lalar.

*Subh chu zohir qilib anvorini,*

*Har yon sochib lam'ai ruxsorini. (H.A.)*

**ANVO'** *a.* (*birligi nav'*) 1. Turlar, xillar, nav'lar. 2. Xilma-xil, turli-tuman, har xil.

*Sabza rayohin, anvoyi gullar, chechaklar kasratidin qo'r-*

*g'ong'a qo'ng'on chog'da tovuslarning parlaridek turlanib,*

*munaqqash ko'runur erdi. (Zm.)*

**ANCHA** Xiyla vaqt, uzoq payt.

*Anchada Nuhqa xitob keldi. (R.)*

- APA** Ajdod. **Apa o'g'lani** Inson o'g'li, inson, odam.  
*Apa o'g'lani barcha asli bedug,  
 Bilig birla bo'ldi ko'r udrun kad o'g.* (Q.B.)
- AQMAQ** Yuksaklikdan pastlikka harakat qilmoq (suyuqlik haqida), oqmoq.  
*Kuyar o't turur kuch yag'usa kuyar  
 To'r-u su turur aqsa ne'mat unar.* (Q.B.)
- AQD a.** Nikoh.  
*Yer tutub bir hilol ichinda Suhayl,  
 Mehr aqdig'a aylamish edi mayl.* (S.S.)  
**Aqd bazmi** Nikoh to'yi.  
*Aqd bazmini qilg'ali obod,  
 Go'yiyo bu mahal edi miqd.* (S.S.)
- AQI** Birovdan hech narsani ayamaydigan, saxiy.  
*Biliglik uquchlug' budunqa talu  
 Aqi ham ko'zi to'q ne ko'ngli to'lu.* (Q.B.)
- AQILIQ** Saxiylik, hotamtoylik.  
*Aqiliq kerak begka qusqi ko'ngul  
 Bu qusqi ko'ngul birla qilqi amul.* (Q.B.)
- AQIQ a 1.** Qizil rangli qimmatbaho tosh, haqiq.  
*Chechak yaproqlari yerga tushubtur  
 Aningtekkim aqiqlar kon ichinda.* (Mn.)  
 2. ko'ch. Lab, sevgilining labi.  
*Aqiqing suhbatindin jon bo'lur so'z,  
 Qamartek chehrangga boqsa qamar ko'z.* (Mn.)  
 3. Qizillik.  
*Erning aqiqi garchi jahonda yagonadur,  
 Chehram mengizli ham yana bir kahrabo qani?* (S.)  
**Aqiqi nob** Sof aqiq, tiniq aqiq.  
*Aql sarrofi labing rangini nozik so'z bila,  
 Topti gulgun rishta o'tkargan aqiqi nobdek.* (G'.S.)
- AQIR ayn. Ag'ir II.**  
*Nekim kelsa erka tilitin kelur,  
 Bu tiltin kim edgu, kim aqir bo'lur.* (H.H.)
- AQL a.** Es, hush, miya.  
*G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,  
 Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi dard-u mehnatim.* (T.F.)  
**Aqli boshindin ketmak** Esini yo'qotmoq.  
*Xorazmiyning ketib aqli boshindin,*





*Turur tek surati yo'q jon ichinda. (Mn.)*

**Aqli zoyil** Aqldan mahrum bo'lish, aql ketishi.

*Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi dard-u mehnatim,*

*Davlat urg'an pushti po-yu baxti bad chirkindiman. (T.F.)*

**Aqli kull** Yetuk aql, zo'r aql.

*Aqli kull hayratda zoting bobida,*

*Zot yo'q, har bir sifoting bobida. (L.T.)*

**AQRABO** *a.* Yaqinlar, yaqin kishilar, qarindoshlar.

*Aqrabolar suhbatimdin or edar, qoshin chatar,*

*Salb dillarda, nazarlarda karih suprundiman. (T.F.)*

**AQRON** *a.* (birligi **qarin**) Tengdoshlar, zamondoshlar.

*O'tub bir qarn, aqronim, jahon obod ko'rgaysiz,*

*Jahon ahlini zolim haddidin ozod ko'rgaysiz. (Z.)*

**AQSO** *a.* Biror yerning eng uzoq burchagi; chet, chekka.

**Maqsadi aqso** Eng so'nggi maqsad.

*Jahon yo'q olami kubro de oni,*

*Jahonda maqsadi aqso de oni. (F.Sh.)*

**AQVOL** *a.*(birligi **qavl**) So'zlar.

*Tanbal bila o'tru bo'lg'on chog' xondin bedilona aqvol va*

*af'ol zohir bo'lur. (Bn.)*

**AQCHA** Pul, oqcha.

*Aqcha qo'lida ikki-uch mo'ysafid,*

*Derki: «Bu nazringizu bizlar murid». (M.)*

**AR** Agar.

*Jobir ar zarb urur edi behad,*

*Borcha zarbin Suhayl etar edi rad.(S.S.)*

**ARA** Ora, orasida.

*Qali beg bo'lur bo'lsa qilqi qara*

*Qarada bu ing'a bo'lur xalq ara. (Q.B.)*

**ARAB** *a.* 1. Arabiston yarim oroli va shimoliy Afrika mam-lakatlarida yashaydigan hamda som tillaridan birida so'zlashuvchi xalq va bu xalqning bir vakili.

*Arab va ajamning otasi Som turur. (R.)*

2. Joy nomi.

*Somni Arab va Ajam viloyatig'a izdi. (R.)*

**ARABIY** *a.* Arab tiliga oid, arabcha.

*Har lafz tafhimi uchun necha lafzin tarkib qilmag'uncha bo'lmas, ul dag'i arabiy alfoz madadi bila. (M.L.)*

**ARAQ** *a.* Ter.

**Araqi peshoniy** Peshona teri.

*Araqi peshoniy bila rayohin zebolari boshig'a gavhar afshon bo'lurlar. (H.A.)*

**ARBADA** *a.* Shovqin-suron, baqiriq-chaqiriq, qiy-chuv.

*Arbadadin o'zga eshitmay quloq,*

*Komi uchun tutmay ilik, juz ayoq. (H.A.)*

**ARDAM** Fazilat, yaxshi xulq.

*Biyik ardamlari bor, so'zi shirin,*

*Bo'lur oshiq ani ko'rganda Shirin. (S.Sar.)*

**ARI** Toza, sof, beg'ubor, pok.

*Bilik bilmak ichinda javharisen,*

*Vale husn ichra javhardin arisen. (Mn.)*

**ARIMAQ** 1. Toza bo'lmoq, tozalanmoq.

*Arig'sizni yalanguq suvun yub arir*

*Qali artasa suv negun yub arir. (Q.B.)*

2. *ko'ch.* Yuvilmoq, aybi yuvilmoq.

*Jafo qildachingg'a yanut qil vafo,*

*Arimas, necha yuvsa, qon birla qon. (H.H.)*

**ARIG'** Toza, pok, pokiza, halol.

*Arig' tutg'u beglar ko'ni qilq qiliq*

*Budun beg yo'lindin tuzar yo'l yo'riq. (Q.B.)*

*Ul sababdin Odam o'g'lonlari bir-biringa mengzamazlar,*

*kimi arig', kimi arig'siz, kimi iglik, kimi igsiz...(R.)*

**ARIG'LIQ** Asilzodalik, zodagonlik, nasl-nasablilik.

*Iduq ul bu beglik arig'liq tilar*

*Arig'liq bila elda saqliq tilar. (Q.B.)*

**ARIG'SIZ** 1. Nopok narsa, kir.

*Arig'sizni yalanguq suvun yub arir*

*Qali artasa suv negun yub arir. (Q.B.)*

2. Nopok, nuqsonli.

*Qali bo'lmasa beg saqinuq suzug*

*Arig'siz bo'lur barcha qilqi uzug. (Q.B.)*

**ARJUMAND** *f.* Aziz, ardoqli, izzatli, qadr-qimmatli.

*Toj boshingdin bo'lubon sarbaland,*

*Taxt ayog'ingdin o'lub arjumand. (H.A.)*

*Senga mulkungda bo'lmoq o'lsa mayl,*

*Lek farzandi arjumand Suhayl. (S.S.)*

**ARKON** *a.* (birligi **rukn**) Ustunlar, tayanchlar.

**Arkoni davlat** Davlat arboblari.

*Ogahiy, qil shohi ogohing duoi davlatin*

*Ki, onga arkoni davlatdur hama ogahlar. (Og.)*

**Arkoni mamlakat** Mamlakatning yuqori mansabdor shaxslari, davlat arboblari.

*A'yon davlat va arkoni mamlakatni chorlab, bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasb qildim. (Bn.)*

**ARO 1.** Ichida, orasida, -da.

*Vahm etib ul guruh bu so'zdin,*

*Bahr aro ittilar ravon ko'zdin. (S.S.)*

*Sening husnung qamuq olamda mashhur,*

*Yuzungdin kizlanibtur xuld aro hur. (Mn.)*

2. Bilan, ila.

*Javob kutti bo'lub ul ishq aro mast,*

*Vale taqdir kulub tez bermadi dast. (S.Sar.)*

3. O'rtalik, o'rta.

*Andoq aro yerda ayon bo'ldi mehr,*

*Kim hasad eltur edi andin sipehr (S.S.)*

**AROSINDA** Ichida, o'rtasida.

*Xavfu biymu vahm arosinda qaribi qirqqa,*

*Dona deb pobast o'lub, domi firibi qirqqa. (T.F.)*

**AROZI** a. Yerlar, joylar.

*To'ldi yana g'amdin ul arozi,*

*Majnun eli xud o'lumga rozi. (L.M.)*

**ARozIL** a. Juda razil kishilar, olchoqlar, pastkashlar.

*Na mazhab, qaysi din, o'z mulkini o'zi xarob etgay,*

*Erurlar mufsid ul-arzu arozil firqayi badrak. (T.F.)*

**ARQON** Paxta tolasi, jun kabi narsalardan eshib qilingan,

bog'lash uchun qo'llanadigan yo'g'on ip, arg'amchi.

*Arqonimi yeringa sudrab chiqay,*

*Bachchataloq qishloqilarni uray. (M.)*

**ARQUQ** Qaysar, o'jar, tixir, ters.

**Arquq qilinch** O'jarlik, qaysarlik.

*Bularda eng ing'a bu arquq qilinch*

*Bu arquq qilinchliq ne mungliq erinch. (Q.B.)*

*Bu tortunch yavuz begka arquq qilinch*

*Beshinchi yarag'siz bu yalg'an erinch. (Q.B.)*

**ARSA** a. Maydon, ochiq joy, dala.

*Markab yeli arsani supurdi,*

*Ozarm giyohlarin sovurdi. (L.M.)*

**Arsai mulk** Mamlakat yerlari, davlat mulki.

*Arsai mulkni yobon bilsa,*

*Elni qo'y, o'zni shubon bilsa. (Shn.)*

**Arsai olam** Yer yuzi, olam.

*Arsai olamg'a sabodek borib,*

*Mehrdek obodu buzuq axtarib. (H.A.)*

**Arsai osmon** Osmon kengligi, osmon.

*Ya'ni tutubon jahon yuzini,*

*Bal arsay osmon yuzini. (L.M.)*

**ARSLAN** Sher, arslon.

*Ko'r arslan bo'lu bersa itga bashi*

*Bu it barcha arslan bo'lur o'z tushi. (Q.B.)*

*Yorlig' bo'ldi, Nuh ilkin arslan boshig'a siladi. (R.)*

**ARTAMAQ** 1. Yaroqsiz holga kelmoq, ifloslanmoq; buzulmoq.

*Arig'sizni yalanguq suvun yub arir*

*Qali artasa suv negun yub arir. (Q.B.)*

2. Tanazzulga yuz tutmoq, buzulmoq.

*Biri kuch birisi o'salliq qilur*

*Bu ekki bila beg elin artatur. (Q.B.)*

3. Badnom qilmoq, yomon otlig qilmoq, nomiga dog' tushirmoq, bulg'amoq.

*Bu qach nengda beglar yiraq tutg'u o'z*

*Ati artamasa yo'riq bo'lsa so'z. (Q.B.)*

**ARTMAQ** Rivoj topmoq, rivojlanmoq, taraqqiy etmoq.

*El artar to'ru birla yetlur ajun*

*El eksur bu kuch birla buzulur ajun. (Q.B.)*

**ARTUQ** Juda, ortiq darajada; ko'p, yanada.

*Budunqa begi artuq odrum kerak,*

*Ko'ngul til ko'ni qilqi ko'drum kerak. (Q.B.)*

**ARVAD** Ayol, xotin.

*Suhayl kiydi turub arvad qumoshin,*

*Chiqarsa kimsa yo'q, chohdin u boshin. (S.Sar.)*

**ARZ** I a. Yer, zamin.

*Arz jirmin qilib yetti taqsim,*

*Aylading har birini bir iqlim. (S.S.)*

**Kurrai arz** Yer kurrasi, yer shari.

*Millatim nasli bashardur, vatanim kurrai arz,*

*Ikkisin xizmati farzdur, ikkisindin jon qarz. (H.)*

**ARZ II** *a.* Og'zaki yoki yozma tarzda bildirilgan voqea, hodisa, iltimos va boshqa narsalar.

*Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,*

*Arz etayin emdi yozib nomalar. (M.)*

**Arzi ehtiyoj** Ehtiyoj izhori.

*Ko'ngul ozodadur dunyog'a arzi ehtiyoj etmaz,*

*Tariqat soliki bu yo'lda mayli izdivoj etmaz. (G.)*

**Arzi niyoz** Yolvorish, iltijo qilish, o'tinish.

*Bobur, chu umid ila qilur arzi niyoz,*

*Shoyadki, qabul aylagay tab'i salim. (B.)*

**ARG'UVON** *f.* Guli qip-qizil bo'ladigan bir daraxt.

*Urur nargislarining novakni jong'a,*

*Kular chehrang chechaktek arg'uvong'a. (Mn.)*

**ARG'UVONIY** *f. -a.* To'q qizil, qizil.

*Za'faroniy ko'ylak uzra arg'uvoniy kamzihur,*

*Ro'ymol og'ushidin peshonaning ahvoli tang. (F.)*

**ARSH** *a.* Osmonning eng yuqori qavati; osmon.

*To'qquz soat turolmadim, ko'kka uchdim,*

*Arshu kursi poyasini borib quchdim. (A.Y.)*

**ARZADOSHT** *a. -f.* Xat, maktub.

*Manga arzadoshti kelib edi, inshosi ham yomon emas. (Bn.)*

**ARCHI** Agarchi, garchi.

*Latofat gulshanida gul kabi sen sabzu xurram qol,*

*Men archi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim. (B.)*

**ASAD** *a.* Arslon, sher.

**Ko'k asadi** Osmon asadi (Asad – o'n ikki osmon burjining beshinchisi).

*Bor edi bir beshada bir tund sher,*

*Vahshat aro ko'k asadidek daler. (H.A.)*

**ASAR** *a.* Biror narsa, hodisa yoki shaxsdan darak beruvchi belgi, iz, nishon.

*O'ylakim bo'lmag'ay asar andin,*

*Demagay hech kim xabar andin. (S.S.)*

**ASBOB** *a.* (birligi **sabab**) 1. Sabablar.

*Emasdur oncha asbobi jahong'a fikrimiz, Furqat,*

*Vale ketguncha juz andishayi fardog'a bormasmiz. (F.)*

2. Jihozlar, anjomlar, asbob-uskunalar, kerakli narsalar.

*Bo'ldi chu asbob muhayyo yana,*

*Kirdi tarab bazmig'a g'avg'o yana. (H.A.)*

*Bizning jonibdin sulton Kulonkir dangalnishing'a to'yning asbobini muhayyo qilib ber. (Zm.)*

**ASHOB** a. (birligi **sohib**) Ulfatlar, suhbatdoshlar, hamsuhbatlar, do'stlar.

*Kel, ey soqiy keturgil bodai nob,*

*Kula-o'ynayu ichsunlar ashob. (Mn.)*

**AXI** a. Qo'li ochiq, saxiy.

*Axi bo'l, sanga so'z so'kunch kelmasun,*

*So'kunch kelgu yo'lni axilik tiyur. (H.H.)*

**ASIL** a. Aslzoda, zodagon.

*Bu beglikka ashnu tub asli kerak*

*Atim alp qatig' qurch yana to'ng yurak. (Q.B.)*

*Apa o'g'lani barcha asli bedug*

*Bilig birla bo'ldi ko'r o'drum kad o'g. (Q.B.)*

**ASNOF** a. (birligi **sinf**) Sinflar, tabaqalar; turlar, xillar.

*O'z ishiga pishiq, haromzodai tarror, davlatmandlar asnofi-da mumsiki beor. (Zm.)*

**ASIR** a. 1. Urushda dushman tomonidan qo'lga olingan kishi, bandi, tutqun.

*Dedi Jobirki: «Ey qo'lumda asir,*

*Razmu ko'shishda qilmading taqsir. (S.S.)*

2. Qaram, tobe; o'ziga qaratish.

*Roy ila zulmatni munir aylamak,*

*Lutf ila olamni asir aylamak. (H.A.)*

**Asiri anduh** G'am-u dardga duchor bo'lgan, g'amli, g'amnok.

*Qo'ymishsen ani asiri anduh,*

*Kim tutmish goh dashtu goh ko'h. (L.M.)*

**Asiri dard** Dardga muhtalo bo'lgan, g'amli.

*Asiri dard ichiyu toshi oning,*

*Ki, to o'n to'rt bo'ldi yoshi oning. (F.Sh.)*

**ASIG'** Foyda, manfaat, naf.

*Ko'ngul bo'lmasa er ko'zi asg'i yo'q*

*O'gi bo'lmasa er o'gi o'sg'i yo'q. (Q.B.)*

*Dedi o'ziga yig'lab achchig'-achchig',*

*Ki: «Achig' yig'lamoq manga ne asig'. (S.S.)*

**Asig' bo'lmoq** Foyda bo'lmoq, nafi tegmoq.

*Qali bo'lsa beglar xiyanat ko'ngul*

*Budunqa asig' bo'lmas andin to'ngul. (Q.B.)*

**Asig' qilmaq** Yordam bermoq, naf keltirmoq.

*Budunqa asig' qil bo'lub qilma yas*

*(Qilmch edgu tutg'il esiz yasi bas. (Q.B.)*

**ASMO a.** Hech qachon, hech vaqt, sira.

*Kim kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,*

*It bo'lur dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami. (A.N.Qit.)*

**ASMO a.** (birligi **ism**) Ismlar, nomlar, otlar.

**Asmo ilmi** Ismlar ilmi.

*Andin kezin mavlo azza va jalla «Asmo ilmi»ni Odamg'a o'rgatu berdi. (R.)*

**ASO a.** Hassa, tayoq.

*Yo'q, yo'qki, shubonliq ichra Muso,*

*Ilginda aso ham ajdaroso. (L.M.)*

**ASRAMOQ** 1. Har xil balo-qazodan saqlamoq, qo'rimoq, qo'riqlamoq.

*Qo'yni shubon asramasa oyu yil,*

*Och bo'rilar tu'masidur bori bil. (H.A.)*

2. Saqlamoq, ardoqlamoq.

*Nechakim ilmasangiz ko'zga bizni,*

*Ko'ngul jon ichra asrar mehringizni. (Mn.)*

3. Biror ish yoki harakatdan o'zini to'xtatmoq, saqlamoq, tiymoq.

*Sayd yetgach ko'zini asrar edi,*

*Ko'rmayin deb o'zini asrar edi. (S.S.)*

4. Biror maqsad uchun atab qo'yimoq.

*Bir necha zavraq asrabon tayyor,*

*Yangi oy zavraqi kibi sayyor. (S.S.)*

**ASRIMAK** Mast bo'lmoq, kayf qilmoq.

*Epi yeb, asrigach bir onda posbon,*

*Choh ichra boqti tez xurshidi tobon. (S.Sar.)*

**ASROR a.** (birligi **sir**) Sirlar.

*Dilda ohi bo'lmag'on bedardni,*

*Mahram etma har nechuk asrorg'a. (F.)*

**Asrori shavq** Shavq sirlari.

*Chek navo, ey bulbuli gulzori shavq,*

*Savti alhoning kelib asrori shavq. (L.T.)*

**Asrori shigarf** Ajoyib sirlar.

*Boshlab ul majma'da asrori shigarf,*

*Fosh qildi bo'yla sarmastona harf. (L.T.)*

**ASRU** Juda, nihoyatda, g'oyat darajada.

*Kim asru bevafofur bu zamona,  
Jahon qolmas kishiga jovidona.* (Mn.)

**AT 1.** Nom, dovrug', dong, shuhrat.

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman.  
Ati edgu bo'lsa tutunsa bo'dug'.* (Q.B.)

2. So'z.

*Beg ati bilig birla bag'lig' turur  
Bilig lam(i) ketsa beg ati qalur.* (Q.B.)

**ATAMOQ 1.** Ot qo'ymoq, nom bermoq, nomlamoq.

*Savol qildilar Havvog'a: Ne uchun Havvo atadilar.* (R.)

2. ...deb bilmog', hisoblamoq.

*Qayu erda bo'lsa uqush birla o'g'  
Ani er atag'il necha o'gsa o'g'.* (Q.B.)

3. Demog', nomlamoq.

*Javob aydi: Arab tilincha tirikka «hay» atayurlar.* (R.)

**ATANMOQ** Nomlanmog', atalmog'.

*Xabarda andog' kelur. Odamg'a so'rdilar: «Naluk Odam  
atanding?»* (R.)

**ATFOL a.** (birligi **tifl**) Bolalar.

*Atfol, etakka tosh yig'ingizkim, mani bukun,  
Devonaliqg'a yetkuradur beqarorlig'.* (K.)

**ATIM** Bexato otuvchi, mergan.

*Bu beglikka ashnu tub asli kerak  
Atim alp qatig' qurch yana to'ng yurak.* (Q.B.)

**ATIBBO a.** (birligi **tabib**) Tabiblar, shifokorlar.

*Boshi uza jam' o'lub ahibbo,  
Hozir qilur erdilar atibbo.* (L.M.)

**ATKA** Tarbiyachi, murabbiy.

*Va atka va enagani ham bu til bila ayturlar.* (M.L.)  
*Avvalg'i kun urushta Xudoyberdi atkamga taxsh o'qi tegib  
o'ldi.* (Bn.)

**ATLIG'** Mashhur, shuhratli, nomdor.

*Talu beg bo'layin tesa belgulug'  
Talu tutg'u erdam ey atlig' kulug'.* (Q.B.)

**ATO I. a.** In'om, baxshish.

*Ato etmak In'om qilmoq, baxsh etmoq, bermoq.  
Lek bu chinliqki haq etmish ato,  
Ko'rki ulus olnida uldur xato.* (H.A.)



**ATO II.** Ota, dada, padar.

*Bori ikki ato, iki farzand,  
Rishtai vasl ila topib payvand. (S.S.)*

**ATOLIQ** Otalik.

*Manga shahlikda qulluq ham qil emdi,  
Atoliq ham, o'g'ulluq ham qil emdi. (F.Sh.)*

**ATOQ'LIG'** Biror kishiga avvaldan mo'ljallangan, atalgan.

*Mehr zulfig'a ko'ngli bog'lig' edi,  
Bu anga go'yiyo atog'lig' edi. (S.S.)*

**ATORUD** *a.* Mumtoz adabiyotda shoir va yozuvchilarning homiysi hisoblangan sayyora, Merkuriy planetasi.

*Bu Xorazmiy «Muhabbatnoma»sini  
Atorud ko'rди, soldi xomasini. (Mn.)*

**ATROF** *a.* Kuzatuvchini o'rab olgan hamma tomon, barcha taraf, tevarak.

*Faqat holin ko'rganlar etar oh,  
Uchar atrofda qushlar dardli hamroh. (S.Sar.)*

**ATROK** (**Turk so'zining ko'pligi**) Turklar, turkiylar.

*Layli-Majnun ajamda cho'xdur,  
Atrokda ul fasona yo'xdur. (F.)*

**ATTOR** *a.* Upa-elik, atir kabi pardozi mollari sotuvchi kishi.

*Ozodadin to'pori ko'p,  
Dukchisidin attori ko'p. (M.)*

**ATVOR** *a.* (**birligi tavr**) Xarakter, xulq-atvor, fe'l-atvor.

*Bulmakorim otiyu atvori,  
Nopisandidau noxush bori. (Shn.)*

**AVBOSH** *f.* Bebosh, bezori.

*O'sh avboshining zarofati budurkim, har kim anda uyqulasa,  
ul shahjo'ydin suv quyarlari. (Bn.)*

**AVD** *a.* Qaytish.

*Bular qilmayin avd, pobo's etib,  
Ki bir o'zga xayli maloyik yetib. (S.I.)*

**AVINMAQ** 1. Vaqtichog'lik qilmoq, vaqtixushlik etmoq, ko'ngil ochmoq.

*Erajin avinsa yesa el uzun  
Butun jan uzulsa yesa ul ajun. (Q.B.)*

2. Biron ish yoki narsaga berilmoq, mashg'ul bo'lmoq.

- O'yunqa avinsa ajun tutg'uchi*  
*Elin buzdi bo'ldi o'zi qultg'uchi. (Q.B.)*
- AVINCH** Quvonch, shodlik, xursandlik.  
*Bu eki qutu bulsa begdin sevinch*  
*Eli qapg'i etlur bulur beg avinch. (Q.B.)*
- AVJ** a 1. Baland, yuqori, yuksak.  
*Beribon kemasiga muhlik mavj,*  
*Bir zamoni hazizu gohi avj. (S.S.)*  
 2. ko'ch. Osmon, falak.  
*Buki sanga tengri berib imtiyoz,*  
*Saltanat avjida qilib sarfarozi. (H.A.)*  
**Avji borgah** Baland chodir.  
*Sen qurug'luq bila sipah cheksang,*  
*Charx uza avji borgah cheksang. (S.S.)*  
**Falak avji** Falak cho'qqisi.  
*Ey falak avjidan o'tub rif'ating,*  
*Oyu quyoshdin cholinib navbating. (H.A.)*
- AVLO** a. Afzal, yaxshi, tuzuk.  
*O'lmoq avlo sanga kamand ichra,*  
*Tirik o'lmoq valek band ichra. (S.S.)*
- AVLOD** a. (birligi **valad**) Farzandlar, bolalar, nasl.  
*Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,*  
*Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. (A.N.Qit.)*
- AVOMUNNOS** a. Odamlar to'dasi, oddiy xalq, avom.  
*Niholi bebari sarkashdurur avomunnos,*  
*Ne sud topmasa ma'nig'a ittisol kamol. (K.)*
- AVQOT** a. (birligi **vaqt**) Vaqtlar, zamonlar, paytlar.  
*Munda to zoyi o'lmish avqotim,*  
*Budur oning bila muloqotim. (S.S.)*
- AVQOF** a. (birligi **vaqf**) Vaqflar, vaqf qilingan mulklar.  
*Yana ulkim, sudurg'a hukm bo'lsakim,*  
*Viloyat avqofidin xabardor bo'lsalar. (Mun.)*
- AVROQ** a. (birligi **varaqq**) Varaqlar.  
*Zamon avroqiyu ishqim edi Farhodu Majnundin,*  
*Falak bir, ikki fashl'etti izofat dostonimg'a. (B.V.)*
- AVSOF** a. (birligi **vasf**) Vāsflar, ta'riflar, tavsiflar, maqtovlar.  
*Ham ravishi adlu ham insof aro,*  
*Hilmu hayo bori avsof aro. (H.A.)*

**AVVALGI** Birinchi.

*Avvalg'i nomani aytur. (Mn.)*

**AXI I a.** Axir (ta'kid yuklamasi).

*Qoida mundog'mu bo'lur, de, axi,*

*Bir o'z ishingning g'ami ham, ye, axi. (H.A.)*

**AXI II I.** O'ta saxiy, eng saxiy.

*Birta o'tmakni ikki bo'lub, yarmin bir ochg'a berganni*

*saxiy de, o'zi yemay barin muhtojg'a berganni axi de. (M.Q.)*

2. Oshna, birodar, do'st.

*Ani ham chekti mezboni saxiy,*

*Mehmon ollida saxo ko'r, axi! (S.S.)*

**AXIR a.** Oxirda, oxiri, oxir-pirovardida.

*Ko'zi suq kishi nenga bo'lmas bu bay*

*Qamug' dunya balsa axir suq chig'ay. (Q.B.)*

**AXSURMAQ** Aksa urmoq, aksirmoq, chuchkirmoq.

*Burnig'a keldi ersa, bir axsurdi. (R.)*

**ANTAR a. 1.** Yulduz.

*To'rt sadaf gavharining durji ul,*

*Yetti falak axtarining burji ul. (H.A.)*

2. ko'ch. Taqdir, qismat.

*Ey, xush ul kunlarki, ko'nghum vaslidin xushhol edi,*

*Axtarim farxundau baxtim humoyunfol edi. (Mu.)*

**Axtari baxt** Baxt yulduzi.

*Ne tole'dur mangakim, axtari baxtim topilmaydur.*

*Falak avroqini har nechakim daftardek axtardim. (B.)*

**AXSHOM** Oqshom.

*Iyd axshomi nazorada ko'rdi qoshing magar,*

*Gardun etagi ichra yashurdi hilolini. (S.)*

**AXZAR a.** Yashil, ko'k.

*Xirqasi axzaru aso axzar,*

*Go'yi ul erdi Xizr payg'ambar. (S.S.)*

**AYMAQ** Aytmoq, demoq.

*Nuh aydi: «Bu kun kim ersani azobdin saqlag'uchi yo'q izidin o'zga». (R.)*

*Salomikim ko'ngul jonona aysa,*

*Yorur ko'zlar savodidin bitisa. (Mn.)*

**AYA** Ey! Ayo!

*Aya elchi beglar elig qulsa saq*

*Bu saqliq bila sen tuzu elka baq. (Q.B.)*

**AYAG'U** Qovurg'a.

*Javob: Odam uzag' bo'lsa ayag'usi ag'rig'ay erdi. (R.)*

**AYB a.** 1. Odob va axloq, tartib-qoidaga to'g'ri kelmaydigan ish, xatti-harakat; gunoh.

*G'ussai behuda asbobi nadomat ayladim,*

*Bilmadim o'z aybimi, xalqqa mazammat ayladim. (T.F.)*

2. Uyat, nomus.

*Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,*

*Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim. (U.)*

3. Qusur, kamchilik.

*Qarimoq aybini yoshursa bo'lmas,*

*Borur chog' bo'ldi, boqib tursa bo'lmas. (F.Sh.)*

**AYGU** Ezgu, yaxshi.

*Jahonning aygu oting tutti mutlaq,*

*Yaman ko'zdin yiroq tutsun seni haq. (Mn.)*

**AYILMAQ** 1. Hushiga kelmoq, o'ziga kelmoq.

*Necha dersenki, soqiy bizni bir may birla mast etsun,*

*G'ururi jahl ichinda mastlig'din bir ayil bore. (F.K.)*

2. ko'ch. Tushunmoq, anglamoq.

*Navoiy, base kech ayilding darig',*

*Yigitlikni barbod qilding darig'. (S.I.)*

**AYITMAQ** 1. Aytmoq, demoq.

*Taqi bir so'zum bor ayitg'u sanga. (Q.B.)*

2. So'ramoq, savol bermoq,

*Elig aydi emdi ayitg'u so'zum,*

*Bu erdi muni aytur o'zum. (Q.B.)*

**AYITMON** Aytmayman.

*Necha hashmatli sulton bo'lsa bo'lsun,*

*Ayitmon mol uchun madhu sano men. (Mn.)*

**AYLAMAK** Qilmoq, etmoq.

*Iloho, asrag'in Sayfi Saroying,*

*Xalos aylab zulmdin keng saroying. (S.Sar.)*

*Qolmadi juz dardu g'am hamdam, musohib qoshima,*

*Haq o'zi rahm aylagay, ohi sahar, ko'z yoshima. (T.F.)*

**AYLANMA** Aylanish.

*Falak aylanmasila davr yetgay,*

*Adolat urlug'undin baxt bitgay. (S.Sar.)*

**AYLANDURMAK** Aylantirmoq, kezdirmoq.

*Boshidin evrulur armoni birla o'ldum, ey Bobur,*

*Mening na'shimni bore ul pari ko'yidin aylandur. (B.)*

**AYN** a. 1. Ko'z.

*Yaxshi vaqtlar yod etib (undin ketib, mundin qolib),  
Harza tifli ashkdek ayni nazarlardin solib.* (T.F.)

2. Mohiyat, asos, manba.

*Avval o'zung, oxiru mobayn o'zung,  
Barchag'a xoliq, barig'a ayn o'zung.* (H.A.)

**AYO** Ey, hoy.

*Ayo zebo sanam shohi qaboyil,  
Taolilloh zihi shaklu shamoyil.* (Mn.)

**AYON** a. Ma'lum, ravshan, zohir, oshkor.

*Jahonning fitnasi usruk ko'zungda,  
Ayon Iso dami shirin so'zungda.* (Mn.)

**A'YON** a. Baland martabali kishilar, yuqori mansabdorlar, amaldorlar, kattalar; shohga yaqin kishilar.

**A'yoni davlat** Davlatning yuqori mansabdorlari, davlat arboblari.

*A'yoni davlat va arkoni mamlakatni chorlab, bay'at qo'llarini  
Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a va valiahdlig'ig'a  
nasb qildim.* (Bn.)

**AYOQ I** Oyoq.

*Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,  
Masaldurkim: «Charog' tubi qarong'u»* (L.)

**AYOQ II** Kosa.

*Qamug' narsaning otini bu idish bu ayoqg'a tegru qamug'  
tillar birla bayon qildi.* (R.)

**AYOQCHI** Soqiy, qosagul.

*Najote istasang Munisg'a g'amdin,  
Ayoqchi, tut anga har dam chog'irni.* (Mu.)

**AYOG'** 1. Qadah.

*Mutoyaba jihatidin deyildikim, har kim sortcha aytsa, bir  
ayog' ichsun.* (Bn.)

2. ko'ch. May, sharob.

*Bunda ham g'alaba kishi ayog' ichti.* (Bn.)

**AYRILMOQ** 1. Guruhdan, to'dadan ajralmoq.

*Chun hashamu xayldin ayrilg'asen,  
Deki, bu a'mol ila ne qilg'asen.* (H.A.)

2. Mahrum bo'lmoq, judo bo'lmoq.

*Kishi qayda o'larin bilsa bo'lmas,  
Haqiqat yoridin ayrilsa bo'lmas.* (Mn.)

- AYRU** Ayrilgan, ajralgan, judo bo'lgan, mahrum bo'lgan.  
*Ul ulus jondin ayru el yanglig'.*  
*Sayr etib su yuzida yel yanglig'.* (S.S.)
- AYSH** a. Rohat-farog'at, kayf-safo, huzur-halovat, yaxshi hayot.  
**Ayshu tarab** Xursandlik, shodlik, o'yin-kulgi.  
*Anda tuzub masnadi shohanshahi,*  
*Ayshu tarab jomi uchun mushtahi.* (H.A.)  
**Ayshi damodam** Uzluksiz qilinadigan kayf-safo, tez-tez qilinadigan kayf-safo.  
*Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko'rdiman*  
*Rind sarxayliyu xush ayshi damodam surdiman.* (T.F.)
- AYTDIK** Aytgan, degan.  
*Chunki yuqorida aytdigim ishlarning hammasiga o'zim sabab bo'ldum.* (Fit.)
- AYTMOQ** 1. Demoq, so'zlamog, so'ylamog.  
*Boyo'g'lining bir chiroyli qizi bor ermish, deb ayturlar.* (Zm.)  
 2. Qo'ymoq, nom qo'ymoq, nomlamog.  
*Su yuzinda sabo kibi obir,*  
*Otini xalq aytibon Jobir.* (S.S.)
- AYVON** f. Ko'shk, qasr.  
*Atoyig'a bo'sag'angda o'run ber,*  
*Saryu koxu ayvon hojat ermas.* (A.)  
**Falak ayvoni** Osmon.  
*Falak ayvonina bosh indururmu,*  
*Qoshing mehrobining toqina mushtog.* (A.)
- AYYOM** a. Kunlar.  
*Mehr ko'ziga shomdek ayyom,*  
*Mehrdek kongli o'rtanib to shom.* (S.S.)  
**Ayyomi foniy** o'tkinchi kunlar.  
*Kim ush yeltek kechar ayyomi foniy,*  
*Ajaldin hech kishining yo'q amoni.* (Mn.)
- AYYOR** a. Makkor, firibgar, hiylagar.  
*Ayitg'il, ey so'zi yolg'on jafokor,*  
*Qarog'lari qaroqchi, o'zi ayyor.* (Mn.)
- AZ.** Oz, kam.  
*O'kush sevmaguchi sevari az ul*  
*Kerishi telimrak eraji az ul.* (Q.B.)
- AZAL** a. Juda qadim, qadim, eng avvalgi.  
*Chun bu nasim esti azal tog'idin,*  
*Muncha gul ochildi jahon bog'idin.* (H.A.)

**AZALDA** Boshlanishda, avval boshta, eng avval.

*Sening yoding qilurmen ko'p g'azalda,  
Kim erdim onung'a oshiq azalda. (Mn.)*

**AZAQ** Oyoq.

*Ikladi maning azaq,  
Ko'rmazib o'g'ri tuzaq. (D.L.T.)*

**AZIM** a. Katta; ko'p.

*O't band ila bo'ldi jilvagohim,  
Mundoqmu azim emish gunohim? (L.M.)*

**AZIMAT** a. Ahd, niyat, jazm, qaror.

**Azimati qilmoq** Biror yerga o'tlanmoq, jo'namoq.  
*Men sudin aylasam azimat jazm,  
Ul qurug'luq soridin aylab azm. (S.S.)*

**AZIZ** a. Qadrli, muhtaram, mo'tabar, qimmatli.

*Xotun sodiq, ani sevgil aziz er,  
Har og'ir ishda ham doim seni der. (S.Sar.)  
Azroil aydi «Sening ontindin menga mavlo taoloning  
yorlig'i azizraq turur. (R.)*

**AZM** a. 1. Bir ishni qilishga qasd qilish, intilish, jazm.

*Chunki farah bazmig'a jazm aylading,  
Ayshu tarab azmig'a bazm aylading. (H.A.)*

2. O'tlanish, jo'nash, borish; yurish.

*Sahni havoda to'shalib mafrashi,  
Azmda yel xayli janibatkashi. (H.A.)*

*Emdi mav'id falon kun o'ldi yaqin,  
Azm uchun soat ayladuk tayin. (S.S.)*

**Azmi durust** O'tlanishga to'g'ri kelish, o'tlanish.

*Bir kun edi sayrg'a azmi durust,  
Shefta zole etagin tutti rust. (H.A.)*

**Azm aylamak** Qat'iy qaror qilmoq.

*Azm aylab cherik yarog'i bila,  
Yurusun bahrning qirog'i bila. (S.S.)*

**Azm etmak** O'tlanmoq, yo'l olmoq.

*Dedi: «O'z mulkunguzga azm etingiz,  
Jon keraklik esa ravon ketingiz». (S.S.)*

**Azm qilmoq** O'tlanmoq, bormoq, yo'l olmoq.

*Ul sari azm qilg'ali Nu'mon,  
Ham muayyan bor erdi vaqtu zamon. (S.S.)*

- AZMAQ** To'g'ri yo'ldan toymoq, adashmoq.  
*Eki neng bila elchi beglik buzar.*  
*Kirur egri yo'lg'a ko'nidin azar. (Q.B.)*
- AZO** a. Musibat, kulfat.  
*Bo'ldi ketgan azo yana toza,*  
*Qolmadi dard-u g'amg'a andoza. (S.S.)*
- A'ZO** a. Kishi organizmining ma'lum bir vazifani bajaruvchi organi, mucha.  
*Aning a'zosidin rasan oldi,*  
*Band ila choh qa'rig'a soldi. (S.S.)*
- AZOB** a. Qiynalish, uqubat, ezilish, mashaqqat.  
*Nuh aydi: «Bu kun kim ersani azobdin saqlag'uchi yo'q izidin o'zga». (R.)*  
*Azob ichra yotib zindonda Suhayl,*  
*Etardi horg'onida uyquni mayl. (S.Sar.)*
- AZOQ** Oyoq.  
*Ul holda yer tavozu' qilib aydi: «Men qamug'din zaifmen, azoq ostindamen. (R.)*
- AZOZIL** a. Shaytonning Odam alayhissalomga sajda etishni rad qilgan paytdan oldingi asli nomi.  
*Jumla farishtalar sajda qildilar, yolg'iz Azozil sajda qilma- di. (R.)*
- AZROIL** a. Xudoning buyrug'i bilan odamning jonini oluvchi fa- rishta.  
*Hazratdin xitob keldi: «Ey Azroil, g'oyat qattiq ko'ngulluk ermishsen.» (R.)*
- AG'MAQ** Ko'tarilmoq, yuksalmoq.  
**Ko'kka ag'maq** Yuksalmoq, o'smoq, kamolatga erishmoq.  
*Kuvazlik bila ko'kka ag'mas kishi,*  
*Qali qusqi bo'lsa buzulmas ishi. (Q.B.)*
- AG'IN** Gung, tilsiz, soqov.  
*Yula ul uqush, ko'r, qarag'uqa ko'z,*  
*O'lug tang'a jan ul, ag'in tilqa so'z. (Q.B.)*
- AG'IR** I 1. Vazni ko'p, og'ir.  
*Ag'ir yuk kishika qilinch arquqi,*  
*Qilinch arquq ersa bo'lun it o'qi. (Q.B.)*  
 2. Qiyin, mashaqqatli, sermashaqqat.  
*Bedug ish budun bashlamaqi ag'ir*  
*Bash ag'rig' bila tutchi emgak tegir. (Q.B.)*



**AG'IR II** Hurmatli, izzatli.

**Ag'ir tutmaq** Hurmat qilmoq, hurmatlamoq.

*Ko'ni tut ko'ngul til bayatqa sig'in*

*Idi yarlig'in sen ag'ir tut tapin. (Q.B.)*

**AG'LAMOQ** G'am-alamdan ko'z yoshi to'kmoq, yig'lamoq.

*Chiqib chohtin uzoqlarg'a qochayliq,*

*Bu yerda ag'lamay ko'ngul ochayliq. (S.Sar.)*

**AG'RIG'** Og'riq, kasallik, dard.

**Bash ag'rig'** Ortiqcha tashvish, bosh og'rig'i.

*Bedug ish budun bashlamaqi ag'ir*

*Bash ag'rig' bila tutchi emgak tegir. (Q.B.)*

**AG'YOR a. (birligi g'ayr)** Raqiblar, begonalar.

*Yor uchun ag'yor dardind tortaman,*

*Ko'rmadim bir yorni ag'yorsiz. (N.)*

**ASH** Ovqat, yemak, taom.

*Eva qilmish ishlar bicha yig bo'lur.*

*Eva yesa ash suv bicha ig bo'lur. (Q.B.)*

**ASHK f.** Ko'z yoshi, yosh.

*Yaxshi vaqtlar yod etib (undin ketib, mundin qolib).*

*Harza tifli ashkdek ayni nazarlardin solib. (T.F.)*

**Ashki gulgun** Qonli yosh.

*Tugandi ashki gulgun, emdi qolmish za'faroniy yuz,*

*Falak zulmi badal qildi xazon birla bahorimni. (G'.S.)*

**Ashki nishot** Quvonchli ko'z yoshi, shodlik yoshi.

*Ham ashki nishot anga yog'indek,*

*Ham po'yada sekridi choqindek. (L.M.)*

**Ashki g'alton** Yirik-yirik ko'z yoshi.

*Ne erkin ohu afg'onig'a bois,*

*Ne qayg'u ashki g'altonig'a bois. (F.Sh.)*

**ASHKBOR f.** Ko'z yoshi to'kuvchi, yig'lovchi.

*Ham yuzi ani beqaror etti,*

*Ham so'zi ani ashkbor etti. (S.S.)*

**ASHKREZ f.** Ko'z yoshi to'kuvchi, yig'lovchi.

*Chashma ko'rub baski ham andin sitez,*

*Bir ko'z o'lub o'z g'amidin ashkrez. (H.A.)*

**ASHKFISHON f.** Ko'z yoshi to'kuvchi, yig'lovchi.

*Jom bu ahvolinga qon yig'labon,*

*Sham kuyub, ashkfishon yig'labon. (H.A.)*

**ASHNU** Avval, oldin.

*Bu beglikka ashnu tub asli kerak,*

*Atim alp qatig' qurch yana to'ng yurak. (Q.B.)*

**ASHQIYO** *a.* (birligi **shaqiy**). Baxtsizlar, baxti qoralar.

*Sening millatingdin chu topib sharaf,*

*Saodat libosi kiyib ashqiy. (F.K.)*

**ASH'OR** *a.* (birligi **she'r**) She'rlar.

*Muqassardur soching vasfinda Lutfiy*

*Sening yuzungdin ash'orin o'qurlar.(L.)*

**ASHRAF** *a.* Eng sharaflı, eng ulug'.

**Ashrafi xalq** Yaratilgan mavjudotlarning eng sharaflisi.

*Bu kim ashrafi xalq inson erur,*

*Ki haq sirri zotida pinhon erur. (S.I.)*

**ACH** Ochiqqan, och qolgan, och.

*Qamug' ach yesa-ichsa axir to'dur*

*Ko'zi ach kishi o'lsa achliq qo'dur. (Q.B.)*

**ACHIG'** 1. Og'izni achishtiradigan, achchiq.

*Ul tuproqda... urung, qora, suchuk, achig', sarig'... qamug' bor erdi. (R.)*

2. *ko'ch.* G'am, alam, dard.

*Sevunchlug tut, ey beg qilich urg'uchig',*

*Sevinchin tiril tutchi ko'rma achig'. (Q.B.)*

3. *ko'ch.* Achchiq, alamli, g'amli.

*Suchigka suchinsa ajun beglari,*

*Achig' bo'ldi el kun budun iglari. (Q.B.)*

4. *ko'ch.* Kishiga ozor beradigan, ko'ngilga qattiq botadigan, qattiq.

*«Kimi suchuk so'zluk, kimi achig' so'zluk, kimi qatig' ko'ngulluk. (R.)*

**Achig'-achig'** Qattiq, kuchli.

*Dedi o'ziga yig'lab achig'-achig',*

*Ki: «Achig' yig'lamoq manga ne asig'». (S.S.)*

**ACHIQ** Ochiq.

*Achiq so'zi Qirim shahdig'a o'xshar,*

*Jamol ayyomi gul ahdig'a o'xshar. (Mn.)*

**ACHLIQ** Ochlik.

*Qamug' ach yesa-ichsa axir to'dur.*

*Ko'zi ach kishi o'lsa achliq qo'dur. (Q.B.)*



**ACHUN** Dunyo, olam.

*Achun kulchirur boz alin qash chetar,  
Bir ilkin tutub shahd, biri zahr qatar. (R.)*

**ACHUQ** Xushfe'l, xushchaqchaq, xushmuomala.

*Ko'zi to'q kerak ham o'vutlug' tuzun  
Achuq ham yazuq bo'lsa qilqin so'zun. (Q.B.)*

**ACHCHIQ** Kishiga ozor beradigan, qattiq.

*Achchiq-achchiq Kuchli ta'sir qiladigan, qattiq.  
Shirin-shirin so'zlasang ilon inidin chiqar,  
Achchiq-achchiq so'zlasang musulmon dinidin chiqar. (Zm.)*

## Bb

**BA** f. Jo'nalish kelishigi vazifasida ishlatiladigan old ko'makchi; -ga.

*Ey falak qadru adolat shiyami mulku malak,  
Marhamat chog'ida rahm ayla ba holi Hapalak. (Max.)*

**BABR** f. Qoplonga o'xshash bir yirtqich hayvon, yo'lbars.

*Gahi babr urub, goh sher o'lturub,  
Va gar pilu kark ul daler o'lturub. (S.I.)*

**BABR** f. Qoplonga o'xshash bir yirtqich hayvon, yo'lbars.

*Gahi babr urub, goh sher o'lturub,  
Va gar pilu kark ul daler o'lturub. (S.I.)*

**BAD** f. Yomon, shum.

*Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi, dardu mehnatim,  
Davlat urg'an pushti poyu baxti (bad chirkindiman) (T.F.)*

**BADAL** a. Biror narsaning o'rniga o'rin bo'ladigan narsa, evaz.

*Bo'lub ma'shuqi asliy chorasozing,  
Haqiqatqa badal bo'lg'ay majozing. (F.Sh.)*

**BADAN** a. Tana, vujud, tan.

*Chu jonimdin aziz jonona sensen,  
Kerakmas jon manga sensiz badanda. (M.N.)*

**BADBURUT** f. Xunuk mo'ylovli, shop mo'ylov.

*Bordim shahardin Yakkatut,  
Baqgoli duzdi badburut. (M.)*

**BADBURUSH** Basharasi xunuk, badbashara.

*Boyvachchasideur badburush,  
To'g'ri so'zi achchig', turush. (M.)*

- BADHOL** *f*-a. Ahvoli og'ir, holi yomon.  
*Tashqari oshlig'i bo'lg'och pomol,*  
*Ichkari bo'ldi raiyat badhol. (Shn.)*
- BADIZLAMAK** Bezamoq, ko'rkam qilmoq.  
*Kun kelu ming ko'rki ortib tirilur o'lmish jahon,*  
*Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi. (R.)*
- BADKAYF** *f*. Yomon kayf qiladigan, qattiq mast bo'ladigan.  
*Boz izdihomi voizi,*  
*Badkayfu ochilmas ko'zi. (M.)*
- BADKOR** *f*. Yaramas, iflos, axloqsiz.  
*Bir «Qo'shtegirmonlik» kishi,*  
*Xo'ja Iso badkor ekan. (M.)*
- BADMAOSHLIQ** Yomon muomalalilik, qo'pollik, dag'allik;  
 chiqisha olmaslik.  
*Gohi Umarshayx mirzoning badmaoshlig'idin, gohi mo'g'ul*  
*ulusining muxolafatidin, viloyatta tura olmay yana Mo'g'u-*  
*listong'a chiqar erdi. (Bn.)*
- BADR** *a*. O'n to'rt kechalik oy, to'lin oy.  
**Badri moh** To'lin oy.  
*Halqai zulfdin ko'rundi yuzi,*  
*Holai badri mohdur kokul. (Amir.)*
- BADRAK** *f*. Tagi past, zoti past.  
*Na mazhab, qaysi din, o'z mulkini o'zi xarob etgay,*  
*Erurlar mufsid ul-arzu arozil firqayi badrak. (T.F.)*
- BAD XO'** *f*. Xulq-atvori yomon, badfe'l.  
*Va'da qildi bir kelay deb, ko'zga uyqu kelmadi,*  
*Termulub yo'lida turdum, sho'xi badxo' kelmadi. (Mash.)*
- BAHIM** *a*. Hayvon.  
*G'azabda – sabu', shahvat ichra – bahim,*  
*Agarchi erur odamizoda shayx. (N.Sh.)*
- BAHMAN** *f*. Qish mavsumining eng sovuq oyi; yanvar.  
*Kun hamalg'a kirdi ersa, keldi olam navro'zi,*  
*Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi. (R.)*
- BAHOLIQ** Qimmatbaho, qimmatli.  
*Baholiq dinor ul biliklik kishi,*  
*Bu johil biliksiz bahosiz bishi. (H.H.)*
- BAHOR** *f*. Qishdan keyin keladigan to'rt fasldan biri, ko'klam.  
*Firoqingda ko'zum yoshi bor erkan,*  
*Bahoru abri nayson hojat ermas. (A.)*

**Bahori ishq** Ishq bahori, sevgi bahori.

*Bul'ajablig'lar bahori ishq aro ko'rkim, meni,  
Gah bulutdek yig'latur, gohi choqindek kuldurur. (G'.S.)*

**Bahori husn** Yor, mahbuba.

*Ey bahori husn, eshitsang Navoiy ohini,  
Kerak, albatta, xazon yelin sog'insang gohlar. (G'.S.)*

**BAHR I a.** Dengiz.

*Donai dur so'zini afsona bil,  
So'zni jahon bahrida durdona bil. (H.A.)*

**BAHR II a.** Nasiba, ulush, hissa.

*Mol uldurkim, el andin olsa bahr,  
Dushman andin topsa tengdur no'shu zahr. (M.Q.)*

**BAHR III** Uchun.

*Niyozim bu turur sendin nigoro,  
Unutma bandani bahri xudoro. (Mn.)*

**BAHRAMAND f.** Bahra oluvchi, naf ko'ruvchi, foydalanuvchi.

**Bahramand etmak** Foydalanmoq, bahra olmoq.

*San turub loyiqmudur qilmoq tama' begonadin?  
Bahramand et iltifotu himmati mardonadin. (T.F.)*

**Bahri mavjvar** Mavjlanuvchi dengiz, to'liqlanuvchi dengiz.

*Yosh to'kub bahri mavjvar yanglig',  
Ko'k libos ichra nilufar yanglig'. (S.S.)*

**Bahri talotum** To'liqli dengiz.

*Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,  
Kelturan amvojq'a bahri talotum Turdiman. (T.F.)*

**Bahri anduh** G'am dengizi.

*Chun bular dog'i keldi motam ila,  
Bahri anduhu lujjai g'am ila. (S.S.)*

**Bahri falak** Falak dengizi.

*O'yla bahri falakmisol ichra,  
Kavkabi yer tutub hilol ichra. (S.S.)*

**BAHRIY a.** Asosan baliqlar bilan oziqlanadigan bir qush, dengiz o'rdagi.

*Humo, uqob, qarchig'ay, bahriy, lochin, itolg'u qushlarning  
salotinidurlar, alarg'a munosib ot turur. (Zm.)*

**BAHRSOY a. -f.** Dengizda suzuvchi, dengizda sayr etuvchi.

*Agar umru tavfiq bersa xudoy,  
Kema to'rt yil bo'lg'usi bahrsoy. (S.I.)*

**BAJO** *f.* O‘rinli, ma‘qul, munosib.

**Bajo keturmak** Bajarmoq, bajo keltirmoq, ado etmoq.  
*Shahni ul qasrg‘a yeturdilar,  
Borcha hukmni bajo keturdilar. (S.S.)*

**BAJUZ** *f. -a.* Boshqa, bo‘lak.

*Odilg‘a bajuz xayr sori sayr o‘lmas,  
Zolim kishining oqibati xayr o‘lmas. (N.J.)*

**BAL f.** 1. Balki (Gap bo‘laklarini bir-biriga bog‘laydigan bog‘lovchi).

*Bor edi men tulg‘a jigargo‘shaye,  
Bal jigarim mazraidin xo‘shaye. (H.A.)*

2. Balki, ehtimol, bo‘lishi mumkin.

*Bal haqiqat aro aningdur Mehr,  
Ki, bu mansuba zohir etti sipehr. (S.S.)*

**BALDA** *a.* Shahar.

**Baldai mahfuza** Muhofaza qilingan mustahkam shahar;  
Xudo saqlaydigan shahar.

*Hech yog‘iy qahr va g‘alaba bila mung‘a dast topmag‘on  
uchun baldai mahfuza derlar. (Bn.)*

**BALDU** Dastasi uzun qadimgi urush qurollaridan biri, oybolta.

*Qilich baldu bo‘ldi bu el saqchisi,  
Qilichin alir beg budun bashchisi. (Q.B.)*

**BALE** *f.* Albatta, shubhasiz.

*Yuzungni qilur toza ko‘zum yoshiyu ohim,  
Gul toza bo‘lur topsa bale obu havoni. (S.)*

**BALIYA** *a.* Balo, illat, dard.

*Fosiq va bebok edi, fisqning shomatidin obila marazig‘a  
giriftor bo‘lub, ilik-oyog‘idin qolib, necha yil turluk-turluk  
azob va mashaqqatlar tortib, ushbu baliya bila – o‘q olamdin  
naql qildi. (Bn.)*

**BALIYAT** *a.* Balo, mashaqqat, ranj.

*Andoq usrattin mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq  
amonliqqa kelduk. (Bn.)*

**BALKI** *f.* Ma‘nolari bir-biriga zid bo‘lgan gaplarni qiyoslaydi.

*Tushti Jobir dafoyini qo‘lig‘a,  
Balki olam xazoyini qo‘lig‘a. (S.S.)*

*Dema uy, balki zaminkandur agar kirsa kishi,  
Har taraf betiga urg‘aylar aning ko‘rshapalak. (Max.)*

**BALO** *a.* Falokat, ofat, kulfat, g‘am.

*Bo‘yunsundum bu yo‘lda ming balog‘a,*

*Ko'ngul parvona bo'ldi ul yulog'a. (Mn.)*

**Baloyi ishq** Ishq dardi.

*Baloyi ishq nogah uchrar ushbu telbadin o'zga,  
Ulusni bu baloyi nogahondin asrag'il, yo rab. (N.Sh.)*

**Baloyi xudo** Xudo tomonidan yuborilgan balo.

*Ko'ngul olurda ajab dilrabo emishtuksen,  
Ne dilraboki, baloyi xudo emishtuksen. (G'.S.)*

**BALOG'AT** *a.* Voyaga yetganlik, yetuklik, bolig'lik.

*Unda alomati balog'at zohir bo'lub, ko'zi suzulub, ovozi buzulub, onasining to'g'ri so'zlariga egri so'zlay boshladi. (Zm.)*

**BALQINMOQ** Yarqiramoq, yaraqlamoq, porlamoq, balqimoq.

*Tishlaridin nur balqinur erdi, ko'z nuri mengizlik. (R.)*

**BALG'AM** *a.* O'pkadan nafas yo'li orqali ajralib chiqadigan shilliqsimon modda.

*Karnay misdin, balg'am isdin bo'lurini bilmas ekansiz. (Zm.)*

**BAN** Men.

*O'nga qitaynig' O'lurtachi terman,  
Bani O'g'uzug' O'lurtachi – o'q terman. (O'.E.O.)*

*Bani jondan o'sandirdi, jafodan yor o'sanmazmi?*

*Falaklar yondi ohimdan, murodim sham'i yanmazmi? (Fuz.)*

**BAND** *f.* 1. Kishan, tushov, bo'g'ov.

*Qildi zanjiru banddin ani fard,  
Yer o'pub, dedi zori g'amparvard. (S.S.)*

2. Zindon, qamoq.

*O'lmaq avlo sanga kamand ichra,  
Tirik o'lmoq.valek band ichra. (S.S.)*

**Band aylamak** Qamamoq, qamoqqa tashlamoq.

*Qasri kunjida bor edi chohe,  
Kimsani band aylasa gohi. (S.S.)*

**Band etmak** Asir olmoq, asirga tushirmoq.

*Fikr etib komgori davlatmand,  
Dedi: «Har kimki Jobir etmish band». (S.S.)*

**Band solmoq** Kishan solmoq, kishanlamoq.

*Shart bukim, yetsa, gazande sanga,  
Solsa falak hiylasi bande sanga. (H.A.)*

**BANDA** *f.* 1. Oddiy inson, kishi, odam; xudoning quli.

*Bil munikim, sen dag'i bir bandasen,  
Ko'pragidin ojizu afgandasen. (H.A.)*

2. Tobe, bo'ysungan, itoat qilgan.

*Andag'i el bo'lub sarafkanda,  
Shah topib barcha bo'ldilar banda. (S.S.)*

3. Asir, oshiq, shaydo, maftun, mahliyo.

*Yuziga mehr bandai oti Mehr,  
Uyrulub mehrdek boshig'a sipehr. (S.S.)  
Ammo Boyo'g'lining bir qizi bor erdiki, mehri  
xovariy yuziga banda erdi. (Zm.)*

4. Kamtarlik yuzasidan kishilik olmoshining I shaxs birligi «men» o'rnida ishlatiladi.

*Qachon la'ling qadahlar no'sh qilg'ay,  
Karashmang bandani madhush qilg'ay. (Mn.)*

*Boru yo'q uylarini banda, bayon gar qilsam,  
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak. (Max.)*

**Bandai xoksor** Kamtarlik yuzasidan «men» olmoshi o'rnida ishlatiladi.

*Bandai xoksor agarchi tufrog'din o'ksuk erdim, ammo ul  
quyosh tarbiyati bilan rango-rang gullar ochtim. (M.L.)*

**BANDI** *f.* Asirga tushgan, asir, tutqun.

*Ikki bandi—o'q erdi bog' ichra,  
Kelgach ul majlisi farog' ichra. (S.S.)*

**BANOGOH** *f.* Kutilmaganda, to'satdan, bexosdan.

*Chiqmay desa joyidin, uzlatda figor o'lsa,  
Gar chiqsa banogohi domig'a duchor o'lsa. (F.)*

**BAQLAN:** **Baqlan qo'zi** Yosh va semiz qo'zi.

*Lola sag'roqin icharda sayrar usrub sanduvach,  
Turna un tortib o'tarda sakrashur baqlan qo'zi. (R.)*

**BAQMAQ** Boqmoq, iltifot qilmoq, qaramoq.

*Aya elchi beglar elig qulsa saq,  
Bu saqliq bila sen tuzu elka baq. (Q.B.)*

**BAQO** *a.* Boqiylik, manguлик.

*Salomimni tegur ul xush liqog'a,  
Qamuq boshdin-oyoq obi baqog'a. (Mn.)*

**Baqo ko'yi** Manguлик ko'chasi, boqiy dunyo, u dunyo.

*Eshit bir necha so'z kim, vaqt erur tang,  
Ki aylarman baqo ko'yiga ohang. (F.Sh.)*

**Baqoyi abad** Abadiy borlik, mangu tiriklik.

*Navoiy, agar ko'nglung baqoyi abad istar,  
Bu dayri fano ichra kerak bo'lg'aysen foniy. (F.K.)*



**IIAQOSIZ** Doimiy emas, muvaqqat.

*Ayo nomehribon ahdi baqosiz,  
Jahon yettek, umr gultek vafosiz (Mn.)*

**IIAQQOL** *a.* Mayda-chuyda uy-ro'zg'or mollari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi do'kondor.

*Bordim shahardin Yakkatut,  
Baqqoli duzdi badburut. (M.)*

**BAR I** Bor, mavjud, uchraydi.

*To'rutti apa o'g'lanin bir bayat,  
Ulug' bar, kichig bar esiz edgu at. (Q.B.)*

**BAR II** *f.* -ma.

**Shahr bar shahr** Shaharma-shahar.  
*Shahr bar shahr edi xiromi aning,  
Yetguncha maqsadig'a gomi aning. (S.S.)*

**BAR(R)** *a.* Yer sharining dengiz va okeanlardan boshqa qismi, quruqlik.

*Qachon visoling bo'lg'ay muyassar,  
Ishqingda kezdin ham bahru ham bar. (Mash.)*

**BARAFTOD** *f.* Buzilish, barbod bo'lish.

*To hirsu havas xirmani barbod o'lmas,  
To nafsu havo qasri baraftod o'lmas. (B.)*

**BARDOSHT** *f.* Yuqori ko'tarish, baland qilish.

**Bardosht qilmoq** Hurmatini joyiga qo'ymoq, hurmat bajo keltirmoq.

*Sulton Husayn mirzoni Hiriyg'a kelturub, podshohona rasm va oyin bila bardosht qilib, madrasasida dafn qildilar. (Bn.)*

**BARG** *f.* O'simliklarning yashil rangli, xlorofilli oziqlanish organi, yaproq.

**Bargi gul** Gul bargi.  
*Yuzidin bargi gul xijil erdi,  
Qaddidin sarv munfail erdi. (S.S.)*

**BARGARON** *f.* Qutulish, ozod bo'lish.

**Bargaron bo'lmoq** Qutulmoq, xoli bo'lmoq.  
*Ki-ey farzand, g'amdin bargaron bo'l,  
Bu ishkim koming o'lmish, komron bo'l. (F.Sh.)*

**BARHAMAN** *hind.* Barahman.

*Anda ne rahbon edi, ne barhaman,  
Lek bori butlar edi siymtan. (H.A.)*

**BARHAQ** *f. -a.* Haqqoniy, haqiqiy.

*G'ayri haqqim qodiri barhaqdur ul,  
Barcha foniy, boqiyi mutlaqdur ul. (L.T.)*

**BARHAQLIG'** To'g'rilik, haqqoniylik, haqlik.

*Bildurub elga haqu barhaqlig'in,  
Anglatibon qodiri mutlaqlig'in. (H.A.)*

**BARIN** *f. 1.* A'lo, oliy.

**Firdavsi barin** Oliy jannat.

*Tikondin yo'qki, sarvu yosming'a,  
Tamug'din balki firdavsi baring'a. (F.SH.)*

2. Bir urug' nomi.

*Atrof va javonibdag'ilarindin xondin Ayyub bekchik va  
Qashqa Mahmud va barinlar to'rt-besh yuz kishi ko'makku  
kelib edi. (Bn.)*

**BARMAQ** 1. *ayn.* Bormoq.

*Neku teg kerak beg muni bashlasa,  
Javi barsa ati ishin ishlasa. (Q.B.)*

2. Chiqmoq.

*Urug' edgu bo'lsa er edgu bo'lur  
Er edgu bo'lub o'tru to'rka barur. (Q.B.)*

**BARPO** *f.* Barqaror, mustahkam, mahkam.

*Rostliq ta'rifidakim vujud uyi bu tuz sutun bila barpo (H.A.)*

**BARQ** *a.* Yashin, chaqmoq, chaqin.

*Barqki egrilik o'luptur xo'yi,  
Garchi yorur, lek borur yer quyi. (H.A.)*

**Barqi garmrav** Yashinday tez yuradigan,  
chaqmoqday tezyurar.

*Bu raxshki, barqi garmravdur,  
Yo'q-yo'qki, Buroqi barqdavdur. (L.M.)*

**Barqi yomon** Dahshatli yashin.

*Qilich yashnatsang urushta, aning qay shu'lasin dushman,  
Ko'rub aytur qamug' «Hay-hay, qoching, barqi yomon  
keldi» (S.)*

**BARQDAV** *a. -f.* Yashinday tez, chopqir, yugurik.

*Bu raxshki, barqi garmravdur,  
Yo'q-yo'qki buroqi barqdavdur. (L.M.)*

**BARQAROR** *f. -a.* Turg'un, mustahkam.

*Rostliq ta'rifidakim, dunyo shu to'g'ruliq tufayli barqaror.  
(M.Q.)*

**BARQRAV** a. -f. Yashinday tez yuruvchi, chaqmoqday tez.

*Tushub bo'lg'och-o'q oromgohi visoq,*

*Topib payku jannatqa yetib buroq. (S.I.)*

**BARQXEZ** a. -f. Yashindek tez chopuvchi.

*Tugatgach duo chopti Boriqqa tez,*

*Anga dag'i Boriq bo'lub barqxez. (S.I.)*

**BARTOS** Bir xalq nomi.

*Juvong'orida erdi bartosu rus,*

*Falak xingidek barcha tundu shamus. (S.I.)*

**BARXURDOR** f. 1. Mamnun, xursand, shod.

*Ulusqa rahm etib g'amxor bo'lg'il,*

*Hamisha shodu barxurdor bo'lg'il. (Mn.)*

2. Bahra olgan, bahramand.

*Saodatni hunarg'a yor qilg'il,*

*Hunardin bizni barxurdor qilg'il. (Mn.)*

**BAS** f. 1. Faqat, faqatgina.

*Mening dardimg'a darmon vasl erur bas,*

*Vale hargiz ulashmas gavhari xas. (Mn.)*

2. und.s. Bo'ldi, yetar, qo'y.

*Anda Yapaloqqush aydi: «Ey, Ko'r, bas, ...man ham biyno va nobiyno hikoyatin bilurmanki... (Zm.)*

3. Ko'p, haddan ortiq.

*Yuziga bas taponcha urg'onidin,*

*Nilufarlar ochib gulistonidin. (S.S.)*

**BASA** Keyin, so'ng, natijada, oqibatda.

*Qayu beg eratni sevundurmasa*

*Qilich qinda chiqmas aninda basa. (Q.B.)*

**BASAL** a. Piyoz.

*Ko'ni so'z asalteg, bu yalg'an basal,*

*Basal yeb achitma ag'iz, ye asal. (H.H.)*

**BASALLA** f. -a. Sallali.

*Yetti odamni o'z mahallasidin,*

*Qorni to'q, yangi to'n, basallasidin. (M.)*

**BASAR** a. Ko'z.

*Yaqub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz,*

*Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma. (L.)*

**BASE** f. Ko'p, juda, rosa, g'oyat.

*Ko'zin ochib jamolin yaxshi ko'rdi,*

*Base diljo'yulqlar birla so'rdi. (F.Sh.)*

**BASIT** *a.* Qiyin bo'lmagan, sodda, oddiy.

*Barchasig'a bor aning ilmi muhit,  
Gar murakkab bo'lsun ul shay, gar basit. (L.T.)*

**BASMAQ** 1. Tutib turmoq, ushlab turmoq, idora qilmoq.

*Budunug' bilig birla basti begi,  
Bilig bo'lmasa ishka yaqmas o'gi. (Q.B.)*

2. Bartaraf qilmoq, yo'q qilmoq, yo'qotmoq.

*Budunqa asig' qil bo'lub qilma yas,  
Qilinch edgu tutg'il esiz yasi bas. (Q.B.)*

3. Bosib olmoq, ishg'ol qilmoq, zabt etmoq.

*Qilich birla beglar uzatur ilig,  
Qilichsiz o'sal beg basumas elig. (Q.B.)*

**BASONI** *f.* Kabi, singari.

*G'aribu bu viloyat xonumonidin adashganman,  
Basoni murg'i vahshiy oshyonidin adashganman. (F.)*

**BASORAT** *a.* Ko'zi ochiqlik, ziyraklik, sezgirlik.

*Tushdi sening boshing uza har illatu razolat,  
Boq holingg'a nelar bo'lar, gar bo'lsa basorat. (H.)*

**BAST** *a.* Ochish, yuzaga chiqarish, ma'lum bo'lish.

**Bastu kushod** Kashf etish, bilish.

*Jahon bastu kushodi ilm birla,  
Nadur dilni murodi ilm birla. (F.)*

**BASTA** *f.* 1. Bog'langan, bog'liq.

**Bastai balo bo'lmoq** Baloga giriftor bo'lmoq.

*Ki, chu men bastai balo bo'ldum,  
Jobir ilgiga muftalo bo'ldum. (S.S.)*

2. Yopiq, berk, berkitib qo'yilgan.

*Basta eshik ochg'usidur sabr, bil,  
Sabr qilu, sabr qilu, sabr qil. (Zm.)*

**BATAR** *a.* Battar, yomon.

*Baski yuz ko'yi bila ro'zi kelib, ro'zi ketar,  
O'zmag'ay mundin baloe bo'lmag'ay mundin batar. (T.F.)*

**BATAXSIS** *f.* -a. Xususan; axir.

*Bularni tuttursaq, ne ayb bo'lg'ay? Bataxsis bizning  
ko'zumuzning o'trusida bizning otimizni minib, bizning  
to'numuzni kiyib, bizning qo'yumuzni yeb yurugaylar. (Bn.)*

**BAXT** *f.* Hayotdan, turmushdan mamnunlik, baxt-saodat.

*Yuzungdin bilgurur davlat nishoni,  
O'ramung tuprog'i, baxt oshiyoni. (Mn.)*



**Baxti qaro** Baxtsiz, baxti qora.

*Qirq, yuz, ming aqrabolar ettilar mandin nufur,  
Ne balo, baxti qaroyu tolei shum Turdiman. (T.F.)*

**BAXTIYORI** *f.* Baxt kulib boqqan, baxtli.

*Zihi farxunda toli' baxtiyori,  
Kim ul hazratta bir kun topsa bori. (Mn.)*

**BAXSHISH** *f.* Marhamat, muruvvat, in'om.

*Ki, nechukkim kerak qilib ko'shish,  
Haq taolodin istabon baxshish. (S.S.)*

**BAY** Boy.

*Bu neng alg'uqa bir kerak bay budun  
Budun bayliqinga to'ru tuz qo'dun. (Q.B.)*

**BAYAKBORA** *f.* Birdan, to'satdan, birvarakay.

*Topmayin g'ayri qaytmoq chora,  
Buzulub yondilar bayakbora. (S.S.)*

**BAYAT** Xudo, tangri.

*Bayat berdi emdi sanga o'g ko'ngul,  
Uqush ham bilig birla bo'ldung amul. (Q.B.)*

**BAY'AT** *a.* Oliy hokimiyatni tanish, biror kishining hukmronligini tan olish.

**Bay'at qo'llarini bermak** Hukmdor deb tan olmoq.  
*Bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a  
va valiahdlig'ig'a nasb qildim. (Bn.)*

**BAYDAQ** *a.* (Shaxmatda) Piyoda.

*Agarchi arsa xoli qolsa mutlaq,  
Tutarmi anda shoh o'rnini baydaq. (S.I.)*

**BAYLIQ** Boylik.

*Bu neng alg'uqa bir kerak bay budun,  
Budun bayliqinga to'ru tuz qo'dun. (Q.B.)*

**BAYON** *f.* Voqea, hodisalarning tavsifi, ifodasi, izoh.

*Suhayl bilan Guldursunning chohtan chiqib qochg'onlari  
bayoni. (S.Sar.)*

**BAYRAM** Shodlik, quvonch, o'yin-kulgi bilan kutib olish an'ana bo'lib qolgan kun yoki kunlar. **Bayram oyi** 1. Shavvol (Hijriy yil hisobiga ko'ra ramazon oyidan keyin keladigan o'ninchi oyning nomi). 2. *ko'ch.* go'zal qosh.

*Pari ruxsoralarning ko'rkka boyi,  
Yuzung navro'zu qoshing bayram oyi. (Mn.)*

- BAYT I** *a.* Aruz vaznida yozilgan ikki misrali she'riy parcha.  
*Va yuqori bitgan baytni o'qudikim, faqir bu sahar aytib erdim. (H.PM.)*
- BAYT II** *a.* Uy, xona.  
**Bayt ul-haram** Makka shahridagi muqaddas Ka'ba.  
*Ko'rmasam bir dam seni, bayt ul-haramni naylayin?  
Qolg'on Ibrohimdin ul eski do'konni naylayin? (Mash.)*  
**Bayt ul-hazan** G'amxona, g'am uyi; g'am, qayg'u.  
*Solib borma meni, ey Yusufi husn,  
Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda. (A.)*
- BAYTIG'** Baytni.  
*Bu so'zka tamuqiy bu baytig' o'qi,  
Bu so'zka anuq tut ko'ngul o'g taqi. (Q.B.)*
- BAYUMAQ** Mol-mulki ko'paymoq, boy bo'lmoq, boyimoq.  
*Etilsa eli ham bayusa budun,  
Ati edgu bo'lsa ul ertar o'dun. (Q.B.)*
- BAYZO** *a.* Oq.  
*Sabuyi la'l birlan shishayi bayzou oltun jom,  
O'shal majlisda soqiy bir nigori siymtan bo'lsa. (F.)*
- BAZA** *f.* Ayb, gunoh.  
*Yo'qsa yolg'on demakda kim bazadur,  
Chun uzoq chekti asru bemazadur. (S.S.)*
- BAZL** *a.* Ehson, baxshish, in'om.  
*Saxiy uldurki, nav'e bazl qilg'ay,  
Agar xud sufra ichra bo'lsa noni. (G'.S.)*
- BAZM** *f.* Shodlik, o'yin-kulgi bilan o'tkaziladigan o'tirish, ziyofat, to'y.  
*Bazmda soqiylar o'lub jilvasoz,  
Ahli g'ino har sori dastonnavoz. (H.A.)*
- BAZMAFRO'Z** *f.* Shohona bazmni, katta bazmni yorituvchi.  
*Jobiri rohzan bo'lub firuz,  
Tun-u kun bog'i ichra bazmafro'z. (S.S.)*
- BAZMOROY** *f.* Bazmga fayz kirituvchi, bazmni bezovchi.  
*Mezbon yana bo'ldi bazmoroy,  
Dedi o'n hur o'lub nishotafzoy. (S.S.)*
- BAZZOZ** *a.* Gazlama sotadigan kishi, gazlamafurush.  
*Ahli dil bo'lma, zamonning boyi bo'l, bazzozi bo'!  
Aqchadin langar cho'p ushlab, rastaning dorbozi bo'! (Z.)*



**BAG'** Bog', bog'ich.

*Bu beglik bag'i ko'r bu ekki bo'lur,  
Bu ekki tugal bo'lsa beglik turur. (Q.B.)*

**BAG'AYR** f. -a. Boshqa, o'zga, bo'lak.

*Bor edi anda guna-guna shajar,  
Gul yo'q edi bag'ayri nilufar. (S.S.)*

**BAG'IR** 1. Ko'krak, koks, jigar.

*Tig' ila bag'rim aylasam pora,  
Chun jigargo'sham itti, ne chora? (S.S.)*

2. Qalb, dil, ko'ngil.

*Jamolingdin xirad shaydo bo'lubtur,  
Ichim bag'rim qamuq savdo to'lubtur. (Mn.)*

3. Panoh, g'amxo'rlik.

*Bag'irsaqni bo'lsa bag'irqa urun,  
Menga mundag' aydi bilig ham uqush. (Q.B.)*

**Bag'ri tosh** Toshbag'ir, berahm; yor, mahbuba.

*Chiqti yorim kecha yo'l ozmun qilib ul bag'ri tosh  
Bas ajoyibtur qorong'u kecha chiqmoqliq quyosh. (G'.S.)*

**Bag'ir xunobi** Bag'ir qoni.

*Bag'rining xunobini ul notavon,  
Ko'z yo'lidin har taraf aylab ravon. (L.T.)*

**Bag'rig'a tish berkitmak** Sabr-toqat qilmoq, chidamoq.

*Darddin bag'rig'a zori dam-badam berkitti tish,  
Qut uchun bemor yanglig'kim, g'izosin tishladi. (F.K.)*

**BAG'IRSAQ** Mehribon, rahmdil.

*Bag'irsaqqa aytur kishi o'z so'zin.  
Bag'irsaq yulug'lar kishika o'zin. (Q.B.)*

**BAG'IRSAQLIQ** Mehribonlik, rahmdillik.

*Neku ter eshitgil bag'irsaq kishi,  
Bag'irsaqliq-ul ko'r kishilik bashi. (Q.B.)*

**BAG'ISHLAMAQ** 1. Baxsh etmoq, in'om etmoq, bermoq.

*Aqi bo'l bag'ishla ichur ham yitur.  
Qali eksusa ur yana al yetur. (Q.B.)*

2. Kechurmoq, afv etmoq, gunohidan o'tmoq.

*Bag'ishlasang qonim, sultonsen oxir,  
Ko'zumga nur, tanimg'a jonsen oxir. (Mn.)*

**BAG'LIG'** Aloqasi bo'lgan, aloqador, bog'liq.

*Beg ati bilig birla bag'lig' turur  
Bilig lam(i) ketsa beg ati qalur. (Q.B.)*

**BAG'OYAT** *f.* G'oyat, g'oyatda, juda, o'ta.

*Odamning terisi bag'oyat ko'rkluk erdi. (R.)*

**BAG'RIQARO** Ko'kragi qora tusli bir qush, qorabovur, bulduriq.

*Bu toza tugonkim g'amidin ko'nglum yarodur,*

*Ko'nglum qushi g'am dashti aro bag'riqarodur. (N.Sh.)*

**BASH I** 1. Bosh.

*Bu yanglig' turur barcha beglik ishi,*

*Qayusi eraj yer qayu o'z bashi. (Q.B.)*

2. Boshlanish, bosh.

*Neku ter eshitgil vafolig' kishi*

*Vafa-ul kishika kishilik bashi. (Q.B.)*

**BASH II** Yara.

*Ko'nglum ichin o'rtadi,*

*Etmish bashig' qartadi. (D.L.T.)*

**BASHAR** *a.* Inson, odam, odamzod.

*K-ey bashar xilqatu farishtasifot,*

*Bergan o'lgan tanimg'a toza hayot. (S.S.)*

**BASHIRKAT** *f. -a.* Sheriklikda, birgalikda.

*Muhammad Burunduqbek va Zunnunbek va yana Sulton*

*Husayn mirzodin qolg'on va bu mirzolar bila bo'lg'on beklar*

*yig'ilib, ittifoq qilib, Badiuzzamon mirzo bila Muzaffar Hu-*

*sayn mirzoni Hiri taxtida bashirkat podshoh qildilar. (Bn.)*

**BASHLAMAQ** 1. Biror ishga kirishmoq, boshlamoq.

*Bilig birla bashlar kishi ish bashi*

*Uqush birla uqsa o'ngarur ishi. (Q.B.)*

2. Rahbarlik qilmoq, bosh bo'lmoq, boshqarmoq, idora qilmoq.

*Bedug ish budun bashlamaqi ag'ir,*

*Bash ag'riq bila tutchi emgak tegir. (Q.B.)*

**BASHOQ** Yoy o'qi uchiga o'rnatilgan o'tkir uchli temir.

*O'qi nogoh agar sandong'a tekxa,*

*Bashog'i itlanur sandon ichinda. (Mn.)*

**BASHCHI** Boshliq, rahbar, boshchi.

*Qilich baldu bo'ldi bu el saqchisi,*

*Qilichin alir beg budun bashchisi. (Q.B.)*

**BACHCHA** *f.* Bola.

*Qoshlari ostida go'yo ikki fatton ko'zlari,*

*Ikki hindu bachchadurkim, yondashib yo tortadur. (F.)*



- BACHCHATALOQ** *f.-a.* So'kish, haqorat bildiruvchi so'z.  
*Arqonimi yeringa sudrab chiqay,*  
*Bachchataloq qishloqilarni uray. (M.)*
- BACHCHAG'AR** *f.* So'kish, haqorat, nafratni ifodalaydi.  
*Xoh o'lung, xoh qoling bachchag'ar,*  
*Debki, uzangiga oyog'in tirar. (M.)*
- BANG** *f.* Kayf beradigan narkotik modda, nasha.  
*Choyxo'ridin ko'knori ko'p,*  
*Bir rasta nosu bang ekan. (M.)*
- BEADAD** *f. -a.* Son-sanog'i yo'q, son-sanoqsiz, juda ko'p.  
*Ichida beadad shajar butubon,*  
*Sabza o'rnig'a nilufar butubon. (S.S.)*
- BEANDOZA** *f.* Behad, cheksiz, ko'p.  
*Vale yuz muncha dardi toza birla,*  
*G'amu anduhi beandoza birla. (F.Sh.)*
- BEBAR** *f.* Mevasiz.  
*Niholi bebari sarkashdurur avomunnos,*  
*Ne sud topmasa ma'nig'a ittisol kamol. (K.)*
- BEBOK** *f.* 1. Rahm-shafqat qilmaydigan, rahmsiz, berahm, zolim.  
*Talabon molu elni aylab halok,*  
*Yonibon komi dil bila bebok. (S.S.)*  
 2. Hayiqmaydigan, qo'rqmas, botir.  
*Ushbu so'z birla o'shul bebok el,*  
*Dema bebok, base cholok el. (Shn.)*
- BEDARD** *f. ko'ch.* Ishqsiz, muhabbatsiz.  
*Bedardlarning jafolaridin,*  
*Faryod etib, fig'on etib ket. (N.)*
- BEDAST** *f.* Qo'lsiz.  
*Bedastu po bo'lmoq* Ojiz qolmoq, notavon qolmoq.  
*Bekasu bemuttako bo'lg'an kishidin dard so'rang,*  
*Misli man bedastu po bo'lg'an kishidin dard so'rang. (Mash.)*
- BEDAVLAT** *f. -a.* Yomon xarakterli, badxulq, shum, badbaxt.  
*Bu bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila*  
*o'g'lining xonumonin barbod berdi. (Bn.)*
- BEDA'VO** *f. -a.* Da'vosiz.  
*Beda'voyu bejanjal* Janjalsiz, mojarosiz.  
*Zo'rlarning taxtasin suv sori otdi sindurub,*  
*El barobar ichdi beda'voyu bejanjal suv. (K.)*
- BEDIL** *f.* 1. Qo'rqoq, yuraksiz.  
*Bedil bo'lmoq* Qo'rqmoq.

*Besh-olti kundin so'ng tog' va tuz va qo'rg'on manga ruju' qilg'onidin Tanbal va tavobii bedil va bepoy bo'lub, cherigi va eli uchar – to'rtar toqqa tuzga qocha kirishtilar. (Bn.)*

2. Oshiq, maftun, shaydo.

*Yuqori dilbaru quyi bedil,*

*Bir-biridin vale ikov g'ofil. (S.S.)*

**BEDILLIQ** Qo'rqqoqlik, yuraksizlik.

*Xandaqtin chiqmag'onlar qo'rqqoqliqqa otiqib, bedilliq bila afsona bo'ldilar. (Bn.)*

**BEDILONA** f. Qo'rqqoqlarga xos, qo'rqqoqlarcha.

*Tanbal bila o'tru bo'lg'on chog' xondin bedilona aqvol va af'ol zohir bo'lur. (Bn.)*

**BEDOD** f. Zulm, jabr, qiynoq, adolatsizlik.

*Qildilar, chun ko'p ayladi bedod,*

*Qolg'oni zinhor ila faryod. (S.S.)*

**BEDONISH** f. Johil, o'qimagan, bilimsiz, savodsiz.

*Mingboshilik kimning ishi,*

*Desam, dedi bedonishi. (M.)*

**BEDOR** f. 1. Uyg'oq, uxlamagan, uyqusiz.

*Go'zi yoshlilarin holin na bilsun mardumi g'ofil,*

*Kavokib sayrini shab to sahar bedor o'landan so'r. (Fuz.)*

2. ko'ch. Hushyor, sergak, ziyrak.

*G'aflat uyqusidin uyg'on, gar tilar bo'lsang murod,*

*Kim yetar maqsadg'a har kim, bo'lsa ul bedorroq. (B.)*

**BEDUG** 1. Katta, ulkan.

**Bedug tutmoq** O'zini katta olmoq, mag'rurlanmoq, kekkaymoq.

*Uluqsig' bedug tutsa beglar ko'ngul,*

*Sezigsiz ujuzluq ko'rur ey o'g'ul. (Q.B.)*

2. Ulug', mumtoz, buyuk.

*Apa og'lani barcha asli bedug,*

*Bilig birla bo'ldi ko'r udrun kad o'g. (Q.B.)*

**BEG** Bek; hokim; amaldor.

*Qara tengsizin barcha beglar etar,*

*Begi qilsa tengsiz aning kim etar. (Q.B.)*

*Qilich birla beglar uzatur ilig*

*Qilichsiz o'sal beg basumas elig. (Q.B.)*

**BEGIM** Bekka murojaat shakli; Ey begim.

*Okush yillar yaratqon boqiy tutsun,*

*Hayotingni, begim, davron ichinda. (Mn.)*

**BegliK** Hukmdorlik, beklík; hokimiyat.

*Bu beglik izinga o'ti o'g bilik*

*Uqush birla emla ey qilqi silik. (Q.B.)*

*Fasad qayda bo'lsa qachar qut teza*

*Fasad chin yurur tutchi beglik buza. (Q.B.)*

**Begona** *f.* Qarindoshligi, yaqinligi bo'lmagan, yot.

*San turub loyiqmudur, qilmoq tama' begonadin,*

*Qiblagoho, mandin ikroh etma yer mayxonadin. (T.F.)*

**Begumon** *f.* Shubhasiz, shaksiz, gumonsiz.

*Yaxshidur avvalg'isi, xud begumon,*

*Lek ikkinchisi ham ermas yomon. (H.A.)*

**Beh** Yaxshi, tuzuk.

*Ko'rarmen bog'i jannat mevasindin,*

*Yangoqing norini yuz qatla behroq. (A.)*

**Behad** *f. -a.* Benihoya, g'oyat darajada, juda.

*Qoldi chun ikki kunchalik maqsad,*

*Yana yel suni qo'zg'adi behad. (S.S.)*

**Behavo** *f. -a.* Nochor, abgor, xarob.

*Men asru behavo, siz muhtashamsiz,*

*Latifu noziku zebo sanamsiz. (Mn.)*

**Behbud** *f.* Foyda, naf.

*Ahmaq ahli bilmagay so'z ichra o'z behbudini. (Og.)*

**Behisob** *f. -a.* 1. Son-sanoqsiz, hisobsiz, ko'p.

*Madhini behisob yozg'aylar,*

*Balki mavzun kitob yozg'aylar. (S.S.)*

2. Ma'qul emas, o'rinli emas.

*Kech bo'lubtur, qorong'uda qo'rg'ong'a yaqin sig'inib bor-*

*moq behisobdur, keyinrak tortib tushaling, tongla ne*

*choralari bordur, qo'rg'onni berurlar. (Bn.)*

**Behol** *f. -a.* Holi yo'q, holdan toygan, holsiz.

*Ne ko'rsunkim, bo'lub tuproqda behol,*

*Suhayl yotur, toptalmish yang'lig' gul ol. (S.Sar.)*

**Behuda** *f. -a.* Foydasi bo'lmagan, nafi yo'q, foydasiz.

*G'ussai behuda asbobi nadomat ayladim,*

*Bilmadim o'z aybimi, xalqqa mazammat ayladim. (T.F.)*

**Beilm** *f. -a.* Ilmsiz, bilimsiz, ma'rifatsiz

*Darig'o, Furqatiy, beilm qoldim,*

*O'zumni jahl zindonig'a soldim. (F.)*

- BEIRFON** *f. -a.* Johil, nodon, savodsiz, ma'rifatsiz.  
*Bilmagan o'z qadrini ne bilqusi so'z qadrini,*  
*Hayfdur dono demak, nodonu beirfong'a so'z. (Og.)*
- BEIXTIYOR** *f. -a.* Ixtiyori o'zida bo'lmagan, ixtiyorsiz.  
*Men edim ul amrda beixtiyor,*  
*Har ne sen etsang manga ne ixtiyor. (S.S.)*
- BEISHTIBOH** *f. -a.* Shubhasiz, shaksiz, aniq.  
*Aytti qozi: Ketur, ikki guvoh,*  
*To qilayin hukmini beishtiboh. (S.S.)*
- BEJO** *f.* Noo'rin, nojo'ya, chakki.  
*Ul qaro ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur,*  
*Balki andin dahr eli ortuqcha g'avg'o tortadur. (F.)*
- BEK I** O'tmishda katta qishloq, shahar yoki viloyat hokimi; amaldor.  
*Tor ko'ngulli beklar, man-man demang, kenglik qiling,*  
*To'qson ikki bovli o'zbak yurtidur, tenglik qiling. (T.F.)*  
*Samarqand taxtig'a o'lturg'och, Samarqand beklarini*  
*burung'udek – o'q rioyat va inoyat qildim. (Bn.)*
- BEK II** Mustahkam, mahkam, pishiq.  
*Eki neng turur elka bag'i beki*  
*Biri saqliq – ul bir to'ru el ko'ki. (Q.B.)*  
**Bek atka** Podshoh o'g'lining tarbiyasi bilan shug'ullanadigan kishi. Shahzodaning tarbiyachisi.  
*Shayx Mazidbek o'lganidin so'ng ani manga bek atka*  
*qildilar. (Bn.)*  
**Bekta tutmaq** Tiymoq.  
*Tiling bekta tutg'il, tishing sinmasun,*  
*Qali chiqa, bekta tishingni siyur. (H.H.)*
- BEKAS** *f.* Hech kimi yo'q, yolg'iz, kimsasiz, g'arib.  
*Mani bekas Uvaysiy, yig'lag'ayman ro'zu shab tinmay,*  
*Uyunning ziynati, ko'z ravshani, xonimni sog'indim. (U.)*
- BEKLAMAK** Mustahkam qilmoq, mustahkamlamoq.  
*Qayu beg saq ersa elin bekladi*  
*Yag'i bo'yni yanchti uza igladi. (Q.B.)*
- BEKOT** Kichik beklar.  
*Sulton Ahmad mirzoning zamonida ham bek va bekot qalin*  
*bog' va bog'cha soldilar. (Bn.)*
- BELGU** Taniqli qiladigan, belgi, alomat, taniq.  
*Evak qurg'u qilqi qilinchi bushi*  
*Biligsizka belgu bo'lur bu ishi. (Q.B.)*

**BELGULUG** Ko'zga tashlanib turadigan, sezilarli.

**Belgulug bo'lmaq** Mashhur bo'lmoq, nom chiqarmoq.

*Talu beg bo'layin tesa belgulug,*

*Talu tutg'u erdam ey atlig' kulug.* (Q.B.)

**BEMOR** f. 1. Biror kasallik bilan kasallangan, kasal, xasta.

*Bemor tuzalgusi kelsa, tabib o'z oyog'i birlan kelur.* (Zm.)

2. ko'ch. Birovni sevib qolgan kishi, oshiq.

*Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,*

*Zuloli zavq-shavqin tashnai diydor o'landan so'r.* (Fuz.)

**BEMOYA** f. Pulsiz, sarmoyasiz; kambag'al, qashshoq.

*Diramdur moyai ishrat ulug'a,*

*Vale men bo'lmisham bemoya navro'z.* (Og.)

**BEMULOHAZA** f. -a. O'ylamay, o'yamasdan, mulohaza qilmay, mulohazasiz.

*Ushbu bir bemulohaza hukm qilg'onimizdin ne miqdor sho'r fitnalar qo'pti.* (Bn.)

**BEMUROD** f. -a. Murodiga yetolmay, natijasiz.

*Necha navbat Samarqand ustiga cherik tortti, ba'zi mahal*

*shikast topti, ba'zi mahal bemurod yondi.* (Bn.)

**BEMURUVVAT** f.-a. Odamga yaxshilik qilmaydigan, marhamatsiz.

*Manga mardumlar aydi: berma ko'ngul bevafo yora,*

*Netay, ey bemuruvvat, oxiri sharmandalar qilding.* (Z.)

**BEMUTTAKO** f. -a. Madadkorsiz, suyanchsiz, homiysiz.

*Bekasu bemuttako bo'lg'an kishidin dard so'rang,*

*Misli man bedastu po bo'lg'an kishidin dard so'rang.*

(Mash.)

**BEMUZOYAQA** f. -a. Tinch yo'l bilan, jangsiz, qarshiliksiz.

*Xo'jand ichida Amir Mo'g'ulning otasi Abdulvahob shig'ovul*

*erdi, men yetgach – o'q qo'rg'onni bemuzoyaqa topshurdi.*

(Bn.)

**BENAVO** f. G'arib, bechora, sho'rlik.

*Musofirman, g'aribman, bekasu ham benavodurman,*

*Vujudum dardg'a to'ldi, emdi darmonimni sog'indim.* (U.)

**BENAVOLIG'** Bechoralik, g'ariblik.

*Tanida benavolig'din asarlar,*

*Yuzida oshnolig'din xabarlar.* (F.Sh.)

**BENISH** f. Nishsiz, nishtarsiz.

*Bo'lma halovatqa kasal,*

*Olamda yo'q benish asal.* (M.)

**BEPOY** Oyoqsiz.

**Bepoy bo'lmoq** Sarosimaga tushmoq, tashvishlanmoq.  
*Bu so'zdin bepoy bo'lub, muxoliflarni tilab ahd va shart qilib, qal'ani berdi. (Bn.)*

**BEPOSHNA** *f.* Tayini yo'q, betayin, tuturiqsiz.

*Ajab munofiq va beposhna mardak edi. (Bn.)*

**BEQADR** *f. -a.* Qadri, hurmat-e'tibori yo'q, qadrsiz.

*Xoru beqadramki mundin otinib, jubrindiman. (T.F.)*

**BEQAROR** *f. -a.* Dovdiragan, sarosimaga tushgan.

*Xo'ja so'zini munga bermay qaror,  
 Mardumi sahroyi bo'lur beqaror. (M.)*

**BEQAYD** *f. -a.* Bog'liq bo'lmagan, biror narsa bilan bog'lanmagan, kishansiz.

*Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,  
 Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen. (B.)*

**BERANGLIQ** Ziynatsizlik, zebu ziynatsizlik.

*Faqr aro berangliq dushvor erur behad valek,  
 Xirqada tikmak erur oson qizil, sorig', yashil. (F.K.)*

**BERDIK** Bergan.

*Turonga berdigim zararlarga to'lamoq uchun keldim, xo-qonim! (Fit.)*

**BERIYOZAT** *f. -a.* Mashaqqat tortmagan, qiynalmagan, azob chekmagan.

*Vaysiy beriyozat deb sahl tutma, ey orif,  
 Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman. (U.)*

**BERK** Mustahkam, mahkam.

*Farg'onada muncha berk qo'rg'on yo'qtur. (Bn.)*

**BERKITMOQ** Biror narsa bilan to'sib qo'ymoq, yopmoq.

*Kim bu teshikni berkitsa, ne tilagi bo'lsa bergaymen. (R.)*

**BERMAK** 1. O'zidagini boshqaga topshirmoq, ixtiyoridagini birovga o'tkazmoq.

*Kishi iglasa o't o'tachi berur,  
 O'tachi iginga emin kim qilur. (Q.B.)*

2. Ehtiyojini qondirmoq, ta'minlamoq; qo'ymoq.

*Bo'rini dag'i galadin dur qil,  
 Su beribon bog'ni ma'mur qil. (H.A.)*

3. Baxsh etmoq, ato etmoq, in'om qilmoq, bag'ishlamoq.

*Nechakim bersa chehrang ko'zlara nur,  
 Chechaktek bo'lmag'il husnungg'a mag'rur. (Mn.)*

4. Otga qo'shilib qo'shma fe'l hosil qiladi.

*Beribon kemalar aro orom,*

*Yel kibi aylasak, su uzra xirom. (S.S.)*

**BESAR** f. Boshi yo'q, boshsiz.

**Besaru poy** Tashvishlangan, oromsiz, besaranjom.

*Falak ishqing yo'linda besaru poy,*

*Isirg'ang donasi Zuhra, yuzung oy. (Mn.)*

**BESIPAH** f. Qo'shinsiz, lashkarsiz, askarsiz.

*Shahliq oyinin aylabon zanbur,*

*Aylamas besipah sukunu murur. (S.S.)*

**BESIRFA** f. -a. Be'mani, o'ylamay qilingan.

*Ish ko'rgan yigitlar mundoq besirfa chiqishlaridin man qilsalar, ta'n qila kirishti. (Bn.)*

**BESUTUN** Erondagi bir qoya nomi.

*Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,*

*Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina. (Og.)*

**BETAAMMUL** f. -a. O'ylamay, o'ylamasdan, mulohazasiz.

*Axir Andijondin ikkinchi navbat chiqqonimizg'a sabab ushbu betaammul hukm qilg'onimiz bo'ldi. (Bn.)*

**BETAHOSHI** Qo'rquvsiz.

*Meni tanimadi yo urush iztirobidinmu edi, betahoshi yalang bozumg'a - o'q qilich soldi. (Bn.)*

**BETAKALLUF** f. -a. Hashamsiz, bezaksiz, oddiy, sodda.

*Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti. (Bn.)*

**BETARK** f. -a. Bekamu ko'st, to'liq.

*Pokiza e'tiqod kishi erdi, besh vaqt namozini betark o'tar edi. (Bn.)*

**BETAVAQQUF** f. -a. Surunkali, to'xtovsiz, beto'xtov.

*Biz dag'i yiroqtag'i kishimizga boqmay, hozir kishimiz bila betavaqquf. qishning zarb sovug'ida tengriga tavakkul qilib, Andijondin Bandi Solor yo'li bila Sultonim bila Ahmadbekning ustiga otlanduq. (Bn.)*

**BETOB** f. Biror xastalik bilan og'rigan; xasta, kasal, bemor.

*Choh ichinda Suhayl edi betob,*

*Holini za'f qilmish erdi xarob. (S.Sar.)*

**BETOQATLIQ** 1. Betoblik, xastalik.

*Va andin o'tubturkim, men aning betoqatlig'ig'a toqat kelturgaymen. (Bn.)*

2. Bezovtalik, qo'rquv.

*Mirzo o'lumga buyurdi. Darvesh Muhammad tarxon betoqatliqtin sutung'a yopushti. (Bn.)*

**BEVAFO** *f. -a.* Vafo qilmaydigan, vafosiz, sadoqatsiz.

*Salomimni tegur ul dilsitong'a,*

*Rahmsiz bevafo joni jahong'a. (Mn.)*

**BEVAHM** *f. -a.* Qo'rqusiz, vahmsiz, qo'rqunchsiz.

*Bevahmu biym Vahmsiz va qo'rqinchsiz.*

*Tig' berib zolg'a bevahmu biym,*

*Bir sori dog'i to'kubon ganju siym. (H.A.)*

**BEVATAN** *f. -a.* Joysiz, makonsiz.

*To bevatan o'lmasun ko'ngullar,*

*Zulfungdin ayirma pechu xamni. (Amir.)*

**BEXONUMON** *f.* Sarson-sargardon, uysiz, joysiz, makonsiz.

*Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,*

*Nigoro deb oting aytsamki, shavqingdin zabon o'rtar.*

*(Mash.)*

**BEXOR** *f.* Tikansiz.

*Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor?*

*Qaysi bulbulning seningdek bir guli bexori bor? (Mu.)*

**BEXOST** *f.* Kutilmaganda, tasodifan.

*Jarrohning ixtiyori bila yo bexost milidin Sulton Ali mirzoning ko'zlariga osibe yetmadi. (Bn.)*

**BEXUD** *f.* Hushidan ketgan, hushini yo'qotgan, hushsiz, behush.

*Vale gulchehra g'amgin erdi behad,*

*O'zinda erdi gohi, gohi bexud. (F.Sh.)*

**BEXUDLUQ** Hushsizlik, behushlik.

*Necha bu bexudluq ila yilu oy,*

*Voy, agar kelmasang o'zungga voy! (H.A.)*

**BEXUDONA** *f.* Hushsiz holda, behush.

*Xoja xud andoq o'zidin bordi,*

*Ki olib bexudona sipqordi. (S.S.)*

**BEZAMAK** Har xil zeb-ziynatlar bilan ko'rkli qilmoq, chiroyli qilmoq.

*Mavlo azza va jalla Odamni qamug' ko'rkluklar birla bezadi. (R.)*

**BEG'OYA** G'oyat, bag'oyat, hadsiz, juda.

*Ki, shoyad o'zgalardek Ogahiyni,*

*Tarabnok aylagay beg'oya navro'z. (Og.)*



**BEG'OYAT** *f. -a.* Cheksiz, hadsiz.

*Bizni ehtimomimiz ul sorilar bormoqqa behad va beg'oyatur. (Bn.)*

**BESH I** *f.* Ortiq, ziyoda, ziyod, ko'p.

*G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,*

*Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi dardu mehnatim. (T.F.)*

**BESH II** To'rtidan keyin, oltidan oldin keladigan sanoq son.

*Adin ma bu besh neng yiraq tutg'u beg,*

*Ati edgu bo'lsa ku jav bulg'u beg. (Q.B.)*

**BESHA** *f.* 1. O'rmon, chakalakzor, changalzor, to'qay.

*Bahr aro ofati nechukki nahang,*

*Besha ichra nechukki sheru palang. (S.S.)*

2. Makon, maskan.

**Besha tutmoq** Makon tutmoq, yashamoq.

*Kim jazoirdakim tutub besha,*

*Ul kishiga bu ish bo'lub pesha. (S.S.)*

**BESHAK** *f.* Shaksiz, shubhasiz.

*Beshak biling, bu dunyo barcha eldan o'taro,*

*Inonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro. (A.Y.)*

**BESHINCH** Beshinchisi.

*Bu tortinch yavuz begka aruq qilinch*

*Beshinch yarag'siz bu yalg'an erinch. (Q.B.)*

**BESHUUR** *f.-a.* Ongsiz, hissiz, shuursiz.

*Ul tun ul kishvar sarosar yorumish,*

*Voqif.elni beshuur etmish ul ish. (L.T.)*

**BECHORA** *f.* 1. Chorasizlikka, mushkul ahvolga tushib qolgan, chorasiz, ilojsiz.

*Oxir men Xisravshohni tutub, navkar-savdaridin ayirib,*

*Kobulni Zunnunning kichik o'g'li Muqimdin olg'on yili*

*Zunnun, Xisravshoh mening jihatimdin, bechora bo'lub*

*borib, Sulton Husayn mirzoni ko'rdilar. (Bn.)*

2. Baxti qaro, tolesiz, sho'rlik.

*Kim ne kishikim, sanga mahkum erur,*

*Zulmunga bechorau mazlum erur. (H.A.)*

**BIAYNIH** *a.* Xuddi, kabi.

*Jahondin notamom o'tmak biaynih,*

*Erur hammomdin nopok chiqmoq. (A.N.Qit.)*

**BIBI** El orasida mashhur, mo'tabar ayollar ismiga qo'shib ishlatiladi.

*Bibi Ubayda bo'ladur xolamiz,  
Goh kelur erdi kichik bolamiz. (M.)*

**BID'AT** *a.* Noto'g'ri, noo'rin urf-odat, xatti-harakat; shariatga xilof ishlar.

*Qadimning rasmini tutub sunnat,  
Bid'at o'ldi hama qilig'larimiz! (H.)*

**Bid'at shior** Bid'at ishlarni qiluvchi.

*Yoxud ona tug'g'anida bo'lg'anmidi bir siri,  
Yolg'on e'tiqod ila bid'at shior muncha ko'p. (Z.)*

**BIHAMDILLAH** *a.* Xudoga shukur.

*Bihamdillah sening husnung chog'inda,  
Yerimiz bor eshiking tuprog'inda. (Mn.)*

**BIHIL** *a.* Afv etish, afv, kechirish.

**Bihil qilmoq** Afv etmoq, kechirmoq.  
*Qilmasa mazlum gunohing bihil,  
Do'zax arodur vataning muttasil. (H.A.)*

**BIHISHT** *f.* Jannat.

*Manga sen bo'lmasang, jon hojat ermas,  
Bihishtu huru rizvon hojat ermas. (A.)*

**BIHISHTSARO** *f.* 1. Jannatga o'xshash, jannatmakon.

2. Asardagi shahar nomi.

*Go'yiyo andag'i jazoir aro,  
Shahri ermish oti «Bihishtsaro». (S.S.)*

**BIKIN** Kabi, singari, o'xshash.

*Yaratti oy bikin zebo seni haq,  
Kim ush chehrang berur olamg'a ravnaq. (Mn.)*

**BIKR** *a.* Ishlatilmagan, yangi, ohorli.

*So'zum bokrini ko'rguz shahqa shirin,  
Shahikim qildi Xisravlarni Shirin. (Mun.)*

**BILA** 1. Bilan, ila, vositasida.

*Teshub el kemasini hiyla bila,  
G'arq etib sug'a bu vasila bila. (S.S.)*

2. Orqali, bo'ylab.

*Bo'ldilar ikki shoh musta'jil,  
Biri daryo bila, biri sohil. (S.S.)*

**BILDURMAK** Ma'lum qilmoq, ayon qilmoq.

*Bildurub elga haqu barhaqlig'in,  
Anglatibon qodiri mutlaqlig'in. (H.A.)*

**BILGU** Bilishi kerak, bilishi lozim.

*O'sal bo'lsa beglar ishin butrumaz*

*O'sal beg butun bilgu beglik yemaz. (Q.B.)*

**BILGURMAK** Zohir bo'lmoq, ko'rinmoq, ma'lum bo'lmoq, bildirmoq.

*Yuzungdin bilgurur davlat nishoni,*

*O'ramung tuprog'i, baxt oshyoni. (Mn.)*

*So'ngak, et, teri, tamur, singirlar bilgurdi. Tebranu bashladi. (R.)*

**BILHAQIQAT** a. Haqiqatan, chindan.

*Bilhaqiqat uvaysiy ermish va tarbiyat hazrati shayx ul-islom*

*Ahmadi Jom ruhidin topibtur. (N.M.)*

**BILIG** Bilim.

*Budunug' bilig birla basti begi*

*Bilig bo'lmasa ishka yaqmas o'gi. (Q.B.)*

**BILIGLIG** 1. Bilimli, bilimdon, o'qimishli, ma'lumotli.

*Biliglig kerak beg uqushlug' udug',*

*Angar tegmasa bir mufaja yudug'. (Q.B.)*

2. Donishmand, olim, dono.

*Neku ter eshitgil biliglig so'zun,*

*Yeyumadi zalim elin kech uzun. (Q.B.)*

**BILIGSIZ** Bilimsiz, o'qimagan, johil, nodon.

*Evak qurg'u qilqi qilinchi bushi*

*Biligsizka belgu bo'lur bu ishi. (Q.B.)*

**BILIK** Bilim.

*Bilik bilmak ichinda javharisen,*

*Vale husn ichra javhardin arisen. (Mn.)*

**BILIKLIK** Bilimli.

*Biliklik biliksiz qachan teng bo'lur,*

*Biliklik tishi – er, jahil er-tishi. (H.H.)*

**BILIMLIK** Bilimga ega bo'lgan, bilimli, bilimdon.

*Anga Yapaloqqush aydi: «Men sizni bilimlik va ma'nidin*

*boxabar kishi fahmlab erdim. (Zm.)*

**BILKUL** Butunlay, tamoman, mutlaqo.

*Sayd qastig'a o'yla qo'ydi ko'ngul,*

*Ki, aduv chiqti yodidin bilkul. (S.S.)*

**BILMAM** Bilmayman.

*Biroz burun chog'ir ichgan parilarga o'xshardi,*

*Bilmam nechun o'ynardi. (Fit.)*

**BILMOQ** 1. Xabardor bo'lmoq, voqif bo'lmoq.

*Ayayin emdi bir qit'a eshitgil,*

*Nechukmen holu ahvolimni bilgil. (Mn.)*

*Karnay misdin, balg'am isdin bo'lurini bilmas ekansiz. (Zm.)*

2. Tushunmoq, anglamoq.

*O'lurmu sevgi ham bil, shundin ortuq,*

*Ki ikkisi qilur jonini tortuq. (S.Sar.)*

3. Aniqlamoq, aniq-ravshan qilmoq.

*Kishi qayda o'larin bilsa bo'lmas,*

*Haqiqat yoridin ayrilsa bo'lmas. (Mn.)*

4. His qilmoq, sezmoq.

*Ne bilur qadringizni tekma nodon,*

*Guhar qadrini a'mo bilmas, ey jon. (Mn.)*

5. ...deb hisoblamoq, ...deb sanamoq.

*Kingakim bir rishta yeturding ziyon,*

*Qatlinga ul rishtani bilgil yilon. (H.A.)*

**BILQIS** a. 1. Sulaymon payg'ambarning rafiqasining ismi. 2. Malikalar, hukmdor ayollarni ulug'lash uchun ishlatiladigan epitet.

*Olam aro baski, hukmrondur,*

*Bilqisi mamoliki jahondur. (H.G.)*

**BILTAK** Duduq.

*Komimg'a quy karam mayi, yo rab, chu havli hashr,*

*Biltak tilimni aylasa og'zim quroqturub. (K.)*

**BILURMAK** Bilinmoq, ma'lum bo'lmoq.

*Qachon o'lsam sango qadrim bilurgay,*

*Bu yo'lg'a tushsa Aflotun telurgay. (Mn.)*

**BINAFSHA** f. Bir o'tsimon o'simlik va uning safsar rang guli.

*Sanga binafsha kibi qaddi nigun,*

*Bosh ko'tara olmay uyotdin zabun. (H.A.)*

**BINO** Ko'zi sog', ko'radigan, ko'ruvchi.

*Nobino bino so'zini quloqqa olmay, o'z xijolatidin o'zini ilong'a chaqturub halok bo'ldi. (Zm.)*

**BINTI** a. Qizi.

*Onasi oti Shamxo binti Anursh erdi. (R.)*

**BIQIN** Gavdaning ikki yon qismi.

*Uzoqliq uyquli orasinda Odamning biqini ayagusidin so'l yonidin Havvoni yaratti. (R.)*

**BIR** 1. 1 raqami va shu raqam bilan ifodalangan son.

*Bor-u yo'q uylarini, banda, bayon gar qilsam,*

*Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak.* (Max.)

2. Ot vazifasida kelib, narsa yoki kishini anglatadi.

*Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,*

*Qirqu yuz, ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling.* (T.F.)

3. Numerativ so'zlar bilan birga buyumlarning miqdorini, o'lchovini yoki majmuini bildiradi.

*Bir qarich yer xaloyiqdin xoli yo'q erdi.* (R.)

*Bir yig'ochqa yaqin jazirag'a davr,*

*Davrida sug'a topmayin kishi g'avr.* (S.S.)

4. Noaniqlik artikli vazifasida kelib «noma'lum», «allaqaysi», «qandaydir», «allaqanday» kabi ma'nolarni anglatadi

*Anda bir shoh hokimu voliy,*

*Mulki ma'muru himmati oliy.* (S.S.)

5. Tanho, yakka, yolg'iz.

*To'rutti apa o'g'lanin bir bayat*

*Ulug' bar kichig bar esiz edgu at.* (Q.B.)

6. Belgi, xususiyatni kuchaytiradi.

*Anga bir o'yla nozanin farzand,*

*Kim, bashar ichra yo'q anga monand.* (S.S.)

7. Ish-harakatni bir marta bo'lishini anglatadi.

*Agar ko'nglung tilar jonimni olmoq,*

*Qaroqchi ko'zlarindin bir qiyo boq.* (A.)

*Burnig'a keldi ersa bir axsurdi.* (R.)

8. Boshqa so'zlar bilan qo'shma so'z hosil qiladi.

*Bir necha zavraq asrabon tayyor,*

*Yangi oy zavraqi kibi sayyor.* (S.S.)

**Birlari** Ayrımlari, bazilari.

*Birlari mo'ltoninamo hiylagar,*

*Birlaridur kunda pixu gavda xar.* (M.)

**BIRAR** Biron marta, bir marta.

*Jahon tutti jamoling, dod qilg'il,*

*Bu miskinni birar ham yod qilg'il.* (Mn.)

**Birar-ikkirar** Bittadan-ikkitadan.

*Uylarini ham sog'indilar. Birar-ikkirar qochmoqqa yuz qo'ydilar.* (Bn.)

**BIR-BIR** 1. Tartibi bilan, birma-bir.

*Chunki Navdar adug'a bo'ldi asir,*

*So'ydilar har ne kiyganin bir-bir.* (S.S.)

**BILMOQ** 1. Xabardor bo'lmoq, voqif bo'lmoq.

*Ayayin emdi bir qit'a eshitgil,*

*Nechukmen holu ahvolimni bilgil. (Mn.)*

*Karnay misdin, balg'am isdin bo'lurini bilmas ekansiz. (Zm.)*

2. Tushunmoq, anglamoq.

*O'lurmu sevgi ham bil, shundin ortuq,*

*Ki ikkisi qilur jonini tortuq. (S.Sar.)*

3. Aniqlamoq, aniq-ravshan qilmoq.

*Kishi qayda o'larin bilsa bo'lmas,*

*Haqiqat yoridin ayrilsa bo'lmas. (Mn.)*

4. His qilmoq, sezmoq.

*Ne bilur qadringizni tekma nodon,*

*Guhar qadrini a'mo bilmas, ey jon. (Mn.)*

5. ...deb hisoblamoq, ...deb sanamoq.

*Kingakim bir rishta yeturding ziyon,*

*Qatlinga ul rishtani bilgil yilon. (H.A.)*

**BILQIS** a. 1. Sulaymon payg'ambarning rafiqasining ismi. 2. Malikalalar, hukmdor ayollarni ulug'lash uchun ishlatiladigan epitet.

*Olam aro baski, hukmrondur,*

*Bilqisi mamoliki jahondur. (H.G.)*

**BILTAK** Duduq.

*Koming'a quy karam mayi, yo rab, chu havli hashr,*

*Biltak tilimni aylasa og'zim quroqturub. (K.)*

**BILURMAK** Bilinmoq, ma'lum bo'lmoq.

*Qachon o'lsam sango qadrim bilurgay,*

*Bu yo'lg'a tushsa Aflotun telurgay. (Mn.)*

**BINAFSHA** f. Bir o'tsimon o'simlik va uning safsar rang guli.

*Sanga binafsha kibi qaddi nigun,*

*Bosh ko'tara olmay uyotdin zabun. (H.A.)*

**BINO** Ko'zi sog', ko'radigan, ko'ruvchi.

*Nobino bino so'zini quloqqa olmay, o'z xijolatidin o'zini*

*ilong'a chaqturub halok bo'ldi. (Zm.)*

**BINTI** a. Qizi.

*Onasi oti Shamxo binti Anursh erdi. (R.)*

**BIQIN** Gavdaning ikki yon qismi.

*Uzoqliq uyquli orasinda Odamning biqini ayagusidin so'l*

*yonidin Havvoni yaratti. (R.)*

**BIR** 1. 1 raqami va shu raqam bilan ifodalangan son.

*Bor-u yo'q uylarini, banda, bayon gar qilsam,*

*Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak.* (Max.)

2. Ot vazifasida kelib, narsa yoki kishini anglatadi.

*Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,*

*Qirqu yuz, ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling.* (T.F.)

3. Numerativ so'zlar bilan birga buyumlarning miqdorini, o'lchovini yoki majmuini bildiradi.

*Bir qarich yer xaloyiqdin xoli yo'q erdi.* (R.)

*Bir yig'ochqa yaqin jazirag'a davr,*

*Davrida sug'a topmayin kishi g'avr.* (S.S.)

4. Noaniqlik artikli vazifasida kelib «noma'lum», «allaqaysi», «qandaydir», «allaqanday» kabi ma'nolarni anglatadi

*Anda bir shoh hokimu voliy,*

*Mulki ma'muru himmati oliy.* (S.S.)

5. Tanho, yakka, yolg'iz.

*To'rutti apa o'g'lanin bir bayat*

*Ulug' bar kichig bar esiz edgu at.* (Q.B.)

6. Belgi, xususiyatni kuchaytiradi.

*Anga bir o'yla nozanin farzand,*

*Kim, bashar ichra yo'q anga monand.* (S.S.)

7. Ish-harakatni bir marta bo'lishini anglatadi.

*Agar ko'nglung tilar jonimni olmoq,*

*Qaroqchi ko'zlarindin bir qiyo boq.* (A.)

*Burnig'a keldi ersa bir axsurdi.* (R.)

8. Boshqa so'zlar bilan qo'shma so'z hosil qiladi.

*Bir necha zavraq asrabon tayyor,*

*Yangi oy zavraqi kibi sayyor.* (S.S.)

**Birlari** Ayrimlari, bazilari.

*Birlari mo'ltoninamo hiylagar,*

*Birlaridur kunda pixu gavda xar.* (M.)

**BIRAR** Biron marta, bir marta.

*Jahon tutti jamoling, dod qilg'il,*

*Bu miskinni birar ham yod qilg'il.* (Mn.)

**Birar-ikkirar** Bittadan-ikkitadan.

*Uylarini ham sog'indilar. Birar-ikkirar qochmoqqa yuz qo'ydilar.* (Bn.)

**BIR-BIR** 1. Tartibi bilan, birma-bir.

*Chunki Navdar adug'a bo'ldi asir,*

*So'ydilar har ne kiyganin bir-bir.* (S.S.)

2. Bitta-bitta, bittalab.

*Mundin o'zga bu ishka yo'q tadbir,  
Ki, ikkimiz cherik yig'ib bir-bir. (S.S.)*

**BIR-BIRGA** Bir-biriga, bir-biroviga.

*Bo'ldi bir-birga jism ila jondek,  
Yo magar sarvu ishqpechondek. (S.S.)*

**BIR-BIRI: Bir-biridan** Biri-biridan, biri ikkinchisidan.

*Ikkisi chunki erdilar cholok,  
Bir-biridin alarg'a yo'q edi bok. (S.S.)*

**Bir-biriga** Biri ikkinchisiga, biri-biriga.

*Bir-biriga qishloq eli boqishib,  
Goh u yon, goh bu yon chopishib. (M.)*

**Bir-birin** Biri-birini, bir-birovini, biri ikkinchisini.

*Qo'pubon yig'lashib ko'rushtilar,  
O'turub bir-birin so'rushtilar. (S.S.)*

**Bir-biringa** Biri ikkinchisiga, biri-biriga, o'zaro.

*Ul sababdin Odam o'g'lonlari bir-biringa mengzamazlar. (R.)*

**Bir-birisiga** Biri biriga, biri ikkinchisiga.

*Bir-birisiga solishurlar o'zun,  
Ertayu kech o'pushub og'iz-burun. (M.)*

**Bir-birisin** Biri-birini, biri ikkinchisini.

*Ikki mahubni ko'r dum, bir-birisin ko'rmagan,  
Ikkisining o'rtasig'a, do'stlar, qil sig'magan. (U.)*

**BIR-IKKI** Bir nechagina, sanoqli.

*Iztirob aylabon ota tushti,  
Bir-ikki o'q, vale xato tushti. (S.S.)*

**BIRIKMAK** Qo'shilib ketmoq, qo'shilmoq birga bo'lmoq.

*Birikib ketti oshiqlar uzoqqa,  
Ilinmay yo'l uza qo'yg'on tuzoqqa. (S.Sar.)*

**BIRLA** Bilan, ila.

*Yofas ani ko'rub to'nu birla o'rtidi. (R.)  
Halvo degan birla og'iz chuchimas. (Zm.)*

*Bu beglik iginga o'ti o'g bilik  
Uqush birla emla ey qilqi silig. (Q.B.)*

**BIRLAMAK** Tanho deb tan olmoq, Allohning birligini tan olmoq.

*Mundog' obdon erkak, tengrini birlaguchi bo'lmadi. (R.)*

**BIRLAN** Bilan, birla, ila.

*Eturdi fasli gul sayri xiyobon,  
Necha mahramlari birlan xiromon. (S.Sar.)*





**BIRLIK** Tanholik, yagonalik.

*Birlik ediyu adade yo'q edi,  
Birdin o'zga ahade yo'q edi. (H.A.)*

**BIROV** Boshqa bir kimsa, begona, o'zga.

*Har kishikim birovga qozg'ay choh,  
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh. (S.S.)*

**BISTAR** f. Ko'rupa, to'shak.

**Bistari zarrin** Zar to'shak.

*Ne bilursan kechalar faqr ahlidin ne o'tganin,  
Bistari zarrin uza, ey kim, qilursan xob, qish. (Og.)*

**BISYOR** f. 1. Ko'p, mo'l.

*Musmir daraxtisi bisyordur, vale bog'chalarida aksar bodom  
daraxtidur. (Bn.)*

2. Juda, nihoyatda.

*Oqar sulari bor, bahori bisyor yaxshi bo'lur. (Bn.)*

**BITIK** 1. Xat, maktub.

*Chunki qosid bitikni yetkurdi,  
Shoh Navdar qo'lig'a topshurdi. (S.S.)*

2. Asar, kitob.

*Bo'lur bu, bitigim, tarixqa yodgor,  
Bu yodgorimda yolg'on yo'g'u chin bor. (S.Sar.)*

**BITILMAK** Yozilmoq, bitilmoq.

*Emas afsona, chin ushbu bitilmish,  
Bu chin afsonatek ishqda yetilmish. (S.Sar.)*

**BITIMAK** Yozmoq, bitmoq.

*Aytqan bu kitobni ham bitigan,  
Tilarmen kim duoda yod qilg'ay. (Mn.)*

**BITMAK I** 1. Fikrni yozuv orqali ifodalamoq, yozmoq.

*«Muhabbatnoma» so'zun munda ayttim,  
Qamug'un Sir yaqasinda bitidim. (Mn.)*

2. Amalga oshmoq, yuzaga chiqmoq.

*Burnog'ilar masalidurkim, «Bitar ishning boshig'a – yaxshi  
kelar qoshig'a» (Zm.)*

**BITMAK II** 1. Hosil bo'lmoq, ro'yobga chiqmoq.

*Falak aylanmasila davr yetgay,  
Adolat urlug'undin baxt bitgay. (S.Sar.)*

2. Et olib tuzalmoq.

*Diyda namnoku giribon choku bag'ri porai,  
Noqabuli marhami, nosur bitmas yorai. (T.F.)*

**BIYIK** 1. Bo'yi uzun, baland.

*Kim, chiqib bir biyik shajar uzra,  
Ko'z solib bahri mavjvar uzra. (S.S.)*

2. Yuksak, oliy, katta.

*Lek bu iqbolning o'trusida,  
Bo'yla biyik martaba qarshusida. (H.A.)*

3. Ulug', buyuk.

*Ayladi olingda biyiklarni past,  
Dahr zabardastlarin zerdast. (H.A.)*

**BIYIKLIK** Ulug'lik, buyuklik.

*Anga evazdur sanga sharmandaliq,  
Anga biyiklik, sanga afkandaliq. (H.A.)*

**BIYM** f. Qo'rqinch, qo'rquv, cho'chish, vahima.

*Tig' berib zolg'a bevahmu biym,  
Bir sori dog'i to'kubon ganju siym. (H.A.)*

**BIG'** Jazm, qat'iy qaror.

*Agar o'trusida men ham chekib tig',  
Chekarga so'z sinonin qilg'amen big'. (F.Sh.)*

**BISHI** Tanga, tanga pul.

*Baholiq dinor ul biliklik kishi,  
Bu johil biliksiz bahosiz bishi. (H.H.)*

**BICHA** Biroz, birmuncha, picha.

*Eva qilmish ishlar bicha yig bo'lur,  
Eva yesa ash suv bicha ig bo'lur. (Q.B.)*

**BOB** a. Eshik, darvoza.

*Uni buzg'ay ul sehr asbobini,  
O'ti olg'ay ul qal'aning bobini. (S.I.)*

**BOBURIY** Boburga oid, Boburga tegishli. **Boburiy xati**

Arab alifbosi asosida Bobur tomonidan ixtiro qilingan yangi yozuv.

*Yana «Boburiy xati» bilan bitilgan qit'alar yiborildi. (Bn.)*

**BOD** f. Shamol, yel.

*Ammo aning havosi xush va bodi dilkash. (Zm.)*

**BODA** f. Kayf beruvchi ichimlik, sharob, may.

*Ichaling bodani, gullar so'lisar,  
Tanimiz oqibat tuproq bo'lisar. (Mn.)*

**Bodai haqiqat** Haqiqat sharobi.

*Ich bodai haqiqat, tark aylagin majozni,  
Oqil kishi qaroni pisand etmas oq turub. (K.)*

- BODANO'SHLIG'** Boda ichishlik, mayxo'rlik.  
*Toki g'ayrni qilding bodano'shlig'din shod,  
 Dil mango kabob o'lmish, ko'z mango purob o'lmish. (K.)*
- BODPO** *f.* Chopqir ot, uchqur ot.  
*Vale bodpolarg'a solg'an kejim. (S.I.)*
- BOIS** *a.* Sabab, sababchi.  
*Bilmadikim ne ish ekin hodis,  
 Kim bu ishka bo'lub ekin bois. (S.S.)*
- BOJ** *f.* G'olib podishoh tomonidan bo'ysundirilgan mamlakatdan olinadigan soliq.  
**Boj etmak** Boj olmoq; soliq olmoq.  
*Zihi ishqingda dardi dog'i hijroning matoimdur,  
 Qaroqchi aylamas toroj oningki, kimsa boj etmaz. (Mash.)*
- BOK** *f.* Qo'rquv, qo'rqinch.  
*Ikkisi chunki erdilar cholok,  
 Bir-biridin alarg'a yo'q edi bok. (S.S.)*
- BOL I** *f.* Qanot.  
*Andalib erdim, qolibman bolu pardin ayrilib,  
 Men kibi baxti qaro bo'lg'an kishidin dard so'rang. (Mash.)*
- BOL II** Asal.  
*Har kimsa kim aylamas oshuqmog'ni xayol,  
 Yafrog'ni ipak qilur, chechak bargini bol. (M.Q.)*
- BOLIG'** Baliq.  
*Qildi Jobir aning sori ohang,  
 Ul sifatkim, bolig' yutarg'a nahang. (S.S.)*
- BOM** *f.* Tom.  
*Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'lur  
 uchun Shahrissabz ham derlar. (Bn.)*
- BOQA** Qaraganda, nisbatan.  
*Bu rasadni bog'lag'oni ming besh yuz sekson to'rt yildur. Bu  
 ul zijlarga boqa noqisroqtur. (Bn.)*
- BOQIY** *a.* Abadiy, mangu.  
*Okush yillar yaratqon boqiy tutsun,  
 Hayotingni, begim, davron ichinda. (Mn.)*
- BOQISHMOQ** Bir-biriga qaramoq, qarashmoq.  
*Alar yuz qo'yishib bir-bir yuzina,  
 Uzoq boqishtilar bir-bir ko'zina. (S.Sar.)*
- BOQMOQ I** Nazar solmoq, qaramoq.  
*Agar ko'nglung tilar jonimni olmoq,  
 Qaroqchi ko'zlaringdin bir qiyo boq. (A.)*

**BOQMOQ II** Parvarish qilmoq, parvarishlamoq (o'simliklar haqida).

*Boqmasa dehqon chamanin kun-u tun,  
Naxli tarin angla qurug'on o'tun. (H.A.)*

**BOR I 1.** Mavjud.

*Bor emish go'yiyo anga bir qiz,  
Odami o'yla ko'rmagan hargiz. (S.S.)*

2. Boylikka, mol-mulkka ega bo'lgan, boy, badavlat.

*Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur, degan yaxshilarning masalidur. (Zm.)*

**Bor-u yo'q** Biroz, ozgina, arzimas.

*Bor-u yo'q uylarini, banda, bayon gar qilsam,  
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak. (Max.)*

**BOR II** Marta, martaba, karra, daf'a.

*Shukrlar etayin allog'a ming bor,  
Ki yetkurdi manga sentek gunash yor. (S.Sar.)*

**BOR III -dir** kesimlik qo'shimchasi vazifasida keladi.

*Istasa topshurg'onini kirdigor,  
Fikr qil ul damki, javobing ne bor? (H.A.)*

**BORA** f. Marta, daf'a, karra, bor.

*Du bora yurdum dashtlab,  
Bodom konig'a qarab. (M.)*

**BORGOH** f. Chodir, o'tov.

*Tuz chekilur borgoh uzra tanob,  
Ko'rki, erur boshdin-ayoq pechu tob. (H.A.)*

**BORI I** Barcha, hamma.

*Navdar ochtiyu soldi borig'a ko'z,  
O'qidi anda har ne bor edi so'z. (S.S.)*

**BORI II** Tangri, xudo, yaratgan.

*Tobilg'ay maqsudum tabqungda, bori,  
Saodat qilsa Xorazmiyg'a yori. (Mn.)*

**BORI III** Hech bo'lmasa, juda bo'lmaganda.

*Kerak sher ollida ham sheri jangi,  
Agar sher o'lmasa, bori palangi. (F.Sh.)*

**BORINCHA** 1. Borini ishga solib, bo'lganicha, boricha.

*Qulunguzmen tanimda jon borincha. (Mn.)*

2. Oxiriga qadar, oxirigacha.

*Davr sizningdurur davron borincha. (Mn.)*

**BORLIQ** Boylik, borlik.

*Anda Ko'rqush aydi: «Borliqdin maqtanma». (Zm.)*

**BORMOQ** 1. Jo'namoq, yo'l olmoq.

*Ey Nuh, borg'il, kofirlarg'a ayg'il.* (R.)

2. Biror transport vositasida nari yurmoq.

*Yo'l qiroqdin magar yiroq erdi,*

*Bahrdin borsa yaxshiroq erdi.* (S.S.)

3. Tarqalmoq, yetib bormoq.

*Saroydin bordi Chin-Moching'a choving,*

*Qiyo boqsang bo'lur arslonlar oving.* (Mn.)

**BORCHA** Hamma, bari.

*Korvoni agar o'nu gar yuz,*

*Borchasig'a harif edi yolg'uz.* (S.S.)

**BOSMOQ** 1. Ustidan yurmoq, ustidan o'tmoq.

*Sabotek bilmas oxir o'z chog'ini,*

*Bosar har dam eshiking tuprog'ini.* (Mn.)

2. Hujum qilmoq, bostirib bormoq, tor-mor qilmoq.

*Bodig'is navohisida Shayboniyxonkim, mirzolarning ustiga*

*kelib, birini birga qo'shqali qo'ymay bosti.* (Bn.)

**BOT I** Tez, darrov, ildam.

*Uy eshigin falong'a topshurunguz,*

*Xabarin manga bot kelturunguz.* (S.S.)

**BOT II** Bodi, kekkaygan.

*Nomusini bot kishilarning oyog'lari ostinda ko'rub, turklik*

*qoni qaynag'ay.* (Fit.)

**BOTIL** a. Asossiz, yolg'on, soxta, noto'g'ri.

*Egriyu tuz vasfi muhaqqaq durur,*

*Botil erur egriyu tuz haq durur.* (H.A.)

**BOTIN** a. Ich, ichki, ichki dunyo; ko'ngul, qalb; pinhon.

*Botin aro boshlasa yuz makru rev,*

*Fitna qilib muncha shayotinu dev.* (H.A.)

**Botin ulumi** Ilohiy ilmlar.

*Bu jumladin bir mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohiru*

*botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo'q edi.* (Bn.)

**BOTMON** f. Taxminan 32 kg dan 176 kg gacha bo'lgan og'irlik o'lchovi.

*Yuz botmon bug'doy bir yillik ozuq bo'lur erdi.* (R.)

**BOTMOQ** 1. Cho'mmoq, ko'milmoq.

*Falak yotib ayoq ilgin uzotib,*

*Eshak yanglig' qaro bolchiqqa botib.* (F.Sh.)

2. *ko'ch.* Sanchilmoq.

*Uyanib bildi shunda tush ekonin,*

*Va sezdi botg'anin anduh tikonin. (S.Sar.)*

3. *ko'ch.* Nihoyasiga yetmoq, bitmoq, tugamoq.

*Tiyra bo'ldi jahon anga holi,*

*Go'yiyo botti mehri iqboli. (S.S.)*

4. Ko'zdan g'oyib bo'lmoq, ko'zga ko'rinmay qolmoq (Quyosh, oy haqida).

*Gunash dunyo yuzundin chohqa botti,*

*Uzulgan gultekin tuproqda yotti. (S.Sar.)*

**BOVAR** *f.* Ishonch, ishonish.

*Ma'shuq dediki: «Bovar emas menga bu ishqing»,*

*G'ayrat tig'i hirla yuragimni ocha qoldim. (Mash.)*

**BOVLI** Urug'lardan iborat bo'lgan, urug'li.

*Tor ko'ngullik beklar, man-man demang kenglik qiling,*

*To'qson ikki bovli o'zbek yurtidur, tenglik qiling. (T.F.)*

**BOVUJUDI** *f-a.* Garchi, shunday bo'lsa-da.

*Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,*

*Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman. (T.F.)*

**BOXABAR** *f. -a.* Xabari bor, xabardor.

*Men sizni bilimlik va ma'nidin boxabar kishi fahmlab erdim.*  
(Zm.)

**BOY** 1. Badavlat, davlatmand.

2. Ixtiyorida, o'zida ustun sifatlar, fazilatlar ko'p, mo'l.

*Pari ruxsoralarning ko'rkka boyi,*

*Yuzung navro'zu qoshing bayram oyi. (Mn.)*

**BOYIQ** Aniq, shubhasiz, ma'lum.

*Qilur o'z joning'a qasd, o'zi boyiq,*

*Gadoyikim bo'lur sultona oshiq. (Mn.)*

**BOYRI** Sinashta, yaqin, qadrdon.

*Bir necha ko'kaltosh, emaldosh va boyrisi Sulton Ma'sud mirzoni olib, Samarqandg'a Sulton Ali mirzo qoshig'a keturur xayoli bila Keshqa keldilar. (Bn.)*

**BOYSURAT** *o'.*-a. Boy ko'rinishli, boyga o'xshash, badavlat-namo.

*Kelsa oldingizg'a boysurat, yaqosi tugmalik,*

*Izzat ila shodu minnatdor qilmoq shunchalar. (M.)*

**BOYO'G'LI** Yapaloqqushlar oilasiga mansub yirtqich qush, boyqush.

*Anda bir Boyo'g'li degan vatan tutmish erdi. (Zm.)*

**BOZ I** *f.* Yana, tag'in.

*Himmating yo'lida bir kapa karomat qilg'il,  
Kapalak boz qo'nub, joyig'a bo'lg'ay Hapalak. (Max.)*

**BOZ II** *f.* Lochin.

*Qamuq umrum sening nozing fidosi,  
Mening ko'nglum qushi bozing fidosi. (Mn.)*

**BOZU** *f.* Bilak.

*Chu zo'r ortuq aylab tarozusidin,  
Chiqib yo'qki oranj bozusidin. (S.I)*

**BOG' f.** 1. Mevali daraxt va gullari bor maydon, mevazor.

*Ul su birla yasab edi bog'e,  
Bog' ichinda imorati dog'i. (S.S.)*

2. ko'ch. Hayot, turmush.

*Bog'im aro sarvi sihi sheva ul,  
Balki quruq naxlim aro meva ul. (H.A.)*

**Bog'i jannat** Jannat bog'i.

*Ko'ramen bog'i jannat mevasindin,  
Yangoqing norini yuz qatla behroq. (A.)*

**BOG'BON** *f.* Bog'dagi daraxtlarga qarovchi, ularni parvarish qiluvchi kishi.

*Bo'ldi raiyat galavu sen shubon,  
Ul shajari musmiru sen bog'bon. (H.A.)*

**BOG'LAMOQ** 1. Arqon, zanjir kabi narsalar bilan biriktirib o'z yeridan nari ketmaydigan qilib qo'ymoq.

*Kemalarni qirg'oqqa bog'lab rust,  
Xalqu amvolini chiqordi durust. (S.S.)*

*Saloyin o'zumi o'zga diyora,  
Ko'ngulni bog'lag'oyin o'zga yora. (Mn.)*

2. Bekitmoq, to'smoq.

*Dedi: «Mavquf bo'lmayin nimaga,  
Ko'zini bog'labon soling kemaga. (S.S.)*

**Ko'ngil bog'lamoq** Ko'ngil bermoq, ko'ngil qo'ymoq.

**BOG'LIQ** Biror jihatdan bog'langan, aloqador.

*Ko'ngli bog'liq* Ko'ngli bor, ko'ngil bergan.  
*Mehr zulfig'a ko'ngli bog'liq edi,  
Bu anga go'yiyo atog'liq edi. (S.S.)*

**BOG'OT** *f.* -a. Bog'lar, mevazorlar.

*Bu rudning har ikki jonibi bog'ot tushubtur. (Bn.)*

**BOG'CHA** Kichik bog'.

**Bog'chai dahr** Dunyo, olam.

*Bog'chai dahrki yuz toza gul,*

*Topti qayonkim nazar etti ko'ngul. (H.A.)*

**BOSH** 1. Tananing bo'yindan yuqori qismi, kalla.

*Suhayl boshin ko'tarib ko'rdi qizni,*

*Qul emas, podshoh deb sezdi o'zni. (S.Sar.)*

2. Ba'zi so'zlar bilan birikib, shu so'z ifodalagan narsani bildiradi.

*Keldi chah boshi uzra g'amparvard,*

*Chekti un: «Ki-ey asiri mehnatu dard». (S.S.)*

3. Tapa, ust, cho'qqi, uch.

*Ul nadurkim, sabzto'nliq, yoz yog'ochning boshida,*

*Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida. (U.)*

4. Muqaddima, boshlanish.

*Burnog'ilar masalidurkim, «Bitar ishning boshig'a-yaxshi kelur qoshig'a». (Zm.)*

5. Yotgan kishining bosh tarafi, bosh tomon.

*Yig'labon boshlarida ikki kaniz,*

*Ko'tarib boshlarini mehromiz. (S.S.)*

**Bosh indurmak** Ta'zim qilmoq.

*Falak ayvonina bosh indururmu,*

*Qoshing mehrobining toqina mushtoq. (A.)*

**Bosh ko'tara olmaslik** Biror nojo'ya ish tufayli xijolatga qolishlik.

*Sanga binafsha kibi qaddi nigun,*

*Bosh ko'tara olmay uyotdin zabun. (H.A.)*

**Boshig'a ish tushmak** Biror ko'ngilsiz ahvolga duchor bo'lmoq.

*Ki, chu ish tushsa boshima yolg'uz,*

*O'zga yanglig' topay salohig'a yuz. (S.S.)*

**Boshig'a dud solmoq** Xafa qilmoq, g'amgin etmoq.

*Ul olam garchi soldi boshima dud,*

*Bildim o'rtanmagimda yoqtur sud. (S.S.)*

**Boshig'a yetmoq** Oldiga yetib bormoq.

*Kim, tengiz ichra boshinga yettim,*

*O'laringdin seni xalos ettim. (S.S.)*

**Boshdin ayoq** Boshdin to oyoqqacha.

*Latofat mulkida sultonsen, ey jon,*

*Qamuq boshdin-oyoqqa jonsen, ey jon. (Mn.)*

**BOSHLAMOQ** 1. Biror ishga kirishmoq.

*Chun xushomad demakni boshlasa, kosh,*



*Kim tutulsa dami, kesilsa tili. (H.A.)*

*Qila boshlab aning birla parxosh,*

*Ishlari kema ichra bo'ldi savosh. (S.S.)*

2. Ergashtirib bormoq, bosh bo'lib bormoq.

*Boshlabon ul cherikini sohil ila,*

*Su yaqosidag'i manozil ila. (S.S.)*

3. Qo'shma fe'llar yasaydi.

*Kofirlar ani ko'rub kula boshladilar. (R.)*

**BOSHOQ** 1. Boshqli o'simliklarning poyasi uchidan don hosil bo'ladigan to'p guli, boshi.

*Boshin egmish yetib oltun boshoglar,*

*Boshoglarni ekinchilar mashoglar. (S.Sar.)*

2. Yoy o'qi uchiga o'rnatilgan o'tkir uchli metall.

*G'uncha sevunub to'nig'a sig'mas,*

*O'xshatsam, o'qung boshogi birla. (A.)*

**BOSHTOQ** Boshliqsiz, rahbarsiz; egasiz bebosh, o'zboshimcha.

*Ey podshohim, taxtni bo'sh qo'yub, Ka'bag'a borsangiz, el-xaloyiq boshtoq bo'lmasmu?! – tedi. (X.)*

**BUD** f. Borliq, mavjudlik; narsa.

*Olmog'idin g'ayri ziyon bud yo'q,*

*Turfa bukim bermagidin sud yo'q. (H.A.)*

**Bud-u nobud** Bor-u yo'q, hamma narsa.

*Og'ziyu beliga bud-u nobudum sarf,*

*Ko'ziyu labig'a jism-u jonim sadqa. (B.)*

**BUDUN** Xalq, el.

*Budunug' hilig birla basti begi*

*Bilig bo'lmasa ishka yaqmas o'gi. (Q.B.)*

**BUKUN** Bugun, endi, endilikda.

*Solib borma meni, ey Yusufi husn,*

*Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda. (A.)*

**BUL** Bu.

*Uchsa yolg'uz ko'rarga oqu qaro,*

*Ne tafovut ulu yana bul aro. (S.S.)*

**BULBUL** f. 1. Chumchuqsimonlar turkumiga oid, kulrang, sayroqi qush.

*Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,*

*Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish. (A.N.Rub.)*

2. Oshiq.

*Sevar bulbul gulin, gul bulbulin ham,*

- Nechun gul aylasin bulbul ko'zin nam. (S.Sar.)*  
**Bulbuli sho'rida** G'amli bulbul, parishon bulbul.  
*Bulbuli sho'ridaman, gulzordin ayrilmisham*  
*Qoshlari yo, ko'zlari xunxordin ayrilmisham. (Mash.)*
- BULHAVAS** *a.* Havas qiluvchi, havaskor, ishqivoz; soxta oshiq.  
*Bulhavaslar torta olmas nozaninlar nozini,*  
*Furqatiydek bekasu sho'rida, rasvo tortadur. (F.)*
- BULJOR** Mudofaa devorining bir qismi, mudofaa qilinadigan yerning bir bo'lagi.  
*Buljor beklari bir-ikki yatim-yasir bila qolib edilar. (Bn.)*
- BULMAQ** 1. Topib olmoq, topmoq, uchratib qo'lga kiritmoq.  
*Bag'irsaqni bulsa bag'irqa urun*  
*Menga mundag' aydi bilik ham uqush. (Q.B.)*  
 2. Qidirib, axtarib topmoq.  
*Yilon suvg'a kirib, teshukni buldi, anda qivrulub yotdi, suv kirmas bo'ldi. (R.)*
- BULOQ** Tabiiy ravishda yer ostidan chiqadigan suv va shunday suv chiqib turadigan joy, chashma.  
*Ayitqil, ey visoling umr bog'i,*  
*Eshiging tuprog'i kavsar bulog'i. (Mn.)*
- BULOSHMOQ** Bulg'anmoq, loyqalanmoq.  
*Ko'ngulning qoni qaynab barcha toshqay,*  
*Ko'zumning yoshidin kavsar buloshqay. (Mn.)*
- BULUNMAQ** Topib olinmoq, topilmoq.  
*Sening bo'ldi dunya tiriglik bila,*  
*Tiriglik bulunsa yatib ye kula. (Q.B.)*
- BULUG'LI** Qo'lga kiritgan, topgan, ega bo'lgan.  
*Ekagun ajunug' bulug'li kishi,*  
*Edi qutlug' ul bu tugal qut bashi. (Q.B.)*
- BULG'ANUQ** Isyon, g'alayon.  
*Esizka siyosat yuritgu kerak,*  
*Budun bulg'anuqin siyosat suzar. (Q.B.)*
- BUM** *f.* Boyqush, boyo'g'li.  
*Vale yuz muncha gar nur o'lsa ma'lum,*  
*Ne ma'lum aylagay xuffosh ila bum. (F. Sh.)*
- BUNYOD** *f.* Asos, negiz, poydevor.  
**Bunyod bo'lmoq** Yuzaga kelmoq.  
*O'yla tarix aylasak miqd,*  
*Ki, qachonkim bo'lur bu ish bunyod. (S.S.)*

**Bunyod etmak** Yuzaga keltirmoq, yaratmoq.

*Muhammad Xo'jabek madhin tugattim,  
«Muhabbatnoma»ni bunyod ettim. (Mn.)*

**Bunyod qilmoq** Hukoya qilmoq, aytib bermoq.

*Mehr qildi fasonasin bunyod,  
Boshig'a nekim o'tti – ayladi yod. (S.S.)*

**BURJ** a. 1. Quyoshning yillik harakati yo'lida bosib o'tadigan o'n ikki yulduzlar turkumi majmui va ularning har biri, zodiak.

*To'rt sadaf gavharining durji ul,  
Yetti falak axtarining burji ul. (H.A.)*

2. Qal'a minorasi, qal'a cho'qqisi.

*Tong otquncha xud qo'rg'on eli burjini tamom qo'parib  
edilar. (Bn.)*

**BURMOQ** Anqimoq, tarqalmoq (hid haqida).

*Elig aydi uqtun bu so'z barcha chin  
Ko'ni so'zlading so'z yipar burdi kin. (Q.B.)*

**BURNOG'I** 1. Burungi kishilar, burungilar.

*Burnog'ilar masalidurkim, «Bitar ishning boshig'a – yaxshi  
kelar qoshig'a». (Zm.)*

2. Avvalgi, oldingi, o'tgan.

*Kizb qilur burnog'i subh oshkor,  
Nurini ko'rkim, nechadur poydor. (H.A.)*

**BURODAR** f. Birodar.

*Xizr otamlarg'a burodar erur,  
Chimlig' azizlar menga dodar erur. (M.)*

**BURONG'OR** Jang paytida qo'shinning o'ng qanoti.

*Yetgan bila burunroq bizning juvong'or kishisi aning  
burong'ori bila ilik olishti. (Bn.)*

**BUROQ** a. Diniy e'tiqodga ko'ra, Muhammad payg'ambar me'roj kechasi osmonga minib chiqqan uchar otning nomi.

*Tushub bo'lg'och oromgohi visoq,  
Topib payku jannatqa yetib buroq. (S.I.)*

**BURQA'** a. Ayollar yuziga tutadigan parda, chimmat, chashmband.

*Burqa'ni ko'tar, tengri uchun, el seni ko'rsun,  
Bu husnu malohat yana qaysi kun uchundur. (L.)*

**BURUDAT** Sovuqlik; sovuq.

*Burudat shiddati ostida qaddim xam qilib yodek,  
Zaifu notavonu nozik etti ham kirishdin qish. (Og.)*

- BURUN I** (3-shaxs birlikda **burni**) Hid bilish a'zosi.  
*Nuh ilkin arslon boshing'a siladi, burnidin iki mushuk chiqdi,  
ul sichqonni yedilar. (R.)*
- BURUN II** (3-shaxs birlikda **burni**) Avval, oldin, muqaddam.  
*Kemasi lekin ul taraf ketti,  
Ki, burun o'g'li kemasi yetti. (S.S.)*
- BURUNDUQ** Jilov; no'xta.  
*Ko'rki, burunduq kishining qo'lida,  
Bu kishining ko'zlari o'z yo'lida. (G.)*
- BURCH I** Chekka, chet.  
*Boyo'g'lining og'zining burchidin chiqar: ming chordevor  
qizimning qalini, deb. (Zm.)*
- BURCH II** Qarz.  
*Ko'rmaklik vomxohni motamidur,  
Alqissaki burch odamiyning g'amidur. (N.J.)*
- BUT I** Butun, tugal, to'la.  
*Eshit, but bu so'zga qamug' tengda teng,  
Qo'rub, tilga yukanub tazarru' qilur. (H.H.)*
- BUT II** 1. Sanam. 2. ko'ch. Nozanin, go'zal qiz.  
*Har sori bir mast o'lub oromjo'y,  
Bir buti gulruxdin o'lub komjo'y. (H.A.)*
- BUT III** f. 1. Butparastlar cho'qinadigan inson qiyofasidagi narsa,  
sanam, xoch.  
*Qo'yub Bonu kecha-kunduz nigahbon,  
Aningdekkim but atrofida rahbon. (F.Sh.)*  
2. ko'ch. Go'zal mahbuba, chiroyli qiz.  
**Buti Chin** Xitoy go'zali.  
*Chun qildi meni ul Buti Chin zoru muftalo,  
Ishim mening qolib turur emdi xudo bila. (B.)*
- BUTMAK I** O'sib-unmoq, o'smoq.  
*Ichida beadam shajar butubon,  
Sabza o'rnig'a nilufar butubon. (S.S.)*
- BUTMAK II** Ishonmoq, umid bog'lamoq, e'timod qilmoq.  
*Bag'irsraq uchun sen butarman senga  
Bag'irsraqliqin ay bu so'zlar menga. (Q.B.)*
- BUTOQ** Daraxt tanasidan o'sib chiqqan shox.  
*Ayitqil, ey bo'yung to'biy butoqi,  
Qulung(ning) haddin oshti ishtiyogi. (Mn.)*

- BUTPARAST** *f.* Butga sig'inuvchi, butga topinuvchi.  
*Emdikim ul but vasli berdi dast,*  
*Kufr ahli yanglig' o'ldi butparast. (L.T.)*
- BUTRUMAK** Bitirmoq, qilmoq, etmoq.  
*O'sal bo'lsa beglar ishin butrumaz*  
*O'sal beg butun bilgu beglik yemaz. (Q.B.)*
- BUTUN I** Barcha, hamma.  
*Begi ichguchi bo'lsa mufsid o'tun*  
*Qamug' ichguchi bo'ldi buduni butun. (Q.B.)*
- BUTUN II** Ishonchli, halol, to'g'ri.  
*O'sal bo'lsa beglar ishin butrumaz*  
*O'sal beg butun bilgu beglik yemaz. (Q.B.)*
- BUTXONA** *f.* Majusiylar ibodatxonasi.  
*Bunda turdi har ulusning har sasi,*  
*Butxonasi o't uyasi, ka'basi. (Fit.)*
- BUXL** *a.* Baxillik, xasislik.  
*Bu duri serobni xor aylama,*  
*Buxl hisobida shumor aylama. (H.A.)*
- BUYUK** Baland, yuksak.  
*Qal'a tomi buyuk, andoqki falak,*  
*Ustida bir necha nodon mardak. (Shn.)*
- BUYUTKAMAK** Bir joydan olib ikkinchi joyga qo'ymoq, ko'chirmoq.  
*Andoqkim, o'lukning kasratidin uch yerda xirgohni*  
*buyutkabdurlar. (Bn.)*
- BUZ** Muz.  
*Kun hamalg'a kirdi ersa, keldi olam navro'zi,*  
*Kechti bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi. (R.)*
- BUZLUMAQ** *ayn.* Buzulmoq.  
*El artar to'ru birla etlur ajun,*  
*El eksur bu kuch birla buzlur ajun. (Q.B.)*
- BUZMOQ** 1. Parchalarga ajratib tashlamoq, qismlarga ajratib, qo'porib tashlamoq.  
*Xishtini masjid buzubon kelturub,*  
*Toshini el marqadidin yetkurub. (H.A.)*
2. Izdan chiqarmoq, yemirmoq, qulatmoq.  
*Eki neng bila elchi beglik buzar,*  
*Kirur egri yo'lqa ko'nidin azar. (Q.B.)*

**BUZRUKVOR** f. 1. Ulug', hurmatli, muhtaram.

*Yana ko'ngliga o'ttiki, oyo bu kun yer yuzida haq taoloning  
bu ikki buzrukvoridek hech bandasi bormu erkin. (N.M.)*

2. Ulug'vor, muhtasham, salobatli.

*«Tikka Rabot»ni ko'rmadim,  
Purfayz buzrukvor ekan. (M.)*

**BUZULMOQ** 1. Vayron bo'lmoq, yakson bo'lmoq.

*Suhayl ohidin shu dam qo'pti bo'ron,  
Aningtekkim, buzuldi charxi davron. (S.Sar.)*

2. Yemirilmoq, parchalanmoq, qulamoq, inqirozga  
uchramoq.

*Ko'ngul tuzsa beglar yuritsa to'ru  
Bu beglik buzulmas turur kech o'ru. (Q.B.)*

3. Tarqalmoq.

*Topmayin g'ayri qaytmoq chora,  
Buzulub yondilar bayakbora. (S.S.)*

4. Boshqacha tus olmoq, o'zgarimoq.

*Unda alomati balog'at zohir bo'lub, ko'zi suzulub, ovozi  
buzulub, onasining to'g'ri so'zlariga egri so'zlay boshladi.  
(Zm.)*

**BUZUG'** Vayrona, buzilgan joy, xaroba.

*Tuzdi buzug'larni imorat bila,  
Zulmni daf' etti adolat bila. (H.A.)*

**BUG'U** Kiyikning bir turi.

*Ko'rdilar solur erdi bir bug'u xez,  
Yetti ani qovub bir otlig' tez. (S.S.)*

**BUG'Z** a. Kek, xusumat, dushmanlik.

*Topsunmi taraqqiy yana bizlarda kamolat,  
Ketsunmi taassuf elidan bug'zu g'adorat. (H.)*

**BUSHI** Tez jahli chiqadigan, jahli tez, jahldor.

*Evak qurg'u qilqi qilinchi bushi  
Biligsizka belgu bo'lur bu ishi. (Q.B.)*

**BUSHILIQ** Qahr, g'azab, jahl.

*Birisi evaklik birisi saran  
Uchunchi bushiliq serin o'z tiran. (Q.B.)*

**BUSHMAK** Zarar ko'rmoq, shikastlanmoq.

*O'shandoq baland yerdin qo'rg'onning xokrezining tubi-  
gacha yumalana-yumalana keldi, vale hech bushmadi. (Bn.)*

**HO'D** Bo'y, bo'y-bast, qad.

*Yuzi ko'rki ko'rklug kerak beg yulug  
Bo'di o'rtu bo'lsa ne javlug' kulug. (Q.B.)*

**HO'DUG'** Bo'yoq.

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman,  
Ati edgu bo'lsa tutunsa bo'dug'. (Q.B.)*

**HO'LA** Deb (*bog'lovchi*).

*Andijong'a bo'la Samarqandni ilikdin berduk. (Bn.)*

**HO'LAK** Boshqa, tashqari.

*Lekin sabrning joyi bilan qayg'u va anduhdin bo'lak  
nimarsasi yo'q. (Zm.)*

**HO'LMOQ** 1. Amalga oshmoq, ro'y bermoq.

*Har ne ish bo'lg'onin bayon etti,  
Shoh Nu'mon sori ravon etti. (S.S.)*

2. Joylashmoq, turmoq.

*Jabroil tizgin tutub, Mekoil sog'undin, Isrofil so'lindin bo'lub  
ko'klarni kezdilar. (R.)*

3. Mumkin bo'lmoq, iloji bo'lmoq.

*Kishi qayda o'larin bilsa bo'lmas,  
Haqiqat yoridin ayrilsa bo'lmas. (Mn.)*

4. Bor bo'lmoq, mavjud bo'lmoq.

*Manga sen bo'lmasang, jon hojat ermas,  
Bihishtu huru rizvon hojat ermas. (A.)*

5. Davom etmoq, cho'zilmoq.

*Zulmung erur kunduzu fisqing kecha,  
Zulm ila fisqing necha bo'lg'ay, necha? (H.A.)*

6. Sifatlariga qo'shilib qo'shma fe'l yasaydi.

*G'olib o'lmoq aro bo'lub ojiz,  
O'zin ul nav'i ko'rmayin hargiz. (S.S.)*

**BO'LUMSUZ** Noshud, qo'lidan hech bir ish kelmaydigan.

*Abulfath otliq bir o'g'li Iroqtin mening qoshimg'a keldi, bu  
tarixta ham bordur. Bisyor sust va bejur'at va bo'lumsuzdur.*

(Bn.)

**BO'LUN** Erki o'zida bo'lmagan, tutqun.

*Ag'ir yuk kishika qilinch aruqi  
Qilinch aruq ersa bo'lun it o'qi. (Q.B.)*

**BO'LUS** r. Oktabr to'ntarishidan oldin Rossiya va uning mustamlakalarida uyezd tarkibidagi bir necha qishloqni o'z ichiga olgan ma'muriy-hududiy bo'linmaning hokimi.

*Unda bo'lus G'ozi dedi,  
Ham mufti, ham qozi dedi. (M.)*

**BO'LISAR** Bo'ladi.

*Ichaling bodani gullar so'lisar,  
Tanimiz oqibat to'praq bo'lisar. (Mn.)*

**BO'LG'ON** Bor, bari, hamma.

*Buyurdikki, bo'lg'on yigitlar yaroqlanib otlandilar. (Bn.)  
Bizning nekim bo'lg'on kishimiz ikki mingga yovushqay edi.  
(Bn.)*

**BO'R** Sharob, may, aroq.

*Bo'r ichma aya bo'rchi bo'g'zi quli  
Bor ichsa achildi chig'ayliq yo'li. (Q.B.)*

**BO'RK** Telpak, bo'rk.

*Lola kibi zohir aylabon ko'rk,  
Egri qo'yubon qizil teri bo'rk. (L.M.)*

**BO'RLANMOQ** Bo'r bilan oqartirilmoq, oqlanmoq.

*Suvlar sepilgan so'rilar,  
Bo'rlang'an o'choq-mo'rilar. (M.)*

**BO'RLAYU** Bo'ridek, bo'ri kabi.

*Ulishib eran bo'rlayu  
Yirtin yaqa o'rlayu. (D.L.T.)*

**BO'RON** Chang, to'zon yoki qor, yomg'ir aralash kuchli shamol.

*Suhayl ohidin shu dam qo'пти bo'ron,  
Aningtekkim, buzuldi charxi davron. (S.Sar.)*

**BO'RCHI** Mayxo'r, ichkilikboz.

*Qara bo'rchi bo'ldi neng bo'ldi yel  
Begi bo'rchi bo'lsa qachan turg'a el. (Q.B.)*

**BO'SAG'A** Eshik yoki darvozaning ostki yog'ochi, ostona.

*Atoyig'a bo'sag'angdin o'run ber,  
Saroyu koxi ayvon hojat ermas. (A.)*

**BO'STON** f. Bog'.

*Bo'yung sarvu, ko'zung nargis, yuzung gul,  
Sening qoshingda bo'ston hojat ermas. (A.)*

**BO'Y I** Odamning balandligi, bo'y-bast, qomat.

*Ayo bo'yi sanubar, chehrasi oy,  
Quyosh yanglig' jamoling olomaroy. (Mn.)*

**BO'Y II** f. Hid, is.

*Muqimiy so'zidin bo'yi muhabbat kelgay, ey ahbob,  
Tarannum qilsa mahfillarda hofizlarni xushxoni. (M.)*



**BO'YLA** Bunday, bunaqa, bu kabi.

*Shahlar aro bo'yla sifat kam durur,  
Kim Shahi G'oziyg'a musallam durur. (H.A.)*

**BO'YUN** (3-shaxs birligi bo'yni) Bo'yin.

*Bo'yun bermak Itoat etmoq, bo'ysunmoq.  
Tilin so'zlasa so'z shakarday suchig,  
Bo'yun berdi beg qul ulug' ya kichig. (Q.B.)*

**BO'YUNSUNMOQ** 1. Itoat etmoq, bo'ysunmoq.

*Bo'yunsunmadi, ulug'sindi, kofirlar jumlasindin bo'ldi. (R.)  
2. Ko'nmoq, taqdirga tan bermoq, rozi bo'lmoq.  
Boyunsundum bu yo'lda ming balog'a,  
Ko'ngul parvona bo'ldi ul yulog'a. (Mn.)*

**BO'Z** Kulrang.

*Evaklik biling ul qamug'qa yavuz  
Qali bo'lsa begka yuzi bo'ldi bo'z. (Q.B.)*

**BO'ZLANMOQ** Yig'lamoq, bo'zlamoq.

*Bo'zlanib aydi: – Halo berahm onam,  
Kuydi-yu, yondi-yu tutoshti tanam. (G.)*

**BO'GU** Dono, donishmand.

*Biliglig uqushlug' bo'gu elchi beg,  
Ekagun ajunda bo'lur o'rni yeg. (Q.B.)*

**BO'G'UZ** 1. (3-shaxs birlikda bo'g'zi) Bo'g'iz, tomoq.

*Bo'guz quli Nafs bandasi.  
Bo'r ichma aya bo'rchi bo'g'zi quli  
Bo'r ichsa achildi chig'ayliq yo'li. (Q.B.)  
2. Yem-xashak, oziq, ozuqa.  
Ot sovutub, otqa bo'g'uz berib, tun yarimi naqora vaqtida  
Tangobdin o'tlanildi. (Bn.) Otqa bo'g'uz kamyoft bo'ldi.  
(Bn.)*

## Dd

**DA'B** a. Odat, qiliq, fe'l.

*Chu da bi yo'q edi so'rmay demak so'z,  
Og'iz so'zdin tikib, tikti quyi ko'z. (F.Sh.)*

**DABIR** a. Muallim, o'qituvchi.

*Podshoh o'g'li dabrisonida dabirg'a topshurdi. (T.M.A.)*

**DABIRISTON** a. -f. Maktab.

*Podishoh o'g'li dabrisonida dabirg'a topshurdi. (T.M.A.)*

- DABISTON** *a.* -*f.* Boshlang'ich maktab.  
*Muallimmen bukun savdo dabistonida, ey Majnun,  
 Sahar choki giribon aylamakni mendin o'rgandi. (Amir.)*
- DAD** *f.* Yirtqich hayvon.  
*Dad har sori ketsa, ketmak o'lmas,  
 Nasnosni odam etmak o'lmas. (L.M.)*
- DAF** *f.* Childirma, doira.  
*Boyo'g'li ud, daf jam aylab, mehmondorliq rasmini barpo  
 tutdi. (Zm.)*
- DAF'** *a.* Qaytarish, haydash, yo'qotish, ketkazish.  
*Ahli hole topmadim boshdin balo daf' etmadi,  
 Kulfatu g'urbatni tuzluk sunnati raf' etmadi. (T.F.)*
- DAFOTIR** *a.* (*birligi daftar*) Daftarlar; daftar.  
*Kelib ko'ngluma Majnun, Layli yodi,  
 Dafotir ustuna so'z seli yog'di. (S.Sar.)*
- DAFOYIN** *a.* (*birligi dafina*) Xazinalar, ko'milgan boyliklar.  
*Tushti Jobir dafoyini qo'lig'a,  
 Balki olam xazoyini qo'lig'a. (S.S.)*
- DAFTAR** *yun.* 1. Kitobcha shaklida tikilgan qog'ozlar.  
*Uzdi chu sherozasini daftari,  
 Yel uchurur har varaqin bir sari. (H.A.)*  
 2. Doston, asar.  
*Bu daftarkim, bo'lubtur Misr qandi,  
 Yeti yuz elli to'rt ichra tugandi. (Mn.)*
- DAGUL** *yukl.* Emas.  
*Qulung ko'ptur vale men inju qulmen,  
 Visoling qadrini bilmas dagulmen. (Mn.)*
- DAHAN** *f.* Og'iz.  
*Kalomingdin halovat topmog'i jonlarni ondinkim,  
 Dahan nozik, zabon nozik, ki lab nozik, suxan nozik. (F.)*
- DAHLEZ** *f.* Uyga kirishda birinchi xona, dahliz.  
*Anda dahlezu gunbazu ayvon,  
 Suyi andoqki chashmai hayvon. (S.S.)*
- DAHR** *a.* Dunyo, olam, jahon.  
*Dushmanniki, bu dahr zabardast qilur,  
 Naxvat mayidin bir necha kun mast qilur. (B.)*  
**Dahri dun** Pastkash dunyo.  
*Men chekib anduh o'lay, el joni bo'lsun ul Masih,  
 Sovrul, ey charxi nigun, v-ey dahri dun, barbod bo'l. (G'.S.)*

**Dahri dunparvar** Yaramas kishilarni himoya qiluvchi dunyo.

*Meni xor etti-yu, qildi muddaiyg'a parvarish,  
Dahri dunparvarni o'zga muddaosi qoldimu? (B.)*

**DALA-TUZ** Keng va tekis dala, dala-dasht.

*Dala-tuzni suv olsa, qo'ngg'ur g'ozni to'shidin,  
Quloqsizg'a so'z aysang qulog'ining toshidin. (Zm.)*

**DALER** f Botir, jasur, qo'rqmas, dovyurak.

*Bor edi bir beshada bir tund sher,  
Vahshat aro ko'k asadidek daler. (H.A.)*

**DALK** f Massaj, uqalash.

*Dalk buyurdilarki, ul mavodni tahlil bila daf' qilg'ay. (H.P.M.)*

**DALOYIL** a. (birligi **dalil**) Dalillar, isbotlar, faktlar.

*Muncha qaviy daloyil va azim shavohid bila bu faqirning  
vuqufi balki mahorati bu fanning forsiy va turkiy nazmida  
sobitu ravshan bo'ldi. (M.L.)*

**DAM I** f. Nafas, tin.

*Chun xushomad demakni boshlasa, kosh,  
Kim tutulsa dami, kesilsa tili. (A.N. Qit.)*

**Iso dami** Iso nafasi. Diniy rivoyatlarda Iso payg'ambarning nafasi o'lganlarni tiriltirishi haqida naql qilinadi.

*Jahonning fitnasi usruk ko'zungda,  
Ayon Iso dami shirin so'zungda. (Mn.)*

**DAM II** f. Lahza, on; payt, vaqt, zamon.

*Suhayl ohidin shu dam qo'pti bo'ron,  
Aningtekkim, buzuldi charxi davron. (S.Sar.)*

**DAM-BADAM** f Har damda, tez-tez.

*Sherki tishlab bolasin dam-badam.  
Beshada har yon qo'yar erdi qadam. (H.A.)*

**DAMODAM** f. Hamisha, uzluksiz, doimo.

*Yod mandin, kim berur, yaxshi zamonlar ko'rdiman,  
Rind sarxayliyu xush ayshi damodam surdiman. (T.F.)*

**DAMON** f. Qorqinchli, dahshatli.

*To'la g'orlar ajdahoyi damon,  
Dami o'ylakim ajdahoyi zamon. (S.I.)*

**DANDON** f. Tish.

*Ey ko'ngul qasri asosi tan buzulmasdin burun,  
Toqi abro', kursiysi dandon to'kulmasdin burun. (T.F.)*

**DANGALNISHIN** *f.* Urushda, jangda mardlik namunasini ko'rsatgan kishi, qahramon. O'z fikrini dangal ayta olgani uchun ular podsho yoki xonning maslahatchisi bo'lgan.

*Malik Shohinki, qushlarning shohlig'i anga mansub erdi va Kulonkir sulton anga dangalnishin pahlavon erdi.* (Zm.)

**DAQOYIQ** *a.* (*birligi daqiq*) Nozik ma'nolar, chuqur ma'nolar, yashirin ma'nolar.

*Maxfiy daqoyiqig'a taammulu tafakkurlar bila yetibmen.* (M.L.)

**DAR** *f.* -**da** o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi ma'nosiga to'g'ri keladigan old ko'makchi.

*Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dargo'sh edim.*

*Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdo'sh edim.* (T.F.)

**DARAXSH** Porlash; porloqlik; nur.

*Ko'rguzubon barq bulutdin daraxsh,*

*Qatra Xizr chashmasidek ruh baxsh.* (H.A.)

**DARANG** *f.* Sekinlashish, paysallash, sekin harakat qilish.

*Yana ozim o'ldum chu qilmay darang,*

*Nasib o'ldi Haqdin diyori Farang.* (S.I.)

**DARD** *f.* 1. Kasallik, xastalik, og'riq.

*Lek Haqkim g'amu balo bermish,*

*Dard bermish, vale davo bermish.* (S.S.)

2. *ko'ch.* G'am-g'ussa, g'am, alam, alam-hasrat.

*Mening dardimg'a darmon vasl erur bas,*

*Vale hargiz ulashmas gavhara xas.* (Mn.)

3. Ishq, muhabbat.

*Nozu istig'nosining behaddu g'oyatlig'i andin so'ng oshiq dardu shavqining farovonlig'i.* (M.Q.)

**Dardi bedavo** Davosiz dard, tuzatib bo'lmaydigan dard.

*Vaysiy beriyozat deb sahl tutma, ey orif,*

*Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman.* (U.)

**Dardi toza** Yangi dard.

*Vale yuz muncha dardi toza birla,*

*G'am-u anduhi beandoza birla.* (F.Sh.)

**DARDLI** Dardi bor, xasta; dard-alam chekkan.

*Faqat holin ko'rganlar etar oh,*

*Uchar atrofda qushlar dardli hamroh.* (S.Sar.)

**DARDMAND** *f.* Dardli, qayg'uli, dardnok, g'amnok.

*Sanga, ey dardmandu ovora,*

*So'z budurkim, gar aylabon chora.* (S.S.)

- DARGO'SH** *f.* Quloqda, quloqdagi.  
*Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dargo'sh edim,*  
*Ahli davlatlar bilan yoru harif.hamdo'sh edim. (T.F.)*
- DARIG'** *f.* Pushaymon; afsus, nadomat.  
*Aduv ilgida qatra sudek tig',*  
*Edi o'z notavonlig'ig'a darig'. (S.S.)*
- DARIG'O** *f.* Afsus! E darig'! E voy!  
*Shakardin totli so'zli dilrabosen,*  
*Darig'okim, chechaktek bevafofen. (Mn.)*
- DARJ** *a.* Qayd etmish, kiritish, bayon etish.  
*Bukim maktub aro durlar qilib darj,*  
*Latoyif naqdi ko'p aylab eding xarj (F.Sh.)*
- DARKOR** *f.* Kerak, lozim.  
*Xohi yayov, bo'lsun otim,*  
*Goh sayr ham darkor ekan. (M.)*
- DARMON** *f.* 1. Kuch, quvvat, mador.  
*Suhayl bordi toparg'a, suvg'a, dong'a,*  
*Vale darmon berolmay qoldi jong'a. (S.Sar.)*  
 2. ko'ch. Davo, chora, iloj.  
*Jahonda sentek, ey, jonon yoq, ey jon,*  
*Sening dardingg'a hech darmon yo'q, ey jon. (Mn.)*
- DARYO** *f.* 1. Katta oqar suv, nahr.  
*Bo'ldilar ikki shoh musta'jil,*  
*Biri daryo bila, biri sohil. (S.S.)*  
*Kemada mushuk, sichqon, uchunchi to'ng'uz yo'q erdi, daryo*  
*ichinda bo'ldi. (R.)*  
 2. Mo'l, ko'p, bitmas-tuganmas.  
*Munda dog'i qudratin ifsho qilib,*  
*Hikmat ila qatrani daryo qilib. (H.A.)*
- DARXOST** *f.* Iltimos, o'tinch.  
*Hukamo ham kelib alar bila rost,*  
*Qildilar shohqa yer o'pub darxost. (S.S.)*
- DAST** *f.* 1. Qo'l.  
 2. Marta, karra, daf'a.  
*Nechaki jahd ayladi kozib kishi,*  
*Bir-iki dast ilgari borg'ay ishi. (H.A.)*  
**Dast bermak** Muyassar bo'lmoq, sodir bo'lmoq, yuz ber-  
 moq.  
*Javob kutti bo'lub u ishq aro mast,*  
*Vale taqdir kulub tez bermadi dast. (S.Sar.)*

**Dast topmoq** Qo'lga kiritmoq, olmoq, bosib olmoq.  
*Hech yog'iy qahr va g'alaba bila munga dast topmag'on  
uchun baldai mahfuza derlar. (Bn.)*

**DASTA** *f.* Pichoqning sopi.

*Nosara dirham sifatliq rad qilib qo'lg'a olib,  
Dasta farsuda, yuzi qaytib, oyoqlarda qolib. (T.F.)*

**DASTANDOZLIQ** Qo'l cho'zish, xiyonat qilish.

**Dastandozliq qilmoq** O'g'irlik qilmoq.  
*Sulton Mahmud mirzoning favtidin so'ngra Xisravshoh bu  
voqeani eldin yashurub xazinag'a dastandozliq qildi. (Bn.)*

**DASTGIR** *f.* Madad qiluvchi, qo'llovchi, madadkor, yordamchi,  
rahnamo.

*Kimniki bedoding etibdur asir,  
Bo'l anga adl ilgi bila dastgir. (H.A.)*

**DASTMOYA** *f.* Pul, aqcha, dastmoya.

*Tuynugingdin agarda chiqsa tutun,  
Munda ber dastmoyalarni butun. (M.)*

**DASTONNAVOZ** *f.* Doston aytuvchi, doston hikoya qiluvchi,  
dostonchi.

*Bazmda soqiylar o'lub jilvasoz,  
Ahli g'ino har sori dastonnavoz. (H.A.)*

**DASTOR** *f.* Erkak musulmonlar boshiga o'raydigan uzun mato,  
salla.

*Munchaki chirmosh bila dastordur,  
Bosh uza chiqmoqqa sazovordur. (H.A.)*

**DASTRANJ** *f.* Mashaqqat, zahmat, qiyinchilik.

*Bir diram olmoq, chekibon dastranj  
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj. (H.A.)*

**DASTUR** *f.* Tartib, odat.

*Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bila to'shak ustida  
o'turur edim. (Bn.)*

**DAV** *f.* Yugurish, chopish, yugurib yelish.

*Necha kun vasl uchun aylab taku dav,  
Ani ham o'turub tosh ichra Xisrav. (F.Sh.)*

**DA'VAT** *a.* Chaqiriq, chaqirish, undash, taklif.

*Ellik o'ksuk ming yil da'vat qildi, sekson kishi musulmon  
bo'ldilar. (R.)*

**DA'VI** *a.* 1. Qatl etilgan kishining yaqinlari tomonidan qonga qon  
talab qilishi, da'vo qilish, da'vo:

*Zol kechib da'viyu dostonidin*

*Yo'qki o'g'ul qonidin, o'z jonidin. (H.A.)*

2. Da'vogar.

*Shah dedi: «Gar dav'i esa qonima,*

*Shar'iy esa minnatidur jonima». (H.A.)*

**DAVLAT I a.** Ma'lum bir yurtda bir hukumat va umumiy qonunlarga ega bo'lgan tashkilot.

*Arig' ul bu qut qir arig'liq tilar*

*Suzug ul bu davlat suzugni yular. (Q.B.)*

**DAVLAT II a.** 1. Mol-mulk, mol-dunyo, boylik.

*Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dargo'sh edim,*

*Ahli davlatlar bilan yoru harif hamdo'sh edim. (T.F.)*

2. Baxt, saodat.

*Yuzungdin bilgurur davlat nishoni,*

*O'ramung tuprog'i, baxt oshyoni. (Mn.)*

**DAVLATLI** Baxtli, baxtiyor, saodatli.

*Tilimning zikriyu, ko'nglumni fikri, yaxshi farzandim,*

*Azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim. (U.)*

**DAVLATMAND a.** -f. Baxtiyor, baxtli, xushbaxt.

*Fikr etib komgoru davlatmand,*

*Dedi: Har kimki, Jobir etmish band. (S.S.)*

**DAVLATPANOH a.** -f. Podshoh, shoh.

*Chu otlandi Doroyi davlatpanoh,*

*Skandarga o'tru tuzatti sipoh. (S.I.)*

**DAVLATXOH a.** -f. Xayrixoh, tarafdor.

*Mening va mening davlatxohlarimning bu yarashdin aslo ilm va xabarlari yo'q edi. (Bn.)*

**DAVO a.** Biror xastalikdan sog'ayish vositasi, shifo.

*Tengri bu dardingg'a davo aylamas,*

*Ushbu jihatdinki haqulloh emas. (H.A.)*

**DAVOYIR a.** (birligi **doira**) Doiralar aylanalalar, gardishlar.

*To charx davoyiridin o'lg'ay ayyom,*

*To she'r xayolotig'a yo'qtur anjom. (M.A.)*

**DAVOT a.** Siyohdon.

*Layli tilabon davotu xoma,*

*Filhol muqarrar etti noma. (L.M.)*

**DAVR a.** 1. Atrof, aylana, tevarak.

*Bir yig'ochqa yaqin jazirag'a davr,*

*Davrida sug'a topmayin kishi g'avr. (S.S.)*

2. Zamon, vaqt, payt.

*Ayttimki: «Bu Lutfiyg'a jafo qilma, vafo qil»,*

*Ayturki: «Bizing davrda ul rasm qolibtur» (L.)*

**Davri falak** Falakning aylanishi, aylanuvchi osmon.

*Ey jahondori zafar, kavkabai davri falak,*

*Go'sh qil, qissai qishloqi xarobi Hapalak. (Max.)*

**Davri sipehr** Falakning aylanishi.

*Evrulub kom birla davri sipehr,*

*Vasl topti Suhayl birlan Mehr. (S.S.)*

**DAVRA** *a.* Aylana, atrof.

*Davrasida ko'runmayin ko'zga,*

*Onchakim ko'z tushar sudin o'zga. (S.S.)*

**DAVRON** *a.* 1. Davr, zamon.

*O'kush yillar yaratqon boqiy tutsun,*

*Hayotingni, begim, davron ichinda. (Mn.)*

2. Dunyo, olam, jahon.

*Davr sizningdurur davron borincha,*

*Qulungizmen tanimda jon borincha. (Mn.)*

**DAVVOR** *a.* Aylanadigan, aylanuvchi.

*Tuz ishi yo'q gumbazi davvorning,*

*Kim xati tuz ketmadi pargorning. (H.A.)*

**DAY** *a.* Qish, qish mavsumi.

*Emas erdi bir lahza berudu may,*

*Agar navbahoru va gar fasli day. (S.I.)*

*Day ustodi nechukkim zargari Chin,*

*Zilol atfoli lavhin qildi siymin. (F.Sh.)*

**DAYR** *a.* 1. Butxona.

*Birovki dayr sori zohir ayladi ixlos,*

*Burung'i naf'i bukim xonaqohdin o'ldi xalos. (N.Sh.)*

2. ko'ch. Mayxona.

*May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,*

*Bul'ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur. (B.V.)*

**DAYYOR** *a.* Begona, yot.

*Xushturur visoli yor, anda bo'lmasa dayyor,*

*Bo'lsa vasl e'tibor, davlatu saodat tut. (B.)*

**DAG'DAG'A I** Qo'rquv, qo'rqinch.

*Soyir el har necha bahodir bo'lsa, andak dag'dag'asi va tavahhumi bo'lur. Xojada aslo dag'dag'a va tavahhum yo'q edi. (Bn.)*

**DAG'DAG'A II** *a.* Istak, xohish, moyillik.

*Hamisha mulkgirlik dag'dag'asi bor erdi, necha navbat Samarqand ustiga cherik tortti. (Bn.)*



**DAG'I** 1. Yana, tag'in.

*O'lgudek nola qildi ul dog'i,  
Hushi borib yiqildi ul dog'i. (S.S.)*

2. Ham.

*Bil munikim, sen dag'i bir bandasen,  
Ko'pragidin ojizu afgandasen. (H.A.)*

**DASHNOM** *f.* Qattiq koyish, tanbeh.

*Vale ko'ngul qutulmas domingizdin,  
Qamuq shakkar tomar dashnomingizdin. (Mn.)*

**DASHT** *f.* Cho'l, biyobon, sahro.

*Dashtu daryoda lek ahli ubur,  
Jobiru rohzan qilib mashhur. (S.S.)*

**DASHTLAMOQ** Dasht orqali yurmoq.

*Dubora yurdum dashtlab,  
Bodom koniga qarab. (M.)*

**DEBO** *f.* Nozik va nafis bezaklar solib to'qilgan mato.

*Ki, chun bu uyda qilg'ung naqsh debo,  
Kerak uy tarhi dog'i bo'lsa zebo. (F.Sh.)*

**DEHQON** *f.* 1. Dehqonchilik, ekin ekishlik bilan shug'ullanuvchi kishi.

*Boqmasa dehqon chamanin kun-u tun,  
Naxli tarin angla qurug'on o'tun. (H.A.)*

**DEMAK** 1. Fikr bildirmoq, aytmoq.

*Zol dedikim: «Qazoq erkanda shoh,  
Tig' chekibkim, chekar erdi sipoh». (H.A.)*

*Burung'ilar aning uchun: Ebi birlan so'zlaganning qurboni  
bo'l» degan ekanlar. (Zm.)*

2. Atamoq, nomlamoq.

*Degil avval muniki, qoni Suhayl?  
Qoni ulkim, der erdik oni Suhayl? (S.S.)*

3. Istamoq, xohlamoq.

*Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,  
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. (A.N.Qit.)*

4. Biror ish-harakatni bajarishga harakat qilmoq, urinmoq.

*Sayd yetgach ko'zini asrar edi,  
Ko'rmayin deb ozini asrar edi. (S.S.)*

5. Boshqalarga nisbatan afzal ko'rmoq, tanlamoq.

*Xotin sodiq, ani sevgil aziz er,  
Har og'ir ishda ham doim seni der. (S.Sar.)*

6. Singari, kabi.

*Suhayl boshin ko'tarib ko'rdi qizni,*

*Qul ermas, podshoh deb sezdi o'zni. (S.Sar.)*

**DEMON** Demayman.

*Demon mendin sening darding erur kam,*

*Sening ham ko'pturur darding, mening ham. (F.Sh.)*

**DEV** f. 1. Afsonaviy bahaybat qo'rqinchli maxluq.

*Qabzai hukmida jahon kishvari,*

*Amrig'a inson kibi devu pari. (H.A.)*

2. Dahshatli, qo'rqinchli.

*Qoyub erdi kaminda Jobir nev,*

*Kinavarlar masof vaqtida dev. (S.S.)*

**DEVBAND** f. Devni bog'lovchi, devni yenguvchi; kuchli; jasur.

*Dimog'imdin olib bir jom ila hush,*

*Meni qil devbandu ajdahokush. (F.Sh.)*

**DEVON** a. Davlat kirim-chiqim ishlari boshlig'i, moliya vaziri.

*Bir Majdiddin Muhammad edi, Shohrux mirzoning yakqalama devoni. (Bn.) Aning o'rnig'a Nizomulmulk devon bo'ldi. (Bn.)*

**DEVONA** f. Telba, tentak savdoyi, shaydo.

*Xirad birla jahon afsonasi men,*

*Vale zanjiringiz devonasi men. (Mn.)*

**Devona aylamak** Savdoyi qilmoq.

*Meni devona aylab ishva birla,*

*Nedur hardam parilardek yashunmoq. (A.)*

**DEVONAVASH** f. Devonasifat, jinniga o'xshash.

*Chun shahrdin chiqdim Qudash,*

*Ko'ngul bo'lub mahzunu g'ash,*

*Majnunsifat, devonavash,*

*Serchashmayu kam chang ekan. (M.)*

**DEVONIY** a. Davlat kirim-chiqim ishlari bilan shug'ullanuvchi kishi.

*Mirzog'a ozroq yormoq muhim bo'lub devoniylardin tilaganda, devoniylar yo'qtur, hosil bo'lmas, deb javob berurlar. (Bn.)*

**DIDBON** f. Soqchi, posbon, qo'riqchi.

*Didbon ul taraf boqib nogoh,*

*Yana Jobirni ayladi ogoh. (S.S.)*

**DIDBONLIQ** Posbonlik, soqchilik, qo'riqchilik.

*Ki kishikim qo'yub erdi Jobir,*

*Didbonliqqa har sori nozir. (S.S.)*



**DIGAR** *f.* Boshqa, o'zga.

*Ro'zgorim tiyra, iqbolim zabun, baxtim qaro,  
Bo'lsa ravshan, bormukin tadbiri digar toleim. (M.)*

**DIL** *f.* Ko'ngil, qalb.

*Sipohiyalar qilolmay qoldi chora,  
Faqat qoldirdi bu g'am dilda yora. (S.Sar.)*

**DILAFRO'Z** *f.* Ko'ngul ochuvchi, ko'ngilni shod etuvchi.

*Yo rab, ani xalq dilafro'zi et,  
Xasta Navoiyg'a dag'i ro'zi et. (H.A.)*

**DILBAR** *f.* Ma'shuqa, go'zal, jonon, mahbuba.

*Kel, ey oy yuzlu dilbar, tut biror qo'sh,  
Biror qo'sh birla qilg'il bizni madhush. (Mn.)*

**DILFIZO** *f.* Ko'ngul ochuvchi, rohatbaxsh, yoqimli.

*Vodil maqomi dilfizo,  
Ko'chalaridur dilkusho. (M.)*

**DILISTON** *f.* Ko'ngul ovlovchi, dilni yupatuvchi: sevgili, mahbuba.

*Salomimni tegur ul dilistong'a,  
Rahmsiz bevafo joni jahong'a. (Mn.)*

**DILJO'YLUQ** Mehribonlik, mehribonchilik.

*Ko'zin ochib jamolin yaxshi ko'rdi,  
Base diljo'yluqlar birla so'rdi. (F.Sh.)*

**DILKASH** *f.* 1. Dilni o'ziga tortuvchi, jazb etuvchi.

*Suhayl yurdi pari qochg'on sorig'a,  
Yetay deb mahvashi dilkash parig'a. (S.Sar.)*

2. Kishiga yoqadigan, yoqimli.

*Ammo aning havosi xush va bodi dilkash. (Zm.)*

**DILKUSHO** *f.* Ko'ngul ochuvchi, rohatbaxsh, yoqimli.

*Vodil maqomi dilfizo,  
Ko'chalaridur dilkusho. (M.)*

**DILOVARLIQ** Jasorat, jasurlik, botirlik.

*Ulum avroqi chun bir-bir yopildi,  
Dilovarliq silohi mayli qildi. (F.Sh.)*

**DILPISAND** *f.* Ko'ngilga yoqadigan, maqbul, yoqimli.

*Bas, qobil erdi-yu dilpisand ul,  
Ozodavashu niyozmand ul. (L.M.)*

**DILPORA** *f.* Dili pora bo'lgan, g'amli, g'amnok.

*Har qanda g'ami do'sti dili porani istar,  
To subh yaqo yirtmadi, mehr o'lmadi paydo. (T.F.)*

- DILRABO** *f.* Go'zal, jonon, mahbuba.  
*Shakardin totli so'zli dilrabosen,*  
*Darig'okim, chechaktek bevafozen. (Mn.)*
- DILSITON** *f.* Ko'ngul ovlovchi; sevgili.  
*G'am bila jonimg'a yettim, g'amgusore ko'rmadim,*  
*Hajr ila dilxasta bo'ldum, dilsitone topmadim. (G.S.)*
- DILSO'Z** *f.* Dilni kuydiruvchi, kuchli, ta'sirchan.  
*Dilso'z abyotim munojot ahlig'a oshub va g'avg'o soldi.*  
*(M.L.)*
- DILXASTA** *f.* Ko'ngli dardli, dili vayron.  
*G'am bila jonimg'a yettim, g'amgusore ko'rmadim,*  
*Hajr ila dilxasta bo'ldum, dilsitone topmadim. (G.S.)*
- DILXOH** *f.* Ko'ngilga yaqin, xayrixoh.  
*Yoshurun tiyra uyga ul dilxoh,*  
*Kirdi ikki kaniz anga hamroh. (S.S.)*
- DIMOG'** *f.* 1. Kayfiyat, ahvol.  
*Xush dimog' etgan mayi sofî hariflar durdiman. (T.F.)*  
2. Bosh, kalla.  
*O'zga xud bo'ldi ul sifat bexud,*  
*Kim, dimog'idin ucti hushu xirad. (S.S.)*  
**Dimog'i kuymak** Xafa bo'lmoq, ranjimoq.  
*Kuymasun bu savdodin ne uchun dimog'imkim,*  
*Ranju g'ussada dono, kechsa shod nodonlar. (F.)*  
**Dimog'ig'a o't tushmak** Qattiq xafa bo'lmoq.  
*Ohidin o't dimog'ig'a tushti,*  
*Dilbarining ayog'ig'a tushti. (S.S.)*
- DIN** *a.* Ilohiy kuchga ishonish, e'tiqod.  
*Shirin-shirin so'zlasang ilon inidin chiqar, achchiq-achchiq*  
*so'zlasang musulmon dinidin chiqar. (Zm.)*
- DINOR** *a.* Oltin tanga, oltin pul.  
*Baholiq dinor ul biliklik kishi,*  
*Bu johil biliksiz bahosiz bishi. (H.H.)*
- DIRAM** Umumman tanga, pul.  
*Diramdur moyai ishrat ulusg'a,*  
*Vale men bo'lmisham bemoya navro'z. (Og.)*
- DIRHAM** *y.* Tanga, pul.  
*Nosara dirham sifatliq rad qilib, qo'lg'a olib,*  
*Dasti farsuda, yuzi qaytib, ayog'larda qolib. (T.F.)*
- DIYAT** *a.* Musulmon dinida bironni o'ldirganlik uchun to'lanadigan tovon, xun bahosi, xun.



*Qozi o'lub adl harimig'a xos,  
Qildi ravon hukmi diyat yo qisos. (H.A.)*

**DIYDA** *f.* Ko'rish uzvi, ko'z.

*Diyda namnoku giribon choku bag'ri porai,  
Noqabuli marhami, nosur bitmas yorai. (T.F.)*

**DIYDOR** *f.* ko'ch. Allohning jamoli.

*Ikki dunyoni ko'zumga ilmadim,  
Menki ul diydorning hayronasi. (Mash.)*

**DIYONAT** *a.* Dinning qonun-qoidalariga rioya qilish, dindorlik.

*Tun-kun yuqu g'aflatda bo'lub ayladuk odat,  
Shul uchun adam o'ldi mana bizlarda diyonat. (H.)*

**DIYOR** *a.* Mamlakat, yurt.

*Saloyin o'zumi o'zga diyora,  
Ko'ngulni bog'lag'oyin o'zga yora. (Mn.)*

**DOD** *f.* Adolat, insof, rahm-shafqat, mehr-shafqat.

*Adl eshigin elga kushod ayladi,  
Taxt uza o'lturdiyu dod ayladi. (H.A.)*

**Dod bermak** Dodiga yetmoq.

*Meni o'lturdi ishqing, bermading dod,  
Borurmen ostonangdin yor, xayrbod. (Mn.)*

**Doda kelmak** Adolat istab kelmoq, adolat tilamoq.

*Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,  
Sen shahu men benavo, lutf ayla, faryodim eshit. (N.)*

**DODA** Tog'a.

*Men borib kichik xon dodamni ko'rdum. (Bn.)*

**DODAR** *f.* Uka, ini.

*Xizr otamlarg'a burodar erur,  
Chimlig' azizlar menga dodar erur. (M.)*

**DOFI'** *a.* Daf qiluvchi, yo'qotuvchi, ketkazuvchi.

*Tengrining oyati rahmatdur ul,  
Xalqdin dofi'i zahmatdur ul. (Shn.)*

**DOIM** *a.* Hamisha, hammavaqt, doimo.

*Nedur zoting, pari, yo odamizod,  
Manga ayt, odingi doim etay yod. (S.Sar.)*

**DOIYA** *a.* Istak, orzu maqsad.

*Chun saltanat dag'dag'asi va mulkgirlik doiyasi bor, bir  
qatla, ikki qatla ish yurumagan bila boqib o'lturub bo'lmas.  
(Bn.)*

**DOL I a.** 1. Arab alifbosidagi sakkizinchi «d» harfining nomi.

2. *ko'ch.* Ma'shuqaning kokili, zulf, gajak.

*Jonimdag'i jim ikki dolingg'a fido,*

*Andin so'ng alif toza niholingg'a fido.* (A.N.Rub.)

**DOL II a.** Dalolat, dalil.

*Bir kun Alisherbek bila mirzoning orasida bir suhbate o'ttikim, mirzoning tez fahmlig'ig'a va Alisherbekning riqqati qalbig'a doldur.* (Bn.)

**DOLON f.** Dahliz, koridor.

*Ushbu uyning dolonida o'ng qo'lumdin yo so'l qo'lumdin tutub andoq ko'tardilarkim...* (Bn.)

**DOM f.** To'r, matrap.

*Dona bila su sari qilg'och xirom,*

*Tortti sayyod aning ustiga dom.* (H.A.)

**DOMANA f.** Tog'ning pastki qismi, etak.

*Yana pushtai Ko'hakning domanasida g'arb sari bog'e solib-tur.* (Bn.)

**DOMON f.** Kiyimning old tomonining pastga osilib turadigan qismi, etak, bar.

*Suv sepib ko'z yoshidin, qo'y dum yo'lungiz tozalab, To kelur vaqtida domonni g'ubor etmay keling.* (M.)

**DON f.** 1. G'alla.

*Yig'ar don el uchun shundin ekinchi,*

*Erur bor ekmagidindur ilinji.* (S.Sar.)

2. Oziq, oziq-ovqat, yemish.

*Suhayl bordi toparg'a, suvg'a, dong'a,*

*Vale darmon berolmay qoldi jong'a.* (S.Sar.)

**DONA f.** 1. Mayda, dumaloq narsalarning har biri.

*Falak ishqing yo'lungda besaru poy,*

*Isirg'ang donasi Zuhra, yuzung oy.* (Mn.)

2. Parrandalarga beriladigan yemish, don.

*Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldum g'aribi qirqqa,*

*Dona deb pobast o'lub, domi firibi qirqqa.* (T.F.)

**Donai dur** Dur donasi.

*Donai dur so'zini afsona bil,*

*So'zni jahon bahrida durdona bil.* (H.A.)

**DONISH f.** Bilim, ilm, ma'rifat.

*Yig'ibon har tarafdin necha xotun,*

*Barisi fazlu donish ichra otun.* (N.)

**Donish ahli** Aqlli kishilar, bilimli kishilar.  
*Mahfiling aro har tun jam' o'lur bori noahl,*  
*Donish aholidin ishing nega ijtinob o'lmish.* (K.)

**DONISHOMUZ** *f.* Bilim o'rgatuvchi, ustoz.

*Qo'pub ollinda chun yer o'пти Farhod,*  
*Hakimi donishomuz etti bunyod.* (F.Sh.)

**DONISHVAR** *f.* Bilimli, bilimdon, dono.

*Anda shohi saxiyu donishvar,*  
*Qabzai hukmi ichra ul kishvar.* (S.S.)

**DONO** *f.* Oqil, aqlli, bilimdon.

*So'z aro yolg'on kibi yo'q nopisand,*  
*Aylar aning nazmini dono pisand.* (H.A.)

**DOR** *a.* Uy.

**Dori ano** Mashaqqat uyi, qiyinchilik uyi.

*Biyiklik yetsa ul dori fanodin,*  
*Qutulg'ay jon bu bir dori anodin.* (F.Sh.)

**Dori fano** Foniylilik uyi, vaqtinchali uy; *ko'ch.* Bu dunyo.

*Biyiklik yetsa ul dori fanodin,*  
*Qutulg'ay jon bu bir dori anodin.* (F.Sh.)

**DORIMOQ** 1. Yo'liqmoq, duch kelmoq.

*Har tarafdin dorir edi sayde,*  
*Shahg'a erdi sipoh ishi qaydi.* (S.S.)

2. Yopirilmoq, yopirilishmoq.

*Hosil o'shul uyga halo doribon,*  
*Qaysi balo, balki vabo doribon.* (H.A.)

3. Hujum qilmoq, hamla qilmoq.

*Qolin o'zbaq dorisa netgaybiz,*  
*Nechuk ohangi qaror etgaybiz.* (Shn.)

**DORULQAZO** *a.* Qozixona, sud.

*Bir qatla bir o'g'li bir kishini o'lturgani uchun qonliqlarig'a*  
*topshurub, dorulqazog'a yibordi.* (Bn.)

**DORUG'A** Shahar hokimi.

*Elga dorug'a qo'yub yondi o'zi,*  
*Bordi xon hazratig'a yaxshi so'zi.* (Shn.)

**DOSTON** *f.* Dard-u hasrat.

*Zol kechib da'viyu dostonidin,*  
*Yo'qki, o'g'ul qonidin, o'z jonidin.* (H.A.)

**DOVAR** *f.* Podshoh, hukmdor.

*Dovaro, xisravo, falakjoho,*  
*Sarfarozo, shaho, shahanshoho.* (S.S.)

**DOVUR** Davr, zamon.

*Dovur sizning turur davron borincha,  
Qulunguzmen tanimda jon borincha. (Mn.)*

**DOXIL** a. Daxldor, tegishli.

*Oni dog'i qilma saxo doxili,  
Kim, kishini tomiayi komili. (H.A.)*

**DOYA** f. Doya, enaga.

*Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli,  
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z. (Og.)*

**DOG' I** f. 1. Yara, jarohat.

*G'asb ila molin olib, qo'ymadingizlar bitini,  
Qamchilar dog' solib bo'yung'a, tilib betini. (T.F.)*

2. ko'ch. Qayg'u, alam, kulfat.

*Bo'ylakim, hajr qo'ydi bag'rig'a dog',  
Manzil o'lmish edi anga ul bog'. (S.S.)*

**Dog' qo'ymoq** Qayg'uga solmoq.

*Nukta qilma Suhayldin iblog',  
Qo'ymag'il dog'im ustiga yana dog'. (S.S.)*

**DOG' II** Tog'.

*Ey Navoiy, telba ko'nglum itti, emdi istamon,  
Necha dog'u dashtdin istab keturgaymen oni. (B.V.)*

**DOG'I** Ham.

*Qilsa ul dog'i zarb izhori,  
Munga ham tushmas erdi ul kori. (S.S.)*

**DOG'ULI** Firibgar, aldamchi, mug'ombir.

*Cho'qub qochar zog'i alo,  
Bir dog'uli ayyor ekan. (M.)*

**DUBORA** f. Ikkinchi marta, takroran.

*Dubora yurdum dashtlab,  
Bodom koniga qarab. (M.)*

**DUD** f. 1. Haroratli bug', issiq bug'.

*Aningdek chekti ohi otasholud,  
Ki, oyni abr aro yoshurdi ul dud. (F.Sh.)*

2. ko'ch. G'am, alam, kulfat.

*Ul alam garchi soldi boshima dud,  
Bildim o'rtanmagimda yo'qtur sud. (S.S.)*

**DUDOG'** Lab, dudoq.

*Dudog'ingdin ko'ngul jon hosil etmas,  
Ayoqing tuprog'in o'nsam ne vetmas. (Mn.)*



**DUDOG'LI** Dudoqli, labli.

*Telim gulchehra nargis ko'zlilar bor.*

*Shakar dudog'li, shirin so'zlilar bor. (Mn.)*

**DUGONA** *f.* Juft.

*Yo'q, yo'q, dema oni ikki dona,*

*Ul dona emas edi dugona. (L.M.)*

**DUKCHI** Duk yasovchi usta.

*Ozodadin to'pori ko'p,*

*Dukchisidin attori ko'p. (M.)*

**DUN** *f.* Past, pastkash, razil.

*G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,*

*Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi, dardu mehnatim. (T.F.)*

**DUNPARVAR** *f.* Pastkash kishilarni tarbiyalovchi, yomon odamlarni vujudga keltiruvchi.

*Meni xor ettiyu qildi muddaiyni parvarish,*

*Dahri dunparvarning o'zga muddaosi qoldimu? (B.)*

**DUNYO I** *a.* 1. Yer yuzi, yer kurrasi, yer.

*Dunyoda qayu tog' adiz ersa aning ustinda qirq qari suv erdi. (R.)*

*Gunash dunyo yuzindin chohqa botti,*

*Uzulgan gultekin tuproqda yotti. (S.Sar.)*

2. Hayot, tiriklik.

*Menga yaxshi dedi yor birla o'lmoq,*

*Ne lozim g'am bilan dunyoda qolmoq. (S.Sar.)*

**Ul dunyo** Diniy e'tiqodga ko'ra kishi o'lgach abadiy yashaydigan narigi dunyo.

*Manga ul dunyoda jannat ne hojat,*

*Eshiging tuprog'i basdur kafanda. (A.)*

**DUNYO II** *a.* Boylik, mol-dunyo, mol-mulk.

*Sening bo'ldi dunyo tiriglik bila*

*Tiriglik bulunsa yatib ye kula. (Q.B.)*

**DUO** *a.* Allohga yolvorish, Xudodan biror narsa tilash, tilak.

*Duongni ijobat qildim, borg'il chinor yig'och tikkil. (R.)*

*Aytqan bu kitobni ham bitigay,*

*Tilarmenkim, duoda yod qilg'ay. (Mn.)*

**DUOCHI** *ko'ch.* Kimsaga yaxshilik, yaxshi niyat tilovchi, duogo'y.

*Shaho, lutfungni topqom deb duochi banda Sakkokiy,*

*Belin joni bilan bog'lab, bu xizmatg'a ravon keldi. (S.)*

**DUR(R)** *a.* 1. Gavharning yirik turi, katta marvarid.

*Shamsasi el moli bila zarnigor,*

*El duru la'li bila gavharnigor. (H.A.)*

2. *ko'ch. Eng yaxshi, qimmatli, sara narsalar haqida.*

*Qamuq yoqut erinli, so'zi durlar,*

*Vafosizliqni sizdin o'rganurlar. (Mn.)*

**Duri dargo'sh** Quloqqa taqiladigan dur.

*Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dargo'sh edim,*

*Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdo'sh edim. (T.F.)*

**Duri yakto** Qimmatbaho dur.

*Kishi o'zluqni qo'ymay, oni topmas,*

*Tengiz kechmay, duri yaktoni topmas. (F.Sh.)*

**Durri shabcharog'** Tunni chiroqday yorituvchi dur.

*Ne maxzan, har durri sham'i farog'i*

*Ne dur, ne sham', durri shabcharog'i. (F.Sh.)*

**DURAR** (*birligi dur*) Durlar.

*Til bu chamanning varaqi, lolasi,*

*So'z duraridin bo'lubon jolasi. (H.A.)*

**DURAH** *f. -a.* So'zida turmaydigan, betayin, tuturiqsiz.

*Durahdu tangchashmu besaru yajujvaj,*

*Muxtalif mazhab guruhi O'zbekistondur bu mulk. (T.F.)*

**DURAXSHON** *f.* Porloq, yaltiroq, nurli.

*Demay o't onikim, barqi duraxshon,*

*Demay barqi duraxshon, mehri raxshon. (F.Sh.)*

**DURD** *f.* Mayning idish tubida qolgan qoldig'i, quyqa.

*Qiblagoho, mandin ikroh etma bir mayxonadin,*

*Jo'sh pur xum sof maysan, man g'ubori durdiman. (T.F.)*

**Durdi don** *f.* May loyqasi, may idishi tagida qoladigan don-dun parchalari.

*Har yerdakim gul bo'lsa, tikon bo'lsa ne tong,*

*Har qandaki may, durdi don bo'lsa, ne tong. (B.)*

**DURDKASHLIK** Mayxo'rlik, ichkilikbozlik.

*Gahi telbalar birla gulxan aro,*

*Surub durdkashlikda yuz mojaro. (Mu.)*

**DURDNO'SH** *f.* Mayning tagida qolgan quyqasini ichuvchi, mayning loyqasini ichuvchi.

*Jur'a uchun jon beribon durdno'sh,*

*Jom tubin kupga quyar mayfurus. (H.A.)*

**DURDONA** *f.* Durning eng qimmatbahosi, eng sarasi, nodir dur.

*Donai dur so'zini afsona bil,*

*So'zni jahon bahrida durdona bil. (H.A.)*

- DURJ** *a.* Qimmatbaho toshlar saqlanadigan kichik quti, quticha.  
*To'rt sadaf.gavharining durji ul,*  
*Yetti falak axtarining burji ul. (H.A.)*  
*Tishing, la'ling guhar jon durji ichra,*  
*Yuzung, qoshing quyosh, oy burji ichra. (Mn.)*
- DURMOQ** Turmoq, uyg'onmoq.  
*Bevafu foniy jahonni bilmagil san joyi bud,*  
*Erta dur, oxshom ketarsan selu barqu bodu rud. (T.F.)*
- DURROJ** *a.* Qirg'ovul, tustovuq.  
*Durrojning yolg'onni chin o'rnig'a ayturidin hodisa domig'a*  
*tushganida chin so'zin sher yolg'on sog'inib faryodig'a yet-*  
*mangani. (H.A.)*
- DURPOSH** *f.* ko'ch. Qimmatli so'zlar aytuvchi  
*Ey sho'x, ko'zu qoshinga olam gado, men ham gado,*  
*La'li labi durposhinga olam gado, men ham gado. (Og.)*
- DURUR** –*dir* kesimlik qo'shimchasiga mos keluvchi to'liqsiz fe'l.  
*Kimki chini el aro yolg'on durur,*  
*Yolg'oni chinlikka ne imkon durur? (H.A.)*
- DURUST** *f.* Shikastsiz, beshikast, sog'-salomat.  
*Kemalarni qiroqg'a bog'lab rust,*  
*Xalqu amvolini chiqordi durust. (S.S.)*
- DURUSHT** *f.* Qo'rs, qo'pol, dag'al.  
*Beklar bu so'zlarga multafit bo'lmay, durusht javoblar aytib,*  
*ilgariga ko'chtillar. (Bn.)*
- DUTMOQ** Tutmoq.  
*Begu begzoda qolib, ilqichi, qo'ychilar bek,*  
*Dutdi to'p'ori hama, ketti eshikdin to'bichoq. (T.F.)*
- DUTO** *f.* Bukilgan, egilgan, bukuk, egik.  
*Xonumonidin judo bo'lg'an kishidin dard so'rang,*  
*O'rtanib qaddi duto bo'lg'an kishidin dard so'rang. (Mash.)*
- DUZD** *f.* Yulg'ich, o'g'ri, qallob.  
*Bordim shahardin Yakkatut*  
*Baqqoli duzdi badburut. (M.)*
- DUSHMAK** Tushmoq.  
*Bo'lmishdi safoyi dil Nizomiy,*  
*Shirvonshaha dushub kiromi. (Fuz.)*
- DUSHMAN** *f.* 1. Jang maydonida bir-biri bilan jang qiluvchi,  
o'zaro olishuvchi yov.  
*Novaki dushman yuragin qon etib,*  
*Tig'i aduv boshini parron etib. (H.A.)*

2. Bir-biriga qasddan zarar beruvchi, yomonlik qiluvchi, g'anim.

*Ul sababdin Havvoni dushman tutg'ay erdi. (R.)*

**DUSHMANVOR** f. Dushman kabi, dushman singari.

*Men o'lar holatda, dushmanlar ko'runub do'stvash,  
Nevchun o'lmaykim, kelur boshimg'a dushmanvor do'st.  
(N.Sh.)*

**DUSHMANSHIORLIG'** Dushmanlik, g'animlik.

*Yaxshi kunumda har kishikim qildi yorlig',  
Do'ngach zamona, ayladi dushmanshiorlig'. (K.)*

**DUSHVOR** f. Qiyin, mushkul, og'ir.

*Visoli lazzatidin zavq topmoqlig erur dushvor,  
Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermaklik osondur. (B.)*

**DUCHANDON** f. 1. Ikki baravar, ikki hissa.

*Zulm bilan elligu yuzni olur,  
Bor tanobini duchandon solur. (M.)*

**DO'LASHMOQ** O'rnashmoq, band qilmoq.

*Navoiy turklarning tarki tutsa, ayb qilmangkim,  
Anga bir turkmon mahvash g'ami mahkam do'lashibtur.  
(B.V.)*

**DO'MA** (ruscha **duma** so'zidan olingan) Amaldor, boshliq.

*Do'malari ham xo'b bajo,  
Volosnoyi uhdaburro. (M.)*

**DO'NG** Do'ngpaygan, qappaygan, ko'tarilgan.

*Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur. (Zm.)*

**DO'NMAK** O'zgarimoq.

*Yaxshi kunumda har kishikim qildi yorlig',  
Do'ngach zamona, ayladi dushmanshiorlig'. (K.)*

**DO'ST** f. 1. Yaqin, sodiq.

*Unga do'st bo'l, uni sevgil, ko'ngul ber,  
Uning so'z bahridin gavharlarin ter. (S.Sar.)*

2. Tarafdor, xayrixoh.

*Do'st kim turur men bilurmen, siz bilmassiz. (R.)*

3. Murojaat shakli.

*Bu kun, ey do'stlar, farzandi jonimni sog'indim,  
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim. (U.)*

4. Alloh, xudo.

**Do'st rizosi** Alloh rizosi.

*Kim o'la do'st rizosi hamin sanga hosil,  
Rizo do'stlar asli tamatto', ey g'ofil! (Fuz.)*

- DO'STDORLIG'** *f.* Do'stga ega bo'lishlik, do'sti borlik.  
*Erkan abas o'z elidin do'stdorlig'.* (K.)
- DO'STGOINI** *f.* 1. O'zi ichayotgan mayni hurmat yuzasidan boshqa kishiga berish, do'stona qadah tutish.  
2. Qadah, jom.  
*Ketur soqiy, anga bir do'stgoni*  
*Ki, tutqay do'stlarg'a do'st oni.* (F.Sh.)
- DO'STVASH** *f.* Do'st kabi, do'st singari.  
*Men o'lar holatda, dushmanlar ko'runub do'stvash,*  
*Nevchun o'lmaykim, kelur boshimg'a dushmanvor do'st.* (N.Sh.)
- DO'ZAX** *f.* 1. Diniy e'tiqodga ko'ra, o'lgan gunohkor kishilar u dunyoda abadiy azob-uqubat tortadigan joy, jahannam.  
*Sumantek orazing guldur tikansiz,*  
*Manga do'zax erur uchmoh sensiz.* (Mn.)  
2. *ko'ch.* Kishiga ortiq darajada azob beradigan o'ta og'ir sharoit, muhit.  
*Alar ko'p yurdiyu sahrog'a kirdi,*  
*Gunashdin sahro ichra do'zax erdi.* (S.Sar.)
- DO'SH-BARDO'SH** Yelkama-yelka, kiftma-kift.  
*Qo'yubon ro'y-barro'y, do'sh-bardo'sh,*  
*Bo'lub o'z bedili birla hamog'ush.* (F.Sh.)

## Ee

- EB:** **Ebi birlan** Chegaradan chiqmay, yo'li bilan, me'yorida, evida, evi bilan.  
*Burung'ilar aning uchun: «Ebi birlan so'zlaganning qurboni bo'l» degan ekanlar.* (Zm.)
- EDGU** 1. Yaxshi, ma'qul, ezgu.  
*Necha yangsiz ishlar bo'z ichsa bo'lur*  
*Necha edgu ishlar esursa qalur.* (Q.B.)  
2. Yaxshilik.  
*Qamug' edguka bo'lsa algi uzun*  
*Uvutlug' silig ham qilinchi tuzun.* (Q.B.)
- EDI** Juda, g'oyat, nihoyat, o'ta.  
*Yanut berdi O'gdulmish aydi elig*  
*Edi ters ayitti menga bu bilig.* (Q.B.)

**EDMAK** Etmoq, qilmoq, aylamoq.

*Fuzuliy ayladiging ahdinga vafu qilg'il,  
Yetar shikoyat edub, sharhi mojaru qilg'il.* (Fuz.)

**EGACHI** Opa.

*Egachiyu, singilu, ahlu ayol,  
Borcha o'zbakka bo'lurlar pomol.* (Shn.)

**EGILMAK** Bukilmoq, quyi solinmoq.

*Xalqini ko'rsang agar o'lasiyu qoqu xarob,  
Ochlikdin egilib qomati misli kamalak.* (Max.)

**EGIN** (3-shaxs birlikda egni) Kift, yelka.

*Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur,  
Ki, aning chiqsa egni, sinsa ali.* (A.N.Qit.)

**EGIRMAK** O'rab olmoq, o'ramoq.

*Xisrav qo'rg'onni qabob tushub davrida yana bir qo'rg'on  
egirgani.* (F.Sh.)

**EGMAK** Quyi solmoq, engashtirmoq.

*Boshin egmish yetib oltun boshuqlar,  
Boshuqlarni ekinchilar mashuqlar.* (S.Sar.)

**EGRI** 1. To'g'ri emas, qiyshiq.

*Mavlo azza va jalla Havvoni egri so'ngakdin yaratdi.* (R.)

2. Noto'g'ri, nojo'ya, chakki.

*Eki neng bila elchi beglik buzur  
Kirur egri yo'lqa ko'nidin azar.* (Q.B.)

3. Zamirida shama yoki teskari ma'no bo'lgan, ilmoqli.

*Unda alomati balog'at zohir bo'lub, ko'zi suzulub, ovozi bu-  
zulub, onasining to'g'ri so'zlariga egri so'zlay boshladi.* (Zm.)

4. Nopok, qallob, qing'ir.

*Egriyu tuz vasfi muhaqqaq durur,  
Botil erur egriyu tuz haq durur.* (H.A.)

**Egri so'zlamak** Yolg'on gapirmoq, aldamoq.

*Borib tengri uchun ko'r ani bexost,  
Ki Xisrav so'zlamish egrimu yo rost?* (F.Sh.)

**EGRILIK** Nopoklik, qalloblik, qing'irlik.

*Va egrilik nafyidakim, agar egri kishi zulfdek siymbarlar  
yuzida yer tutarkim, boshi keskuluk durur.* (H.A.)

**EGU** Ezgu, yaxshi.

*Jahonni, egu oting tutti mutlaq,  
Yaman ko'zdin yiroq tutsun seni haq.* (Mn.)

**EHSON** a. In'om, in'om-ehson, hadva.

*Shoh Bahrom abri ehsoni,  
Lutf bila ko'kortti oni. (S.S.)*

**HISOS** *a.* Sezish, his qilish.

*Rahrav ul ikkidek bu ko'hna saro,  
Qilmay ehsos barru bahr aro. (S.S.)*

**HITIDO** *a.* To'g'ri yo'ldan borish, haq yo'lni topish.

*Balki chu tortib alami ehtido,  
Istabon ummatlig'ini anbiyo. (H.A.)*

**HITIMOM** *a.* Sa'y-harakat, g'ayrat.

*Bizni ehtimomimiz ul sorilar bormoqqa behad va beg'oyat-  
tur. (Bn.)*

**HITISOB** *a.* Tekshirish, nazorat qilish.

*Sizga kim aydi: muhabbat ahlin qil ehtisob,  
Qo'rqutub, o'z aybig'a iqrор qilmoq shunchalar. (M.)*

**HYO** *a.* Tiriltirish, jonlantirish; tirilish.

*Yo rabki bu qavmkim erur Xizr qadam,  
O'lgan ko'ngul ehyosi uchun Iso dam. (M.Q.)*

**E'JOZ** *a.* Ilohiy, g'ayritabiiy narsa, mo'jiza.

*Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,  
Bo'lmas edi tengri kalomida nazm. (H.A.)*

**EKAN** Otlar bilan birikib kelganda keyin ma'lum bo'lganlik, birovdan eshitib bilganlik ma'nolarini anglatadi.

*Uyanib bildi shunda tush ekanin,  
Va sezdi botg'anin anduh tikanin. (S.Sar.)*

**EKI** Ikki.

*Eki neng bila elchi beglik buzar  
Kirur egri yo'lqa ko'nidin azar. (Q.B.)*

**EKIGUN** Har ikki, ikkala.

*Kiming himmati bo'lmasa ul o'lug  
Ekigun ajunda bu bulmas ulug. (Q.B.)*

**EKIN** Ekan.

*Bilmadikim ne ish ekin hodis,  
Kim bu ishka bo'lub ekin bois. (S.S.)*

**EKINCHI** Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishi, dehqon.

*Boshin egmish yetib oltun boshoglar,  
Boshog'larni ekinchilar mashoglar. (S.Sar.)*

**EKKI** Ikki.

*Biri kuch birisi o'salliq qilur  
Bu ekki bila beg elin artatur. (Q.B.)*

**EKSUMAK** Kamaymoq, ozaymoq, kamib qolmoq.

*El artar to'ru birla etlur ajun,*

*El eksur bu kuch birla buzlur ajun. (Q.B.)*

**EL I 1.** Xalq.

*Bu saqliq bila artti beglar eli*

*O'salliq ko'ru buzdi beglik uli. (Q.B.)*

2. Qabila ittifoqi, qabila uyushmasi.

*Bu el tutg'uqa ko'p erat su kerak,*

*Erat tutg'uqa neng tavar tu kerak. (Q.B.)*

3. Biror yerga yig'ilgan kishilar, xaloyiq.

*Nogahon esdi nomuvofiq yel,*

*Voqif o'lg'uncha kemalardagi el. (S.S.)*

4. Davlat; mamlakat.

*Etilsa el ham bayusa budun.*

*Ati edgu bo'lsa ul ertar o'dun. (Q.B.)*

**EL II** Qo'l.

*Umr mehnat bila poyona keldi,*

*Ko'ngul javring elindin jona keldi. (Mn.)*

**EL-BUDUN** Xalq, el.

*Qayu elka bo'lsa bu yanglig' begi*

*Qutuldi ul el buduni ketti igi. (Q.B.)*

**ELIG I** Hukmdor, hokim; podshoh.

*Aya elchi beglar elig qulsa saq*

*Bu saqliq bila sen tuzu elka baq. (Q.B.)*

**ELIG II** Qol.

*Saq ersa begi elka tegmas elig*

*Qali tegsa yetrur uqush o'g bilig. (Q.B.)*

**EL-KUN** Xalq, el.

*O'zi yetti, tuzdi, ko'r, el-kun ishi,*

*Taqi ma tilar erdi o'zrum kishi. (Q.B.)*

**ELLIK 1.** Elik.

**Ellik o'ksuk ming yil** Elligi kam ming yil, ya'ni to'qqiz yuz ellik yil.

*Ellik o'ksuk ming yil da'vat qildi, sekson kishi musulmon bo'ldilar. (R.)*

2. Elik tanga.

*Zulm bilan elligu yuzni olur,*

*Boz tanobini duchandon solur. (M.)*

**ELLIKBOshi** Uch xonliklar davrida mahalla, qishloq boshlig'i, oqsoqol.



*Olurg'a pora ellikboshilar, mingboshi qozidin,  
Ijobat bo'ldi-bo'ldi aylar erdilar duo saylov. (M.)*

**E'LOM** a. Ma'lum qilish, bildirish, e'lon.

*Manga Jomosbdin erdi bu e'lom,  
O'zidin so'ngki yozmish erdi ahkom. (F.Sh.)*

**E'lom aylamak** Ma'lum qilmoq, bildirmoq.

*Gar bu yanglig' emasdurur sanga kom,  
Oni ham botroq aylagil e'lom. (S.S.)*

**ELCHI** E'tiborli lavozim egasi, hokim, hukmdor.

*Eki neng bila elchi beglik buzar,  
Kirur egri yo'lqa ko'nidin azar. (Q.B.)*

*Neku ter eshitgil ey elchi bashi  
O'rug kad ko'ngullug sinamish kishi. (Q.B.)*

**Elchi beg** Hukmdor.

*Biliglig uqushlug' bo'gu elchi beg  
Ekagun ajunda bo'lur o'rni yeg. (Q.B.)*

**EM Dori**, dori-darmon.

*Kishi iglasa o't o'tachi berur  
O'tachi iginga emin kim qilur. (Q.B.)*

**EMA** Ham.

*Bugun men netak qildim ersa sen ema, mendin so'ng mundog'  
qilg'aysen. (R.)*

**EMAK** *Edi, emish, ekan, ekin, erkan, ersa* kabi fe'l shakllarining o'zagini tashkil qiluvchi, mustaqil qo'llanmaydigan to'liqsiz fe'l.

*Ikkisi chunki erdilar cholok,  
Bir-biridin alarg'a yo'q edi bok. (S.S.)*

**EMALDOSH** Emikdosh.

*Bir necha ko'kaltosh, emaldosh va boyrisi Sul-ton Mas'ud  
mirzoni olib, Samarqandg'a Sul-ton Ali mirzo qoshig'a keltu-  
rur xayoli bila Keshqa keldilar. (Bn.)*

**EMAM** Emasman.

*Garchi osiyman, aning dargohidin navmid emam,  
Bir gul uchun suv berurlar sad hazoron xorni. (Mash.)*

**EMDI** 1. So'z borayotgan paytda, hozir, endi.

*Musofirman, g'aribman, bekasu ham benavodurman,  
Vujudum dardg'a to'ldi, emdi darmonimni sog'indim. (U.)*

2. Bundan keyin, bundan buyon.

*Chora topmoq kerak mufid emdi,  
Yo'q g'amu noladin umid emdi. (S.S.)*

**EMGAK** Mashaqqat, qiyinchilik, zahmat.

*Bedug ish budun bashlamaqi ag'ir,  
Bash ag'rig' bila tutchi emgak tegir. (Q.B.)  
Kun sayu emgaki ortuqroq bo'ldi. (R.)*

**EMGANMAK** Mashaqqat chekmoq, zahmat chekmoq, qiyinchilik qilmoq.

*G'am tog'ida Farhodsifat emganur erdim,  
Boshimg'a balo teshasi tegdi, yota qoldim. (Mash.)*

**EMGATMAK** Holdan toydirmoq, charchatmoq.

*Bayat kimga bersa qilinch arquqi  
Ani emgatur bu zamona o'qi. (Q.B.)*

**EMIN** a. Xotirjam, bexatar, tinch, xavfsiz.

*Emin bo'lmoq Xotirjam bo'lmoq.  
Bo'lmoq o'lmas xalos domingdin,  
Bo'lmog'um emin intiqomingdin. (S.S.)*

*Emin qolmoq Omon qolmoq.  
Bo'lg'on anda zarurdin sokin,  
Qolg'onin Jobir ilgidin emin. (S.S.)*

**EMITMAK** Moyil bo'lmoq, mayli bo'lmoq.

*Uzik meni qumitti,  
Saqinch manga yumitti,  
Ko'nghum angar emitti,  
Yuzum maning sarg'arur. (D.L.T.)*

**EMKANMAK** Mashaqqat chekmoq, zahmat chekmoq.

*Manim emkanib tarbiya qilg'on choqlarimni esingizdan  
chiqarmaysiz. (Fit.)*

**EMLAMAK** 1. Kasallikdan xalos qilmoq, davolamoq, sog'aytir-  
moq.

2. Buzilgan, izdan chiqqan ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yimoq,  
to'g'rilamoq, tartibga keltirmoq.

*Bu beglik iginga o'ti o'g bilik,  
Uqush birla emla ey qilqi silig. (Q.B.)*

**ENG I** Belgining ortiqiligini bildiruvchi so'z.

*Bularda eng ing'a bu arquq qilinch  
Bu arquq qilinchliq ne munglug' erinch. (Q.B.)*

**ENG II** Yonoq; yuz, bet.

*Sening chehrangda, ey firdavs sarvi,  
Engin qon birla yur chimgan tazarvi. (Mn.)*



**INGAK** Iyak.

*Ul uchqunda el bo'ldi andoq zabun,  
Ki bo'ldi engaklarga qo'llar sutun. (S.I.)*

**INGLIK** Yog'upa, elik.

*Mardlar maydon chekib, rangin ko'tarib zaxmlar,  
Sizga yo'q, ul javharu yuzga upo-englik qiling. (T.F.)*

**INMAK** 1. Tushmoq, inmoq.

*Yugrushib qal'asig'a mindilar,  
Raxna aylab ichiga endilar. (Shn.)*

2. Kirmoq, qo'nmoq, tashrif buyurmoq.

*Ayt mendinkim, ul miskin urur oh,  
Qachon engay gadoning evina shoh. (Mn.)*

**EPI** Afyun, qoradori.

*Epi yeb, asrigach bir onda posbon,  
Choh ichra boqti tez xurshidi tobon. (S.Sar.)*

**ER** 1. Erkak jinsiga mansub kishi, erkak.

*Qayu yerda bo'lsa uqush birla o'g  
Ani er atag'il necha o'gsa o'g. (Q.B.)*

2. Kishi, odam, inson.

*Urug'i edgu bo'lsa er edgu bo'lur  
Er edgu bo'lub o'tru to'rka barur. (Q.B.)*

**Er yetmak** Balog'at yoshiga yetmoq, voyaga yetmoq.

*Bizning qurratul aynimiz er yetibdur, bir yerda munosib  
maslahat qilali. (Zm.)*

**ERAJ** Rohat, farog'at, osoyishtalik, huzur.

*O'kush sevmaguchi sevari az ul,  
Kerishi telimrak eraji az ul. (Q.B.)*

**Eraj yemak** Huzur-halovat topmoq, rohatlanmoq.

*Bu yanglig' turur barcha beglik ishi,  
Qayu eraj yer qayu o'z bashi. (Q.B.)*

**ERAN** 1. Erkak, erkak kishi, odam, inson.

*So'ngakka iliktur, eranga bilik,  
Biliksiz eran ul so'ngaksiz ilik. (H.H.)*

2. Askar, soldat.

*Su bashlar eran ko'r yuraklig kerak,  
Yuraksiz erat alsa andin yurak. (Q.B.)*

**ERAT** Askar; askarlar, lashkar, qo'shin.

*Bu el tutg'uqa ko'p erat su kerak  
Erat tutg'uqa neng tavar tu kerak. (Q.B.)*

*Yumutsa erat bo'lsa kuchlug elig  
Yuritsa to'ru tuz yetursa bilig. (Q.B.)*

**ERDAM** Fazilat, yaxshi xislat.

*Qamug' turlug erdam bu bilsa tugal  
Yiraq ersa andin yarag'siz muhal. (Q.B.)*

**ERIN** (3-shaxs birligi **erni**) Lab, dudoq.

*Shakar erning naboti Xizra o'xshar,  
Oyog'ing kimki o'psa mangu yoshar. (Mn.)*

**ERINLI** Dudoqli, labli.

*Qamuq yoqut erinli so'zi durlar,  
Vafosizliqni sizdin o'rganurlar. (Mn.)*

**ERINCH** 1. Toilei past, tolesiz, baxtsiz.

*Bularda eng ing'a bu arquq qilinch  
Bu arquq qilinchliq ne munglug' erinch. (Q.B.)*

2. Kuchaytiruv yuklamasi vazifasida ishlatiladi.

*Bu to'rtinch yavuz begka arquq qilinch  
Beshinchi yarag'siz bu yalg'an erinch. (Q.B.)*

**ERKAN** Ekan.

*Firoqingda ko'zum yoshi bor erkan,  
Bahoru abri nayson hojat ermas. (A.)*

**ERMAN** Eman daraxti, dub.

*Erman yog'ochning egilgani – singani, er yigitning  
uyalgani – o'lgani. (Zm.)*

**ERMAS** ayn. Emas.

*Raqib birla musohib qilma bizni,  
Quturg'on itga sagbon hojat ermas. (A.)*

**ERMISH** Emish.

*Maqsadi sori yetmagan ermish,  
Kema ul sori ketmagan ermish. (S.S.)*

**ERNAK** Barmoq.

*Ul terining belgusi ernaklar ichinda qoldi. Bu tirnoqlar ul  
turur. (R.)*

**ERSA** Bo'lsa, esa.

*Beg alchaq kerak bo'lsa tutqi ko'ngul  
Muniteg yo'q ersa sen andin to'ngul. (Q.B.)*

**ERTAKI** Eski, qadimgi, oldingi.

*O'ldi mehringdin Navoiy, bevafo deb sen ani,  
Ertaki nozuk mizoji badgumonim sen mening. (F.K.)*

**ERTI** Erdi, edi.

*Tabg'ach qag'an yag'imiz erti,  
O'n o'q qag'anj yag'imiz erti. (O'.E.O.)*

**ERTMAK** O'tmoq, o'tib ketmoq.

*Etilsa eli ham bayusa budun  
Ati edgu bo'lsa ul ertar o'dun. (Q.B.)*

**ERUR** Qo'shma so'zlar tarkibida kelib, -dir qo'shimchasiga to'g'ri keladi.

*Kel ey soqiy, keturgil xush sabuhi,  
Kim ushbu dam erur jonning futuhi. (Mn.)*

**ESAN** Eson, eson-omon, tinch, sog'.

*Yanut berdi O'gdulmish aydi elig  
Esan inch tirilgil ey ustag alig. (Q.B.)*

**ESANMAK** Esmoq (shamol haqida).

*Bir kun Nuh alayhissalom uziyur erdi, yel esandi. (R.)*

**ESIZ** Yomon, yaramas, razil, rasvo.

*Esizka siyosat yuritg'u kerak  
Budun bulg'anuqin siyosat suzar. (Q.B.)*

**ESURMAK** Kayf qilmoq, mast bo'lmoq.

*Necha yangsiz ishlar bo'z ichsa bo'lur  
Necha edgu ishlar esursa qalur. (Q.B.)*

**ET** Go'sht.

*Nuh alayhissalom baqa etin yilong'a berdi. (R.)*

**E'TIBOR** a. Diqqat, nazar, parvo, pisand.

*Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,  
Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman. (T.F.)*

**E'TIDOL** a. Mo'tadil, o'rtacha.

*Bermagida mar'i erur e'tidol,  
Lek emas mavqeyida bazli mol. (H.A.)*

**ETILMAK** 1. Tartibga tushmoq, yo'lga qo'yilmoq, o'nglanmoq, yaxshilanmoq.

*Etilsa eli ham bayusa budun  
Ati edgu bo'lsa ul ertar o'dun. (Q.B.)*

2. Qilinmoq.

*Siyosat bila beg tuzar el to'ru  
Qara qilqi et(i)lur siyosat ko'ru. (Q.B.)*

**E'TIMOD** a. Ishonch.

*Shopurg'a kishi yiborib, istid'o qildikim, men qaribmen, dag'i  
umrumg'a e'timodim yo'qtur. (T.M.A.)*

**E'timod qilmoq** Ishonmoq.

*Sulhqa e'timod qilib, bularning bu makr va g'adridin bexabar va g'ofil eduk. (Bn.)*

**ETMAK I** 1. To'g'ri, xatosiz holga keltirmoq, tuzatmoq, to'g'ritilmoq.

*Qora tengsizin barcha beglar etar*

*Begi qilsa tengsiz ani kim yetar. (Q.B.)*

2. Bitmoq, tuzalmoq.

*Ko'nglum ichin o'rtadi,*

*Etmish bashig' qartadi. (D.L.T.)*

3. Qo'shma fe'llar tarkibida kelib, «qilmoq», «aylamoq» ma'nosida ishlatiladi.

*Lutf qo'lun holinga hamdast etay,*

*Xasmni sarpanja bila past etay. (H.A.)*

**ETMAK II** Non.

*Kemi tamam bo'ldi ersa, Nuhning kofir evluki tanurda etmak pishururda tanur ichinda suv chiqdi. (R.)*

**EV** Yashash uchun mo'ljallangan bino, uy.

*Ekinchi evlari yoqildi o'tqa,*

*Buday evruldi, tuproq bo'ldi bo'tqa. (S.Sar.)*

**EVA** Shoshqaloqlik bilan, shoshib, shoshib-pishib, shoshilinch.

*Eva qilmish ishlar bicha yig bo'lur*

*Eva yesa ash suv bicha ig bo'lur. (Q.B.)*

**EVAK** Shoshma-shosharlik bilan ish qiladigan, shoshma-shoshar, shoshqaloq.

*Evak qurg'u qilqi qilinchi bushi*

*Biligsizka belgu bo'lur bu ishi. (Q.B.)*

**EVAKLIK** Shoshma-shosharlik, shoshqaloqlik, yengiltaklik.

*O'tunlug' evaklik yenig qurg'uluq*

*Qara qilqi ul bu yiraq turg'uluq. (Q.B.)*

**EVAZ** a. Taqdirlab berilgan narsa, siylov.

*Anga evazdur, sanga sharmandaliq,*

*Anga biyiklik, sanga afkandaliq. (H.A.)*

**EVLANMAK** Uylanmoq.

*Kim Ubayd evlanibon kelgan uchun,*

*Xon aning kelganini bilgan uchun. (Shn.)*

**EVLUK** Xotin, rafiqa.

*Nuhning evluki kofir erdi. (R.)*

- EVMAK** To'plamoq, yig'moq.  
*Tugal o'n sekiz ayda aydim bu so'z,  
O'durdum, adirdim so'z evdib tera. (Q.B.)*
- EVROLMAK** 1. Aylanmoq, kezmoq.  
*Uch-to'rt oyg'acha Shayboqxon qo'rg'onning yovug'ig'a kel-  
may, iroqroqdin qo'rg'onni evrulub ko'chub yurur edi. (Bn.)*  
2. Aylanmoq, o'girilmoq, harakatga kelmoq.  
*Bor erdi shoh qizi, Guldursun oti,  
Tilim evrulmas aytmog'a sifotin. (S.Sar.)*
- EVURMAK** O'girmoq, burmoq. **Yuz evurmak** Yuz o'girmoq.  
*Evrman yuz nechakim kelsa mehnat,  
Jafu sizdin, tag'i bizdin muhabbat. (Mn.)*
- EY** Murojaat, chaqiriq ma'nolarini anglatadi.  
*Jahonda sentek, ey, jonon yo'q, ey jon,  
Sening dardingg'a hech darmon yo'q, ey jon. (Mn.)*
- EZARMAK** Topishga harakat qilmoq, izlamoq, axtarmoq.  
*O'dinda kechursa bu beglik ishin  
Ani yetsa bo'lmas ezarsa qushin. (Q.B.)*
- EZGULUK** Boshqalarga manfaat yetkazish, xayrli ish, yaxshilik.  
*Agar qarlug'ach ul kuni oncha ezguluk qilmasa erdi, qamug'  
odamiylar yilong'a yem bo'lg'ay erdilar. (R.)*
- EZID** Xudo, tangri, alloh.  
*Hayrat etman husni naqshidaki, har hayratki bor,  
Barchasi ezid taolo sun' naqqoshindadur. (B.V.)*
- EZMACHURUK** Aytilgan gapni yana ko'p o'rinsiz takror-  
layveradigan, ezma.  
*Og'izlari maqtanib o'n besh qarish,  
Mayda suxan, ezmachuruk, zanchalish. (M.)*
- ESHIK** a. 1. Uyda kiraverishda o'rnatilgan ochib-yopiladigan  
moslama.  
*Eltibon qasr aro qiling mahbus,  
Eshigin ustidin eting madrus. (S.S.)*  
2. Uy, hovli, xonadon.  
*Sen kim, Boyo'g'lining eshigiga kishi yubormoq kim? (Zm.)*
- ESHIKOG'A** Xon saroyidagi bosh xizmatkor.  
*Xoja Abulmakorim bila Tanbal og'asi Bek Tanbalnikim, ul  
mahalda xonning eshikog'asi edi. (Bn.)*
- ESHITMAK** 1. Ovozni quloq orqali qabul qilmoq.  
*Arbadadin o'zga eshitmay quloq,  
Komi uchun tutmay ilik juz ayoq. (H.A.)*

2. Quloq solmoq, tinglamoq.

*Neku ter eshitgil vafalig' kishi*

*Vafa ul kishika kishilik bashi. (Q.B.)*

3. Xabardor bo'lmoq, ma'lumot olmoq, bilmoq.

*Ko'r tutg'anin qo'ymas va kar eshitganin qo'ymas. (Zm.)*

*Eshitgan emasmusankim, yaxshilar aytibdurlarkim. (Zm.)*

**ESHMAK** 1. Burab mustahkam qilmoq, pishitmoq.

*Chiqli dog'i eshib kamandini chust,*

*Bog'lab oning ilik-ayog'ini rust. (S.S.)*

2. G'ajimoq, burda-burda qilmoq.

*Musulmon qarishiti, ichin et eshur. (Q.B.)*

## Ff

**FAFHAM** a. Tushun! Angla! Fahmla!

*Ikisi balki ayni ishq: fafham!*

*Tugandi borcha so'z: vallohu a'lam! (F.Sh.)*

**FAHM** a. Aql, idrok.

**Fahm qilmoq** Tushunmoq, anglamoq, fahmlamoq.

*Sher eshitib aning ilhonini,*

*Fahm qilib, savtida yolg'onini. (H.A.)*

**Fahmi ogoh** Ziyraklik, fahmlilik.

*Soldi filhol ani hamul choh aro,*

*Budurur tab'u fahmi ogoh aro. (S.S.)*

**FAHMLAMOQ** ...deb hisoblamoq, ...deb bilmoq, ...deb o'ylamoq.

*Anda Yapaloqqush aydi: «Men sizni bilimlik va ma'nidin boxabar kishi fahmlab erdim. (Zm.)*

**FALAK** a. Osmon, ko'k, samo.

*Falak aylanmasila davr yetgay,*

*Adolat urlug'undin baxt bitgay. (S.Sar.)*

**Falak axtari** Osmon yulduzi.

*To'rt sadaf gavharining durji ul,*

*Yetti falak axtarining burji ul. (H.A.)*

**Falak avji** Osmon cho'qqisi.

*Ey, falak avjidan o'tub rif'ating,*

*Oyu quyoshdin cholinib navbating. (H.A.)*

**Falak ayvoni** Yuksak osmon.





*Falak ayvonina bosh indururmu,  
Qoshing mehrobining toqina mushtoq. (A.)*

**Falak zoli ko'ch.** Falak, dunyo.

*Falak zoli asru jafokor erur,*

*Fusunsozu makkoru g'addor erur. (Og.)*

**FALAKJOH** *a. -f.* Yuksak martabali, oliy martabali.

*Dovaro, xisravo, falakjoho,*

*Sarfarozo, shaho, shahanshoho. (S.S.)*

**FALAKMIQDOR** *a.* Yuqori martabali, yuksak martabali;  
ma'shuqa, sevgili.

*Qaysi shohning Munisi mahzun kibi bordur quli?*

*Qaysi qulning sen kibi shohi falakmiqdori bor? (Mu.)*

**FALAKMISOL** *a.* Osmon singari ko'k, osmon kabi moviy.

*O'yla bahri falakmisol ichra,*

*Kavkabi yer tutub hilol ichra. (S.S.)*

**FALAKMONAND** *a. -f.* Osmonga o'xshash, osmondek.

*Ikki po'lod eshik falakpayvand,*

*Rang ila sayr aro falakmonand. (S.S.)*

**FALAKPAYVAND** *a. -f.* Yuksak.

*Parada ichra mohi falakpayvand,*

*Aslu nisbatda xojag'a farzand. (S.S.)*

**FALAKQADR** *a.* Yuksak martabali, shon-shavkatli.

*Ey falakqadru adolat shiyami mulku malak,*

*Marhamat chog'ida rahm ayla ba holi Hapalak. (Max.)*

**FALAKVASH** *a. -f.* Osmon singari, osmonday keng.

*Ariqqa qo'ydilar «Nahr ul-hayot» ism,*

*Falakvash havzg'a «Bahr un-najot» ism. (F.Sh.)*

**FALAKVOR** *a. -f.* Osmon singari, osmon kabi keng.

*Bir falakvor marg'zor erdi,*

*To'la otlig' bila shikor erdi. (S.S.)*

**FALAKSHIGOF** *a. -f.* Falakni yoradigan, osmonni teshadigan.

*Bir ohi falakshigof chekti,*

*Kim ko'kni anga g'ilof chekti. (L.M.)*

**FALOH** *a.* Xalos bo'lish, qutulish, najot.

*Manga yo'q chun tiriklikning falohi,*

*Siz aylang ulcha bo'lg'ay el salohi. (F.Sh.)*

**FALON** *a.* 1. Biron kimsaning ismi o'rnida qo'llanadi, falonchi.

*Uy eshigin falong'a topshurunguz,*

*Xabarin manga bot kelturunguz. (S.S.)*

2. Buyum, shaxs yoki ish-harakatning nimaligi, kimligi kabilarni anglatuvchi soʻzlar oʻrnida qoʻllanadi.

*Emdi mav'id falon kun o'ldi yaqin,  
Azm uchun soat ayladuk tayin. (S.S.)*

**FAN a.** 1. Hunar, kasb.

*Yo'q savohil ichinda rahzan ul,  
Bahr aro ham anga kelib fan ul. (S.S.)*

2. Odat, qiliq.

*Bu Jur'atki, avval edi Gulxaniy,  
Erur barcha hazyon demaklik fani. (Faz.)*

**FANO a.** Halok boʻlish, yoʻq boʻlish, oʻlish; oʻlim.

*Majoziy ishqdin o'rtansa joning,  
Borib seli fanog'a xonumoning. (F.Sh.)*

**Fano dayri ko'ch.** Dunyo.

*Biri Iso nafasliq rindi Sheroz,  
Fano dayrida mastu louboli. (A.N.Qit.)*

**FAQAT a.** Birgina, yolgʻiz.

*Sipohiyalar qilolmay qoldi chora,  
Faqat qoldirdi bu g'am dilda yora. (S.Sar.)*

**FAQIR a.** 1. Qashshoq, kambagʻal.

*Elga bisyor tanqisliq bo'ldi. Anga yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yeya kirishtilar. (Bn.)*

2. Mushkul ahvolga tushib qolgan.

*Men dog'i bir faqirmen sendek,  
Notavonu asirmen sendek. (S.S.)*

3. Kamtarlik yuzasidan «men» olmoshi oʻrnida ishlatiladi; kamina.

*Faqir agarchi bu so'zning mahzi kizb ekanin bilur erdim.  
(M.L.)*

**FAQR a.** Kambagʻallik, yoʻqsillik.

*Bizki, bugun jahon aro kishvari faqr shohimiz,  
Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidur kulohimiz. (Og.)*

**Faqr xayli** Bechoralar, qashshoqlar.

*Faqr xaylidin hazar aylar hama,  
Joh eliga aylar izzat, ey Avaz. (A.O'.)*

**FARAH a.** Xursandchilik, oʻyin-kulgi, shodlik, quvonch.

*Emdikim, tuzdi bazmi ayshu farah,  
Qo'lig'a oldi shohvor qadah. (S.S.)*

**FARAHNOK** *f.* Shod, xursand.

*Etib yuz javhari pokizani chok,  
Ki andin bangiye bo'lg'ay farahnok. (F.Sh.)*

**FARANG** *f.* Yevropa.

*Kishilar yibordiki, har marzu bum,  
Farang o'lsunu yo Shomu Rum. (S.I.)*

**Farang ahli** Yevropaliklar.

*Iskandariya minorasi tilisminkim, farang ahli qilg'an, anda  
ko'runur erdi. (T.A.H.)*

**FARD** *a.* 1. Yakka, yolg'iz, tanho.

*Qayonkim ishq aro bir fard bo'lg'ay,  
Ko'zi nuri yo'lungdin gard bo'lg'ay. (F.Sh.)*

2. Biror narsadan ozod bo'lgan, xoli.

*Qildi zanjiru banddin ani fard,  
Yer o'pub, dedi zori g'amparvard. (S.S.)*

3. Mumtoz adabiyotda faqat bir baytdan iborat bo'lgan kichik mustaqil she'r.

**Fard aylamak** Mahrum qilmoq.

*Biri bukim yo'q anda moyayi dard,  
Qildilar ishq so'zidin ani fard. (S.S.)*

**FARDO** *f.* 1. Ertangi kun, erta.

2. *ko'ch.* Qiyomat kuni, qiyomat, oxirat, mahshar.

*Gahi bo'ldum faqiru, gahi shohu, gah gadodurman,  
Ajab devonaman, fardoki mahshargohg'a sig'mamdur.  
(Mash.)*

**FAR-FAR** *f.* Tez-tez, qayta-qayta.

*Oncha kufr ayta boshladi far-far,  
Ki damidin ayon bo'lub sar-sar. (S.S.)*

**FARHANG** Qomus; ilm; bilim.

*Hilm ila ko'hi garonsangdur ul,  
Sohibi donishu farhangdur ul. (F.Sh.)*

**FARHODSIFAT** *f.* -a. Farhod kabi, Farhodday.

*G'am tog'ida Farhodsifat emganur erdim,  
Boshimg'a balo teshasi tegdi, yota qoldim. (Mash.)*

**FARISHTA** *a.* 1. Diniy e'tiqodga ko'ra xudoning farmonlarini bajaruvchi qanotli maxluq, malak.

*Xitob keldi «Ey farishtalar, sizlarga aytmadimmi man bilganni sizlar bilmassiz», teb. (R.)*

**Farishta sifot** Farishtaga o'xshash; go'zal, chiroyli.

*K-ey bashar xilqatu farishta sifot,  
Bergan o'lgan tanimg'a toza hayot. (S.S.)*

**FARMONBAR** *f.* Itoat etuvchi, bo'ysunuvchi.

*Bo'yla nigin naqshig'a farmonbari,  
Muncha ajab naqsh ila devu pari. (H.A.)*

**FARMONDIH** *f.* Buyruq beruvchi, podshoh.

*Yana so'rdi farmondihi ro'zgor,  
K-ey donish ahlig'a omuzgor. (S.I.)*

**FARMONPAZIR** *f.* Itoat qiluvchi, itoatkor, bo'ysunuvchi.

*Tuzluk o'lub oxir anga dastgir,  
Tuzluk ila xalq anga farmonpazir. (H.A.)*

**FAROVON** *f.* Ko'p, mo'l, serob.

*Garchiki, haq amri farovon erur,  
Borchasi bir yonu bu bir yon erur. (H.A.)*

**FAROZ** *f.* Balandlik, yuksaklik.

*Yuz farozidin ozib, tushdum nishibi qirqqa. (T.F.)*

**FAROG'** *a.* 1. Hordiq, istirohat, dam.

*Ikki bandi – o'q erdi bog' ichra,  
Kelgach ul majlisi farog' ichra. (S.S.)*

2. Tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalik.

*Yarog' aylab ko'ngul farog'i bila,  
Ulcha mumkin cherik yarog'i bila. (S.S.)*

**FAR** Qush qanot qoqqanda chiqadigan tovush, pir.

*Yetgach aning boshi uza nogahon,  
Far eta, uchsa edi, ul notavon. (H.A.)*

**FAR(R)** *f.* Shukuh, shavkat, sharaf; ulug'vorlik.

*Bu farni hodiya baxt etgach irshod,  
Ravon shahzoda otin qo'ydi Farhod. (F.Sh.)*

**FARROSH** *a.* Supirish-sidirish, tozalash ishlari bilan shug'ullanadigan kishi.

**Chaman farroshi** Tong shabadasi.  
*Chaman farroshi ya'ne tong nasimi,  
Gulafshonliq qilur bo'ston ichinda. (Mn.)*

**FARRUX** *f.* Go'zal, chiroyli.

*Tal'ating farrux, muborak maqdaming,  
Qildi kulbamni guliston, marhabo. (N.)*

**FARRUXBAXT** Baxtli, baxtiyor, saodatli.

*O'zgalarga yig'ochdindur taxt,  
Loyiq uldurki shohi farruxbaxt. (S.S.)*

**FARRUXOYIN** *f.* Saodat keltiruvchi, baxt keltiruvchi.

**Farruxoyin qilmoq** Xursand qilmoq.

*Soqiyo, tut mayi farxunda asar*

*Farruxoyin qilib oltun sog'ar.* (F.K.)

**FARSUDA** *f.* Holsiz, holsizlangan, charchagan, horg'in.

*Nosara dirham sifatliq rad qilib, qo'lg'a olib,*

*Dasti farsuda yuzi qaytib, ayog'larda qolib.* (T.F.)

**FARXUNDA** *f.* Baxtli, baxtiyor, qutlug'.

*Zihi farxunda toli' baxtiyori,*

*Kim ul hazratta bir kun topsa bori.* (Mn.)

**FARXUNDABAXT** *f.* Baxtli, baxtiyor, xushbaxt.

*Andaki, G'oziy Shahi farxundabaxt,*

*Toj olayin deb taloshur erdi taxt.* (H.A.)

**FARXUNDAFOL** *f.* 1. Baxtli, baxtiyor, kelajagi porloq.

*Bo'yla chu ikki tanug' o'tkardi zol,*

*Bo'ldi muqir xisravi farxundafol.* (H.A.)

**FARYOD** *f.* Baqirib yig'lash, fig'on, afg'on, nola.

*Qildi faryodu bordi andin hush,*

*Mehrni hayrat ayladi madhush.* (S.S.)

**Faryodig'a yetmak** Yordamga kelmoq.

*Durrojning yolg'onni chin o'rnig'a ayturidin hodisa domig'a*

*tushganida, chin so'zin sher yolg'on sog'inib faryodig'a yet-*

*magoni.* (H.A.)

**FARZAND** *f.* Bola, zurriyot.

*Bori ikki ato, ikki farzand,*

*Rishtai vasl ila topib payvand.* (S.S.)

**Farzandi arjumand** Aziz farzand.

*Senga mulkungda bo'lmoq o'lsa mayl,*

*Lek farzandi arjumand Suhayl.* (S.S.)

**Farzand bo'lmoq** Farzand hisoblanmoq.

*Mehr agar erdi jonima payvand,*

*Sanga dog'i bo'lub edi farzand.* (S.S.)

**Farzandi jonon** Suyukli farzand.

*Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,*

*Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.* (U.)

**FARZONA** *f.* Donishmand, dono.

*Anga farzona «Farhod» ism qo'ydi,*

*Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.* (F.Sh.)

**FARSH** *a.* To'shaladigan narsa, to'shak.

*Farshi saropardai yozi yabon,  
Qush paridin boshi uza soyabon. (H.A.)*

**FASAD** *a.* Fisqu fasod, ig'vo.

*Fasad qayda bo'lsa qachar qut teza  
Fasad chin yurir tutchi beglik buza. (Q.B.)*

**FASIL** *a.* Qal'a devori, qo'rg'on devori.

*Yovuq kishilar va mo'tabar kishilar o'zini fasildin tashlab  
qocha kirishdi. (Bn.)*

**FASL** *a.* Mavsum.

**Fasli gul** Gul mavsumi, gul ochiladigan vaqt.  
*Eturdi fasli gul sayri xiyobon,  
Necha mahramlari birlan xiromon. (S.Sar.)*

**FASOD** *a.* Fitna, ig'vo, fisqu fasod.

**Fasod ahli** Fisqu fasodchilar, ig'vogarlar.  
*Fasod ahlin quvay desang, (ketiga) bir uray desang,  
Bu dargohdin suray desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
(Mash.)*

**FASOHAT** *a.* Nutqning aniq va ravonligi, chiroyli so'zlash.

*Qachon ul Yusufi Misriyda bu husnu malohat bor?  
Fasohatda, sabohatda hama to'g'rida san nozik. (F.)*

**FASONA** *a.* 1. Hikoya, doston, ertak.

*Chun tugatti fasonani roviy,  
Pardador ochti pardai moviy. (S.S.)  
2. Boshidan o'tgan voqea, hodisa, sarguzasht.  
Mehr qildi fasonasin bunyod,  
Boshig'a nekim o'tti, ayladi yod. (S.S.)*

**FATH** *a.* Bosib olish, zabt etish, qo'lga kiritish; zafar, g'alaba.

*Shahg'a xayl o'lsa, fath aning ishidur,  
Bir kishi Rustam o'lsa, bir kishidur. (S.S.)*

**Fath qilmoq** Bosib olmoq, zabt etmoq, qo'lga kiritmoq.  
*Beshinchi navbatkim, kelib Sulton Ibrohimni bosib  
Hinduston mamolikini fath qildim. (Bn.)*

**FATONAT** *a.* O'tkir zehn, kuchli aql.

*Bo'lub shul asr hikmat ahli hadsiz,  
Fatonat ahli donishmand adadsiz. (F.)*

**FATTON** *a.* Fitna qiluvchi, fitnachi; maftunkor, jozibali.

*Qoshlari ostida go'yo ikki fatton ko'zlari,  
Ikki hindu bachchadurkim, yondashib yo tortadur. (F.)*

**FAVOYID** *a.* (birligi **foyda**) Foydalar, naflar.

*Alarning ochiq ko'ngullari favoyidi davron xaloyiqidin o'ksulmasun.* (M.N.)

**FAVT** *a.* 1. O'lim.

*Ulug'bek mirzoning favtining tarixi tavre voqe bo'lubtur.* (Bn.)

2. Barbod bo'lish, buzilish.

**Favt bo'lmoq** Barbod bo'lmoq.

*Baski samo'i g'azalu qavlu savt,*

*Bo'lubon ul kungi namoz elga favt.* (H.A.)

**FAXR** *a.* Mag'rurlik, kibr, havo.

**Faxr qilmoq** Mag'rurlanmoq.

*Sango bo'lsa ham oyu kun qilma faxr,*

*Rikobu, rikobu, rikobu, rikob.* (K.)

**FAYZ** *a.* Baraka, barakat, seroblik.

*Tugangach sochar fayz amtor anga,*

*Havoda yana bormu osor anga.* (S.I.)

**FAZL** *a.* Ilm, fan; hunar.

*Barcha fazlu hunarda yo'q misli,*

*Ko'zguga boqsa o'zi – o'q misli.* (S.S.)

**Fazl ahli** Ilmu fan ahli, olimlar, bilimdonlar.

*Fazl ahlig'a berdi ancha poya,*

*Mehridin alar boshida soya.* (H.G.)

**FAZO** *a.* 1. Koinotdagi bo'shliq; osmon.

*Bor ermish ravzadek havosi aning,*

*Charxi minu kibi fazosi aning.* (S.S.)

2. Maydon, bo'sh yer, kenglik.

*Oni sartosar havodis xayli manzil aylamish,*

*Bexavotir sayr qilg'udek fazosi yo'q oning.* (Og.)

**FIDO** *a.* Biror narsa, kimsa uchun jonni bag'ishlash, o'zni qurbon qilish, qurbon.

*Shah dedi: «Shar' etsa bu yanglig' ado,*

*Shar'i nabi hukmig'a jonim fido».* (H.A.)

**FIGOR** *f.* Yaralangan, yarali, jarohatli.

*O'lsam yasamang munda mazorimni mening,*

*Yuklab eliting jismi figorimni mening* (A.N.Rub.)

**FIKR** *a.* 1. O'y, xayol.

*Fikrdin kecha ko'zni yopmas edi,*

*Chora ko'p istar erdi, topmas edi.* (S.S.)

2. Mulohaza.

*Kech kelur fikridin eduk g'amnok,  
Yetmagan anda, bizni etti halok. (S.S.)*

**Fikr etmak** Fikr qilmoq, o'ylamoq.

*Fikr etib komgoru davlatmand,*

*Dedi: «Har kimki, Jobir etmish band». (S.S.)*

**FIKRAT** a. Aql, idrok.

*Arastudin etti Skandar savol,*

*K-ey fikratingg'a falak poymol. (S.I.)*

**FIKRATANDISH** a. -f. Fikr qiluvchi, fikrlovchi, o'ylovchi.

*Necha bu ishta bo'ldum fikratandish,*

*Davo yo'q erdi, qolmish emdi bir ish. (F.Sh.)*

**FIKRATANGEZ** a. -f. Fikr qiluvchi, fikrlovchi, o'yga cho'muvchi

*Hisor atrofida solib nazar tez,*

*Bo'lub har lahza nav'i fikratangez. (F.Sh.)*

**FIKRATNAMO** a. -f. O'ylab ish qiladigan, mulohazali, andishali.

*Biri bo'ldi olamda fikratnamo,*

*Vale bir guruh etti azmi samo. (H.A.)*

**FILHOL** a. Darhol, darrov, tezda, shu onda.

*Soldi filhol ani hamul chah aro,*

*Budurur tab'u fahmi ogah aro. (S.S.)*

**FILISHORA** a. Ishora bilan.

*Ilik tig'inki tortib filishora,*

*Qamar qalqonin aylab ikki pora. (F.Sh.)*

**FILJUMLA** a. Bir nav'.

*Balki andin so'ng Mazidbek Arg'ung'a navkar bo'ldi.*

*Filjumla rioyat qilib edi. (Bn.)*

**FILMASAL** a. Masalan.

*Agar labtashna qolsaq, filmasal sahroyi olamda,*

*Malolat zohir etsa, mavj uran daryog'a bormasmiz. (F.)*

**FIRDAVS** f. Jannat, bihisht.

*Go'yiyo ham jazirada bir shahr,*

*O'zi firdavsu Salsabil anga nahr. (S.S.)*

**Firdavsi a'lo** Oliy jannat.

*Agar bersa suyurg'ab haq taolo,*

*Kerakmas sensizin firdavsi a'lo. (Mn.)*

**FIRDAVSVASH** Jannat kabi, jannatga o'xshash.

*Yana kishvare ko'rdi firdavsvash,*

*Havou suyi misli firdavs xash. (S.I.)*



- FIFTA** *f.* Maftun, berilgan, ixlos qo'ygan.  
*To'rt yuz o'ttuz to'rtida Bag'dodg'a borib, dars aytdi va Iroq  
ahli barcha anga shefta va firefta bo'ldilar. (N.M.)*
- FIRIB** *f.* Aldov, hiyla-nayrang.  
*Dona deb pobast o'lub, domi firibi qirqqa,  
Voy, yuz ming voy, bo'ldum g'aribi qirqqa. (T.F.)*
- FIROQ** *a.* Ayriliq, judolik, hijron.  
*Kim oshti ko'kka ohim ihtiroqi,  
Kuyurdi ko'nglumi dilbar firoqi. (Mn.)*
- FIROR** *a.* Qochish.  
*Tutti pinhon hamul choh ichra qaror,  
Ki chiqib andin etmish erdi firor. (S.S.)*
- FIRORIY** *a.* Qochoq, qochqin, qochqinchi.  
*Ki, shah savlatidin firoriydurur,  
Falon qal'a ichra hisoriydurur. (S.I.)*
- FIRQA** *a.* Mazhab, guruh, to'da.  
*Na mazhab, qaysi din, o'z mulkini o'zi xarob etgay,  
Erurlar mufsid ul-arzu arozil firqayi badrak. (T.F.)*
- FIRUZ** *a.* G'alaba qilgan, ustun kelgan, g'olib.  
*Jobiri rohzan bo'lub firuz,  
Tunu kun bog' ichra bazmafro'z. (S.S.)*  
2. Baxtli, baxtiyor, shod.  
*Ilohi, har kunung navro'z bo'lsun!  
Hamisha tole'ing firuz bo'lsun. (Og.)*
- FISQ** *a.* Axloqiy buzuqlik, axloqsizlik, fahsh.  
*Zulmung erur kunduzu fisqing kecha,  
Zulm ila fisqing necha bo'lg'ay, necha? (H.A.)*
- FITNA** *a.* Maftunkorlik, joziba.  
*Jahonning fitnasi usruk ko'zungda,  
Ayon Iso dami shirin so'zungda. (Mn.)*
- FITNACHASHM** *a.-f.* Ko'zlari fitna qiluvchi, yor, mahbuba.  
*Ey, musulmonlar, netay, men yordin ayrilmisham,  
Fitnachashmu sho'xi xush raftordin ayrilmisham. (Mash.)*
- FITRAT** *a.* Insonning tabiati, tug'ma tabiat: yaratilish.  
*G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,  
Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi, dardu mehnatim. (T.F.)*
- FIG'ON** *a.* Nola, afg'on, baqirish, faryod.  
**Fig'on aylamak** Faryod qilmoq.  
*Har nechakim rost fig'on ayladi.*

- Sidqini ham kizb gumon ayladi. (H.A.)*  
**Fig'on qilmoq** Faryod qilmoq, yig'lamoq.  
*Yana anduh ila fig'on qildi,*  
*Yana anduhi qasdi jon qildi. (S.S.)*
- FONIY** *a.* Yo'q bo'luvchi, yo'qoluvchi, o'tkinchi.  
*Muni bilkim, jahon foniydur asru,*  
*Haqiqat ahli zindonidur asru. (F.Sh.)*
- FOQA** *a.* Kambag'allik, qashshoqlik.  
*Qo'lungizdin chiqar ayvonu saroy,*  
*Foqayu faqr qilur sizni gadoy. (Shn.)*
- FORIG'** *a.* Biror narsadan qutulish, xalos bo'lish, bo'shsh.  
*Hajrdin forig' o'lmog'in istab,*  
*Ul balodin qutulmog'in istab. (S.S.)*
- FORIG'BOL** *a.* Ko'ngli tinch, xotirjam, betashvish.  
*Hech kim olamda forig' ul-bol emas,*  
*Har kima o'z miqdoricha bor ehtiyoj. (N.)*
- FORIG'DIL** *a.* -f. Bexavotir, beparvo, ko'ngli tinch.  
*Bir kun o'lg'onda Jobiri g'ofil,*  
*Bog'ni sayr etarga forig'dil. (S.S.)*
- FOSID** *a.* Buzuq, yomon.  
*Aylama fosid xayola sarf solu mohni,*  
*Kir shariat yo'lig'a, ayningda ko'r ollohni. (T.F.)*
- FOSIQ** *a.* Fisq-u fasod ishlar bilan shug'ullanuvchi, yomon ishlar bilan shug'ullanuvchi, buzuq.  
*Ahli islom ayon bo'ldilar,*  
*Fosiq el borcha nihon bo'ldilar. (Shn.)*
- FOTIHA** *a.* Vafot etgan kishining ruhiga xudodan yaxshi tilak tilab o'qiladigan duo.  
*O'qig'il fotiha, dur qibla yoni,*  
*Sevunsun banda Xorazmiy ravoni. (Mn.)*
- FOYIQ** *a.* Ustun, yuqori.  
*Haq andin asrasunkim, bo'yla oshiq,*  
*O'zin ko'rgay murod avjida foyiq. (F.Sh.)*
- FOZIL** *a.* Afzal, ortiq, a'lo.  
*Maning hazratimda ming obiddin bir olim fozilroq turur.*  
 (R.)
- FOSH** *a.* Oshkor, ma'lum.  
*Kimki bo'lur bir shararing fosh anga,*  
*Do'zax o'ti bo'lg'usi podosh anga. (H.A.)*



- FUNUN** *a.* (*birligi fan*) Fanlar, ilmlar, bilimlar, ilm, bilim.  
*Faryodkim, garduni dun*  
*Aylar yurak – bag'rimni xun,*  
*Ko'rdiki, bir ahli funun –*  
*Charx anga kajraftor ekan. (M.)*
- FUQARO** *a.* Oddiy xalq, odamlar.  
*Yaxshilig'ingni fuqaro bilmagay,*  
*Hali bular ko'zga bizi ilmagay. (M.)*
- FURJA** *a.* Teshik, yoriq.  
*Sekin qilib uy kiyzini pora,*  
*Ul furjadin ayladi nazora. (L.M.)*
- FURQAT** *a.* Judolik, ayriliq.  
*Bor edi oncha mehnati bir yon,*  
*Mehri gulchehr furqati bir yon. (S.S.)*
- FURUZON** *f.* Yondiruvchi, alangali.  
*Chun g'azab o'ti furuzon bo'ldi,*  
*Ul ikki son kishi yakson bo'ldi. (Shn.)*
- FURUG'** *a.* Yorug'lik, shu'la, nur.  
*Yuzungdin shomlar zulfungni yig'sang,*  
*Furug'i mohi tobon hojat emas. (A.)*
- FUSUN** *f.* Afsun, sehr, nayrang, makr.  
*Ki, odil shah qilib makru fusun ham,*  
*Bo'lur ermish bu g'oyatqa zabun ham. (F.Sh.)*
- FUSUNPARDOZ** *f.* Afsunchi, hiylagar, makkor.  
*Fusunpardozi mundaq surdi guftor,*  
*Ki oni makr, ila aylar giriftor. (F.Sh.)*  
**Fusunpardozi shuaro** Mohir shoirlar, mashhur shoirlar.  
*Nazmda fusunpardozi shuaroning shirin ash'ori va rangin*  
*abyotidin ellik mingdin ortuq yod tutupmen. (M.L.)*
- FUSUNSOZ** *f.* Hiylakor, nayrangboz, firibgar.  
*Falak zoli asru jafokor erur,*  
*Fusunsozu, makkoru g'addor erur. (Og.)*
- FUTUH** *a.* Shodlik, quvonch; foyda.  
*Kel, ey soqiy keturgil xush sabuhi,*  
*Kim ushbu dam erur jonning futuhi. (Mn.)*
- FUTUR** *a.* Zarar, ziyon, shikast.  
**Futur tushmak** Shikast yetmoq.  
*Tushti Nu'mon ishiga asru futur,*  
*Har zamon jonidin edi mahjur. (S.S.)*

- FUTUVVAT** *a.* Olijanoblik, juvonmardlik, mardlik.  
*Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q.*  
*Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo'q. (F.K.)*
- FUZALO** *a.* (*birliqi fozil*) Olimlar, donolar.  
*Nomurod o'ldilar usru shuaro,*  
*Notavon bo'ldilar usru fuzalo. (Shn.)*
- FUZUN** *a.* Ziyoda, ortiq, ustun.  
*Shaynda qoplondin agarchi fuzun,*  
*Nafs itining ilgida lekin zabun. (H.A.)*

## Gg

- GADO** *f.* 1. Qashshoq, kambag'al, tilanchi.  
*Ayt mendinkim, ul miskin urur oh,*  
*Qachon engay gadoning evina shoh. (Mn.)*  
 2. Oshiq, shaydo, xushtor.  
*Mango haddin oshurma bu jafoni,*  
*Ko'zungdin solma bu miskin gadoni. (Mn.)*
- GAHI** *f.* Gohi, gohida, ba'zan.  
*Gahi telbalar birla gulxan aro*  
*Surub durdkashlikda yuz mojaro. (Mu.)*
- GANJ** *f.* Xazina, boylik, mol-mulk.  
*Dedi: Ol ganju qo'y mehrin nihoni,*  
*Dedi: Tufroqqa bermon kimyoni. (F.Sh.)*  
**Ganji beintiho** Bitmas-tuganmas xazina.  
*Nazarg'a kelib ganji beintiho,*  
*Vale har biri uzra yuz ajdaho. (S.I.)*  
**Ganji roz** Sirlar xazinasasi.  
*Tengriki insonni qilib ganji roz,*  
*So'z bila hayvondin anga imtiyoz. (H.A.)*
- GANJAPARVARD** *f.* Ganja shahrida o'sgan, ganjalik (Ozarbayjonning Ganja shahrida tugilgan Nizomiy Ganjaviyga ishora).  
*Chu avvalg'i fasihi ganjaparvard,*  
*Raqamzad qildi bu afsonai dard. (F.Sh.)*
- GANCH** *f.* Xazina, boylik.  
*Ajunchi bo'gu beg nelug ganch urur*  
*Erat qayda bo'lsa anuq ganch alur. (Q.B.)*

- GAR** f. Agar so'zining qisqargan shakli.  
*Qilich ursang qulungmen jovidona,  
Va gar o'q otsangiz bag'rim nishona. (Mn.)*
- GARD** 1. Chang, to'zon, g'ubor.  
**Gardi kudurat** Qayg'u to'zoni.  
*Tashna lab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,  
Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta mo'ndiman. (T.F.)*  
2. ko'ch. Asar, nishona, iz.  
*Jabinida muhabbat dardi zohir,  
Uzori uzra g'urbat gardi zohir. (F.Sh.)*
- GARDAN** f. Ba'zi idishlarning yuqori, ingichka qismi, bo'g'zi.  
*Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta mo'ndiman. (T.F.)*
- GARDISH** f. Aylanish, harakat qilish.  
**Gardishi ayyom** Zamonning o'tishi, vaqt o'tishi.  
*Husn sotma shafaqing rangidin, ey zoli sipehr,  
Kim ani qo'ymag'usi gardishi ayyom qizil. (G'.S.)*  
**Gardishi davron** Zamonning o'zgarishi.  
*Ul kishikim, tuzluk erur shon anga,  
Dushman erur gardishi davron anga. (H.A.)*
- GARDISHNAMOIY** f. Aylanib uchish, aylana hosil qilib uchish.  
*Boshig'a parvoz ila gardishnamoy,  
O'ylaki sulton boshi uzra humoy. (H.A.)*
- GARDON** f. Aylanadigan, aylanuvchi.  
*Nasib g'am uza g'am bo'ldi charxi gardondin,  
Musibat uza musibat yetushti davrondin. (Mun.)*
- GARDUN** f. Dunyo, olam, jahon, falak.  
*Tarabgohing-aro xayyoti gardun  
Kanizu zoli xil'atdo'z bo'lsun. (Og.)*  
**Garduni dun** Pastkash dunyo.  
*Faryodkim, garduni dun,  
Aylar yurak-bag'rimni xun. (M.)*
- GARDUNVASH** f. Osmondek baland, yuksak.  
*Tilism aylab bu gardunvash hisorin,  
Qilib mahzun histori ichra borin. (F.Sh.)*
- GARM** f. Issiq, qaynoq.  
*Va gar ko'rsa ish butmas ozarm ila,  
Temur yumshamas po'zishi garm ila. (S.I.)*
- GARONSANG** f. Xarsang tosh, og'ir tosh, katta tosh.  
*Hilm ila ko'hi garonsangdur ul,  
Sohibi donishu farhangdur ul. (F.Sh.)*

**GARCHI** Bosh gapda ifodalangan ish-harakatning ergash gapdagi ish-harakatning bajarilishiga mone bo'la olmasligini ifodalovchi to'siqsiz bog'lovchi.

*Barqki egrilik o'lubtur xo'yi,*

*Garchi yorur, lek borur yer quyı. (H.A.)*

**GAVDA** Jussa, qad, bo'y-bast.

*Birlari mo'ltaninamo hiylagar,*

*Birlaridur kunda pixu gavda xar. (M.)*

**GAVHAR** *f.* Olmos, inju, yoqut kabi qimmatbaho toshlarning umumiy nomi.

*Anda mavlo azza va jalla qizil oltundin yaratilmish bir taxt izdi, gavhar birla murassa qilmish. (R.)*

**GAVHARFURUSH** *f.* 1. Gavhar sotuvchi.

2. *ko'ch.* Donishmand, dono.

*Bu durlarnikim sochti gavharfurush,*

*Sadaf og'zidek soyil o'ldi xamush. (S.I.)*

**GAZAND** *f.* Ziyon, zarar, ziyon-zahmat.

*Shart bukim, yetsa gazande sanga,*

*Solsa falak hiylasi bande sanga. (H.A.)*

**GAZOF** *f.* Bema'ni so'z, asossiz so'z, uydirma, yolg'on.

*Ki, chekkay tig'u urg'ay ishq lofin,*

*Musallam kim tutar mundoq gazofin. (F.Sh.)*

**GEZ** Imkoniyat, umid, qulay payt.

*Bu kech sengayu menga keldi bir gez,*

*Dedi Suhaylg'a Guldursun, turub tez. (S.Sar.)*

**GECH** *f.* Gangib qolish, dovdirash; hayron.

*Boshin tutub o'ldi bir zamon gech,*

*So'z demadi yaxshi, yo yomon hech. (L.M.)*

**GIRD** *f.* Tevarak, atrof, aylana.

*Suhaylni ko'rdiyū, aylandi birtek,*

*Gunash girdinda yurgan misli yertek. (S.Sar.)*

**GIRIBON** Yoqa, kiyim yoqasi.

*Tiyg'ing mening qonimdadur, zulfung giribonimdadur,*

*Yuz ming alam jonimdadur, man mubtalo qayg'a boray?*

(M.)

**Giribon chok etmak** Yoqa yirtmoq; qayg'u tortmoq, qayg'uga botmoq.

*Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,*

*G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar. (F.)*

**GIRIH** *f.* Tugun, chigal.

*Demasmenkim, kesib o'qi zirihni,  
Taxayyul toridin ochib girihni. (F.Sh.)*

**GIRIHGIR** *f.* Tugunli, chigallashgan.

*Zanaxdonim bila zulfı girihgir,  
Hazin ko'nglungga erkin chohu zanjir. (F.Sh.)*

**GIRYON** *f.* Yig'lovchi, yig'layotgan.

*Kishiga ishq o'tidin zarrai tushsa bo'lur giryon,  
Bo'lur besabru betoqat, yurak-bag'ri hamon o'rtar. (Mash.)*

**GISU** *f.* O'rilgan soch, soch.

*Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,  
Masaldurkim: «Charog' tubi qorong'u». (L.)*

**Gisuyi mushkbo'** Xushbo'y soch, yoqimli hid taratadigan soch.

*Gisuyi mushkbo' jahonni tutub,  
Mushkining atri osmonni tutub. (S.S.)*

**GOH** *f.* 1. Voqea-hodisalarning navbatma-navbat, galma-gal ro'y berishini ifodalaydi.

*Bir-biriga qishloq eli boqishib,  
Goh u yon, goh bu yon chopishib. (M.)*

2. Ba'zida, ba'zan, gohida.

*Bibi Ubayda bo'ladur xolamiz,  
Goh kelur erdi kichik bolamiz. (M.)*

**GOM** *f.* Qadam, odim.

**Gom urmoq** Qadam tashlamoq, odim otmoq, yurmoq.

*Tuzluk ila chunki shihob urdi gom,  
O'rtadi o'z boshdin-ayog'in tamom*

**Gom-bagom** Qadam-baqadam.

*Qo'ptiyu dayr ichiga qildi xirom,  
Ikki hamrohi birla gom-bagom. (S.S.)*

**GOV** *f.* Ho'kiz.

*Ammo «Raboti» bachchag'ar,*

*Yo'q hech odamdin asar,*

*Bir podajoyi govu xar,*

*Chun og'uli tayyor ekan. (M.)*

**GUDOZ** *f.* Erish, kuyish.

*Sening ollingdadur ishqı majoziy,  
Ki, jisming o'rtabon so'zu gudozi. (F.Sh.)*

**GUFTOR** *f.* Soʻzlashish, suhbat; soʻz, nutq.

*Labing sirrin kelib guftora mandan oʻzgan soʻrma,  
Bu pinhon nuktani bir voqifi asror oʻlandan soʻr.* (Fuz.)

**GUFTUGOʻ** *f.* 1. Gap, gap-soʻz.

*Muqimiy, ogʻridi boshlar xaloyiq guftugoʻyidin,  
Shahar tinchib qolurdi boʻlsa-chi emdi ado saylov.* (M.)

2. Dovrugʻ, ovoza, shuhrat, dong.

*Yetib toʻqquz falak toqigʻa hoʻyung,*

*Yeti kishvarni tutqay guftugoʻyung.* (F.Sh.)

**GUHAR** *f.* Gavhar, javhar.

*Soʻz guharigʻa erur oncha sharaf,*

*Kim boʻla olmas anga gavhar sadaf.* (H.A.)

**GUHARREZLIK** *f.* Shirinsoʻzlik, shirinsuxanlik.

*Guharrezlik qilay desang, hamani kulduray desang,*

*Chu Mashrabdek boʻlay desang, qalandar boʻl, qalandar  
boʻl.* (Mash.)

**GUL** *f.* 1. Atirgul; chechak.

*Deyub anga Suhayl: «Ne gul terursen?»*

*Oʻzung gulshanda koʻrkli gul erursen.* (S.Sar.)

2. Mahbuba, maʻshuqa, sevgili.

*Salomim gulga elt, ey tong nasimi,*

*Kim erur oy quli, axtar nadimi.* (Mn.)

**GULAFSHONLIQ** Gul sochuvchilik

*Chaman farroshi yaʻne tong nasimi,*

*Gulafshonliq qilur boʻston ichinda.* (Mn.)

**GULFISHON** *f.* Gul sochuvchi.

*Qaysi nasim ulki erur gulfishon,*

*Bargi gulu nastaran andin nishon.* (H.A.)

**GULFOM** *f.* Gulrang, atirgul rangli, qizil, qip-qizil.

*Dahr bir mayxonadurkim, kulfat oning jomidur,*

*Koʻz yoshi birla koʻngul qoni mayi gulfomidur.* (Og.)

**GULGASHT** *f.* Gul sayri, gul sayli.

**Gulgash etmak** Gul sayri qilmoq, gul sayriga chiqmoq.

*Bahor ayyomida gulgash etarga bir chaman boʻlsa,*

*Qilurgʻa sharhi hol, ahli muhabbat ikki tan boʻlsa.* (F.)

**GULGUN** *f.* 1. Gulrang, qizil, qip-qizil.

*Oʻtgʻa solgʻil sarvni ul qaddi mavzun boʻlmasa,*

*Yelga bergil gulni, ul ruxsori gulgun boʻlmasa.* (B.V.)

2. Shirin minadigan otning nomi.





*O'zi gulrangu gulmonand zoti,  
Bo'lub Gulgun xaloyiq ichra oti. (F.Sh.)*

**GULGUNPO'SH** *f.* Qizil rangli kiyim kiygan.

*Ul na gunbazdur eshigi, tuynugidin yo'q nishon,  
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon. (U.)*

**GULISTON** *f.* Gullar bilan qoplangan yer, gulzor, chaman.

*Bo'lub mutrib gulistonlarda bulbul,  
Qilur ming turli nag'ma birla g'ulg'ul. (S.Sar.)*

**GULRUX** *f.* Gul yuzli, go'zal, chiroyli.

*Necha kun qasr aro nihon erdi,  
Sarir gulruxqa mehmon erdi. (S.S.)*

**Gulruxi samoviy** Osmon go'zali.

*Mehrkim, gulruxi samoviydur,  
Nilufarvash libosi moviydur. (S.S.)*

**GULTEKIN** Gul kabi, gul singari, guldek.

*Gunash dunyo yuzundin chohqa botti,  
Uzulgan gultekin tuproqda yotti. (S.Sar.)*

**GULUZOR** *f.* Gul yuzli, go'zal yuzli, go'zal.

*Agar qoshimda o'shal guluzor bo'lsa edi,  
G'ame yo'q erdi, g'amim gar hazor bo'lsa edi. (S.)*

**GULXAD** *f.* Gul yuzli zebo, go'zal.

*Qoshig'a qo'ydi bir-ikki gulxad,  
Sarvi gulruxqa hamdamu hamqad. (S.S.)*

**GULZOR** *f.* Gullar bilan qoplangan yer, chaman, gulbog'.

*Uning ko'nglinda so'lg'unluq hamisha,  
Ko'runmas unga gulzoru na besha. (S.Sar.)*

**GULG'UNCHA** *f.* Ochilmagan gul, gul g'unchasi.

*Ochilsa la'lingiz shakkar sochilur,  
Ko'rub gulg'unchaning og'zi ochilur. (Mn.)*

**GULSHAN** *f.* Gulzor, chaman, gulbog'.

*Daftari nazmida chu sherozadur,  
Gul varaqi gulshan aro tozadur. (H.A.)*

**GULCHEHRA** *f.* Gul yuzli, gulday chiroyli, go'zal.

*Ayo gulchehralar molik rikobi,  
Qamuq olam sening g'amzang xarobi. (Mn.)*

**GULCHIRAMAK** Yashnamoq, go'zallashmoq, ko'rkamlashmoq.

*O'rlasa bulutlari gulchirar bog'u bo'ston,  
Tol yig'ochlar yeng solishur o'ynayurtek qo'y-qo'zi. (R.)*

**GUMNOM** *f.* Nomi o'chgan, nomi yo'q, nomsiz.

*Man kimam, gumnomu nokomu jahon ovorai. (T.F.)*

- GUMON** *f.* Xayol, o'y, tasavvur.  
*Oshuftalig'i gumondin ortuq,*  
*Ne kelsa gumonga ondin ortuq. (T.F.)*  
**Gumon qilmoq** O'ylamoq, tasavvur qilmoq.  
*Bu nav' o'lsa mundog' iki zot aro,*  
*Ne bo'lg'ay gumon qil iki yot aro. (S.I.)*
- GUMRAH** *f.* Yo'lidan adashgan, yo'lini yo'qotgan.  
*Dedi: qaydinsen, ey majnuni gumrah?*  
*Dedi: majnun vatandin qayda ogah. (L.M.)*
- GUMROH** *f.* Yo'lidan adashgan, yo'ldan ozgan.  
*To'rt yoshimda haq Mustafo berdi xurmo,*  
*Yo'l ko'rsatdim, yo'lga kirdi, necha gumroh. (Y.)*
- GUNASH** 1. Quyosh, kun.  
*Alar ko'p yurdiyu sahrog'a kirdi,*  
*Gunashdin sahro ichra do'zax erdi. (S.Sar.)*  
 2. Go'zal, chiroyli.  
*Shukrlar etayin allog'a ming bor,*  
*Ki yetkurdi manga sentek gunash yor. (S.Sar.)*
- GUNBAZ** *f.* Qubba shaklidagi narsa, gumbaz.  
*Sindurub gunbazni, qizlar holidin olsam xabar,*  
*Yuzlariga parda tortig'liq turarlar bag'ri qon. (U.)*
- GUREZON** *f.* Qochgan, qochuvchi.  
*Laylidin o'lub tarab gurezon,*  
*Tong sha'midek o'ldi ashkrezon. (L.M.)*
- GURJI** Gruzin.  
*Tushub Charkasu Gurja sori yo'li,*  
*Bo'lub borcha gurjiyu charkas quli. (S.I.)*
- GUVALAK** Loydan yasab, oftobda quritilgan cho'zinchoq, qo'lbola g'isht.  
*Gar tahorat qi(l)sa qavmi suv topolmay nochor,*  
*Betini qum bila yub (ko'zi)ga surgay guvalak. (Max.)*
- GUVORO** *f.* Tez hazm bo'ladigan, singishli, yoqimli.  
*Nekim bo'lsa mizojingg'a guvoro,*  
*Anga ko'p mayl qilma oshkoro. (F.Sh.)*
- GUZAR** *f.* 1. O'tish, kechish.  
*Qone' ul ishka chu nazar ayladi,*  
*Qilmadi parvou guzar ayladi. (H.A.)*  
 2. Bahridan o'tish, voz kechish, kechish.



*Gah javr ila o'ltur meni, gah noz ila sendin,  
Haqqoki, mening yo'q guzarim, netti ne bo'ldi. (A.)*

**GO'R** *f.* Yovvoyi eshak, qulon.

*Chopibon ko'hu dasht sari samand,  
Go'r bo'ynug'a solur erdi kamand. (S.S.)*

**GO'YI** *Go'yo.*

*Xirqasi axzari aso axzar,  
Go'yi ul erdi Xizr payg'ambar. (S.S.)*

**GO'YIYO** *f.* Xuddi, go'yo.

*Ul daraxt erdi go'yiyo sandal,  
Bargi ko'zgulari topib sayqal. (S.S.)*

**GO'YO** *f.* Xuddi, go'yoki.

*Kecha go'yoki eshitib shuhrati tillo pulini,  
Hapalak qo'rqusidin uchti misoli kapalak. (Max.)*

**GO'SH** *f.* Eshitish organi, quloq.

*Bu so'zni go'shi bor odam eshitsun,  
O'zida hushi bor odam eshitsun. (F.)*

**Go'sh osmoq** Quloq solmoq.

*Va oni tashladilar katta chohqa,  
Sira osmay alar go'sh ohu vohqa. (S.Sar.)*

**GO'SHMOL** *f.* Tanbeh berish, tanbeh, jazolash.

*Nay tuz uchun istar ani ahli hol,  
Chun tuz emas, egri ko'rar go'shmol. (H.A.)*

**GO'SHVOR** *f.* Sirg'a, isirg'a.

*Go'shvoringni ko'tar, qiz,  
Qulog'ing sinib ketmasin. (X.Q.)*

## Hh

**HABASH** Habashistonning tub aholisidan bo'lgan kishi.

*Agar Rum ahlina zulfung habashning askarin solsa,  
Ko'ngul ilginda ul soat topilmas hech omon, ey jon. (S.)*

**HABASHIY** *a.* Habashistonda yashovchi qora tanli xalq yoki uning vakili, habashistonlik, habash.

*Andag'uq urug'lari hindular, habashiylar, zangilar qamug'i  
aning urug'i tururlar. (R.)*

**HABIB** *a.* Do'st, sevikli.

*Ulki habibim dedi xoliq ani,  
Derlar ulus muxbiri sodiq ani. (H.A.)  
Habibim naqshidin ma'ni bulayin,  
Tahayyurda o'zumdin qurtulayin. (Mn.)*

**HAD** *a.* Chek, chegara, me'yor.

*Manga haddin oshurma bu jafoni,  
Ko'zungdin solma bu miskin gadoni. (Mn.)  
2. Biror xatti-harakat qilish huquqi, haq-huquq.  
Kulonkir sulton ot qo'ymoq sening haddingmu? (Zm.)  
Nozukluk ichra belicha yo'q tori gisuyi,  
O'z haddini bilib, belidin o'lturur quyi. (L.)*

**HADAF** *a.* O'q otish uchun mo'ljalga olingan narsa, nishon.

*Tiyri g'amzang muddaiy ko'ngliga zoye' qilmakim,  
Ul hadafdur, xora, paykoning kerakmasmu sanga? (Mu.)  
**Hadafi novaki balo qilmoq** Balo o'qiga nishon qilmoq.  
*Vujudung hadafi novaki balo qilg'il,  
Qamuq jafolara sabr aylayub, duo qilg'il. (Fuz.)**

**HADDOD** *a.* Temirchi.

*Buyurdikim, kelib ustodi haddod,  
Yasag'ay teshau metini po'lod. (F.Sh.)*

**HADIS** *a.* Muhammad payg'ambar aytgan so'z va gaplar hamda u haqdagi rivoyatlar.

*Hadis ilmini Xurosonda oncha bilur kishi yo'q edi. (Bn.)*

**HADOIQ** *a.* Bog'lar, gulzorlar.

*Gar anda sayr bo'lsa ixtiyoring,  
Hadoiq jonibi tushsa guzoring. (F.Sh.)*

**HAFT** *f.* Yetti.

*Jannatu kavsar manam, ham do'zaxu saqar manam,  
Bir o'zumdurman bu dam, haft osmong'a sig'madim.  
(Mash.)*

**HAJR** *a.* Sevimli kishidan judo bo'lganlik, judolik, ayriliq, firoq.

*Nilufargun libos birla sanam,  
Tutubon yor hajrida motam. (S.S.)*

**HAKIM** *a.* Tabib, vrach, doktor.

**Hakimi hoziq** Mohir tabib, zo'r tabib.  
*Farmon berildikim, Dehlig'a kelturub, Deholidin kemaga  
solib keltursunlarkim, hakimi hoziqlar ko'rub dardig'a davo  
qilsunlar. (Bn.)*



**Hakimi bedard** Nodon tabib, noshud tabib.

*Fahm aylamayin hakimi bedard,*

*Kim o'rtar ne sozu ne dard. (L.M.)*

**Hakimi xirad** Donishmand, zo'r alloma.

*Va ul chopmoq bila hakimi xirad fahmi bovar etmas nimalar topti. (S.S.)*

**HALI** Hozirgi vaqtda, shu onda, hozircha.

*Derki, ko'zungga hali kal jo'jaman,*

*Maxdumi a'zamlig o'zum xo'jaman. (M.)*

**HALOK** a. Fojiali o'lim, fojiali ravishda o'lish, nobud bo'lish.

*Chun yetib qildi el halokiga mayl,*

*Razmu kin ichra chobuk erdi Suhayl. (S.S.)*

**HALQA** a. Tugun, chigal.

**Halqa halqa** Tugun-tugun, chigal.

*Ko'rdi o'zni g'arib band ichra,*

*Halqa-halqa xami kamand ichra. (S.S.)*

**Halqai ushshoq** Oshiqlar davrasi.

*Halqai ushshoqda bazmu majolis qurdiman,*

*Mushti xokam davr-u davronlar (ni lekin) ko'rdiman. (T.F.)*

**Halqa urmoq** Doirasimon shaklda o'tirmoq, biror narsani atrofida o'tirmoq.

*Va agar ajdahodek ganj ustida halqa urarkim o'lturguluk. (M.A.)*

**HAM** f. 1. Gap bo'laklarini bir-biriga sanash ohanggi bilan bog'laydi.

*Sayd jangal ichini qildi talosh,*

*Yo'li ham'tor edi-yu ham chirmosh. (S.S.)*

2. To'siqsiz bog'lovchi vazifasida keladi.

*Olako'zanak ola bo'lsa ham arslon bo'lolmas, olato'g'anoq olg'ur bo'lsa ham, ahvoli ma'lum. (Zm.)*

3. Ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash uchun xizmat qiluvchi yuklama vazifasini bajaradi.

*Ko'rub uyquda ham qo'rquvli tushdin,*

*Qolurdi ayrilib har damda hushdin. (S.Sar.)*

**HAMA** f. Barcha, bari, hamma.

*Suhayl alpni eltilar asirga,*

*Hama qoldi bo'lub ojiz bu sirga. (S.Sar.)*

**HAM'AHD** f. -a. Teng, tengdosh.

*Ki aylab to'rt yuz dono bila jahd,*

*Alardin har biri Aflotung'a ham'ahd. (F.Sh.)*

- HAMAL** *a.* Shamsiya yil hisobida yilning birinchi oyi bo'lib 22-martdan 21-aprelgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.  
*Kun hamalg'a kirdi ersa, keldi olam navro'zi,  
Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.* (R.)
- HAMBAR** *f.* Baravar, teng.  
*Ne Faridundin asar chun qoldi, ne Jamshiddin,  
Hashmating Jamshidu Afridung'a hambar bo'ldi, tut.* (N.Sh.)
- HAMD** *a.* Maqtov, madh, ollohni ulug'lash.  
*Birov hamdidindur hidoyat anga,  
Ki yo'q ibtidoyu nihoyat anga.* (S.I.)
- HAMDAM** *f.* Birga bo'luvchi, hamsuhbat, ulfat.  
*Qolmadi juz dardu g'am hamdam, musohib qoshima,  
Haq o'zi rahm aylagay ohi sahar, ko'z yoshima.* (T.F.)
- HAMDARS** *f. -a.* Maktabdosh.  
*Hamdarslari bu holatidin,  
Ojiz edilar xijolatidin.* (L.M.)
- HAMDAST** *f.* Ko'makdosh, qo'ldosh, yordamchi.  
**Hamdast etmak** Yordam qilmoq.  
*Lutf.qo'lin holinga hamdast etay,  
Xasmni bir panja bila past etay.* (H.A.)
- HAMDOSTON** *f.* Sherik, ishtirokchi.  
*Kirib arkoni davlat ham arog'a,  
Bo'lub hamdoston ul mojarog'a.* (F.Sh.)
- HAMDO'SH** *f.* Yelkadosh, yaqin.  
*Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dargo'sh edim,  
Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdo'sh edim.* (T.F.)
- HAMIM** *a.* Issiq, jazirama.  
*Chekti Muqbil base azobi alim,  
To anga qat' bo'ldi dashti hamim.* (S.S.)
- HAMIN** *f.* Shu, ushbu.  
*Yo'qki hamin xilvati ahlig'a bas,  
Shayxqa ham ushbu xizr hamnafas.* (H.A.)
- HAMISHA** *f.* Har doim, doimo, hamma vaqt.  
*Ulusqa rahm etib g'amxor bo'lg'il,  
Hamisha shodu barxurdor bo'lg'il.* (Mn.)
- HAMNISHAST** *f.* Hamsuhbat, suhbatdosh, ulfat.  
*Eshit sarguzashteki, bukun manga  
Necha mayparast o'ldilar hamnishast.* (G'.S.)

- HAMNISHIN** *f.* Hamsuhbat, suhbatdosh, ulfat.  
*Quyosh yanglig' bo'lub kunduz qarining,  
 Bo'lub tun soya yanglig' hamnishining. (F.Sh.)*
- HAMOMA** *a.* Kaptar, kabutar.  
*Yuqoridin indi ikki burgut,  
 Qildilar ikki hamomani qut. (L.M.)*
- HAMOVARD** *f.* Urush yoki kurashda bir-biri bilan kurashuvchi, olishuvchi, raqib.  
*Ki sendek kishikim jahon fardisen,  
 Salotinda Doro hamovardisen. (S.I.)*
- HAMOG'USH** *f.* Quchoqlashgan, bir-birini og'ushiga olgan.  
*Qo'yubon ro'y-barro', do'sh-bardo'sh,  
 Bo'lub o'z bedili birla hamog'ush. (F.Sh.)*
- HAMPAR** *f.* Birga uchuvchi.  
*Har qushqina jufti birla purjo'sh,  
 Hampar bo'lur uchsa, qo'nsa hamdo'sh. (L.M.)*
- HAMQAD** *f. -a.* Bo'ydosh, tengdosh.  
*Qoshig'a qo'ydi bir-ikki gulxad,  
 Sarvi gulruxqa hamdamu hamqad. (S.S.)*
- HAMROH** *f.* Birga yuruvchi, birga bo'luvchi, yo'ldosh.  
*Yoshurun tiyra uyga ul dilxoh,  
 Kirdi ikki kaniz anga hamroh. (S.S.)*
- HAMROZ** *f.* Sirdosh, eng yaqin kishi, do'st, oshno.  
*Dedi shahzodani, kelgil yaqinroq,  
 O'ziga qildi hamrozu qarinqoq. (F.Sh.)*
- HAMSAFAR** *f. -a.* Biror kimsa bilan safarga birga chiqqan kishi, safardosh.  
*Termulub qoldim bu yo'lda hamsafardin ayrilib,  
 Yo'l adoshub g'amdadurman rohbardin ayrilib. (Mash.)*
- HAMSANG** *f.* Teng, baravar.  
*Manga bas ermas erdi bu qadar nang,  
 Ki qilg'aymen alarg'a o'zni hamsang. (F.Sh.)*
- HAMUL** *f.* O'sha, o'shal, o'shul.  
*Kim hamul nomakim bitilmish edi,  
 Mehr holin bayon qililmish edi. (S.S.)*
- HAMVORLIQ** Silliqlik, ravonlik.  
*Yana Muhammad Solih edi, choshniliq g'azallari bor,  
 agarchi hamvorlig'i choshnisicha yo'qtur. (Bn.)*

**HAMXOBA** *f.* Birga yotuvchi.

*Ko'nguldin shu'laliq ohe chiqordi,*

*Ko'zi hamxobadek uyqug'a bordi. (F.Sh.)*

**HAMYON** *f.* Pul yoki boshqa qimmatbaho narsalarni solib cho'ntakda olib yuriladigan to'rvacha, karmon.

*Yog'lig' ila bog'ladi bo'ynini rust,*

*Yuz hamyonning dog'i bo'ynini sust. (H.A.)*

**HANG** Ko'p hangraydigan, hangi.

*Eshak demang, undin yomon,*

*Hangrarda yaxshi hang ekan. (M.)*

**HANGOM** *f.* Payt, chog', vaqt.

*Jahon ganjig'a shoh erur ajdaho*

*Ki, o'tlar sochar qahr hangomida. (N.Sh.)*

**HANGOMA** *f.* Hodisa, voqea.

*Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,*

*Arz etayin emdi yozib nomalar. (M.)*

*Shoh Nu'mon o'qug'och ul noma,*

*Bildikim, bo'lmish o'zga hangoma. (S.S.)*

**HANJOR** *f.* Tartib, qoida, yo'sin.

*Debon qo'pti jahondin siltabon qo'l,*

*Adam dashtig'a hanjor aylabon yo'l. (F.Sh.)*

**HAQ** *a.* 1. To'g'ri, chin, rost, haqiqat.

*Egriyu tuz vasfi muhaqqaq durur,*

*Botil erur egriyu tuz haq durur. (H.A.)*

2. Xudo, alloh, tangri.

*Jahonni aygu oting tutti mutlaq,*

*Yamon ko'zdin yiroq tutsun seni haq. (Mn.)*

**Haq taolo** Buyuk alloh.

*Ki, nechukkim kerak qilib ko'shish,*

*Haq taolodin istabon baxshish. (S.S.)*

**HAQIQAT** *a.* Chin, to'g'ri; to'g'rilik.

*Muni kim ishq birla bir o'qug'ay,*

*Haqiqat olamini munda bilgay. (Mn.)*

**HAQIQATBIN** *a.* -f. Har bir narsada xudoning mo'jizasini, qudratini ko'ruvchi.

*Haqiqatbing'adur har juzv — kul, har zarra bir xurshed,*

*Guharni bilma xoli qatradin, har chohni Yusufsiz. (T.F.)*

**HAQIR** *a.* Bechora, xor, bee'tibor.

*Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen,*

*Sen shu'lasenu ul shu'lag'a men kuldurmen. (B.)*





- HAQOYIQ** *a.* (*birligi haqiqat*) Haqiqatlar.  
*So'zlarida ne haqoyiq va maorif no'shidin halovat va nazmlarida ne shavq va ishq o'tidin harorat.* (M.Q.)
- HAQQO** *a.* Haqiqatda, haqiqatan.  
*Gah javr bilan o'tur meni, gah noz ila sendin, Haqqoki, mening yo'q guzarim, netti, ne bo'ldi?* (A.)
- HAQQUNNOS** *a.* Birovning haqi, boshqaga tegishli narsa.  
*Garchi sinuq igna haqqunnosdur, Bag'ring aro xanjari olmosdur.* (H.A.)
- HARAM I** *a.* Muqaddas joy hisoblangan, kirish man' etilgan yer, xos joy.  
*O'n yig'ochliq yer «haram» atandi.* (R.)
- HARAM II** *a.* Do'st, yor, yaqin.  
*Kishi bu ishka chora qilmasmu, Menga ahli haram topilmasmu?* (S.S.)
- HARB** *a.* Urush, jang, savash.  
*Taxshandozlarimiz ko'pdur, Harb uchun so'zlarimiz ko'pdur.* (Shn.)
- HARDAM** *f.* Doim, hamisha, hamma vaqt.  
*Meni devona aylab ishva birla, Nedur hardam parilardek yashunmoq.* (A.)
- HARGIZ** *f.* Hech, aslo, sira.  
*Mening dardimg'a darmon vasl erur bas, Vale hargiz ulashmas gavhara xas.* (Mn.)
- HARIF** *a.* 1. Bas keluvchi, raqib, dushman.  
*Karvoni agar o'nu gar yuz, Borchasig'a harif edi yolg'uz.* (S.S.)  
 2. O'rtoq, ulfat, sherik.  
*Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dargo'sh edim, Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdo'sh edim.* (T.F.)
- HARIM** *a.* 1. Panoh bo'ladigan joy, yordam so'raladigan joy, dargoh.  
*Qozi o'lub adl harimig'a xos, Qildi ravon hukm: diyat yo qisos.* (H.A.)  
 2. Haram, xos joy.  
*Ko'nglum qushi toyiri hariming, Sayd etma kabutari haramni.* (Amir.)
- HARIR** *a.* Yupqa va nozik gazlama.  
*Hariru hulla ichra bog'labon chust, Murassa' mahd ichinda tongdilar rust.* (F.Sh.)

**HAROM** a. 1. Shariatda foydalanish man' etilgan.

*Axzi moli harom komi o'lub,*

*Bo'yla kom istabon haromi o'lub. (S.S.)*

2. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lmagan, joiz emas, nojoiz.

*Chora bu ishka intiqom durur,*

*Yo'qsa bo'lmoq tirik harom durur. (S.S.)*

**HAROMI** a. Qaroqchi, yo'lto'sar.

*Ul haromig'a tig'i kin sursak,*

*Keragidek jazog'a tegursak. (S.S.)*

**HAROS** a. Qo'rquv, qo'rqish.

*Oshiq o'lg'och ko'rdum o'lumni o'zumga, ey rafiq,*

*O'zga ko'nglumning bu olamda harosi qoldimu?! (B.)*

**HARROF** a. So'zamol, hazilkash.

*Hazzol va harrof edi. Sulton Mahmud mirzo behayo, deb  
xitob qilur ekandur. (Bn.)*

**HARZA** f. Safsata, behuda.

*Yaxshi vaqtlar yod etib (undin ketib, mundin qolib),*

*Harza tifli ashkdek ayni nazarlardin solib. (T.F.)*

**HASAB** a. Shuhrat, dong, obro'y.

*Ki, Afridun sori borur nasabda,*

*Erur Jamshiddin ortuq hasabda. (F.Sh.)*

**HASNO** a. Zebo, go'zal (ayol).

*Jamoling naqshina Sayfi Saroyi bog'ladi surat,*

*Na surat surati hasno, na hasno, husni jonparvar. (S.Sar.)*

**HAVL** a. Qo'rqish.

*Bu holatidin gahi qilib havl,*

*O'z holig'a aylar erdi lohavl. (L.M.)*

**Havli hashr** Qiyomatdan qo'rqish.

*Koming'a quy karam mayi, yo rab chu havli hashr,*

*Biltak tilimni aylasa og'zim quroqturub. (K.)*

**HAVO** a. Biror joyning ob-havosi, iqlim.

*Bor emish ravzadek havosi aning,*

*Charxi minu kibi fazosi aning. (S.S.)*

**HAVODIS** a. (birligi **hodisa**) Hodisalar, voqealar.

*Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima,*

*Xonumon ovora selobi havodis surdiman. (T.F.)*

**HAVODOR** a. -f. Tarafdor.

*Zohirda muni sanad qildikim, Xalifa va Ibrohim Xoja qozin-  
ning havodorlaridur. (Bn.)*

- HAYZ** *a.* Suv saqlanadigan inshoot.  
*Ariqqa qo'ydilar «Nahr ul-hayot» ism,*  
*Falakvash havzg'a «Bahr un-najot» ism. (F.Sh.)*
- HAY I** *a.* Joni bor, tirik, jonli.  
*Javob aydi: Arab tilincha tirikka «hay» atayurlar. (R.)*
- HAY II** Kimsani chaqirish, ogohlantirish uchun ishlatiladigan undov so'z; ey.  
**Hay deguncha** Tezda, darrov, darhol.  
*Kema ahlig'a hay deguncha yetib,*  
*Borchag'a har ne ko'ngli istar etib. (S.S.)*
- HAY III** *a.* Arab qabilalaridan birining nomi.  
*Bu ishq gar o'lsa zisht yo xo'b*  
*Aylarlar ulus bu hayg'a mansub. (L.M.)*
- HAY'AT** *a.* 1. Shakl, surat, ko'rinish.  
*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,*  
*Qatlim uchun nas kelturur «nun» eltibon «sod» ustina (Og.)*  
 2. Astronomiya.  
*Surub hay'at sori chun fikrati raxsh,*  
*Sipehr ajzosin aylab jav-bajav paxsh. (F.Sh.)*
- HAYBATLIQ** Juda katta, ulkan, ulug', azamat.  
*Tog' aydi: «Men qutlug'men», tengiz aydi: «Men haybatliqmen». (R.)*
- HAY-HAY** *f.* Ogohlantirish uchun qo'llanadi; ogoh bo'! Ehtiyot bo'!  
*Qilich yashnatsang urushta, aning qay shu'lasin dushman,*  
*Ko'rub aytur qamug' «Hay-hay, qoching, barqi yomon keldi. (S.)*
- HAYKAL** *a.* Gavda, jism.  
*Biyikrak haykali ahli zamondin,*  
*Fuzunroq shavkati pili damondin. (F.Sh.)*
- HAYOT** *a.* 1. Turmush, yashash.  
*Manga sensiz o'lumdur bu hayotim,*  
*Sening mehring bila yo'g'ruldi zotim. (Mn.)*  
 2. Kishining tug'ilganidan o'lgunga qadar bo'lgan yashash muddati, umr.  
*O'kush yillar yaratqon boqiy tutsun,*  
*Hayotingni, begim, davron ichinda. (Mn.)*  
 3. Tiriklik, jon.

*Yana Jobir yetib alar sori bot,  
Topmay ul xaylning ko'pida hayot. (S.S.)*

**HAYRAT** a. 1. Ajablanish, hayronlik, taajjub.

*Qildi faryodu bordi andin hush,  
Mehrni hayrat ayladi madhush. (S.S.)*

2. Tasavvuf maqomlaridan biri.

*Maqomi hayrat ichra gohi xudman, gohi bexudman,  
Junun bozorida mastmanki, istig'nog'a sig'mamdur. (Mash.)*

**HAYRONA** a. Maftun, shaydo.

*Ikki dunyoni ko'zumga ilmadim,  
Menki ul diydorning hayronasi. (Mash.)*

**HAYULO** a. Har bir narsaning asli, mohiyati.

*Barcha javorih bila a'zoda teng,  
Surati nav'iyu hayuloda teng. (H.A.)*

**HAYVON** a. 1. Insondan boshqa har bir jonli.

*Tengriki insonni qilib ganji roz,  
So'z bila hayvondin anga imtiyoz. (H.A.)*

2. Tiriklik, hayot.

*Shakarmu erningiz yo qand, yo jon,  
Uyolur la'lingizdin obi hayvon. (Mn.)*

**HAZ(Z)** a. Huzur, halovat, rohat, farog'at.

*Hazzi nafsu mashaqqati badaniy,  
Sizdin o'ttiyu o'tti bizdin ham. (B.)*

**HAZAN** a. G'am, qayg'u.

*Solib borma meni, ey Yusufi husn,  
Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda. (A.)*

**HAZAR** a. Biror yomon narsadan ehtiyot bo'lish, saqlanish, o'zini tortish.

*Tag'i bular yaxshiyu bizlar yomon,  
El tamizidin hazar et, alamon. (M.)*

**HAZIMAT** a. Qochish, chekinish.

**Hazimat aylamak** Qochmoq, chekinmoq.

*Kim, vatan sori azimat aylab,  
Ne azimatki, hazimat aylab. (Shn.)*

**HAZIN** a. Mungli, qayg'uli, ma'yus.

*Muni bilgach Suhayl zoru hazin,  
Shammai topti xotiri taskin. (S.S.)*

**HAZIRA** a. ko'ch. Qabr; qabriston.

*Hirotd shahrining shimol haddida tog' etagi azizlar  
hazirasida qo'yildi. (N.M.)*



*Ham sochari muhmalu ham termagi,  
Ham oluri harzavu ham bermagi. (H.A.)*

**HAZIZ** Eng past, eng quyi.

*Beribon kemasiga muhlik mavj,  
Bir zamoni hazizu gohi avj. (S.S.)*

**HAZOR** f. Ming.

*Agar qoshimda o'shal guluzor bo'lsa edi,  
G'ame yo'q erdi, g'amim gar hazor bo'lsa edi. (S.)*

**HAZORON** f. Minglarcha, minglab.

*Mug'anniylarg'a bulbullar bikin zor,  
Hazonon nav' alhon vaqti bo'ldi. (A.)*

**HAZRAT** a. 1. Ulug', mo'tabar; hurmatli.

*Bizga bobo hazrati Shoxlig' mazor,  
Muxlisimiz mardumi ahli diyor. (M.)*

2. Parvardigor, yaratgan, xudo.

*Zihi farxunda toli' baxtiyori,  
Kim ul hazratta bir kun topsa bori. (Mn.)*

*Hazratdin xitob keldi: «Ey Azroil, g'oyat qattiq ko'ngulluk  
ermishsen. (R.)*

**Hazratimda** Huzurimda, oldimda.

*Maning hazratimda ming obiddin bir olim fozilroq turur. (R.)*

**HAZYON** a. Bema'ni so'z, bekorchi gap; yolg'on.

*Bu Jur'atki, avval edi Gulxaniy,  
Erur barcha hazyon demaklik fani. (Faz.)*

**HAZZOL** a. Ko'p hazil qiluvchi, hazilkash.

*Hazzol va harrof edi. Sul-ton Mahmud mirzo behayo, deb  
xitob qilur ekandur. (Bn.)*

**HASHMAT** a. Shon-u shavkat, sharaf, obro'-e'tibor.

*Otovu mulku johu hashmatini,  
Pardasig'a Suhayl nisbatini. (S.S.)*

**HASHMATLI** Shavkatli, kuchli, zo'r.

*Necha hashmatli sul-ton bo'lsa bo'lsun,  
Aytimon mol uchun madhu sano men. (Mn.)*

**HASHR** a. Qiyomat, mahshar.

*Koming'a quy karam mayi, yo rab, chu havli hashr,  
Biltak tilimni aylasa og'zim quroqturub. (K.)*

**HECH** f. 1. Mutlaqo, aslo; umuman.

*Hech bilmasmusanki, «Teng tengi birla, tezak qopi birla.»  
(Zm.). 2. Yo'qlik; yo'q.*

*Chun sening ollingg'a tushti bo'yla pech,  
Bilki ermish birdin o'zga barcha hech. (L.T.)*

**HIBS** *a.* Qamash. **Hibs buyurmoq** Qamamoq, qamashga buyurmoq.

*Kayxusrav Tusqa g'azab qilib hibs buyurub, ul yana iste'fo qilib... yana sipoh yibordi. (T.M.A.)*

**HIDOYAT** *a.* To'g'ri yo'l ko'rsatish, to'g'ri yo'lga boshlash. *Koni hidoyat biza siz edingiz,*

*Tarbiya dunyosini payg'ambari. (H.)*

**HIFZ** *a.* Esda saqlash, esda tutish.

**Hifz etmak** Yodlamoq, yod olmoq.

*Iroqu Fors gar yetsa sening bu she'ring, ey Bobur,  
Ani hifz etgusi Hofiz, musallam tutqusi Salmon. (B.)*

**HIJOB** *a.* Parda.

*Ko'runsa suratu asli niqob o'lsa ajab ermas,  
Ochilsa pardalar yuzdin hijob o'lsa ajab ermas. (Z.)*

**HIJRON** *a.* Ayriliq, firoq, judolik.

*Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,  
G'urbat bu aziz umrni kam qiladur. (B.)*

**HIKMAT** *a.* 1. Yashirin bir sabab, sir, sir-asror.

*Odamni tuproqdin yaratmoqg'a hikmat ne erdi. (R.)*

2. Falsafa, falsofiya.

*Biri tarixdin so'zlab fasona,*

*Biri hikmat fani ichra yagona. (F.Sh.)*

**HIKOYAT** *a.* Biror voqea-hodisaning og'zaki bayoni, hikoya.

*Tugatmaklikka haq berdi inoyat,  
Eshitgil emdi ham bir xush hikoyat. (Mn.)*

**HILM** *a.* Ko'ngli yumshoqlik, muloyimlik.

*Ham ravishi adlu ham insof aro,  
Hilmu hayo bori avsof aro. (H.A.)*

**HILOL** *a.* 1. Yangi chiqqan oy.

*Ham nur erur bu naxli umid,  
Ya'niki hilol erur bu xurshed. (L.M.)*

2. Ko'rinishi yarim oy shakliga o'xshash qayiq.

*Yer tutub bir hilol ichinda Suhayl,  
Mehr aqdig'a aylamish edi mayl. (S.S.)*

**HIMMAT** *a.* 1. Birovga yordam qilish, saxovat, saxiylik, olijanoblik.

2. Astoydil harakat, sa'y-harakat, g'ayrat.

*Kiming himmati bo'lmasa ul o'lug*  
*Ekagun ajunda bu bulmas ulug. (Q.B.)*

**Himmati mardona** Mardonavor himmat.  
*Bahramand et iltifotu himmati mardonadin. (T.F.)*

**Himmati oliy** Himmati baland, olihimmat.  
*Anda bir shoh hokimu voliy,*  
*Mulki ma'muru himmati oliy. (S.S.)*

**HIMOYAT** a. Himoya, muhofaza, qo'riqlash.  
*Zulfung madidin qiladur jong'a ko'zung qasd,*  
*Chin lashkari kofirg'a qilur ore himoyat. (A.)*

**HIND** Hindiston.  
*Biri mo'jiz bayonliq sohiri hind,*  
*Ki ishq ahlini o'rtar so'zu holi. (A.N.Qit.)*

**HINDU** Qadimdan Hindistonda yashab kelayotgan tub joy xalqi yoki uning vakili, hindi.  
*Andag'uq urug'lari hindular, habashiylar, zangilar qamug'i*  
*aning urug'i tururlar. (R.)*

**HIRMON** a. Mahrumlik, bebahralik, benasiblik.  
*Itib, olamda hirmon birla o'ldi,*  
*Yuzungni ko'rmay armon birla o'ldi. (F.Sh.)*

**HIRQAT** a. Kuyish, yonish.  
*Jismdin so'rsamki: «Bu za'fingg'a ne erdi sabab?»*  
*Der: «Anga bo'ldi sabab o'tluq bag'irning hirqati.» (F.K.)*

**HIRZ** a. Tumor.  
*Kim, ul har g'amda bo'lg'ay hirzi jonim,*  
*Balovu g'ussadin xatti amonim. (F.Sh.)*

**HISN** a. Qo'rg'on, qal'a.  
*Bu kishvar ichra o'ttuz-qirq qo'rg'on,*  
*Bori ko'k hisnidin burjin oshurg'on. (F.Sh.)*

**HISOB** a. 1. Sanoq, miqdor, adad.  
*Ish hisobin shumora qilg'ungdur,*  
*Qatlu kining'a chora qilg'ungdur. (S.S.)*

2. Qadr-qimmat, qadr, e'tibor.  
*Borsa shatranj shohining sipahi,*  
*Ko'rki, bormu hisob ichinda shahi. (S.S.)*

**HISORIY** a. Qal'ada qolgan, qal'a ichida qamalda qolgan.  
*Ki, shah savlatidin firoriydurur,*  
*Falon qal'a ichra hisoriydurur. (S.I.)*

**HIYAL** *a.* (birligi **hiyla**) Hiylalar, aldovlar.

*O'rganurdin qochg'an lavand va yuziga hiyal va bahona eshigin ochg'an tanand. (M.Q.)*

**HIYLA** *a.* Makr, aldov, firib.

*Shart bukim, yetsa gazande sanga,*

*Solsa falak hiylasi bande sanga. (H.A.)*

**HIYLAGAR** *a. -f.* Hiyla ishlatuvchi, firibgar, hiylakor.

*Birlari mo'ltoninamo hiylagar,*

*Birlaridur kunda pixu gavda xar. (M.)*

**HODI** *a.* To'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshlovchi, rahnamo.

*Bu farni hodiya baxt etgach irshod,*

*Ravon shahzoda otin qo'ydi Farhod. (F.Sh.)*

**HODIS** *a.* Yuz bergan, sodir bo'lgan, ro'y bergan.

*Bilmadikim ne ish ekin hodis,*

*Kim bu ishka bo'lub ekin bois. (S.S.)*

**HOFIZA** *a.* Esda saqlash qobiliyati, xotir, xotira.

*Bisyor qaviy hofizasi bor emish, o'ttuz-qirq ming bayt yodida bor emish. (Bn.)*

**HOJAT** *a.* 1. Biror narsaga bo'lgan muhtojlik, ehtiyoj, zarurat.

*Sanga payvasta, ey koni malohat,*

*Ko'zung qoshing bila o'q yo ne hojat. (Mn.)*

2. Maqsad, niyat, tilak.

*O'zum etsam Suhayl uchun oni,*

*Kim, desam hojatimni pinhoni. (S.S.)*

**HOKIM** *a.* 1. Uch xonliklar davrida ma'lum bir shahar va uning atrofidagi qishloqlarni xon nomidan boshqaruvchi amaldor.

**Hokimi Dizzax** Jizzah hokimi.

*Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldum firibi qirqqa,*

*Hokimi Dizzax mutiu payravi jurqundiman. (T.F.)*

2. Hukm qiluvchi, boshqaruvchi, boshliq.

*Anda bir shoh hokimu voliy,*

*Mulki ma'muru himmati oliy. (S.S.)*

**HOKIY** *a.* Hikoya qiluvchi, qissago'y.

*Bu nomag'a nusxa zoti poki,*

*Tengri so'zidin ulusqa hokiy. (L.M.)*

**HOL** *a.* 1. Hayotda yuz beradigan vaziyat, sharoit, ahvol.

*Ul holda yer tavozu' qilib aydi. (R.)*



2. Sog'-salomatlik, kayfiyat, ahvol, ko'rinish, avzo.

*Adl qulog'ila eshit holimi,*

*Zulm qilur, baski, menga zolimi. (M.)*

*Holig'a chun nazora qildilar,*

*Navdar erkonin jazm bildilar. (S.S.)*

3. Har bir kishining jamiyatda tutgan o'rni, mavqei.

*Yo'qki, zamona shahi bu shevalik,*

*O'z xudi holig'a ulug' to kichik. (H.A.)*

**Holidin ketmak** Hushidan ketmoq.

*Hushi kirgach yana nazar etti,*

*Ko'rgach – o'q holidin yana ketti. (S.S.)*

**HOLA** a. Oyning yorug' gardishi.

*Halqai zulfdin ko'rundi yuzi,*

*Holai badri mohdur kokul. (Amir.)*

**HOLAT** a. Ahvol, vaziyat, hol.

*Ul magar holatimni anglab jazm,*

*Maxlasing'a bu sori qilg'ay azm. (S.S.)*

**HOLO** a. 1. Shu onga qadar, hozirgacha, shu damgacha.

*Holo Boboning takyasi va mozori va darveshlari andadur.*  
(N.M.)

2. Hozir, hozirda, shu onda.

*Holo ushbu soat fath va nusrat sizning soridur. (Bn.)*

**HOMIL** a. Olib boruvchi, eltuvchi, yetkazuvchi.

*Emdikim yozdi nomag'a unvon,*

*Nomaning homilini qildi ravon. (S.S.)*

**HOMIY** a. Himoya qiluvchi, himoyachi, qo'riqchi; hukmron, hokim.

**Homiy bo'lmoq** Hukmron bo'lmoq.

*To jahondur jahong'a homiy bo'l,*

*Saltanat taxtida kiromiy bo'l. (Mun.)*

**HOMUN** f. Dasht, cho'l, biyobon; tekislik.

*Sarsari ohim esar g'am shomi hijron tog'ig'a,*

*Yaxshidur tong otqucha bu tog' homun bo'lmasa. (N.N.)*

**HORIS** a. Dehqon.

*Navoiy, amal xirmanini ichra o't sol,*

*Ki bo'lmoq kerakmas bu mazra'da horis. (N.Sh.)*

**HORMOQ** Ko'p harakat qilish natijasida toliqmoq, charchamoq.

*Azob ichra yotib zindonda Suhayl,*

*Etardi horg'onida uyquni mayl. (S.Sar.)*

**HOSID** *a.* Hasad qiluvchi, hasadgo'y.

*Tut mug'tanam, o'ldung esa xushhol zamone,  
Nevchunki, zamon hosid erur, ahli zamon ham. (B.V.)*

**HOSIL** *a.* Foyda, naf.

*Atoyi, sen kimu ul sarvqomat,  
Ilik yetmas, ne hosil qo'lni sunmoq. (A.)*

**Hosili umr** Farzand, bola.

*Hosili umri edi ul boyning,  
Oti Gunashbonu o'shal oying. (Zm.)*

**HOVIYA** *a.* Do'zax.

*Qildilar o'tqa parastish bisyor,  
Qildilar hoviyag'a mayl izhor. (Shn.)*

**HOY-HOY** Dabdabali, shovqin-suronli; ulkan.

*Hoy-hoyi bazmlarda shahd no'sho-no'sh edim,  
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim. (T.F.)*

**HOZIQ** *a.* Bilimdon, mohir, mahoratli.

*Dehlidin kemaga solib, keltursunlarkim, hakimi hoziqlar  
ko'rub dardig'a davo qilsunlar. (Bn.)*

**HOZIR** *a.* Tayyor, shay.

**Hozir etmak** Tayyor qilmoq, tayyorlamoq.

*Hozir etib to'rt nafar mardikor,  
To'g'ri qil oldimg'a qilibon qator. (M.)*

**HOSHO** *a.* Albatta.

*Qaytsa xoni niamingdin sening,  
Hosho, lutfu karamingdin sening. (H.A.)*

**HU** Xudoni izlash, unga nola qilish sadosi; xitob, nido.

*Lomakonning shahrini bir hu bila sayr ayladim,  
Jabrail, borg'il nari, bolu parimni kavlama. (Mash.)*

**HUBOB** *a.* Ko'pik.

*Binoyi jahon bordur suv uza,  
Hubobu, hubobu, hubobu, hubob. (K.)*

**HUDHUD** *a.* Popishak.

*Yarim farsax yo'l borg'anda, shul asnoda bir hudhud  
yo'luqti. (Zm.)*

**HUKAMO** *a.* (birligi **hakim**) Donishmandlar, faylasuflar, donolar.

*Hukamo ham kelib alar bila rost,  
Qildilar shohg'a yer o'pub darxost. (S.S.)*

**HUKM** *a.* 1. Biror ish yuzasidan qozi, sud tomonidan chiqarilgan qat'iy qaror.



*Ayitti qozi: «Ketur, ikki guvoh,  
To qilayin hukmini beishtiboh». (H.A.)*

2. Farmon, buyruq, amr.

*Shahni ul qasrg'a yeturdilar,  
Borcha hukmni bajo keturdilar. (S.S.)*

**Hukm etmak** Amr qilmoq, buyurmoq.

*Ki: «Ne hukm etgung, ey malaksiymo,  
Shammai andin aylagil iymo». (S.S.)*

**HULLA** *a.* Yupqa, nafis va bezakli bir kiyim.

*Hariru hulla ichra bog'labon chust,  
Murassa' mahd ichinda tongdilar rust. (F.Sh.)*

**HUMO** *f.* Kimning boshiga qo'nsa u boy, baxtli bo'ladi, deb ishonilgan afsonaviy qush.

*Tama' dominda qolur qush emasmen,  
Talim ayvon uza uchqon Humomen. (Mn.)*

**HUMOYUNFOL** *f.* Baxtiyor, baxtli.

*Ey, xush ul kunlarki, ko'nglum vaslidin xushhol edi,  
Axtarim farxundau baxtim humoyunfol edi. (M.U.)*

**HUNAR** *a.* Kishining malaka talab qiladigan va yashashi uchun zarur bo'lgan mashg'uloti; kasb.

*Barcha fazlu hunarda yo'q misli,  
Ko'zguna boqsa o'zi-o'q misli. (S.S.)*

**HUNARIY** *f. -a.* Hunarga oid, hunarga tegishli.

*Yana romiyu sohiri hunariy,  
Daf' etardek ziyoni dev-u pari. (S.S.)*

**HUNARVAR** *f.* Hunar egasi, hunarmand.

*Topildi hunarvar ustodi,  
Odam ichida malak nihodi. (L.M.)*

**HUQQA** *a.* Qimmatbaho narsalar solinadigan kichik quti, quticha.

**Og'iz huqqasi** Og'iz bo'shlig'i; og'iz.  
*Barcha ko'ngul durji aro javhar ul,  
Barcha og'iz huqqasida gavhar ul. (H.A.)*

**HUQQABOZ** *a. -f.* Fokuschi, ko'zboylog'ich, ko'z bog'lovchi.

*Ne qilg'ay necha jo'giyi sehrsoz,  
Biri muhraduzdu biri huqqaboz. (S.I.)*

**HUR** *a.* Musulmonlar e'tiqodiga ko'ra jannatdagi go'zal qiz.

- Zohid, sanga huru, manga jonona kerak,  
Jannat sanga bo'lsun, manga mayxona kerak. (A.N.Rub.)*
- Huri ayn** Oq badanli, shahlo ko'zli go'zal qiz.  
*Huri ayn ujmo' ichinda yeng solib tahsin qilur,  
Yoz uza mundog' g'azallar aymishdi. (R.)*
- HURUF** *a.* (birligi **harf**) Harflar.  
*Anga farzona Farhod ism qo'ydi,  
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi. (F.Sh.)*
- HUSN** *a.* Chiroy, ko'rk, go'zallik.  
*So'zung shirin, o'zung Xusravdin afzun,  
Bo'lur Layli sening husnungg'a Majnun. (Mn.)*
- HUSOM** *a.* Qilich.  
*Lekin ul yon chekib husom hanuz,  
Dast bermaydurur bu kom hanuz. (S.S.)*
- HUSUL** *a.* Hosil bo'lish, qo'lga kirish.  
*Emas kishiga bu dunyoda mulku mol kamol,  
Husuli ilmu hunar keldi bezavol kamol. (K.)*
- HUVAYDO** *a.* Ayon, oshkor, zohir.  
*Husnni to huvaydo qildi xoliq,  
Husn birla vafu bo'lmas muvofiq. (Mn.)*
- HUZUR** *a.* Old; yon.  
*Ayladilar, bo'ldi chu bu nukta jazm,  
Qoziyi islom huzurig'a azm. (H.A.)*  
**Huzuri qilmoq** Hozir bo'lmoq, ko'rinmoq.  
*Hazrati mavt zuhuri qildi,  
Malak ul-mavt huzuri qildi. (Shn.)*
- HUSH** *a.* Insonning bir narsani sezish qobiliyati, idrok, ong, aql.  
**Hush bormoq** Hushidan ketmoq, o'zini yo'qotmoq.  
*Qildi faryodu bordi andin hush,  
Mehrni hayrat ayladi madhush. (S.S.)*  
**Hushdin ayrilmoq** Hushidan ketmoq, o'zini yo'qotmoq.  
*Ko'rub uyquda ham qo'rquvli tushdin,  
Qolurdi ayrilib har damda hushdin. (S.Sar.)*
- HUSHMAND** *f.* Aqlli, dono.  
*Oni saxiy onglag'il, ey hushmand,  
Kim ani davlat qilibon sarbaland. (H.A.)*
- HO'Y** Fig'on, faryod.  
*Yetib to'qquz falak toqig'a ho'yung,  
Yeti kishvarni tutqay guftugo'yung. (F.Sh.)*

**Ho'yu g'ulu** Hay-huy, qiy-chuv.  
*Ho'yu g'uludin bu nishoting kuni,*  
*Anglamayin kimsa muazzin uni. (H.A.)*

## Ii

- IBLOG'** *a.* Xabar qilish, darak berish, yetkazish; xabar.  
*Nukta qilma Suhayldin iblog',*  
*Qo'ymag'il dog'im ustiga yana dog'. (S.S.)*
- IUN** *a.* O'g'il.  
*Nuh ibn Malik Manusalx ibn Idris. (R.)*
- IBODAT** *a.* Sig'inish, topinish, toat-ibodat.  
*Shar' tariqida, ibodatda ham. (H.A.)*
- IBRIQ** *a.* Har xil suyuqliklar solinadigan idish, obdasta.  
*Har kim ul choh aro chu bo'ldi g'ariq,*  
*Non ikita edi, su bir ibriq. (S.S.)*
- IBTIDO** *a.* Boshlanish; bosh, avval.  
*Birov hamdidindur bidoyat anga,*  
*Ki yo'q ibtidoyu nihoyat anga. (S.I.)*
- IBTILO** *a.* Mubtalolik, giriftorlik.  
*Mundoq dushman balosidin va ochliq ibtilosidin xalos bo'lub,*  
*amonlig' rohatig'a va arzonlig' farog'atig'a yetushtuk. (Bn.)*
- IDI** Parvardigor, tangri, xudo.  
*Ko'ni tut ko'ngul til bayatqa sig'in*  
*Idi yarig'in sen ag'ir tut tapin. (Q.B.)*
- I'DOM** *a.* Yo'q qilish, yo'qotish, mahv etish.  
*Agar mavjudu ma'dum o'lsa olam,*  
*Anga ijodu i'domi musallam. (F.Sh.)*
- IDUQ** Muqaddas, aziz, ardoqli, sharafli.  
*Iduq ul beglik arig'liq tilar*  
*Arig'liq bila elda saqliq tilar. (Q.B.)*
- IFROT** *a.* Haddan ortiq, ortiq darajada, haddan ziyod.  
*Za'fi ifrotidin Suhayl dog'i,*  
*O'ziga keldi lek uyqu chog'i. (S.S.)*
- IFTITOH** *a.* Boshlash, kirishish.  
*Bu so'zda iftitoh aylagan kalomin,*  
*Bu yanglig' ayladi so'z ixtimomin. (F.Sh.)*

**IFSHO** *a.* Oshkor qilish; ayon qilish.

**Ifsho qilmoq** Oshkor qilmoq.

*Munda dog'i qudratin ifsho qilib,*

*Hikmat ila qatrani daryo qilib. (H.A.)*

**IG 1. Kasal, xasta.**

*Eva qilmish ishlar bicha yig bo'lur*

*Eva yesa ash suv bicha ig bo'lur. (Q.B.)*

2. Kasallik, xastalik, dard.

*Kishi iglasa o't o'tachi berur*

*O'tachi iginga emin kim qilur. (Q.B.)*

3. G'am, tashvish, qayg'u, g'ussa.

*Qayu elka bo'lsa bu yanglig' begi*

*Qutuldi ul el buduni ketti igi. (Q.B.)*

**IGLAMAK I** Kasal bo'lmoq, kasallanmoq, xastalanmoq, og'rimoq.

*Ikladi maning azaq,*

*Ko'rmazib o'g'ri tuzaq.*

*Igladim andin uzaq,*

*Emlagil emdi tuzaq. (D.L.T.)*

**IGLAMAK II** Toptamoq, ezmoq, yanchmoq.

*Qayu beg saq ersa elin bekladi,*

*Yag'i bo'yni yanchti uza igladi. (Q.B.)*

**IGLIK** Biror kasallikka chalingan, kasal, xasta.

*Ul sababdin Odam o'g'lonlari bir-biringa mengzamazlar*

*kimi arig', kimi arig'siz, kimi iglik, kimi igsiz. (R.)*

**IGNACHI** Ninachi.

*Turfa qishloqi g'azabkardaki, parrandalari,*

*Tovug'i ignachiyu, o'rdagu g'ozikapalak. (Max.)*

**IGSIZ** Kasallikka chalinmagan, sog', sog'lom.

*Kimi arig', kimi arig'siz, kimi iglik, kimi igsiz.. (R.)*

**IHTIMOM** *a.* Ahamiyat berish, diqqat etish, eshitish.

*Xoja soldi alarni ham kemaga,*

*Ihtimom aylabon bori nimaga. (S.S.)*

**IHTIROQ** *a.* Alanga, yolqin.

*Kim oshti ko'kka ohim ihtiroqi,*

*Kuyurdi ko'nglumi dilbar firoqi. (Mn.)*

**IHTIROZ** *a.* Ehtiyot bo'lish, saqlanish, o'zini chetga olish; cho'chish.

*Daryo yovuqdur. Zeroki, Boyo'g'li xalqi ihtiroz etarlar. (Zm.)*

**IHYO** *a.* Tiriltirish, jonlantirish.

*Soqiyo, bir o'tki kul qilg'ay vujudum xirmanin  
Aylamon hayvon suyinkim, aylagay ihyo, pisand. (G'.S.)*

**IJMOL** *a.* Qisqalik, muxtasarlik, qisqa bayon.

*Bu erdi holimizkim topti ta'vil,  
Bu ham ijmol birla yo'qki tafsil. (F.Sh.)*

**IJOBAT** *a.* Qabul, qabul qilish, qabul etish.

*Duongni ijobat qildim, borg'il chinor yig'och tikkil. (R.)*

**Ijobat bo'lmoq** Qabul qilinmoq.

*Muhabbat birla jonidin bu miskin,  
Duo qildi ijobat bo'lsun, omin. (Mn.)*

**IJOD** *a.* Yaratish, vujudga keltirish, bunyod qilish.

*Agar mavjudu ma'dum o'lsa olam,  
Anga ijodu i'domi musallam. (F.Sh.)*

**IJTINOB** *a.* O'zini chekkaga olish, tortinish, chekinish, uzoqlashish.

*Nisbat yo'qtur deb ijtinob aylamakim,  
Shahmen elga, vale sanga quldurmen. (B.)*

**IKAGU** Ikki kishi, ikkov, ikkovi.

*Ikagu Nuh payg'ambar oldig'a keldilar. (R.)*

**IKAVLO** Ikki kishi birgalikda, ikkovlon.

*Chiqib shahzoda birla shoh ikavlo,  
Vaziri kordon birla uchavlo (F.Sh.)*

**IKI** Ikki.

*Nuh ilkin arslon boshing'a siladi, burnidin iki mushuk chiqti.  
(R.)*

**IKINCH** Ikkinchidan, ikkinchisi.

*Ikinch ulki, bor oncha afsungarim,  
Mavojib yegan barchasi chokarim. (S.I.)*

**IKITA** Ikki dona, ikki nafar, ikkita.

*Har kim ul choh aro chu bo'ldi g'ariq,  
Non ikita edi, su bir ibriq. (S.S.)*

**IKKALA** Har ikkisi birga, ikkov.

*Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,  
Go'yo xayol aylaki, qilmay nifoq. (M.)*

**IKKI** Bir bilan uch orasidagi son.

*Bo'ldi paydo aduv bo'lur besha,  
Tushti ikki tarafqa andesha. (S.S.)*

**IKKILAY** Ikkinchi, qayta, qaytadan, boshqa.

*Kelib hech ish qila olmadilar yana ikkilay qo'rg'on yovug'ig'a kelmadilar. (Bn.)*

**IKLAMAK** Bosmoq, ustiga oyoq qo'ymoq.

*Ikladi maning azaq,  
Ko'rmazib o'g'ri tuzaq. (D.L.T.)*

**IKOV** Ikki kishi, ikkov.

*Bu ikovga bu yerda mundoq hol,  
Qavmu xaylig'a, emdi ko'r ahvol. (S.S.)*

**IKROH** a. Nafratlanish, jirkanish, yomon ko'rish.

*Qiblagoho, mandin ikroh etma bir mayxonadin.  
Jo'shi bir xum sof maysan, man g'ubori durdiman. (T.F.)*

**IKSIR** a. Ma'danlarni oltinga aylantirish hamda insonlarga abadiy hayot bag'ishlash xossasiga ega deb ishonilgan faraziy suyuq modda.

*Ayog'i tufrog'ining qiymatin jonlar degan hayhot,  
Hayot iksirini tufrog' birla teng baho qilmish. (N.Sh.)*

**IKSUN** a. Ipak mato, harir.

**Iksunu debo** Nafis harir kiyimlik.  
*Yasalsun borcha oyin birla zebo,  
Tutulsun borig'a iksunu debo. (F.Sh.)*

**IKTIFO** a. Kifoyalaniish.

**Iktifo qililmoq** Kifoyalaniilmoq.  
*Agarchi yana tumanlari ham bor, bu mazkur bo'lg'onlarcha emas. Ushmuncha bila iktifo qilildi. (Bn.)*

**IKTISOB** a. Kasb etish, egallash, o'rganish.

*Ato bu nav ko'rgach ish hisobin,  
Munosib angladi ilm iktisobin. (F.Sh.)*

**ILA** 1. Birgalik, hamkorlik ma'nosini bildiradi; bilan.

*Qilg'um agar adl esa mar'iy bukun,  
Sening ila dav'iyi shar'iy bukun. (H.A.)*

2. Vosita, qurol ma'nosini anglatadi; bilan.

*Xasmning kemasi tubiga kirib,  
Tig' ila kemanding tubini yorib. (S.S.)*

3. Mavhum ma'noli so'zlar bilan kelganda, holat ma'nosi-ni ifodalaydi; bilan.

*Yana anduh ila fig'on qildi,  
Yana anduhi qasdi jon qildi. (S.S.)*

4. O'rin ma'nosini bildiruvchi otlardan so'ng kelib, ish-



harakatning shu yer bo'ylab amalga oshishini bildiradi;  
bilan.

*Boshlabon ul cherikni sohil ila,  
Su yaqosidag'i manozil ila. (S.S.)*

5. Gap bo'laklarini yoki ikki gapni bir-biriga bog'laydi, va,  
bilan.

*Toki berdi taom ila sharbat,  
Za'fliq zor jismig'a quvvat. (S.S.)*

#### **ILAN** Bilan

*Hayotim vaslinga ummid ilandur,  
Umid ul rahmati jovid ilandur. (F.Sh.)*

#### **ILAY** Old, pesh.

*Ilayiga solib, alarni surub,  
Sharh qilg'on jazirag'a keturub. (S.S.)*

#### **ILDIRIM** Yashin, chaqmoq.

*Firoqing ichra ulus o'rtamakka ey mohim.  
Choqin durur damimu ildirim durur ohim. (M.L.)*

#### **ILGARI** 1. Old tomonga, oldinga, olg'a.

*Kesturub beshani ochilg'ali yo'l,  
Cherigin eltur erdi ilgari ul. (S.S.)*

2. O'tgan vaqtlarda, oldin, o'tgan, burun, qadim.  
*Anda Yapaloqqush aydi: Ilgari o'tgan yaxshilar masalidur-  
kim, «Yaxshi nafas – yarim mol.» (Zm.)*

#### **ILGIDA** Qo'lida, ixtiyorida, izmida.

*Shaynda qoplondin agarchi fuzun,  
Nafs itining ilgida lekin zabun. (H.A.)*

#### **ILGIGA** Qo'lga, ixtiyoriga, izmiga.

*Bo'lsa ul dushman ilgiga mahbus,  
Manga nomus erur, sanga nomus. (S.S.)*

#### **ILHON** a. Ovoz, tovush.

*Sher eshitib aning ilhonini,  
Fahm qilib, savtida yolg'onini. (H.A.)*

#### **ILIK** 1. Insonning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi, qo'l.

*Chiqti dog'i eshib kamandini chust,  
Bog'lab oning ilik-ayog'ini rust. (S.S.)*

2. Ichida yog'i bo'lgan qo'y, mol oyoqlarining suyagi.

*Osh yesalar o'rtada sarson ilik,  
Xo'ja – chirog' yog'i, Hakimjon – pilik. (M.)*

**Iligi qisqa** Qo'li kalta, hojatmand, muhtoj, bechorahol.

*Ilgidagidin neki malhuz etar,*

*Bir iligi qisqani mahzuz etar. (H.A.)*

**ILIKLAMAK** Qo'lga tushirmoq, qo'lga olmoq, ushlamoq.

*Va Dovud alayhissalom Savobni aning da'vig'a yiborib dedikim, iliklasang, ani qatl qilmag'aysen. (T.A.H.)*

**ILINMAK** Tuzoqqa tushmoq, tushmoq, tutilmoq.

*Birikib ketti oshiqlar uzoqqa,*

*Ilinmay yo'l uza qo'yg'on tuzoqqa. (S.Sar.)*

**ILLO** a. 1. Agar.

*Hech Boyo'g'li soyasi tushmagan bo'lsa unarman va illo mundin bir chordevor kam bo'lsa, unamasman. (Zm.)*

2. Boshqa, bo'lak, o'zga.

*Ixtiyor et o'zga ish, Boburki, hosil bo'lmag'ay,*

*Ishqu vaslu aysh ila ishratdin illo koshki. (B.)*

**ILLOLLOH** a. Xudodan boshqa, allohdan boshqa.

*Gah o'rus, gohi cherkas, gohi mo'min, gohi tarsoman,*

*Ne kavnayni miyoni lou illollohg'a sig'mamdur. (Mash.)*

**ILM** a. Bilim, ma'lumot, ko'nikma.

*Yigitlikda yig' ilmning maxzani,*

*Qariliq chog'i xarj qilg'il ani. (T.A.H.)*

**ILMAK I** Osmoq. **Ko'zga ilmak** E'tibor bermoq.

*Ichib may saltanat ilmay ko'zumga,*

*Qilay zulm elga qilg'uncha o'zumga. (F.Sh.)*

**ILMAK II** Tuzoq.

*Ne zulfungni qasdimg'a dom aylading,*

*Bas aning chu bir tori ilmak mango. (F.K.)*

**ILMKESH** a. -f. Bilimdon, dono, oqil.

*Yana bir soyil dedi: «K-ey ilmkesh,*

*Bu safarkim ko'nglumizni qildi resh. (L.T.)*

**ILOH** a. Alloh, xudo, tangri.

*Nabard aylagaylar sipoh birla shoh,*

*Anga tegrukim fath bergay iloh. (S.I.)*

**ILOHI** a. Iloyo, xudoyo, ey xudo!

*Ilohi, yoqtu qilg'il jonimizni,*

*Xalaldin saqlag'il imonimizni. (Mn.)*

**ILOHO** a. Iloyo, ilohim, ey xudo!

*Iloho, asragin Sayfi Saroying,*

*Xalos aylab zulmdin keng Saroying. (S.Sar.)*



**II.O.J** a. Chora, tadbir.

*Nasibin uzmati tangri, ilojin topmag'ay kelsa,  
Onam deb bo'lg'usi bag'ri qizil qonimni sog'indim. (U.)*

**II.QI** Yilqi, ot.

*Ot anga tortarki yuz ilqisi bor,  
Siym anga berurki, yuz ilg'isi bor. (H.A.)*

**II.QICHI** Yilqichi, otboqar.

*Begu begzoda qolib, ilqichi, qo'ychilar bek,  
Dutdi to'por hama, ketti eshikdin to'bichoq. (T.F.)*

**II.TIFOT** a. Diqqat-e'tibor, marhamat, lutf.

*Bahramand et iltifotu himmati mardonadin. (T.F.)*

**II.TIHOB** a. Lovillash; yolqin, alanga.

*Ichkarrak uy ichra g'ussa tobi,  
Bal furqat o'tining iltihobi. (L.M.)*

**II.G'AMOQ** Tez yurib bormoq.

*Firibomuz so'zlar bila Sulton Mas'ud mirzoni g'ofil qilib,  
Chag'oniyondin ilg'ab, naqora vaqtida Hisor qo'rg'onini  
qabay oldilar. (Bn.)*

**II.G'I** Yilgi.

*Ot anga tortarki, yuz ilqisi bor,  
Siym anga berurki, yuz ilg'isi bor. (H.A.)*

**II.G'OR** Dushman tomonga yuborilgan uchar otryad.

*Kirdi ilg'orlari qo'rg'ong'a,  
So'zlari yetti janobi xong'a. (Shn.)*

**IMDOD** a. Yordam, ko'mak.

*Kulonkir sultonning ilgarigi mehmondin qolg'on oshi bor edi,  
ani Ko'rqushning oldig'a qo'ydi, aydi: «Oz oshg'a imdod  
yo'q» (Zm.)*

**IMKON** a. Biror ishni bajarish uchun zarur shart-sharoit, imkoniyat.

*Aningdek yerga qo'l sundi ilikkim,  
Yiroqtin boqmag'a imkon yo'q, ey jon. (Mn.)*

**IMLAMAK** Imo bilan oldiga kelishini bildirmoq.

*Yapaloqqush Ko'rqushni imlab olib, yonida o'tqazib aydiki...  
(Zm.)*

**IMLO** a. 1.Yozuv; to'g'ri yozuv.

*Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas. (Bn.)*

2.Ishora, belgi.

*Kim o'z taxsisig'a imlodur ul,  
Muhr yo tavqi' yo tamg'odur ul. (L.T.)*

- IMON** *a.* Xudoga bo'lgan ishonch, e'tiqod.  
*Ilohi yoqtu qilg'il jonimizni,*  
*Xalaldin saqlag'il imonimizni. (Mn.)*  
**Imon kelturmak** «Lo iloha» oyatini aytib musulmon ekani-  
 ni bildirmoq.  
*Ellik o'ksuk ming yil da'vat qildi, seksan kishi musulmon*  
*bo'ldilar, imon kelturdilar. (R.)*
- IMORAT** *a.* 1. Obod qilish, obodonlashtirish, obodlashtirish.  
*Tuzdi buzug'larni imorat bila,*  
*Zulmni daf' etti adolat bila. (H.A.)*  
 2. Katta uy, bino.  
*Ul su birla yasab edi bog'i,*  
*Bog' ichinda imorati dog'i. (S.S.)*
- IMTIDOD** *a.* Davom etish, cho'zilish, uzayish.  
*Muhosara imtidodi uzoqqa tortti. (Bn.)*
- IMTIYOZ** *a.* Boshqalarga nisbatan berilgan ortiqcha haq, huquq,  
 ustunlik, ortiqlik.  
*Tengriki insonni qilib ganji roz,*  
*So'z bila hayvondin anga umtiyoz. (H.A.)*
- INAD** *a.* O'jarlik, qaysarlik.  
*Alinglansa tutnub, g'azab, inad o'ti,*  
*Halimliq suvin sach, ul o'tni o'chur. (H.H.)*
- INANMAQ** Ishonch bildirmoq, ishonmoq.  
*So'zi chin kerak beg ne qilqi butun*  
*Inansa angar xalq tirilsa qutun. (Q.B.)*
- INBISOT** *a.* Shodlik, xursandlik, xursandchilik. **Inbisot anduz**  
**bo'lmoq** Shod bo'lmoq, xursand bo'lmoq.  
*Bo'lub ayyomi navro'zing muborak,*  
*Zamiring inbisot anduz bo'lsun!*
- INDURMAK** Yuqoridan pastga tushirmoq.  
*Tushkach ahli navo cholib derga,*  
*Zuhrani ko'kdin indurub yerga. (S.S.)*  
**Bosh indurmak** Bosh egmoq, ta'zim qilmoq.  
*Falak ayvonina bosh indururmu,*  
*Qoshing mehrobining toqina mushtoq. (A.)*
- INGRAMAK** Dard-alamdan mungli ovoz chiqarmoq.  
*Jafodin ingramas bu yo'lda ushshoq,*  
*Vafodin javringiz ming qatla xushroq. (Mn.)*

**INJIMAK** Xafa bo'lmoq, ranjimoq.

*Ey Navoiy, gar desang ko'p injimay davr ahlidin,  
Har ne derlar yo qilurlar, qilmag'il parvo base. (B.V.)*

**INJU** 1. Marvarid, dur.

*Gar xud erur xanjari po'lod til,  
Suftidag'i injulari so'zni bil. (H.A.)*

2. ko'ch. Tishning oqi.

*Tabassum qilsangiz shakkar uyolur,  
Tishing injusidin gavhar uyolur. (Mn.)*

**INKISOR** a. Darmonsizlik, kuchsizlik, madorsizlik.

*Agar za'feyu ranje bo'lsa tori,  
Va gar yetsa qariliq inkisori. (F.Sh.)*

**INKOR** a. Qaytish, voz kechish.

*Dedi: bu ishqdin inkor qilg'il!*

*Dedi: bu so'zdin istig'for qilg'il! (F.Sh.)*

**INON** Tizgin, jilov.

*Shayxni otlاندururda ot sarkashlig' qilib va tundlug' qilib,  
inonin olib to'ylab yugurdi. (N.M.)*

**INOYAT** a. 1. Madad, yordam, marhamat.

**Inoyat bermak** Madad bermoq.  
*Tugatmaklikka haq berdi inoyat,  
Eshitkil emdi ham bir xush hikoyat. (Mn.)*

**INSOF** a. Halollik, vijdon, to'g'rilik.

*Ham ravishi adlu ham insof aro,  
Hilmu hayo bori avsof aro. (H.A.)*

**INSON** a, Odam, kishi.

*Tengriki insonni qilib ganji roz,  
So'z bila hayvondin anga imtiyoz. (H.A.)*

**INTIBOH** a. Ogohlik, hushyorlik.

*Issig'-sovuqdin jondin-jong'a intiboh berguchi ul,  
Achchig'-chuchukdin ko'ngulni ogoh qilg'uchi ul. (M.Q.)*

**INTIFO** a. Foyda, naf.

*Xaloyiqqa ko'p yetkurub intifo,  
G'arib amr ko'p ayladi ixtiro. (S.I.)*

**INTIHO** a. So'ng, oxir, nihoya.

*Mehnatu dardu g'amining intihosi yo'q oning. (Og.)*

**INTIQOM** a. Qasos, o'ch.

*Bo'lmoq o'lmas xalos domingdin,  
Bo'lmog'um emin intiqomingdin. (S.S.)*

**INZIVO** *a.* Odamlardan chekinish, hech kimga qo'shilmay o'zini chekkaga olish.

*Tariqi inzivadur viridi oning,  
Hunarda borhamiz shogirdi oning. (F.Sh.)*

**ING'A** Past, yomon, yaramas, xunuk.

*Bularda eng ing'a bu arquq qilinch  
Bu arquq qilinchliq ne munglug' erinch. (Q.B.)*

**INSHO** *a.* Yozuv, xat.

*Insho aylamak Yozmoq, bitmoq.  
Yor la'lidin harfe ayladim, Amir, insho,  
Ey ko'ngul, bu gavharni jon ichinda pinhon qil. (Amir.)*

**INCH** Tinch, osoyishta, osuda.

*Yanut berdi O'gdulmish aydi elig  
Esan inch tirilgil ey ustag alig. (Q.B.)*

**INCHKA** Ingichka.

*Qiyiq ko'zruk, sherandom bo'yluq kishi edi. Belidin quyi  
inchka edi. (Bn.)*

**INCHLIK** Tinchlik, omonlik, xotirjamlik.

*Qilich tebrar erkan yag'i tebramaz  
Qilich qinqa kirsu beg inchlik yemaz. (Q.B.)*

**IQBOL** *a.* Baxt, omad, tole.

*Mohvash qoldi ul jazira aro,  
Mehri iqboli shomi tiyra aro. (S.S.)*

**IQDOM** *a.* Qadam qo'yish, biron ishga kirishish.

*Iqdom qilmoq Kirishmoq.  
Har kimkim mundog' shane' harakatka iqdom qilg'ay va ul  
kishigakim bu nav' ishka ehtimom qilg'ay, yuz ming la'nat-  
dur qiyomatqachakim... (Bn.)*

**IQLIM** *a.* 1. Mamlakat, davlat, yurt.

*Farg'ona iqlimida Kayqubod otlig' podshodin qolg'on bir eski  
shahriston bor erdi. (Zm.)*

2. Mintaqa, bo'lak, qism, zona.

*Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur. (Bn.)*

**IQOMAT** *a.* Hayot kechirish, yashash.

*Kobulda iqomat qildi Bobur dersiz,  
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen. (B.)*

**IQTIZO** *a.* Taqozo, talab.

*Davr chu kajlikka qilur iqtizo,  
Sen tilasang rost, emastur rizo. (H.A.)*

**IR** Qo'shiq, ashula.

*Turkona ir irlag'uncha oning  
Kuydurdi meni yalay-bulosi. (S.)*

**IRFON** a. Bilish, tanish.

*Inoyatli, diyonatli, yana ham murshidi komil,  
Hama orif, hama sodiq, hama irfonlarim keldi. (Mash.)*

**IRIG** Qo'pol, dag'al.

*Tugug yuz irig so'z kuvaz kur qiliq  
Kichig tezkurur ko'ndru bilmas yo'riq. (Q.B.)*

**IRLAMOQ** Qo'shiq aytmoq, ashula aytmoq.

*Turkona ir irlag'uncha oning,  
Kuydurdi meni yalay-bulosi. (S.)*

**IRODAT** a. Muridlik.

*Hazrati Xoja Ubaydullog'a irodati bor edi. (Bn.)*

**IROVUL** Harbiy harakatlar vaqtida qo'shinning old tomonida turuvchi yoki boruvchi qism, bo'linma, avangard.

*Bizning irovulkim, nekim bo'lg'ay, ish ko'rgan, qilich chopg'on yigitlarni tamom irovulg'a bitilib edi. (Bn.)*

**IRTALMAK** Izlanmoq.

*Kechmish uzuk irtadi,  
Tun-kun kechib irtalur. (D.L.T.)*

**IRTAMAK** Qo'msamoq, xohlamoq.

*Kechmish uzuk irtadi,  
Tun-kun kechib irtalur. (D.L.T.)*

**IRTIFO'** a. Yuksalish, ko'tarilish.

*Rutbayi oliy tilarsen, sof qil ko'nglungnikim,  
Irtifo'-aylarga mundindur sazovor oftob. (Mu.)*

**IRTIKOB** a. Biror ishni qilishga kirishish.

*Qayu yerda ahbob bazm aylasa,  
Tarab irtikobig'a azm aylasa. (Mu.)*

**IRUKSUZ** Biror kamchiligi bo'lmagan, kamchiliksiz, kamko'stsiz.

*Kishi o'drumi bu budunda talu  
Talu o'drum ul bu iruksuz to'lu. (Q.B.)*

**IRSHOD** a. To'g'ri yo'l ko'rsatish, yo'lga solish, rahnamolik qilish.

*Bu farni hodiyi baxt etgach irshod,  
Ravon shahzoda otin qo'ydi Farhod. (F.Sh.)*

**IS** Tutun yoki changdan dimo'gda hosil bo'ladigan mayda iflosliklar.

*Karnay misdin, balg'am isdin bo'lurini bilmas ekansiz. (Zm.)*

**ISIRG'A** Quloqqa taqiladigan bezak, zirak.

*Falak ishqining yo'linda besaru poy,  
Isirg'ang donasi Zuhra, yuzung oy. (Mn.)*

**ISLOM** a. Musulmon dini, islom dini.

*Ayladilar, bo'ldi chu bu nukta jazm,  
Qoziyi islom huzurig'a azm. (H.A.)*

**ISNOD** a. Dalil, dalillash, dalil keltirish.

**Isnod topmoq** Dalillar bilan asoslanmoq.  
*Bu javharlarg'a chun isnod topti,  
Murakkab aylagach, «Farhod» topti. (F.Sh.)*

**ISMAT** a. Poklik.

*Harimi iffat ichra shoh ul ermish,  
Sipehri ismat uzra moh ul ermish. (F.Sh.)*

**ISO** a. Payg'ambar ismi.

**Iso dami** Diniy tasavvurlarga ko'ra o'likni tiriltiruvchi Iso nafasi.

*Jahonning fitnasi usruk ko'zungda,  
Ayon Iso dami shirin so'zungda. (Mn.)*

**ISOR** a. Sochish, bag'ishlash.

*Hoji Zuhur ham O'rdada,  
Sarhavzalar, oliy sada,  
Borsa agar bir g'amzada,  
Jonig'acha isor ekan. (M.)*

**ISQOT** a. Soqit qilish, olib tashlash; **Isqoti** O'lgan kishining gunohlarini o'z bo'yniga oluvchi kishi, buning evaziga o'lik egalari marhumning ayrim narsalarini unga berganlar.

*Vor mundin sharafi murdasha'yu isqoti,  
To'ra o'g'li ichida yo'q munidek istihqoq. (T.F.)*

**ISROF** a. 1. Nest-nobud qilish, o'rinsiz sarflash.

*Isrof saxo emas va itlofni ma'no ahli saxo demas. (M.Q.)*

2. Keragidan ortiqcha sarf qilish, me'yordan ko'p sarflash.

*Oni dog'i dema saxokim, kishi  
Nechaki isrof emastur ishi. (H.A.)*

**ISTAMAK** 1. Xohish his qilmoq, xohlamoq.

*Bu hikoyatning bayonini istasang «Kalila va Dimna»dan top.  
(Zm.)*

2. Iltijo qilmoq, tilamoq, so'ramoq.

*Ki nechukkim kerak qilib ko'shish  
Haq taolodin istabon baxshish. (S.S.)*





3. Biror narsani topishga harakat qilmoq, axtarmoq, izlamoq.

*Fikrdin kecha ko'zni yopmas edi,  
Chora ko'p istar erdi, topmas edi.* (S.S.)

**ISTID'O** Yolvorib so'rash; iltimos qilish.

*Qosimbekni Toshkandga xon qoshig'a yiborib, Andijon  
ustiga yurmakni istid'o qilildi.* (Bn.)

**ISTIDLOL** a. Dalil keltirish, isbotlash; dalil, isbot.

*Shohlar otlansa doyim yurt obodon bo'lur,  
Bor dalil ushbu so'zumga qilsang istidlol suv.* (K.)

**ISTIHQOQ** a. Munosib, loyiq, haqli.

*Vor mundin sharafi murdasha'yu isqoti,  
To'ra o'g'li ichida yo'q munidek istihqoq.* (T.F.)

**ISTIKMOL** a. Barkamollik, mukammallik, yetuklik.

*Suvni kelturmakka sa'y base lozimdurur,  
Bo'lmasa taqviyu toat topmas istikmol suv.* (K.)

**ISTIMOLAT** a. O'ziga mayl etish, o'z tomoniga og'dirish.

*Ul navohilarg'a yiborildikim, istimolat bila yo zo'r bila bu  
ellarni kelturgay.* (Bn.)

**ISTIXFOF** a. Tahqirlash, kamsitish.

*Bad e'tiqod kishi edi. Hazrati Xoja Ubaydullog'a istixfof  
qilur edi.* (Bn.)

**ISTIXORA** a. Fol ko'rish; fol.

*Anda Ko'rqush aydi: «Xayr ishig'a hech istixora hojat  
emas».*

**ISTIG'FOR** a. Gunohni kechirishni so'rash, tavba.

*Avliyolardek muazzam bo'layin desang, vale  
Mashrabo, hech kanda qilma dildin istig'forni.* (Mash.)

**ISTIG'NO** a. Izzati nafs, izzat-nafs, nafsoniyat; so'fiyning bir holati, maqomi.

*Maqomi hayrat ichra gohi xudman, gohi bexudman,  
Junun bozorida mastmanki, istig'nog'a sig'mamdur.* (Mash.)

**Istig'no eli** O'z gadrini biladigan kishilar.

*Biz istig'no eli qichqirmag'an ma'vog'a bormasmiz,  
Agarchandeki xirman aylasa, dunyog'a bormasmiz.* (F.)

**ITIKLIK** O'tkirlik, keskirlik.

*Savol etgay sarosar ta'naomiz,  
Itiklik ichra har bir xanjari tez.* (F.Sh.)

**ITLANMAK** Yitmoq, yo'qolmoq.

*O'qi nogah agar sandong'a tekasa,  
Bashog'i itlanur sandon ichinda. (Mn.)*

**ITLIK** Pastkashlik, razillik, yaramaslik.

*Sen agar zohir etting itlikni,  
Men sanga ko'rguzay yigitlikni. (S.S.)*

**ITLOF** a. Nobudgarchilik, isrofgarchilik, nobud bo'lish.

*Isrof va itlof.bisiyor bo'lur edi (Bn.)*

**ITMAK** G'oyib bo'lmoq, yo'qolmoq, yitmoq.

*Vahm etib ul guruh bu so'zdin,  
Bahr aro ittilar ravon ko'zdin. (S.S.)*

**ITMOM** a. Butunlay, batamom.

*Oldilar ikalasini itmom,  
Qildilar ikalasini badnom. (Shn.)*

**ITNOB** a. Gapni cho'zish; ko'p gapirish.

*So'z itnobi ul sharif tab'g'a boisi malol bo'lmasum. (M.N.)*

**ITOB** a. Qahr, g'azab, qahr-g'azab.

*Shart bukim, aylama mahkam itob,  
Mahkamai shar'da bergil javob. (H.A.)*

**ITOBOMIZ** a. -f. Qahr bilan, g'azab aralash.

*Bu holat ichra ko'rguzmay tarahhum,  
Itobomiz qilg'ay shah takallum. (F.Sh.)*

**ITTIFOQ** a. Ahil, inoq, do'st.

*Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,  
Go'yo xayol aylaki, qilmay nifoq. (M.)*

**Ittifoq tushmak** Tasodifan ro'y bermoq.

*Bu jihatdin murod sori murur,  
Bahrdin ittifoq tushti zarur. (S.S.)*

**ITTIHOD** a. 1.Hamjihatlik, ahillik, do'stlik.

*O'ramung itlarining ittihodi,  
Ko'ngullar maqsudi, jonlar murodi. (Mn.)*

2.Yor vasliga erishish, qovushish.

*Erur bechora Xorazmiy murodi,  
Iki olamda dilbar ittihodi. (Mn.)*

**ITTISOL** a. Erishuv, yetishuv.

*Niholi bebari sarkashdurur avomunnos,  
Ne sud topmasa ma'nig'a ittisol kamol. (K.)*

**IXBOR** a. Xabar.

*Aning su bermagida holate bor  
Ki, andin aylamasbiz elga ixbor. (F.Sh.)*

**IXFOLIQ** Maxfiylik, yashirinlik.

*O'zumni xalq aro ixfolig'imni hech kishi bilmas,  
Dilu jonim fido aylab, ajab ayyora Mashrabman. (Mash.)*

**IXROJ** a. 1. Xorij etish, chetlatish, haydash.

*Mulk ilgidin chiqaru taxt ila toj,  
Taxtu toj ahlin etarlar ixroj. (Shn.)*

2. Surgun, badarg'a.

*Bilmon, ne jarima bila Sulton Abusaid mirzo Hiridin ixroj  
qildi. (Bn.)*

**IXTILOT** a. Munosabat, aloqa.

*Hasan Ya'qubning ixtiloti soyir umaro va siph  
bila dag'i yaxshi emas edi. (Bn.)*

**IXTISOS** a. 1. Biror narsaga xos bo'lish, tegishli bo'lish, mansub bo'lish.

*Xirqa bilan topmog'ini ixtisos,  
Tanni riyo to'nidin etmak xalos. (H.A.)*

2. Maxsus, atay, atayin.

*Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,  
Seni aduv domidin aylay xalos. (H.A.)*

**IXTITOM** a. Tamom qilish, tugatish; oxir.

*Bu so'zda iftitoh aylagan kalomin,  
Bu yanglig' ayladi so'z ixtitomin. (F.Sh.)*

**IXTIYOR** a. Erk, huquq, haq-huquq, xohish.

*Men edim ul amrda beixtiyor,  
Har ne sen etsang manga ne ixtiyor. (H.A.)*

**IXTIYORSIZ** G'ayriixtiyoriy ravishda, g'ayriixtiyoriy, beixtiyor.

*Keynicha ixtiyorsiz chopti,  
O'q otarg'a qarorsiz chopti. (S.S.)*

**IYAR** a. Oltin, kumush kabi qimmatbaho metallarning soflik darajasi, proba.

*Birisi elingda arig' tut kumush,  
Iyarin ko'zazgil, ey bilig uqush. (Q.B.)*

**IYD** a. Hayit, bayram.

*Iyd axshomi nazorada ko'rdi qoshing magar,  
Gardun etagi ichra yashurdi hilolini. (S.)*

**IYDGOH** a. -f. Hayit, bayram o'tkaziladigan joy.

*Iydoghta muloqot qilib, hayron bo'lub, tavajjuh sababini  
so'rubtur. (Bn.)*

- IYMO** *a.* Bosh, ko'z, yuz, qosh harakati bilan qilingan ishora, imo.  
*Ki: «Ne hukm etgung, ey malaksiymo,  
 Shammai andin aylagil iymo». (S.S.)*
- IYMANMAK** Andisha qilmoq, mulohaza qilmoq.  
*Ko'ngullar ohidin iymangil, ey moh,  
 Kim oyina tunar ko'p qilsalar oh. (Mn.)*
- IZDIHOM** *a.* Yig'in, yig'ilish.  
*Boz izdihomi voizi,  
 Badkayfu ochilmas ko'zi. (M.)*
- IZDIVOJ** *a.* Uylanish, oila qurish.  
*Ko'ngul ozodadur dunyog'a arzi ehtiyoj etmaz,  
 Tariqat soliki bu yo'lda mayli izdivoj etmaz. (G.)*
- IZHOR** *a.* Zohir qilish, bildirish, ko'rsatish.  
*Nilufargun libos etib bori,  
 Qildilar borcha motam izhori. (S.S.)*  
**Izhori ajz** O'zining o'jizligini bildirish, o'jizlik.  
*Necha izhori ajz qildi Suhayl,  
 Qilmadi kinavar javobig'a mayl. (S.S.)*  
**Izhori matlab** Istak izhori.  
*G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,  
 Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi dardu mehnatim. (T.F.)*  
**Izhori xijolat** Xijolat izhor qilish.  
*Vah, bu ne izhori xijolat bo'lur,  
 Bu ne degan lutfu adolat bo'lur. (H.A.)*
- IZI** Yaratuvchi, parvardigor, xudo.  
*Nuh aydi: «Bu kun kim ersani azobdin saqlag'uchi yo'q  
 izidin o'zga». (R.)*
- IZILMAK** Halokatga yuz tutmoq, zavol topmoq, mahv bo'lmoq.  
*Uqushlug' kerak beg kishida talu  
 Uqushlug' qilinchi izilmaz to'lu. (Q.B.)*
- IZIYO** E xudo! Xudoyo! Ey alloh!  
*Iziyo, qamug' kofirlarni tirik qo'zmag'il. (R.)*
- IZMAQ** 1. Yubormoq.  
*Somni Arab va Ajam viloyatig'a izdi. (R.)*  
 2. Yoyilmoq, ketmoq, tushmoq.  
*O't izti budunqa buzuldi eli  
 Yiqildi seziksiz bu beglik uli. (Q.B.)*
- IZO** *a.* Azob, qiynoq, ranj, ozor.  
*La'lidin kom istaram, ne chora, yetsa ko'ngluma,  
 Kirpiking nayzasidin zaxm ila izosi cho'x. (F.K.)*

**IZOFAT** a. Qo'shish, qo'shimcha qilish, bog'lash.

*Zamon avroqiyu ishqim edi Farhodu Majmundin.  
Falak bir, ikki fasl etti izofat dostoning'a. (B.V.)*

**IZOR** f. Ishton.

*Bo'ldum ivib yomg'irda shal,  
To'n shilta, ho'l izor ekan. (M.)*

**IZORA** a. Uy devorining yerdan tokchagacha bo'lgan qismi.

*Ushbu bog'chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom  
chiniy, chiniyxona derlar. (Bn.)*

**IZTIROB** a. Bezovtalik, tashvishlanish, hayajon, betoqatlik.

*Bo'lg'och ul nav' so'z xitobi aning,  
Oshti ul undin iztirobi aning. (S.S.)*

**IZZAT** a. Hurmat, obro', ehtirom.

*Kasrati yo'qluq, tama' ketturdi qadru qiymatim.  
Yuz sarig'liq yerga urdi obro'yu izzatim. (T.F.)*

**ISH** 1. Yumush, mashg'ulot.

*Ko'ru barsa tegma ishinda xatar  
Xatarlig' ishig ko'rsa tatig' ketar. (Q.B.)*

2. Kasb, hunar.

*Kim jaziradakim tutub besha,  
Ul kishiga bu ish bo'lub pesha. (S.S.)*

3. Vazifa, lavozim, amal.

*Bayat kimka bersa bu beglik ishi  
Berur o'g ko'ngul ko'r ul ishka tushi. (Q.B.)*

4. Tashvish, bezovtalik; g'am, qayg'u.

*Necha yangsiz ishlar bo'z ichsa bo'lur  
Necha edgu ishlar esursa qalur. (Q.B.)*

5. Xatti-harakat, qilmish.

*Kuyar ko'nglum saboning ul ishindin,  
Nechukkim kuysa xirmanlar yashindin. (Mn.)*

6. Masala, muammo.

*Mundin o'zga bu ishka yo'q tadbir,  
Ki, ikkimiz cherik yig'ib bir-bir. (S.S.)*

7. Hodisa, voqea.

*Har ne ish bo'lg'onin bayon etti,  
Shoh Nu'mon sori ravon etti. (S.S.)*

8. Niyat, orzu.

*Sabr qilib yaxshi ish qo'ldin ketsa, o'xshamas. (Zm.)*

9. Ahvol, vaziyat.

*Ko'rdi Jobirki qoim o'ldi ishi,  
Olida nomuloyim o'ldi ishi. (S.S.)*

**ISHKOL** *a.* Zulf, kokil, soch.

*Yarar ming jon bir ishkoling fidosi,  
Ko'zum mardumi xolingning fidosi. (Mn.)*

**ISH-KUCH** Xizmat, ish, mashg'ulot.

*Ul taraf, bu taraf ish-kuchka borg'on navkar va sipohiynt  
yig'ishturub, tengriga tavakkul qilib, muharram oyining o'n  
sakkizida Hofiz bekning chorbog'ig'a safar qildim. (Bn.)*

**ISHLAMAK** Amalga oshirmoq, qilmoq.

*Neku teg kerak beg muni bashlasa  
Javi barsa ati ishin ishlasa. (Q.B.)*

**ISHNAMAK** Yarqiramoq, yaltiramoq.

*Uchqun o'ldi ozimi charxi barin,  
Qoldi qozurot uza ishnar chibin. (L.T.)*

**ISHQ** *a.* 1. Sevgiliga bo'lgan muhabbat, sevgi.

*Ko'ngul ikki jahonni ko'zga ilmas,  
Sening ishqing umrning hosili bas. (Mn.)*

2. Ishtiyiq, zo'r qiziqish.

*Muni kim ishq birla bir o'qug'ay,  
Haqiqat olamini munda bulg'ay. (Mn.)*

**Ishqi jovidoniy** Abadiy ishq.

*Chaqilg'och barqi ishq jovidoniy  
Yetishgach bir sharar kul aylar oni. (F.Sh.)*

**Ishqi jovidona** Abadiy ishq.

*Yozmoqqa bu ishq jovidona,  
Maqsudum emas edi fasona. (L.M.)*

**Ishqi majoz** Insonning insonga bo'lgan ishq, insoniy ishq, zohiriy ishq.

*Dedi Hudhud: — K-ey ishing so'zu gudoz,  
Solibon ko'nglungga o't ishq majoz. (L.T.)*

**Ishq mazhabi** Ilohiy ishq yo'li, ishq maslagi.

*Ishq mazhabig'a taqviyu toat chidayolmas,  
Tasbehu sano, zuhdu ibodat chidayolmas. (Mash.)*

**Ishqi haqiqiy** Allohga bo'lgan ishq, allohni sevish.

*Tushkaning ishq haqiqiydin yiroq,  
O'rtagan ko'nglung aro dog'i firoq. (L.T.)*

**ISHQBOZ** *a.* -f. Ishqqa berilgan, oshiq.

*Kuymagan ishq ichra ermas ishqboz,  
Oshiq ermas ulki ermas jongudoz. (L.T.)*

**ISHQPECHON** *a. -f.* Pechakgul.

*Bo'ldi bir-birga jism ila jondek,  
Yo magar sarvu ishqpechondek. (S.S.)*

**ISHRAT** *a.* Kayf-safo, aysh.

*Bizing bek yodig'a ishrat qiloli,  
Nechakim yo'qturur biz son ichinda. (Mn.)*

**ISHRATGAH** *a. -f.* Kayf-u safo, o'yin-kulgi qilinadigan joy, ishratxona.

*Yetib ishratgahu g'amxonalarg'a,  
Quloq solur edim afsonalarg'a. (F.Sh.)*

**ISHTIBOH** *a.* O'xshash, monand.

*Jahondorlarg'a sipehr ishtiboh,  
Vale ahli faqr olida xoki roh. (M.Q.)*

**ISHTIDOD** *a.* Chayqalish, mavjlanish.

**Ishtidod urmoq** Chayqalmoq.  
*Tuz ko'runur mehr chu turg'on suda,  
Egri bo'lur ishtidod urg'on suda. (H.A.)*

**ISHTIYOQ** *a.* Sabrsizlik bilan kutish, mushtoqlik, intizorlik.

*Nola shahning firoqidin aylab,  
Oh oning ishtiyoqidin aylab. (S.S.)*

**ISHTIG'OL** *a.* Shug'ullanish, mashg'ul bo'lish, mashg'ulot.

*Bu erdi har kuni oning ishtig'oli,  
Ki to ul peshada bo'ldi kamoli. (F.Sh.)*

**Ishtig'ol ko'rguzmak** Shug'ullanmoq.  
*Andin so'ng ulum tahsilig'a ishtig'ol ko'rguzubtur. (N.M.)*

**ISHTIG'OLLANMQ** Zo'raymoq, avjlanmoq.

*Bu so'zni eshitgan zamon Kordon xazinachining g'azab o'ti  
ishtig'ollanib, vujudi nayistonig'a o't tushub, tutuni gar-  
dung'a xirom bog'ladi. (Zm.)*

**ISHVA** *a.* Noz, noz-karashma, ado.

*Meni devona aylab ishva birla,  
Nedur hardam parilardek yashunmoq. (A.)*

**ICH** 1. Ichki bo'shliq, bo'shliq.

*U yotg'an choh ichi yo'q shu'lai nur,  
O'langamas tiriga erdi bir go'r. (S.Sar.)*

2. ko'ch. Dil, ko'ngul, yurak, qalb.

*Jamolingdin xirad shaydo bo'lubtur,  
Ichim bag'rim qamug' savdo to'lubtur. (Mn.)*

**ICHIN** Ichdan; o'zaro.

*Ko'nglum ichin o'rtadi,*

*Etmish bashig' qartadi. (D.L.T.)*

*Musulmon qarishiti, ichin et eshur. (Q.B.)*

**ICHINDA** ko'm. 1. Bobida, bo'yicha.

*Bilik bilmak ichinda javharisen,*

*Vale husn ichra javhardin arisen. (Mn.)*

2. Ish-harakatning sodir bo'lgan o'rnini ko'rsatadi.

*Quyosh aksi yuzungdin roh ichinda,*

*Seningdek yo'q chechak uchmoh ichinda. (Mn.)*

3. Sharoitida, vaziyatda.

*Umr kechti qamug' savdo ichinda,*

*Necha yuzgay kishi daryo ichinda. (Mn.)*

**ICHKI** Shoh saroyidagi xos amaldor, mulozim.

*Beklar va ichkilar va yigitlarkim, mening bila qolib edilar*

*aksarining ko'chlari Andijonda edi. (Bn.)*

**ICHRA** ko'm. 1. Ichida, orasida.

*U sahro ichra chorasiz qoldi yolg'iz,*

*Bo'lub tashna, qurub qolg'ontek ildiz. (S.Sar.)*

2. Bo'yicha, sohasida, jihatdan.

*Nozukluk ichra belicha yo'q tori gisuyi,*

*O'z haddini bilib, belidin o'turur quyi. (L.)*

3. Uchun.

*Maxlasing ichra sa'y etib jondin,*

*Seni cheksam bu tiyra zindondin. (S.S.)*

**ICHURMAK** Ichirmoq.

*Aqi bo'l bag'ishla ichur ham yitur*

*Qali eksuse ur yana al yetur. (Q.B.)*

## Jj

**JABBOR** a Jabr qiluvchi, g'azab qiluvchi; Xudoning sifatlaridan biri.

*Ki haq bo'lsa vahhobu g'affor ham,*

*Erur lek jaboru qahhor ham. (S.I.)*

**JABBORLIQ** Jabr qiluvchilik, zolimlik.

*Tushub mavjg'a bahri jabborliq,*

*Ayon aylabon mavji qahhorliq. (S.I.)*





- JABIN** *a.* Peshona, manglay.  
*Jabinida muhabbat dardi zohir,*  
*Uzori uzra g'urbat gardi zohir. (F.Sh.)*
- JADID** *a.* Yangi.  
*Ishqdur vasl qobug'ig'a kalid,*  
*Ishqdur aylagan eskini jadid. (Shn.)*
- JAJA** *a.* ayn. Jafo.  
*Tili yalg'an erning jafa qilqi ul*  
*Jafa kimda ersa o'shul yilqi ul. (Q.B.)*
- JAFU** *a.* Azob, azob-uqubat, jabr.  
*Evurman yuz nechakim kelsa mehnat,*  
*Jafo sizdin, tag'i bizdin muhabbat. (Mn.)*
- JAFUKOR** *a.* -f. Jafo qiluvchi, ezuvchi, jafogar.  
*Ayitqil, ey so'zi yolg'on jafokor,*  
*Qarog'lari qaroqchi, o'zi ayyor. (Mn.)*
- JAHU** *a.* Astoydil harakat, urinish, tirishish.  
**Jahd aylamak** Tirishmoq, harakat qilmoq.  
*Nechaki jahd ayladi kozib kishi,*  
*Bir-iki dast ilgari borg'ay ishi. (H.A.)*  
**Jahdu sur'at** Tez harakat, chaqqonlik.  
*Jahdu sur'at aro tay aylab arz*  
*Holatim aylasang Suhaylg'a arz. (S.S.)*
- JAHU** *a.* Johillik, nodonlik, bilimsizlik.  
*Olim agar joh uchun o'lsa zalil,*  
*Ilmi aning jahlig'a bo'lg'ay dalil. (H.A.)*
- JAHUN** *f.* Olam, dunyo, yer yuzi.  
*Jahonda sentek, jonon yo'q, ey jon,*  
*Sening dardingg'a hech darmon yo'q, ey jon. (Mn.)*  
**Jahon tutmoq** Egallamoq.  
*Ayo ko'rk ichra olam podshohi,*  
*Jahon tutti sening husnning sipohi. (Mn.)*  
**Jahon safhasi** Yer yuzi.  
*Shom jahon safhasin aylab qaro,*  
*Pardai zulmat chu yopib el aro. (H.A.)*  
**Jahon eli** Odamlar.  
*Dardoki, yo'q jahon elida sharmisorlig',*  
*Ko'rganlar izzatimni menga berdi xorlig'. (K.)*
- JAHUNAFRO'Z** *f.* Jahonni yorituvchi, olamni oydinlatuvchi.  
*Orazi mash'ali jahonafro'z,*  
*Partavi shu'lasi kelib jonso'z. (S.S.)*

- JAHONBIN** *f.* Jahonni ko'rsatuvchi, oynayi jahon.  
*Dedikim, olibon kirdilar avval,*  
*Jahonbin jomni, andoqki mash'al.* (F.Sh.)
- JAHONDOR** *f.* Jahonni egallovchi; podshoh.  
**Jahondori zafar** Zafar quchuvchi podshoh, g'olib shoh.  
*Ey jahondori zafar, kavkabai davri falak,*  
*Go'sh qil, qissai qishloqi xarobi Hapalak.* (Max.)
- JAHONDORLIQ** Podishohlik, shohlik, hukmdorlik.  
*Bor edi zotida sazovorliq,*  
*Kim haq anga berdi jahondorliq.* (H.A.)
- JAHONGARD** *f.* Jahon kezuvchi, jahongashta.  
*Chu tufrog' o'lg'usi jismi jahongard,*  
*Zamiring ichra ondin qolmasun gard.* (F.Sh.)
- JAHONKUSHOY** *f.* Dunyoni yorituvchi.  
*Xurshedi jahonkushoy sen-sen,*  
*Mir'oti jahonnamoy sen-sen.* (L.M.)
- JAHONNAMOY** *f.* Jahonni ko'rsatuvchi.  
*Xurshedi jahonkushoy sensen,*  
*Mir'oti jahonnamoy sensen.* (L.M.)
- JAHONSO'Z** *f.* Jahonni kuydiruvchi; quyosh.  
*Bu sifat mehri olamfuruze,*  
*Mehr yo'q, shu'lai jahonso'ze.* (S.S.)
- JALIS** *a.* Hamsuhbat, ulfat.  
*Borcha serobu salisu dilkash,*  
*Tab' ahlig'a jalisu dilkash.*(Shn.)
- JALLA** *a.* Buyuk bo'lsin, aziz bo'lsin, ulug' bo'lsin (Xudoni ulug'lovchi duo).  
*Qachon izi azza va jalla Odamni yaratmaq tiladi ersa*  
*Jabrailg'a xitob keldi.* (R.)  
**Jalla jalolahu** «Alloh ulug' bo'lsin».  
*Mavlo jalla jalolahu qirq yil yag'mur bermadi, yerdin nabot*  
*undurmadi, xotun o'g'ul-qiz tug'urmadi.* (R.)
- JALO** *a.* Vatanni tark etish, vatandan ajralish.  
**Jaloi vatan** Vatandan ayrilish.  
*Bir kun ushbu yerda ekanda Xoja Abdulmakorimkim, biz-*  
*ningdek jaloyi vatan bo'lub sargardon edi.* (Bn.)  
**Jalo bo'lmoq** Mahrum bo'lmoq.  
*Ishq ila kimki oshno bo'ldi,*  
*Ofiyat mulkidin jalo bo'ldi.*



- JALOL** *a.* Ulug'lik, ulug'vorlik, shukuh.  
*Ulumdin sharafi oxirat emasdur yolg'uz,*  
*Ki munda ham sababi izzatu jalol kamol. (K.)*
- JAM** *f.* Afsonaviy podshoh Jamshid ismining qisqargan shakli.  
*Nazar birla agar Jamsen, gar Osaf,*  
*«Muhabbatnoma» (ni) qilsang musharraf. (Mn.)*
- JAM'** *a.* Yig'ilgan, to'plangan.  
**Jam' bo'lmoq** Yig'ilmoq, to'planmoq.  
*Jam' bo'lishib aylayubon maslahat,*  
*«Do'mag'a, – der, – bir nima berib jo'nat». (M.)*
- JAM'IYAT** *a.* Xotirjamlik, osoyishtalik.  
*Qish bo'ldiyu bo'ldi barcha tomu tosh qor,*  
*Jam'iyati bor kishiga bordur xush qor. (B.)*
- JAMOL** *a.* Husn, ko'rk, chiroy.  
*Jahon tutti jamoling, dod qilg'il,*  
*Bu miskinni birar ham yod qilg'il. (Mn.)*
- JAN** *f. ayn.* Jon.  
*Erajin avinsa yesa el uzun*  
*Butun jan uzulsa yesa ul ajun. (Q.B.)*
- JANG** *f.* Qonli to'qnashuv, urush, savash.  
*Qo'zutti jang bilan olamda to'fon,*  
*Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon. (S.Sar.)*
- JANGAL** *f.* Har xil butalar, o'simliklar bilan qoplangan maydon, changal, changalzor.  
*Sayd jangal ichini qildi talosh,*  
*Yo'li ham tor ediyu ham chirmosh. (S.S.)*
- JANIBATKASH** *f.* Zaxira otni yetaklovchi.  
*Sahni havoda to'shalib mafrashi*  
*Azmda yel xayli janibatkashi.*
- JANNAT** *a.* Diniy e'tiqodga ko'ra xudojo'y, begunoh kishilar rohat-farog'atda yashaydigan u dunyodagi go'zal yer, bihisht.  
*Zohid, sanga huru, manga jonona kerak,*  
*Jannat sanga bo'lsun, manga mayxona kerak. (A.N. Rub.)*
- JANNATIY** *a.* Jannatga oid, jannatga tegishli.  
*Munosibdur seningdek andalibi jannatiy, yo'qsa*  
*Qachon bo'ldi jahon bog'ida har zog'u zag'an nozik. (F.)*
- JANOB** *a.* Martaba, daraja.  
*Xojago Xojaning eshigiga borurlar. Xoja, yo'qtur, deb*

*bermas. Bular ham zo'r bila olmaslar. Xojalarning janobi andin oliy edikim, zo'r qila olg'aylar edi. (Bn.)*

**JANOZA** *a.* Murda, o'lik.

*Hazrati shayx Abu Said Abulxayrdin so'rubturlarki, sizning janozangiz ilayida qaysi oyatni o'qusunlar? (N.M.)*

**JAR** *a.* Xabar.

*Chu el fikridin ko'nglini tindurub,  
Yurush hukmini elga jar yetkurub. (S.I.)*

**JARIDA** *a.* Tanho, yakka.

*O'zi bir necha kishi-qarosi bila jarida qo'rg'onda turdi. (Bn.)*

**JASTA** *f.* **Jasta otmoq** Irg'ishlamoq, sakramoq.

*Kes rishtanikim, qilsun chapaklar otib jasta,  
Hajrida alam tortib, bo'ldi jigari xasta. (F.)*

**JAV** 1. Arpa. 2. *ko'ch.* Kichik, kichkina; oddiy; biroz.

*Bo'lay usrukki bor ollida bir jav,  
Demay Farhodu Shirin, balki Xisrav. (F.Sh.)*

**Jav-bajav** Nuqtama-nuqta, birin-birin, sinchiklab.

*Surub hay'at sori chun fikrati raxsh,  
Sipehr ajzosin aylab jav-bajav paxsh. (F.Sh.)*

**JAVHAR** *a.* 1. Qimmatbaho tosh, gavhar.

*Bilik bilmak ichinda javharisen,  
Vale husn ichra javhardin arisen. (Mn.)*

2. *ko'ch.* Qimmatli bebaho narsa.

*Barcha ko'ngul durji aro javhar ul,  
Barcha og'iz huqqasida gavhar ul. (H.A.)*

**JAVLON** *a.* Jang, urush, savash.

**Javlon qilmoq** Jang qilmoq.

*Muhammad Xo'jabek ulkim Alitek,  
O'kush javlon qilur maydon ichinda. (Mn.)*

**JAVLUG'** Mashhur, dongdor, atoqli.

*Yuzi ko'rki ko'rklug kerak beg yulug  
Bo'di o'rtu bo'lsa ne javlug' kulug. (Q.B.)*

**JAVOB** *a.* So'roqqa qaytarilgan gap, so'z.

*Necha izhori ajz qildi Suhayl,  
Qilmadi kinavar javobig'a mayl. (S.S.)*

**Javob aymoq** Javob qaytarmoq, javob bermoq.

*Javob aydilar: aning uchunkim, men yer sirrindin yaratildim,  
tedi. (R.)*

- JAVONIB** *a.* (*birligi jonib*) Tomonlar, taraflar, tevarak atrof.  
*Yana atrof va javonibdin kelgan xabarlar dag'i barchasi davlatqa muvofiq edi. (Mun.)*
- JAVORIH** *a.* Tana a'zolari, inson organlari.  
*Barcha javorih bila a'zoda teng,  
Surati nav'iyu hayuloda teng. (H.A.)*
- JAVR** *a.* Azob, jabr, jafo.  
*Ko'ngul mehri nazar yo'lindin ortar,  
Nigori javrini jon birla tortar. (Mn.)*  
**Javri raqib** Raqib jabri. **Javri nodon** Nodonlar jabri.  
*Yo'q turur yolg'uz bu Lutfiy jonig'a javri raqib,  
Qayda bir dono durur, ul javri nodon tortadur. (L.)*
- JAVSHAN** Sovut.  
*Alar javshani barcha qalqonduruq,  
Sinon qo'llarida nechukkim suruq. (S.I.)*
- JAYB** *a.* Cho'ntak, kissa.  
*Va bu she'r yetti bayt erdi va musavvada qilib, jaybimg'a solib erdim. (H.P.M.)*
- JAYON** *f.* Vahshiy, yirtqich.  
**Sheri jayon** Vahshiy sher.  
*Bor edi durroje o'shul beshada,  
Sheri jayon vahmidin andeshada. (H.A.)*
- JAZA'** *a.* Sabrsizlik, betoqatlik; dod-u faryod, nola.  
*Jaza' to'fonig'a chun bo'ldi taskin,  
Dedi Shopuri mehnatkashg'a Shirin. (F.Sh.)*
- JAZIRA** *a.* Suv o'rtasidagi quruqlik, orol.  
*Bor edi bir jazira ma'man anga,  
Xalq moli yig'org'a maxzan anga. (S.S.)*
- JAZM** *a.* 1. Aniq, shubhasiz, qat'iy.  
*Holig'a chun nazora qildilar,  
Navdar erkonin jazm bildilar. (S.S.)*  
2. Qat'iy qaror, niyat.  
**Jazm aylamak** Biror ishga bel bog'lamoq, qaror qilmoq, kirishmoq.  
*Chunki farah bazmig'a jazm aylading,  
Ayshu tarab azmig'a bazm aylading. (H.A.)*
- JAZO** *a.* Ayb, gunoh yoki jinoyatga qarshi ko'riladigan chora.  
*Ul haromig'a tig'i kin sursak,  
Keragidek jazog'a tegursak. (S.S.)*

**JAZOYIR** *a.* Suv o'rtasidagi quruqlik, orol.

*Kiribon zavraq ichra soyir o'lub,  
Ul jazoyir to'shida zoyir o'lub.* (S.S.)

**JASHN** *f.* Bazm, ziyofat, o'yin-kulgi shodiyonasi; to'y.

**Jashni azim aylamak** Katta bazm qurmoq.  
*Tilar edi jashni azim aylamak,  
Xaloyiqni g'arqi naim aylamak.* (S.I.)

**JIBA** Sovut, zirh.

*Jibayi jon tiyri rihlatdin so'kulmasdin burun,  
Ey ko'ngul, qasri asosi tan buzulmasdin burun.* (T.F.)

**JIBALIK** Sovutli, zirhli.

*Bir tirgaz otimi yer jibalik, kejimlik ot uzdurub o'ttuk.* (F)

**JID** *a.* Jiddiy, hazil-mutoyibasiz aytilgan, chin, rost.

*She'rimda agar hazl, agar jid, kechurung,  
Yaxshi borida agar yomon bo'lsa, ne tong?!* (B.)

**JIDOL** *a.* Nizo, janjal.

*Murod ma'rifatullohdur taallumdin,  
Emas mubohasau jang ila jidol kamol.* (K.)

**JIGAR** *f.* 1. Bag'ir. 2. ko'ch. Bola, farzand.

*Tig' ila yorib jigarim yonini,  
Yerga oqizdi jigarim qonini.* (H.A.)

**Jigar porasi** Farzand, bola.  
*Shoh qilichi jigarim qildi chok,  
Ul jigarim porasin etti halok.* (H.A.)

**JIGARGO'SHA** *f.* Farzand, bola.

*Shoh xud Mehr ishtiyoqidin,  
Bal jigargo'shasi firoqidin.* (S.S.)

**JIGARXASTA** *f.* Ko'ngli yara, alamli, g'amli.

*Rafiqim jigarxasta afgorlar,  
Alar birla ahli vidod ayladim.* (N.)

**JIHAT** *a.* 1. Taraf, tomon.

*Bu jihatdin murod sori murur,  
Bahrdin ittifoq tushti zarur.* (S.S.)

2. Sabab, bois, vaj.

*Birida sencha ko'rmadim jur'at,  
Jur'ating bo'ldi maxlasingg'a jihat.* (S.S.)

**JIHOT** *a.* Mol-mulk, boylik.

*Korvonning jami' jihotini zabt qildi.* (Bn.)



- III.VA *a.* Go'zal harakat, chiroyli yurish.  
*Maktab sari jilva ayladi soz,*  
*Boshtin-oyog'ig'a husn ila noz. (H.A.)*
- III.VAGAR *f.* Jilva qiluvchi, o'zining butun latofati, go'zalligini ko'rsatuvchi.  
*Zamiring ayla musaffo kadardin oinadek,*  
*Desangki, jilvagar etsun anga jamol kamol. (K.)*
- III.VAGOH *a. -f.* Jilva qilinadigan joy, jilvalanish joyi.  
*Mehrkim, charx xoki rohi edi,*  
*Nilufarzor jilvagohi edi. (S.S.)*
- III.VASOZ *a. -f.* Jilva qilish, jilvalanish.  
**Jilvasoz o'lmoq** Ko'zga yaxshi ko'rinmoq, xush ko'rinmoq.  
*Bazmda soqiylar o'lub jilvasoz,*  
*Ahli g'ino har sori dastonnavoz. (H.A.)*
- JIM *a.* Arab alifbosining sakkizinchi «j» harfi va uning nomi.  
*Jonimdag'i «jim» ikki dolingg'a fido,*  
*Andin so'ng «alif» toza niholingg'a fido. (A.N.Rub.)*
- JINON *a.* (birligi jannat) Jannatlar; jannat.  
**Jinon bog'i** Jannat bog'i.  
*Qoshing, erning, yuzung, ey rashki rizvon,*  
*Hilolu kavsaru bog'i jinondur. (L.)*
- JINS *a.* Tur, xil, nav.  
*Bir jins anor bo'lur. (Bn.)*
- JIRM *a.* Jism.  
**Quyosh jirmi** Quyosh.  
*Toki quyosh jirmi bo'lub nurposh,*  
*Mahfili ayshingda bu yanglig' maosh. (H.A.)*
- JISM *a.* 1. Tan, tana; vujud, organizm.  
*Bo'ldi bir-biriga jism ila jondek,*  
*Yo magar sarvu ishqpechondek. (S.S.)*  
 2. Shakl, ko'rinish.  
*Keldi yilon jismida pechu shikanj,*  
*Muhradur og'zidavu ostida ganj. (H.A.)*
- JODU *f.* 1. Jodugar, sehrigar, afsungar.  
*Ko'ngul shirin so'zungga bo'ldi Farhod,*  
*Ko'zung Kashmir jodusig'a ustod. (Mn.)*  
 2. Sehrli, jozibali, maftunkor.  
*Qilur zulfung qamuq olamni shaydo,*  
*Bo'lur jodu ko'zungdin fitna paydo. (Mn.)*

**JOH** f. Mansab, amal, lavozim.

*Bil munikim, umr vafosiz durur,  
Davlat ila joh baqosiz durur. (H.A.)*

**Joh ahli** Amaldorlar, mansabdorlar.

*Dedikim: kuymagingni ayla ma'lum!*

*Dedi: andin erur joh ahli mahrum! (F.Sh.)*

**JOLA** f. Shabnam, shudring.

*Til bu chamanning varaqi lolasi,  
So'z duraridin bo'lubon jolasi. (H.A.)*

**JOM** f. May piyolasi, qadah.

*Jom bu ahvolingg'a qon yig'labon,  
Sham' kuyub, ashkfishon yig'labon. (H.A.)*

**Jomi Jam** Jamshid qadahi. Podshoh Jamshid buyrug'i bilan yasalgan sehrli qadah.

*Kel, ey soqiy, keturgil jomi Jamni,  
Kishining ko'nglidin may yur g'amni. (Mn.)*

**JON** f. Diniy e'tiqodga ko'ra inson o'lgandan keyin uning vujudidan chiqib ketib, abadiy yashaydigan mavhum narsa.

1. *Sa'y etay to tanimdadur jonim,  
Qilayin toki bo'lg'ay imkonim. (S.S.)*

2. Hayot; yashash.

*Manga sen bo'lmasang, jon hojat ermas,  
Bihishtu huru rizvon hojat ermas. (A.)*

3. *ko'ch.* Sevgili, yor, ma'shuqa, mahbuba.

*Jahonda sentek, ey jonon yo'q, ey jon,  
Sening dardingg'a hech darmon yo'q, ey jon. (Mn.)*

4. *ko'ch.* Kuch, quvvat, mador.

*Qolmag'on chog'da kimsaning joni,  
Turubon band aylagay oni. (S.S.)*

5. Tan, badan.

*Suhayl bordi toparg'a suvg'a, dong'a,  
Vale darmon berolmay qoldi jong'a. (S.Sar.)*

**Jon olmoq** O'ldirmoq.

*Agar ko'nglung tilar jonimni olmoq,  
Qaroqchi ko'zlarindin bir qiyo boq. (A.)*

**Jona kelmak** Jondan to'ymoq.

*Umr mehnat bilan poyona keldi,  
Ko'ngul javring elindin jona keldi. (Mn.)*



**Jondin ilik yumoq** Jondan umidini uzmoq.

*Kim, inoyat yo'q ersa yazdondin*

*El kerakdur yumoq ilik jondin. (S.S.)*

**Jonig'a qasd qilmoq** O'ldirish uchun harakat qilmoq, suiqasd qilmoq.

*Qilur o'z jonig'a qasd, o'zi boyiq,*

*Gadoyekim bo'lur sultona oshiq. (Mn.)*

**Joni jahon** Jahon go'zali.

*Salomimni tegur ul dilsitong'a,*

*Rahmsiz bevafo joni jahong'a. (Mn.)*

**JONBAXSH** *f.* Hayotbaxsh, ruhan tetiklantiruvchi; rohatbaxsh.

*Zihi nutqung takallum vaqti jonbaxsh,*

*Masiho yanglig' anfosing ravonbaxsh. (F.Sh.)*

**JONFIZO** *f.* Jonga rohat bag'ishlovchi, quvvatlantiruvchi, orom beruvchi.

*May ichardin g'araz navosi aning,*

*Jilvai husni jonfizosi aning. (S.S.)*

**JONGUDOZ** *f.* Jonni qiynovchi, jonga azob beruvchi.

*Kuymagan ishq ichra ermas ishqboz,*

*Oshiq ermas ulki ermas jongudoz. (L.T.)*

**JONIB** *a.* Taraf, tomon.

*Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'iy kela olmas.*

*(Bn.)*

**JONIY** *f. -a.* Jonga oid, jonga tegishli.

*Dedikim: ayo rafiqi joniy,*

*Yo'q-yo'qki anisi jovidoniy. (L.M.)*

**JONKOH** *f.* Jonni qiynovchi, jonni o'rtovchi.

*Hasrat ovuchini qoqib, chekib oh,*

*Kim tortar edi fig'oni jonkoh. (L.M.)*

**JONNAVOZ** *f.* Yoqimli, xush, erkalovchi.

*Takallum qilib shah base jonnavoz,*

*Demay jonnavoz, ayt mehmonnavoz. (S.I.)*

**JONON** *f.* 1. Sevgili, ma'shuqa, mahbuba, nozanin.

*O'lumdur bizga jononsiz tirilmak,*

*Mahol erur tana jonsiz tirilmak. (Mn.)*

2. Juda kelishgan, yoqimli, barno.

*Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,*

*Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim. (U.)*

**JONONA** *f.* 1. Ma'shuqa, mahbuba, sevgili.

*Kel, ey soqiy, ketur paymona bizga,  
Inoyatlar qilur jonona bizga. (Mn.)*

2. Alloh, xudo.

*Bu tani xokiniyu ruhi ravonni na qilay?!*

*Bo'lmasa qoshimda jonona, bu jonni na qilay?! (Mash.)*

**JONPARVAR** *f.* Jon kirgizuvchi, quvvat beruvchi, jonlantiruvchi.

*Jamoling naqshina Sayfi Saroyi bog'ladi surat,*

*Na surat surati husno, na husno, husni jonparvar. (S.Sar.)*

**JONSO'Z** *f.* Jonni kuydiruvchi, jon o'rtovchi.

*Orazi mash'ali jahonafro'z,*

*Partavi shu'lasi kelib jonso'z. (S.S.)*

**JORIY** *a.* 1. O'tadigan, yuradigan.

*Hukm joriy, so'z qabuli, bir duri dargo'sh edim,*

*Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdo'sh edim. (T.F.)*

2. Oqadigan, oqar, oquvchi.

*Ochg'och-o'q joriy bo'lub keldi qanotlig' qush kibi,*

*Kaf bila amvojdin go'yo chiqordi bol suv. (K.)*

**JOVID** *f.* Abadiy, mangu.

*Avfin aning tutmasang ummid sen,*

*Bilki tamug' o'tida jovid sen. (H.A.)*

**Davlati jovid** Abadiy davlat.

*Taxting o'lub davlati jovidi mulk,*

*Soyai chatring aro xurshedi mulk. (H.A.)*

**JOVIDONA** *f.* Abadiy, doimiy, mangu.

*Kim asru bevaforur bu zamona,*

*Jahon qolmas kishiga jovidona. (Mn.)*

**Ishqi jovidona** Abadiy ishq.

*Yozmoqqa bu ishq jovidona,*

*Maqsudum emas edi fasona. (L.M.)*

**JOY** *f.* Maskan, vatan, uy-joy.

*Aning yonida bir yog'ochliq yerda Yapaloqqush maskani*

*ota-bobosidin qolg'on joyi bor edi. (Zm.)*

**JOYNISHINLIQ** Boshliqning o'rniga o'tirishlik, merosxo'rlik, vorislik.

*Bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a*

*va valiahdlig'ig'a nasb qildim. (Bn.)*

**JUBBA** *a.* Maxsus qishki kiyim; to'n, chopon.

*(chopon so'zi ham ushbu jubba so'zidan kelib chiqqan).*

*Muzaffar mirzo bir kamar shamshir, bir qo'zi jubba, bir bo'z tupchoq manga berdi. (Bn.)*

**III LAMOQ** Ortmoq, yuklamoq.

*Bir kuni ul tevasini qumladi,  
Ortadig'an yuklarini jubladi. (Zm.)*

**II IRUNDI** Chuvrindi, qashshoq.

*Aqrabolar suhbatimdin or edar, qoshin chatar,  
Salb dillarda, nazarlarda karih suprundiman. (T.F.)*

**II D a.** In'om, ehson.

*Seni judu ehsona targ'ib etib,  
Xitobingni xayruljavod ayladim. (N.)*

**II DO a.** Ayriliq, firoq, ayrilish.

*Judo bo'lg'oli men zulfu yuzungdin,  
Ko'zumga ne qaro ko'rundi, ne oq. (A.)*

**JUDOLIG'** Ayriliq, hijron.

*Qorong'u bo'ldi olam ko'zuma ushbu judolikdin,  
Ko'zu ko'nglum ziyosi mohi tobonimni sog'indim. (U.)*

**JUFT f.** Ikki dona, ikkita.

*Farmon keldi: «Tekma bir tanlig'din birar juft olib kemiga  
kivurgil». (R.)*

**JULDU** Katta harbiy xizmatlar uchun beriladigan in'om, mukofot.

*Turkman hazorasini darai Xushta chopqonda Qosimbek  
bovujudi qariliq yigitlardin yaxshiroq yurugan jihatidin,  
Bangish viloyatini juldu berdim. (Bn.)*

**JUMLA a.** Barcha, hamma, bari.

*Jumla farishtalar sajda qildilar. (R.)*

**JUNG** Katta kema, ulkan kema.

*Yuklabon necha jung aro amvol,  
Anda mavjud har ne qilsa xayol. (S.S.)*

**JUNUN a.** Jinnilik, telbalik; oshiqlik, shaydolik.

*Maqomi hayrat ichra gohi xudman, gohi bexudman,  
Junun bozorida mastmanki, istig'nog'a sig'mamdur. (Mash.)*

**Junun ilmida** Majnunlikda, oshiqlikda, oshiqlik bobida.

*Senga, ey Majnun, junun ilmida taslim aylaram,  
Sen rasolardin biri, men norasolardin biri. (G.)*

**Junun vodiysi** Jinnilik.

*Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,  
Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zgorimni. (G'.S.)*

- JUR'A** *a.* Qultum, yutum (ichkilik haqida).  
*Aning jur'asi seni mast aylabon,*  
*Demay mastkim, mayparast aylabon. (S.I.)*
- JUR'AKASH** *a. -f.* Ichuvchi, no'sh etuvchi (may haqida).  
*Bukun Farhod ul ozodavashdur,*  
*Ki yo'qluq bodasidin jur'akashdur. (F.Sh.)*
- JUR'AKASHLIK** Ichkilikbozlik, mayxo'rlik.  
*Jur'akashlik dinlari va kofirvashlik oyinlari. (M.Q.)*
- JUR'AT** *a.* Qo'rqmasdan qilingan xatti-harakat, jasorat, jasurlik.  
*Birida sencha ko'rmadim jur'at,*  
*Jur'ating bo'ldi maxlasingg'a jihat. (S.S.)*
- JURM** *a.* Gunoh, ayb; jinoyat.  
*Jurmu gunahdin kishi ma'sum emas,*  
*Tarkini tutmoq dog'i mazmum emas. (H.A.)*
- JURMONA** *a. -f.* Qonunga xilof xatti-harakat uchun olinadigan pul, jarima.  
*Agar oshiqlik'im jurm erdi o'ltur, solma hijrong'a,*  
*Ko'p o'lsa jurm, xud ermas ravo jurmona andin ko'p. (F.K.)*
- JURQUNDI** Xokisor, qashshoq.  
*Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldum firibi qirqqa,*  
*Hokimi Dizzax mutiu payravi jurqundiman. (T.F.)*
- JUVOL** *f.* Qop, xalta.  
*Juvol ichinda buztak qaqshasa, so'nguklari terisi ichinda andog' qaqshayur erdi. (R.)*
- JUVONG'OR** Qo'shinning chap qanoti.  
*Yetgan bila burunroq bizning juvong'or kishisi aning burong'ori bila ilik olishti. (Bn.)*
- JUZ** *a.* Boshqa, o'zga, bo'lak.  
*Qolmadi juz dardu g'am hamdam, musohib qoshima,*  
*Haq o'zi rahm aylagay, ohi sahar, ko'z yoshima. (T.F.)*
- JUZV** *a.* Parcha, qism, bo'lak.  
*Ki bir juzvig'a chunkim bo'ldi tolib,*  
*Xirad tab'ig'a hayrat bo'ldi go'lib. (F.Sh.)*
- JO'Y** *f.* Ariq.  
*Magar Shiring'a bo'ldi orzuyi,*  
*Chiqarmoq xora ichra turfa jo'yi. (F.Sh.)*
- JO'SH** *f.* Qaynoq; o'tkir, kuchli.  
*Qiblagoho, mandin ikroh etma bir mayxoradin,*  
*Jo'sh pur xum sof maysan, man g'ubori durdiman. (T.F.)*



## Kk

**KABA** *a.* 1. Makka shahridagi Masjidi Haram o'rtasidagi musulmonlar ziyorat qiladigan muqaddas inshoot.

*Taxt uza bir kursi erdi, Ka'ba tengicha erdi. (R.)*

2. Eng aziz va muqaddas hisoblangan joy.

*Bunda turdi har ulusning har sasi,*

*Butxonasi, o't uyasi, ka'basi. (Fit.)*

3. Ko'ngil, dil.

*Bu xusron baski, chun g'am rudi tuzdum,*

*Sirishkim selidin ka'bamni buzdum. (F.Sh.)*

**KABUTAR** *f.* Kaptar.

**Kabutari haram** Ko'ngil.

*Ko'nglum qushi toyiri hariming,*

*Sayd etma kabutari haramni. (Amir.)*

**KAD** 1. Yaxshi, durust, ezgu.

*Neku ter eshitgil ey elchi bashi*

*Orug kad ko'ngullug sinamish kishi. (Q.B.)*

2. Aslo, mutlaqo, zinhor.

*Qilich baldu o'q ya qavi kuch yurak*

*Bar erkan kad er nenga qo'rqmas kerak. (Q.B.)*

**KADAR** *a.* Qayg'u, g'am, g'ussa, gina, kudurat.

*Zamiring ayla musaffo kadardin oinadek,*

*Desangki, jilvagar etsun anga jamol kamol. (K.)*

**KAF** *f.* Ko'pik.

*Ochg'och-o'q jori bo'lub keldi qanotlig' qush kibi,*

*Kaf bila amvojdin go'yo chiqordi bol suv. (K.)*

**KAFAN** *a.* Murdani o'rab ko'mish uchun ishlatiladigan oq mato.

*Manga ul dunyoda jannat ne hojat,*

*Eshiging tufrog'i basdur kafanda. (A.)*

**KAHRABO** *f.* 1. Sariq rangli bir ma'dan.

*Erning aqiqi garchi jahonda yagonadur,*

*Chehram mengizli ham yana bir kahrabo qani. (S.)*

2. Sariq, za'faron.

*Yordin ayru mango ko'p mojaro aylar falak,*

*G'am ila guldek yuzumni kahrabo aylar falak. (N.)*

**KAJ** *f.* Egri, qing'ir.

*Xarob o'lsun, iloho, gunbazi davvor charxi dun,*

*Ki, doim davri kajdur, tavri shumum hay'ati vojun. (Og.)*

**KAJLIK** Egrilik, qing'irlik.

*Davr chu kajlikka qilur iqtizo,*

*Sen tilasang rost, emastur rizo. (H.A.)*

**KAJRAFTOR** *f.* Egri yuruvchi, ters yuruvchi, ters aylanuvchi.

*Faryodkim, garduni dun*

*Aylar yurak-bag'rimni xun.*

*Ko'rdiki, bir ahli funun*

*Charx anga kajraftor ekan. (M.)*

**KAJRAV** *f.* Egri yo'lga kirgan, egri yuruvchi, qing'ir, nopok.

*Har kishikim, tuzluk erur peshasi,*

*Kajrav esa charx ne andeshasi? (H.A.)*

**KALOM** *a.* 1. So'z, gap, nutq.

*So'zni, Muqimiy, kerak etmak tamom,*

*Mazzasi qolmas uzun o'lsa kalom. (M.)*

2. Kalomullo, qur'on.

*Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,*

*Bo'lmas edi tengri kalomida nazm. (H.A.)*

**Kalom surmak** Gaplashmoq, so'zlashmoq.

*Shaharning o'rtasida qildi maqom,*

*Shaharning xalqi bila surdi kalom. (Shn.)*

**Kalomi fasih** Chiroyli, yoqimli so'z, ochiq, ravshan so'z.

*Agar jon emas, bas nedurkim, Masih,*

*O'luk tirguzur deb kalomi fasih? (G'.S.)*

**KALONTAR** *f.* Mahalla oqsoqoli; boshliq, sardor.

*Men bir kalontarining uyiga tushtum, qari kishi edi. (Bn.)*

**KALOG** *f.* Olaqarg'a.

*Borib anda ko'k qarg'a – zog'e kelib,*

*Ketib to'ti, ammo kalog'e kelib. (S.I.)*

**KAM** *f.* 1. Ko'p emas, oz.

*Zulmung emas erdi xaloyiqqa kam,*

*Kim qiladursen ani o'zungga ham. (H.A.)*

2. Biror xislati, xususiyati jihatidan ora-sira uchraydigan, siyrak, nodir, noyob.

*Shahlar aro bo'yla sifat kam durur,*

*Kim shahi G'oziyg'a musallam durur. (H.A.)*

**Kam-u ko'stliq** Kam-ko'stlik, yetishmovchilik, kamchilik.

*Kimki bu davronda qilur rostliq,*

*Yo'qtur ishi g'ayri kam-u ko'stliq. (H.A.)*



**KAMALAK** *f.* Yoy.

*Xalqini ko'rsang agar o'lasiyu, qoqu xarob,  
Ochlikdin egilib qomati misli kamalak. (Max.)*

**KAMAND** *f.* 1. Sirtmoqli arqon, sirtmoq.

*Sening ishqing kamandi bizni tortar,  
Jamoling ravnaqi olamni o'rtar. (Mn.)*

2. Arqon.

*Chiqti dog'i eshib kamandini chust,  
Bog'lab oning ilik-ayog'ini rust. (S.S.)*

**KAMAR** *f.* Charm belbog', qayish.

*Kimki maxluq xizmatig'a kamar,  
Chust etar yaxshiroq ushalsa beli. (A.N.Qit.)*

**KAMIN** *f.* Pana joy, pistirma.

*Qo'yub erdi kaminda Jobir nev,  
Kinavarlar masof vaqtida dev. (S.S.)*

**KAMINA** *f.* Kamtarlik yuzasidan «men» olmoshi o'rnida ishlatiladi.

*Dedim: «Kamina itingmen», kulub manga aytur:  
«Navoiyo, ne balo xudnamo emishtuksen?» (G'.S.)*

**KAMINGAH** *f.* Pisib, poylab yotiladigan joy, pistirma.

*Vahm oldi qarorini shahdin,  
Ki, aduv chiqmag'ay kamingahdin. (S.S.)*

**KAMOH** *a.* To'liq, aniq.

*Xiromon har taraf yuz turfa mohi,  
Xirad mohiyatin bilmay kamohi. (Mu.)*

**KAMOL** *a.* Komillik, mukammallik, yetuklik.

*Lek hunar ichra, kamol ichra ham,  
Xulqi xushu lutfi maqol ichra ham. (H.A.)*

**KAMYOFT** *f.* Kam topiladigan, kamyob, taqchil, kamchil.

*Otqa bo'g'uz kamyoft bo'ldi. (Bn.)*

**KAMZIHUR** Kamzul.

*Za'faroniy ko'ylak uzra arg'uvoniy kamzihur,  
Ro'ymol og'ushidin peshonaning ahvoli tang. (F.)*

**KANIZ** *f.* Xizmatkor ayol, cho'ri.

*Yoshurun tiyra uyga ul dilxoh,  
Kirdi ikki kaniz anga hamroh. (S.S.)*

**KANORA** *f.* 1. Chet, qirg'oq.

*Farg'ona viloyati beshinchi iqlimindur, ma'muraning  
kanorasida voqe' bo'lubtur. (Bn.)*

2. Chegara, cheku chegara, chek.

*Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay,  
Ohima ham shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.* (Og.)

**Kanora tutmoq** Qochmoq, ketmoq, chetlamoq.

*Uyqu ko'zidin tutub kanora,*

*Har kirpiki uyqug'a katora.* (L.M.)

**KAPA** f. Vaqtincha yashash uchun shox-shabbalardan qurilgan pastqam, ko'rimsiz uy, chayla.

*Boru yo'q uylarini, banda, bayon gar qilsam,*

*Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak.* (Max.)

**KAPALAK** Ikki qanotli, xolli, uchuvchi hasharot.

*Turfa qishloqi g'azabkardaki, parrandalari,*

*Tovug'i ignachiyu, o'rdagu g'ozikapalak.* (Max.)

**KAR** f. Qulog'i yaxshi eshitmaydigan yoki umuman eshitmaydigan; qarquloq.

*Temur Urganja tortib keldi lashkar,*

*Ko'rub ko'z ko'r, bo'lub qoldi quloq kar.* (S.Sar.)

**KARAM** a. Mehribonlik, mehr, muruvvat.

*Xoh tanobingni du chandon qilay,*

*Xoh karam birla boshingni silay.* (M.)

**KARAMSIZ** Himmatsiz, muruvvatsiz.

*Yemishsiz yig'ochtek karamsiz kishi,*

*Yemishsiz yig'ochni kesib, o'rtagil.* (H.H.)

**KARASHMA** f. Noz, ishva, noz-karashma.

*Qachon la'ling qadahlar no'sh qilg'ay,*

*Karashmang bandani madhush qilg'ay.* (Mn.)

**KARIH** a. Kishi jirkanadigan, jirkanch, chirkin.

*Aqrabolar suhbatimdin or edar, qoshin chatar,*

*Salb dillarda, nazarlarda karih suprundiman.* (T.F.)

**KARIM** a. Saxiy, saxovatli; olijanob, yaxshi.

*Bu nav' saxo ahli karimdur.* (M.Q.)

**Karim ul-axloq** Yaxshi xulqli.

*Bobur Mirzo-darveshvaish va foniysifat va karimul-axloq kishi edi.* (M.N.)

**KARK** f. Karkidon.

*Gahi babr urub, goh sher o'lturub,*

*Va gar pilu kark ul daler o'lturub.* (S.I.)

**KARKAS** f. O'limtik bilan oziqlanadigan, uzoq yashaydigan yirik qush, qora grif.



*Dunyo mening deganlar, jahon molin olg'onlar,  
Karkas qushdek bo'lubon ul haromg'a botmishlar. (A.Y.)*

**KARNAY** *f.* Misdan yasalgan uzun, puflab chalinadigan musiqa asbobi.

*Karnay misdin, balg'am isdin bo'lurini bilmas ekansiz. (Zm.)*

**KAROMAT** *a.* Muruvvat, himmat, saxiylik.

*Himmating yo'lida bir kapa karomat qilg'il,  
Kapalak boz qo'nub, joyig'a bo'lg'ay Hapalak. (Max.)*

**KAS** *f.* Kishi, odam.

**Hech kas** Hech kim, hech kishi.

*Manga bu bekaslik emas erdi bas.*

*Kim chiqibon har sari bir hech kas. (S.I.)*

**KASB** *a.* O'rganish, egallash. **Kasb etmak** O'rganmoq.

*Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,  
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm. (F.Sh.)*

**KASOFAT** *a.* Ifloslik, jirkanchlik, yomonlik.

*Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,  
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. (A.N.Qit.)*

**KASRAT** *a.* Mo'llik, ko'plik, seroblik.

*Sabza rayohin, anvoyi gullar, chechaklar kasratidin  
qo'rg'ong'a qo'ng'on chog'da tovuслarning parlaridek  
turlanib, munaqqash ko'runur erdi. (Zm.)*

**KATALAK** Katakday tor, kichik, ko'rimsiz uy.

*Boru yo'q uylarini banda bayon gar qilsam,  
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak. (Max.)*

**KATON** *f.* Kanopdan to'qilgan mato, qimmatbaho kiyim.

*G'aniyg'a chapon kiymak andoqdurkim, muflisg'a atlasu  
katon kiymak. (M.Q.)*

**KATORA** *f.* O'tkir qilich.

*Falak boshig'a urdi bir katora  
Ki, to ko'ksiga bo'ldi ikki pora. (F.Sh.)*

**KAVKAB** *a.* Yulduz.

*O'yla bahri falakmisol ichra,  
Kavkabi yer tutub hilol ichra. (S.S.)*

**KAVKABA** *a.* Yulduz.

**Kavkabai davri falak** *ko'ch.* Olam podshohi; podshoh.

*Ey jahondori zafar kavkabai davri falak,  
Go'sh qil qissai qishlog'i xarobi Hapalak. (Max.)*

**KAVNAYN** *a.* Ikki dunyo, bu dunyo va u dunyo, bu dunyo va oxirat.

*Gah o'rus, gohi cherkas, gohi mo'min, gohi tarsoman,  
Ne kavnayn miyoni lou illollog'a sig'mamdur.* (Mash.)

**KAVOKIB** *a.* (*birligi kavkab*) Yulduzlar.

*Bo'l shod-u xurram, ey ko'ngulkim, mavsumi navro'z erur,  
Shohi kavokib adlining ayni jahonafro'z erur.* (Og.)

**KAVSAR** *f.* Diniy ishonchga ko'ra jannatdagi suvi tiniq, oppoq, asalday shirin bo'lgan buloq.

*Ko'ngulning qoni qaynab barcha toshqay,  
Ko'zumning yoshidin kavsar buloshqay.* (Mn.)

**KAZZOB** Yolg'on gapiruvchi, aldoqchi, aldovchi, yolg'onchi.

**Kazzobuna lo ummati** «Kazzoblar ummatim emas».

*Sidq ila urg'anda salo ummati,  
Oyati «Kazzobuna lo ummati».* (H.A.)

**KEJIM** Jangda otga kiydiriladigan o'q o'tmaydigan maxsus metall yopinchiq.

*Vale bodpolarg'a solg'an kejim.* (S.I.)

**KEJIMLIK** Kejim kiydirilgan, kejimli.

*Kejimlik-o'q suvg'a kirduk. Yarimidin ko'prak yayab-o'q  
kelildi. Andin so'ngra uzdurma edi.* (Bn.)

**KELILMAK** *Kelmak* fe'lining o'zlik nisbati; kelinmoq.

*Hech qachon Hinduston yurushida muncha cherik bila  
kelilmaydur edi.* (Bn.)

**KELMAK** 1. Yurib yoki transport vositalari bilan so'zlovchi turgan joyga yaqinlashmoq.

*«Menga yavuvroq kelgil», teb undadi.* (R.)

2. Paydo bo'lmoq, nasib bo'lmoq, boshiga tushmoq.

*Anga keldi sharaf mard o'lmag'indin,  
Na kelgay erdi qo'rquq qolmog'indin.* (S.Sar.)

3. Eshitilmoq.

*Xitob keldi: «Ey farishtalar, sizlarga aymadimmu man bilganni sizlar bilmassiz», teb.* (R.)

4. Uchramoq.

*Xabarda andog' kelur: Odamg'a so'rdilar: «Naluk Odam atanding».* (R.)

5. Yetmoq, paydo bo'lmoq.

*Burnig'a keldi ersa bir axsurdi.* (R.)

6. Ba'zi so'zlar bilan birga kelganda «bo'lmoq» ma'nosida ishlatiladi.

*Qaddikim naxli sarfaroz kelib,  
Husn bog'ida sarvinoz kelib. (S.S.)*

**KULTURMAK** Olib kelmoq, keltirmoq.

*Xishtini masjid buzubon kelturub,  
Toshini el marqadidin yetkurub. (H.A.)*

**KEMA** Suvda suzadigan, yuk va odam tashiydigan transport vositasi.

*Kemada mushuk, sichqon, uchunchi to'ng'uz yo'q erdi,  
daryo ichinda bo'ldi. (R.)*

**Kema ahli** Kema ichidagi odamlar, kemadagilar.

*Ular kirib zavraqig'a ayladi azm,  
Bo'lub ul kema ahli qatlig'a jazm. (S.S.)*

**KEMI** ayn. Kema.

*«Ey Kan'on musulmon bo'l, kemiga kirgil to'fon suvi halok  
qilmasun» tedi. (R.)*

**KEND** s. Shahar; kent.

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman  
Anin tutsa el kend ko'tursa tuman. (Q.B.)*

**KENGLIK** Bag'rikenglik, olijanoblik.

*Tor ko'ngullik beklar, man-man demang kenglik qiling,  
To'qson ikki bo'vli o'zbek yurtidur, tenglik qiling. (T.F.)*

**KERAK** 1. Darkor, lozim, zarur.

*Ko'ngulga jondin ortuqroq keraksen,  
Pariyu hurdin ham ko'rkluroqsen. (Mn.)*

2. ...bo'lishi kerak, ...bo'lishi lozim.

*Beg'alchaq kerak bo'lsa qutqi ko'ngul  
Muniteg yo'q ersa sen andin to'ngul. (Q.B.)*

**KERAKLIK** Kerak bo'lishlik; kerak, lozim.

*Dedi «O'z mulkunguzga azm etingiz,  
Jon keraklik esa ravon ketingiz!» (S.S.)*

**KERISH** G'avg'o, tashvish.

*O'kush sevmaguchi sevari az ul  
Kerishi telimrak eraji az ul. (Q.B.)*

**KESAK** Bo'lak, parcha.

*Bir kesak yerdin uch yuz yuk bug'doy chiqar erdi. (R.)*

**KESGULUK** Kesilishi kerak, kesishga loyiq.

*Va egrilik nafyida kim agar egri kishi zulfdek siymbarlar  
yuzida yer tutarkim, boshi kesguluk durur. (H.A.)*

**KESILMAK** Qirqilmoq.

*Chun xushomad demakni boshlasa, kosh  
Kim tutulsa dami, kesilsa tili. (A.N.Qit.)*

**KESMAK** 1. O'tkir asbob bilan bo'laklarga ajratmoq, qirqmoq.

*Qarlug'och singak og'zin yizlayur bo'lub tumshuqi birlu  
singak tilin kesib oldi. (R.)*

2. So'ymoq (qovun, tarvuz haqida.).

*Bu fursatta bir qovun kelturub erdilar, kesib yegach, g'arib  
ta'sir qildi, tamom yig'lab yedim. (Bn.)*

**KESTAN** Bir urush qurolining nomi.

*Qaysi o'q ichida jon topshurdi,  
Qaysi kestanga ko'zin oldurdi. (Sh.)*

**KESTURMAK** Kestirmoq, qirqtirmoq.

*Kesturub beshani ochilg'ali yo'l,  
Cherigin eltur erdi ilgari ul. (S.S.)*

**KETARMAK** Ketkazmoq, ketkizmoq.

*Dayr piri qulimenkim may ila,  
G'ayr naqshini ko'nguldin ketarib. (N.Sh.)*

**KETMAK** 1. Turgan yerini tark etmoq, jo'namoq.

*Ki: «Kerak bo'lsa sizga jon ketingiz!  
Qaydakim ko'nglunguz tilar yetingiz! (S.S.)*

2. Tamom bo'lmoq, bitmoq, tugamoq.

*Umr bu ishlar so'ngicha ketti, tut,  
Marg nihibi boshingg'a yetti, tut. (H.A.)*

3. Yo'qolmoq, yitmoq, arimoq.

*Qayu elka bo'lsa bu yanglig' begi  
Qutuldi ul el buduni ketti igi. (Q.B.)*

4. Tushmoq, tushib qolmoq, olib tashlanmoq.

*Beg ati bilig birlu bag'liq turur  
Bilig lam(i) ketsa beg ati qalur. (Q.B.)*

5. Bormoq.

*Har ne desam qabul etarsenmu?  
Qayon aytsam ravon ketarsenmu? (S.S.)*

**KETTURMAK** Ketkazmoq, ketkizmoq, yo'qotmoq.

*Kasrati yo'qluq, tama' ketturdi qadru qiymatim,  
Yuz sarig'liq yerga urdi obro'yu izzatim. (T.F.)*

**KETURMAK** Olib kelmoq, keltirmoq.

*Borg'il, yer yuzidin bir uvuch tuproq keturgil. (R.)*

**K-EY** «Ki ey» ning she'r vazni talabiga binoan qisqargan shakli.

*K-ey bashar xilqatu farishta sifot,  
Bergan o'lgan tanimg'a toza hayot. (S.S.)*

**KEYNICHA** Orqasidan, ketidan, izidan.

*Keynicha ixtiyorsiz chopti,  
O'q otarg'a qarorsiz chopti. (S.S.)*

**KEZIN** Keyin, so'ngra, so'ng.

*Kemidin chiqmishti kezin yilon kelib, mendin ul etni qo'zdi.  
(R.)*

**Anda kezin** Undan keyin, shundan so'ng.

*Anda kezin jon ko'kuzinga keldi... Anda kezin qorning'a  
keldi ersa, qorni taom tiladi. (R.)*

**KEZMAK** Sayr qilmoq, aylanmoq.

*Jabrail tizgin tutub, Mekoil so'g'undin, Isrofil so'lundin  
bo'lub ko'klarni kezdilar. (R.)*

**KECH** 1. Kecha, tun.

*Bu kech sengayu menga keldi bir gez,  
Dedi Suhaylg'a Guldursun, turub tez. (S.Sar.)*

2. Kechikib, kech qolib.

*Kech kelur fikridin eduk g'amnok,  
Yetmagan anda bizni etti halok. (S.S.)*

3. Uzoq vaqt mobaynida, uzoq muddat, uzoq.

*Ko'ngul tuzsa beglar yuritsa to'ru  
Bu beglik buzulmas turur kech o'ru. (Q.B.)*

**KECHA** 1. Kunning qorong'u tushgandan tong otgunga qadar bo'lgan qismi, tun.

*Fikrdin kecha ko'zni yopmas edi,  
Chora ko'p istar erdi, topmas edi. (S.S.)*

2. Bugundan oldin o'tgan kun, bugundan oldingi kun.

*Kecha go'yo eshitib shuhrati tillo pulini,  
Hapalak qo'rqusidin ucti misoli kapalak. (Max.)*

**KECHA-KUNDUZ** 1. Kechasi ham, kunduzi ham, kechasi va kunduzi, kecha va kunduz.

*To bu yanglig' necha kecha kunduz,  
Yel surar erdi kemalarni tuz. (S.S.)*

2. Doimo, hamisha, tinmay.

*Kecha-kunduz yo'lig'a muntazirdurman, tikarman ko'z,  
Kelib holim so'rubon ketsa, mehmonimni sog'indim. (U.)*

**KECHIN** Kechki payt, kech.

*Kechin bo'lg'ach, borib posbong'a o'tru,  
O'zin xohishin aytti anda o'tru. (S.Sar.)*

**KECHMAK** 1. Asosan suyuqlik, shuningdek qor, loy kabi narsalar ustidan o'tmoq.

2. O'tmoq.

*Umr kechti qamug' savdo ichinda,  
Necha yuzgay kishi daryo ichinda. (Mn.)*

3. Bahridan o'tmoq, voz kechmoq.

*Seni ko'rsa kechar tarso sanamdin,  
Vujudqa kelmadi sentek adamdin. (Mn.)*

4. Qaytmoq, voz kechmoq.

*Zol kechib da'viyu dostonidin,  
Yo'qki o'g'ul qonidin, o'z jonidin. (H.A.)*

**KECHURMAK** 1. Boshidan o'tkazmoq, boshidan kechirmoq.

*Neku ter eshitgil bilig bilmish er  
Bashinda kechurmish o'kush uqmish er. (Q.B.)*

2. Afv etmoq, gunohidan o'tmoq.

*Beg alchaq kerak bo'lsa ko'ngli achuq  
Yazuqlug' kishidin kechursa yazuq. (Q.B.)*

**KI** Ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchidir; kim.

*Kemasi lekin ul taraf ketti,  
Ki, burun o'g'li kemasi yetti. (S.S.)*

**KIBI** Kabi, singari.

*Kirdi zavraqqa Jobiri xunrez,  
Yel kibi qo'ydi yuz alar sori tez. (S.S.)*

**KIBOR** a. (*birliги kabir*) Kattalar, yoshi kattalar; ulug'lar.

*Olam aro muncha sig'oru kibor,  
Men bo'layu sen bo'lu har kimki bor. (H.A.)*

**KIBRIYO** a. Ulug'lik, buyuklik.

*Zihi tojingg'a gavhari kibriyo,  
Bu gavhardin ofoq topib ziyo. (B.V.)*

**KILK** f. Qamish qalam; qalam.

*Kilk o'larda varaqnigor manga,  
Qayda bor erdi ixtiyor manga?(S.S.)*

**KIM I** 1. Shaxs haqidagi so'roqni bildiradi.

*Yiqildi tashna Guldursun ochindin,*

*Ko'mak kimdin kelur, cho'l ichra kimdin? (S.Sar.)*

2. Nisbiy olmosh vazifasini bajaradi.

*Bayat kimka bersa bu beglik ishi*

*Berur og' ko'ngul ko'r ul ishka tushi. (Q.B.)*

**KIM II** Ergash gapni bosh gapga bog'laydi; ki.

*O'zga xud bo'ldi ul sifat behad,*

*Kim, dimog'idin ucti hushu xirad. (S.S.)*

**KIMARSA** Kimsa, odam, zot.

*Qachon Odamni ujmohqa kivurdilar esa, ne'matlarin, hurlarin... ko'rdi, ammo o'zinga mengzayur kimarsa yo'q uchun ko'ngli to'lonmadin... bo'lub, ujmoh ichinda yuriyur erdi. (R.)*

**KIMI** Ba'zisi, ba'zilari, ayrimlari.

*Ul sababdin Odam o'g'lonlari bir-biringa mengzamazlar, kimi arig', kimi arig'siz, kimi iglik, kimi igsiz... (R.)*

**KIMSA** Biror shaxs, odam, kishi.

*Qolmag'on chog'da kimsaning joni,*

*Tutubon band aylagay oni. (S.S.)*

**KIMYO** a. Noyob, qimmatbaho narsa.

*Dedi: Ol ganju qo'y mehrin nihoniy,*

*Dedi: Tufroqqa bermon kimyoni. (F.Sh.)*

**KIN I** f. I Kek, adovat, dushmanlik, g'animliq.

*Yetkach – o'q bo'ldi razmu kinpardoz,*

*Qildilar kin alar dog'i og'oz. (S.S.)*

**KIN II** Mushk, yipor.

*Elig aydi uqtun bu so'z barcha chin*

*Ko'ni so'zlading so'z yipar burdi kin. (Q.B.)*

**KINA** Kek, adovat, g'araz, dushmanlik.

*Aylay olmas kishi xalosima mayl,*

*Ko'shishu kina birla g'ayri Suhayl. (S.S.)*

**KINAVAR** f. Kek saqlovchi, kekchi; dushman, g'anim.

*Qo'yub erdi kaminda Jobir nev,*

*Kinavarlar masof vaqtida dev. (S.S.)*

**KINPARDOZ** f. Dushmanlik qiluvchi, o'ch oluvchi.

*Yetkach – o'q bo'ldi razmu kinpardoz,*

*Qildilar kin alar dog'i og'oz. (S.S.)*

**KINXOH** f. Kek saqlovchi, kekchi, o'ch oluvchi.

*Damim yo'lini tut, ey charxi kinxoh,*

*Ki, bordi emdi chekmak nolavu oh. (F.Sh.)*

**KIRDIGOR** *f.* Yaratuvchi, xudo, tangri.

*Istasa topshurg'onini kirdigor,*

*Fikr qil ul damki, javobing ne bor? (H.A.)*

**KIRDOR** *f.* Qiliq, xatti-harakat, ish, odat.

*Bir kalima hurmatidin lek islom oti bor,*

*Mutlaqo kirdori xayli kofiristondur bu mulk. (T.F.)*

**KIRISH** Yoy ipi, girish.

*Boysung'ur mirzoni beklari bila tutub, Boysung'ur mirzog'a  
kirish solib podshohzodani shahid qildi. (Bn.)*

**KIRMAK** 1. Biror narsaning ichki qismiga, ichiga o'tmoq.

*Kiribon zavraq ichra soyir o'lub,*

*Ul jazoir to'shida zoyir o'lub. (S.S.)*

2. Sho'ng'imoq, cho'mmoq.

*Yilon sug'a kirib, teshukni buldi. (R.)*

3. Tushmoq, inmoq.

*Ko'rub Guldursun og'lab holig'a yuz,*

*Choh ichra kirdi, qo'ydi yuzina yuz. (S.Sar.)*

**KIRO** *a.* Ijara haqi, ijara puli, ijara.

**Kiro qilmoq** Arzimoq, loyiq bo'lmoq.

*Ki, jahon kimsaga vafo qilmas,*

*Shohlig' tarkiga kiro qilmas. (S.S.)*

**KIROMIY** *a.* Katta, ulug', muhtaram, hurmatli.

*Har kimki tavozu' amri komi bo'lg'ay,*

*Ul fe'l ila xalq aro kiromiy bo'lg'ay. (N.J.)*

**KIRPIK** Kiprik.

*Uyqu ko'zidin tutub kanora,*

*Har kirpiki uyqug'a katora. (L.M.)*

**KIRPICH** G'isht.

*Tosh, yog'och, kirpich, ganch... bo'lsa, me'morlik bo'ladir.*

*(Fit.)*

**KIRPUK** Kiprik.

*Qaro kirpukunga qunduz tengolmas,*

*Saqoqingni yoqang kunduz o'par bas. (Mn.)*

**KISVAT** *a.* Ust-bosh, kiyim, libos.

*Ham bu rang aylab erdi xil'atni,*

*Xayli dog'i bu rang kisvatni. (S.S.)*

**Kisvati tuz** Nafis libos.

*Yuzunguzda ko'runur ko'zgutek yuz,*

*Bo'yunguzg'a latofat kisvati tuz. (Mn.)*



- KITOB** *a.* Asar, doston.  
*Ayitqon bu kitobni ham bitigay,*  
*Tilarmen kim duoda yot qilg'ay.* (Mn.)
- KITOBAT** *a.* 1. Yozish, qo'lyozmadan ko'chirib yozish.  
**Kitobat qilmoq.** Ko'chirib yozmoq.  
*Mirzo uchun, Alisherbek uchun qalin kitobatlar qildi.* (Bn.)  
 2. Xat, maktub.  
*Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir*  
*kitobat yiborib edim.* (Bn.)
- KIVURMAK** Kiritmoq, kirgizmoq.  
*Qachon Odamni ujmohqa kivurdilar esa, ne'matlarin,*  
*hurlarin... ko'rdi.* (R.)
- KIYIT** To'yda mehmonlarga sovg'a, tortiq sifatida ulashiladigan kiyim, kiyim-kechak.  
*Sochiqu osh chu bo'ldi bir yon,*  
*Kiyiti ham ulashildi yakson.* (Sh.)
- KIYIZ** Kigiz.  
*Sekin qilib uy kiyzini pora,*  
*Ul furjadin ayladi nazora.* (L.M.)
- KIYMAK I** Kiyimni biror a'zoga yoki ustga joylashtirmoq.  
*Suhayl kiydi turub arvad qumoshin,*  
*Chiqarsa kimsa yo'q, chohdin u boshin.* (S.Sar.)
- KIYMAK II** Kiyim, libos, kiyim-kechak.  
*Nilufar sori ko'p qilib ohang,*  
*Kiymakin ham qilib edi ul rang.* (S.S.)
- KIYNA** *f.* Kek, adovat, g'araz.  
*Aylabon razmu kiyina izhori,*  
*Kelsa Jobir jazoyiri sori.* (S.S.)
- KIYNAKASH** *f.* Dushmanlik qiluvchi, dushman, g'anim.  
*Dedi: joningg'a hijron kiynakashdur,*  
*Dedi: chun bor vasl ummidi xushdur.* (F.Sh.)
- KIYNAXOH** *f.* Kek saqlovchi, kekchi, g'arazgo'y; dushman.  
*Men dag'i tab'i kiynaxohimni,*  
*Sa'y aylab yig'ib sipohimni.* (S.S.)
- KIZB** *a.* Yolg'on, uydurma.  
*Har kishi ont ichti sharorat bila,*  
*Kizb esa, daf' o'ldi kaforat bila.* (H.A.)
- KIZDURMAK** Kiydirmoq, kiygizmoq.  
*Andag'luq xil'atlar anga kizdurdi.* (R.)

**KIZLAMAK** Bekitmoq, yashirmoq, sir saqlamoq.

*Biliklik keraklik so'zin so'zlayur,*

*Keraksiz so'zini ko'mub kizlayur. (H.H.)*

**KIZLANMAK** Yashirinmoq, bekinmoq.

*Sening husnung qamuq olamda mashhur,*

*Yuzungdin kizlanibtur xuld aro hur. (Mn.)*

**KISH** f. 1. Qunduzning bir turi.

*Ko'kda o'ynar, qo'l solishur qug'u, g'az, qil, qarlug'och,*

*Yerda yugurub juft olishur os, tiyin, kish, qunduzi. (R.)*

2. Shu hayvon terisidan qilingan po'stin.

*Manga mushkildurur topmoq ilojinkim g'ino ahli,*

*Iloj aylar sovuqqa qoqimu sanjob kishdin qish. (Og.)*

**KISHI** 1. Odam, inson.

*Kishi qayda o'larin bilsa bo'lmas,*

*Haqiqat yoridin ayrilsa bo'lmas. (Mn.)*

2. Kesimi bo'lishsiz shaklda bo'lgan gaplarda «hech kim» ma'nosida qo'llanadi.

*Aylay olmas kishi xalosima mayl,*

*Ko'shishu kina birla g'ayri Suhayl. (S.S.)*

**KISHILIK** Kishiga xos yaxshi fazilatga egalik, insonlik, insoniylik, odamgarchilik.

*Neku ter eshitgil vafolig' kishi.*

*Vafa ul kishika kishilik bashi. (Q.B.)*

**KISHTA** f. Mevani quritish.

**Kishta aylamak** Mevani quritmoq.

*Ul mevani mehr parvarishta,*

*Aylab bori xom ekanda kishta. (L.M.)*

**KISHTI** f. Kema.

*Bu daryoda kishti yangi oy o'lub,*

*Ki zavraq kibi bahrpaymoy o'lub. (Mun.)*

**KISHVAR** f. Mamlakat, yurt, o'lka.

*Ey, alarkim, bu Hind kishvaridin,*

*Bordingiz anglab o'zga ranju alam. (B.)*

**KISHVARORO** f. Mamlakatni obod etuvchi, yurtni gullatib-yashnatuvchi.

*Muqarrardurki shohi kishvaroro,*

*Zamone qilmayin sabru madoro. (F.Sh.)*

**KISHVARSITON** f. Mamlakat oluvchi, jahongir, hukmron.

*Bu tarix ichra mag'rib hukmroni,*



*Ne mag'ribkim, jahon kishvarsitoni. (F.Sh.)*

**KISHVARXUDOY** *f.* Yurt sohibi, podshoh, hukmdor.

*Yana Ardasher o'ldi kishvarxudoy*

*Jahon ahlig'a bo'ldi rahmatfizoy. (S.I.)*

**KICHIG** Kichik.

*Tilin so'zlasa so'z shakarday suchig*

*Bo'yun berdi beg qul ulug' ya kichig. (Q.B.)*

**KICHIK** Kichik, past (martabali).

*Yo'qki, zamona shahi bu shevalik,*

*O'z xudi holig'a ulug' to kichik. (H.A.)*

**KOF** Arab alifbosining yigirma ikkinchi «k» harfi va uning nomi.

*Va bu mazkur bo'lg'on alfozning «kof»laridurkim, «kof» o'rnig'a bitilur. (M.A.)*

**Kof-u nun** Arab alifbosidagi «kof» va «nun» harflarining nomi bo'lib, ikkovi birgalikda yozilsa «kun» so'zi hosil bo'ladi. Bu so'z o'zbek tilida «bo'l, paydo bo'l» degan ma'noni anglatadi. Diniy kitoblarda alloh azalda barcha mavjudotlarni paydo bo'lishi haqida shu so'z bilan buyurgan deyiladi.

*Dahri muqayyad erur ozodasi,*

*Borcha erur «kof» ila «nun» zodasi. (H.A.)*

**KOFI** *a.* Yetarli, kifoya.

*Javob o'lg'ach savolotig'a vofi,*

*Anga bo'lmay muvajjah nukta kofi. (F.Sh.)*

**KOFIR** *a.* Boshqa dinga e'tiqod qiluvchi, g'ayridin.

*Nuh aydi: «Olam g'oyat keng turur, kofirlar telim». (R.)*

**KOFIRISTON** *a. -f* Kofirlar yashaydigan (mamlakat), kofirlar mamlakati.

*Bir kalima hurmatidin lek islom oti bor,*

*Mutlaqo kirdori xayli kofiristondur bu mulk. (T.F.)*

**KOH** *f.* Somon.

*Boshima bir ko'hi g'am bir ot koku yemidin,*

*Bir ko'ngul yuz pora yo'qluq za'fi, vahmu bimidin. (T.F.)*

**KOM I** *f.* 1. Maqsad, orzu, murod, istak, niyat.

*Gar bu yanglig' emasdurur sanga kom,*

*Oni ham botroq aylagil e'lom. (S.S.)*

2. Baxt, saodat.

*Turku Arabu Ajamda ayyom,*

*Har shoira vermishdi bir kom. (Fuz.)*

**Komi dil** Ko'ngil istagi; lazzat, bahra.

*Talabon molu elni aylab halok,*

*Yonibon komi dil bila bebok. (S.S.)*

**Kom hosil qilmoq** Maqsadiga erishmoq, murodiga yetmoq.

*Aylabon bog'lar ichra manzil,*

*Qildilar komlarini hosil. (Sh.)*

**Kom istamak** Biror maqsad yo'lida harakat qilmoq.

*Axzi moli harom komi olub,*

*Bo'yla kom istabon haromi o'lub. (S.S.)*

**Komu nokom** Xoh-noxoh, istar-istamas.

*Hamul tog' tegrasidin komu nokom,*

*Tuta olmas yirog'roq yerda orom. (F.Sh.)*

**Kom topmoq** Orzuga yetmoq, maqsadga erishmoq.

*Degil Maryam haramda topmayin kom,*

*Kelibtur Tur uza tutmoqqa orom. (F.Sh.)*

**KOM II** *f.* Og'iz, dahan.

*Aning komi birla tirilmak erur*

*Maosh aylamak ajdaho komida. (A.N.Qit.)*

**KOMGOR** *f.* Baxtli, baxtiyor, saodatli.

*Fikr etib komgoru davlatmand,*

*Dedi: «Har kimki, Jobir etmish band.» (S.S.)*

**KOMJO'Y** *f.* Orzu-maqsadga yetishishni istovchi.

**Komjo'y o'lmoq** Orzu-maqsadga yetishni istamoq.

*Har sori bir mast o'lub oromjo'y,*

*Bir buti gulruxdin o'lub komjo'y. (H.A.)*

**KOMRON** *f.* O'z niyatiga yetgan, baxtli, baxtiyor.

*Kim, agar banddin xalos o'lg'ung,*

*Bir shahi komrong'a xos olg'ung. (S.S.)*

**Komron bo'lmoq** Maqsadga erishmoq.

*Ki-ey farzand, g'amdin bargaron bo'l,*

*Bu ishkim koming o'lmish, komron bo'l. (F.Sh.)*

**KOMRONA** *f.* Baxtiyor kishilardek, baxtiyor.

*Qo'pub yer o'pub berdi qosid javob,*

*Yana komrona qildi xitob. (S.I.)*

**KOMRONIY** *f.* -a. Saodatli, saodatmand; saodat.

*Tilab har necha kunda bir dam oni,*

*Ichib bir necha jomi komroniy. (F.Sh.)*

**KON** *f.* Qimmatbaho toshlar va ma'danlar bor yer.

*Chechak yaproqlari yerga tushubtur*

*Aningtek kim aqiqlar kon ichinda. (Mn.)*

**Koni malohat** Husnga boy, go'zal.

*Sango payvasta, ey koni malohat,*

*Ko'zung qoshing bila o'q, yo ne hojat. (Mn.)*

**KOR f.** 1. Ish, yumush.

*Ko'ngul shakar bikin og'zing ko'rub adam bo'ldi,*

*Ayitmading bir og'iz: ey, faqiri hech kora. (S.)*

2. Ta'sir.

**Kori tushmak** Ta'sir qilmoq.

*Qilsa ul dog'i zarb izhori,*

*Munga ham tushmas erdi ul kori. (S.S.)*

**KORDON f.** Ishning ko'zini yaxshi biladigan, ishbilarmon, usta.

*Saodat birla tutqach anda taskin,*

*Dedi: – Ey kordoni san'atoyin! (F.Sh.)*

**KORVON f.** Olis yurtlarga yuk va odam tashuvchi tuyalar qatori.

*Korvoni agar o'nu gar yuz,*

*Barchasig'a harif.edi yolg'uz. (S.S.)*

**KORGOH f.** Manzil, maskan.

*G'orni korgoh aylab edi,*

*El ko'zidin panoh aylab edi. (S.S.)*

**KOROZMOY** Ishning ko'zini biladigan, ishbilarmon, tadbirkor.

*Peshqadam korozmoy qarindoshlarim bor. Alar birla maslahat qilurman. (Zm.)*

**KOV-KOV f.** Kovlash, qazish.

**Kov-kov etmak** Kovlamoq, o'ymoq, teshmoq.

*Taxtani o'yla kov-kov etti*

*Ki, suv yo'lin nechukki nov etti. (S.S.)*

**KOX f.** Qasr, ko'shk, saroy.

*Atoyig'a bo'sag'angdin o'run ber,*

*Saroyu koxi ayvon hojat ermas. (A.)*

**KOZIB a.** Yolg'on gapiruvchi, yolg'onchi, aldoqchi.

*Nechaki jahd ayladi kozib kishi,*

*Bir-iki dast ilgari borg'ay ishi. (H.A.)*

**KOZIBVASH f.** Aldoqchi, yolg'onchi.

*Bor ermish burun chog'da ko'zibvashe,*

*Uyiga tushub shu'lai sarkashe. (S.I.)*

**KOSH f.** Koshki, shoyad, zora.

*Har kishi yolg'onni desa, lek kam,*

*Bo'lg'ay edi kosh bu davronda ham. (H.A.)*

**KOSHG'ARIY** Koshg'arga oid.

**Koshg'ariy til** XI – XIII asrlarda Qoraxoniylar davrida amalda bo'lgan turkiy adabiy til. Bu tilda «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq» asarlari yozilgan.

*Tamomi erur koshg'ariy til bila,  
Aytmish adib riqqati til bila.* (H.H.)

**KU** Mashhur, shonli, atoqli.

**Ku jav** Ovoza, shon-shuhrat.  
*Adin ma bu besh neng yiraq tutg'u beg,  
Ati edgu bo'lsa ku jav bulg'u beg.* (Q.B.)

**KUB** *f.* May saqlanadigan katta sopol idish, xum.

*Surohiy to'lsa, kub og'zin ochaling,  
Bukun mayxonada yormoq sochaling.* (Mn.)

**KUBRO** *a.* Katta, ulkan, buyuk.

*Jahon yo'q olami kubro de oni,  
Jahonda maqsadi aqso de oni.* (F.Sh.)

**KUDURAT** *a.* Ko'ngil xiraligi, g'ashlik, g'am.

**Gardi kudurat** G'am to'zoni.  
*Tashna lab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,  
Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta mo'ndiman.* (T.F.)

**KUFFOR** *a.* (birligi **kofir**) Kofirlar, g'ayridinlar.

*Shayx debturlarki, biz bu kuffor ilkida shahid bo'lurbiz.  
As'hob tarqag'ondin so'ngrakim, kuffor Xorazmg'a kirib-  
turlar.* (N.M.)

**KUFR** *a.* Kofirlik, g'ayridinlik.

**Kufr eli** Kofirlar.  
*Buki erur kufr elining mulki chin,  
Ko'rkim, erur g'ayrati xuldi barin.* (H.A.)

**Kufr ahli** Kofirlar, g'ayridinlar.  
*Emdikim ul but vasli berdi dast,  
Kufr ahli yanglig' o'ldi butparast.* (L.T.)

**KUFRON** *a.* Nonko'rlik, ko'rnamaklik.

**Kufroni ne'mat aylamak** Nonko'rlik qilmoq.  
*Shukr shahdin bilmadim, kufroni ne'mat ayladim,  
Zaxmi nishi ro'zgor ahlini talxu tundiman.* (T.F.)

**KUHAN** *a.* Eski, qadimgi, qadimiy.

*Ham ovozingni ofoq ichra solg'ay,  
Ham ovozing kuhan toq ichra solg'ay.* (F.Sh.)



**KULFAT** *a.* Qiyinchilik, mashaqqat, azob-uqubat.

*Ahli hole topmadim boshdin balo daf' etmadi,  
Kulfatu g'urbatni tuzluk sunnati raf' etmadi. (T.F.)*

**KULMAK** 1. Zavqini keltirgan narsalardan ta'sirlanib, na'shali ovoz chiqarmoq.

*Qatiq kulsang magar og'zing bilurgay,  
Pari ko'rsa seni, mendek tilurgay. (Mn.)*

2. Ko'ngilxushlik qilmoq, yaxshi hayot kechirmoq.

*Sening bo'ldi dunya tiriglik bila  
Tiriglik bulunsa yatib ye kula. (Q.B.)*

3. Mazah qilmoq, masxaralamoq.

*Anda Yapaloqqush aydi: «Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kulur»  
degandek sen bizni faqir-notavon ko'rdungmu? (Zm.)*

**KULOH** *a.* Konus shaklidagi bir bosh kiyim.

*Bizki, bugun jahon aro kishvari faqr shohimiz,  
Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidur kulohimiz. (Og.)*

**KULONKIR** 1. Tumshuq va panjasi kuchli. 2. Qushning nomi.

*O'g'lumning nomuborak oti Kulonkir Sultondur. (Zm.)*

**KULONKIRLIK** Kuchlilik, baquvvatlik, zo'rlik.

*Bari bolamning asbobi kulonkirligi tumshug'i bilan changa-  
lidin ma'lum va ravshan emasdurmu? (Zm.)*

**KULUG** Mashhur, dongdor, atoqli.

*Talu beg bo'layin tesa belgulug  
Talu tutg'u erdam ey atlig' kulug. (Q.B.)*

**KULCHIRAMAK** Gullamoq.

*Achun kulchirar boz alin qash chetar,  
Bir ilkin tutub shahd, biri zahr qatar. (R.)*

**KUMUSH** Kumush tanga, kumush pul, kumush.

*Birisi budunqa to'ru ul ulush  
Birisi eratqa ulasa kumush. (Q.B.)*

**KUN** 1. Quyosh chiqqandan to quyosh botgunga qadar bo'lgan vaqt oralig'i.

*Har kuni bu shan'at ila tungacha,  
Har kecha bu g'aflat ila kungacha. (H.A.)*

2. Bir kecha kunduz, sutka.

*Odami Safiy alayhissalom yetti kun anda o'lturdi. (R.)*

3. Oy yoki haftaning ma'lum bir chislosi.

*Emdi ma'vid falon kun o'ldi yaqin,  
Azm uchun soat ayladuk ta'yin. (S.S.)*

4. Vaqt, zamon, davr.

*Qilinchi o'ngay bo'lsa qilqi ko'ni  
Sevinchin kechar ul oshul beg kuni. (Q.B.)*

5. Quyosh, oftob.

*Muhammad Mustaf o alayhissalom Odam o'g'lonlaridin  
bo'lg'usi, bu jahonni, ul jahonni, oyni, kunni, qamug'  
narsalarni aning sevukluga uchun yaratdim. (R.)*

**Kun-u tun** Kun-tun, hamma vaqt, tinimsiz, uzluksiz.

*Boqmasa dehqon chamanin kun-u tun,  
Naxli tarin angla qurug'on o'tun. (H.A.)*

**KUNDF** f. O'tmas, kesmas, dami qaytgan.

*Tig'ni ul adl ila insofu tund  
Zoli hazin tishlaridek qildi kund. (H.A.)*

**KUNDA** Har kuni.

*Ajirig' tomirini o'g'urida mayda tuyub,  
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak. (Max.)*

**KUNDAPIX** Kundasifat, beo'xshov, beso'naqay.

*Birlari mo'ltoninamo hiylagar,  
Birlaridur kundapixu gavda xar. (M.)*

**KUNDUZ** Kun chiqqandan kun botgunga qadar bo'lgan vaqt oralig'i.

*Va ul qiz oftobi olam tobdek har xomni pishurub, hech  
maxluq ani kunduzi ko'rmakka chorasi yo'q erdi. (Zm.)*

**Kunduz-u kecha** Kecha-kunduz, kechayu kunduz, tinmay, doim.

*Kunduz-u kecha poya ettilar,  
Toki kishvarlarig'a yettilar. (S.S.)*

**KUNJ** f. Burchak, burch.

*Qasri kunjida bor edi chohe,  
Kimsani band aylasa gohi. (S.S.)*

**Kunji lab birla tabassum aylamak** Miyig'ida kulmoq.

*Kunji lab birla tabassum aylading bir yo'l boqib,  
Mastlikdin Furqatiyg'a sharmisor o'lg'on kecha. (F.)*

**KUN-KUN** Kundan kun, kun sayin, borgan sari.

*Kun-kun yoruqluqi orta boshladi. (R.)*

**KUNCHALIK** Taxminan bir kunda bo'ladigan, chamadan bir kunda amalga oshadigan.

*Qoldi chun ikki kunchalik maqsad,  
Yana yel suni qo'zg'adi behad. (S.S.)*



**KUR** Dovyurak, jasur, qo'rqmas.

*Tugug yuz irig so'z kuvaz kur qiliq*

*Kishig tezkurur ko'ndru bilmas yo'riq. (Q.B.)*

**KURSI** a. 1. Suyanchiqsiz, to'rt oyoqli stul.

*Taxt uza bir kursi erdi, Ka'ba tengincha erdi. (R.)*

2. Osmon, samo, falak.

*To'qquz oyu to'qquz kunda yerga tushdim,*

*To'qquz soat turolmadim, ko'kka uchdim,*

*Arshu kursi poyasini borib quchdim. (A.Y.)*

3. Tag, ost; poydevor.

*Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. (Bn.)*

**KURUH** a. Taxminan ikki kilometrga teng uzunlik o'lchovi birligi.

*Ko'hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh bo'lg'ay. (Bn.)*

**KUVANMAK** Quvonmoq, sevinmoq, shod bo'lmoq.

*Ko'rugli yuzin ko'rsa sevsa ko'rub*

*Eli hudni baqsa kuvansa turub. (Q.B.)*

**KUVAZ** Kibrli, takabbur, dimog'dor.

*Tugug yuz irig so'z kuvaz kur qiliq*

*Kishig tezkurur ko'ndru bilmas yo'riq. (Q.B.)*

**KUVAZLIK** Kibr, takabburlik, kibr-u havo.

*Kuvazlik bila ko'kka ag'mas kishi*

*Qali qusqi bo'lsa buzulmas ishi. (Q.B.)*

**KUYKANAK** Lochinsimonlar oilasiga mansub yirtqich qush, kuyka.

*Uqobu kuykanakni qilsalar sayd,*

*Qachon qilg'ay aning saydini bu sayd. (F.Sh.)*

**KUYMAK** 1. Erimoq, erib ketmoq; yonmoq.

*Jom bu ahvolingg'a qon yig'labon,*

*Sha'm kuyub, ashkfishon yig'labon. (H.A.)*

2. Iztirob chekmoq, g'am-alam chekmoq.

*Kuyar ko'nglum saboning ul ishindin,*

*Nechukkim kuysa xirmanlar yashindin. (Mn.)*

**KUYURMAK** Iztirob chektirmoq, azob bermoq, kuydirmoq, o'rtamoq.

*Kim oshti ko'kka ohim ihtiroqi,*

*Kuyurdi ko'nglumi dilbar firoqi. (Mn.)*

**KUZAZMAK** 1. Qutqarmoq, qutqazmoq.

*Men adiz tog'larg'a sig'ing'aymen. Tog'mani suvdan kuzazg'ay. (R.)*

2. Tiymoq.

*Eshitgil, biliklik negu teb ayur,*

*Adablar boshi til kuzazmak turur. (H.H.)*

**KUSHARMAK** Toshmoq, qirg'oqdan oshmoq.

*Etil suvi aqa turur,*

*Qaya tubi qaqa turur,*

*Baliq telim baqa turur,*

*Ko'lung taqi kusharur. (D.L.T.)*

**KUSHOD** f. 1. Ochilgan, ochiq.

**Kushod aylamak** Ochmoq.

*Adl eshigin elga kushod ayladi,*

*Text uza o'lturdiyu dod ayladi. (H.A.)*

2. Yechim; yechish; yechilish.

*Jahon bastu kushodi ilm birlan,*

*Nadur dilni murodi ilm birlan. (F.)*

**KUSHOY** Qo'shma so'zlar tarkibida «ochuvchi», «yoyuvchi» ma'nolarida keladi.

*Kelgach o'ziga Mehri ravshanroy,*

*Dedikim: «Fitna bo'ldi bol Kushoy». (S.S.)*

**KUCH** 1. Energiya, quvvat.

2. Ta'sir qilish, ta'sir.

*Siyam kuchidin bo'lubon siymbar,*

*Xalq laqab aylab anga «Zoli zar». (H.A.)*

3. Zo'rlik, zo'ravonlik.

*Biri kuch birisi o'salliq qilur*

*Bu ekki bila beg elin artatur. (Q.B.)*

**KUCHKAY** Zolim, zo'ravon.

*Bu kuchkay kishi kent va beglik yemas*

*Bu kuchkay kuchini budun ko'trumas. (Q.B.)*

**KUHLUG** Kuchi ko'p, kuchli, baquvvat.

*Yumutsa erat bo'lsa kuchlug alig*

*Yuritsa to'ru tuz yetursa bilig. (Q.B.)*

**KO'B** Ko'p.

*Ko'b mojarodin so'ngra podishoh qoshig'a eltmishlar.*

*(T.A.H.)*

**KO'DAZMAK** Himoya qilmoq, qo'riqlamoq, qo'rimoq.

*Qayu beg budunqa to'ru bermasa*

*Ko'dazmasa budunin yeguchi yesa. (Q.B.)*

**KO'DRUM** Yoqimli, xush, yaxshi.

*Budunqa begi artuq o'drum kerak*

*Ko'ngul til ko'ni qilqi ko'drum kerak. (Q.B.)*

**KO'GARCHIN** Kaptar, kabutar.

*Ka'ba uzra aylanuvchi ko'garchindek yuragim,*

*Soatlarcha shul ko'zlarning tegrasida aylandi. (Fit.)*

**KO'H** f. Tog'.

**Ko'hi g'am** G'am tog'i, cheksiz g'am.

*Boshima bir ko'hi g'am bir ot kohu yemidin,*

*Bir ko'ngul yuz pora yo'qluq za'fi, vahmu bimidin. (T.F.)*

**KO'HNA** f. Eskirgan, eski.

*Ko'hna tig'i tah-batah g'am zangi tutqon kundiman. (T.F.)*

**KO'HPOYA** f. Tog' etagida joylashgan, tog' etagidagi.

*Necha kundin keyin Daxkat O'ratepaning ko'hpoya*

*kentlaridindur, ulug' tog'ning tubida tushubtur. (Bn.)*

**KO'HSOR** f. Tog'li joylar, tog'lik.

*Bahrining sohilida ko'hsore,*

*Topti ul ko'hsor aro g'ore. (S.S.)*

**KO'K I** 1. Moviy, zangori.

*Ul tuproqda... urung, qora, suchuk, achig', sarig', yashil,*

*qizil, ko'k... qamug' bor erdi. (R.)*

2. Yashil, sabza.

*Yosh to'kub bahri mavjvar yanglig',*

*Ko'k libos ichra nilufar yanglig'. (S.S.)*

3. Osmon, samo, falak.

*Farishtalar Odamni ko'kka og'durdilar. (R.)*

**KO'K II** 1. Poydevor, asos, tayanch.

*Eki neng turur elka bag'i beki*

*Biri saqliq ul bir to'ru el koku. (Q.B.)*

2. Ildiz, asos.

*Yozug'lug' kishining yozug'un kechur,*

*Adovat ko'kini qazib kes, ko'chur. (H.H.)*

**Yildiz ko'k** Poydevor, asos.

*Bu el tutruqi ham tubi begliki*

*Eki neng turur asli yildiz ko'ki. (Q.B.)*

**KO'KARTMAK** Obod qilmoq, obodon qilmoq, yashnatmoq.

*Shoh Bahrom abri ehsoni,*

*Lutf.bila ko'kartti oni. (S.S.)*

- KO'KS** Ko'krak; qalb, yurak.  
*Kimga tikan bila qilibsen sitez,  
 Urg'usidur ko'ksungga yuz tig'i tez. (H.A.)*
- KO'KUZ** Ko'krak, ko'ks.  
*Anda kezin jon ko'kuzinga keldi. (R.)*
- KO'LOK** Kuchli dengiz to'lqini, po'rtana.  
*Bahrg'a noz ila chu ko'z solibon,  
 Dema ko'lok, bahr qo'zg'olibon. (S.S.)*
- KO'MAK** Madad, yordam.  
*Yiqildi tashna Guldursun ochindin,  
 Ko'mak kimdin kelur, cho'l ichra kimdin. (S.Sar.)*
- KO'MMAK** Ustiga tuproq, qum kabi narsalar tortib berkitmoq.  
*Alar uzra to'kuldi, ko'mdi tuproq,  
 Bu sirni tanho sahro bildi ko'proq. (S.Sar.)*
- KO'MOCH** Kul aralash qo'rga ko'mib pishirilgan non.  
*O'z ko'mochiga, masalkim, tortadur kul har kishi,  
 Bas, kuyub ishqida chekkan iztirobim kim desun? (M.)*
- KO'NDRU** Izga solish, yo'lga qo'yish, to'g'rilash, yo'llash.  
*Tugug yuz irig so'z kuvaz kur qiliq  
 Kishig tezkurur ko'ndru bilmas yo'riq. (Q.B.)*
- KO'NGUL** (3-shaxs birligi ko'ngli) Dil, qalb, yurak.  
*Ko'ngulga o'zganing mehrin yovutmon,  
 Yiroqliq birla men sizni unutmmon. (Mn.)*
- Ko'ngli achuq** Ko'nglida ginasi yo'q, oqko'ngil, ko'ngli oq.  
*Beg alchaq kerak bo'lsa ko'ngli achuq,  
 Yazuqlug' kishidin kechursa yazuq. (Q.B.)*
- Ko'ngul bermak** Yaxshi ko'rmoq, sevmoq.  
*Unga do'st bo'l, uni sevgil, ko'ngul ber,  
 Uning so'z bahridin gavharlarin ter. (S.Sar.)*
- Ko'ngul bog'lamoq** Ko'ngil qo'ymoq, ko'ngil bermoq, sevmoq.  
*Saloyin o'zumi o'zga diyora,  
 Ko'ngulni bog'lag'oyin o'zga yora. (Mn.)*
- Ko'ngliga kelmak** Xayolidan o'tmoq, o'zicha o'ylamoq, eslamoq.  
*Jobir oning xayolidin xushhol,  
 Ko'ngliga kelmayin umidi visol. (S.S.)*
- Ko'ngul kuymak** Alam chekmoq, iztirob chekmoq.  
*Kuyar ko'nglum saboning ul ishindin,*



*Nechukkim kuysa xirmanlar yashindin. (Mn.)*

**Ko'ngul olmoq** O'ziga muhabbat uyg'otmoq, bironing sevgisini qozonmoq.

*Ko'ngul olding, begim, yoshurmog'ing ne?*

*Jafoni haddidin oshurmog'ing ne? (A.)*

**Ko'ngul ochmoq** Xursandchilik qilmoq, ko'ngul yozmoq.

*Chiqib chohdin uzoqlarg'a qochayliq,*

*Bu yerda og'lamay ko'ngul ochayliq. (S.Sar.)*

**Ko'ngul qo'ymoq** Istamoq, xohlamoq.

*Qo'lni shahzoda jonidin yudi pok,*

*Qo'ydi ko'nglin suda bo'lurg'a halok. (S.S.)*

**Ko'ngul tuzmak** Ko'nglini to'g'ri qilmoq, to'g'ri xatti-harakat qilmoq.

*Ko'ngul tuzsa beglar yuritsa to'ru*

*Bu beglik buzulmas turur kech oru. (Q.B.)*

**Ko'ngli to'lu** Olihimmat, himmatli; bag'ri keng, olijanob.

*Biliglik uqushlug' budunqa talu*

*Aqi ham ko'zi to'q ne ko'ngli to'lu. (Q.B.)*

**Ko'ngli tortmoq** Yoqtirmoq, xohlamoq.

*Kishining poklarga'a ko'ngli tortar,*

*Husn xud pokdomanliqtin ortar. (Mn.)*

**Ko'nglunga tushmak** Ko'ngliga tushmoq.

*Odam Havvoni o'zindin yaratilg'anin ko'rdi ersa sevukluki*

*Odam ko'nglunga tushdi. (R.)*

**Ko'ngul uzmak** Bahridan o'tmoq, voz kechmoq.

*Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,*

*Ayog'ing qanda bo'lsa boshim anda. (A.)*

**Ko'ngli o'rtanmak** Iztirob chekmoq, g'am-alam chekmoq.

*Mehr ko'ziga shamdek ayyom,*

*Mehrdek ko'ngli o'rtanib to shom. (S.S.)*

**KO'NGULLUG** Ko'ngulli.

*Neku ter eshitgil ey elchi bashi,*

*O'rug kad ko'ngullug sinamish kishi. (Q.B.)*

**KO'NI** 1. To'g'ri, chin, haqiqiy; ishonchli.

*Agar ko'ni so'zluk ersangiz bu narsalaring oti ne turur menga ayta bering. (R.)*

2. Yoqimli, yaxshi, xush.

*Qilinchi o'ngay bo'lsa qilqi ko'ni*

*Sevinchin kechar ul oshul beg kuni. (Q.B.)*

**KO'NMAK** Ko'nikmoq, tan bermoq.

*Bekasi, mushti xasi, bir bandai bechorai,  
Sobiram, rozi qazo, tiri balog'a ko'ndiman. (T.F.)*

**KO'NULMAK** To'g'ri holga kelmoq, to'g'rilanmoq.

*Aning uchun «Tishilar ko'nulmas egri so'nguk turur» to'g'ri  
xalq orasinda yumuq bo'ldi.(R.)*

**KO'P** 1. Son jihatdan ortiq, bir qancha, mo'l.

*Qulung ko'ptur vale men inju qulmen,  
Visoling qadrini bilmas dugulmen. (Mn.)*

2. Uzoq vaqt mobaynida, uzoq.

*Ko'p qilib fikr topti ra'yi savob,  
O'qug'on nomag'a bitiydi javob. (S.S.)*

3. Ortiq darajada, ortiq.

*Jondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz,  
Sondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz. (A.N.Rub.)*

4. Ko'pchilik, aksariyat.

*To safar ahli ko'pi o'ldi talaf,  
Tushti har bir kema bir o'zga taraf. (S.S.)*

**KO'RGUZMAK** 1. Ko'rsatmoq.

*Qamug' narsalarni farishtalarg'a ko'rguzdi. (R.)*

2. Bildirmoq, anglatmoq, ko'rsatmoq.

*So'zum bokrini ko'rguz shahqa shirin,  
Shahikim qildi Xusravlarni Shirin. (Mn.)*

3. Ayrim otlar bilan birga qo'shma fe'l yasaydi.

*Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,  
Seni aduv domidin aylay xalos. (S.S)*

**KO'RK** Husn, chiroy, go'zallik.

*Pari ruxsoralarning ko'rkka boyi,  
Yuzung navro'zu qoshing bayram oyi. (Mn.)*

**KO'RKABOY** Ko'rkka boy, ko'rkli, go'zal.

*Salomimni tegur ul ko'rkaboyg'a,  
Kim urur chehrasi ming ta'na oyg'a. (Mn.)*

**KO'RKLU** Ko'rkli.

*Qiyomat ko'rklusen husnungg'a ne so'z,  
Yiroq bo'lsun jamolingdin yovuz ko'z.(Mn.)*

**KO'RKLUG** Ko'rkli.

*Yuzi ko'rki ko'rklug kerak beg yulug  
Bo'di o'rtu bo'lsa ne javlug' kulug. (Q.B.)*

**KO'RKLUK** Chiroyli, ko'rkli, go'zal.

*Havvo g'oyat ko'rkluk erdi. (R.)*

**KO'RMAK** 1. Ko'z orqali shaxs va narsalarni sezmoq, farqlamoq.

*Nuh ani ko'rdi, aning so'zin eshitdi. (R.)*

2. Boshdan kechirmoq, guvohi bo'lmoq.

*Yod mandin, kim berur, yaxshi zamonlar ko'rdiman,  
Rind sarxayliyu xush ayshi damodam surdiman. (T.F.)*

3. ... deb hisoblamoq, bilmoq.

*Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kulur degandek, sen bizni faqir-  
notavon ko'rdungmu? (Zm.)*

4. Biror muhim narsaga diqqat-e'tiborni jalb qilish uchun ishlatiladi.

*Bu beglik bag'i ko'r bu ikki bo'lur*

*Bu ikki tugal bo'lsa beglik turur. (Q.B.)*

**KO'RPACHA** Ustida o'tirish uchun ichiga paxta solib qavilgan uzun, yumshoq to'shak.

*Sallalari boshlarida oq savat,*

*Ko'rpacha tagda hamma vaqt uch qavat (M.)*

**KO'RU** Tufayli, sababli.

*Bu saqliq bila artti beglar eli,*

*O'salliq ko'ru buzdi beglik uli. (Q.B.)*

**KO'RUGLI** Ko'rkli, chiroyli, kelishgan.

*Ko'rugli yuzin ko'rsa sevsa ko'rub*

*Eli bunda baqsa quvansa turub. (Q.B.)*

**KO'RUNMAK** 1. Ko'zga tashlanmoq.

*Yuzunguzda ko'runur ko'zgutek nur,*

*Bo'yunguzg'a latofat kisvati tuz. (Mn.)*

2. Namoyon bo'lmoq, paydo bo'lmoq.

*Shu so'zni aytti, teg'urub o'ziga,*

*Ko'runmay qoldi keng olam ko'ziga. (S.Sar.)*

**KO'RUSHMAK** Salom-alik qilishmoq, salomlashmoq.

*Qo'pubon yig'lashib ko'rushtilar,*

*O'lturub bir-birin so'rushtilar. (S.S.)*

**KO'RSHAPALAK** *f.* Tunda faol hayot kechiradigan, uchadigan sut emizuvchi jonzo.

*Dema uy, balki zaminkandur agar kirsu kishi,*

*Har taraf betiga urg'aylar aning ko'rshapalak. (Max.)*

**KO'S** *f.* Podishoh saroyida chalinadigan katta nog'ora.

*Qoqib ovuch sanju qilib na'ra ko's,*

*Ko'kka chekib nolau afg'on xuro's. (H.A.)*

**KO'TAHANDISH** *f.* Kaltafahm, uzoqni ko'ra olmaydigan, qisqirib o'yli.

*Ba'zi ko'tahandishlar xud barin edilarkim, uchala postshohzodani o'lturub, Xisravshoh otig'a xutba o'qutg'aylar* (Bn.)

**KO'TAHLIK** Kamtarlik, kamtarinlik.

*Kim qo'yubdur, uhdayi o'z mulkungizdin chiqmayin, Ikki, uch to'rt da'vosin etmakni ko'tahlik qiling.* (T.F.)

**KO'TAL** *f.* Dovon.

*Bu yo'l tup-tuz yo'ldur. Bu yo'lda ko'tal yo'qtur.* (Bn.)

**KO'TARMAK** 1. Avvalgi holatidan yoki yerdan uzib olmoq.

*Chun talashmoq ayladilar mayl, Ko'tarib yerga urdi oni Suhayl.* (S.S.)

2. Yuqori, tik holatda tutmoq.

*Suhayl boshin ko'tarib ko'rdi qizni, Qul ermas, podshoh deb sezdi o'zni.* (S.Sar.)

3. O'ziga olmoq, o'z ustiga olmoq, olmoq.

*Uch qatla boshidin o'rgulub, dedimkim, men ko'tardim, hamma ne darding bor.* (Bn.)

**KO'TURMAK** 1. Ko'tarmoq.

**Bosh ko'turmak** Bosh ko'tarmoq, qo'zg'almoq, g'alayon qilmoq.

*Barcha narsalar bosh ko'turub, Odamni bizdin yaratg'il tehta'ma qildilar.* (R.)

2. *ko'ch.* Bardosh bermoq, chidamoq.

*Bu kuchkay kishi kent va beglik yemas Bu kuchkay kishini budun ko'trumas.* (Q.B.)

3. O'rtadan ko'tarmoq, yo'q qilmoq, yo'qotmoq.

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman Anin tutsa el kend ko'tursa tuman.* (Q.B.)

**KO'Y** *f.* Ko'cha.

*Boshidin evrulur armoni birla o'ldum, ey Bobur, Mening na'shimni bori ul pari ko'yidin aylondur.* (B.)

**KO'Z** 1. Ko'rish a'zosi, ko'rish organi.

*Dedi: «Mavquf bo'lmayin nimaga, Ko'zini bog'labon soling kemaga.* (S.S.)

2. Nigoh, nazar.

*Ko'ziga kema uchrasa nogoh,*



*Ani filhol etar edi ogoh. (S.S.)*

**Ko'zi tushmaq** To'satdan ko'rib qolmoq.

*Sho'xdin chun emas edi ogoh,*

*Ko'zi tushti aning sori nogoh. (S.S.)*

**Ko'z ochmoq** Hushyor bo'lmoq, e'tibor bermoq.

*Ko'z och, agar xud bor esang rahshunos,*

*Ish ravishin ayla aningdek qiyos. (H.A.)*

**Ko'z solmoq** Qaramoq, boqmoq.

*Kim chiqib bir biyik shajar uzra,*

*Ko'z solib bahri mavjvar uzra. (S.S.)*

**Ko'z tegurmak** Ko'z tekkizmoq; ko'zi tegmoq.

*Ta'rifida ko'p o'tar edi so'z,*

*Go'yoki anga tegurdilar ko'z. (L.M.)*

**Ko'zi ach** Ochko'z, ko'zi och.

*Qamug' ach yesa ichsa axir to'dur*

*Ko'zi ach kishi o'lsa achliq qo'dur. (Q.B.)*

**Ko'zi suq** Ochko'z.

*To'dumsuz bo'lur ul ko'zi suq kishi*

*Ko'zi suqqa yetmaz bu dunya ashi. (Q.B.)*

**Ko'z tutmoq** 1. Kutmoq.

*Yo qoshingdin necha bir o'q ko'z tutay,*

*Otki, o'trusig'a aning ko'z tutay. (B.V.)*

2. Ko'zini ro'para qilmoq.

*Yo qoshingdin necha biro'q ko'z tutay,*

*Otki, o'trusig'a aning ko'z tutay. (B.V.)*

3. Ko'zini berkitmoq.

*Necha ko'rgach o'zga mahvashlar qoshin,*

*Yangi oy ko'rgan kishidek ko'z tutay. (B.V.)*

**Ko'zga ilmak** Mensimoq.

*Yaxshilig'ingni fuqaro bilmagay,*

*Holi bular ko'zga bizi ilmagay. (M.)*

**KO'ZAZMAK** Kuzatmoq, nazorat qilmoq.

*Birisi elingda arig' tut kumush,*

*Iyarin ko'zazgil, ey bilig uqush. (Q.B.)*

**KO'ZGU** Odam o'z aksini ko'rish uchun foydalanadigan orqasi sirli shisha, oyna.

*Borcha fazlu hunarda yo'q misli,*

*Ko'zguna boqsa o'zi - o'q misli. (S.S.)*

**KO'ZLI** Ko'zi bor.

*Telim gulchehra nargis ko'zlilar bor,  
Shakar dudog'li, shirin so'zlilar bor. (Mn.)*

**KO'SHISH** f. Sa'y-harakat, tirishish, urinish.

*Ki, nechukkim kerak qilib ko'shish,  
Haq taolodin istabon baxshish. (S.S.)*

## LI

**LAAZIDANNAKUM** a. «Men albatta sizlar uchun ziyoda qilaman»  
degan ma'nodagi ibora.

*Shukr qilib aylamasang ushtulum,  
Deb o'zikim, «laazidannakum» (H.A.)*

**LAB** f. Dudoq, irin.

*Tashna lab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,  
Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta mo'ndiman. (T.F.)*

**LA'B** a. O'yin, o'yin-kulgi.

**La'bu lahv** O'yin-kulgi, xursandchilik; foydasiz ishlar bilan  
shug'ullanish.

*Ul seni ma'muri ibodat qilib,  
Sen la'bu lahvni odat qilib. (H.A.)*

**LAGADKO'B** f. Tepki, tepish, zarba.

*Ichinda ishq o'tidin ming oshub,  
Boshinda charxdin yuz ming lagadko'b. (F.Sh.)*

**LAHN** a. Ovoz, tovush.

*Men dog'i lahning eshitib shod o'lay,  
Nag'mang ila qayg'udin ozod o'lay. (H.A.)*

**LAHV** a. O'yin-kulgi, xursandchilik, shodlik.

*Ul seni ma'muri ibodat qilib,  
Sen la'bu lahvni odat qilib. (H.A.)*

**LAHZA** a. Ko'z ochib yumushga ketgan vaqt, on.

*Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,  
Masaldurkim: «Charog' tubi qorong'u». (L.)*

**Lahza-lahza** To'xtamasdan, dam-badam, muttasil.

*Kemalarni tengiz aro surdi,  
Shiddatin lahza-lahza oshurdi. (S.S.)*

**LAIM** a. Xasis, ziqna.

*Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,  
Ham mol yig'ishturur laim ermasmen. (B.)*

**Laimi masxara** Sharmanda, hayosiz.  
*O'zidek yasab nechani yor sara,  
Yo'q sara, necha laimi masxara. (L.T.)*

**LAK** h. Yuz ming.

*Cheriki ikki lak bo'lmasa, xud bir lakta ne so'z edi. (Bn.)*

**LAK-LAK** Yuz minglarcha, juda ko'p, nihoyatda ko'p.

*Yo'q erdi suv, yemakka anda o'tmak,  
Agar bo'lg'anda ham aqchasi lak-lak. (S.Sar.)*

**L.A'L** a. 1. Qizil rangli qimmatbaho tosh.

*Agar gashti la'li daryo qilursen,  
Ko'zumga kelki, ummon hojat ermas. (A.)*

2. Ma'shuqaning qizil labi, qizil lab, go'zal lab.  
*Shakarmu erningiz yo qand, yo jon,  
Uyolur la'lingizdin obi hayvon. (Mn.)*

3. Qizil; qizillik.

*Pardalari rishtasi el jonidin,  
La'liyu shingarfi ulus qonidin. (H.A.)*

4. Ma'shuqa, sevgili.

*Dedi: joningni olsa la'li yodi?  
Dedikim: ushbudur jonim murodi. (F.Sh.)*

**LAM** a. Arab alifbosidagi «L» harfining nomi, lom.

*Beg ati bilig birla bag'li turur  
Bilig lam(i) ketsa beg ati qalur. (Q.B.)*

**LAM'A** a. Shu'la, nur.

**Lam'ai ruxsor** Yuzning porloqligi, yuzning shu'lasi.

*Subh chu zohir qilib anvorini,  
Har yon sochib lam'ai ruxsorini. (H.A.)*

**LANG** f. Cho'loq, oqsoq.

*Charchashni bilmas yursalar,  
Purzo'r ketmon ursalar.  
Vaqti namozg'a kelsalar,  
Masjid sorig'a lang ekan. (M.)*

**LAQAB** a. 1. Kishiga xarakteri, mavqei yoki boshqa xususiyatiga

ko'ra berilgan qo'shimcha nom.  
*Siym kuchidin bo'lubon siymbar,  
Xalq laqab aylab anga «Zoli zar». (H.A.)*

2. Taxallus.

*Laqabi Solihu o'zi tolih,*

*Nursaid o'g'li Muhammad Solih. (Shn.)*

**LARZA** a. Qattiq silkinish, titrash.

**Larzag'a kelmak** Qattiq silkinmoq, qo'zg'almoq.

*Qo'zg'atar bo'lsa agar ganju sipohin yukini,*

*Larzaga kelgay simobdek qo'zg'almas tog' ham. (S.Sar.)*

**LATIF** a. 1. Chiroyli, kelishgan, go'zal, nozik.

*Men asru benavo, siz muhtashamsiz,*

*Latifu noziku zebo sanamsiz. (Mn.)*

2. Pokiza, pok, toza.

*Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,*

*Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. (A.N.Qit)*

**LATOFAT** a. Husn, chiroy; go'zallik; noziklik, latiflik.

*Latofat mulkida sulton sen, ey jon,*

*Qamuq boshdin-oyoqqa jonsen, ey jon. (Mn.)*

*Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay. (Bn.)*

**Latofat mulkining sohibqironi** Go'zallikda tengi yo'q,  
go'zallar go'zali.

*Latofat mulkining sohibqironi,*

*Muvofiq surating birla maoniy. (Mn.)*

**LATOYIF** a. (*birliigi latifa*) Go'zal iboralar, ajoyib gaplar, chiroyli so'zlar.

*Bukim maktub aro durlar qilib darj,*

*Latoyif naqdi ko'p aylab eding xarj (F.Sh.)*

**LAVAND** f. Yalqov, dangasa.

*O'rganurdin qochg'an lavand va yuziga hiyal va bahona eshigin ochg'an tanand, emgak tortib ilm o'rgangan xiradmand.*

*(M.Q.)*

**LAVHASHALLOH** a. Ofarin, barakalla.

*Adolat ushbu bo'lg'ay lavhashalloh,*

*Shijoat muncha bo'lg'ay borakalloh. (F.Sh.)*

**LAYL** a. Tun, kecha.

*Xurshed uyoqti bo'lmayin layl,*

*Devor yiqildi yetmayin sayl. (L.M.)*

**LAYLISIFAT** a. Layliga o'xshash.

*Qayu laylisifat mundoq qilur Majnun gadosini,*

*Yuzungni bir ko'ray desam, qo'lungni pardalar qilding. (Z.)*

- LAYLIVASH** *a. -f.* Layliga o'xshash; go'zal.  
*Qaysi laylivash pari majnuni bor men telbadek?*  
*Qaysi Majnunning meningdek bir pari ruxsori bor? (Mun.)*
- LASHKAR** *f.* Qo'shin, armiya.  
*Temur Urganja tortib keldi lashkar,*  
*Ko'rub ko'z ko'r, bo'lub qoldi quloq kar. (S.Sar.)*
- LEK** *Lekin* so'zining qisqargan shakli.  
*Vardu shajar shohid erur bog' aro,*  
*Lek o'tun silkidadur tog' aro. (H.A.)*
- LEKIN** *a.* Ammo, biroq.  
*Shaynda qoplondin agarchi fuzun,*  
*Nafs itining ilgida lekin zabun. (H.A.)*
- LIBOS** *a.* Kiyim, kiyim-bosh, ust-bosh.  
*Har pari chehraiki mahvash erur,*  
*Moviy o'lsa, libosi dilkash erur. (S.S.)*
- LİKAV** *Likop; tarelka.*  
*Suzdi osh bir likavda uch kishidin,*  
*Ketti oshni ko'rub hama hushidin. (M.)*
- LİVO** *a.* Bayroq, tug'.  
*Har g'unchayi lola huqqai la'l,*  
*Ochilsa livoda shuqqai la'l. (L.M.)*
- LO I** *a.* Yo'q, emas.  
*Ko'rдумki ani dushmani ruhu tan ekandur,*  
*Lo o'qi bila ikki ko'ziga ota qoldim. (Mash.)*
- LO II** *a.* yuk. -ku; -da.  
*Qichqiribon dom aro ul muftalo,*  
*Necha dedi, tot, meni tuttilo. (H.A.)*
- LOBAQO** *a.* Abadiy emas, boqiy emas.  
*Lobaqodur qalbiy, qalbing bog'lama iqbolinga,*  
*Bo'lma g'arra oriyat dunyovu mulku molinga. (T.F.)*
- LOF** *a.* So'z.  
*Ishq ila shohlig' muvofiq emas,*  
*Ishq lofida shoh sodiq emas. (S.S.)*
- LOLA** *f.* Yirik qizil gulli o'simlik va uning guli.  
*Agar ko'rsa seni ham lola so'lg'ay,*  
*Seningdek gul magar uchmohda bo'lg'ay. (Mn.)*
- LOLARUX** *f.* Lola yuzli, qizil yuzli; go'zal.  
*Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,*  
*Ko'rub rahm etmading, ey lolarux, bu chehrai zardim. (B.)*

**LOMAKON** *a.* Makonsiz, manzilsiz, joysiz (Xudoning sifatlaridan biri).

*Lomakonning shahrini bir hu bila sayr ayladim,  
Jabrail, borg'il nari, bolu parimni kavlama. (Mash.)*

**LOUBOLI** *a.* Beparvo, beg'am.

*Biri Iso nafasliq rindi Sheroz,  
Fano dayrida mastu louboli. (A.N.Qit.)*

**LOYIQ** *a.* To'g'ri keladigan, munosib.

*Xeshman, darveshu miskin mustahiq devonadin,  
San turub loyiqmudur, qilmoq tama' begonadin. (T.F.)*

**LOZIM** *a.* 1. Kerak, zarur, darkor.

*Menga yaxshi dedi yor birla o'lmoq,  
Na lozim g'am bilan dunyoda qolmoq. (S.Sar.)*

2. Vazifa.

*Necha rahzan anga mulozim etib,  
Hifzini borchasig'a lozim etib. (S.S.)*

**LOZIMA** *a.* Lozim bo'lgan narsa, qilinishi muqarrar narsa.

*Haqning erur sahvsiz ish lozimi,  
Sahv erur lozimai odami. (H.A.)*

**LOSHA** *f.* 1. O'limtik, o'laksa, o'lik.

2. *ko'ch.* Zaif, kuchsiz, nimjon.

*Molu dunyoni yig'ib, bir losha tang'a zulm edib,  
Yuk og'ir, eshshak yag'ir, manzil uzoqu yo'l xatar. (T.F.)*

**LOCHIN** Qush ovlashda foydalaniladigan, ovchilar tomonidan juda qadrlanadigan yirtqich qushlarning bir turi.

*Bu ot: humo, uqob, qarchig'ay, bahrin, lochin, itolg'u – qush-  
larning salotinidurlar. (Zm.)*

**LUJJA** *a.* Daryo, ariq, kanal suvlarining uyurma hosil qilib oqadigan joyi, girdob.

**Lujjai g'am** G'am girdobi.  
*Chun bular dog'i keldi motam ila,  
Bahri anduhu lujjai g'am ila. (S.S.)*

**LUTF** *a.* Iltifot, marhamat, olijanoblik.

*Lutf qo'lin holinga hamdast etay,  
Xasmni bir panja bila past etay. (H.A.)*

**LO'LIZOY** *f.* Lo'lidan tug'ilgan, lo'livachcha.

*Na adolat bo'lur ul shohda – o'lg'ay lo'lizoy,  
Hamdami xotunu kengash begisi xojasaroy. (T.F.)*



## Mm

**MA 1.** Axir; hatto, yana.

*Adin ma bu besh neng yiraq tutg'u beg,  
Ati edgu bo'lsa ku jav bulg'u beg. (Q.B.)*

2. Ham; va.

*Qamug' ishni uqtung ma bilding o'zun  
Menga ma bag'irsaqsa qilqin so'zun. (Q.B.)*

**MAD a.** Uzayish, cho'zilish; uzunlik.

*Zulfung madidin qiladur jong'a ko'zung qasd,  
Chin lashkari kofirg'a qilur ore himoyat. (A.)*

**MADFAN a.** Dafn qilinadigan yer, go'r.

*Hamul shohi mag'furning madfani,  
Bo'lub erdi tun-kun aning maskani. (S.I.)*

**MADH a.** Maqtov; maqtash.

*Jamoling madhidin ofoq to'ldi,  
Sanga olmoq ko'ngulni xatm bo'ldi. (Mn.)*

**MADHUSH a.** 1. Hushidan ketgan, behush, hushsiz.

*Qildi faryodu bordi andin hush,  
Mehrni hayrat ayladi madhush. (S.S.)*

2. Kayf qilgan, mast.

*Kel, ey oy yuzlu dilbar, tut biror qo'sh,  
Biror qo'sh birla qilg'il bizni madhush. (Mn.)*

**MADID a.** Cho'zilgan, uzaygan, davom etgan.

**Muddati madid** Uzoq muddat.

*Xo'jand ham muddati madid edikim, Umarshayx mirzo  
devonig'a taalluq edi. (Bn.)*

**MADRASA a.** Oliy diniy maktab.

*Gahi maktab ichra kirib shodkom,  
Gahi madrasa sori aylab xiom. (Mu.)*

**MADRUS a.** Berk, yopiq.

*Eltibon qasr qiling mahbus,  
Eshigin ustidin eting madrus. (S.S.)*

**MADXAL a.** Kirish yeri, kirish.

*Budur bahr ishikim, dedim mujmalin,  
Bayon ayladim maxraju madxalin. (S.I.)*

**MA'DUDI a.** Sanoqli kishi, oz kishi.

*Qosimbek va Ibrohim soru va Vays Log'ariy boshliqlarni ikki*

*tarafg'a ilg'or yiborilib edi, mening bila bir necha ma'dumi qolib edi. (Bn.)*

**MA'DUM** *a.* Yo'q, mavjud emas, mavjud bo'lmagan.

*Agar mavjudu ma'dum o'lsa olam,  
Anga ijodu i'domi musallam. (F.Sh.)*

**MAFAR** *a.* Najot topish joyi, qutulish yeri, najotgoh.

*Ki holo adamdur alarg'a mafar,  
Yigirmi durur dag'i to'quz nafar. (S.I.)*

**MAFHUM** *a.* Ochiq, ochiq-oshkor.

*Diydabonlar yana qilib ma'lum,  
Yana Jobirg'a dedilar mafhum. (S.S.)*

**Mafhum bo'lmoq** Ravshan bo'lmoq, ochiq-oydin bo'lmoq, tushunilmoq.

*Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'ladur, vale bu mug'luq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur. (Bn.)*

**MAFRASH** *a.* To'shak, palos.

*Sahni havoda to'shalib mafrashi,  
Azmda yel xayli janibatkashi. (H.A.)*

**MAGAR** *f.* 1. Faqat, yolg'iz, birgina.

*Agar ko'rsa seni ham lola so'lg'ay,  
Seningdek gul magar uchmohda bo'lg'ay. (Mn.)*

2. Ammo, lekin, biroq.

*Yo'l qiroqdin magar yiroq erdi,  
Bahrdin borsa yaxshiroq erdi. (S.S.)*

3. Shoyad, shoyadki; zora.

*Ul magar holatimni anglab jazm,  
Maxlasimg'a bu sori qilg'ay azm. (S.S.)*

4. Agar, agarda.

*Qatiq kulsang magar og'zing bilurgay,  
Pari ko'rsa seni, mendek tilurgay. (Mn.)*

**MAGARAM** *f.* Ehtimol, shekilli.

*Nega muncha siyohdur kokul,  
Magaram dudi ohdur kokul. (Mu.)*

**MAH** *f.* ayn. Moh.

*Ulki, ogahlarning ogahidur,  
Fazlu donish sipehrining mahidur. (K.)*

**MAHAL** *a.* Vaqt, payt, fursat.

*Aqd hazmini qilg'ali obod,  
Go'yiyo bu mahal edi miod. (S.S.)*



**MAHALLOT** *a.* (*birligi mahalla*) Mahallalar.

*Qal'aning girdo-girdi tamom mahallottur.* (Bn.)

**MAHBUB** *a.* Sevgili, yor, do'st.

*Ikki mahbubni ko'rdum, bir-birinin ko'rmagan,  
Ikkisining o'rtasig'a, do'stlar qil sig'mag'an.* (U.)

**Mahbubi haqiqiy** Alloh, xudo.

*Chu mahbubi haqiqiy uldurur, ul,  
Aning vasli sari qat' aylamak yo'l.* (F.Sh.)

**MAHBUS** *a.* 1. Hibsga olingan, qamalgan.

**Mahbus qilmoq** Qamamoq.

*Eltibon qasr aro qiling mahbus,  
Eshigin ustidin eting madrus.* (S.S.)

2. Asir, tutqun.

*Bo'lsa ul dushman ilgida mahbus,  
Manga nomus erur, sanga nomus.* (S.S.)

**MAHD** *a.* 1. Beshik.

*Hariru hulla ichra bog'labon chust,  
Murassa' mahd ichinda tongdilar rust.* (F.Sh.)

2. Odam tashish uchun tuya yoki fil ustiga o'rnatilgan o'rindiq, kajava.

*Chu ul mahd ichra kirdi sarvi gulro',  
Ko'rarkim eltmish mehmonni uyqu.* (F.Sh.)

**MAHFIL** *a.* 1. Joy, o'rin, manzil.

*Mahfiling aro har tun jam' o'lur bori noahl,  
Donish ahlidin ishing nega ijtinob o'lmish.* (K.)

2. Yig'ilish, to'planish, yig'in.

**Mahfil tuzmak** Yig'ilishmoq, to'planishmoq.

*Roy ko'p urdilar tuzub mahfil,  
Shahsiz o'lsa sipah yo'q hosil.* (S.S.)

**MAHJUR** *a.* Judo bo'lgan, mahrum bo'lgan, ayrilgan.

*Tushti Nu'mon ishiga asru futur,  
Har zamon jonidin edi mahjur.* (S.S.)

**MAHKAM** *a.* 1. Qattiq, yaxshilab.

*Notavon tutti rishtani mahkam,  
Mehr chekti, ul ikki mahvash ham.* (S.S.)

2. Qattiq, kuchli, shiddatli.

*Qish mahkam sovuqtur.* (Bn.)

**MAHKAMA** *a.* Fuqarolarning da'volarini ko'rib, tegishli hukm chiqaruvchi idora, sud.

**Mahkamai shar'** Shariat sudi.

*Shart bukim, aylama mahkam itob,  
Mahkamai shar'da bergil javob.* (H.A.)

**MAHKUM** *a.* Hukm qilingan; birovning hukmi ostida bo'lgan, tobe bo'lgan.

*Kim ne kishikim, sanga mahkum erur,  
Zulmunga bechorau mazlum erur?* (H.A.)

**MAHMUL** *a.* O'ylash, hisoblash, yo'yish.

**Mahmul qilmoq** O'ylamoq, hisoblamoq.  
*Tahammulsiz bo'lub topti so'zum tul,  
Xaloyiq qilmasun vahming'a mahmul.* (F.Sh.)

**MAHOL I** *a.* Qiyin, og'ir, mushkul.

*O'lumdur bizga jononsiz tirilmak,  
Mahol erur tana jonsiz tirilmak.* (Mn.)

**MAHOL II** *a.* Hayvonlar belining o'rta qismi, belining nozik nuqtasi.

*G'azanfar xud netar changolu yolin,  
Chekar bo'lsa tishi o'yning maholin.* (F.Sh.)

**MAHRAM** *a.* 1.Yaqin, sirdosh, ulfat.

*Dilda ohi bo'lmag'on bedardni  
Mahram etma har nechuk asrorg'a.* (F.)

2.Xizmatkor; kanizak.

*Eturdi fasli gul sayri xiyobon,  
Necha mahramlari birlan xiromon.* (S.Sar.)  
**Mahrami asror** Ishonchli sirdosh, yaqin sirdosh.

*Qil muhr og'iz xotamidin Lutfiyning og'zin,  
Kim dunyoda bir mahrami asror topilmas.* (L.)

**MAHRUQ** *a.* Yongan, kuygan; kuyuvchi.

*Bo'ldi oshiq biri, biri ma'shuq,  
Yo'qki ul otashinu bu mahruq.* (S.S.)

**MAHVASH** *f.* Oyga o'xshagan, oyday go'zal.

*Suhayl yurdi pari qochg'an sarig'a,  
Yetay deb mahvashi dilkash parig'a.* (S.Sar.)

**MAHZ** *a.* Faqat, yolg'iz; juda, nihoyatda, g'irt.

**Mahzi kizb** G'irt yolg'on.  
*Faqir agarchi bu so'zning mahzi kizb ekanin bilur erdim.*  
(M.L.)



**MAHZUN** *a.* G'amgin, g'amnok, qayg'uli, xafa.

*Komili mahzuningg'a rostini etgil bayon,*

*So'yla mango, ey sanam, kimning sevar yorisen? (K.)*

**MAHZUZ** *a.* Bahramand, lazzatlangan; xursand, shod.

*Ilgidagidin neki malhuz etar,*

*Bir iligi qisqani mahzuz etar. (H.A.)*

**MAHSHAR** *a.* Qiyomat.

*Bu Mashrab dardini, jono, ki hech kim boshig'a solma,*

*Agar mahsharda oh ursam, zaminu osmon o'rtar. (Mash.)*

**Mahshar eli** Qiyomatda odamlar to'planadigan maydon ahli, to'plangan kishilar.

*Kuygusi tongla qiyomat dodu ohimni ko'rub,*

*Qolg'usi mahshar eli hayron gunohimni ko'rub. (Mash.)*

**MAHSHARGOH** *a. -f.* Qiyomatda odamlar to'planadigan joy.

*Gahi bo'ldum faqiru, gah shohu, gohi gadodurman,*

*Ajab devonaman, fardoki mahshargohg'a sig'mamdur.*

*(Mash.)*

**MAJLIS** *a.* O'tirish, bazm.

**Majlisi farog'** Aysh-ishrat bazmi.

*Ikki bandi – o'q erdi bog' ichra,*

*Kelgach ul majlisi farog' ichra. (S.S.)*

**MAJLISOROY** Bazmga oro beruvchi, o'tirishni bezovchi.

*Va ul uy shabistoni harimida bu sham'i anvar majlisoroy*

*durur. (H.A.)*

**MAJNUN** *a.* (*ko'pligi majonin*) Jinni, telba, devona.

*«Layli, Layli!» debon chekib un,*

*El deb, «Majnundur, ushbu majnun!» (L.M.)*

**MAJOL** *a.* Kuch, quvvat, mador.

*Necha qatla chu bo'ldi mundoq hol,*

*Bildikim, yo'q anga boqarg'a majol. (S.S.)*

**MAJOLIS** *a.* (*birligi majlis*) O'tirishlar, bazmlar, yig'ilishlar;

yig'inlar.

*Halqai ushshoqda bazmu majolis qurdiman. (T.F.)*

**MAJOZ** *a.* 1. G'ayri haqiqat, haqiqat emas, haqiqatning ziddi,

allegoriya.

*Tutsam talabi haqiqata rohi majoz,*

*Afsona bahonasila arz etsam roz. (Fuz.)*

2. Majoziy ishq, insoniy ishq, zohiriy ishq.

*Ich bodayi haqiqat, tark aylagin majozni,  
Oqil kishi qaroni pisand etmas oq turub. (K.)*

**MAJOZIY** *a.* Majozga oid, haqiqiy bo'lmagan.

*Bo'lub ma'shuqi asliy chorasozing,  
Haqiqatqa badal bo'lg'ay majozing. (F.Sh.)*

**Ishqi majoziy** Tasavvuf ta'limotiga ko'ra insonning insonga bo'lgan sevgisi.

*Bu o'zluqdin qutulmoq chorasozni,  
Nima yo'q, o'ylakim, ishqi majoziy. (F.Sh.)*

**MAJMA'** *a.* Yig'in, yig'ilish.

*Kim bu sifat anjumani g'am aro,  
G'am demayin, majma'i motam aro. (H.A.)*

**MAKNAT** *a.* Kuchlilik, qudratlilik; qudrat.

*Jahon ichra jahon kim topti maknat,  
Solib ikki jahon ahlig'a hayrat. (F.Sh.)*

**MAKON** *a.* Joy, o'rin, yer.

*Ul na gunbazzur eshigi, tuynugidin yo'q nishon,  
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon. (U.)*

**MAKR** *a.* Hiyla, nayrang, aldov.

*Dedikim, pahlavonliq ermas ul,  
Kim, kishi makr birla urg'ay yo'l. (S.S.)*

**MAKRUMAT** *a.* Saxiylik, olijanoblik.

*Boshi yalang bo'lsun, agar ahli toj,  
Makrumat aylar chu ko'rur ehtiyoj. (H.A.)*

**MAKS** *a.* To'xtash; to'xtalish; hayallash, kech qolish.

*Gar etsang maksu, nogah chiqsa jonim,  
Yaqin bilkim erur bo'yunngg'a qonim. (F.Sh.)*

**MALAK** *a.* Farishta.

*Ey falak qadru adolat shiyami mulku malak,  
Marhamat chog'ida rahm ayla baholi Hapalak. (Max.)*

**Malak ul-mavt** O'lim farishtasi, Azroil.

*Hazrati mavt zuhuri qildi,  
Malak ul-mavt huzuri qildi. (Shn.)*

**MALAKSIYMO** *a.* Farishtaga o'xshagan, malak sifat, juda g'ozal.

*Ki, ne hukm etgung, ey malaksiymo,  
Shammai andin aylagil iymo. (S.S.)*

**MALHUZ** *a.* Mulohaza qilingan, o'ylangan.

*Ilgidagidin neki malhuz etar,  
Bir iligi qisqani mahzuz etar. (H.A.)*



**MALLOH** *a.* Kema haydovchi, kemachi.

*Toki tund o'ldi bahr aro ko'lok,  
Dedi malloh aylabon yaqo chok. (S.S.)*

**MALOHAT** *a.* Husn, go'zallik, chiroy, ko'rk.

*Sanga payvasta, ey koni malohat,  
Ko'zung, qoshing bila o'q yo ne hojat. (Mu.)*

**MALOL** *a.* G'am, anduh, g'ussa, qayg'u.

*Ne erkin aning atosi holi,  
Bechora anosining maloli? (L.M.)*

**MALOLAT** *a.* Malollik, malol, og'irsinish.

*Agar labtashna qolsaq, filmasal sahroyi olamda,  
Malolat zohir etsa, mavj uran daryog'a bormasmiz. (F.)*

**MALOMAT** *a.* Ta'na, mazammat, ayb.

*Som Xomg'a malomat qildi. (R.)*

**MALUL** *a.* Malol kelgan, g'amgin, xafa.

*Tengri xalq etmish meni go'yo malolat chekkali,  
Kim dame yo'qkim, emasmen xalqi nodondin malul. (B.V.)*

**MA'LUM** *a.* Ayon, oshkor; xabar.

**Ma'lum qilmoq** Xabar qilmoq, bildirmoq.  
*Diydabonlar yana qilib ma'lum,  
Yana Jobirg'a dedilar mafhum. (S.S.)*

**MAMAR** *a.* Suv yo'li, o'tish joyi.

*Topibon ashki nilufarda mamar,  
Yo'q, ajab bahr ichinda nilufar. (S.S.)*

**MA'MAN** *a.* Turar joy, istiqomatgoh, maskan, joy.

*Bor edi bir jazira ma'man anga,  
Xalq moli'yig'org'a maxzan anga. (S.S.)*

**MAMLU** *a.* To'liq, to'la.

*Topib holin nechakim aylab idrok,  
Hunardin mamlu, ammo aybdin pok. (F.Shn.)*

**MAMOLIK** *a.* (birliqi **mamlakat**) Mamlakatlar, o'lkalar; davlat.

*Beshinchi navbatkim, kelib Sulton Ibrohimni bosib  
Hinduston mamolikini fath qildim. (Bn.)*

**Mamoliki jahon** Jahon mamlakatlari.

*Olam aro baski, hukmrondur,  
Bilqisi mamoliki jahondur. (H.G.)*

**MA'MUR I** *a.* Amr etilgan, buyurilgan.

**Ma'muri ibodat** ibodat qilishga buyurilgan.  
*Ul seni ma'muri ibodat qilib,  
Sen laabu lahvni odat qilib. (H.A.)*

- Ma'mur aylamak** Buyurmoq, amr etmoq.  
*Sendin etsa bu nav' lutf zuhur,*  
*Har nechuk ishka aylasang ma'mur. (S.S.)*
- Ma'mur bo'lmoq** Bo'ysunmoq.  
*Erur haq amrig'a ma'mur bo'lmoq,*  
*Bu ishdin o'zgin ma'zur bo'lmoq. (F.Sh.)*
- MA'MUR II a.** Gullab-yashnagan, obod, obodon.  
*Anda bir shoh hokimu voliy,*  
*Mulki ma'muru himmati oliy. (S.S.)*
- MA'MURA a.** Obod mamlakat.  
*Farg'onaning Marg'inon otliq viloyatidindur, ul ham doxili*  
*Movarounnahrdir. Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubtur.*  
 (Bn.)
- MAN' a.** Ta'qiq; inkor, rad.  
*Nozili hukmi qazo hech kim radu man' etmadi,*  
*Barcha bo'ynig'a solan bu rishtani qat' etmadi. (T.F.)*
- MANGU** Abadiy, doimiy.  
*Shakar erning naboti Xizra o'xshar,*  
*Oyog'ing kimki o'psa mangu yoshar. (Mn.)*
- MANHUS a.** Bexosiyat, shum.  
**Bumi manhus** Shum boyqush.  
*Menu xaylim nechukkim bumi manhus,*  
*Bo'lub bir g'or aro tog' ichra mahbus. (F.Sh.)*
- MA'NI a.** 1.Ma'no.  
*Nazmda ham asl anga ma'ni durur,*  
*Bo'lsun aning surati har ne durur. (H.A.)*  
 2.Aql, es-hush.  
*Men sizni bilimlik va ma'nidin boxabar kishi fahmlab*  
*erdim. (Zm.)*
- MAN-MAN** Takabbur, kibri, kekkaygan.  
**Man-man demak** Takabburlik qilmoq, kekkaymoq.  
*Tor ko'ngullik beklar man-man demang, kenglik qiling,*  
*To'qson ikki bovli o'zbak yurtidur tenglik qiling. (T.F.)*
- MANOFI' a.** Foydalar, naflar; foyda, naf.  
*G'am yesang, ul gala manofi' berur,*  
*Bog' gulu meva nofi' berur. (H.A.)*
- MANOZIL a.** (birligi **manzil**) Manzillar; manzil.  
*Bori manzil o'lub savohil anga,*  
*Sohili bahr o'lub manozil anga. (S.S.)*



**MANSAB** *a.* Martaba, lavozim, amal.

**Mansabi oliy** Yuqori lavozim.

*Tilar el mansabi oliy va lekin,*

*Atoyi sarvi ozodingg'a banda. (A.)*

**MANSUBA** *a.* Qismat, taqdir; qaltis hazil, o'yin.

*Bal haqiqat aro aningdur Mehr*

*Ki, bu mansuba zohir etti sipehr. (S.S.)*

**MANZIL** *a.* Yashash joyi, turar joy, istiqomatgoh; makon, joy.

*Bo'ylakim, hajr qo'ydi bag'rig'a dog',*

*Manzil o'lmish edi anga ul bog'. (S.S.)*

**MANZUM** *a.* Tizilgan, terilgan.

*O'rnida tishlar duri manzum erur,*

*Chun sochilur qiymati ma'lum erur. (H.A.)*

**MANZUR** *a.* Nazarga olgan, e'tiborga olgan.

**Manzur qilmoq** E'tiborga olmoq, nazarga olmoq.

*Agar huquqni manzur qilib, Badaxshonni Sulaymon mirzog'akim, bizni farzandimizdur, bersangiz yaxshi bo'lg'ay. (Bn.)*

**MAONIY** *a.* (birligi **ma'no**) Ma'nolar, ma'nilar.

*Latofat mulkining sohibqironi,*

*Muvofiq surating birla maoniy. (Mn.)*

**MAOSH** *a.* 1. Tirikchilik, yashash.

*Toki quyosh jirmi bo'lub nurposh,*

*Mahfili ayshingda bu yanglig' maosh. (H.A.)*

2. Yashash uchun zarur bo'lgan mablag'.

*Dedi, qisos aylasang olingda bosh,*

*Siyimni ol, gar g'arazingdur maosh. (H.A.)*

3. Muomala, munosabat.

*Uzun Hasan va Sulton Ahmad Tanbal viloyat eliga bisyor zulmlar o'tkarib, yamon maosh qilib edilar. (Bn.)*

**Maosh aylamak** Yashamoq, hayot kechirmoq.

*Aning komi birla tirilmak erur*

*Maosh aylamak ajdaho komida. (A.N.Qit.)*

**MAQDAM** *a.* Qadam; kelish, tashrif buyurish.

*Erur ming yilki, bo'lub ko'hsori,*

*Chekarmen maqdamningning intizori. (F.Sh.)*

**MAQDUR** *a.* Imkon, kuch, qudrat.

*Maqdur boricha qiluram sa'yi visoling,*

*To tengrini bilmonki, visoling, ne taqdir qilibtur. (B.)*

- MAQOBIR** *a.* (*birligi maqbara*) Qabrlar, maqbaralar.  
*Jahongir mirzo va yana ba'zi avlodining maqobiri andadur.*  
 (Bn.)
- MAQOL** *a.* So'z, nutq, gap.  
*Lek hunar ichra, kamol ichra ham,*  
*Xulqi xushu lutfi maqol ichra ham.* (H.A.)
- MAQOLAT** *a.* 1. So'z, nutq. 2. Bob, fasl, qism.  
*Uchunchi maqolat.* (X.M.)
- MAQOLOT** *a.* (*birligi maqola*) So'zlar, nutqlar.  
*Yillar tutubon shayx maqolotig'a go'sh,*  
*Ne ko'ngluma zavq yetti, ne jonima jo'sh.* (A.N.Rub.)
- MAQOM** *a.* 1. Joy, makon.  
**Maqomi dulfuzo** Rohatbaxsh joy.  
*«Vodil» maqomi dulfuzo,*  
*Ko'chalaridur dilkusho.* (M.)  
 2. Bosqich, daraja; martaba.  
*Kel, ey, gulchehra soqiy, may keturgil,*  
*Meni hayrat maqomig'a yeturgil.* (Mn.)  
*Chu sen topting Sulaymonliq maqomin,*  
*Demon qil manga Bilqis ehtiromin.* (F. Sh.)
- MAQSAD** *a.* Yetib boriladigan joy, qo'lga kiritiladigan nuqta.  
*Maqsadi sori yetmagan ermish,*  
*Kema ul sori ketmagan ermish.* (S.S.)
- MAQSUD** *a.* Maqsad, murod, niyat.  
*Topilg'ay maqsudum tabqungda bori,*  
*Saodat qilsa Xorazmiyg'a yori.* (Mn.)
- MAQTAMOQ** Ijobiy fazilatlarini ko'rsatib gapirmoq.  
*O'zini maqtag'oni o'lumning qorovuli.* (Zm.)
- MAQTUL** *a.* Qatl qilingan, o'ldirilgan.  
*Besha ichra devlar maqtuli o'lsun, ey pari,*  
*Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay.* (B.V.)
- MA'RAKA** *a.* Jang maydoni, janggoh.  
*Ma'arakada Zol bila Rustame,*  
*Boshlari uzra o'kulub olame.* (S.S.)
- MARAL** Kiyikning urg'ochisi, urg'ochi kiyik.  
*Go'yiyo saydlardin ul jangal,*  
*Voqe' erdi to'la bug'uvu maral.* (S.S.)
- MARAZ** *f.* Kasallik, xastalik.  
*Bu dard ila o'larmen, maraz chu zohir emas,*  
*Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'aylar.* (B.V.)



- MARD** *f.* Jasur, qo'rqmas, yurakli, botir.  
*Anga keldi sharaf mard o'lmag'indin,  
 Na kelgay erdi qo'rqub qolmag'indin.* (S.Sar.)
- MARDAK** *f.* Yengiltabiat erkak, pastkash odam.  
*Qal'a tomi buyuk, andoqki falak,  
 Ustida bir necha nodon mardak.* (Shn.)
- MARDIKOR** *f.* Yollanib ishlovchi ishchi.  
*Hozir etib to'rt nafar mardikor,  
 To'g'ri qil olding'a qilibon qator.* (M.)
- MARDON** *f.* Mardlar.  
*Yer ostig'a qochib kirdim nodonlardan,  
 Ilkim ochib, duo tilab mardonlardan.* (A.Y.)
- MARDUD** *a.* Rad etilgan, haydalgan, quvilgan.  
*Xaloyiqlar meni quvlar, yomon deb har shahar borsam,  
 Ajab mardud, ajab mahrum, ajab sangsora Mashrabman.*  
 (Mash.)
- MARDUM I** *f.* Ko'z qorachig'i, qorachiq.  
*Yarar ming jon bir ishkoling fidosi,  
 Ko'zum mardumi xolingning fidosi.* (Mn.)
- MARDUM II** *f.* 1. Xalq, el, kishilar. *ko'ch.* 2. Qishloq odamlari, qishloq ahli.  
**Mardumi sahroyi** Sahro kishilari.  
*Xoja so'zini munga bermay qaror,  
 Mardumi sahroyi bo'lur beqaror.* (M.)  
**Mardumi fahmida** Tushunadigan kishilar.  
*Boqiyi umringni sarfi mardumi fahmida qil,  
 Maqdaminda bosh qo'yub, pobo'si mardum dida qil.* (T.F.)
- MARDUMLIG'** Odamgarchilik, insoniylik.  
*Bir dam ayla mardumlig' diydam ichra manzil qil,  
 Durru la'l sochsunlar maqdamingg'a mijgonlar.* (G.)
- MARG** *f.* O'lim, vafot, ajal.  
*Zulmni tark aylavu dod aylagil,  
 Marg kunidin dog'i yod aylagil.* (H.A.)
- MARHABO** *a.* Salom; salomlashish.  
*Seningtek podshohing marhabosi,  
 Meningtek ming gadoning xun bahosi.* (Mn)
- MARHAM** *a.* Yaraga qo'yiladigan dori, malham.  
*Diyda namnoku giribon choku bag'ri porai,  
 Noqabuli marhamu, nosur, bitmas yorai.* (T.F.)

- MARHAMAT** *a.* Rahmdillik, rahm-shafqat.  
*Ey falakqadru adolat shiyami mulku malak,  
Marhamat chog'ida rahm ayla baholi Hapalak. (Max.)*
- MA'RIFAT** *a.* (*ko'pligi maorif*) Bilish, tanish; irfon; ma'lumot.  
*Ma'rifat bozorining devonasi,  
Bilhaqiqat ishqining mayxonasi. (Mash.)*
- MA'RIFATULLOH** *a.* Allohni tanish, xudoni bilish.  
*Murod ma'rifatullohdur taallumdin,  
Emas mubohasau jang ila jidol Kamol. (K.)*
- MAR'IY** *a.* Diqqat-e'tiborga olingan, rioya qilingan.  
*Qilg'um agar adl esa mar'iy bukun,  
Sening ila da'viyi shar'iy bukun. (H.A.)*
- MARKAB** *a.* Miniladigan hayvon (ot, eshak) va narsa (kema kabi); ulov.  
*Markabi g'am samandimiz, domi alam kamandimiz,  
Nolai zor tug'umiz, xayli balo sipohimiz. (Og.)*
- MARKUZ** *a.* Mahkam o'rnashgan, mustahkam joylashgan.  
*Tarab mehri hamisha pok ko'nglung,  
Sipehr avjida markuz bo'lsun. (Og.)*
- MARQAD** *a.* Qabr, go'r, mozor.  
*Xishtini masjid buzubon kelturub,  
Toshini el marqadidin yetkurub. (H.A.)*
- MARROT** *a.* (birligi *marra*) Bir necha marta, bir necha bor, qayta-qayta.  
*Ushbu asnoda Boqibek manga karrot va marrot aytur edikim... (Bn.)*
- MARTABA** *a.* Amal, lavozim, mansab.  
*Lek bu iqbolning o'trusida,  
Bo'yla biyik martaba qarshusida. (H.A.)*
- MA'RUF** *a.* Taniqli, atoqli, mashhur.  
*Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa'y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. (Bn.)*
- MARZ** *a.* Yer.  
*Marz uzra kiyar sebarga javshan,  
Shashpar ko'tarur boshig'a savsan. (F.Sh.)*
- MARG'INONIY** *f -a.* Marg'ilonlik.  
*Jangaraliq rasmi Movarounnahrda shoyi'dur, Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg'inoniydur. (Bn.)*

**MARG'UB** *a.* Yoqimli, xush, ma'qul.

*Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,  
Ahli maoniy qoshida xo'b emas. (H.A.)*

**MARG'UBA** *a.* Sevikli, sevimli.

*Bo'ldi xon xotibu ul maxtuba,  
Bo'ldi xon rog'ibu ul marg'uba. (Shn.)*

**MASAL** *a.* Maqol.

*Ilgari o'tgan yaxshilar masalidurkim «Yaxshi nafas – yarim mol». (Zm.)*

**MASIH** *a.* Iso payg'ambarning laqabi. Diniy kitoblarda Iso o'z nafasi bilan o'lik tanga jon bag'ishlash qudratiga ega ekanligi aytiladi.

*Masihdek bir boqishda murda jismim zindalar qilding,  
«Senga men to qiyomat oshno» deb va'dalar qilding. (Z.)*

**Masih anfosliq** Masih nafasli, ya'ni o'likni tiriltirish kuchiga ega bo'lgan.

*Qamuq ko'rkluklar uzra podshosen,  
Masih anfosliq Yusufliqosen. (Mn.)*

**MASJID** *a.* Musulmonlar yig'ilishib birgalikda namoz o'qiydigan bino, machit.

*Xarobot ichra masjidida yerim bor,  
Kim ush ham rindmen, ham porsomen. (Mn.)*

**Masjid ul-Haram** Makkadagi Ka'ba joylashgan muqaddas maydon.

*Ul taxt Masjid ul-Haram tengincha erdi. (R.)*

**MASJUD** *a.* Sajda qilinadigan, sig'iniladigan zot.

*Ul masjid bo'lsun, sizlar sojid bo'lung, Odamg'a sajda qiling. (R.)*

**MASKAN** *a.* Turar joy, yashash joyi, makon.

*Olig'a solibon borin surdi,  
Tokim o'z maskanig'a yetkurdi. (S.S.)*

**MASLAHAT** *a.* Fikr olishish, kengashish, kengash.

*Bizning qurratulaynimiz er yetibdur, bir yerda munosib maslahat qilali. (Zm.)*

**MASMUM** *a.* Zaharli.

*Bu ermish rasm bermak zoli ofoq,  
Chu masmum o'ldi, andin so'ngra taryoq. (F.Sh.)*

**MASMU'** *a.* Eshitilgan.

**Masmu' tushmoq** Eshitilmoq.

*Agarchi nazmi dilkash tushsa masmu',  
Aning afsonasi ham bo'lsa matbu'. (F.Sh.)*

**MASNAD** *a.* Taxt.

*Bobur podshoh Karnon degan kenttadur, borib ani olib ke-  
lingkim, podshohliq masnadi anga taalluq bo'lubtur. (Bn.)*

**Masnadi shohanshahi** Podishoh taxti.

*Anda tuzub masnadi shohanshahi,  
Ayshu tarab jomi uchun mushtahi. (H.A.)*

**MASNADNISHIN** *a. -f.* Biror shaxsning ishini davom ettiradigan,  
uning o'rniga o'tiradigan kishi, o'rinbosar.

*Ey xulafo o'rnida masnadrishin,  
Ko'r o'z ishingniyu alarning ishin. (H.A.)*

**MASNAVIY** *a.* Juft qofiyali baytlardan iborat bo'lgan she'riy asar.

*Dedikim: alar zumrai ma'naviy,  
Guruheki, nazm ettilar masnaviy. (S.I.)*

**MASOF** *a.* Jang, urush, savash.

*Qo'yub erdi kaminda Jobir nev,  
Kinavarlar masof vaqtida dev. (S.S.)*

**MASOFAT** *a.* Bir nuqtadan ikkinchi nuqttagacha bo'lgan oraliq,  
masofa; yo'l.

**Masofat qat' etmak** Yo'l bosmoq, yo'l yurmoq.

*Necha kun aylabon masofat qat,  
Sohilu bahr ichinda ofat qat. (S.S.)*

**MASRUR** *a.* Xursand, shod, xurram.

*Sham'ki tuzluk bila masrur erur,  
Garchi kuyar, boshdin-ayoq nur erur. (H.A.)*

**MAST** *f.* 1. Ichkilik ta'sirida kayf qilgan, kayfi bor.

*Har sori bir mast o'lub oromjo'y,  
Bir buti gulruxdin o'lub komjo'y. (H.A.)*

2. *ko'ch.* Biror narsadan qattiq ta'sirlanish natijasida  
zavqlanib kayf qilgan.

*Javob kutti bo'lub u ishq aro mast,  
Vale taqdir kulub tez bermadi dast. (S.Sar.)*

**Masti xarobotiy bo'lmoq** Mayxonada mast bo'lmoq.

*Dahrning ozoridin masti xarobotiy bo'lub,  
Tarki hush aylab, bo'lub ul yerda hayron ikkimiz. (K.)*

**MASTLIK** 1. Mast bo'lishlik, sarxushlik.

*Mastlik uyqusi chu aylab hujum,  
Barcha o'lukdek yotib ul xayli shum. (H.A.)*

**MASTUR** *a.* Yozilgan, bitilgan.

**Mastur bo'lmoq** Yozilmoq, bitilmoq.

*Bu bitilganlardin maqsud o'zni ortturmoq emas, rosti bu edikim, mastur bo'ldi. (Bn.)*

**MA'SUM** *a.* Pok, toza.

*Jurmu gunahdin kishi ma'sum emas,*

*Tarkini tutmoq dog'i mazmum emas. (H.A.)*

**MATBU'** *a.* Yoqimli, maqbul, manzur.

*Agarchi nazmi dilcash tushsa masmu'?*

*Aning afsonasi ham bo'lsa matbu'. (F.Sh.)*

**MATLAB** *a.* Istak, tilak, talab.

*G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,*

*Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi, dardu mehnatim. (T.F.)*

**MATLUB** *a.* Talab etilgan, istalgan; yoqimli.

*Til bori ul debki, demak xo'b emas,*

*Ko'z ko'rubon oniki, matlub emas. (H.A.)*

**MATO'** *a.* Boylik, davlat.

*Zihi ishqingda dardi dog'i hijroning mato'imdur,*

*Qaroqchi aylamas toroj oningki, kimsa boj etmas. (G.)*

**MAT'UN** *a.* Ta'na qilingan, aybdor, gunohkor.

*Ustodi Sayid Mahmud shiiy ekandur. Bu jihattin Boysung'ur mirzo ham mat'un edi. (Bn.)*

**MAVFUR** *a.* Mo'l, ko'p.

*Viloyat ma'mur va raiyat shokir va xizona mavfur va sipohi vofir bo'lg'ay. (Bn.)*

**MAV'ID** *a.* Va'da vaqti; va'da.

*Emdi mav'id falon kun-o'ldi yaqin,*

*Azm uchun soat ayladuk ta'yin. (S.S.)*

**MAVJ** *a.* Suv yuzining to'lqinsimon harakati, to'lqin.

*Beribon kemasiga muhlik mavj,*

*Bir zamoni hazizu gohi avj. (S.S.)*

**MAVJUD** *a.* Bor bo'lgan, bor.

*Yuklabon necha jung aro amvol,*

*Anda mavjud har ne qilsa xayol. (S.S.)*

**MAVJAR** *a.* -f. Mavjlanuvchi, to'lqinlanuvchi.

*Yosh to'kub bahri mavjar yanglig',*

*Ko'k libos ichra nilufar yanglig'. (S.S.)*

**MAVLO** *a.* Ega, sohib, janob, xudo, alloh.

*Kecha-kunduz tinmayin jon qiynadim dunyo uchun,*

*Xizmati shoista hargiz qilmadim mavlo uchun. (F.)*

**Mavlo azza va jalla Aziz va ulug' egam.**

*Mavlo azza va jalla Odamni qamug' ko'rkluklar birlu be-  
di. (R.)*

**Mavlo taolo Ulug' egam, alloh taolo.**

*Sening ontingdin menga mavlo taoloning yorlig'i azizru-  
turur. (R.)*

**MAVOJIB** *a.* Tayinlangan, belgilangan ish haqi, maosh.

**Mavojib yemak** Ish haqi olmoq, xizmat haqi olmoq.

*Ikinch ulki, bor oncha afsungarim,*

*Mavojib yegan barchasi chokarim. (S.I.)*

**MA'VO** *a.* Joy, o'rin, manzil, makon.

*O'yla yetkurdi jahonga ziynatu oro bahor,*

*Kim, bori yer yuzin etti jannat ul-ma'vo bahor. (Og.)*

**Qichqirmag'an ma'vog'a bormoq** Chaqirilmagan joyga bor-  
moq.

*Biz istig'no eli qichqirmag'an ma'vog'a bormasmiz,*

*Agarchandeki xirman aylasa, dunyog'a bormasmiz. (F.)*

**MAVQUF** *a.* To'xtagan, ushlanib qolgan.

*Dedi mavquf bo'lmayin nimaga,*

*Ko'zuni bog'labon soling kemaga. (S.S.)*

**MAVSUF** *a.* Maqtalgan, yaxshi tomondan sifatlangan.

*Qayu mazharki ajmal kelsa mavsuf,*

*Ajab yo'q anda ko'prak bo'lsa mash'uf. (F.Sh.)*

**MAVSUM** *a.* Atalgan, nomlangan, nomli, ismli.

*Qo'rg'onning sharqi janubi bir mavzun tog' tushubtur,*

*Baroko'hqa mavsum. (Bn.)*

**MAV'IZAT** *a.* Va'z-nasihat, o'git, pand.

*Bu olti qasida hamd va na't va sano va mav'izatdur. (M.L.)*

**MAVT** *a.* O'lim.

*Hazrati mavt zuhuri qildi,*

*Malakul mavt huzuri qildi. (Shn.)*

**MAVZUN** *a.* 1. Tik, to'g'ri, chiroyli.

*O'tg'a solg'il sarvni ul qaddi mavzun bo'lmasa,*

*Yelga bergil gulni, ul ruxsori gulgun bo'lmasa. (B.V.)*

2. Nozik, tuyg'un

*Qulung, Furqat, dilim dardini ko'p ifsho qilolmasmen,*

*Ko'tarmas ta'bi mavzunung, aning fikricha, san nozik. (F.)*

**MA'XAZ** *a.* Biror narsaning olingan yeri, manba.

*Anga farzona Farhod ism qo'ydi,  
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi. (F.Sh.)*

**MAXDUM** *a.* Xizmat qilinadigan shaxs; ulug' zot.

*Ul maxdum bo'lsun, sizlar xodim bo'lung. (R.)*

**MAXFIY** *a.* Sirli, yashirin; noaniq.

*Elga necha maxfiy esa bu sifat,  
Zohir etar yolg'on o'zin oqibat. (H.A.)*

**MAXLAS** *a.* Xalos bo'lish, qutulish, najot topish.

*Maxlasing ichra sa'y etib jondin,  
Seni cheksam bu tiyra zindondin. (S.S.)*

**MAXLUQ** *a.* Yaratilgan mavjudot, yaratilgan narsalar; jonzot.

*Va ul qiz oftobi olamtobdek har xomni pishurub, hech  
maxluq ani kunduzi ko'rmakka chorasi yo'q erdi. (Zm.)  
Turk sortdin tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati  
sofroq va pokroq maxluq bo'lubtur. (M.L.)*

**MAXRAJ** *a.* 1. Talaffuz qilish; talaffuz, diksiya.

*Usru maxrajni rioyat aylar,  
Oni bilganga inoyat aylar. (Shn.)*

2. Chiqish yeri; chiqish.

*Budur bahr ishim, dedim mujmalin,  
Bayon ayladim maxraju madxalin. (S.I.)*

**MAXSUS** *a.* Xos bo'lgan, tegishli bo'lgan, xos.

**Hinduston maxsusi** Hindistonga xos bo'lgan.

*Hayvonotkim, Hinduston maxsusidur, vuhushdin bir fil-  
durkim... (Bn.)*

**MAXTUBA** *a.* Uylanish uchun munosib ayol.

*Bo'ldi xon xotibu ul maxtuba,  
Bo'ldi xon rog'ibu ul marg'uba. (Shn.)*

**MAXUF** *a.* Xavfli, xatarli; qo'rqinchli.

*Yo'lda bir vodiy edi asru maxuf.  
Qilmayin andin murur ahli vuquf. (S.S.)*

**MAXZAN** *a.* Qimmatbaho mol-mulk, ashyo saqlanadigan joy, xazina.

*Bor edi bir jazira ma'man anga,  
Xalq moli yig'org'a maxzan anga. (S.S.)*

**Maxzani ishq** Ishq xazinasi.

*Ki inson ko'nglun etti gulshani ishq,  
Bu gulshanning harimin maxzani ishq. (F.Sh.)*

- MAY** *f.* Uzumdan tayyorlangan spirtli ichimlik; sharob, vino.  
*Jo'sh pur xum sof maysan, man g'uboru durdiman. (T.F.)*
- MAYDA** *f.* Kichik, unday, un kabi.  
*Ajiriq tomirini o'g'urida mayda tuyub,  
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak. (Max.)  
Mayda suxan* Arzimas gaplarni gapirib yuradigan, mayda gap.  
*O'g'izlari maqtanib o'n besh qarish,  
Mayda suxan, ezmachuruk, zanchalish. (M.)*
- MAYDON** *a.* Jang maydoni, janggoh.  
*Muhammad Xo'jabek ulkim Alitek,  
O'kush javlon qilur maydon ichinda. (Mn.)  
Maydon chekmak* Jang qilmoq, urushmoq.  
*Mardlar maydon chekib, rangin ko'tarib zaxmlar,  
Sizga yo'q, ul javharu yuzga upo-englik qiling. (T.F.)*
- MAYL** *a.* 1. Biror kishi yoki narsaga bo'lgan qiziqish, ishtiyoq, moyillik.  
*O'ylakim, Mehrning xarobi Suhayl,  
Mehrg'a ham Suhayl sori mayl. (S.S.)*  
2. Xohish, istak, rag'bat.  
*Chun talashmoqqa ayladilar mayl,  
Ko'tarib yerga urdi oni Suhayl. (S.S.)*
- MAYMANA** *a.* Qo'shinning o'ng qanoti.  
*Nechukkim, maymana va maysarakim, burong'or va  
juvong'or derlar. (Bn.)*
- MA'YUS** *a.* G'amgin, xafa, qayg'uli.  
*Gul debon sevgan kishining ko'kragiga nish urub,  
Xastayu ma'yus etib, afgor qilmoq shunchalar. (M.)*
- MAYMUN** *a.* Saodatli, baxtli; qutlug'.  
*Kelib har biri kecha andoqki hum,  
Muvofiqqa maymun, muxolifqa shum. (S.I.)*
- MAYPARAST** *f.* Ichkilikka berilgan; mayxo'r.  
*Mayikim, qilur quysalar jom aro,  
O'zi mastu kayfiyati mayparast. (G'.S.)*
- MAYSARA** *a.* Qo'shinning chap qanoti.  
*Nechukkim, maymana va maysarakim, burong'or va  
juvong'or derlar. (Bn.)*
- MAYXONA** *f.* 1. May ichiladigan yer.  
2. Tasavvufda alloh bilan ruhiy birlik, ma'naviy yaqinlik  
hosil qilish uchun so'fiylar yig'iladigan joy.





*Mayxonag'a kirdim, bila qoldim kuyarimni,  
Masjidg'a kirib zohidi yaxdek qota qoldim. (Mash.)*

**MAYXORALIQ** Mayxo'rlik, ichkilikbozlik.

*Xazon ayyomida ul tavba qilg'an bo'lsa ham maydin,  
Yetib mayxoraliqning mavsumi paymonshikan bo'lsa. (F.)*

**MAZALLAT** a. Xorlik, zorlik, xor-zorlik.

*Mazallat xokig'a boshin qo'ymoq Xor bo'lmoq.  
Ham mazallat xokig'a Mashrab boshin qo'ydi bukun,  
Tongla mahshar bo'lsa men ishq ahlini sultoniman. (Mash.)*

**MAZAMMAT** a. Malomat, ta'na.

*G'ussai behuda asbobi nadomat ayladim,  
Bilmadim o'z aybimi, xalqqa mazammat ayladim. (T.F.)*

**MAZHAB** a. 1. Dinda ba'zi qarashlari bilan bir-biridan farq qiladigan yo'nalishlar.

*Tavallud va manshai Bag'doddin va Abu Savr mazhabida  
bo'lur ermishki...(N.M.)*

*Durahdu tangchashmu besaru yajujvaj,  
Muxtalif mazhab guruhi O'zbekistondur bu mulk. (T.F.)*

2. ko'ch. Rasm, odat, urf.

*Bizing mazhabta oshiqlarni sizlar,  
Agar o'ltursangiz tovon yo'q, ey jon. (Mn.)*

**MAZLIMA** a. Zulm, istibdod, jabr.

*Alachaxon yurusun ilgari shod,  
Ko'chlar mazlimasidin ozod. (Shn.)*

**MAZLUM** a. 1. Zulmga duchor bo'lgan, zulm ko'rgan, ezilgan.

*Negaki, chun hashr kuni zuljalol,  
Zolimu mazlumni aylar savol. (H.A.)*

2. Notavon, kuchsiz, nochor.

*Bo'ridek yog'ini mazlum etsa,  
Mol olurdin ani mahrum etsa. (Shn.)*

**MAZLUMA** a. Mazlum ayol, zulm ko'rgan ayol.

*Mazlumalar, jonlara jononalar,  
Qizlaringizni o'quting onalar. (H.)*

**MAZMUM** a. Xato, yanglish.

*Der edi, yolg'on demakim, shum erur,  
Kizb tuz el ollida mazmum erur. (H.A.)*

**MAZOR** f. Go'r, qabr.

*O'lsam, yasamang munda mazorimni mening,  
Yuklab eliting jismi figorimni mening. (A.N.Rub.)*

- MAZRA'** *a.* Ekin ekiladigan maydon, ekinzor, dala.  
*Chun mazra' ichra sochting har ne dona,*  
*Hamul dona ko'targung jovidona. (F.Sh.)*
- MAZRU'** *a.* Ekilgan.  
*Ko'hak suyi bila ma'mur va mazru'dur. (Bn.)*
- MA'ZUL** *a.* Yo'qolish, ketish; qochish.  
**Ma'zul o'lmoq** Yo'qolmoq, qochmoq.  
*Ko'zlaridin uyqu chu ma'zul o'lub,*  
*Har biri bir zulmg'a mashg'ul o'lub. (H.A.)*
- MA'ZUR** *a.* Uzrli.  
*Bu nav' ish hakim ar ruxsat berur,*  
*Xirad ahli ollinda ma'zur erur. (S.I.)*
- MAZZA** *a.* 1. Maza, ta'm, lazzat.  
 2. Ta'sir.  
*So'zni, Muqimiy, kerak etmak tamom,*  
*Mazzasi qolmas uzun o'lsa kalom. (M.)*
- MAG'FUR** *a.* Marhum, vafot etgan.  
*Hamul shohi mag'furning madfani,*  
*Bo'lub erdi tun-kun aning maskani. (S.I.)*
- MAG'ORA** *a.* G'or.  
*Ko'rundi dasht aro bir qulla pora,*  
*Hakim anda nihon bo'lg'an mag'ora. (F.Sh.)*
- MAG'RIB** *a.* G'arb, kunbotar.  
*Mashriqdin mag'ribg'a qayu yerda tayoq tashlasa, kishi*  
*boshig'a tushar erdi. (R.)*
- MAG'RUR** *a.* Kekkaygan, kibrli, kibr-havoli.  
*Nechakim bersa chehrang ko'zlara nur,*  
*Chechaktek bo'lmag'il husnungg'a mag'rur. (Mn.)*
- MAG'Z** *a.* Miya.  
*Qaysining mag'zi burundin chiqti. (Shn.)*
- MASH'AL** *a.* Nur, yog'du.  
*Orazi mash'ali jahonafro'z,*  
*Partavi shu'lasi kelib jonso'z. (S.S.)*
- MASHHUR** *a.* Shuhrat qozongan, nomi keng tarqalgan.  
*Sening husnung qamuq olamda mashhur,*  
*Yuzungdin kizlanibtur xuld aro hur. (Mn.)*
- MASHOQLAMOQ** Mashoq termoq, boshoq termoq.  
*Boshin egmish yetib oltun boshoqlar,*  
*Boshoqlarni ekinchilar mashoqlar. (S.Sar.)*



- MASHRIQ** *a.* Kun chiqish tomon, sharq, kunchiqar.  
*Nuh mashriqdin mag'ribg'a tegi qamug' xaloyiqqa  
 payg'ambar erdi. (R.)*
- MASH'UF** *a.* Shaydolik, ishqivozlik, berilganlik.  
*Shahqa ko'p erdi ov ishida vuquf,  
 Balki bor erdi asru ko'p mash'uf. (S.S.)*
- MA'SHUQ** *a.* Sevgili, yor.  
**Ma'shuqi asliy** Alloh, xudo.  
*Bo'lub ma'shuqi asliy chorasozing,  
 Haqiqatqa badal bo'lg'ay majozing. (F.Sh.)*
- MASHVARAT** *a.* Kengash, maslahat.  
*Bizga xabar kelgach, beklarni yig'ib mashvarat qilildi. (Bn.)*
- MASHG'UL** *a.* Biror ish bilan shug'ullanuvchi, band.  
*Ko'zlaridin uyqu chu ma'zul o'lub,  
 Har biri bir zulmg'a mashg'ul o'lub. (H.A.)*
- MASHSHOTA** *a.* Qizlarning sochlarini tarab, oro beruvchi,  
 pardoz-andoz qiluvchi (ayol).  
*Kel, ey mashshota, rahm et, yor zulfig'a tarog'urma,  
 Erur jon rishtasidin oni har torig'a payvandim. (Amir.)*
- MEHMON** *f.* Biror munosabat bilan bir kishinikiga yo'qlab kel-  
 gan kishi, qo'noq.  
*Necha kun qasr aro nihon erdi,  
 Sarvi gulruxqa mehmon erdi. (S.S.)*
- MEHNAT** *a.* Azob, mashaqqat, ranj.  
*Umr mehnat bila poyona keldi,  
 Ko'ngul javring elindin jona keldi. (Mn.)*
- MEHNATKADA** *a. -f.* G'am-alam beruvchi, mashaqqat yetka-  
 zuvchi.  
*Domi mehnatkadadin ko'nglumi ozod etsam,  
 Kim, buzulg'on dili vayronani obod etsam. (T.F.)*
- MEHNATKASH** *a. -f.* Mashaqqat tortgan, jafokash.  
*Jaza' to'fonig'a chun bo'ldi taskin,  
 Dedi Shopuri mehnatkashg'a Shirin. (F.Sh.)*
- MEHNATNOMA** *a. -f.* Mashaqqat, qiynchilik, g'am haqidagi  
 asar, g'amnoma, mashaqqatnoma.  
*Zaruratkim solib bir o'zgacha tarh,  
 Bu «Mehnatnoma»ni qilg'umdurur sharh. (F.Sh.)*
- MEHR** *f.* Muhabbat, mehr-muhabbat, ishq.  
*Ko'ngulga o'zganing mehrin yovutmon,  
 Yiroqliq birla men sizni unutmom. (Mn.)*

**MEHR II** *f.* Quyosh, oftob, kun.

*Tuz ko'runur mehr chu turg'on suda,  
Egri bo'lur ushturak urg'on suda.* (H.A.)

**Mehri anvar** Eng porloq quyosh.

*Ko'zgu ichra orazing aksimu erkin jilvagar,  
Yo zilol ichra ko'rungan mehri anvarmu ekin?* (N.Sh.)

**Mehri munir** Nurli quyosh.

*Bo'lsa har odam qanoat nuridin ravshanzamir,  
Uldurur izzat sipehri avjida mehri munir.* (Og.)

**Mehri xovariy** Sharq quyoshi, sharqdan chiquvchi quyosh.

*Ammo Boyo'g'lining bir qizi bor erdiki, mehri xovariy  
yuziga banda erdi.* (Zm.)

**MEHROB** *a.* 1. Masjidning imom sajda qiladigan, qibla tomondagi tepasi qayrilma joy.

*Mehrobda keyin va ilgari yurub, Qur'on o'qur erdi.* (N.M.)

2. Ma'shuqa qoshining yoysimon shakli.

*Falak ayvonina bosh indururmu,  
Qoshing mehrobining toqina mushtoq.* (A.)

**MEHROMIZ** *f.* Mehr bilan, mehribonlik bilan.

*Yig'labon boshlarida ikki kaniz,  
Ko'tarib boshlarini mehromiz.* (S.S.)

**MENG I** Badandagi tug'ma dog', xol.

*Qora meng ol yangoqingg'a yaroshur,  
Boshim doim adoqingg'a yaroshur.* (Mn.)

**MENG II** Parrandalarga beriladigan ozuqa, don.

*Azig'lig' kur erka bu neng eksumas  
Tug'ug'li o'rung qushqa meng eksumas.* (Q.B.)

**MENGIZLI** Kabi, o'xshash.

*Erning aqiqi garchi jahonda yagonadur,  
Chehram mengizli ham yana bir kahrabo qani?* (S.)

**MENGIZLIK** O'xshash, o'xshagan; kabi.

*Tishlarindin nur balqinur erdi, ko'z nuri mengizlik.* (R.)

**MENGZAMAK** Biror belgi, xususiyati bilan boshqa kimsa yoki narsani eslatmoq, o'xshamoq.

*Ul sababdin Odam o'g'lonlari bir-biringa mengzamazlar.* (R.)

**MENGZATMAK** O'xshatmoq.

*Mungar mengzatu aydi shair bu so'z  
Ko'ru barsa ma'ni biligsizka ko'z.* (Q.B.)



**MENSIZIN** Mensiz.

*Mensizin yo'q erdi dame komi,  
Kom yo'q, xotirining oromi. (S.S.)*

**ME'ROJ** *a.* Yuqoriga ko'tarilish, yuksaklikka chiqish.

*Xaliloso bu yo'lda otashi Namrud me'rojim,  
Hamon durri haqiqatmanki, har daryog'a sig'mamdur.  
(Mash.)*

**MEZON** *a.* Eski astronomiyaga ko'ra osmonning o'n ikki burjidan yettinchisi. Sentabr oyiga to'g'ri keladi.

**Mezonga tahvil qilmoq** Quyoshning Mezon burjiga o'tishi.  
*Oftob mezong'a tahvil qildi, sovuq tushti. (Bn.)*

**MIDOD** *a.* Xat yozish uchun ishlatiladigan rangli suyuqlik, siyoh.

*Xating ishtiyogin savod ayladim,  
Ko'zumning qorasin midod ayladim. (N.)*

**MIL** *a.* Nishtarga o'xshash uchi ingichka, o'tkir asbob.

**Mil tortmoq** Mil bilan kesmoq.  
*Sulton Ali mirzoni Ko'ksaroyg'a chiqarib ko'zlariga mil  
torttilar. (Bn.)*

**MILIT** *r.* Daqiqa, minut.

*Qiyg'ir ko'targan uch yigit,  
Uxlatmadilar bir milit. (M.)*

**MILLAT** *a.* Din.

*Aybdin mazhabu millatlari pok,  
O'zlari faqr bila ishratnok. (Shn.)*

**MING I** 1. 1000 raqami va shu raqam bilan ifodalanadigan son, miqdor.

*Boyo'g'lining og'zining burchidin chiqar «Ming chordevor  
qizimning qalini», deb. (Zm.)*

2. Ko'p, behisob, hadsiz.

*Seni ko'rgan o'zindin yot bo'lur,  
Ruhungni ko'rsa ming shoh mot bo'lur. (Mn.)*

**Ming bor** Ming marta, ko'p.

*Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,  
Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman. (T.F.)*

**Ming tuman** Juda ko'p, son ming.

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman,  
Anin tutsa el kend ko'tursa tuman. (Q.B.)*

**MING II** O'zbek uruglaridan birining nomi.

*Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,  
Qirqu yuz, ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling. (T.F.)*

- MINGBOSHI** Qishloq oqsoqoli; daha hokimi yoki oqsoqoli.  
*Mingboshi Eshdavlat akam,*  
*Ammo quruq savlat akam. (M.)*
- MINGBOSHILIK** Mingboshining lavozimi, qishloq oqsoqolligi.  
*Mingboshilik kimning ishi,*  
*Desam, dedi bedonishi. (M.)*
- MINMAK** Biror transport vositasiga chiqmoq, o'tirmoq.  
*Kemi qilurmen tebasiga minib suv uza yururmen. (R.)*
- MINNAT** a. Minnatdorchilik, shukr qilish.  
*Shah dedi: «Gar dav'i esa qonima,*  
*Shar'iy esa minnatidur jonima. (H.A.)*
- MINU** a. Havorang, ko'kimtir.  
**Charxi minu** Ko'kimtir osmon.  
*Bor emish ravzadek havosi aning,*  
*Charxi minu kibi fazosi aning. (S.S.)*
- MIOD** a. 1. Muddat, payt.  
*Biyimi hajridin Navoiy, gar yo'q emin margdek,*  
*Shukrkim ermas muayyan margdek miodi ham. (N.Sh.)*  
2. Va'da, va'dalashish.  
*Bo'ldi miod vaqtidin ogoh,*  
*Ham o'shul vaqt birla yig'di sipoh. (S.S.)*
- MIRZO** a. -f. 1. Temuriy, temuriyzoda (asosan, temuriylarga nisbatan ishlatiladi).  
*Dedilar, borcha manga donolar,*  
*Kim adam bo'lg'usidur mirzolar. (Shn.)*  
2. Temuriylar ismlariga qo'shib ishlatiladi.  
*Dedikim, mening o'g'lum Muhammad Mo'min mirzoni*  
*xatna qilg'onda mirzo anga bag'ishlabtur. (Bn.)*
- MIR'OT** a. Ko'zgu, oyna.  
*Uvaysiy, qalb mir'otig'a ko'rguz dil yuzin, ey sho'x,*  
*Qilursan bu jahonning neknomidin hazar tokay? (U.)*
- MIS** f. Qayishqoq, qizg'ish rangli metall.  
*«Karnay misdin, balg'am isdin» bo'lurini bilmas ekansiz.*  
(Zm.)
- MISKIN** a. Bechora, notavon, bechorahol; faqir.  
*Ayt mendinkim, ul miskin urur oh,*  
*Qachon engay gadoning evina shoh. (Mn.)*  
**Bu miskin** Kamtarlik yuzasidan «men» olmoshi o'rnida ishlatiladi.

*Jahon tutti jamoling, dod qilg'il,  
Bu miskinni birar ham yod qilg'il. (Mn.)*

**MISI** *a.* Timsol, misol, o'xshash, monand.  
*Borcha fazlu hunarda yo'q misli,  
Ko'zguga boqsa o'zi – o'q misli. (S.S.)*

**MISLI** *a.* Kabi, singari.  
*Xalqini ko'rsang agar o'lasiyu, qoqu xarob,  
Ochlikdin egilib qomati misli kamalak. (Max.)*

**MISOLI** *a.* Xuddi, kabi, singari.  
*Kecha go'yo eshitib shuhrati tillo pulini,  
Hapalak qo'rqusidin uchti misoli kapalak. (Max.)*

**MISTAR** *a.* Chizg'ich; lineyka.  
*Bo'ldi chu mistar xatig'a tuz raqam,  
Boshini olmas raqamidin qalam. (H.A.)*

**MIYON** *f.* O'rta, ora.  
*Gah o'rus, gohi cherkas, gohi mo'min, gohi tarsoman,  
Ne kavnayn miyoni lou illollog'a sig'mamdur. (Mash.)*

**MIZOJ** *a.* Kishining tabiati.  
*O'ldi mehringdin Navoiy, bevafo debsen ani,  
Ertaki nozuk mizoji badgumonim sen mening. (F.K.)*

**MOBAYN** *a.* Ora, oraliq, o'rtaliq.  
*Avval o'zung, oxiru mobayn o'zung,  
Barchag'a xoliq, borig'a ayn o'zung. (H.A.)  
O'zga bu to'rt hujraning o'rtasi va mobaynlari tamom bir  
uy doxilidur. (Bn.)*

**MOH** *f.* 1.Oy (planeta). 2.Yilning o'n ikkidan biriga teng bo'lgan  
muddat, 30, 28, 29 yoki 31 kunlik davr.

*Aylama fosid xayola sarf solu mohni,  
Kir shariat yo'lig'a, ayningda ko'r ollohni. (T.F.)*

3.Sevgili, mahbuba, go'zal.  
*Mashrab, yo'lida turfa parishon yurur erdim,  
Ul moh chiqibon parda ko'tardi, boqa qoldim. (Mash.)*

**Mohi tobon** Nur sochuvchi oy, porloq oy.  
*Yuzungdin shomlar zulfungni yig'sang,  
Furug'i mohi tobon hojat ermas. (A.)*

**Mohi Zuhrajabin** Tong yulduzidek go'zal.  
*Amr qildiki, mohi Zuhrajabin,  
Kirdi bog' ichra bo'ldi qasrnishin. (S.S.)*

- MOHVASH** *f.* Oyga o'xshash, oyjamol, go'zal.  
*Mohvash qoldi ul jazira aro,*  
*Mehri iqboli shomi tiyra aro. (S.S.)*
- MOL** Boylik, davlat, mol-mulk.  
*Shamsasi el moli bila zarnigor,*  
*El duru la'li bila gavharnigor. (H.A.)*
- MOLA** Yer tekislaydigan maxsus yog'och asbob.  
*Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,*  
*Suni teng ichmas necha yakson sochar. (H.A.)*
- MOLIK** *a.* Ega, sohib, xo'jayin.  
**Molik riqobi** Qullar egasi.  
*Ayo gulchehralar molik riqobi,*  
*Qamuq olam sening g'amzang xarobi. (Mn.)*
- MOLOMOL** *f.* To'la, limmo-lim.  
**Molomol bo'lmoq** To'lmoq.  
*Ochg'ali otlandi to sultoni Jam iqbol suv,*  
*Bu sharafdin borcha mazra' bo'ldi molomol suv. (K.)*
- MOMUG'** Paxta, momiq.  
*Kuyuk tang'a yolin urmoq ne erdi?!*  
*Momug' uzra choqin urmoq ne erdi?! (F.Sh.)*
- MONAND** *f.* Teng keladigan, teng, o'xshash.  
*Anga bir o'yla nozanin farzand,*  
*Kim, bashar ichra yo'q anga monand. (S.S.)*
- MOSIVO** *a.* Mahrum, allohga bo'lgan ishqdan boshqa hamma narsadan bebahra.  
*Uz diling taalluqdin, band qil xudo sori,*  
*To degil kecha-kunduz: «Mosivo Uvaysiyman»! (U.)*
- MOT** *f.* Mag'lub bo'lish, yengilish.  
*Seni ko'rgan o'zindin yot bo'lur,*  
*Ruxungni ko'rsa ming shah mot bo'lur. (Mn.)*
- MOTAM** *a.* 1. Aza, ta'ziya.  
*Nilufargun libos birla sanam,*  
*Tutubon yor hajrida motam. (S.S.)*  
 2. G'am, qayg'u, g'am-tashvish.  
*Doyim anga bu g'am aro g'am edi,*  
*G'am neki, motam uza motam edi. (H.A.)*
- MOVIY** *a.* Havorang, ko'k.  
*Har pari chehraiki mahvash erur,*  
*Moviy o'lsa, libosi dilkash erur. (S.S.)*



**MOYA** a. 1. Asl, mohiyat, asos.

**Moyai dard** Dard mohiyati.

*Biri bukim yo'q anda moyai dard,  
Qildilar ishq so'zidin ani fard. (S.S.)*

**Moyai payvand** Farzand, bola.

*Tishlabon ul moyai payvandini,  
Og'zida asrar edi farzandini. (H.A.)*

2. Dastmoya, mablag', sarmoya.

*Diramdur moyai ishrat ulusg'a,  
Vale men bo'lmisham bemoya navro'z. (Og.)*

**MOYIL** a. Mayli bor, xohlovchi, istovchi.

**Moyil bo'lmoq** Xohlamoq, istamoq.

*Farishta ko'rsa bo'lg'ay sizga moyil,  
Sizingtek kimda bor shakl-u shamoyil. (Mn.)*

**MOZIY** a. O'tmish, ilgarigi davr, kechmish.

*Moziyu mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,  
Ne uchunkim, dam bu damdur, dam bu damdur, dam bu dam.  
(M.Q.)*

**MUADDAB** a. Tarbiya ko'rgan, odobli, tarbiyali.

*Hazrati Xoja murabbiy va muqavviy edilar. Bisyor muaddab  
bor edi. (Bn.)*

**MUALLO** a. Yuksak, baland.

*Qasrki, bazm anda muhayyo bo'lub,  
Ziynati firdavsi muallo bo'lub. (H.A.)*

**MUAMMAR** a. Uzoq umr ko'rgan, umri uzoq.

*Hadis ilmini Xurosonda oncha bilur kishi yo'q edi, xeyli  
muammardur. (Bn.)*

**MUAMMO** a. She'rning kishi ismi, yil va shu kabilar yashirina-  
nadigan bir turi.

*Hisob ichra birining zehni borib,  
Muammoda birisi ot chiqorib. (F.Sh.)*

**MUANBAR** a. Xushbo'y va qora.

**Muanbar soch** Xushbo'y va qora soch.

*Og'zidek tor fursati vasliyu hajri tuni,  
Ul muanbar sochi yanglig' ham qorong'u, ham uzun. (B.)*

**MUAYYAN** a. Aniq, belgili, ma'lum.

*Ul sari azm qilg'ali Nu'mon,  
Ham muayyan bor erdi vaqtu zamon. (S.S.)*

**Muayyan aylamak** Ma'lum qilmoq.

*Dedi: «Qaysi sori borursan Solih,  
Aylagin bizga muayyan Solih?» (Shn.)*

**MUAZZIN** *a.* Masjidda azon aytib musulmonlarni namozga chaqiruvchi kishi, so'fi.

*Ho'yu g'uludin bu nishoting kuni  
Anglamayin kimsa muazzin uni. (H.A.)*

**MUBADDAL** *a.* Almashish; aylanish.

*Mulkgirlik dag'dag'asi jihatidin xeyli yarashlar urushqa va  
do'stluqlar dushmanliqqa mubaddal bo'lur edi. (Bn.)*

**MUBHAM** *a.* Sirli, yashirin, noma'lum.

*Barcha olam ahlig'a ma'lum erur, mubham ermas. (Og.)*

**MUBOH** *a.* Joiz, ijozat etilgan, ravo.

*G'animattur umur navqoni bizga,  
Muboh erur ko'ngullar qoni sizga. (Mn.)*

**MUBOHASA** *a.* Bahslashish, tortishish.

*Murod ma'rifatullohdur taallumdin,  
Emas mubohasai jang ila jidol kamol. (K.)*

**MUBTALO** *a.* Biror ko'ngilsiz hodisaga duchor bo'lgan, giriftor.

*Qichqiribon dom aro ul mubtalo,  
Necha dedi, dod, meni tuttilo. (H.A.)*

**MUDDAIY** *a.* Da'vogar; raqib.

*Tiyri g'amzang muddaiy ko'ngluga zoye qilmakim,  
Ul hadafdur xora, paykoning kerakmasmu senga? (Mu.)*

**MUDIQ** *a.* Diqqat etuvchi, nozikfahm.

*Bo'yla nazm ichra ham erur necha shiq,  
Fahm etar ul kishiki bo'lsa mudiq. (S.S.)*

**MUDOM** *a.* Doimo, doim, hamisha, hamma vaqt.

*Erur ishqing o'tig'a ko'nglum mudom  
Kabobu kabobu kabobu kabob. (K.)*

**MUDOVO** *a.* Davolash; davo.

*Yuzum o'ldi za'faron dard ilgidin,  
Qil inoyatkim, mudovo sendadur. (L.)*

**MUFAJA** *a.* Nogahoniy, tasodifiy, kutilmagan.

*Biliglik kerak bek uqushlug' udug'  
Angar tegmasa bir mufaja yudug'. (Q.B.)*

**MUFATTIN** *a.* Fitnachi, fitna chiqaruvchi.

*Elni xud bu mufattinlar bila haromnamaklar andoq qilib  
edilarkim, va'da va vaid va nasihat va tahdid hech foyda  
qilmas edi. (Bn.)*

- MUFID** *a.* Naf keltiradigan, foydali.  
*Chora topmoq kerak mufid emdi,  
Yo'q g'amu noladin umid emdi. (S.S.)*
- MUFORAQAT** *a.* Ayrilish, ajralish.  
*Muforaqat imtidodi o'n uch o'n to'rt yilg'a tortib edi. (Bn.)*
- MUFRADOT** *a.* Arab harflarining alohida shakllarining yozilishi;  
harf.  
*Boburiy xattidin so'z chiqti, mufradotni tiladi, bitidim. (Bn.)*
- MUFRIT** *a.* Qattiq, haddan tashqari kuchli, shiddatli.  
*Qishlar agarchi qori aksar ulug' tushar, vale mufrit sovug'i  
yo'qtur. (Bn.)*
- MUFSID** *a.* Fisq-fasodchi, buzg'unchi, ig'vogar.  
*Makr va hiylada shaytondin mufsidroq. (Zm.)*  
**Mufsid ul-arz** Butun dunyoning fisq-fasodchisi.  
*Na mazhab, qaysi din, o'z mulkini o'zi xarob etgay,  
Erurlar mufsid ul-arzu arozil firqayi badrak. (T.F.)*
- MUFTI** *a.* Shariat masalalari yuzasidan hukm chiqaruvchi, fatvo beruvchi, diniy boshliq.  
*Mullo mufti bo'lg'onlar, yolg'on da'vo qilg'onlar,  
Oqni qaro qilg'onlar, ul tamug'g'a kirmishlar. (A.Y.)*
- MUHABBAT** *a.* Sevgi, ishq.  
*Evurman, yuz nechakim kelsa mehnat,  
Jafo sizdin, tag'i bizdin muhabbat. (Mn.)*
- MUHABBATNOMA** *a. -f.* Xorazmiyning 1353-yilda yozilgan muhabbat haqidagi asarining nomi.  
*Muhammad Xo'jabek madhin tugattim,  
«Muhabbatnoma»ni bunyod ettim. (Mn.)*
- MUHADDIS** *a.* Hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi, hadischi.  
*Yana Mir Jamoliddin muhaddis edi. Hadis ilmimi Xurosonda  
oncha bilur kishi yo'q edi. (Bn.)*
- MUHAQQAQ** *a.* Haqiqat, rost, aniq.  
*Egriyu tuz vasfi muhaqqaq durur,  
Botil erur egriyu tuz haq durur. (H.A.)*
- MUHARRAM** *a.* Qamariya yili hisobida birinchi oyning nomi.  
*Ul taraf, bu taraf ish-kuchka borg'on navkar va sipohiyini  
yig'ishturub, tengriga tavakkul qilib, muharram oyining o'n  
sakkizida Hofizbekning chorbog'ig'a safar qildim. (Bn.)*
- MUHASSIL** *a.* Soliq yig'uvchi, soliqchi.  
*Xabar topib muhassillar yiborib, korvonning jame' jihatini  
zabt qildi. (Bn.)*

- MUHAYYO** *a.* Tayyor, shay, hozir.  
*Bo'ldi chu asbob muhayyo yana,  
Kirdi tarab bazmig'a g'avg'o yana. (H.A.)*
- MUHIM** *a.* Zarur, ahamiyatli, kerakli.  
*Senga gapirsam bu muhimi xayr kechka qolur. (Zm.)*
- MUHIMMOT** *a.* Ahamiyatli, zarur ish, muhim ishlar.  
*Bu muhimmottin forig' bo'lg'ondin so'ng, cherik va viloyat-  
ning tartib va nasaqi va zabt va rabtig'a ishtig'ol ko'rsatildi  
(Bn.)*
- MUHLIK** *a.* Halok etuvchi, o'ldiruvchi; halokatli.  
*Beribon kemasiga muhlik mavj,  
Bir zamoni hazizu gohi avj. (S.S.)*
- MUHMAL** *a.* Ma'nosiz, bema'ni, behuda.  
*Ham sochari muhmalu ham termagi,  
Ham oluri harzavu ham bermagi. (H.A.)*
- MUHORABA** *a.* Urush, jang.  
*Hech kim bu qitoldin yuz yondurur xayol qilmag'ay, to  
badandin joni ayrilmag'uncha, bu muhoraba va muqotaladin  
ayrilmag'ay. (Bn.)*
- MUHOSARA** *a.* Qamal, o'rab olish.  
*Shayboniyxon Balxni muhosara qilib edi. (Bn.)*
- MUHR** *a.* Tamg'a, pechat.  
*Qilmasa bu muhr xati yorliq,  
Shohg'a yo'q g'ayri giriftorliq. (H.A.)*
- MUHRA** *a.* 1. Munchoq; tasbeh donasi.  
*Tanimni za'f qilib subha toridek halqa,  
Birin-birin ko'runub muhradek bo'g'un-bo'g'uni. (B.V.)*  
2. Ilon zahri.  
*Keldi yilon jismida peshu shikanj,  
Muhradur og'zidavu ostida ganj. (H.A.)*
- MUHRADUZD** *f.* Ko'z bog'lovchi, ko'z boylag'ich, fokuschi.  
*Ne qilg'ay necha jo'giyi sehrsoz,  
Biri muhraduzdu biri huqqaboz. (S.I.)*
- MUHRIQ** *a.* Kuydiruvchi, haroratli.  
*Muhriq isitma tori bo'ldi. (Bn.)*
- MUHTASIB** *a.* Din va shariat ishlarini nazorat qiluvchi kishi.  
*Har chog'ir kim bor edi to'kturdi,  
Muhtasib oni to'ka - o'q turdi. (Shn.)*

**MUHTASHAM** *a.* Ko'rkam, hashamatli, ajoyib.

*Men asru benavo, siz muhtashamsiz,*

*Latifu noziku zebo sanamsiz. (Mn.)*

**MUJDA** *a.* Yaxshi xabar, xushxabar.

**Mujdai iqbol** Omad xushxabari.

*Biri ul xayldin chopib filhol,*

*Berdi Jobirg'a mujdai iqbol. (S.S.)*

**MUJGON** *f.* Kiprik.

*Yo'q qutulmoqliq manga, ul ofatijon dastidin,*

*Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadang. (F.)*

**MU'JIZ** *a.* Mo'jiza.

*Bo'lub erduk husuli birla ojiz,*

*Hunar ermas, qo'lung ko'rguzdi mu'jiz. (F.Sh.)*

**MU'JIZBAYONLIQ** Ajoyib so'z ustasi, yuksak mahoratli (shoir).

*Biri mu'jizbayonliq sohiri hind,*

*Ki ishq ahlini o'rtar so'zu holi. (A.N.Qit.)*

**MUJMAL** *a.* Qisqa, lo'nda.

*Qiz so'zini dedilar avval anga,*

*Qissani bildurubon mujmal anga. (Shn.)*

**MUJOVIR** *a.* Muqim, biron yerda doimiy yashovchi.

*Topti ruxsatki, musofir bo'lg'ay,*

*Mo'g'ulistong'a mujovir bo'lg'ay. (Shn.)*

**MUKADDAR** *a.* Xiralangan, xiralashgan, tiniqligini yo'qotgan.

*Yuz tarafdin yetkurub, gardi kudurat, zangi g'am,*

*Aylagay oinahi tab'im mukaddar tole'im. (M.)*

**MUKARRAM** *a.* Hurmatli, muhtaram, aziz.

*Ul yo'ldin turklar aziz va mukarram bo'ldilar. (R.)*

**MUKARRAR** *a.* Takrorlangan, takror.

**Mukarrar aylamak** Takrorlamoq.

*Yo'q ersa, nazm qilg'anni xaloyiq,*

*Mukarrar aylamak sendin na loyiq? (F.Sh.)*

**MUKRIM** *a.* Saxiylik qiluvchi, saxiy, saxovatli.

*Chu sen mukrim ahli karamdur sabab,*

*Desam akram ul – akramin ne ajab. (S.I.)*

**MULAQQAB** *a.* Laqablangan, laqab olgan.

*Ul jihattin bu laqab bila mulaqqab bo'lubtur. (Bn.)*

**MULHAQ** *a.* Qo'shilgan.

**Mulhaq bo'lmoq** Qo'shilmok.

*Iroqqa mirzoning so'ngicha boradur edi, Xurosong'a yul  
edi, Sulton Mahmud mirzog'a mulhaq bo'ldi. (Bn.)*

**MULK** *a.* Mamlakat, yurt, o'lka.

*Oti Nu'monu mulki oti Yaman,*

*Adlidin mulki gulistonu chaman. (S.S.)*

**MULKLUK** Davlatga ega bo'lgan, davlatli, mamlakatli.

*O'zbekdek yuz ming qari yog'ini orqada qo'yub, Sulton  
Ibrohimdek qalin cheriklik, vase' mulkluk podshoh bila  
ro'baro' bo'lduq. (Bn.)*

**MULLO** *a.* O'qimishli, bilimli, ma'lumotli.

*Rafqonni bozor joyi tang,*

*Mullolari chaqqon, garang,*

*Omilari ham mullo rang,*

*Ko'ylak kiyib, dastor ekan. (M.)*

**MULOQOT** *a.* Uchrashuv, uchrashish, ko'rishish.

*Munda to zoyi' o'lmish avqotim,*

*Budur oning bila muloqotim. (S.S.)*

**MULOZAMAT** *a.* Xizmat qilish, xizmat.

*Muhammad Hisoriy boshliq borcha mo'g'ullar keldilar*

*Borcha mulozamatni ixtiyor qildilar. (Bn.)*

**MULOZIM** *a.* Biror amaldor xizmatini qiluvchi, xizmatkor  
xizmatchi.

*Necha rahzan anga mulozim etib,*

*Hifzini borchasig'a lozim etib. (S.S.)*

**MULTAFIT** *a.* Ahamiyat beruvchi, e'tibor beruvchi.

**Multafit bo'lmoq** E'tibor bermoq.

*Beklar bu so'zlarga multafit bo'lmay, durusht javoblar aytib  
ilgariga ko'chtillar. (Bn.)*

**MULTAMAS** *a.* Iltimos.

*Dedi: kishvar beray, kech bu havasdin!*

*Dedi: bechora, kech bu multamasdin! (F.Sh.)*

**MUMKIN** *a.* Imkoni bor, imkoni bo'lgan, amalga oshirib  
bo'ladigan.

*Ul choh ichra qilurdi sokin,*

*Chiqmoq andin emas edi mumkin. (S.S.)*



- MUMTAD** *a.* Cho'zilgan, uzaygan, davom etgan.  
*Muhosara ayyomi mumtad bo'ldi. (Bn.)*
- MUMTALIY** *a.* Rosa to'ygan, bo'kkan, to'q.  
*Mushtahiy el yuz esa non bergali,  
Luqma toturmas tilabon mumtaliy. (H.A.)*
- MUMTOZ** *a.* Boshqalarga nisbatan imtiyozli bo'lgan, hammadan afzal, yagona.  
*Hure bu sifat kelur oz,  
Xurshid kibi jahonda mumtoz. (H.G.)*
- MUN** Qusur, illat, kamchilik.  
*Bu ish qilg'uchi er qilur o'z ishi  
Mun erdam biligli ko'rugli kishi. (Q.B.)*
- MUNAQQASH** *a.* Naqshli, naqshdor.  
*Sabza rayohin, anvoyi gullar chechaklar kasratidin  
qo'rg'ong'a qo'ng'on chog'da tovuслarning parlaridek  
turlanib munaqqash ko'runur erdi. (Zm.)*
- MUNAVVAR** *a.* Nurli, yorug', oydin.  
*Jahon bo'ldi jamolingdin munavvar,  
Zihi husnu jamol allohu akbar. (Mn.)*
- MUNDA** Bu yerda.  
*«Muhabbatnoma» so'zun munda ayittim,  
Qamug'un Sir yaqosinda bitdim. (Mn.)*
- MUNDAG'** *ayn.* Mundoq.  
*Bag'irsaqni bulsa bag'irqa urun  
Menga mundag' aydi bilik ham uqush. (Q.B.)*
- MUNDIN** Bundan.  
*Mundin o'zga bu ishga yo'q tadbir,  
Ki, ikkimiz cherik yig'ib bir-bir. (S.S.)*
- MUNDOQ** Bunday, bunaqa, bundoq.  
*Ayoqing o'pmakin qul qildi odat,  
Sulaymon bulmadi mundoq saodat. (Mn.)*
- MUNFAIL** *a.* Xijolatda qolgan, xijil, uyalgan.  
*Yuzidin bargi gul xijil erdi,  
Qaddidin sarv munfail erdi. (S.S.)*
- MUNGA** Bunga.  
*Qilsa ul dog'i zarb izhori,  
Munga ham tushmas erdi ul kori. (S.S.)*

**MUNGAR** Bunga.

*Mungar mengzatu aydi shair bu so'z  
Ko'ru barsa ma'ni biligsizka ko'z. (Q.B.)*

**MUNGLUG'** Mungli, g'amgin.

**Munglug' erinch** Baxtsiz, tolesiz.  
*Bularda eng ing'a bu arquq qilinch  
Bu arquq qilinchliq ne munglug' erinch. (Q.B.)*

**MUNI** Buni.

*Bog'ladi qo'llarin shitob bila,  
Muni ul bog'lag'on tanob bila. (S. S.)*

**MUNING** Buning.

*Otalarimiz muning so'zini eshitmadilar. (R.)*

**MUNIR** a. Nur sochuvchi, yorituvchi, porloq, nurli.

*Roy ila zulmatni munir aylamak,  
Lutf ila olamni asir aylamak. (H.A.)*

**MUNIS** a. Hamdam, do'st, yor.

*Munisim – tole' zabunlar, yor baxti qoralar,  
Hamdamim – tig'i alamdin siynasi sadporalar. (F.)*

**Munisi mahzun** G'amgin Munis.

*Qaysi shohning Munisi mahzun kibi bordur quli,  
Qaysi qulning sen kibi shohi falakmiqdori bor? (Mun.)*

**MUNITEG** Bunday, bunaqa, bundoq.

*Beg alchaq kerak bo'lsa qutqi ko'ngul  
Muniteg yo'q ersa sen andin to'ngul. (Q.B.)*

**MUNKASIR** a. Kam, oz.

*Navkarining ulufasi aslo munkasir bo'lmas edi. (Bn.)*

**MUNOJOT** a. Xudoga iltijo qilish, yalinish, yolvorish.

*Dilso'z abyotim munojot ahlig'a oshub va g'avg'o soldi.  
(M.L.)*

**MUNOSIB** a. 1. To'g'ri keladigan, mos, muvofiq.

*Ko'ngli gar nilufarg'a rog'ib edi,  
Mehr ila nilufar munosib edi. (S.S.)*

2. To'g'ri, ma'qul, yaxshi.

*Qatlinga garchi tab' rog'ib emas,  
Lek qo'ymoq dag'i munosib emas. (S.S.)*

**MUNQOD** a. Itoat etuvchi, bo'ysunuvchi, tobe.

*Xuroson taxti aning taxti zabtida edi va Xorazm va Dorul  
Murz salotini anga mute' va munqod edi. (Bn.)*



**MUNSIZ** Busiz.

*Kimgakim insof yo'q – inson emas,  
Munsiz atvorida juz nuqson emas. (L.T.)*

**MUNTAHI** *a.* Oxiriga yetuvchi, borib taqaluvchi.

**Muntahi bo'lmoq** Borib taqalmoq.

*Ota tarafidin nasabi Shayx Burhoniddin Qilichqa muntahi bo'lur. (Bn.)*

**MUNTAQIL** *a.* O'tuvchi, ko'chuvchi, aylanuvchi, boshqa holatga o'tuvchi.

**Muntaqil bo'lmoq** Aylanmoq, boshqa holatga o'tmoq.

*To'rt-besh navbat ushmundoq shiddattin rohatqa va mashaqqattin farog'atqa muntaqil bo'lubtur. (Bn.)*

**MUNTAZIR** *a.* Orziqib kutuvchi, intizor, mushtoq.

*Kecha-kunduz yo'lig'a muntazirdurman, tikarman ko'z,  
Kelib holim so'rubon ketsa, mehmonimni sog'indim. (U.)*

**MUNUQI** Buning, buniki.

*Munuqi turug'laq Quz O'rdu eli,  
Tub asli, nasabdin yurumish tili. (Q.B.)*

**MUNZAVIY** *a.* Chekingan, uzoqlashgan.

*Bid'atu fisq ahli bo'lub munzaviy,  
Ahli shariat qo'lin etti qaviy. (H.A.)*

**MUNG'AYMOQ** Ma'yuslanmoq; dardini, yuragidagini yorilib gapirmoq.

*Una yo'qtur zulmkorlarda parvo,  
Kima mung'aysin etib darda davo? (S.Sar.)*

**MUNCHA** Buncha, bu qadar.

*Ayit, ey mehring oz, ishvang farovon,  
Netadur ul og'izda muncha yolg'on. (Mn.)*

**MUOMALOT** *a.* (birligi **muomala**) O'zaro munosabatlar, muomalalar.

*Ba'zi muomalotta shar'ni bisyor rioyat qilur edi. (Bn.)*

**MUQASSIR** *a.* Nuqsonli, ojiz.

*Muqassirdur soching vasfinda Lutfiy  
Sening yuzungdin ash'orin o'qurlar. (L.)*

**MUQARRAB** *a.* Yaqin, qadrdon; hamsuhbat, do'st.

*Xoja xalifa, o'zga muqarrablardin arzg'a tegurdilarkim...  
(Bn.)*

**MUQARRAR** *a.* Aniq, so'zsiz.

*Ham o'shul nav'kim muqarrar o'lur,  
Say' qilsoq, bu ish muyassar o'lur. (S.S.)*

- MUQAVVAS** *a.* Yoyga o'xshash, kamalaksimon, egilgan, egik.  
*Manga bir kun baloye bo'ldi tori,*  
*Muqavvas ko'kdin o'qe tegdi kori. (F.Sh.)*
- MUQAVVIY** *a.* Quvvatlovchi, madadkor.  
*Samarqandg'a bordi, necha yilkim, Samarqandta edi,*  
*Ahmad Hojibek murabbiy va muqavviysi edi. (Bn.)*
- MUQAYYAD** *a.* Bog'langan, ulangan.  
*Dahri muqayyad bila ozodasi,*  
*Borcha erur «kof» ila «nun» zodasi. (H.A.)*
- MUQIM** *a.* 1. Bir yerda doimiy yashovchi.  
*Kobulda iqomat qildi Bobur, dersiz,*  
*Andoq demangizlarki, muqim ermasmen. (B.)*  
 2. Muqimiyning taxallusi.  
*Alhamdulillah bexatar,*  
*Keldim, Muqim, aylab safar. (M.)*
- MUQIR** *a.* Iqror bo'lgan, bo'yniga olgan, tan olgan.  
**Muqir bo'lmoq** Tan olmoq.  
*Bo'yla chu ikki tonug' o'tkardi zol,*  
*Bo'ldi muqir xisravi farxunda fol. (H.A.)*
- MUQOTALA** *a.* Bir-birini o'ldirish; urush, jang.  
*To badandin joni ayrilmag'uncha, bu muhoraba va*  
*muqotaladin ayrilmag'ay. (Bn.)*
- MUQRI** *a.* Qiroat qiluvchi, qori.  
*Tol yig'ochlar minbarinda to'ti qush majlis tutar.*  
*Qumri, bulbul muqri bo'lub un tuzar tun-kunduzi. (R.)*
- MUQTADO** *a.* Imom, peshvo.  
*Farg'ona viloyatida bu tabaqa muqtado va shayxulislom va*  
*qozi bo'la kelgandur. (Bn.)*
- MURAKKAB** *a.* Tarkib topgan, tuzilgan.  
**Murakkab etmak** Qo'shmoq, birlashtirmoq.  
*Borin ustodi ishq etgach murakkab,*  
*Tarakkubdin bu ism o'ldi murattab. (F.Sh.)*
- MURASSA'** *a.* Qimmatbaho toshlar bilan bezalgan.  
*Anda mavlo azza va jalla qizil oltundin yaratilmish bir taxt*  
*izdi, gavhar birla murassa' qilmish. (R.)*
- MURATTAB** *a.* Tartibga solingan, tartiblangan, tizilgan.  
*Jismida anosiri murattab,*  
*Kim ayladi paykarin murakkab. (L.M.)*

**MURDA** *f.* O'lik, jonsiz.

*Masihdek bir boqishda murda jismim zindalar qilding,  
«Senga men to qiyomat oshno», deb va'dalar qilding. (Z.)*

**MURDOR** *f.* Pastkash, yaramas, iflos.

*Takjoy olur moxovdan ham  
Hoji o'zi murdor ekan. (M.)*

**MURID** *a.* Pirning muxlisi, eshonga qo'l bergan kishi.

*Aqcha qo'lida ikki-uch mo'ysafid,  
Derki: «Bu nazringizu, bizlar murid». (M.)*

**MUROD** *a.* Maqsad, tilak, orzu.

*Ayo farxunda tole' tal'ati kun,  
Seni tengri murodingg'a tegursun. (Mn.)*

**MURSALIN** *a.* Payg'ambarlar (kitob tushgan payg'ambarlar).

*Istab aning dinini bilgach yaqin,  
Ummat o'lurni rusuli mursalin. (H.A.)*

**MURUR** *a.* Yurish; kechish, o'tish.

*Shahliq oyinin aylabon zanbur,  
Aylamas besipah sukunu murur. (S.S.)*

**MURUVVAT** *a.* Saxovat, himmat; karam, olijanoblik.

*Budun bashchi begka bu himmat kerak,  
Bu himmat bila ham muruvvat kerak. (Q.B.)*

**MURG'** *f.* Qush.

*Murg'i vahshiy Yovvoyi qush.  
G'aribu bu viloyat xonumonidin adashganman,  
Basoni murg'i vahshiy oshyonidin adashganman. (F.)*

**MURSHID** *a.* Pir, ustoz.

*Tariqatqa siyosatlig' murshid kerak,  
Ul murshidg'a e'tiqodlig' murid kerak. (A.Y.)  
Murshidi komil Yetuk pir.  
Inoyatli, diyonatli, yana ham murshidi komil,  
Hama orif, hama sodiq, hama irfonlarim keldi. (Mash.)*

**MUSALLAM** *a.* Munosib, loyiq.

*Shahlar aro bo'yla sifat kam durur,  
Kim Shahi G'oziyg'a musallam durur. (H.A.)  
Musallam tutmoq Tan bermoq, qoyil bo'lmoq.  
Iroqu Fors gar yetsa sening bu she'ring, ey Bobur,  
Ani hizf etgusi Hofiz, musallam tutqusi Salmon. (B.)*

**MUSALLAT** *a.* Ega bo'lgan, qo'lga kiritgan.

*Bu tarixqacha uch kishi Hinduston viloyatig'a musallat  
bo'lub, saltanat qilibturlar. (Bn.)*

- MUSANNAFOT** *a.* (*birligi musannaf*) *Asarlar.*  
*Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovu-  
judkim Hiriya nash'u namo topibtur, bu til biladur. (Bn.)*
- MUSATTAH** *a.* Tekis, siydam.  
*Necha musattah esa, ko'zgu yuzi,  
Tuz ko'runur shohidi mahro' yuzi. (H.A.)*
- MUSAXXAR** *a.* Zabt qilingan, fath etilgan, bosib olingan.  
**Musaxxar bo'lmoq** Zabt etilmoq, bosib olinmoq.  
*Tarix to'qquz yuz o'ndakim, Kobul viloyati musaxxar bo'ldi.  
(Bn.)*
- MUSAYQAL** *a.* Sayqal berilgan, sayqallangan, jilolangan.  
*Xud yuzi garchi musayqal durur,  
Girdi uzor anda mutavval durur. (H.A.)*
- MUS'HAF** *a.* *Qur'on, Qur'oni karim, Kalomullo.*  
*Ulug'-kichik borcha mus'hafni ilikka olib, ushbu mazmun  
bila ahd va shart qildilar. (Bn.)*
- MUSMIR** *a.* Mevasi bor, mevali.  
*Bo'ldi raiyat galavu sen shubon,  
Ul shajari musmiru sen bog'bon. (H.A.)*
- MUSOFIR** *a.* 1. Safarga chiqqan, sayohatchi.  
**Musofir bo'lmoq** Safarga chiqmoq.  
*Oni ham bildi shohi ozoda  
Kim, musofir chu bo'ldi shahzoda. (S.S.)*  
2. *ko'ch.* Bechora, g'arib.  
*Musofirman, g'aribman, bekasu ham benavodurman,  
Vujudum dardg'a to'ldi, emdi darmonimni sog'indim. (U.)*
- MUSOFIRLIQ** *G'ariblik, abgorlik, bechoralik.*  
*Voqife yo'q, bu musofirliqda mandin ne o'tar,  
Baski yuz ko'yi bila ro'zi kelib, ro'zi ketar. (T.F.)*
- MUSOHIB** *a.* Suhbatdosh, hamsuhbat, ulfat.  
*Raqib birla musohib qilma bizni,  
Quturg'on itga sagbon hojat ermas. (A.)*
- MUSOHIBONA** *a.* *-f.* Ulfatlardek, do'stona.  
*Va bir necha muddatqacha bir yerda bo'lub, musohibona bir-  
bir bilan suluk qilur erduk. (Bn.)*
- MUSOLAHA** *a.* Sulh, yarashuv.  
*Agar musolaha jihatidin elchi borsa, turkka taalluq vilo-  
yatlarg'a muzoyaqa qilmog'ularidur. (Bn.)*

- MUSTAHIQ** *a.* Muhtoj, bechorahol, qashshoq.  
*Xeshman, darvesh, miskin, mustahiq devonadin,  
San turub loyiqmudur qilmoq tama' begonadin. (T.F.)*
- MUSTAHSAN** *a.* Maqtalgan, ma'qullangan.  
*Zamiring vasfi mustahsan emastur,  
Quyosh ravshan demak ahsan emastur. (F.Sh.)*
- MUSTAID** *a.* Tayyor, shay, hozir.  
*Chun bizning el tayyor emas edilar, yigitlar mustaid  
bo'lg'uncha Sultonquli va Boboqulini tushurub, qo'rg'ong'a  
elttilar. (Bn.)*
- MUSTA'JIL** *a.* Shoshuvchi, shoshiluvchi.  
**Musta'jil bo'lmoq** Shoshilmoq.  
*Bo'ldilar ikki shoh musta'jil,  
Biri daryo bila, biri sohil. (S.S.)*
- MUSTAMI'** *a.* Tinglovchi, eshituvchi.  
*Qulog'i mustami' bo'lmay so'zumga,  
Ko'zi oylar o'tub tushmay yuzumga. (F.Sh.)*
- MUSTAQBAL** *a.* Kelajak, istiqbol.  
*Mozi-yu mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,  
Ne uchunkim, dam bu damdur, dam bu damdur, dam bu  
dam. (M.Q.)*
- MUSTAG'ROQ** *a.* G'arq bo'lgan, cho'mgan.  
**Mustag'roq qilmoq** G'arq qilmoq.  
*Yo qahri g'azab bila meni tufroq qil,  
Yo bahri inoyatingda mustag'roq qil. (B.)*
- MUSULMON** *a.* -f. Islom diniga e'tiqod qiluvchi kishi, muslim.  
*Som va Hom va Yofas musulmon erdi. (R.)*
- MUTAALLIQ** *a.* Taalluqli, aloqador, tegishli.  
*Muqim mutaalliglari bila solim va salomat borib, Tebaga  
tushti. (Bn.)*
- MUTAASSIR** *a.* Ta'sirlanish.  
*Bu so'zlarni unutung. – Mirzo filhol ayttikim: – Qaysi so'zlar-  
ni? – Alisherbek bisyor mutaassir bo'lub ko'p yig'ladi. (Bn.)*
- MUTADAYYIN** *a.* Dindor.  
*Bisyor muttaqiy va mutadayyin kishi edi. (Bn.)*
- MU'TADDUN-BIH** *a.* E'tiborga loyiq, arzirli, ahamiyatga molik.  
*Manga taalluq viloyat Badaxshon va Qunduz va Kobul va  
Qandahor edi va bu viloyatlardan mu'taddun-bih naf' yo'q  
edi. (Bn.)*

- MUTAHAYYIR** *a.* Hayratda qolgan, hayratlangan, hayron.  
*Ilgini chekti mutag'ayyir bo'lub,*  
*Dedi sumanbar mutahayyir bo'lub. (H.A.)*
- MUTALAVVIN** *a.* Xilma-xil, rang-barang.  
*Xaritasi to'la riyoiy so'fiylar zamiridek mutalavvin xavotir*  
*holotidin. (M.Q.)*
- MUTAOQIB** *a.* Ketma-ket, birin-ketin.  
*Mutaoqib bu mazmun bila xatlar keldi. (Bn.)*
- MUTARADDID** *a.* Taraddudlanish, ikkilanish.  
*Biz bu holatta mutaraddid eduk, turmoqqa bularg'a xeyli*  
*e'timod yo'q edi. (Bn.)*
- MUTASARRIF** *a.* Zehnli, qobiliyatli.  
*Ta'b birla mutasarrifdur o'zi,*  
*Hol birla mutasavvifdur o'zi. (Shn.)*
- MUTASAVVAR** *a.* Rasm chizilgan, surat solingan, biror narsa-  
ning tasviri tushirilgan.  
*Bu uyning har zil'i mutasavvardur, agarchi bu imoratni*  
*Bobur mirzo qilg'ondur, vale bu tasvirlarni Sulton Abusaid*  
*mirzo buyurg'ondur. (Bn.)*
- MUTASAVVIF** *f.* Tasavvuf tarafdori, tasavvufchi.  
*Yana Kamoliddin Husayn Gozurgohiy edi, agarchi so'fi*  
*emas edi, mutasavvif edi. Alisherbek qoshida mundoq*  
*mutasavviflar yig'ilib, vajd va samo' qilurlar ekandur. (Bn.)*
- MUTAVAJJIH** *a.* Yo'nalgan, yuz tutgan.  
*Xo'jand suyining shimol jonibidinkim, Sulton Mahmudxon*  
*mutavajjih edi. (Bn.)*  
**Mutavajjih bo'lmoq** Yuz tutmoq, ketmoq.  
*Men Kobulni olg'ondin burunroq Makka azimati qilib, Hind*  
*yo'li bila mutavajjih bo'ldi. (Bn.)*
- MUTAVOTIR** *a.* Paydar-pay, birin-ketin, ketma-ket.  
*Xisravshohning mo'g'ullaridin mutavotir kishi kela bosh-*  
*ladikim... (Bn.)*
- MUTAVVAL** *a.* Cho'zilgan, cho'ziq.  
*Xud yuzi garchi musayqal durur,*  
*Girdi uzor anda mutavval durur. (H.A.)*
- MUTAVALLIN** *a.* Rang-barang, turli-tuman, har xil.  
*Xaritasi to'la riyoiy so'fiylar zamiridek mutavallin xavotir*  
*holotidin. (M.Q.)*

**MUTAG'AYYIR** *a.* O'zgargan.

**Mutag'ayyir bo'lmoq** O'zgarmoq.

*Ilgini chekti mutag'ayyir bo'lub,*

*Dedi sumanbar mutahayyir bo'lub.* (H.A.)

**MUTASHARRI'** *a.* Shariatga amal qiluvchi.

*Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri' va mutadayyin eldur.* (Bn.)

**MUTI'** *a.* Itoat qiluvchi, tobe, itoatkor.

*Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldum firibi qirqqa,*

*Hokimi Dizzax muti'i payravi jurqundiman.* (T.F.)

**MUTLAQ** *a.* Mutlaqo, butunlay.

*Jahonni aygu oting tutti mutlaq,*

*Yaman ko'zdin yiroq tutsun seni haq.* (Mn.)

**MUTLAQLIQ** Komillik, mukammallik, bekam-u ko'stlik.

*Bildurub elga haqu barhaqlig'in,*

*Anglatibon qodiri mutlaqlig'in.* (H.A.)

**MU'TOD** *a.* Odatlangan, o'rgangan.

*Yor hijronidin o'lgumdur, bu nav' ermiş sazo,*

*Ul kishigakim, biravga o'zni mu'tod aylagay.* (B.V.)

**MUTOYABA** *a.* Hazil, hazillashish.

*Mutoyaba jihatidin deyildikim, har kim sortcha aytsa, bir ayog' ichsun.* (Bn.)

**MUTRIB** *a.* Xonish qiluvchi, cholg'uvchi, kuychi.

*Bo'lub mutrib gulistonlarda bulbul,*

*Qilur ming turli nag'ma birla g'ulg'ul.* (S.Sar.)

**MUTTAFIQ** *a.* Ittifoqdosh, birlashgan.

**Muttafiq etmak** Muvofiqlashtirmoq, kelishib ish qilmoq.

*Ming kishi muttafiq etsa ishini,*

*Bosar, albatta, bu yuz ming kishini.* (Shn.)

**MUTTAQIY** *a.* Taqvodor, xudojo'y, dindor.

*Bisyor muttaqiy va mutadayyin kishi edi.* (Bn.)

**MUTTASIL** *a.* 1.Doimo, hamisha, abadiy.

*Qilmasa mazlum gunohing bihil,*

*Do'zax arodur vatanning muttasil.* (H.A.)

2.Tutashgan, tutash, payvast.

**Muttasil qilmoq** Qo'shmoq, qorishtirmoq.

*Tanim tufroqqa, ey g'am, muttasil qil,*

*Nekim mendin senga yetmish bihil qil.* (F.Sh.)

- MUVOFIQ** *a.* 1. Ittifoqdosh, do'st.  
*Kelib har biri kecha andoqki bum,  
 Muvofiqla maymun, muxolifqa shum. (S.I.)*  
 2. Mos keladigan, mos.  
*Husni to huvaydo qildi xoliq,  
 Husn birla vafu bo'lmas muvofiq. (Mn.)*
- MUFSID** *a.* Buzg'unchi, buzuqi, fisq-fasodchi, janjalkash.  
*Begi ichguchi bo'lsa mufsid o'tun  
 Qamug' ichguchi bo'ldi buduni butun. (Q.B.)*
- MUXAMMAS** *a.* Har bandi besh misradan iborat bo'lgan she'r turi; beshlik.  
*So'rsalarkim, bu muxammasni kim aydi, deb agar,  
 Zavqiy degan bir yamoqchi mahsido'z ustoni. (Z.)*
- MUXLIS** *a.* Birovga ixlos qiluvchi; ixlosmand, ixlosli.  
*Bizga bobo hazrati Shohlig' mazor,  
 Muxlisimiz mardumi ahli diyor. (M.)*
- MUXOTARA** *a.* Xavf-xatar, xavf.  
*Mening onam xonim behuzur bo'ldilar, xeyli yamon  
 behuzurluq edi. Mahkam muxotara o'tkardilar. (Bn.)*
- MUXTALIF** *a.* Har-xil, turli, turli-tuman; ixtilofli.  
*Muxtalif mazhab guruhi O'zbekistondur bu mulk. (T.F.)*
- MUXTASAR** *a.* 1. Icham, lo'nda, qisqa.  
*Chin so'z – mo'tabar, yaxshi so'z – muxtasar. (M.Q.)*  
 2. Uncha katta bo'lmagan, kichik.  
*Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. (Bn.)*
- MUYASSAR** *a.* Amalga oshish, nasib bo'lish.  
**Muyassar o'lmoq** Amalga oshmoq  
*Ham o'shul nav'kim muqarrar o'lur,  
 Say' qilsoq, bu ish muyassar o'lur. (S.S.)*
- MUZAYYAN** *a.* Ziynatlangan, bezalgan.  
*Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok,  
 Qo'l bilarzukdin muzayyan, nuqradin og'izda chang. (F.)*
- MUZD** *f.* Ish haqi, haq, to'lov.  
*Arig'kim muzdig'a yuz ganj berdim,  
 Suyi kelmay ilik ondin yub erdim. (F.Sh.)*
- MUZOYAQA** *a.* Qarshilik, to'sqinlik.  
*Turkka taalluq viloyatlarga muzoyaya qilmog'ularidur.  
 (Bn.)*



**MUZMAR** *a.* Yashirin, pinhon.

*Tan anga siymu, ichinda tosh muzmar ko'nglidin,  
Aqlg'a yuz hayrat ul oyning ichu toshindadur. (B.V.)*

**MUZTAR** *a.* Hayratda qolgan, hayron bo'lgan.

*Alhamdulillah, bexatar,  
Keldim Muqim aylab safar,  
Muztar qolib, ko'rmay zarar,  
Haq bandasig'a yor ekan. (M.)*

**MUG'** *f.* Mayxona egasi, mayfurush.

*May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,  
Bul'ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur. (B.V.)*

**MUG'ALLAZ** *a.* G'aliz, mujmal, noaniq.

*Mushaftin mug'allaz ontlar ichtilar. (Bn.)*

**MUG'LAQ** *a.* ko'ch. Tushunarsiz, mavhum.

*Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'ladur, vale bu mug'laq  
alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur. (Bn.)*

**MUG'ON** *f.* Mug'lar, otashparastlar, o'tga topinuvchilar.

**Piri mug'on** Mayxonachi.  
*Vahdat mayini piri mug'on ilkidin ichtim,  
Mansur kabi boshimi dorg'a tuta qoldim. (Mash.)*

**MUG'TANAM** *a.* G'animat, foydali.

**Mug'tanam tutmoq** G'animat bilmoc.  
*Tut mug'tanam, o'ldung esa xushshol zamone,  
Nechunki, zamon hosid erur, ahli zamon ham. (B.V.)*

**MUSHARRAF** *a.* Sharaflangan, sharaflil.

**Musharraf qilmoq** Sharaflamoq.  
*Nazar btrla agar Jamsen; gar Osaf,  
«Muhabbatnoma» (ni) qilsang musharraf. (Mn.)*

**MUSHAVVASH** *a.* Tashvishli, ko'ngli notinch.

*Ko'ngli, kishi xushlug'idin xush kerak,  
Noxush agar bo'lsa mushavvash kerak. (H.A.)*

**MUSHFIQ** *a.* Shafqatli, mehribon.

*Bir mushfiqi hamroz jahon ichra topolmay,  
Hasrat o'tidin kuydimu motamzada kettim. (Mash.)*

**MUSHKIL** *a.* Qiyin, og'ir, mashaqqatli, sermashaqqat.

*Qoldi Navdarg'a chunki bir manzil,  
Besha ichra murur edi mushkil. (S.S.)*

**MUSHKIN** *f.* Mushk rangli, qora rangli, qora.

*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun nas kelturur «nun» eltibon «sod» ustina. (Og.)*

- MUSHT** *f.* Kaft va panjalarning siqimlangan holati, mushtum.  
**Mushti xok** Bir qisim tuproq.  
*Mushti xokam davru davronlar (ni lekin) ko'rdiman,*  
*Xush dimog' etgan mayi sofi hariflar, durdi – man.*(T.F.)
- MUSHTAHI** *a.* 1. Ishtahali.  
*Anda tuzub masnadi shohanshoi,*  
*Ayshu tarab jomi uchun mushtahi.* (H.A.)  
 2. Och, ochiqqan.  
*Mushtahi el yuz esa non bergali,*  
*Luqma toturmas tilabon mumtali.* (H.A.)
- MUSHTOQ** *a.* 1. Intizor, zor.  
*Falak ayvonina bosh indururmu,*  
*Qoshing mehrobining toqina mushtoq.* (A.)
- MUSHTZAN** *f.* Urishqoq, jangari.  
*Eli sorttur va mushtzan va pursharu sho'r eldur.* (Bn.)
- MUCHA** *f.* A'zo, organ.  
*Yeguluklardin agarchi qo'y muchalaridin ba'zig'a ot qo'yup-*  
*turlar.* (M.L.)
- MO' f.** Soch tolasi, tuk.  
**Mo' bo'lmoq** Zaiflashmoq, kuchsizlashmoq, darmonsiz-  
 lashmoq.  
*Har sari mo' bir til o'lmish ishq iqrorig'a, voy,*  
*Kim inong'ay emdi yuz til birla inkor aylasam.* (N.Sh.)
- MO'LTONINAMO** *f.* Mo'ltoniga o'xshash, lo'liga o'xshash.  
*Birlari mo'ltoninamo hiylagar,*  
*Birlaridur kunda pixu gavda xar.* (M.)
- MO'MIN** *a.* Allohning borligi va birligini tan olgan, imon  
 keltirgan kishi; musulmon.  
*Nuh ul seksan kishi mo'min birla kemiga kirdi.* (R.)
- MO'MININ** *a.* Mo'minlar. **Amir ul-mo'minin** Mo'minlar amiri.  
*Samarqand amir ul-mo'minin Usmon zamonida musulmon*  
*bo'lg'ondur.* (Bn.)
- MO'NDI** *f.* Sopol ko'za.  
*Tashna lab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,*  
*Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta mo'ndiman.* (T.F.)
- MOR** *f.* Chumoli, qumursqa.  
*Chun bo'lur erdi bolalab zavqnok,*  
*Mo'r bolasin qilur erdi halok.* (H.A.)

**MO'TABAR** *a.* Obro'yli, e'tiborli.

*Yovuq kishilar va mo'tabar kishilar o'zini fasildin tashlab qocha kirishhti. (Bn.)*

**MO'Y** *f.* Soch.

*Chu mujgonim g'amidin chiqsa ho'yung,  
Bo'lurmu bir tikon har toru mo'yung. (F.Sh.)*

**MO'YA** *f.* Yig'i, nola.

*Belimdin za'f bo'lsa ko'nglunga hol,  
Bo'lurmu mo'yadin mo', noladin nol? (F.Sh.)*

**MO'YLAB** *f.* Mo'ylov, murt, murut.

*Bir burayin mo'ylabimni chiqib,  
Tort tanobini, jazosi, siqib. (M.)*

**MO'YSAFID** *f.* Keksa, chol.

*Aqcha qo'lida ikki-uch mo'ysafid,  
Derki: «Bu nazringizu, bizlar murid» (M.)*

## Nn

**NA I 1.** Nima, ne.

*Ul nadurkim, sabzto'nluq, yoz yog'ochning boshida,  
Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida. (U.)*

2. Qanday, qanaqa

*Ul na gumbazdur eshigi, tuynugidin yo'q nishon,  
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon. (U.)*

**NA II** Inkor, rad ma'nosini bildiradi.

*Uning ko'nglinda so'lg'unliq hamisha,  
Ko'runmas unga gulzoru na besh. (S.Sar.)*

**NABAVIY** *a.* Payg'ambarga tegishli; payg'ambarona.

*Bu sifat asru qaviydur anda,  
Nuri hilmi nabaviydur anda. (Shn.)*

**NABI** *a.* (ko'p'ligi **anbiyo**) Payg'ambar.

*Yetib xoqon yana Chin kishvarig'a,  
Nabi ul nav'kim din kishvarig'a. (F.Sh.)*

**NABOT I** *a.* O'simlik.

*Mavlo jalla jalolahu qirq yil yag'mur bermadi, yerdin nabot undurmadi. (R.)*

**NABOT II** *a.* 1. Shakar qiyomidan tayyorlanadigan kristal qand, novvot.

2. Shirinlik.

*Erur jon maqsudi ering naboti,  
Husning ham bo'lur oxir zakoti. (Mn.)*

**NABOTOT** *a.* (birligi **nabot**) O'simliklar.

*Hindustonning hayvonot va nabototini zikr qilg'onda mazkur  
bo'lg'usidur. (Bn.)*

**NABUD** *f.* Yo'qlik.

*Fano ul nav' etib nafyi vujudi  
Ki yer topib nabud o'rnida budi. (F.Sh.)*

**NADAM** *a.* Nadomat, pushaymonlik.

*Hamul yerdin o'n ming ikki qadamdur,  
Vale har bir qadamda yuz nadamdur. (F.Sh.)*

**NADIM** *a.* Shohlarning suhbatdoshi, hamdami.

*Salomim gulga elt, ey tong nasimi,  
Kim erur oy – quli, axtar – nadimi. (Mn.)*

**NADIN** Nega, nima uchun.

*Nazokat ortturay desang, misoli g'uncha xomush bo'l,  
Nadinkim og'zini to ochdi gul, bargi xazon bo'ldi. (Z.)*

**NADOMAT** *a.* Pushaymonlik, afsuslanish, taassuf.

*G'ussai behuda asbobi nadomat ayladim,  
Bilmadim o'z aybimi, xalqqa mazammat ayladim. (T.F.)*

**NAF'** *a.* Foyda.

*Gala tugasau qurusa shajar,  
Xud sanga qolmas yana naf'u samar. (H.A.)*

**NAFAR** *a.* Adad, -ta.

*Hozir etib to'rt nafar mardikor,  
To'g'ri qil olding'a qilibon qator. (M.)*

**NAFAS** *a.* 1.O'pkaga tortib chiqariladigan havo, dam.

*Bir nafas urmayin onsiz nafas,  
Mumkin emas kimsaga jonsiz nafas. (H.A.)*

2.Aytilgan niyat, gapirilgan gap.

*Yaxshi nafas – yarim mol. (Zm.)*

**NAFASLIQ** Nafasli, damli.

*Biri Iso nafasliq rindi Sheroz,  
Fano dayrida mastu louboli. (A.N.Qit.)*

**NAFHA** *a.* Yoqimli hid, hushbo'y hid.

*Esti andoq nasim ul yondin,  
Kim xabar berdi nafhasi jondin. (S.S.)*

**NAFIR** *a.* Nola, faryod.

*Agarchi bo'lg'ali ishqing asiri,  
O'tar aflokdin ohim nafiri. (F.Sh.)*



**NAFOIS** *a.* (birligi **nafis**) Nafis, qimmatbaho narsalar, nodir narsalar.

*Va ul ming kemada oltun va kumush va javohir va náfois erdikim... biridin yana biriga daryo bila eltur edilar. (T.M.A.)*

**NAFS** *a.* Mol-dunyoga, yeyish-ichishga, aysh-ishratga bo'lgan hirs.

*Shaynda qoplondin agarchi fuzun,  
Nafs itining ilgida lekin zabun. (H.A.)*

**NAFSPARVAR** *a.* -*f.* Yeb to'ymaydigan, ochko'z.

*Nafsparvardin hunar kelmas – yemakdin o'zga. (M.Q.)*

**NAFT** *a.* Neft.

*Naft yog'iyu qamish jam' etoli,  
Bir qamish bog'ini yuz sham' etoli. (Shn.)*

**NAFY** Inkor, rad.

*Va egrilik nafyidakim, agar egri kishi zulfdek siymbarlar yuzida yer tutarkim, boshi kesguluk. (H.A.)*

**NAHAJ** *a.* To'g'ri yo'l; yo'nalish, yo'sin.

*Sen tushubon yo'l nahajidin yiroq,  
Ko'pragi sendin yurubon yaxshiroq. (H.A.)*

**NAHANG** *f.* Dengiz va okeanda yashaydigan katta yirtqich baliq, akula.

*Qildi Jobir aning sori ohang,  
Ul sifatkim, bolig' yutarg'a nahang. (S.S.)*

**NAHIB** *a.* Qo'rqunch, qo'rquv.

*Garchi Nu'mong'a ko'p yetishti nahib,  
Lek to'fondin o'lmadi osib. (S.S.)*

**NAHIF** *a.* Nimjon, zaif, nozik.

*Bular ichra bor erdi bir zaif it,  
Meningdek zoru majruhu nahif it. (F.Sh.)*

**NAHR** *a.* Daryo.

*Go'yiyo ham jazirada bir shahr,  
O'zi firdavsu salsabil anga nahr. (S.S.)*

**NA'IM** *a.* Ne'matlar, noz-ne'matlar, oziq-ovqatlar.

*Bu g'aribiston aro bo'lg'an muqim,  
Ko'nglunguzdin ketgan ul nozu na'im. (L.T.)*

**NAJJOR** *a.* Duradgor, usta.

*Du bora yurdum dashtlab,  
Bodom koniga qarab,*

*Mirza Umarni so'rog'lab,  
Havlisida najjor ekan. (M.)*

**NAJOD** *a.* Nasl-nasab, kelib chiqish.

*Dedi: avval najodu gavharing de,  
Yana holingni aytu kishvaring de. (F.Sh.)*

**NAJOT** *a.* Xalos bo'lish, qutulish.

**Ahli najot** Xalos bo'lganlar, qutulganlar.  
*Ey Navoiy, kimdurur bu dayr aro ahli najot,  
Ulki chiqmas dayr piri amriyu irshodidin. (B.V.)*

**NA'LAYN** *a.* Bir juft kavush, bir juft nag'al.

*Ki: Ey na'layning o'rni qiblagohim!  
Harimi nazhating g'amdin panohim! (F.Sh.)*

**NALUK** 1. Qanday qilib?, qay tarzda?, qanday?

*Xabarda andog' kelur, Odamg'a so'rdilar: «Naluk Odam  
atanding?» (R.)*

2. Nega?, nechun?, nima uchun?

*Qarlug'ochqa so'rdi: «Naluk so'zlamas». (R.)*

**NAM** *f.* Yoshli, ho'l.

*Sevar bulbul gulin, gul bulbulin ham,  
Nechun gul aylasin bulbul ko'zin nam. (S.Sar.)*

**NAMGIN** *f.* Namli, yoshli.

*Suhayl shu yo'l uzra boqmoqda g'amgin,  
Sevinchi qora kiygan, ko'zi namgin. (S.Sar.)*

**NAMNOK** *f.* Namli, yoshli.

*Diyda namnoku, giribon choku, bag'ri poraye,  
Noqabuli marhamu, nosur, bitmas yoraye. (T.F.)*

**NAMOYON** *f.* Ko'zga ko'rinadigan, yaxshi, tuzuk.

*Qo'chbek chiqib, ushbu ilgari kelgan o'zbeklar bila yaxshi  
chopqulashib namoyon ish qildi. (Bn.)*

**NAMOZ** *f.* Musulmonlarning har kuni besh vaqt qilinadigan ibodati.

*Baski samou g'azalu qavlu savt,  
Bo'lubon ul kungi namoz elga favt. (H.A.)*

**NANG** *f.* Or, nomus, uyat.

*Manga bas ermas erdi bu qadar nang  
Ki qilg'aymen alarg'a o'zni hamsang. (F.Sh.)*

**NAQB** *a.* Qo'rg'on, qal'a, uy ostidan teshib o'tkaziladigan yo'l, lahim.

*Naqb solmoq va qo'rg'on olmoq va tosh urmoq va qozon qur-*

*moqning ish kuchida kecha va kunduz orom va qarori yo'q edi. (Bn.)*

**NAQL** *a.* Bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, o'tish.

**Naql qilmoq** Vafot etmoq, olamdan o'tmoq.

*Necha kundin so'ng o'shul maraz bila – o'q naql qildi. (Bn.)*

**NAQOHAT** *a.* Kasallikdan endigina oyoqqa turgan, ammo butunlay sog'aymagan kishining ahvoli.

**Naqohat ayyomi** Kasallikning sog'ayish davri.

*Naqohat ayyomini obdon rioyat qila olmadim, uzuldum. Bu navbat yomon behuzur bo'ldum. (Bn.)*

**NAQSH** *a.* 1. Biror narsaga o'yib yoki chizib ishlangan gul, bezak.

*Habibim naqshidin ma'ni bulayin,*

*Tahayyurda o'zumdin qurtulayin. (Mn.)*

2. Kuy, musiqa.

*Yana musiqida yaxshi nimalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur. (Bn.)*

3. Surat, ko'rinish, rasm.

*Dayr piri quli menkim may ila,*

*G'ayr naqshini ko'nguldin ketarib. (N.Sh.)*

**NAQSHPARDOZ** *a. -f.* Naqsh soluvchi, naqqosh.

*Yer o'pdi kordoni naqshpardoz,*

*So'zun qildi duo birla sarog'oz. (F.Sh.)*

**NA'RA** *a.* Hayqiriq, baqiriq.

*Qoqib ovuch sanju qilib na'ra ko's,*

*Ko'kka chekib nolau afg'on xuro's. (H.A.)*

**NARGIS** *lat.* 1. Oq yoki sariq gulli bir o't va uning ko'zga o'xshaydigan chiroyli guli.

2. Ma'shuqaning ko'zi.

*Urur nargislaring novakni jong'a*

*Kular chehrang chechaktek arg'uvong'a. (Mn.)*

**NARI** Keyin, so'ng.

*Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti.*

*(Bn.)*

**NAS (S)** *a.* Hukm, farmon.

*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,*

*Qatlim uchun nas kelturur «nun» eltibon «sod» ustina. (Og.)*

**NASAQ** *a.* Tartib, tartib-qoida.

*Samarqandg'a kirgach, o'zgacha tartib va nasaq va xarj va tahmil bunyod qila boshladi. (Bn.)*

- NASB** *a.* Biror lavozimga tayinlash, mansabga ishga qo'yish.  
**Nasb qilmoq** Tayinlamoq.  
*Bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'u va valiahdlig'ig'a nasb qildim.* (Bn.)
- NASIB** *a.* Ulush, nasiba, hissa; taqdir.  
*Nasibin uzmadi tangri ilojin topmag'ay kelsa, Onam deb bo'lg'usi bag'ri qizil qonimni sog'indim.* (U.)
- NASIM** *a.* Mayin shamol, shabada.  
*Qaysi nasim, ulki erur gulfishon, Bargi gulu nastaran andin nishon.* (H.A.)
- NASOYIH** *a.* (birligi *nasihat*) 1. Nasihatlar, o'gitlar. 2. Yig'ilish, kengash.  
*Va Xoja Xalifa va Qanbar Alibek va Turdibek va o'zgu xaloyiq ham bu nasoyihta bor edilar.* (Bn.)
- NASR** *a.* Prozaik asar, proza.  
*Munchaki sharh etdi qalam so'zga hol, Nasridadur, nazmig'a bor o'zga hol.* (H.A.)
- NASTARAN** *f.* Oq yoki qizil rangli, xushbo'y mayda bir gul.  
*Qaysi nasim, ulki erur gulfishon, Bargi gulu nastaran andin nishon.* (H.A.)
- NA'T** Payg'ambarni (Muhammad alayhissalomni) madh etish, uni maqtash.  
*Bu olti qasida hamd va na't va sano va mav'izatdur.* (M.L.)
- NATOQ** *a.* Nutq, so'z, gap.  
**Natoq urmoq** Gapirmoq, so'zlamoq.  
*O'lma ko'p sust, o'shal Erboqi avlodisan, Bor kimni hadi urg'ay sening oldingda natoq.* (T.F.)
- NAV'** *a.* 1. Tur, xil.  
*Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shomu sahar, Bulbuldek aylar yuz navo ming nav' faryod ustina.* (Og.)  
**Bu nav'** Bunday, bu kabi.  
*Ki chekilgay bu intiqom oxir, Ro'zi o'lg'ay bu nav' kom oxir.* (S.S.)  
 2. Tarz, taxlit, yo'l, tariqa, yo'sin.  
*Vasf ne nav' bo'lg'ay anga el so'zi, Har ne so'z aytilsa, erur chun o'zi.* (H.A.)
- NAVBAT** *a.* Nog'ora.  
*Ey, falak avjiddin o'tub rif'ating, Oyu quyoshdin cholinib navbating.* (H.A.)





**NAVHA** *a.* Yig'i, nola.

*Chun yig'i bo'ldiyu navha bisyor,  
Dedilar, emdi nedur chorai kor. (Shn.)*

**NAVHAPARDOZ** *a. -f.* Nola qilib yig'lovchi, mungli yig'lovchi.

*Eli xonning g'amidin yig'lab zor,  
Navhapardoz ekandur bisyor. (Shn.)*

**NAVJAVON** *f.* Yosh, navqiron.

*O'zining shakli birla navjavone,  
Demakim navjavone, notavone. (F.Sh.)*

**NAVJUVON** *f.* Yosh, navrasta.

*Zolni anjum kibi siymi ravon,  
Zoli falakdek qilibon navjuvon. (H.A.)*

**NAVKAR** Askar, soldat.

*Navkar va savdar va chokar jami' cherik bila bo'lg'onlar o'n  
ikki ming kishi qalamg'a keldi. (Bn.)*

**NAVMID** *f.* Noumid, umidsiz.

*Navmid bo'lmoq Umidsizlanmoq.  
Sipohi va raiyat navmid bo'lub, birar, ikkirar qo'rg'ondin  
tashlab qocha kirishtilar. (Bn.)*

**NAVO** *f.* Kuy, ohang.

*Mug'anniylar chekib dilkash navolar,  
Solib zarkor toq ichra sadolar. (F.Sh.)*

**NAVOGO'** *f.* Kuylovchi, kuychi, ashulachi.

*Ko'zining nozi eldin eltib uyqu,  
Anga uyqu keturmakka navogo'. (F.Sh.)*

**NAVOHIY** *a.* Tevarak, atrof, tevarak-atrof.

*Bu navohiyda anglasam sizni,  
Qo'ymog'umdur tirik biringizni! (S.S.)*

**NAVOSUZ** *f.* Kuylovchi, xonanda.

*Vahmni qo'y, hamdamu hamrozim o'l,  
Ayshu tarab vaqti navosozim o'l. (H.A.)*

**NAVQON** Go'zallik, nafosat, nafislik.

*G'animattur umur navqoni bizga,  
Muboh erur ko'ngullar qoni sizga. (Mn.)*

**NAVRO'Z** *f.* 1.Navro'z bayrami bo'ladigan oy, ya'ni mart oyi.

*Yedi yuz to'qson olti, navro'z oyi,  
Xatm etti buni Sayfi Saroyi. (S.Sar.)*

2.Mart oyining 21-kuni nishonlanadigan Navro'z bayrami.

*Kiyib ahli g'ino yuz rang xil'at,  
To'lo boshdin ayoq peroya navro'z. (Og.)*

**NAXL** *a.* Ko'chat, nihol.

**Naxli nozparvard** Go'zal nihol; nozli yor.

*Ham meni ul toza naxli nozparvard o'lturur,*

*Ham bukim, yo'q dardini ayturg'a hamdard o'lturur.* (F.K.)

**Naxli sarfarozi** Tik nihol.

*Qaddikim naxli sarfarozi kelib,*

*Husn bog'ida sarvinozi kelib.* (S.S.)

**Naxli tar** Ko'karib turgan ko'chat.

*Boqmasa dehqon chamanin kun-u tun*

*Naxli tarin angla qurug'on o'tun.* (H.A.)

**NAXVAT** *a.* Xudparastlik, xudbinlik, egoistlik.

*Dushmanniki, bu dahr zabardast qilur*

*Naxvat mayidin bir necha kun mast qilur.* (B.)

**NAY** *f.* Puflab chalinadigan musiqqa asbobi, sibizg'a.

*Nay tuz uchun istar ani ahli hol,*

*Chun tuz emas, egri ko'rar go'shmol.* (H.A.)

**NAYSITON** *f.* Qamishzor.

*O'qlaring ko'nglunga tushgach, kuydi ham ko'z, ham badan,*

*Kim, kuyar o'lu qurug' chun naysitong'a tushti o't.* (G'.S.)

**NAYMAN** *mo'g'.* O'zbek urug'laridan birining nomi.

*Birni qipchoqu, xitoyu, birni yuz, nayman demang,*

*Qirqu yuz, ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling.* (T.F.)

**NAYSON** *sur.* Suryoniy oylarining yettinchisi, aprel.

*Firoqingda ko'zum yoshi bor erkan,*

*Bahoru abri nayson hojat ermas.* (A.)

**NAZAR** *a.* 1. Qarash, boqish.

*Suda chun kemaga nazar qildi,*

*Ko'rganidin anga xabar qildi.* (S.S.)

2. Nigoh, ko'z oldi.

*Ammo nazarda Roshidon*

*Firdavs bog'idin nishon.* (M.)

**Nazardin solmoq** Unutmoq.

*Kel, ey soqiy, nazardin solmag'il, kel,*

*Ketur ul mayki bo'lg'ay bizga sayqal.* (Mn.)

**NAZHAT** *a.* Pokizalik, aybdan xolilik.

*Ki: ey na'layning o'rni qiblagohim!*

*Harimi nazhating g'amdin panohim!* (F.Sh.)

**NAZIR** *a.* O'xshash, monand.

**Naziri yo'q** Teng'i yo'q, benazir.

*Alisherbek naziri yo'q kishi edi.* (Bn.)

**NAZM** *a.* She'riyat, poeziya; she'riy asar, she'r.

*Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,*

*Bo'lmas edi tengri kalomida nazm. (H.A.)*

**Nazm eli** Shoirlar.

*Avazkim, nazm elin cholokidurman,*

*Boshin olmoqqa xonning pokidurman. (Av.)*

**NAZOKAT** *a.* Xushmuomalalik, odoblilik, muloyimlik.

*Nazokat ortturay desang, misoli g'uncha xomush bo'l,*

*Nadinkim og'zini to ochdi gul, bargi xazon bo'ldi. (Z.)*

**NAZR** *a.* Eshon yoki pirga murid tomonidan beriladigan pul yoki narsa.

*Aqcha qo'lida ikki-uch mo'ysafid,*

*Derki: «Bu nazringizu, bizlar murid». (M.)*

**NAZZORA** *a.* Nazar solish, qarash, boqish, ko'z tashlash.

**Nazzora qilmoq** Qaramoq.

*Ko'zum yoshig'a nazar qil, ko'ngul bo'lur ravshan,*

*Ey sarvinoz, oqar suvg'a qilsa nazzora. (S.)*

**NAG'MA** *a.* Kuy, musiqa, navo.

*Men dag'i lahning eshitib, shod o'lay,*

*Nag'mang ila qayg'udin ozod o'lay. (H.A.)*

**Ahli nag'ma** Cholg'uchilar, sozandalar, musiqachilar.

*Ahli nag'madin qonunni Xoja Abdullo Marvoriycha kishi cholmas edi. (Bn.)*

**NA'SH** *a.* Tobut.

*Boshidin evrulur armoni birla o'ldum, ey Bobur,*

*Mening, na'shimni bori ul pari ko'yidin aylondur. (B.)*

**NASH'A** *a.* Kayf, huzur, gasht, lazzat.

*Ishqdur ul nash'ai komilkim, andandur mudom,*

*Mayda tashviri harorat, nayda ta'siri sado. (Fuz.)*

**NASH'UNAMO** *a.* -f. O'sib ulg'ayish.

**Nash'unamo topmoq** O'sib-ulg'aymoq.

*Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovu-judkim Hiriya nash'unamo topibtur, bu til biladur. (Bn.)*

**NE I 1.** Narsa, buyum haqida so'roqni bildiradi; nima?

*Qildilar ulcha bor edi taqrir,*

*Ki, ne kelturdi olig'a taqdir. (S.S.)*

2. Qanday?, qanaqa?

*Bilmadim ne ish ekin hodis,*

*Kim bu ishga bo'lub ekin bois. (S.S.)*

3. Nega?, nima uchun?

*Deyub anga Suhayl: «Ne gul terursen?  
O'zung gulshanda ko'rkli gul erursen»* (S.Sar.)

4. Qayerdan?, qaydan?

*Ne bilur qadringizni tekma nodon,  
Guhar qadrini a'mo bilmas, ey jon.* (Mn.)

5. So'zlovchining biror narsadan taajjublanganligini yoki noroziligini bildiradi; nimasi.

*Ko'ngul olding, begim, yoshurmog'ing ne?  
Jafoni haddidin oshurmog'ing ne?* (A.)

6. Ma'noni kuchaytiradi yoki ta'kid anglatadi.

*Biliglik uqushlug' budunqa talu.  
Aqi ham ko'zi to'q ne ko'ngli to'lu.* (Q.B.)  
**Ne nav'** Qanday?, qanday qilib?  
*Ne nav' bitay firoqu g'urbat sharhin,  
Kim ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.* (B.)

**Ne tong** Ne ajab, ajab emas.

*Ne tong, chiqmasa Munis ul ko'ydin,  
Ki, ul anda g'amdin omondur, omon.* (Mu.)

**NE II** Inkor ma'nosini bildiradi; na.

*Judo bo'lg'oli men zulfu yuzungdin,  
Ko'zumga ne qaro ko'rundi, ne oq.* (A.)

**NEGA** Qanchaga?, nimaga?, necha pulga?

*Ey zohid, bir yo'li qilg'on hajingning savobin bizga sotur-  
musan? Zohid aydi: –Nega olursiz? Sulton aydi: –Ming qizil  
tanga berayin.* (X.)

**NEGAKI** Nimagaki, chunki.

*Negaki, chun hashr kuni zuljalol,  
Zolimu mazlumni aylar savol.* (H.A.)

**NEGUN** Qanday?, qanday qilib?

*Arig'sizni yalnguq suvun yub arir  
Qali artasa suv negun yub arir.* (Q.B.)

**NEKANDESH** f. Birovga yaxshilik qilishni istaydigan, xayrixoh.

*Bordur ul podshohi nekandesh,  
Toshidin xonu ichidin darvesh.* (Shn.)

**NEKBAXT** f. Baxtli, baxtiyor.

*Anga tegrुकim sen shahi nekbaxt,  
Otadin ato vorisi toju taxt.* (T.M.A.)

**NEKNOM** *f.* Yaxshi nom chiqargan, dongdor, mashhur.

*Uvaysiy, qalb mir'otig'a ko'rguz dil yuzin, ey sho'x,  
Qilursan bu jahonning neknomidin hazar tokay? (U.)*

**NEKU I** *f.* Yaxshi, ezgu.

**Neku nom** Yaxshi nom chiqargan, dongdor; yaxshi.

*Ul degandur angaki: «Ey neku nom,  
Shayx xud bor, vale yo'q islom» (Shn.)*

**NEKU II** *Ne, nima.*

*Neku ter eshitgil O'tukan begi  
Sinab so'zlamish so'zni yetrub o'gi. (Q.B.)*

**NEKUTEG** Qanday, qanaqa.

*Beglikka saza bo'lg'uteg beg nekuteg kerakin aytur. (Q.B.)*

**NELUG** Qanday? qanday qilib?

*Ajunchi bo'gu beg nelug ganch urur  
Erat qayda bo'lsa anuq ganch urur. (Q.B.)*

**NE'MAT** *a.* Noz-ne'mat, meva-cheva, oziq-ovqat.

*Kuyar o'q turur kuch yag'usa kuyar  
To'ru suv turur aqsa ne'mat unar. (Q.B.)*

**NENG** 1. Narsa, buyum; ish.

*Adin ma bu besh neng yiraq tutg'u beg  
Ati edgu bo'lsa ku jav bulg'u beg. (Q.B.)*

2. Mol-mulk, boylik, davlat.

*Qara bo'rchi bo'ldi neng bo'ldi yel  
Begi bo'rchi bo'lsa qachan turg'a el. (Q.B.)*

**NETAK** Qanday, qanday qilib.

*Bugun men netak qildim ersa sen ema, mendin so'ng mundag'  
qilg'aysen. (R.)*

**NETMAK** Nima qilmoq?, ne qilmoq?

*O'z yerni qo'yub Hind sori yuzlandim,  
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi. (B.)*

*Ayit, ey mehring oz, ishvang farovon,  
Netadur ul og'izda muncha yolg'on. (Mn.)*

**NEV** *f.* Botir, qo'rqmas, jasur; pahlavon.

*Qo'yub erdi kaminda Jobir nev,  
Kinavarlar masof vaqtida dev. (S.S.)*

**NECHA** 1. Ko'p, qanchadan qancha, necha-necha, bir qancha.

*Necha yangsiz ishlar bo'r ichsa bo'lar  
Necha edgu ishlar esursa qalur. (Q.B.)*

2. Qancha, harqancha.

*Kim kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,  
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami. (A.N.Qit.)*

3. Qachongacha?

*Zulmung erur kunduzu fisqing kecha,  
Zulm ila fisqing necha bo'lg'ay, necha? (H.A.)*

**NECHUK 1.** Nima uchun?, nima sababdan?

*Dedi:*

– *Nechuk Sayid Nasimiy demading?*

*Faqir dedim:*

– *Xotirg'a kelmadi. (H.P.M.)*

2. Qanday, nechik.

*Ayayin emdi bir qit'a eshitgil,  
Nechukmen hol-u ahvolimni bilgil. (Mn.)*

3. Qanday?, qanday qilib?

*Nechuk mehringni jonimdin bo'yayin,  
Ko'ngul sizdin olib kinga berayin. (Mn.)*

**Nechuk topding dunyoni?** Yerdagi, dunyodagi vaziyatga qanday baho berasan?

*Tuvg'oningga nechun sira gapurmasdan turibsan,  
So'yla, yulduz, holing nadir, nechuk topding dunyoni? (Fit.)*

**NECHUKKI** Go'yo, go'yoki.

*Boshig'a yetti aylamakka qatil,  
O'lar elga nechukki Azroil. (S.S.)*

**NECHUKKIM** Chunki? Negaki?

*Nechukkim, aytmishlar: «Yolg'on masal turmas» (Zm.)*

**NECHUN** Nima uchun?, nima sababdan?

*Sevar bulbul gulin, gul bulbulin ham,  
Nechun gul aylasin bulbul ko'zin nam. (S.Sar.)*

**NIAM a.** (birligi **ne'mat**) Ne'matlar, no'z-ne'matlar.

*Qaytsa xoni niamingdin sening,  
Hosho, lutfu karamingdin sening. (H.A.)*

**NIFOQ a.** Munofiqlik, ikkiyuzlamachilik.

*Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,  
Go'yo xayol aylaki, qilmay nifoq. (M.)*

**NIGAHBON f.** Qorovul, soqchi, posbon, qo'riqchi.

*Qo'shub hushyorvash besh yuz nigahbon  
Aningdekkim but atrofida rahbon. (F.Sh.)*

**NIGIN f.** 1. Uzuk. 2. Muhr.

*Anga dog'i gardishi charxi barin,  
Saltanat ichra berib andoq nigin. (H.A.)*

**NIGOR** *f.* Sevgili, ma'shuqa, yor.

*Ko'ngul mehri nazar yo'lindin ortar,  
Nigori javrini jon birla tortar. (Mn.)*

**NIGORO** *f.* Ey go'zal.

*Niyozim bu turur sendin, nigoro,  
Unutma bandani bahri xudoro. (Mn.)*

**NIGUN** *f.* 1. Egilgan, bukilgan.

*Sanga binafsha kibi qaddi nigun,  
Bosh ko'tara olmay uyotdin zabun. (H.A.)*

2. Ters, chappa.

*Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek. (F.)*

**NIHIB** *a.* Qo'rqinch, qo'rquv, vahima.

*Umr bu ishlar so'ngicha ketti tut,  
Marg nihibi boshingg'a yetti tut. (H.A.)*

**NIHOD** *a.* Vujud; tuzilish.

*Paripaykar o'qug'uncha bu maktub,  
Nihodidin chiqib yuz qatla oshub. (F.Sh.)*

**NIHOL** *a.* 1. Ko'chat, yosh daraxt.

*Turubtur ko'zda qaddingiz xayoli,  
Aningdekkim suv uzra tol niholi. (Mn.)*

2. *ko'ch.* Sevgilining kelishgan bo'yi, go'zal bo'y-bast.

*Jonimdag'i jim ikki dolingg'a fido,  
Andin so'ng alif toza niholingg'a fido. (A.N.Rub.)*

**NIHON** *f.* Yashirin, pinhon.

*Necha kun qasr aro nihon erdi,  
Sarvi gulruxqa mehmon erdi. (S.S.)*

**Nihon bo'lmoq** Yashirinmoq, yo'qolmoq, ko'zdan g'oyib bo'lmoq.

*Orazin yopqoch, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,  
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.  
(B.B.)*

**NIHONIY** *a.* Yashirin, maxfiy, pinhoniyy.

*Musayqal taxta tosh uzra qozilg'an,  
Nihoniy ganj ahvoli yozilg'an. (F.Sh.)*

**NIHOYAT** *a.* Chek, chegara, had.

*Qilib shahzodag'a oncha rioyat,  
Ki topmay aql anga haddu nihoyat. (F.Sh.)*

**NILGUN** *f.* Zangori, moviy, ko'k.

*Qilib ishqing o'ti olamni ravshan,  
Ne olam, nilgun toramni ravshan. (F.Sh.)*

- NILIIY** *a.* Ko'k, zangori, moviy.  
*K-ey nodir yigit, ofoq ichinda,  
 Yagona charxi niliy toq ichinda. (F.Sh.)*
- NILUFAR** *f.* Suvda o'sadigan guli oq yoki sariq rangli bir o'simlik.  
 suv gulsapsari.  
*Ichida beaded shajar butubon,  
 Sabza o'rnig'a nilufar butubon. (S.S.)*
- NILUFARGUN** *f.* Nilufar rangli, ko'k.  
*Nilufargun libos etib bori,  
 Qildilar borcha motam izhori. (S.S.)*
- NILUFARIY** *f. -a.* Nilufar rangli, ko'k.  
*Ne tufroqqa qolsun sipehr axtari,  
 Ki bo'lg'ay yeri charxi nilufariy. (S.I.)*
- NILUFARVASH** *f.* Nilufarga o'xshagan, ko'k.  
*Mehrkim, gulruxi samoviydur,  
 Nilufarvash libosi moviydur. (S.S.)*
- NILUFARVOR** *f.* Nilufarga o'xshash, nilufarday.  
*Nilufarvor so'gvor erdi,  
 Nilufar ichra ashkbor erdi. (S.S.)*
- NILUFARZOR** *f.* Nilufar o'sadigan yer; gulzor.  
*Mehr gul yanglig' aylabon yaqo chok,  
 Nilufarzor aro kezib g'amnok. (S.S.)*
- NIMA** 1. Narsa, buyum, predmet.  
*Sug'a surdi Suhayl kemasini,  
 Oyirib borcha xaylu nimasini. (S.S.)*  
 2. Qanday? qanaqa?  
*Anda Yapaloqqush aydi: «Andin bizning nima kamligimiz  
 bor?» (Zm.)*
- NIMARSA** Narsa.  
*Lekin sabrning joyi bilan qayg'u va anduhdin bo'lak  
 nimarsasi yo'q. (Zm.)*
- NIMBISMIL** *f. -a.* Chala so'yilgan.  
*Aning hajrida men bemori bedil,  
 Qushemenkim, qilurlar nimbismil. (F.Sh.)*
- NIQOR** *a.* Kek, adovat, xusumat, dushmanlik.  
*Ushbu yil Sulton Husayn mirzo bila Badiuzzamon mirzo  
 orasidag'i niqorlar urushqa tortti. (Bn.)*
- NISBAT** *a.* 1. Kelib chiqish, nasl-nasab.  
*Otovu mulku johu hashmatini,  
 Pardasig'a Suhayl nisbatini. (S.S.)*



2. Qiyos, o'xshash.

*Samarqandni olg'on mahalda Axsidin, Buxorodin qovun kel-turub bir majlista kesturdum. Axsi qovunining hech nisbati yo'q erdi. (Bn.)*

**NISOR** *a.* Hurmatli, ulug' kishining boshidan tillo, kumush, gul sochish.

**Nisor etmak** Sochmoq.

*Tab' ganjidin maoniy xurdasin, yuz qatla hayf,*

*Kim, nisor etmakka shohi xurdadone topmadim. (G'.S.)*

**NIYOZ** *a.* O'tinch, iltijo, yolvorish.

*Niyozim bu turur sendin, nigoro,*

*Unutma bandani bahri xudoro. (Mn.)*

*Bildim andinki namozi yo'q emish,*

*Tengrisi birla niyozi yo'q emish. (Shn.)*

**NIYOZMAND** *a.* -f. Iltijo qiluvchi.

*Bas qobil ediyu dilpisand ul,*

*Ozodavashu niyozmand ul. (L.M.)*

**NIZOM** *a.* Tartib, qoida.

*Doruxonasi bor erdi va ishi tartib va nizom bila erdi. (N.M.)*

**NIZOR** *a.* Oriq, ozg'in.

*O'tru chiqorib ahli diyorimni mening,*

*Ko'yida qo'yung tani nazorimni mening. (A.N.Rub.)*

**NISH** *f.* O'tkir narsaning uchi; nayza.

*Shukur shahdin bilmadim, kufroni ne'mat ayladim,*

*Zaxmi nishi ro'zgor ahlini talxu tundiman. (T.F.)*

**NISHIB** *f.* Pastlik.

*Yuz farozidin ozib, tushdum nishibi qirqqa.*

*Xavfu biymu vahm arosinda qaribi qirqqa. (T.F.)*

**NISHIMAN** *f.* Makon, oshyon.

*Kelib sarzanish qildi bir zog' anga,*

*Kim erdi nishiman hamul bog' anga. (S.I.)*

**NISHON** *f.* 1. Belgi, alomat.

*Ul na gumbazdur eshigi, tuynugidin yo'q nishon,*

*Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon. (U.)*

2. Xabar, darak

**Nishon bermak** Xabar bermoq.

*Nishon bermas kim ersa mislingizni,*

*Iroqu Rumu ham Kan'on ichinda. (Mn.)*

3. Xat, maktub.

*Bu fursatta Shayboqxonning nishonlari keldi. «Yuraymen», – deb bitibtur. (Bn.)*

**NISHONA** *f.* 1. Iz, asar, alomat.

*Topqamen shoyad ushbu savdoda  
Gavharimdin nishona daryoda. (S.S.)*

2. Xabar, darak.

*Dedikim: ishq o'tidin de fasona!*

*Dedi: kuymay kishi topmas nishona. (F.Sh.)*

3. O'q otishda mo'ljal sifatida foydalaniladigan narsa, nishon, qora.

*Qilich ursang qulungmen jovidona,  
Va gar o'q otsangiz bag'rim nishona. (Mn.)*

**NISHOT** *a.* Xursandlik, shodlik, kayf-u safo.

*Nishotu ayshu no'shonush qilg'il,  
Xiradni may bila madhush qilg'il. (Mn.)*

**NOAHL** *f.* -a. Begona, yot, chet, o'zga.

*Mahfiling aro har tun jam' o'lur bori noahl,  
Donish ahlidin ishing nega ijtinob o'lmish. (K.)*

**NOB** *f.* Toza, sof, tiniq.

*Kel, ey soqiy, keturgil bodai nob,  
Kula-o'ynayu ichsunlar bu as'hob. (Mn.)*

**NOBINO** *f.* Ko'r, ko'zi ojiz.

*Ul kishi hamul dam nobino bo'lubtur. (N.M.)*

**NOBUD** *f.* Yo'q bo'lish, yo'qolish.

**Budu nobud** Bor-u yo'q, hamma narsa.  
*Og'zi-yu beliga budu nobudum sarf,  
Ko'zi-yu labig'a jismu jonim sadqa. (B.)*

**NODIDA** *f.* Kaltabin, nodon.

*Rustoyi va nodida kishi, besh kunluk o'tar dunyo uchun  
mundoq yamon ot qozg'ondi. (Bn.)*

**NODIR** *a.* Kam uchraydigan, kam topiladigan, kamyob.

*Oti Navdar va lek o'zi nodir,  
Tab'i har nodir ish aro qodir. (S.S.)*

**NODON** *f.* Farosatsiz, fahmsiz, befarosat.

*Ne bilur qadringizni tekma nodon,  
Guhar qadrini a'mo bilmas, ey jon. (Mn.)*

**NOFE'** *a.* Foydali, nafli.

*G'am yesang, ul gala manofe' berur,  
Bog' gulu mevai nof'e berur. (H.A.)*

- NOGAH** *f.* To'satdan, birdan, kutilmaganda.  
*Ko'ziga kema uchrasa nogah,  
 Ani filhol etar edi ogah. (S.S.)*
- NOGAHON** *f.* Kutulmaganda, to'satdan, birdan.  
*Nogahon esdi nomuvofiq yel,  
 Voqif o'lg'uncha kemalardagi el. (S.S.)*
- NOGUZIR** *f.* Chorasiz, bechora, notavon.  
*Ul zoru zaifi noguzirim,  
 Kim bordur ul mening asirim. (L.M.)*
- NOHIYAT** *a.* Mamlakat, yurt, o'lka.  
*Balx nohiyatig'a borib, anda halok bo'ldi. (T.M.A.)*
- NOIB** *a.* O'rinbosar, yordamchi.  
*Bizing shoh ul sifatkim bori shahlardin erur mumtoz,  
 Erur noiblari ham bo'yla, ya'ni davlat arbobi. (B.V.)*
- NOJINS** *f. -a.* Pastkash, past, olchoq.  
*Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,  
 Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. (A.N.Qit.)*
- NOKAS** *f.* Past, pastkash, yaramas, vijdotsiz.  
*Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,  
 Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. (A.N.Qit.)*
- NOKOM** *f.* Baxtsiz, bebaxt.  
*Man kimam? Gumnomu nokomu jahon ovoraye  
 Diyda namnoku giribon choku bag'ri poraye. (T.F.)*
- NOL** *f.* Qamish qalam ichidagi ingichka qiltiriq, po'kak.  
*Eshitguchi bildikim, nedur hol,  
 To'lg'ondi o'ziga o'ylakim nol. (L.M.)*
- NOLA** *f.* Fig'on, afg'on, faryod.  
*Nolavu afg'on chekibon tortib oh,  
 Dediki: Ey shohi shariatpanoh. (H.A.)*  
**Nol bo'lmoq** Zaif bo'lmoq, darmonsizlashmoq, kuchsiz bo'lmoq.  
*Belimdin za'f bo'lsa ko'nglunga hol,  
 Bo'lurmu mo'yadin mo', noladin nol? (F.Sh.)*
- NOLON** *f.* 1. Nola qiluvchi, ingrovchi, afg'on chekuvchi.  
*Qumriyu nolon erur sarv qaddingning quli,  
 Yo'q esa nechun oning bo'ynida bordur g'uli. (K.)*  
 2. Nola qilgan holda, ingragan holatda.  
*Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur,  
 Kecha ham zulfung kibi holim parishon kechadur. (X.)*

**NOMA** *f.* 1. Maktub, xat.

*Ko'p qilib fikr topti ra'yi savob,  
O'qug'on nomag'a bitidi javob. (S.S.)*

2. Asar, kitob.

*Bitigan nomani ellar o'qug'ay,  
Suhaylning tarixini toza bulg'ay. (S.Sar.)*

**NOMABAR** *f.* Xat eltuvchi, xat tashuvchi.

*Ayladi Semurg'ni ul nomvar,  
Ul kabutardekki bo'lg'ay nomabar. (L.T.)*

**NOMEHRIBON** *f.* Rahm-shafqat qilmaydigan, berahm, rahmsiz

*Ayo nomehribon ahdi baqosiz,  
Jahon yeltek, umr gultek vafosiz. (Mn.)*

**NOMJO'Y** *f.* Shuhrat qidiruvchi; mashhur.

*Ki chun bo'ldi Iskandari nomjo'y,  
Qish ul turfa marzda oromjo'y. (S.I.)*

**NOMUBORAK** *f. -a.* Xunuk, shum, bexosiyat.

*Yo'ldin bir oyna topib, o'zining nomuborak yuzini ko'rub,  
oynani yerga urub... der erdikim... (Zm.)*

**NOMULOYIM** *f. -a.* Chatoq, ishkal.

*Ko'rdi Jobirki, qoyim o'ldi ishi,  
Olida nomuloyim o'ldi ishi. (S.S.)*

**NOMUNOSABAT** *f. -a.* Mos bo'lmagan, uyg'un bo'lmagan.

*Yana biri bukim anda ba'zi ish,  
Zohiran nomunosabat tushmish. (S.S.)*

**NOMUROD** *f. -a.* Murodiga yetolmagan; nochor, notavon.

*Nomurod o'ldilar usru shuaro,  
Notavon bo'ldilar usru fuzalo. (Shn.)*

**NOMUS** *f.* Uyat, or, uyat-andisha.

*Bo'lsa ul dushman ilgida mahbus,  
Manga nomus erur, sanga nomus. (S.S.)*

**NOMUVOFIQ** *f. -a.* Muvofiq kelmaydigan, noqulay; halokatli.

*Nogahon esdi nomuvofiq yel,  
Voqif o'lg'uncha kemalardagi el. (S.S.)*

**NOMVAR** *f.* Dong'i ketgan, atoqli, mashhur.

*Ayladi Semurg'ni ul nomvar,  
Ul kabutardekki bo'lg'ay nomabar. (L.T.)*

**NOMZAD** *f.* Biror yigitga unashilgan, unashtirilgan.

**Nomzad bo'lmoq** Unashtirilmoq.

*To'rtunchi qizi Oybegim edi. Sulton Husayn mirzo Qunduz*

*ustiga kelganda Umarshayx mirzo o'g'li Jahongir mirzoni Andijon cheriki bila ko'mak yiborganda Jahongir mirzog'a nomzad bo'lub edi. (Bn.)*

**NON** *f.* Shakli har xil qilib xamirdan tayyorlanadigan yegulik.

*Har kim ul choh aro chu bo'ldi g'ariq,*

*Non ikita edi, su bir ibriq. (S.S.)*

**NOPISAND** *f.* Kishiga yoqmaydigan, yoqimsiz, yomon.

*So'z aro yolg'on kibi yo'q nopisand,*

*Aylar aning nazmini dono pisand. (H.A.)*

**NOPOK** *f.* Toza emas, pok emas, iflos, kir.

*Jahondin notamom o'tmak biaynih,*

*Erur hammomdin nopok chiqmoq. (A.N.Qit.)*

**NOQABUL** *f. -a.* Biror maqsad uchun ishlatib bo'lmaydigan, yaroqsiz.

*Diyda namnoku giribon choku bag'ri poraye,*

*Noqabuli marhami, nosur bitmas yoraye. (T.F.)*

**NOQIL** *a.* So'zlovchi.

*Chun g'araz so'zdin erur ma'ni anga,*

*Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er. (B.V.)*

**NOQIS** *a.* Nuqsonli, qusurli, kamchilikli.

*Bu ul zijlarga boqa noqisroqtur. (Bn.)*

**Noqisi aql** Aqli zaif.

*Bu bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'g'lining xonumonin barbod berdi. (Bn.)*

**NOR I** *a.* 1. O't, otash.

*Xiraddin ozdurur g'amzang xumori,*

*Yang'oqlaring Xalilulloh nori. (Mn.)*

2. Ruhiy qiynoq, ichki bir dard haqida; o't.

*Muhabbat nori jondin ketmadi hech,*

*Qo'lum siym olmangizg'a yetmadi hech. (Mn.)*

**NOR II** *f.* 1. Anor. 2. Yuzning qizilligi, qizillik.

*Ko'rarmen bog'i jannat mevasindin,*

*Yangoqing norini yuz qatla behroq. (A.)*

**NORASO** *f.* Nuqsonli, noqis, yetuk emas, nomukammal.

*Senga, ey Majnun, junun ilmida taslim aylaram,*

*Sen rasolardin biri, men norasolardin biri. (G.)*

**NORUNJ** *a.* Issiq mamlakatlarda o'sadigan, mevasi apelsinga o'xshash, ammo nordon bir daraxt va uning sariq mevasi, turunj.

*Norunj daraxtlari sabz va xurram, norunj daraxtlarda bent-hoyat, vale norunjlar xotirxoh sarg'armaydur edi. (Bn.)*

**NOSARA** f. Qadrsiz, qiymatsiz, yaxshi emas.

*Nosara dirham sifatliq rad qilib, qo'lg'a olib,  
Dasti farsuda, yuzi qaytib, ayog'larda qolib. (T.F.)*

**NOSOZ** f. Sozlanmagan, soz emas, buzuq.

*Tuz durur egri qili to soz erur,  
Egri bo'lur emdiki, nosoz erur. (H.A.)*

**NOSUL** f. Gazak olgan yara, tuzalmaydigan yara.

*Ko'raman: johilona qilingan emlardan nosulg'a qaytgan yaralarindan qonlar oqib turadur! (Fit.)*

**NOSUR** a. Tuzatib bo'lmaydigan yara, eski yara.

*Diyda namnoku giribon choku bag'ri porai,  
Noqabuli marhami, nosur bitmas yorai. (T.F.)*

**NOTAMOM** f. -a. Kamolotga erishmagan, nokomil.

*Jahondin notamom o'tmak biaynih,  
Erur hammomdin nopok chiqmoq. (A.N.Qit.)*

**NOTAVON** f. 1. Kuchsiz, zaif, quvvatsiz, ojiz.

*Xalqni olingda qilib notavon,  
Borchasig'a ayladi hukmung ravon. (H.A.)*

2. ko'ch. Bechora, sho'rlik.

*Notavon tutti rishtani mahkam,  
Mehr chekti, ul ikki mahvash ham. (S.S.)*

**NOTAVONLIQ** Kuchsizlik, zaiflik, ojizlik.

*Aduv ilgida qatra sudek tig',  
Edi o'z notavonlig'ig'a darig'. (S.S.)*

**NOTAVONO** f. Kuchsiz, zaif.

*Bu ishka keraktur tavono kishi,  
Emas men kibi notavono ishi. (S.I.)*

**NOV** f. 1. Suv oqishi uchun ishlangan maxsus moslama, tarnov.

*Taxtani o'yla kov-kov etti,  
Ki, su yo'lin nechukki nov etti. (S.S.)*

2. Teshik, yoriq.

*Kemasin chunki nov ko'rdi Suhayl,  
Tubidin su yuqori etgan mayl. (S.S.)*

**NOVA** f. Tegirmaning don solinadigan uskunasi.

*Osiyo novasidek rost etib bo'g'uzin. (T.F.)*

**NOVAK** f. 1. Kamon o'qi, o'q.

*Novaki dushman yuragin qon etib,  
Tig'i aduv boshini parron etib. (H.A.)*

2. *ko'ch*. Kiprik.

*Urur nargislaring novakni jong'a,*

*Kular chehrang chechaktek arg'uvong'a.* (Mn.)

**NOVAKANDOZ** *f.* O'q otuvchi, mergan.

*Ne qushkim, baland o'lsa parvoz anga,*

*Halok istamas novakandoz anga.* (S.I.)

**NOXUSH** *f.* Yoqimsiz, yomon.

*Munda parishonlig'i noxush qilib,*

*Anda murattablig'i dilkash qilib.* (H.A.)

**NOZ** *f.* Sevgilining serishva harakati; ishva, karashma.

*Qamug' umrum sening nozing fidosi,*

*Mening ko'nglum qushi bozing fidosi.* (Mn.)

**NOZANIN** *f.* 1. Qaddi-qomati kelishgan qiz; go'zal.

*Ko'ngluni say' birla to'xtatti,*

*Nozaning'a bu nav' so'z qotti.* (S.S.)

2. Kelishgan, xushbichim.

*Anga bir o'yla nozanin farzand,*

*Kim, bashar ichra yo'q anga monand.* (S.S.)

**NOZIK** *f.* Xipcha, bejirim, ingichka.

*Men asru benavo, siz muhtashamsiz,*

*Latifu noziku zebo sanamsiz.* (Mn.)

**NOZIL** *a.* Osmondan tushgan, ingan.

*Nozili hukmi qazo hech kim radu man' etmadi,*

*Barcha bo'ynig'a solan bu rishtani qat' etmadi.* (T.F.)

**NOZIM** *a.* Nazm aytuvchi, she'r yozuvchi, shoir.

*G'azal bildurur shoiring qudratin,*

*G'azal ortturur noziming shuhratin.* (Fuz.)

**NOZIR** *a.* Nazorat qiluvchi, nazoratchi.

*Ki kishikim qo'yub edi Jobir,*

*Didbonliqqa har sori nozir.* (S.S.)

**NOZPARVAR** *f.* Noz qiluvchi, nozli, mahbuba.

*Vasl gulzorida xon tutti makom,*

*Nozparvar gulidin oldi kom.* (Shn.)

**NOZUK** *f.* Nozik, ingichka.

*Qil sig'mas og'zing ichra ko'p nukta tong emaskim,*

*Nozukurak o'ldi qildin har so'zga qoyil.* (G'.S.)

**Nozuk mizoj** Nozik tabiat, ko'ngli nozik.

*O'ldi mehringdin Navoiy, bevafo debsen ani,*

*Ertaki nozuk mizoji badgumonim sen mening.* (F.K.)

- NOZUKLUK** Noziklik, ingichkalik, xipchalik.  
*Nozukluk ichra belicha yo'q tori gisuyi,  
 O'z haddini bilib, belidin o'tturur quyi. (L.)*
- NOSHOD** *f.* Shod emas, xafa, g'amgin.  
*Andakim Mehrni qilib noshod,  
 Qavmu xaylini ayladi ozod. (S.S.)*
- NOSHOYIST** *f.* Nomaqbul, noloyiq, nomunosib, yomon.  
*Shayboqxondin noshoyist harakot va af'olekim, Hiriya  
 sodir bo'ldi. (Bn.)*
- NOSHPOTI** *f.* Nokning bir turi.  
*Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo'lmas. (Bn.)*
- NOCHIZ** *f.* Hech narsa, arzimas, hech.  
*Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,  
 Kelturan amvo'g'a bahri talotum Turdiman. (T.F.)*
- NOCHOR** *f.* Chorasiz, ilojsiz.  
*Gar tahorat qi(l)sa qavmi suv topolmay nochor,  
 Betini qum bila yub (ko'zi)ga surgay guvalak. (Max.)*
- NUBUVVAT** *f.* Payg'ambarlik.  
*Ulki Sulaymon edi oti aning  
 Bahri nubuvvat duri zoti aning. (H.A.)*
- NUFUR** *a.* Nafratlanish; nafrat.  
*Qirq, yuz, ming aqrabolar ettilar mandin nufur,  
 Ne balo, baxti qaroyu tole'i shum Turdiman. (T.F.)*
- NUFUZ** *a.* Asar qilish, ta'sir.  
*Mayi ishq o'yladurur tezki, ichkanga qilur,  
 Juzvi-juzvi aro har qatrai qon ichra nufuz. (B.V.)*
- NUJUM** *a.* Astronomiya.  
*Usturlob va nujumni yaxshi bilur edi. (Bn.)*
- NUKTA** *a.* 1. Chuqur ma'noli so'z, ma'nosi nozik va teran so'z.  
**Nukta qilmoq** Gapirmoq, so'zlammoq.  
*Nukta qilma Suhayldin iblog',  
 Qo'ymag'il dog'im ustiga yana dog'. (S.S.)*  
 2. Sir, hikmat, yashirin sabab.  
*Lek bir nukta bordur yoshurun,  
 Ki, seni mundoq asrasaq necha kun. (S.S.)*
- NUKTADON** *a. -f.* So'zning nozik va chuqur ma'nolarini yaxshi biluvchi, nozikfahm; dono, alloma.  
*Shahr-u qishloq demangizkim, fisq ila to'ldi jahon,  
 Ahli dunyo qoshida yolg'onchilardur nuktadon. (Z.)*



- NUKTAPARDOZ** *a. -f.* Chuqur ma'noli so'zlar so'zlovchi, chiroyli so'zlovchi.  
*Sanga haddim yo'q o'lmoq nuktapardoz,*  
*Tilarmen itlaringga aytmoq roz. (F.Sh.)*
- NUKTASARO** *a. -f.* Go'zal so'zlovchi, chiroyli, ma'nodor gapiruvchi.  
*Yana elni soldi kema aro,*  
*Bo'ldi bu nav' alarg'a nuktasaro. (S.S.)*
- NUN** *a.* Arab alifbosida «N» harfining nomi.  
*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,*  
*Qatlim uchun nas kelturur «nun» eltibon «sod» ustina. (Og.)*
- NUQAT** *a. (birligi nuqta)* Nuqtalar; nuqta.  
*Bir xati gar egri tushar bir nuqat,*  
*Nusxada har safhadadur egri xat. (H.A.)*
- NUQL** *a.* Sharob ichilgandan keyin yeyiladigan shirinlik, meva-cheva kabi yemak, gazak.  
*Yigitsen boda ichkil, nuql oshog'il,*  
*Bugundin so'ng yuz ellik yil yoshog'il. (Mn.)*  
**Nuqli bazm** Bazm gazagi, bazmda yeyiladigan gazak.  
*Dil – kabobim, qon – sharobim, ashki hasrat – nuqli bazm,*  
*Yetti qassomi azalning xidmatu ta'nimidin. (T.F.)*
- NUQS** *a.* Nuqson, kamchilik.  
*Baski qilib tavbada nuqs oshkor,*  
*Tavba qilurdin bo'lubon tavbakor. (H.A.)*
- NUQSON** *a.* Kamchilik, qusur, illat, ayb.  
*Bo'yungtek sarv yo'q bo'ston ichinda,*  
*Yuzung nuridin oy nuqson ichinda. (Mn.)*
- NUQTA** *a.* Arab alifbosidagi ba'zi harflar usti yoki ostidagi kichkina dumaloq belgi.  
*Nuni dog'i anbari hilolingg'a fido,*  
*Qolg'on iki nuqta iki xolingg'a fido. (A.N.Rub.)*
- NUR** *a.* Yorug'lik, yog'du, ziyo.  
*Tishlaridin nur balqinur erdi, ko'z nuri mengizlik. (R.)*
- NURPOSH** *a. -f.* Nur sochuvchi, nur taratuvchi, yorituvchi.  
*Toki quyosh jirmi bo'lub nurposh,*  
*Mahfili ayshingda bu yanglig' maosh. (H.A.)*
- NUSRAT** *a.* 1. Yordam, madad.  
*Kimdakim, tengrisi nusrat berdi,*  
*Nusratu quvvatu davlat berdi. (Shn.)*

2. G'alaba, zafar.

*Holo ushbu soat fath va nusrat sizning soridur. (Bn.)*

**NUTFA** *a.* Maniy, urug', sperma.

*Mavlo taolo aning shumliqindin Homning o'ng'urqasindag' nutfani qora qildi. (R.)*

**NUZUL** *a.* Tushish, qo'nish, to'xtash.

**Nuzul qilmoq** Qo'nmoq, tushmoq.

*Qildi xon shahri Buxoroda nuzul,*

*Qildilar xizmatin el borcha qabul. (Shn.)*

**NO'SH** *f.* 1. Ichish.

**No'sh qilmoq** Ichmoq.

*Qachon la'ling qadahlar no'sh qilg'ay,*

*Karashmang bandani madhush qilg'ay. (Mn.)*

2. Chuchuklik, shirinlik.

*Chashmai erdi xushguvor anda,*

*Zahr aro no'sh oshkor anda. (S.S.)*

**No'sho-no'sh** Ko'p ichish, ichho-ich.

*Hoy-hoyi bazmlarda shahd no'sho-no'sh edim,*

*Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarpo'sh edim. (T.F.)*

## Oo

**OB** *f.* Suv.

**Obu havo** Suv va havo.

*Yuzungni qilur toza ko'zum yoshi-yu ohim,*

*Gul toza bo'lur topsa vale obu havoni. (S.)*

**Obi baqo** Boqiylik suvi, mangulik suvi.

*Salomimni tegur ul xushliqog'a,*

*Qamuq boshdin oyoq obi baqog'a. (Mn.)*

**Obi hayvon** Ichgan kishi o'lmay, abadiy yashaydi, deb hisoblanadigan suv, hayot suvi, tiriklik suvi.

*Shakarmu erningiz yo qand, yo jon,*

*Uyolur la'lingizdin obi hayvon. (Mn.)*

**Obi ravon** Oqar suv.

*O'ynab oqar obi ravon,*

*Sahni gulu gulzor ekan. (Mn.)*

**Obi safo** Tiniq va toza suv.

*Anhorida obi safo,*

*Sebarga obishor ekan.* (M.)

**OBDON** *f.* Bo'limli, yetuk.

*Mundog' obdon erkan, tengrini birlaguchi bo'lmadi.* (R.)

**OBDONLIQ** Obodonlik, farovonlik.

*Nuh vaqtindag'i obdonliq qiyomatqa tegi bo'lmag'ay.* (R.)

**OBID** *a.* Ibodat qiluvchi, sig'inuvchi.

*Qayda obid ersa, oling'a xizmat qilmoq kerak.* (R.)

**OBILA** *f.* Chechak kasalligi, chechak.

*Ikki-uch yildin so'ng obila zahmati bila olamdin bordi.* (Bn.)

**OBIR** *a.* O'tuvchi, yuruvchi.

*To kema bo'ldi ul sori obir,*

*Kim, qo'yub erdi didbon Jobir.* (S.S.)

**OBISHOR** *f.* Sharshara, shalola; suvi ko'p, sersuv.

*Anhorida obi safo,*

*Sebarga, obishor ekan.* (M.)

**OBOD** *f.* Ko'rkam, hashamatli, tantanali.

*Aqd bazmini qilg'ali obod,*

*Go'yiyo bu mahal edi miod.* (S.S.)

**OBODON** *f.* Aniq, yaxshi.

*Ozroq yarasi bor edi. Andinmu edi, oldarag'anidinmu edi,*

*obodon jabob bera olmadi.* (Bn.)

**OBXONA** *f.* Tahorat qilinadigan uy, tahoratxona.

*Obxonaning eshigida turg'onlar bir zamondin so'ng*

*mulohaza qilurlar, ko'rurlarkim, mirzo qochibtur.* (Bn.)

**OD** Nom, ot, ism.

*Nedur zoting, pari yo odamizod?*

*Manga ayt, odingi doim etay yod.* (S.Sar.)

**ODAM** *a.* 1. Xudo yaratgan birinchi inson, Odam Ato.

*Odamni tuproqdin yaratmoqg'a hikmat ne erdi.* (R.)

2. Inson, kishi.

*Ahli roz el ollida odam desa bo'lmas meni,*

*Menki o'z rozing'a mahram jinsi odam ayladim.* (N.Sh.)

**ODAMIY** *a.* Odamzod, odam bolasi, inson, kishi.

*Odamiy ersang demagil odami,*

*Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.* (H.A.)

**ODAMIYLIQ** Chin insonga xos xislatlar, insonlik, insoniylik, odamiylik.

*Odam avlodida kamdur odamiylik shevasi,*

*Odam ermas, ulki mayli odamizod aylagay.* (B.V.)

- ODAMIZOD** *a. -f.* Odam bolasi, inson, kishi.  
*Nedur zoting, pari yo odamizod?*  
*Manga ayt, odingni doim etay yod. (S.Sar.)*
- ODAT** *a.* O'rganib qolingan harakat, qiliq.  
*Ayoqing o'pmakin qul qildi odat,*  
*Sulaymon bulmadi mundoq saodat. (Mn.)*
- ODIL** *a.* Adolat bilan ish qiluvchi, adolatli.  
*Turfa bukim, xisravi odil ani,*  
*Adl ila ul davrda aylab g'ani. (H.A.)*
- ODINA** *f.* Juma, juma kuni.  
*Odina kuni otamiz bila masjidida jom'eg'a boradur erduk.*  
*(N.M.)*
- OFAT** *a.* Balo, qazo, baxtsizlik.  
*Necha kun aylabon masofat qat',*  
*Sohili bahr ichinda ofat qat'. (S.S.)*
- OFIYAT** *a.* Sog'lik, sihat-salomatlik, omonlik.  
*Ul kimsaga oyini xudo qildi nasib,*  
*Kim, ofiyat ishini ango qildi nasib. (N.J.)*  
**Ofiyat mulki** Sog'liq, salomatlik; osoyishtalik.  
*Ishq ila kimki oshno bo'ldi,*  
*Ofiyat mulkidin jalo bo'ldi.*
- OFOQ** *a. (birligi ufq)* Ufq, dunyo, olam.  
*Jamoling madhidin ofoq to'ldi,*  
*Sanga olmoq ko'ngulni xatm bo'ldi. (Mn.)*
- OFOQGIR** *a. -f.* Dunyoni zabt etuvchi, jahongir.  
*Chu farmon etib shohi ofoqgir,*  
*Bo'lub ahli ofoq farmonpazir. (S.I.)*
- OFTOB** *f.* Oftob, quyosh.  
**Oftobi olamtobdek** Olamni yorituvchi quyoshdek.  
*Va ul qiz oftobi olamtobdek har xomni pishurub, hech*  
*maxluq ani kunduzi ko'rmakka chorasi yo'q erdi. (Zm.)*
- OGOHO** *f.* Xabardor, voqif.  
*O'lan uzra qurulg'on xaymada shoh,*  
*Zafardin shod bo'lub yotmishdi ogoho. (S.Sar.)*
- OH** 1. Dard-alam, hasrat tuyg'usini bildiradi.  
*Ayt mendinkim, ul miskin urur oh,*  
*Qachon engay gadoning evina shoh. (Mn.)*  
 2. Nola, fig'on, afg'on, zorlanish.  
*Ashkidin go'yiyo berur edi su,*



*Oh o'tidin qururg'ayib qayg'u. (S.S.)*

**Ohi otasholud** O'tli oh.

*Sen tortibon ohi otasholud,*

*Men o't yoqibon chiqarmayin dud. (L.M.)*

**Ohi sard** Sovuq oh.

*G'urbat to'zi yopqon ruxi zardimnimu dey?*

*Yo hajr chiqorg'on ohi sardimnimu dey? (B.)*

**OHANG** *f.* 1. Niyat, maqsad; mayl. 2. Yo'nalish, yurish.

**Ohang aylamak** Yurmoq, yo'nalmoq.

*Qildi Jobir aning sori ohang,*

*Ul sifatkim, bolig' yutarg'a nahang. (S.S.)*

**Ohangi ishrat qilmoq** Maishat qilishni niyat qilmoq, maishat qilmoq.

*Do'stlar, mensiz dame ohangi ishrat qilmangiz,*

*Siz ichib sahbo, meni xunxori hasrat qilmangiz. (Mu.)*

**OHU** *f.* Kiyik.

*Besh kun seni davringda bechora xirom etsun,*

*Ohular ila o'ynab, ayshini mudom etsun. (F.)*

**OJ** *a.* Fil suyagi.

*Yetib erdi ekin hoshimg'a toje,*

*Ayog'im ostig'a ham taxti oje. (F.Sh.)*

**OJIZ** *a.* 1. Kuchsiz, notavon, bequvvat.

*Bil munikim, sen dag'i bir bandasen,*

*Ko'pragidin ojizu afgandasen. (H.A.)*

2. Kuchsiz; noiloj, ilojsiz.

*Farishtalar ojiz bo'lub qoldilar; Sen o'rgatu bergandin o'zga bilmazmiz», tedilar. (R.)*

3. Mag'lub, yengilgan.

*G'olib o'lmoq aro bo'lub ojiz,*

*O'zin ul nav'i ko'rmayin hargiz. (S.S.)*

**OKA** Hurmat yuzasidan o'zidan katta ayollarga nisbatan ishlatiladigan so'z, opa.

*Bir kun men okamni ko'ra kelganda opasi bila kelib meni ko'rdi. Ko'rgach - o'q manga xeyli mayl paydo bo'ldi. Maxfiy kishilar borib okam bila, yanga bila, Poyanda Sultonbegimni oka der edim. (Bn.)*

**OL I** Old, old tomon, huzur.

*Xizmatig'a elni zabun ayladi,*

*Qadlarin olingda nigun ayladi. (H.A.)*

**OL II** Qizil, qirmizi, qirmiz.

*Qaro meng ol yanoqingg'a yaroshur,  
Boshim doyim adoqingg'a yaroshur.* (Mn.)

**OLAKO'ZANAK** Mo'ynali, yirtqich sutemizuvchi hayvon, olako'zan.

*Olako'zanak ola bo'lsa ham arslon bo'lmas.* (Zm.)

**OLAM** a. 1. Dunyo, koinot, butun borliq.

*Shu so'zni aytti teg' urub o'ziga,  
Ko'runmay qoldi keng olam ko'ziga.* (S.Sar.)

2. Yer, yer yuzi, jahon.

*Kemidagi sakson kishidin azin olam ichinda hech kim qolmadi.* (R.)

3. Biror soha, biror xislatlar dunyosi.

*Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsin debon,  
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.* (A.N.Qit.)

**Olamdin bo'rmoq** Olamdan o'tmoq, o'lmoq.

*Ikki-uch yildin so'ng obila zahmati bila olamdin bordi.* (Bn.)

**Oлами foniy** O'tkinchi dunyo, bu dunyo.

*Tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda qirq to'rt yoshida olami foniydin vido' qildi.* (Bn.)

**Olamdin naql qilmoq** Olamdan o'tmoq, vafot etmoq.

*Necha yil turluk-turluk azob va mashaqqatlar tortib, ushbu baliyya bila o'q olamdin naql qildi.* (Bn.)

**OLAMAFRO'Z** a. -f. Dunyoni yorituvchi.

*Va lekin husn o'tun aylab jahonso'z,  
Bularni andin etti olamafro'z.* (F.Sh.)

**OLAMFURUZ** a. -f. Olamni yorituvchi, dunyoni ravshanlashtiruvchi.

*Bu sifat mehri olamfuruze,  
Mehr yo'q, shu'lai jahonso'ze.* (S.S.)

**OLAMIYON** a. -f. Olamdagi insonlar, dunyo ahli, odamlar.

*Har tilni biluv emdi bani odama jondur,  
Til vositai robitai olamiyondur.* (A.O'.)

**OLAMLIG'** Olamdagi mavjudotlar.

*Izi azza va jalla ko'rknı yuz ulush qildi, to'qson to'qquzni Havvog'a berdi. Bir ulushni qamug' olamlig'larg'a berdi.* (R.)

**OLAMOROY** a. -f. Olamni bezovchi, olamga oro beruvchi.

*Qachon qilg'ay ko'zumni yoqtu ul oy,  
Erur yuzi quyoshtek olamoroy.* (Mn.)

- OLAMSO'Z** *a. -f.* Jahonni kuydiruvchi, olamni yondiruvchi.  
*Razm aro barqi tig'i olamso'z,*  
*Bazm aro sham'i ra'yi mehrafro'z. (S.S.)*
- OLAMTOB** *a. -f.* Olamga nur sochuvchi, dunyoni yorituvchi.  
*Ne hadim yozmoq bitik ul mehri olamtobg'a,*  
*Chun yoza olmon jafosin zarraye ahbobg'a. (B.V.)*
- OLAT** *a.* Asbob.  
*Yana bir oliy imorati Pushtai Ko'hak domanasida rasad-*  
*durkim zij bitmakning olatidur. (Bn.)*
- OLATO'G'ONOQ** Chumchuqlar turkumiga kiruvchi yirtqich bir qush.  
*Olato'g'onoq olg'ir bo'lsa ham, ahvoli ma'lum. (Zm.)*
- OLACHUQ** Kapa, chayla.  
*Bor-u yo'q uylarini banda, bayon gar qilsam,*  
*Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak. (Max.)*
- OLDARAMOQ** Dovdiramoq, sarosimaga tushmoq, qo'rqmoq.  
*Ushbu zamon Shayx Boyazid ham iztirob bila keldi,*  
*oldarabtur. Mirzo va Ibrohimbek dedilarkim, Shayx*  
*Boyazidni tutmoq kerak. (Bn.)*
- OLIM** *a.* Bilimli kishi, bilag'on, bilgich.  
*Maning hazratimda ming obiddin bir olim fozilroq turur. (R.)*  
**Olimi g'ayb** Sirli ishlarni, sir-u asrorni biluvchi; Xudo.  
*Odami bo'lmadi chu olimi g'ayb,*  
*Manga bu ish ko'runur erdi ayb. (S.S.)*
- OLIIY** *a.* 1. Yuksak, yuqori.  
*Tilar el mansabi oliy va lekin,*  
*Atoyi sarvi ozodingg'a banda. (A.)*  
 2. Zo'r, chiroyli.  
*Suhayl husni erur Yusufdin oliy,*  
*Etar mot olmani yuzining oli. (S.Sar.)*
- OLLIDA** Oldida.  
*Kerak sher ollida ham sheri jangi,*  
*Agar sher o'lmasa, bori palangi. (H.A.)*
- OLMA** 1. Olma daraxtining mevasi.  
*Suhayl husni erur Yusufdin oliy,*  
*Etar mot olmani yuzining oli. (S.Sar.)*  
 2. ko'ch. Ko'krak, emchak.  
*Muhabbat nori jondin ketmadi hech,*  
*Qo'lum siym olmangizg'a yetmadi hech. (Mn.)*

- OLMOS** 1. Yaltiroq, shaffof, qimmatbaho bir tosh.  
2. *ko'ch*. Olmos singari o'tkir, keskir.  
*Garchi sinuq igna haqqunnosdur,*  
*Bag'ring aro xanjari olmosdur.* (H.A.)
- OLACHUQ** Kapa, chayla.  
*Ichi kuygan yog'och kovoki ochuq,*  
*Bo'lub g'ulu shayoting'a olachuq.* (F.Sh.)
- OLT** Ost, tub, tag.  
*Ayog'in o'pgali gar tushti gesu,*  
*Bo'lur doim charog'olti qarong'u.* (F.Sh.)
- OLTUN** Sariq-qizg'ish rangli qimmatbaho metall, tilla, zar, oltin.  
*Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,*  
*Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.* (A.N.Rub.)
- OMI** a. Sodda, go'l, oddiy, o'qimagan.  
*Mullalari chaqqon, garang,*  
*Omilari ham mulla rang.* (M.)
- OMIN** a. Fotihada «qabul qil» ma'nosida qo'llanadigan so'z.  
*Muhabbat birla jonindin bu miskin,*  
*Duo qildi ijobat bo'lsun, omin.* (Mn.)
- OMODA** f. Tayyor, shay.  
*Bo'ldi yonmoq ishiga omoda,*  
*Keldi nogah o'ziga shahzoda.* (S.S.)
- ON** a. Lahza, zum.  
*Shu on kelturdilar chohg'a Suhaylni,*  
*Guldursun boqibon to'xtatti saylni.* (S.Sar.)
- ONDIN** Undan.  
*Har neniki sevmak ondin ortuq bo'lmas,*  
*Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.* (A.N.Rub.)
- ONI** Uni.  
*Ayladi oni tiyra uyda nihon,*  
*Anga tegruki tiyra bo'ldi jahon.* (S.S.)
- ONING** Uning.  
*Munda to zoyi' o'lmish avqotim,*  
*Budur oning bila muloqotim.* (S.S.)
- ONT** 1. O'tinch, iltimos.  
*Azroil aydi: «Sening ontingdin menga mavlo taoloning*  
*yorlig'i azizraq turur»* (R.)  
2. Qasam.  
*Jazm qilsang bu ishni pinhoni,*  
*Ont ichib emin aylasang oni.* (S.S.)



- ONCHA** 1. Bunday, bunga o'xshash, shunga o'xshash.  
*Agar qarlug'och ul kuni oncha ezguluk qilmasa erdi, qamug' odamiylar yilong'a yem bo'lg'ay erdilar. (R.)*  
 2. Ancha, ko'p.  
*Bor edi oncha mehnati bir yon,  
 Mehri gulchehr furqati bir yon. (S.S.)*
- OQIBAT** a. Oxiri, oxir-oqibat, natijada, pirovardida.  
*Ichaling bodani gullar so'lisar,  
 Tanimiz oqibat to'praq bo'lisar. (Mn.)*
- OQIBATANDISH** a. -f. Oqibatni o'ylovchi, oxirini o'ylovchi.  
*Qizni vazirg'a topshurub, buyurdikim halok qilg'ay. Vazir oqibatandish kishi erdi. (T.M.A.)*
- OQILMOQ** Oqmoq, ko'plashib biror tomonga yurmoq.  
*O'zbek eli oqilib kelgusidur,  
 O't yolindek choqilib kelgusidur. (Shn.)*
- OQITMOQ** Oqizmoq.  
*Qo'zutti jang bilan olamda to'fon,  
 Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon. (S.Sar.)*
- OQIZMOQ** Oqishini ta'minlamoq, oqizmoq.  
*Yo'qki hijron g'amida zor-u zalil,  
 Nilufar ichra oqizib edi Nil. (S.S.)*
- OQSOQOL** O'zbekistonda 1917-yilgi oktabr to'ntarishiga qadar qishloq boshlig'i, qishloqqa bosh bo'lgan amaldor.  
*Derki Hakimjoni: - «Ayo oqsoqol,  
 Bizni topibsiz magaramkim o'sol». (M.)*
- OQSUM** Mast, kayfi bor.  
*May ichsang o'lmag'il oqsumki, piri dayr dedi,  
 Ki bu ish o'ldi bizing dayr aro kamina yozuq. (B.V.)*
- OR** Xijolat tuyg'usi; nomus, uyat, or-nomus.  
**Or edmak** Uyalmoq.  
*Aqrabolar suhbatimdin or edar, qoshin chatar,  
 Salb dillarda, nazarlarda karih suprundiman. (T.F.)*
- ORANJ** f. Tirsak.  
*Chu zor ortuq aylab tarozusidin,  
 Chiqib yoki oranj bozusidin. (S.I)*
- ORAZ** a. Yuz, bet, chehra.  
*Orazin yopqoch, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,  
 O'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh. (G.S.)*  
**Oraz quyoshi** Yuz, chehra.

- OLMOS** 1. Yaltiroq, shaffof, qimmatbaho bir tosh.  
2. *ko'ch*. Olmos singari o'tkir, keskir.  
*Garchi sinuq igna haqqunnosdur,*  
*Bag'ring aro xanjari olmosdur.* (H.A.)
- OLACHUQ** Kapa, chayla.  
*Ichi kuygan yog'och kovoki ochuq,*  
*Bo'lub g'ulu shayoting'a olachuq.* (F.Sh.)
- OLT** Ost, tub, tag.  
*Ayog'in o'pgali gar tushti gesu,*  
*Bo'lur doim charog' olti qarong'u.* (F.Sh.)
- OLTUN** Sariq-qizg'ish rangli qimmatbaho metall, tilla, zar, oltin.  
*Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,*  
*Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.* (A.N.Rub.)
- OMI** a. Sodda, go'l, oddiy, o'qimagan.  
*Mullalari chaqqon, garang,*  
*Omilari ham mulla rang.* (M.)
- OMIN** a. Fotihada «qabul qil» ma'nosida qo'llanadigan so'z.  
*Muhabbat birla jonindin bu miskin,*  
*Duo qildi ijobat bo'lsun, omin.* (Mn.)
- OMODA** f. Tayyor, shay.  
*Bo'ldi yonmoq ishiga omoda,*  
*Keldi nogah o'ziga shahzoda.* (S.S.)
- ON** a. Lahza, zum.  
*Shu on kelturdilar chohg'a Suhaylni,*  
*Guldursun boqibon to'xtatti saylni.* (S.Sar.)
- ONDIN** Undan.  
*Har neniki sevmak ondin ortuq bo'lmas,*  
*Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.* (A.N.Rub.)
- ONI** Uni.  
*Ayladi oni tiyra uyda nihon,*  
*Anga tegruki tiyra bo'ldi jahon.* (S.S.)
- ONING** Uning.  
*Munda to zoyi' o'lmish avqotim,*  
*Budur oning bila muloqotim.* (S.S.)
- ONT** 1. O'tinch, iltimos.  
*Azroil aydi: «Sening ontingdin menga mavlo taoloning yorlig'i azizraq turur»* (R.)  
2. Qasam.  
*Jazm qilsang bu ishni pinhoni,*  
*Ont ichib emin aylasang oni.* (S.S.)

- ONCHA** 1. Bunday, bunga o'xshash, shunga o'xshash.  
*Agar qarlug' och ul kuni oncha ezguluk qilmasa erdi, qamug' odamiylar yilong'a yem bo'lg'ay erdilar. (R.)*  
 2. Ancha, ko'p.  
*Bor edi oncha mehnati bir yon,  
 Mehri gulchehr furqati bir yon. (S.S.)*
- OQIBAT** a. Oxiri, oxir-oqibat, natijada, pirovardida.  
*Ichaling bodani gullar so'lisar,  
 Tanimiz oqibat to'praq bo'lisar. (Mn.)*
- OQIBATANDISH** a. -f. Oqibatni o'ylovchi, oxirini o'ylovchi.  
*Qizni vazirg'a topshurub, buyurdikim halok qilg'ay. Vazir oqibatandish kishi erdi. (T.M.A.)*
- OQILMOQ** Oqmoq, ko'plashib biror tomonga yurmoq.  
*O'zbek eli oqilib kelgusidur,  
 O't yolindek choqilib kelgusidur. (Shn.)*
- OQITMOQ** Oqizmoq.  
*Qo'zutti jang bilan olamda to'fon,  
 Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon. (S.Sar.)*
- OQIZMOQ** Oqishini ta'minlamoq, oqizmoq.  
*Yo'qki hijron g'amida zor-u zalil,  
 Nilufar ichra oqizib edi Nil. (S.S.)*
- OQSOQOL** O'zbekistonda 1917-yilgi oktabr to'ntarishiga qadar qishloq boshlig'i, qishloqqa bosh bo'lgan amaldor.  
*Derki Hakimjoni: - «Ayo oqsoqol,  
 Bizni topibsan magaramkim o'sol». (M.)*
- OQSUM** Mast, kayfi bor.  
*May ichsang o'lmag'il oqsumki, piri dayr dedi,  
 Ki bu ish o'ldi bizing dayr aro kamina yozuq. (B.V.)*
- OR** Xijolat tuyg'usi; nomus, uyat, or-nomus.  
**Or edmak** Uyalmoq.  
*Aqrabolar suhbatimdin or edar, qoshin charar,  
 Salb dillarda, nazarlarda karih suprundiman. (T.F.)*
- ORANJ** f. Tirsak.  
*Chu zor ortuq aylab tarozusidin,  
 Chiqib yoki oranj bozusidin. (S.I)*
- ORAZ** a. Yuz, bet, chehra.  
*Orazin yopqoch, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,  
 O'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh. (G.S.)*  
**Oraz quyoshi** Yuz, chehra.

*Oraz quyoshin ochib, ashki qurug'an ko'zni,  
Ko'p hajrda yig'latding, bir vaslda ham yig'lat.* (N.Sh.)

**ORI** *f.* To'g'ri, ha, rost.

*Yapaloqqush aydikim: «Ori, balog'a sabr, qazog'a rozi  
bo'lmog'din o'zga choram yo'q.»* (Zm.)

**ORIF** *a.* Biluvchi, bilimli, marifatli, dono.

**Orifi Jom** Dunyoning barcha ishlarini biluvchi. Jom orifi,  
Jom shahridan chiqqan orif, ya'ni Jomiy.

**ORIQ** Toza, pokiza, ozoda, tiniq.

*Ul ilikkim suvdin oriqtur, yumas oni suvda,  
Balki suvni pok bo'lsun deb iligi birla yur.* (A.)

**ORİYAT** *a.* Biror narsani ma'lum bir muddatga olish; vaqtincha-  
likka olish.

*Lobaqodur qalbi, qalbing bog'lama iqbolinga,  
Bo'lma g'arra oriyat dunyovu mulku molinga.* (T.F.)

**ORİYATIY** *a.* Vaqtincha, vaqtinchalik.

*Axsida tavaqquf qilmay, Qosim Ajabning o'runig'a Yorak  
tag'oyini ham oriyatiy qo'yub, Koson ustiga o'ttuk.* (Bn.)

**ORIZA** *a.* Kasallik, xastalik.

*Bu asnoda Sulton Mahmudxong'a oriza bo'ldi, urush solib  
ham o'sonib edi, o'z viloyatig'a murojaat qildi.* (Bn.)

**OROM** *f.* Dam, istirohat, huzur, rohat.

**Orom bermak** Dam bermoq.

*Beribon kemalar aro orom,  
Yel kibi aylasak, su uzra xiirom.* (S.S.)

**Orom tutmoq** Dam olmoq.

*Men bo'lub kema ichra bahrxirom,  
Sipahim birla tutmasam orom.* (S.S.)

**OROMJO'Y** *f.* Tinch joy izlovchi, o'z osoyishtaligini qidiruvchi.

*Har sori bir mast o'lub oromjo'y,  
Bir buti gulruxdin o'lub komjo'y.* (H.A.)

**OROMIJON** *f.* Jonga orom beruvchi, rohat bag'ishlovchi.

*Ey, mening nozik nihol, oromijonim qaydasan?  
Bu ko'ngul bo'stonida g'uncha dahonim, qaydasan?* (Mash.)

**OROYISH** *f.* 1. Bezak, ziynat, pardoz-andoz.

*Er kishiga zeb-u ziynat hikmatu donishdurur,  
Yaxshi kiymak birla xotunlarg'a oroyishdurur.* (M.Q.)

2. Huzur-halovat, rohat, farog'at; osoyish.

*Istamay o'zining oroyishini,  
Istagay xalqning osoyishini.* (Shn.)

**ORTTURMOQ** Maqtamoq.

*Bu bitilganlardin maqsud o'zni ortturmoq emas, rosti bu edikim, mastur bo'ldi. (Bn.)*

**ORTUQ** 1. Ko'p, oshiq.

*Kun sayu emgaki ortuqroq bo'ldi. (R.)*

2. Ziyod, afzal, a'lo, yaxshi.

*Har neniki sevmak ondin ortuq bo'lmas,*

*Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz. (A.N.Rub.)*

3. Yuksak, baland, yuqori.

*Garchiki, yo'q shavkati sarmoyasi,*

*Sendin erur ortuq aning poyasi. (H.A.)*

**ORTUQSI** Qo'shimcha.

*Pok mazhab kishi edi, namozini tark qilmas edi, ortuqsi namozlar ham xeyli o'tar edi. (Bn.)*

**ORZU** f. Umid, niyat, istak.

*Anda Ko'rqush aydi: «Men xotun olmoq orzusig'a g'arq emasmen». (Zm.)*

**ORZUMAND** Orzu qiluvchi, umid qiluvchi; intizor, mushtoq.

*Dedi: vaslig'a borsen orzumand?*

*Dedi: bormen xayoli birla xursand. (F.Sh.)*

**OS**

1. Terisidan po'stin tayyorlanadigan, juni oq va yumshoq bir hayvon, oqsuvsar.

*Ko'kda o'ynar, qo'l solishur qug'u, g'oz, qil, qarlug'och,*

*Yerda yugurub juft olishur os, tiyin, kish, qunduzi. (R.)*

2. Os terisidan tikilgan, oqsuvsar mo'ynasidan tayyorlangan.

*Bir os bo'rkumni yibordim. (Bn.)*

**OSIB** f. Zarar, ziyon; kulfat, ofat.

*Jarrohning ixtiyori bila yo bexost milidin Sul-ton Ali mirzoning ko'zlariga osibe yetmadi. (Bn.)*

**Osibi xazon** Kuz yetkazgan zarar.

*Sarvikim, ul to'g'ri chekib qomatin,*

*Ko'rmayin osibi xazon ofatin. (H.A.)*

**Osibi xazoniy topmoq** Musibat chekmoq

*Dedi: k-ey zodi sarvi bo'stoniy,*

*Valekin topqan osibi xazoniy. (F.Sh.)*

**OSIY** a. Gunohkor, gunohli; aybli, aybdor.

*Qil amon, yo rab, adu-klar mojarosidin meni,*

*Saqlag'il osiy bu mardumning izosidin meni. (U.)*

**OSIYO** *f.* 1. Tegirmon.

*Osiyo novasidek rost etib bo'g'zini. (T.F.)*

2. Tegirmon toshi.

*Dahr zulmidin sirishki tinmay oqib aylanur,*

*Charx javridin boshida osiyo, deb axtaring. (M.)*

**OSIG'** Foyda, naf.

*Ne osig' nolau faryod xobolud baxtimdin,*

*Bu unlar birla chun qilmoq ani bedor mushkildur. (B.)*

**OSMONPAYMOY** *f.* Balandga intiladigan, osmonga intiladigan; shiddatli, kuchli.

*Bo'ldi ko'lok osmonpaymoy,*

*Ko'runur erdi kemadek yangi oy. (S.S.)*

**OSMOQ** Ilmoq.

**Go'sh osmoq** Quloq osmoq, tinglamoq, quloq solmoq.

*Va ani tashladilar katta chohg'a,*

*Sira osmay alar go'sh ohu vohg'a. (S.Sar.)*

**OSON** *f.* Bajarilishi qiyin bo'lmagan, yengil.

*Manga tabqungda hargiz bo'lmadi son,*

*Kishi ul saltanatni olmas oson. (Mn.)*

**OSOR** *a.* (birligi **asar**) 1. Asarlar; belgi, nishona.

*Aziz o'lmoq agar istar esang ahli jahon ichra,*

*Qanoat aylakim, ul rutba osori qanoatdur. (Og.)*

2. Belgilar, nishonalar.

*Daraxtlarni qo'ng'aradurlar va tomlarni yiqadurlar va qahr-u g'azab osori alarda zohirdur. (N.M.)*

**OSOYISH** *f.* Tinchlik, xotirjamlik, tinim.

*Qadrig'a bergach oning afzoyish,*

*Ko'ziga uyqu soldi osoyish. (S.S.)*

**OST** Tag, tub.

*Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim*

*Bu zamon yavg'on qozon ostida qolg'on yundiman. (T.F.)*

**OSTONA** *f.* 1. Eshik chorcho'pining ostki yog'ochi, bo'sag'a.

2. ko'ch. Uy, xonadon.

*Meni o'lturdi ishqing, bermading dod,*

*Borurmen ostonangdin yor, xayrbod. (Mn.)*

**OT I** 1. Ism, nom.

*Hunar avji sori kelib anga mayl,*

*Yuzi andoqki mehr, oti Suhayl. (S.S.)*

2. Shuhrat, dong, nom.

*Sening ishqingda Xorazmiy yo'qoldi  
Va lekin yer yuzinda oti qoldi. (Mn.)*

3. Ot kallasiga o'xshatib yasalgan shahmat donasining nomi; asp.

*Quyashg'a tarh uchun tashlab ruxu ot,  
Vale yuz qatla har soat qilib mot. (F.Sh.)*

**Ot qozg'onmoq** Mashhur bo'lmoq.

*O'zungga yaxshi ot qozg'onmish bo'lg'aysen. (T.M.A.)*

**Oti chiqmoq** Nomi chiqmoq, mashhur bo'lmoq.

*Xushroq mango chiqsa shohliqdin,  
Komil kibi qulluqungda otim. (K.)*

**OT II** Sutemizuvchilarga mansub, go'shti yeyiladigan, yirik ishulov hayvoni.

*Qaysiki qishloqqa tushar otidin,  
Elni yig'ib voqif etar zotidin. (M.)*

**Ot tortishmoq** Otda poyga qilmoq, otda kim o'zarga musobaqalashmoq.

*Yo'lda borurda Qanbar Ali va Qosimbek bila ot tortishtuq.  
(Bn.)*

**OTA 1.** Farzandi bor er kishi, padar.

*«Otasi urmas qo'ng'uzni, bolasi urar to'ng'izni» degan so'zga ishonma. (Zm.)*

2. Aziz avliyolar yoki ulug' kishilarga nisbatan hurmat bildiradi.

*Hakim ota tergan o'tunlarni to'niga chirmab, quruq kelturgandur. (N.M.)*

3. Ajdod, bobokalon.

*Arab va ajamning otasi Som turur. (R.)*

**OTASH** f. 1. O't, olov.

*Bu so'zning ramzini dono bilur bas,  
Nechuk otashg'a toqat aylagay xas. (F.)*

2. ko'ch. Qalbni o'rtaydigan his-tuyg'u, o't.

*G'azoldek silkinib qochti parivash,  
Suhayl ko'ngliga tashlab katta otash. (S.Sar.)*

**OTASHANGEZ** f. O't sochuvchi.

*Bu hay'at birla chiqti g'ordin tez,  
Tishi xunrez, og'zi otashangez. (F.Sh.)*

**OTASHIN** 1. O'tli, alangali; kuydiruvchi.

*Bo'ldi oshiq biri, biri ma'shuq,*

*Yo'qki ul otashinu bu mahruq. (S.S.)*

2. *ko'ch. O'tday qizil, qip-qizil*

*Bu oqshom holima sham' o'rtanur, parvona andin ko'p,  
Chamanda otashin gul, bulbuli devona andin ko'p. (F.K.)*

**OTASHOLUD** *f. O'tli, yolqinli, qizg'in.*

*Sen tortibon ohi otasholud,*

*Men o't yoqibon chiqarmayin dud. (L.M.)*

**OTIQMOQ** *Nom chiqarmoq, nomi chiqmoq.*

*Xandaqdin chiqmag'anlar qo'rqoqliqqa otiqib, bedillik bila  
afsona bo'ldilar. (Bn.)*

**OTLIG' I** *Nomli, ismli, otli.*

*Farishtalar Odamni ko'kka og'durdilar. Jabroil bir ot keltur-  
di, Maymun otlig'. (R.)*

**OTLIG' II** *Ot mingan, otliq, suvori.*

*Ko'rdilar solur erdi bir bug'u xez,  
Yetti oni qovub bir otlig' tez. (S.S.)*

**OTMOQ 1.** *Irg'itmoq, uloqtirmoq.*

2. *Kamondan o'q uzmoq.*

*Iztirob aylabon ota tushti,  
Bir-ikki o'q, vale xato tushti. (S.S.)*

**OTQULAMOQ** *Otmoq, o'q uzmoq, o'qqa tutmoq.*

*Alar ham oz kishi bila yaxshi to'xtab, ko'ndalangdin  
yaxshilar otquladilar. (Bn.)*

**OTQULASHMOQ** *Otishmoq, o'q otishmoq.*

*Bu sangto'dada o'qum boricha otqulashay, yana xotirg'a  
yettikim, shoyad toqqa yetisha olg'aymen. (Bn.)*

**OTUN** *O'qimishli ayol, bilimli ayol.*

*Yig'ibon har tarafdin necha xotun,  
Barisi fazl-u donish ichra otun. (H.G.)*

**OV 1.** *Yovvoyi hayvonlarni turli vositalar bilan otish, ushlab, ovlash.*

*Shahg'a ko'p erdi ov ishida vuquf,  
Balki bor erdi asru ko'p mash'uf. (S.S.)*

2. *Ovda qo'lga kiritilgan o'lja.*

*Saroydin bordi Chin-Moching'a choving  
Qiyo boqsang bo'lur arslonlar oving. (Mn.)*

**OVON** *a. (birligi on) Onlar, lahzalar, vaqtlar.*

*Muhosara ovonida qo'rg'on faslining ustida har kecha yurur  
educ. (Bn.)*



**OVORA** *f.* Darbadar, sargardon, sarson.

*Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima,  
Xonumon ovora selobi havodis surdiman. (T.F.)*

**OVOZ** *f.* Tovush, sas.

*Unda alomati balog'at zohir bo'lub, ko'zi suzulub, ovozi buzulub, onasining to'g'ri so'zlaganiga egri so'zlay boshladi. (Zm.)*

**OVUCH** 1. Hovuch; 2. ko'ch. Qo'l.

*Fard kishi davrda topmas navo,  
Yolg'uz ovuchdin kim eshitmish sado? (H.A.)*

**OXIR I** *a.* 1. Oqibatda, natijada, pirovardida.

*Ki, chekilgay bu intiqom oxir,  
Ro'zi o'lg'ay bu nav' kom oxir. (S.S.)*

**OXIR II** *a.* Axir (ta'kid yuklamasi).

*Bag'ishlasang qonim, sultonsen oxir,  
Ko'zumga nur, tanimg'a jonsen oxir. (Mn.)*

**OY** 1. Yerning yo'ldoshi, yorug' samoviy jism.

*Ey, falak avjiddin o'tub rif'ating,  
Oyu quyoshdin cholinib navbating. (H.A.)*

2. Vaqt o'lchovi birligi.

*Qo'yni shubon asramasa oyu yil,  
Och bo'rilar tu'masidur bori bil. (H.A.)*

3. ko'ch. Go'zal mahbuba, ma'shuqa.

*Qachon qilg'ay ko'zumni yoqtu ul oy,  
Erur yuzi quyoshtek olamoroy. (Mn.)*

4. Oyday, chiroyli, go'zal.

*Ayo, bo'yi sanuvbar, chehrasi oy,  
Quyosh yanglig' jamoling olamoroy. (Mn.)*

**OYA** *a.* Oyat, qur'on oyati.

*Qilibdur mahliqolarning yuzini,  
Latofat mushafig'a oya navro'z. (Og.)*

**OYAT** *a.* Qur'on suralarini tashkil qilgan har bir jumla, har bir qism.

*Sidq ila urg'onda salo ummati,  
Aytti «Kazzobuna lo ummati». (H.A.)*

**OYILMOQ** Hushiga kelmoq, o'ziga kelmoq.

*Kim sizing yaxshilig'ingizni bilib,  
Mastliq uyqularidin oyilib. (Shn.)*

**OYIN** *f.* Odat, rasm, qiliq.

*Dosha izhor ayladi Farhod Shirin dardini,  
Ishq oyinida uldur behayolardin biri. (G.)*

**Oyini vafo** Vafo odati, vafo rasmi.  
*Oyini vafo shioring o'lsun,*  
*Bor emdiki, tangri yoring o'lsun. (L.M.)*

**OYINA** *f.* Oyna, ko'zgu.

*Ko'ngullar ohidin iymangil, ey shoh,*  
*Kim oyina tunar ko'p qilsalar oh. (Mn.)*

**OYINLIK** Odat qilishlik, ravish-raftorlik.

*Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,*  
*Qirqu yuz, ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling. (T.F.)*

**OYIRMOQ** Ajratmoq, ayirmoq.

*Sug'a surdi Suhayl kemasini,*  
*Oyirib borcha xaylu nimasini. (S.S.)*

**OYO** *Ey.*

*Ne o'tdi ekin tobi oyo,*  
*Ko'ngli aro iztirobi oyo? (L.M.)*

**OZARM** *f.* Rahm, shafqat; mehribonlik.

*Markab yeli arsani supurdi,*  
*Ozarm giyohlarin sovurdi. (L.M.)*

**OZDURMOQ** To'g'ri yo'ldan adashtirmoq.

**Xiraddin ozdirmoq** Jinni qilmoq.  
*Xiraddin ozdurur g'amzang xumori,*  
*Yang'oqlaring Xalilulloh nori. (Mn.)*

**OZIM** *a.* Bir ishni bajarishni niyat qiluvchi, qasd qiluvchi.

*Ozim etsam Suhayl uchun oni,*  
*Kim, desam hojatimni pinhoni. (S.S.)*

**OZMOQ** Adashmoq, yanglishmoq.

*Yuz farozidin ozib, tushdim nishibi qirqqa*  
*Xavfu biymu vahm arosinda qaribi qirqqa. (T.F.)*

**OZMOYISH** *f.* Sinash, imtihon, sinov.

*Ko'p kishi qildi ozmoyish anga,*  
*Aytg'andek edi namoyish anga. (S.S.)*

**OZOD** *f.* Hur, erkin.

*Andaki Mehrni qilib noshod,*  
*Qavmu xaylini ayladi ozod. (S.S.)*

**Savsani ozod** Oq savsan.  
*Til chekib ul xanjari po'loddek,*  
*Ochilibon savsani ozoddek. (H.A.)*

**OZODA** *f.* 1. Ozod, hur, erkin.

*Oni ham bildi shohi ozoda,*  
*Kim, musofir chu bo'ldi shahzoda. (S.S.)*

2. Ozod farzand, ozod kishi.

*Garchi xalq ozodasimen, yor agar bandam desa,  
Andin ortuq anglakim, bir banda ozod aylagay. (B.V.)*

3. Yaxshi, barkamol, raso, normal.

*Ozodadin to'pori ko'p,  
Dukchisidin attori ko'p. (M.)*

**OZODAVASH** *f.* Pokiza, toza.

*Bas qobil ediyu dilpisand ul,  
Ozodavashu niyozmand ul. (L.M.)*

**OZOLMOQ** Ozaymoq, kamaymoq.

*To'fon taskin topti va su ozola boshladi. (T.A.H.)*

**OZORLIQ** Ozor chekkan, xafa bo'lgan.

*Ko'ngli bu ishdin bo'lub ozorliq,  
Boshladi durroj bila yorliq. (H.A.)*

**OZUQ** Oziq, don, don-dun.

*Yuz botmon bug'doy bir yillig ozuq bo'lur erdi. (R.)*

**OZURDA** Dardnok, dardli, ozor chekkan, xafa.

*Bo'lmaq il ozurdau ozurda qilma kimsani,  
Faqr oyinida nevchunkim emas ozor shart. (B.V.)*

**OZURDAJON** *f.* Joni ozor chekkan, dardnok.

*Ketur, soqiy, qadahkim notavonmen,  
Malomat bahrida ozurdajonmen. (F.Sh.)*

**OZG'URMOQ** Yo'ldan ozdirmoq, adashtirmoq.

*San o'z diningni tut, zohid, mani ko'p yo'ldin ozg'urma,  
Bu suvrat sham' yondurdung ziyosini rivoj etmaz. (G.)*

**OG'A** 1. Aka. 2. Yurtning kattasi, el boshi, yurtboshi.

*Og'a bo'lur yigitning peshonasi keng bo'lur. (Zm.)*

**OG'DURMOQ** Ko'tarmoq, yuksaltirmoq.

*Farishtalar Odamni ko'kka og'durdilar. Jabroil bir ot kel-  
turdi. (R.)*

**OG'IR** Bajarilishi qiyin bo'lgan, qiyin, mashaqqatli.

*Xotun sodiq, ani sevgil aziz er,  
Har og'ir ishda ham doim seni der. (S.Sar.)*

**Og'ir uyquchi** G'aflat uyqusiga botgan, qattiq uyquga botgan.

*Og'ir uyquchi baxtim necha yotqay,  
Visoling mashriqindin ham tong otqay. (Mn.)*

**Og'ir bo'lmoq** Ahvoli og'irlashmoq, og'ir tortmoq, mushkullashmoq.

*O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. (Bn.)*

**OG'IRLAMOQ** Hurmat qilmoq, qadrlamoq.

*Jabroil kelib olg'ali o'g'radi ersa, yer Jabroilg'a ont berdi,  
mandin tuproq olmag'il, teb. Jabroil ont og'irlab tuproq  
olmadi. (R.)*

**OG'IZ** (3-shaxs birligi **og'zi**) 1. Ovqatlanish, so'zlash uchun xizmat qiladigan a'zo.

*Qatiq kulsang magar og'zing bilurgay,  
Pari ko'rsa seni, mendek telurgay. (Mn.)*

2. Til.

*Oyoq yugurigi oshqa, og'iz yugurigi boshqa. (Zm.)*

**OG'LAMOQ** Yig'lamoq, ko'z yoshi to'kmoq.

*Ko'rub Guldursun og'lab holig'a yuz,  
Choh ichra kirdi, qo'ydi yuzina yuz. (S.Sar.)*

**OG'OZ** f. Boshlash, kirishish.

*Shakar erning qachon so'z qilsa og'oz,  
Qilur jon to'tisi tanlarda parvoz. (Mn.)*

**OG'OCH** Daraxt.

*Og'ochlarda shakar tekin yemishlar,  
Bu yerni ellari uchmoq demishlar. (S.Sar.)*

**OG'UL** Og'il, molxona.

*Bir poda joyi govu xar,  
Chun og'uli tayyor ekan. (M.)*

**OSH** Ovqat, taom.

*Qilmadim shukronai, soldurdi tufroq oshima,  
Qolmadi yuz dard-u g'am hamdam, musohib qoshima. (T.F.)*

**OSHAMOQ** Yemoq, tanovul qilmoq.

*Yigitsen boda ichkil nuql oshag'il,  
Bugundin so'ng yuz ellik yil yashag'il. (Mn.)*

**OSHIQ** a. 1. Birovni sevib qolgan, xushtor.

*Birikib ketti oshiqlar uzoqqa,  
Ilinmay yo'l uza qo'yg'on tuzoqqa. (S.Sar.)*  
2. Allohga sevgisi ko'p bo'lgan, allohni sevgan.

*Xizmat qilib pir rizosin topmoq kerak,  
Mundoq oshiq haqdin ulush olur ermish. (A.Y.)*  
**Oshiqi diydor** Allohning diydoriga, jamoliga oshiq.  
*Oshiqi diydorman, ey yor, bilmassan magar,  
Mansuri Xallojdek dorg'a osilg'an o'zginam. (Mash.)*

**OSHIQONA** a.-f. Oshiqdek, oshiqlardek.

*Ishq ko'yida hamnafas bo'lmish,  
Har nafas ohi oshiqona manga. (N.Sh.)*

**OSHIYON** *f.* 1. Maskan, turar joy, manzil.

**Baxt oshiyoni** Baxt maskani.

*Yuzungdin bilgurur davlat oshiyoni,*

*O'ramung tuprog'i, baxt oshiyoni. (Mn.)*

2. Binonig yuqorigi qavati, ustki qavat.

*Ikki oshiyonaliq, vale shiringina imorattur, yuqorigi oshiyonida takalluf ko'prak qilibturlar. (Bn.)*

**OSHIYONALIQ** Qavatli, etajli.

*Ikki oshiyonaliq, vale shiringina imorattur. (Bn.)*

**OSHKOR** *f.* Ma'lum, ayon, ochiq-oydin.

*Kim: «Bu yanglig' ish oshkor o'ldi,*

*Bo'yla saydi sanga shikor o'ldi. (S.S.)*

**OSHLIQ** G'alla, don.

*Dedi oshliqlarini zoye' eting,*

*Qaydakim otu qo'yi bor, yeting! (Shn.)*

**OSHLIQCHI** G'alla ta'minoti bilan shug'ullanuvchi kishi.

*Vale har kunda bizing oshliqchi va alarning oshliqchisi otqulashurlar edi. (Bn.)*

**OSHMOQ** 1. Kuchaymoq, zo'raymoq.

*Bo'lg'och ul nav' so'z xitobi aning*

*Oshti ul undin iztirobi aning. (S.S.)*

2. Ma'lum bir to'siq yoki chegaradan o'tmoq; sakramoq.

*Taqi aymishlar mushuk tomdin tomg'a oshib yurusa, yuz yig'och yer yurur erdi. (R.)*

3. Chiqmoq, ko'tarilmoq.

*Kim oshti ko'kka ohim ihtiroqi,*

*Kuyurdi ko'nglumi dilbar firoqi. (Mn.)*

**OSHNO** *f.* Tanish, yaqin, tanish-bilish, yor-do'st.

*Senga to bo'ldum, ey jon, oshnomen,*

*Jafong ilgindin usru muhtalomen. (Mn.)*

**OSHNOLIG'** Do'stlik, o'rtoqlik, oshnolik.

*Tanida benavolig'din asarlar,*

*Yuzida oshnolig'din xabarlar. (F.Sh.)*

**OSHOM** Yeyish, ichish.

**Durd oshom** Mayning idish tagida qolgan cho'kindisini ichuvchi quyqaxo'r.

*Muhabbat jomi durdoshomi uldur,*

*Hamono zinda pili Jomiy uldur. (F.Sh.)*

**OSHUB** *f.* G'avg'o, to'polon.

*O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,  
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur. (B.V.)*

**Oshubi zamon** Zamonga g'avg'o soluvchi.  
*Zamon ahli shu boisdin taxallus Furqatiy derlar,  
Necha yildur bir oshubi zamonimdin adashganman. (F.)*

**OSHUFTA** *f.* Har tomonga sochilgan, parishon, to'zg'igan

*Sayd etdi dilbarim meni oshufta sochdin,  
Soldi kamand bo'ynuma ikki qulochdin. (L.)*

**OSHUQMOQ** Shoshmoq, shoshilmoq, oshiqmoq.

*Oshuqti qo'pg'ali o'g'radi, qo'pa bilmadi. (R.)*

**OSHURMOQ** Ko'paytirmoq, ko'paytmoq, oshirmoq.

*Bilursizkim erur ayyomi foniy,  
Neluk haddin oshurursiz jafoni. (Mn.)*

**OSHYONLIQ** Qavatli.

*Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'ri  
oshiyonliq, Ko'ksaroyg'a mavsum. (Bn.)*

**OCHILMOQ** 1. Ochiq holatga kelmoq.

*Ochilsa la'lingiz shakkar sochilur,  
Ko'rub gulg'unchaning og'zi ochilur. (Mn.)*

2. Ko'rinmoq.

*Nuh etagin ko'turdi, uvut andomi ochildi. (R.)*

## Pp

**PADID** *f.* Ko'rinib turgan, ko'ringan.

**Padid etmak** Ko'rsatmoq.  
*Ko'zumga ul eshik quflin padid et,  
Aning fathig'a kilkimni kalid et. (F.Sh.)*

**PADIDOR** *f.* Paydo bo'lgan, zohir bo'lgan, ko'ringan.

*Vale bir zarra dard o'lg'ach padidor,  
Bo'lub ul ganjlar birla xaridor. (F.Sh.)*

**PADRUD** *f.* Vido, vidolashish, xayrlashish.

*Oqizib ikki ko'zidin ikki rud,  
Otosi birla ayladi padrud. (S.S.)*

**PAHLAVONLIQ** *f.* Botirlik, qahramonlik, kuchlilik.

*Dedikim: Pahlavonliq ermas ul  
Kim, kishi makr birla urg'ay yo'l. (S.S.)*

**PALANG** *f.* Qoplon.

*Bahr aro ofati nechukki nahang,  
Besha ichra nechukki sheru palang. (S.S.)*

**PAND** *f.* O'git, nasihat, pand-nasihat.

*Pand eshitmas edi durroji mast,  
Kizbdin etmas edi afg'onni past. (H.A.)*

**PANIR** *f.* Pishloq.

*Ul sut bila san'at aylabon zol,  
Ko'rguzdi panir qursi filhol. (L.M.)*

**PANJA** *f.* Panja, qo'l.

*Ajal sarpanjasidek to'rt panja,  
Berurdek yetti gardung'a shikanja. (F.Sh.)*

**PANOH** *f.* Boshpana.

*Ikki zulfung ko'ngullarning panohi,  
Eshiking tuprog'i jon sajdagohi. (Mn.)*

**PAR** *f.* Parranda ustidagi yumshoq pat.

*Sabza rayohin anvoyi gullar, chechaklar kasratidin qo'r-  
g'ong'a qo'ng'on chog'da tovuслarning parlaridek turlanib,  
munaqqash ko'runur erdi. (Zm.)*

**Paru bol** Qanot va par; qanot.

*Kamol bergusidur so'zga shuhratu ta'sir,  
Bu qushg'a qilg'ali parvoz paru bol kamol. (K.)*

**PARASTISH** *f.* Sig'inish, topinish.

*Qildilar o'tqa parastish bisyor,  
Qildilar hoviyag'a mayl izhor. (Shn.)*

**PARASTOR** *f.* Xizmatkor, xodim.

*Bo'lub Shiring'a oshiq podshahvor,  
Gah ul mahbub o'lub, gohi parastor. (F.Sh.)*

**PARDA** *f.* 1. Deraza yoki eshikka bezak yoki to'siq uchun tutiladigan buyum.

*Pardalari rishtasi el jonidin,  
La'liyu shingarfi ulus qonidin. (H.A.)*

2. To'silgan joy, to'siq.

*Shahni bir pardag'a nihon qildi,  
O'zga zindon sori ravon qildi. (S.S.)*

**Pardai moviy** Ko'k pardasi, osmon, ko'k.

*Chun tugatti fasonani roviy,  
Pardador ochti pardai moviy. (S.S.)*

**Pardai zulmat** Qorong'i kecha, tun.

*Shom jahon safhasin aylab qaro,  
Pardai zulmat chu yopib el aro. (H.A.)*

**PARDADOR** *f.* Yashiruvchi, berkituvchi.

*Ridosi uyubining pardadori va riyo charxi igirgan har tori.  
(M.Q.)*

**PARGOR** *f.* Sirkul, pargar.

*Tuz ishi yo'q gunbazi davvorning,  
Kim xati tuz kelmadi pargorning. (H.A.)*

**PARI** *f.* 1. Musulmonlar mifologiyasiga ko'ra go'zal qiz qiyofasidagi mavjudot.

*Qabzai hukmida jahon kishvari,  
Amrig'a inson kibi devu pari. (H.A.)*

2. *ko'ch.* Go'zal qiz, nozanin; ma'shuqa, sevgili.

*Suhayl yurdi pari qochg'on sarig'a,  
Yetay deb mahvash dilkash parig'a. (S.Sar.)*

**Pari paykar** Pariga o'xshash, juda go'zal.

*Qay pari paykarga, dersen, telba bo'ldung bu sifat,  
Ey, pari paykar, ne qilsang qil mango, bo'ldum sango. (G'.S.)*

**PARISON** *f.* Paridek, pari kabi, juda go'zal.

*Tushta ne huriki, parison erur,  
Uyg'og' etar fahmki, shayton erur. (H.A.)*

**PARIVASH** *f.* Pariga o'xshagan, juda go'zal, go'zal, nozanin.

*G'azoldek silkinib qochti parivash,  
Suhayl ko'ngliga tashlab katta otash. (S.Sar.)*

**PARISHON** *f.* 1. Har tomonga sochilgan, yozilgan, to'zg'igan.

*Lab uyur takallumga zulfungni parishon qil,  
Qand qiymatin sindur, narxi anbar arzon qil. (Amir.)*

2. *ko'ch.* Tarqab ketgan, bo'linib ketgan, to'zib ketgan.

*Parishon bo'lg'on el ul taraftin-bu taraftin yig'ilib keldilar.  
(Bn.)*

**PARISHONLIQ** *f.* Sochilgan, tarqoq.

*Munda parishonlig'i noxush qilib,  
Anda muratablig'i dilkash qilib. (H.A.)*

**PARICHEHR** *f.* Pari yuzli, juda go'zal, zebo.

*O'zi birla debonkim ul parichehr,  
Meni majnung'a muncha ko'rguzub mehr. (F.Sh.)*

**PARKAND** *f.* Bo'lak, parcha.

*Gar g'ayr xayoli tushsa ko'ngliga pisand,  
Qilmoq kerak ul ko'ngulni yuz ming parkand. (V.)*



**PARKAND-PARKAND** *f.* Parcha-parcha, bo'lak-bo'lak, maydamayda.

*Falak, bag'rimni qil parkand-parkand,  
Ki, emdi bordi ondin bizga payvand! (F.Sh.)*

**PARRANDA** *f.* Umuman qush, qushlar.

*Turfa qishloqi g'azabkardaki, parrandalari,  
Tovuqi ignachiyu, o'rdagu g'ozi – kapalak. (Max.)*

**PARRON** *f.* Parvoz etuvchi, uchuvchi.

**Parron etmak** Uchirmoq, olmoq.  
*Novaki dushman yuragin qon etib,  
Tig'i aduv boshini parron etib. (H.A.)*

**PARTAV** *f.* Nur, shu'la, yog'du.

*Orazi mash'ali jahonafro'z,  
Partavi shu'lasi kelib jonso'z. (H.A.)*

**PARVO** *f.* E'tibor, diqqat-e'tibor, qiziqish.

*Una yo'qtur zulmkorlarda parvo,  
Kima mung'aysun etib darda davo? (S.Sar.)*

**PARVONA** *f.* Chiroq, yoki sham shu'lasi atrofida aylanuvchi bir hasharot.

*Egri uchush birla chu ko'p aylanib,  
Qaydaki parvona borib o'rtanib. (H.A.)*

**PARVOR** *f.* Boqilgan, parvarishlangan; bo'rdoqi.

*Yo'lida egrilar assor o'yidek,  
Yo rab o'lturgali parvor o'yidek. (F.Sh.)*

**PARVOZ** *f.* Uchish.

*Shakar erning qachon so'z qilsa og'oz,  
Qilur jon to'tisi tanlarda parvoz. (Mn.)*

**PARXOSH** *f.* Urush, jang, savash.

*Qila boshlab aning birla parxosh,  
Ishlari kema ichra bo'ldi savosh. (S.S.)*

**PAST** *f.* Tuban, quyi.

**Past etmak** 1. Yiqitmoq, qulatmoq.  
*Lutf.qo'lin holinga hamdast etay,  
Xasmni sarpanja birla past etay. (H.A.)*

2. Yo'q qilmoq, yo'qotmoq.  
*Pand eshitmas edi durroji mast,  
Kizbdin etmas edi afg'onni past. (H.A.)*

**PAXSH** *f.* Bosish, qisish, parchalash.

*Surub hay'at sori chun fikrati raxsh,  
Sipehr ajzosin aylab jav-bajav paxsh. (F.Sh.)*

**PAYDO** Zohir, oshkor, ayon, ma'lum.

*Qilibtur xalqni shaydo karashmang,*

*Qiyomatlar qo'par paydo karashmang. (Mn.)*

**Paydo bo'lmoq** Zohir bo'lmoq, ko'rinmoq.

*Bo'ldi paydo aduv bo'lur besh,*

*Tushti ikki tarafqa andesha. (S.S.)*

**Paydo qilmoq** Vujudga keltirmoq.

*Ochibon elga sitam avbobini,*

*Qilg'ali paydo tarab asbobini. (H.A.)*

**PAYK** *f.* Xabarchi, xabar beruvchi.

*Marhabo, ey payki sulton, marhabo,*

*Hudhudi mulki Sulaymon, marhabo. (N.)*

**Payki nasim ko'ch.** Shabada, mayin shamol.

*Ahbob unutmasa kerak ahdi qadim,*

*Yetkurs kerak xabar gahi payki nasim. (M.)*

**PAYKAR** *f.* Surat.

*Qay pari paykarga, dersen, telba bo'ldung bu sifat,*

*Ey, pari paykar, ne qilsang qil mango, bo'ldum sango. (G'.M.)*

**PAYKON** *f.* Kamon o'qi, o'q.

*Tiyri g'amzang muddaiy ko'nqliga zoye' qilmakim,*

*Ul hadafdur xora, paykoning kerakmasmu sanga? (Mu.)*

**PAYMON** *f.* Va'da, so'z, ahd.

*Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo'ldi?!*

*Ul lutf ila ehson qani, ey yor, ne bo'ldi?! (B.)*

**PAYMONA** *f.* May ichiladigan idish, qadah.

*Mayxona aro soqiyu paymona kerak,*

*Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak. (A.N.Rub.)*

**Paymona to'lmoq ko'ch.** Umr tugamoq.

*Sindurub isyon xumini, to'k nadomat ashkni,*

*Tavba jomin no'sh qil, paymona to'lmasdin burun. (T.F.)*

**PAYMONSHIKAN** *f.* Ahdni buzuvchi, so'zidan qaytuvchi.

*Xazon ayyomida ul tavba qilg'an bo'lsa ham maydin,*

*Yetib mayxoraliqning mavsumi paymonshikan bo'lsa. (F.)*

**PAYOM** *f.* Xabar, darak.

*Ne til bila dey, yetur salomim,*

*Yo bo'ylavu bo'yla de payomim. (L.M.)*

**PAYOMOVAR** *f.* Xabar yetkazuvchi, xabar keltiruvchi, darakchi.

*Payomovar chun yetkurdi bu payg'om,*

*Borib o'z holidin sarvi gulandom. (F.Sh.)*

**PAYVAND** *f.* O'zaro bog'li, bog'langan.

*Mehr agar erdi jonima payvand,*

*Sanga dog'i bo'lub edi farzand. (S.S.)*

**Payvand topmoq** Yetishmoq, erishmoq.

*Bori ikki ato, iki farzand,*

*Rishtai vasl ila topib payvand. (S.S.)*

**PAYVAST** *f.* Tutash, birikkan, bog'langan, bir butun.

*Dedi: qay chog'din o'ldung ishq aro mast?*

*Dedi: ruh ermas erdi tang'a payvast. (F.Sh.)*

**PAYVASTA** *f.* 1. Tutashgan, tutash, ulangan.

**Payvasta bo'lmoq** Qo'shilmoq, birga bo'lmoq.

*Tog'larg'a chiqib bo'lsun yori bila payvasta,*

*Kel qo'yma balo domi birla oni pobasta. (F.)*

2. Hamma yoq, chor-atrof.

*Langardin o'tub, G'arjiston navohisig'a yetganda, payvasta qor edi. (Bn.)*

**PAYG'AMBAR** *f.* Islom e'tiqodiga ko'ra xudoning xohish-irodasi-ni, buyruqlarini insonlarga yetkazuvchi zot, nabi, rasul.

*Nuh mashriqdin mag'ribg'a tegi qamug' xaloyiqg'a payg'ambar erdi.(R.)*

**PAYG'OM** *f.* Xabar, darak.

*Ushbu holat bila shayx ul-islom,*

*Shoh Boburg'a yibordi payg'om. (Shn.)*

**PEROYA** *f.* Ziynat, bezak.

*Kiyib ahli g'ino yuz rang xil'at,*

*To'lo boshdin ayoq peroya navro'z. (Og.)*

**PESA** *f.* Olachipor.

*Ilayimda kesak ko'hi balodur,*

*Ko'zumga pesa rishta ajdahodur. (F.Sh.)*

**PESHA** 1. Hunar, kasb.

*Kim jazoirdakim tutub besha,*

*Ul kishiga bu ish bo'lub pesha. (S.S.)*

2. Odat, qiliq.

*Saburdin yaxshi yo'qtur pesha qilsam,*

*Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam. (Mn.)*

**PESHAVAR** *f.* Hunarmand.

*Kezar erdi boqib har peshavarni,*

*Ki ko'rди necha chobuk teshavarni. (F.Sh.)*

**PESHAVARLIQ** Hunarmandlik.

*Hamul xayl ichra aylab peshavarliq,  
Demakim, peshavarliq, teshavarliq. (F.Sh.)*

**PESHKASH** *f.* Tortiq, sovg'a, tuhfa.

*Bir peshkash qilg'onda qirq ming qo'y peshkash qildi. (Bn.)*

**PESHONA** *f.* Peshana, manglay.

*Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur. (Zm.)*

**PESHONIY** *f. -a.* Peshana, manglay.

*Araqi peshoniy bila rayohin zebolari boshig'a gavharafshon bo'lurlar. (H.A.)*

**PESHRAV** *f.* Biror narsadan darak beruvchi belgi, nishona, darakchi.

*Saqol oqi o'lumga peshravdur,  
Tiriklik sabzasi uzra qiravdur. (F.Sh.)*

**PECH** *f.* O'ralgan, buralgan, buklangan.

*Menda tumori junundek pech, vahkim, bexabar,  
Har taraf ko'nglumda qonlig' dog'i pinhonimdin el. (G'.M.)*

**Pechu tob** Buralgan, chuvalgan, o'ralgan.

*Tuz chekilur borgoh uzra tanob,  
Ko'rki, erur boshdin ayoq pechu tob. (H.A.)*

**Pechu xam** Buram, burama, buralma.

*To bevatan o'lmasun ko'ngullar,  
Zulfungdin ayurma pechu xamni. (Amir.)*

**PIL** *f.* Fil.

*Iki pil o'lsa Xisrav yo Nizomiy,  
Erur yuz pil chog'lig' pil Jomiy. (F.Sh.)*

**PILIK** Bir uchi chiroq ichidagi moyni shimadigan yuqoridagi ikkinchi uchi yonuvchi eshilgan paxta.

*Osh yesalar o'rtada sarson ilik,  
Xo'ja chirog' yog'i, Hakimjon – pilik. (M.)*

**PILZO'R** *f.* Fildek kuchli.

*Kim, erur pilzo'ru shershukuh,  
Panjasidin kelib bu ikki sutuh. (S.S.)*

**PINHONIY** *f.* Yashirin, maxfiy.

*Jazm qilsang bu ishni pinhoni,  
Ont ichib emin aylasang oni. (S.S.)*

**PIR** *f.* Keksa, qari.

**Pir qilmoq** Qaritmoq.

*G'urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur,  
Hijron bila g'urbat menga ta'sir qilibtur. (B.)*



**P'IRAHAN** *f.* Ko'ylak.

*Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,  
G'alatdur, qomating oldida guldan pirahan nozik.* (F.)

**PISAND** *f.* Yoqtirilgan, ma'qullangan.

**Pisand aylamak** Yoqtirmoq, ma'qullamoq.

*So'z aro yolg'on kibi yo'q nopisand,  
Aylar aning nazmini dono pisand.* (H.A.)

**PISANDIDA** *f.* Maqbul, yaxshi, yoqimli, sara.

*Turdini holini san lutf bila so'rg'aysan,  
Qadrdon, miri pisandida, karimul-axloq.* (T.F.)

**PISTA** *f.* Tog'da o'sadigan pista daraxtining qattiq qobiqli danagi.

2. *koch.* Mahbubaning o'gzi va labi.

*Xating to'tisi la'l uzra qo'nub bor,  
Beribtur pistag'a qandu shakar bor.* (Mn.)

**PIYON** *r.* Kayfi bor, kayfli, mast.

*Sho'x odami, ichmay piyon,  
Mast, otasi bezor ekan.* (M.)

**PISHURMAK** Olovda qizdirib iste'mol uchun tayyor holga keltirmoq, pishirmoq.

*Nuhning kofir evluki tanurda etmak pishururda tanur  
ichinda suv chiqti.* (R.)

**POBAND** *f.* Oyog'i bog'langan, tushovlangan; bog'langan, bog'liq, tushovliq.

**Poband etmak** Bog'lamoq.

*Poyu ilkin etib zanjir bilan band,  
Yog'ochni-da anga ettilar poband.* (S.Sar.)

**POBAST** *f.* Tuzoqqa tushgan, tuzoqqa ilingan.

*Dona deb pobast o'lub, domi firibi qirqqa,  
Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldum g'aribi qirqqa.* (T.F.)

**POBASTA** *f.* Tushovlangan, kishanlangan, oyog'i bog'langan.

*Tog'larg'a chiqib bo'lsun yori bila payvasta,  
Kel, qo'yma balo domi birla oni pobasta.* (F.)

**PODOSH** *f.* Mukofot, evaz, badal.

*Kimki bo'lur bir shararing fosh anga,  
Do'zax o'ti bo'lg'usi podosh anga.* (H.A.)

**PODSHO** *f.* 1. Podshoh, shoh, xon.

*Kuchum yetguncha ko'p qildim vafolar,  
Vafoliq qulni asrar podsholar.* (Mn.)

2. Biror narsa yoki shaxslarning eng yaxshisi, zo'ri.

*Qamug' ko'rkluklar ichra podshosen,  
Masih anfosliq Yusufliqosen. (Mn.)*

**POD SHAHVOR** *f.* Podsho kabi, podsho singari, podshoga o'xshash.

*Bo'lub Shiring'a oshiq podshahvor,  
Ki, ul mahbub olub, gohi parastor. (F.Sh.)*

**POK I** *f.* 1. Toza, sof, gard-g'uborsiz.

*Ermaz alar tufrog'u sen nuri pok,  
Xilqat alarg'au senga tiyra xok. (H.A.)*

2. *ko'ch.* Halol, vijdonli, to'g'ri odam.  
*Kishining poklarg'a ko'ngli tortar,  
Husn xud pokdomanliqtin ortar. (Mn.)*

**POK II** *f.* Butunlay, tamoman, mutlaqo.

*Qo'lni shahzoda jonidin yudi pok,  
Qo'ydi ko'nglin suda bo'lurg'a halok. (S.S.)*

**POKDOMANLIQ** Poklik, halollik, to'g'rilik.

*Kishining poklarg'a ko'ngli tortar,  
Husn xud pokdomanliqtin ortar. (Mn.)*

**POKI** *f.* Ustara.

*Avazkim, nazm elin cholokidurman,  
Boshin olmoqqa xonning pokidurman. (Av.)*

**POKIZASIYAR** *f.-a.* Yaxshi xulqli, yaxshi xislatli, pokiza ko'ngilli.

*Dedilar: Ey shahi pokizasiyar,  
So'zlaring qildi ko'ngullarga asar. (Shn.)*

**POMOL** *f.* Oyoq ostida qolgan, ezilgan, poymol.

*Va gar xud mo'r erur pomoli aning,  
Xayol etkim, ne bo'lg'ay holi aning. (F.Sh.)*

**PORA** *f.* Parcha, bo'lak, qism.

*Shoh qilichi jigarim qildi chok,  
Ul jigarim porasin etti halok. (H.A.)*

**Pora aylamak** Parchalamoq, parcha-parcha qilmoq.

*Tig' ila bag'rim aylasam pora,  
Chun jigargo'sham itti, ne chora? (S.S.)*

**PORSO** *a.* Taqvodor, yomon ishlardan saqlanuvchi, xudojo'y.

*Odamiyning yaxshirog'i uldurkim, porso va pok bo'lg'ay.  
(M.Q.)*

**POS** *f.* Qo'riqlash, saqlash.

**Pos tutmoq** Qo'riqlamoq.

- Dedi Bonug'a: – Budur iltimosim,  
Ki, bir dam tutmag'aylar xalq posim. (F.Sh.)*
- POSBON** *f.* Qo'riqchi, soqchi, qorovul.  
*Kechin bo'lg'ach borib posbong'a o'tru,  
O'zin xohishin aytti ang'a o'tru. (S.Sar.)*
- POSUX** *f.* Javob.  
*Kim: «Bu ne qo'l sunmog'u chekmak edi?»  
Posuxini shohi muaddab, dedi. (H.A.)*
- POY** *f.* Oyoq.  
*Poyu ilkin etib zanjir bilan band,  
Yog'ochnida anga ettilar poband. (S.Sar.)*  
**Poy qo'ymoq** Yurmoq, qadam tashlamoq.  
*Alar qo'ydi ikkisi yo'l sari poy,  
Boqib turg'onda yo'lg'a zar sochib oy. (S.Sar.)*
- POYA** *f.* 1. Oyoq, pochа.  
*To'qquz soat turolmadim, ko'kka uchdum,  
Arshu kursi poyasini borib quchdum. (A.Y.)*  
2. Zinapoya.  
*Baland aylab quyoshg'a poya navro'z,  
Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z. (Og.)*  
3. ko'ch. Martaba, obro'-e'tibor.  
*Garchiki, yo'q shavkati sarmoyasi,  
Sendin erur ortuq aning poyasi. (H.A.)*
- POYANDA** *f.* Barqaror, doimiy.  
*Ahli islom boshig'a poyanda va mustadom tutqay. (Mu.)*
- POYBO'S** *f.* Oyoq o'pish, birovning oyog'ini o'pish, o'zini yerga urish, tahqirlanish.  
*Qad bukub, bo'ynum egib, tegdi oyoqlarg'a boshim,  
Ahli dunyo poybo'si xizmatu ta'zimidin. (T.F.)*
- POYDOR** *f.* Barqaror, doimiy.  
*Kizb qilur burnog'i subh oshkor,  
Nurini ko'rkim, nechadur poydor. (H.A.)*
- POYON** *f.* Oxir, so'ng.  
**Poyona kelmak** Oxiriga yetmoq, tugamoq.  
*Umr mehnat bila poyona keldi,  
Ko'ngul javring elindin jona keldi. (Mn.)*
- POSHNA** *f.* Tovon, poshna.  
**Poshna urmoq** Otning harakatini tezlatish uchun uni tovon bilan niqtamoq.

- Poshna raxshlarg'a urdilar,  
Hay deguncha ani tushurdilar. (S.S.)*
- PUR** *f.* To'la, to'ldirilgan.  
*Bodadin soqiyg'a yuzlangach tarab,  
Yana pur qildi qadahni lab-balab. (L.T.)*
- PURFAYZ** *f. -a.* Serfayz, juda fayzli, chiroyli, go'zal.  
*«Tikka Rabot»ni ko'rmadim,  
Purfayz, buzrukvor ekan. (M.)*
- PURHOSIL** *f. -a.* Serhosil.  
*Hinduston mamoliki vasi' va purmardum va purhosil viloyat  
voqe' bo'lubtur. (Bn.)*
- PURISHVA** *f. -a.* Serishva, noz-karashmasi ko'p, juda ishvali.  
*G'amza birla o'tturur, gah jilvalar birla yurur,  
Turfa bir nozofarin, purishva tannozu satang. (F.)*
- PURJO'SH** *f.* Zavqli, shod, xurram.  
*Har qushqina jufti birla purjo'sh,  
Hampar bo'lur uchsa, qo'nsa hamdo'sh. (L.M.)*
- PURKOR** *f.* Epchil, chaqqon, ustomon.  
*Sen kibi purkor, shevasi bisyor,  
Bilmadi, ey yor, hech kishi yod. (B.)*
- PURMALOL** *f. -a.* Azoblarga to'la, azobli, serazob.  
*Ketma, tur, tingla arzi holimni,  
Arz etay holi purmalolimni. (Fit.)*
- PURMARDUM** *f.* Odami ko'p, seraholi.  
*Hinduston mamoliki vasi' va purmardum va purhosil viloyat  
voqe' bo'lubtur. (Bn.)*
- PUROB** *f.* Suvi ko'p, sersuv, yoshli.  
*Ishqingda ko'ngul xarobdur, men ne qilay?  
Hajringda ko'zum purobdur, men ne qilay? (B.)*
- PURTOB** *f.* Serchigal, serjingalak.  
*Mehr eshitgach bu so'zni soldi tanob,  
Ne tanob, ikki gisuyi purtob. (S.S.)*
- PURZO'R** *f.* Juda zo'r, juda baquvvat, juda kuchli.  
*Charchashni bilmas yursalar,  
Purzo'r ketmon ursalar. (M.)*
- PURSHAR** *f. -a.* Serg'avg'o, serg'alva.  
*Chun Kobul va G'azni purshar va sho'r yerlar edi. (Bn.)*
- PUSHT** *f.* Odamning belidan kiftigacha bo'lgan qismi, orqa.



**Pushti po urmoq ko'ch.** Tark etmoq, tashlamoq, voz kechmoq.

*Davlat urg'an pushti poyu baxti (bad chirkindiman).* (T.F.)

**PUSHTA** *f.* Uncha baland bo'lmagan tepalik, tepacha; tepa.

*Hamvor-hamvor pushtalar ko'runur, vale tamom pushtasi va tog'i yirik toshliq pushta va tog'dur.* (Bn.)

**PO'LOD** *f.* Kulrang, qattiq bir metal, po'lat.

*Til chekib ul xanjari po'loddek,  
Ochilibon savsani ozoddek.* (H.A.)

**PO'ZISHPAZIR** *f.* UZR qabul qiluvchi, afv etuvchi, kechiruvchi.

*Ne amali xayr sanga dastgir,  
Ne sitaming ko'rguchi po'zishpazir.* (H.A.)

## Qq

**QABAMOQ** Qamamoq.

*Qabab kulbam aro qo'ymay chiqorg'a sarsar afvoji,  
Mani mahrum qildi el bila borish-kelishdin qish.* (Og.)

**QABOHAT** *a.* Ayb, gunoh; razolat, razillik, qabihlik.

*Devona qilur ishqi sanam vasli chu Majnun,  
Nomusu hayo, aybu qabohat chidayolmas.* (Mash.)

**QABOYIL** *a.* (birligi **qabila**) Qabilalar.

*Ayo zebo sanam, shohi qaboyil,  
Taolilloh, zihi shaklu shamoyil.* (Mn.)

**QABSAMOQ** O'rab olmoq, qurshab olmoq.

*Necha kundin so'ng o'lg'ay imkoni,  
Qabsamoq bu ikki cherik oni.* (S.S.)

**QABUL** *a.* Biron taklifga bildirilgan rozilik, ma'qullash.

*Har ne desam qabul etarsenmu?  
Qayon aytsam ravon ketarsenmu?* (S.S.)

**QABZA** *a.* Tutqich, dasta.

**Qabzai hukm** Ixtiyor, iroda; qo'l osti.  
*Qabzai hukmida jahon kishvari,  
Amrig'a inson kibi devu pari.* (H.A.)

**QAD** *a.* Qomat, sumbat, qaddi-qomat, bo'y-bast.

*Turubtur ko'zda qaddingiz xayoli,  
Aningdekkim suv uzra tol niholi.* (Mn.)

- QADAH** *a.* 1. May ichiladigan idish; jom.  
*Emdikim, tuzdi bazmu ayshu farah,*  
*Qo'lig'a oldi shohvor qadah. (S.S.)*  
 2. May, sharob.  
*Qachon la'ling qadahlar no'sh qilg'ay,*  
*Karashmang bandani madhush qilg'ay. (Mn.)*
- QADR** *a.* 1. Hurmat, obro', e'tibor, nufuz, qiymat.  
*Kasrati yo'qluq, tama' ketturdi qadr-u qiymatim,*  
*Yuz sarig'liq yerga urdi obro'-yu izzatim. (T.F.)*  
 2. Qiymat, ahamiyat, baho.  
*Guhar qadrini a'mo bilmas, ey jon. (Mn.)*
- QADG'U** Qayg'u, g'am, g'am-tashvish.  
*Sevinchi az ul ko'rsa qadg'u o'kush*  
*Az ul o'gguchisi telimrak so'kush. (Q.B.)*
- QAFAS** *a.* Parranda yoki hayvon saqlanadigan maxsus xonacha.  
*Va ne chora qilsun bulbul qafasda,*  
*Kerak gul g'unchasi ozod nafasda. (S.Sar.)*
- QAHHOR** *a.* Qahr qiluvchi, g'azab qiluvchi; xudoning sifati.  
*Ki haq bo'lsa vahhobu g'affor ham,*  
*Erur lek jabboru qahhor ham. (S.I.)*
- QAHHORLIQ** G'azabkorlik.  
*Tushub mavjg'a bahri jabborliq,*  
*Ayon aylabon mavji qahhorliq. (S.I.)*
- QALAM** *a.* Qamishdan yasalgan yozuv quroli, qamish qalam.  
*Munchaki sharh etdi qalam so'zga hol,*  
*Nasridadur, nazmig'a bor o'zga hol. (H.A.)*  
**Qalamg'a kelmak** Qayd etilmoq, hisoblanmoq.  
*Navkar va savdar va chokar jami' cherik bila bo'lg'onlar o'n*  
*ikki ming kishi qalamg'a keldi. (Bn.)*  
**Qalam chekmak** Qalamni qo'lga olmoq, yozmoq.  
*Men xastaki, bu raqamni chekdim,*  
*Tahriri uchun qalamni chekdim. (L.M.)*
- QALAMRAV** *a. -f.* Bir kishining qo'l ostidagi yerlar, mulk.  
*Xaylu taba' Hurmuzu Xisrav anga,*  
*Mulki Sulaymoncha qalamrav anga. (H.A.)*
- QALANDAR** *f.* Mudom haqni izlab yuruvchi, dunyoning barcha huzur-halovatidan voz kechib yuruvchi darvesh.

- Murodingg'a yetay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l,  
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.*  
(Mash.)
- QALB I** a. Soxta, qalbaki.  
*Topib bir qalb siymu aylabon but,  
Anga yo'q toshu dur ichra tafovut.* (F.Sh.)
- QALB II** a. Qo'shin markazi, markaz.  
*Yasolda qalbningkim, g'ul derlar, doxili emas.* (Bn.)
- QALI** Agar, agarda.  
*Kuvazlik bila ko'kka ag'mas kishi  
Qali qusqi bo'lsa buzulmas ishi.* (Q.B.)
- QALIN I** Son jihatdan katta, ko'p, mo'l.  
*Sulton Ibrohimdek qalin cheriklik, vase' mulkluk podshoh  
bila ro'baro' bo'lduq.* (Bn.)
- QALIN II** Kelinga bo'lg'usi kuyov tomonidan beriladigan pul, mol va boshqalar.  
*Boyo'g'lining og'zining burchidin chiqor: «Ming chordevor  
qizimning qalini», deb.* (Zm.)
- QALLOBLIQ** Firibgarlik, tovlamachilik.  
*Kimsaga har shevada qallobliq,  
Andin erur yaxshiki, kazzobliq.* (H.A.)
- QALLOSH** a. Kambag'al, qashshoq.  
*Xisravshohni bir yarim kunda urush yo'q, talosh yo'q biz-  
ningdek qallos va mug'luq ikki yuz-ikki yuz ellik kishining  
qoshida andoq xoru zor va zabun va ojiz qildikim...* (Bn.)
- QALTOQ** Egarchi.  
*Bu shahi asrida ko'p nokasu dun topti qadr,  
Ro'yi kor keldi qalin bangiyu qilchi, qaltoq.* (T.F.)
- QAMAR** a. Yerning yo'ldoshi, Oy.  
*Orazidin shamsu qamardur xijil,  
So'zlaridin shahdu shakar munfail.* (Zm.)
- QAMU** Barcha, hamma.  
*Vujudung hadafi novaki balo qilg'il,  
Qamu'jafolara sabr aylayub, duo qilg'il.* (Fuz.)
- QAMUQ** Barcha, hamma, bari, butun.  
*Qilib hukmkim: mulk sultonlari,  
Qamuq xaylu kishvar nigahbonlari.* (S.I.)
- QAMUG'** ayn. Qamuq.  
*Qamug' narsalarni farishtalarg'a ko'rguzdi.* (R.)

**QANAT** Uchish organi, qanot.

*Kimi beg to' rulmak tilasa bayat*

*Berur ashnu qilq yang uqush yug qanat. (Q.B.)*

**QANDA** 1. Qayerda? qaysi yerda? qay tomonda?

*Tamanno qilg' ali la' lingni ko' nglum,*

*Kishi bilmas onikim, goldi qanda. (A.)*

2. Qayerdan? qaydan? qayoqdan?

*Bularni alarg'a o'xshatma. Ish hisobini va yurush yarog'ini qanda bilurlar? (Bn.)*

**QANDIN** Qayerdan? qaydan?

*Qandin yigitini rizo qila olurkim, tabiatig'a imsok ko'p g'olib edi. (Bn.)*

**QANOAT** a. Boriga sabr qilish, sabr.

*Qilichtek til bila tuttum jahonni,*

*Qanoat mulki ichra podshomen. (Mn.)*

**QAPUG'** Eshik; darvoza.

*El qapug' Eshik; uy-joy.*

*Bu eki qutu bulsa begdin sevinch*

*Eli qapg'i etlur bulur beg avinch. (Q.B.)*

**QAQMAQ** Qoqmoq, urmoq.

*Etil suvi aqa turur*

*Qaya tubi qaqa turur. (D.L.T.)*

**QARA** 1. Oddiy xalq, avom.

*O'tunluq evaklik yenik qurg'uluq*

*Qara qilqi ul bu yiraq turg'uluq. (Q.B.)*

2. Yomon, buzuq.

*Qali beg bo'lur bo'lsa qilqi qara*

*Qarada bu ing'a bo'lur xalq ara. (Q.B.)*

**QARAG'U** Ko'zi ojiz, ko'r.

*Yula ul uqush, ko'r, qarag'uqa ko'z,*

*O'lug tanga jan ul, ag'in tilqa so'z. (Q.B.)*

**QARAQCHI** Qaroqchi, yo'lto'sar.

*Birov shoh vaslig'a qat etsa yo'l,*

*Kerak voqif o'lsa qaraqchidin ul. (S.I)*

**Qaraqchi-sekarchi** Qaroqchi va talonchi.

*Uchunchi – emin tut, qamug' yo'llarig',*

*Qaraqchi – sekarchi aritg'il arig'. (Q.B.)*

**QARDOSH** Birodar, aka yoki uka.

**Kichik qardosh** Uka, ini.

**QAROQCHI** Yo'lto'sar, bosqinchi.

*Ayitqil, ey so'zi yolg'on jafokor,  
Qarog'lari qaroqchi, o'zi ayyor. (Mn.)*

**QAROQCHIZOR** Qaroqchilar makoni, yo'lto'sarlar koni.

*Do'rmanchaga ketdim o'tub,  
Dashti qaroqchizor ekan. (M.)*

**QAROR** a. Tinchlik, osoyishtalik, orom.

*Ko'pdin berikim, yoru diyorum yo'qtur,  
Bir lahzau bir nafas qarorim yo'qtur. (B.)*

**Qarorini olmoq** Tashvishlantirmoq, bezovtalantirmoq, oromsiz qilmoq.

*Vahm oldi qarorini shahdin,  
Ki, aduv chiqmag'ay kamingahdin. (S.S.)*

**QARORSIZ** O'ylab o'tirmay, beixtiyor.

*Keynicha ixtiyorsiz chopti,  
O'q otarg'a qarorsiz chopti. (S.S.)*

**QAROG'** Ko'z qorachig'i.

*Ayitqil, ey so'zi yolg'on jafokor,  
Qarog'lari qaroqchi, o'zi ayyor. (Mn.)*

**QARTAMAQ** Yarani tirnamoq, ochmoq, yangilamoq.

*Ko'nghum ichin o'rtadi,  
Etmish bashig' qartadi. (D.L.T.)*

**QARCHIG'AY** Tumshug'i qayrilma, tirnoqlari o'tkir bir yirtqich qush.

*Humo, uqob, qarchig'ay, bahrin, lochin, itolg'u qushlarning  
salotinidurlar. (Zm.)*

**QASABA** a. Kichik shahar, shaharcha.

*Yana bir O'sh qasabasidur. (B.)*

**QASD** a. 1. Niyat, maqsad, azmu qaror.

*Sayd qasdig'a o'yla qo'ydi ko'ngul,  
Ki, aduv chiqti yodidin bilkul. (S.S.)*

2. Adovat, kek.

*Dediki, mendin sanga yo'q qasdu kin,  
Emin o'lu bil meni dog'i amin. (H.A.)*

**Qasdi jon qilmoq** Joniga qasd qilmoq.

*Yana anduh ila fig'on qildi,  
Yana anduhi qasdi jon qildi. (S.S.)*

3. O'ldirish, qatl etish; qatl.

*Yo'q qutulmoqliq manga, ul ofati jon dastidin.  
Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadang. (F.)*

**QASR** *a.* Hukmdorlarning hashamatli saroyi.

*Shahni ul qasrg'a yeturdilar,  
Borcha hukmni bajo keturdilar. (S.S.)*

**QASRNISHIN** *a.-f.* Qasrda o'tiruvchi, qasrda yashovchi.

*Amr qildiki, mohi Zuhrajabin,  
Kirdi bog' ichra bo'ldi qasrnishin. (S.S.)*

**QASSOM** *a.* Qismat beruvchi, ulush beruvchi, ulashuvchi.

*Qassomi azal Taqdirni, qismatni belgilovchi; alloh.  
Dil kabobim, qon sharobim, ashki hasrat-nuqli bazm.  
Yetti qassomi azalning xidmati tan'imidin. (T.F.)*

**QAT I** Old, huzur.

*Jamoling yetti olamg'a sipahlar,  
Qatingda yer o'parlar jumla shahlar. (Mn.)*

**QAT II** Qavat, etaj.

*Kemi uch qat erdi. (R.)*

**QAT'** *a.* Yurish, bosib o'tish.

*Chu mahbubi haqiqiy uldurur, ul,  
Aning vasli sari qat' aylamak yo'l. (F.Sh.)*

**Qat' etmak** Kesib tashlamoq, kesmoq.

*Nozili hukmi qazo hech kim radu man' etmadi,  
Barcha bo'ynig'a solan bu rishtani qat' etmadi. (T.F.)*

**QATIL** *a.* O'ldirilgin, qatl qilingan.

*Boshig'a yetti aylamakka qatil,  
O'lar elga nechukki Azroil. (S.S.)*

**Qatil qilmoq** So'ymoq.

*Qozon osturub qildi qo'ylar qatil,  
Ki molin ziyofatqa qilg'ay sabil. (S.I.)*

**QATIQ** Qattiq, kuchli.

*Qatiq kulsang magar og'zing bilurgay,  
Pari ko'rsa seni, mendek telurgay. (Mn.)*

**QATIG'** 1. Qattiq, mahkam, sinmaydigan.

*Ul tuproqda.. qatig', yumshoq va arig', arig'siz, totlig'siz –  
qamug' bor erdi. (R.)*

2. Qattiqqo'l, talabchan, qattiq.

*Bu beglikka ashnu tub asli kerak  
Atim alp qatig' qurch yana to'ng yurak. (Q.B.)*

**QATIG'LANMAQ** Tirishmoq, qattiq harakat qilmoq.

*O'zung dunyo uqba bo'layin tesa*

*Bu qach ishni qo'dma qatig'lan o'sa.* (Q.B.)

**QATL** a. O'ldirish.

*Qatlinga garchi tab'rog'ib emas,*

*Lek qo'ymoq dag'i munosib emas.* (S.S.)

**Qatlu yag'mo** Qirg'in, talon-taroj.

*Elimkim bo'lub qatlu yag'mog'a tush,*

*Kelib o'n ulushtin bu yon bir ulush.* (S.I.)

**QATLA** Marta, karra.

*Jafodin ingramas bu yo'lda ushshoq,*

*Vafodin javringiz ming qatla xushroq.* (Mn.)

**QATOR** a. Ketma-ket joylashgan kishilar safi.

*Hozir eting to'rt nafar mardikor,*

*To'g'ri qil olding'a qilibon qator.* (M.)

**QATRA** a. 1. Suyuqlikning sharcha shaklidagi kichik bir bo'lagi, tomchi.

*Aduv ilgida qatra sudek tig',*

*Edi o'z notavonlig'ig'a dareg'.* (S.S.)

2. Ozgina, jinday narsa, tomchi.

*Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,*

*Kelturan amvojj'a bahri talotum Turdiman.* (T.F.)

**QAVIY** a. Quvvatli, kuchli, zo'r.

*Bisyor qaviy hofizasi bor emish, o'ttuz-qirq ming bayt yodida bor emish.* (Bn.)

**QAVL** a. Gap, so'z.

*Baski samoi g'azalu qavlu savt,*

*Bo'lubon ul kungi namoz elga favt.* (H.A.)

**QAVLAMOQ** Quvlamoq, quvmoq.

*O'sh va Marg'inon eli hujum qilib, qo'rg'ondag'i mo'g'ullarni tutub, talab, urub, qavlab chiqordilar.* (Bn.)

**QAVM** a. 1. Urug', elat.

*Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa mingdur,*

*Muayyan turk ulusi xud meningdur.* (F.Sh.)

2. Insonlar to'dasi, guruhi.

*Sayd bila beshag'a kirib ketti,*

*Ki, aduv qavmu xaylig'a yetti.* (S.S.)

3. Bir masjidida namoz o'qiydigan kishilar va ularning har biri.



*Gar tahorat qi(l)sa qavmi suv topolmay nochor,  
Betini qum bila yub (ko'zi)ga surgay guvalak. (Max.)*

**QAVS** a. Kamon, yoy.

**Qavsi quzah** Quyosh nurining yomg'ir zarralarida sinishi tufayli osmonda yarim doira shaklidagi chiziq, kamalak, yoy.

*To'ti bo'lurig'a charx etar zavq,*

*Kim, qavsi quzahni aylagay tavq. (L.M.)*

**QAY** Qusuq.

*Qay saqolin har necha nopok etib,*

*It yalamoq birla yana pok etib. (H.A.)*

**QAYD** a. Tushov; kishan.

*Chopibon saydg'a solay dedi qayd,*

*O'zga sayyodlarga bo'ldi sayd. (S.S.)*

**QAYDA** Qayerda? Qayoqda?

*Ajunchi bo'gu beg nelug ganch urur,*

*Erat qayda bo'lsa anuq ganch urur. (Q.B.)*

**QAYNAMAQ** 1. Ma'lum bir issiqlikdan bug'lanib vaqirlamoq.

2. ko'ch. Jo'sh urmoq.

*Ko'ngulning qoni qaynab barcha toshqay,*

*Ko'zumning yoshidin kavsar buloshqay. (Mn.)*

**QAYON** Qayerga? Qayoqqa?

*Har ne desam qabul etarsenmu?*

*Qayon aytsam ravon ketarsenmu? (S.S.)*

**QAYSAR** a. lat. Podsho, xoqon (Rum hukmdorlarining unvoni).

*Kimki erur qaysaru xoqoni ahd,*

*Qaysaru xoqon ne, Sulaymoni ahd. (H.A.)*

**Qaysari Rum** Rum podshosi.

*Tuhfalarkim yibordi qaysari Rum,*

*Bo'lsa jinsi farang debosi. (N.Sh.)*

**QAYSI** 1. O'sha; mazkur, zikr etilgan.

*Qaysi zavraqkim, ul yasab oni,*

*Asrabon o'zga yerda pinhoni. (S.S.)*

2. Nafaqat; emas.

*Gah-gahi yod ayla nadomatni ham,*

*Qaysi nadomatki, qiyomatni ham. (H.A.)*

3. Kimdir, biri, allakim.

*Qaysi yo'l soldi Buxoro sori,*

*Qaysi ham ko'zladi andin nori. (Shn.)*



**QAYTMOQ** Kelgan tarafiga yurmoq, orqaga yo'nalmoq.

*Topmayin g'ayri qaytmoq chora,  
Buzulub yondilar bayakbora. (S.S.)*

**QAYU** 1. Qaysi?

*Qayu et totlig' turur? (R.)*

2. Ba'zi; ba'zilari.

*Bu yanglig' turur barcha beglik ishi  
Qayu eraj yer qayu o'z bashi. (Q.B.)*

**QAZI** Yog', moy.

*G'arib semiz qulon edi, qazisi kishining bir qarishidin juy  
kamrak bo'lg'ay edi. (Bn.)*

**QAZO** a. 1. O'lim, vafot.

*Yapaloqqush aydikim: «Ori, balog'a sabr, qazog'a rozi  
bo'lmoqdin o'zga choram yo'q». (Zm.)*

2. Hukm.

**Qazoyi yazdoniy** Allohning hukmi, xudoning irodasi.

*Yozib ul noma ichra pinhoni,*

*Kim: «Bu bo'lmish qazoyi yazdoniy». (S.S.)*

3. Taqdir, qismat.

*Men xastani aylamakta mavjud,*

*Ne erdi ekin qazog'a maqsud?! (L.M.)*

**QAZOQ** 1. Ta'qibdan qochib yuruvchi kishi, qochoq, darbadar.

*Yuz, iki yuzcha kishi birla qazoq,*

*Gah yeri Xorazm edi, gohi Adoq. (H.A.)*

*Zol dedikim» «Qazoq erkanda shoh,*

*Tig' chekibkim, chekar erdi sipoh. (H.A.)*

2. Shayboniyxon qo'shinidagi askar, askar yigit.

*Kimki tushti qazoq ilkiga burun,*

*Berdi barbod quloq birla burun. (Shn.)*

*Chun yetishtim, kelibon necha qazoq,*

*Borchasi rahm tariyqidin yiroq. (Shn.)*

3. Mard, jasur, qo'rqmas.

*To'lun xoja otliq Borinning mardona va saromad va qazoq  
yigitlaridin edi. (Bn.) Ajab mardona va qazoq yigit edi. (Bn.)*

4. Qozoq, qozoq xalqi.

*Adik Sultondin so'ng qazoq ulusining xoni Qosimxon oldi.*

*Derlarkim, qazoq xon va sultonlarining orasida hech kim ul  
ulusni Qosimxoncha zabt qilg'on emastur. (Bn.)*

**QAZOQONA** Sodda, oddiy.

*Yoqa yerda ulg'ayg'on uchun chodir va o'lturur yeri betakalufona va qazoqona edi. (Bn.)*

**QAZG'U** Qayg'u, g'am.

*Ul yo'ldin Odamg'a sevunchdin qazg'u ortuqroq bo'ldi. (R.)*

**QACH** Bir qancha, bir necha, bir qator.

*Bu qach nengda beglar yiraq tutg'u o'z*

*Ati artamasa yo'riq bo'lsa so'z. (Q.B.)*

**QACHAN** 1. Qanday qilib? Qanday?

*Qara bo'rchi bo'ldi neng bo'ldi yel*

*Begi bo'rchi bo'lsa qachan turg'a el. (Q.B.)*

2. Qay vaqt? Qay vaqtda?

*Qachan qilg'ay ko'zumni yoqtu ul oy,*

*Erur yuzi quyoshtek olamoroy. (Mn.)*

3. Qachonki.

*Qachan la'ling qadahlar no'sh qilg'ay,*

*Karashmang bandani madhush qilg'ay. (Mn.)*

**QACHMAQ** Qochmoq, ketmoq, yo'qolmoq.

*Fasad qayda bo'lsa qachar qut teza*

*Fasad chin yurir tutchi beglik buza. (Q.B.)*

**QACHONKI** Payt yoki shart ma'nosini bildiruvchi bog'lovchi vazifasida keladi.

*Qachonki g'amzasi ko'z qonima, qaro qilsa,*

*Xatosiz o'qni urur jonima, xato qilsa. (L.)*

**QA'R** a. Tub, ost, ich.

*Aning a'zosidin rasan oldi,*

*Band ila choh qa'rig'a soldi. (S.S.)*

**QIBLA** a. Namoz o'qiyotganda Musulmonlar yuzlarini qaratadigan tomon, Makka shahri joylashgan tomon.

*O'qig'il fotiha, dur qibla yoni*

*Sevunsun banda Xorazmiy ravoni. (Mn.)*

**QIBLAGOHO** a. -f. Ey qiblagoh!

*Qiblagoho, mandin ikroh etma, bir mayxoradin,*

*Jo'sh bir sof maysan, man g'ubori durdiman. (T.F.)*

**QIL I** 1. Jun, soch kabilarning har bir tolasi.

*Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,*

*Vafo qilg'on kishilarga vafo qil. (Mn.)*

2. Cholg'u asboblarning chertilganda tovush chiqaradigan ipi, tor.

*Tuz durur egri qili to soz erur,  
Egri bo'lur emdiki nosoz erur. (H.A.)*

**QIL II** Erta ko'klamda keladigan, yovvoyi o'rdakdan kichikroq bir qush, suqsuq.

*Ko'kda o'ynar, qo'l solishur qug'u, g'oz, qil, qarlug'och,  
Yerda yugurub juft olishur' os, tiyin, kish, qunduzi. (R.)*

**QILILMOQ** Qilinmoq.

*Kim, hamul nomakim bitilmish edi,  
Mehr holin bayon qililmish edi. (S.S.)*

**QILINCH** 1. Ish, faoliyat.

*Uqushlug' kerak beg kishida talu,  
Uqushlug' qilinchi izilmaz to'lu. (Q.B.)*

2. Xarakter, fe'l-atvor, qiliq, xatti -harakat.

*Yag'i qilmag'usun qilinchi qilur  
Yag'i bu yag'idin ne bar artuqi. (Q.B.)*

**QILINCHLIQ** Fe'l-atvorli, xarakterli.

*Bularda eng ing'a bu arquq qilinch  
Bu arquq qilinchliq ne munglug' erinch. (Q.B.)*

**QILIQ** 1. Xulq, xarakter, fe'l-atvor.

*Bayat kimka bersa bu edgu qiliq  
Bu edgu qiliq birla edgu yo'ruq. (Q.B.)*

2. Odat.

*Bo'r ichmas kerak beg fasad qilmasa  
Bu eki qiliqdin qachar qut basa. (Q.B.)*

**QILICH** Bir tig'li urush quroli, shamshir.

*Qilich ursang qulungmen jovidona,  
Va gar o'q otsangiz bag'rim nishona. (Mn.)*

**QILMAQ** 1. Bajarmoq, amalga oshirmoq.

*Bu ish qilg'uchi er qilur o'z ishi  
Mun erdam biligli ko'rugli kishi. (Q.B.)*

2. Yasamoq, qurmoq, tayyorlamoq.

*Kemi qilurmen, tebasunga minib, suv uza yururmen. (R.)*

3. Bermoq.

*Savol qildilar Havvog'a: «Ne uchun Havvo atadilar? (R.)*

4. Otlar bilan birga qo'shma fe'l yasaydi.

*Ey Kan'on, musulmon bo'l, kemiga kirgil to'fon suvi halok  
qilmasun, tedi. (R.)*

**QILQ** Xulq, xarakter.

**Qilq qiliq** Xarakter, xulq, fe'l-atvor.

*Arig' tutg'u beglar ko'ni qilq qiliq*  
*Budun beg yo'lindin tuzar yo'l yo'riq. (Q.B.)*  
**Qilq yang** Xulq, xarakter.  
*Kimi beg to'rutmak tilasa bayat*  
*Berur ashnu qilq yang uqush yug qanat. (Q.B.)*

**QILCHI** Sartarosh.

*Bu shahi asrida ko'p nokasu dun topti qadr,*  
*Ro'yi kor keldi qalin bangiyu qilchi, qaltoq. (T.F.)*

**QIPCHOQ** O'zbek urug'laridan birining nomi.

*Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang. (T.F.)*

**QIROQ** 1. Qirg'oq, bo'y, yoqa.

*Azm aylab cherik yarog'i bila,*  
*Yurusun bahrning qirog'i bila. (S.S.)*

2. Chet, chekka.

*Yurugach bir-ikki kun ul lashkar,*  
*Qildilar shahr qirog'ini maqar. (Shn.)*

3. Uzoq, yiroq.

*Muruvvattin yiroq va hamjihatliqtin qiroq ishdur. (Bn.)*

**QIRQ** 1. O'ttiz to'qqizdan so'ng keladigan sonning nomi va shu nom bilan ifodalanadigan son, miqdor.

*Qirq tun kun yog'in yog'di. (R.)*

2. Kichikroq o'zbek urug'laridan birining nomi.

*Qirq, yuz, ming agrabolar ettilar mandin nufur,*  
*Ne balo, baxti qaroyu tole'i shum Turdiman. (T.F.)*

**QISOS** a. Qasos, intiqom, o'ch.

*Qozi o'lub adl harimig'a xos,*  
*Qildi ravon hukm: diyat yo qisos. (H.A.)*

**QISSA** a. Sarguzasht, voqea, hikoya.

*Olib ilgiga safhayu xoma,*  
*Qissa sharhini yozdi bir noma. (S.S.)*

**QITAYIG'** Kidanlarni, kidan xalqini.

*O'ngra qitayig' o'lurtachi terman, bani o'g'uzug'. (To'n.)*

**QIT'A** Faqat juft misralari qofiyali bo'lgan lirik turning bir janri.

*Ayayin emdi bir qit'a eshitgil,*  
*Nechukmen hol-u ahvolimni bilgil. (Mn.)*

**QITOL** a. Urush, jang.

*Barcha tengrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, hech*  
*kim bu qitoldin yuz yondurur xayol qilmag'ay. (Bn.)*

- QIV** Baxt, saodat.  
*Arig' ul bu qut qiv arig'liq tilar*  
*Suzug ul bu davlat suzugni yular. (Q.B.)*
- QIVULMAQ** Kulcha bo'lib yotmoq, o'ralib yotmoq.  
*Yilon suvg'a kirib, teshukni buldi, anda qivulub yotdi, suv kirmas bo'ldi. (R.)*
- QIYIN** Jabr, zulm, qiynoq.  
*Aval bukim chirki dunyo uchun Xadichabegimni Shoh Mansur baxshi ko'targuchiga tutturub, turluk-turluk qiyinlar qildurdi. (Bn.)*
- QIYMAT** a. ko'ch. Qadr, ahamiyat, baho.  
*Kasrati yo'qluq, tama' ketturdi qadr-u qiymatim,*  
*Yuz sarig'liq yerga urdi obro'yu izzatim. (T.F.)*
- QIYMOQ** 1. Kesmoq, qirqmoq. 2. ko'ch. So'zidan qaytmoq, va'dasidan qaytmoq, qaytmoq.  
*So'zin qiyg'uchi begka tutma umunch*  
*Tiriglik yava qilg'a o'kunch. (Q.B.)*
- QIYO: Qiyo boqmoq** Bir nazar tashlamoq, qiya qaramoq.  
*Saroydin bordi Chin-Moching'a choving,*  
*Qiyo boqsang bo'lur arslonlar oving. (Mn.)*
- QIYOMAT** a. 1. Diniy ta'limotga ko'ra bu dunyoning tugashi va u dunyoda barcha tirilib mahsharda to'planadigan zamon.  
*Qiyomatqa tekin qolsun oting teb,*  
*Sening tabqung'ga bo'ldum oshno men. (Mn.)*  
 2. ko'ch. To'polon, g'avg'o, qiy-chuv, ur-yiqit.  
**Qiyomat qo'pmaq** To'polon bo'lmoq.  
*O'tursang o'lturur fitna, ketar g'am,*  
*Agar qo'psang qiyomatlar qo'par ham. (Mn.)*
- QIYG'IR** Bedana oviga solinadigan yirtqich qush; qirg'iy.  
*Qiyg'ir ko'targan uch yigit,*  
*Uxlatmadilar bir milit. (M.)*
- QIZIL** Qon rangidagi, qirmizi rang, qirmizi.  
*Anda kezin mavlo azza va jalla qizil oltundin yaratilmish bir taxt izdi. (R.)*  
**Qizil tanga** Oltin tanga (pul birligi)  
*Sulton aydi: – Ming qizil tanga berayin.*  
*Zohid aydi: – Ming qizil tanga oz turur. (X.)*
- QIZIQ** 1. Qaynoq, kuydiradigan.  
*Kimki qiziq sug'a iligin urur,*

*Har nechakim ilgi yetar o't urur. (H.A.)*

2. Kishini taajjublantiradigan, ajib, g'alati.

*Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,*

*Arz etayin emdi yozib nomalar. (M.)*

**QIZIQMOQ** Qizimoq, qizg'in tus olmoq, avjiga chiqmoq.

*Majlis qiziqti, chog'irlar boshqa chiqti, bu xayolda edilarkim, manga ichirgaylar. (Bn.)*

**QISHLOQ** Qishda yashaladigan joy, qishlanadigan yer.

*Vale qishloq yeri va qishlamoq asbobini yaxshi somon bermaydurlar edi. (Bn.)*

**QISHLOQI** Qishloqda yashaydigan kishi, qishloqlik.

*Bo'lmag'ay hosil, Muqimiy, ma'niye har lafzdin,*

*Dona sochqon birla har qishloqi dehqon bo'ldimu? (M.)*

**QOF** a. Arab alifbosining yigirma birinchi «q» harfining nomi.

*Mehr anglab oshiq o'ldum so'ngra yetsa ko'hi g'am,*

*Ne ajab ishq ibtidosi ayn erur, poyoni qof. (G'.S.)*

**QOBIL** a. Qobiliyatli, layoqatli.

*Bas qobil ediyu dilpisand ul,*

*Ozodavashu niyozmand ul. (L.M.)*

**QOBON** Yovvoyi nar cho'chqa.

*Chiqti o'trusidin Suhayli daler,*

*Ul sifatkim qobon masofig'a sher. (S.S.)*

**QOBSAMOQ** O'rab olmoq, qamal qilmoq.

*Necha kundin so'ng o'lg'ay imkoni,*

*Qobsamoq bu iki cherik oni. (S.S.)*

**QOBUQ** Qobiq, po'st, teri; yuz.

*Quyosh har kun yuz urur ul qobuqqa,*

*Jamoling soldi Yusufni quduqqa. (Mn.)*

**QOFIYAPAYMOLIG'** Qofiyabozlik; shoirlik.

*Yetmadim hech yera bu qofiyapaymolig'din,*

*Dod bu dog'i g'ariblig', g'ami tanholig'din. (T.F.)*

**QOLMOQ** 1. Jilmay joyida turmoq, qo'zg'almay turmoq.

*Nayza bo'lub tuzlugidin sarbaland,*

*Chirmosh uchun bandg'a qolib kamand. (H.A.)*

2. Bor bo'lmoq, bo'lmoq.

*Qoldi chun ikki kunchalik maqsad,*

*Yana yel suni qo'zg'adi behad. (S.S.)*

3. Yo'q bo'lmoq, unutilmoq.

*Ayttimki: «Bu Lutfiyg'a jafo qilma, vafo qil,*

*Ayturki: «Bizning davrda ul rasm qolibtur. (L.)*

4. Meros sifatida kimsaning ixtiyoriga o'tmoq.

*Va aning yonida bir yog'ochliq yerda Yapaloqqush maskani ota-bobosidin qolg'on joyi bor erdi. (Zm.)*

5. Yashamoq, hayot kechirmoq.

*Menga yaxshi dedi yor birla o'lmoq,*

*Na lozim g'am bilan dunyoda qolmoq. (S.Sar.)*

6. Foydalanmay, chiqit sifatida ortmoq.

*Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim,*

*Bu zamon yavg'on qozon ostida qolg'on yundiman. (T.F.)*

7. Otlar, sifatlar bilan birikib qo'shma fe'l hosil qiladi.

*U sahro ichra chorasiz qoldi yolg'iz,*

*Bo'lub tashna, qurub qolg'ontek ildiz. (S.Sar.)*

**QOLQONDURUQ** Urush qurolining bir turi, qalqon.

*Alar javshani barcha qolqonduruq*

*Sinon qo'llarida nechukkim suruq. (S.I.)*

**QOMAT** a. Qad, qaddi-qomat, bo'y-bast, bo'y.

*Sarvkim, ul to'g'ri chekib qomatin,*

*Ko'rmayin osibi xazon ofatin. (H.A.)*

**QON** Tomirlarda aylanib yuradigan, modda almashinuvini ta'minlaydigan qizil suyuqlik.

*Qo'zutti jang bilan olamda to'fon,*

*Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon. (S.Sar.)*

**Qonini bag'ishlamoq** Qonidan o'tmoq, gunohini kechirmoq, afv etmoq.

*Bag'ishlasang qonim, sultonsen oxir,*

*Ko'zumga nur, tanimg'a jonsen oxir. (Mn.)*

**QONLIQ** Xunini da'vo qiluvchi.

*Bir qatla bir o'g'li bir kishini o'lturgani uchun qonliqlarig'a topshurub, dorulqazog'a yibordi. (Bn.)*

**QONUN** a. Cholg'u asboblardan birining nomi.

*Jismi qonundin nafas tori uzulmasdin burun,*

*Boshingg'a davri qazo bazmi qurulmasdin burun. (T.F.)*

**QOPLON** Mushuksimonlar oilasiga kiruvchi, xol-xol tusli yirtqich hayvon.

*Shaynda qoplondin agarchi fuzun,*

*Nafs itining ilgida lekin zabun. (H.A.)*



**QOPOLMOQ** Qamalmoq, qamalib yotmoq.

*Hajr uyi ichra qopolmish yor hajridin ko'ngul,  
Vah, qachon bo'lg'ay bizing tutqun bu zindondin xalos.  
(G'.S.)*

**QOQ** Juda oriq, juda ozg'in.

*Xalqini ko'rsang agar o'lasiyu, qoqu xarob,  
Ochlikdin egilib qomati misli kamalak. (Max.)*

**QOQUM** a. 1. Mo'ynasi uchun ovlanadigan olmaxonga o'xshash hayvon.

2. Shu hayvon terisidan tikilgan po'stin.  
*Manga mushkildurur topmoq ilojinkim, g'ino ahli,  
Iloj aylar sovuqqa qoqumu sinjobu kishdin qish. (Og.)*

**QOQMA** Dag'al, qattiq.

*Birov qoqma chakmonga zoru falak,  
Birovga berib ming do'kon po'stin. (K.)*

**QORA** 1. Ko'mir rangidagi, qozon kuyasi tusidagi.

*Ul sababdin Odam o'g'lonlari bir-biringa mengzamazlar,  
«Kimi qora, kimi sarig'... (R.)*

2. Shu tusga moyil, qoramtir.

*O'z yuzini ko'rdi, qora tuproqdin yaratilmish. (R.)*

**Yilqi qora** Hayvonlar.

*Kemi uch qat erdi, oldida yilqi qoralar erdi. (R.)*

**QORIN** ich, qorin, qursoq.

*Anda kezin qorning'a keldi ersa, qorni taom tiladi. (R.)*

**QORONG'U** 1. Nurdan mahrum bo'lgan, yorug'lik bo'lmagan, qorong'i.

*Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,  
Masaldurkim: «Charog' tubi qorong'u». (L.)*

2. ko'ch. Qayg'uli, g'amli, noxush.

*Qorong'u bo'ldi olam ko'zuma ushbu judolikdin,  
Ko'zu ko'nglum ziyosi mohi tobonimni sog'indim. (U.)*

**QOSID** a. Xat tashuvchi, maktubni egasiga yetkazuvchi; xabarchi.

*Chunki qosid bitikni yetkurdi,  
Shoh Navdar qo'lig'a topshurdi. (S.S.)*

**QOSIR** a. Ojiz.

*Vasfing uzra ulus tili qosir,  
Zotingg'a tengri hozir-u nozir. (Mun.)*

**QOT** Huzur, old, yon.

*Borchasin yig'sa o'zining qotig'a,  
Kelsalar borchaning xidmatig'a. (Shn.)*



**QOTIQ** Qattiq, og'ir.

*Mening boshima bas qotiq tushdi ish,  
Chu toq o'ldi bu dard ila toqatim. (G'.S.)*

**QOTLANMOQ** Kurashmoq, olishmoq, jang qilmoq.

*Men otam qoni uchun qotlanamen,  
Men o'zum joni uchun qotlanamen. (Shn.)*

**QOTMOQ** 1. Qo'shmoq, aralashtirmoq.

*Har o'qikim, alar sori otti.  
Qonlarin bahr suyig'a qotti. (S.S.)*

**So'z qotmoq** Gap tashlamoq, so'z aytmoq, gapirmoq.

*Ko'ngluni say' birla to'xtatti,  
Nozaning'a bu nav' so'z qotti. (S.S.)*

**QOVMOQ** Quvmoq, quvlamoq.

*Ko'rdilar solur erdi bir bug'u xez,  
Yetti oni qovub bir otlig' tez. (S.S.)*

**QOVUSHTURMOQ: Qo'l qovushturmoq** Qo'llarini kesishtirib

qulluq qilmoq, hurmat bajo etmoq.

*Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur,  
Ki, aning chiqsa egni, sinsa ali. (A.N.Qit.)*

**QOYIL** a. 1. So'zlovchi, gapiruvchi.

*Qil sig'mas og'zing ichra ko'p nukta tong emaskim,  
Nozukurak o'ldi qildin har so'zga qoyil. (G'.S.)*

2. Iqror, iqror bo'lish.

*Ey Navoiy gar ko'ngul ketti, malolat ko'rma ko'p,  
Sen chu bedillikka qoyilsen, erur ul telba it. (B.V.)*

**QOYIM** a. Tik turuvchi, turuvchi.

**Ishi qoyim o'lmoq** Ishi yurishmaslik.

*Ko'rdi Jobirki, qoyim o'ldi ishi,  
Ollida nomuloyim o'ldi ishi. (S.S.)*

**QOZ** G'oz.

*Ushbu bog' ichra ichar edi sharob,  
Qoz ila turna qilur edi kabob. (Shn.)*

**QOZI** a. Shariat qonuni bo'yicha hukm chiqaruvchi amaldor; sudya, sud.

*Olurg'a pora ellikboshilar mingboshi, qozidin,  
Ijobat bo'ldi-bo'ldi aylar erdilar duo saylov. (M.)*

**QOZMOQ** Qazimoq, kovlamoq.

*Har kishikim birovga qozg'oy choh,  
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh. (S.S.)*

- QOZG'ONMOQ** Qozonmoq, ega bo'lmoq, olmoq.  
*Besh kunluk o'tar dunyo uchun mundaq yamon ot qozg'ondi.*  
 (Bn.)
- QOSHIDA** Nazdida, oldida.  
*Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,  
 Ahli ma'oniy qoshida xo'b emas. (H.A.)*
- QUDRAT** a. Allohning hamma narsaga qodir kuchi, xudoning azaliy quvvati.  
*Tikandin qudrating paydo qilur gul,  
 Xato ko'p keldi men quldin, kechurgil. (Mn.)*
- QUDS** a. Poklik, muqaddaslik, tozalik.  
*Ko'ngul erur bulbuli bo'stoni roz,  
 Quds harimida bo'lub jilvasoz. (H.A.)*
- QUDSIY** a. Muqaddas, pok.  
*Biri qudsiy asarliq orifi Jom,  
 Ki Jomi Jamdurur sing'on safoli. (A.N.Qit.)*
- QUL** 1. Hech qanday haq-huquqqa, mol-mulkka ega bo'lmagan, mutlaqo xo'jayiniga qaram bo'lgan xizmatkor.  
*Tilin so'zlasa so'z shakarday shuchig  
 Bo'yun berdi beg qul ulug' ya kichig. (Q.B.)*  
 2. Banda, xudoning bandasi, allohning quli.  
*Tikandin qudrating paydo qilur gul,  
 Xato ko'p keldi men quldin, kechurgil. (Mn.)*  
 3. ko'ch. Oshiq, shaydo.  
*Qulung ko'ptur vale men inju qulmen,  
 Visolning qadrini bilmas dagulmen. (Mn.)*  
 4. ko'ch. Biror narsaga qattiq berilgan kishi; berilgan, mubtalo.  
*Bo'r ichma aya borchi bo'g'zi quli  
 Bo'r ichsa achildi chig'ayliq yo'li. (Q.B.)*
- QUFL** a. Qulf.  
*Eshiklar bog'labon har sori behad,  
 Temur qufl anda mahkam, o'ylakim sad. (F.Sh.)*
- QULLA** a. Cho'qqi.  
*Ul tog'ning qullasida Shohi Kobul imorat qilg'ani uchun bu  
 tog'ni Shohi Kobul derlar. (Bn.)*
- QULLOB** a. Changak, ilgak.  
**Qullob chekmak** Sirtmoq solmoq, bog'lamoq.

*Yana vahshiy olib aning tanobini,  
Solib egniga chekti qullobini. (S.I.)*

**QULLUQ** Qul bo'lishlik, qullik.

*Neku kelsa rabdin tapi bo'l tapi  
O'zung qulluqi ul tapiliq tapi. (Q.B.)*

**QULMAQ** Istamoq, xohlamog.

*Aya elchi beglar elig qulsa saq  
Bu saqliq bila sen tuzu elka baq. (Q.B.)*

**QULON** Yovvoyi eshak.

*Bukun ham yana bir qulon ottim, ushbu ovda tushgan qulon  
va kiyik aksari semiz edi. (Bn.)*

**QULOQ** Eshitish a'zosi, eshitish organi.

*Aql qulog'ila eshit holimi,  
Zulm qilur, baski, menga zolimi. (M.)*

**QULOQSIZ** Gappa kirmaydigan, so'zga quloq solmaydigan.

*Dala-tuzni suv olsa, qo'ng'ur g'ozni to'shidin, quloqsizg'a  
so'z aytsang, qulog'ining toshidin. (Zm.)*

**QULTG'UCHI** Tilanchi, gadoy.

*O'yunqa avinsa ajun tutg'uchi  
Elin buzdi bo'ldi o'zi qultg'uchi. (Q.B.)*

**QULUNJ** *yun.* Sanchiq.

*Itifotni «to» bilan bitibsen, qulunjni «yo» bilan bitibsen.  
(Bn.)*

**QULZUM** *a.* Dengiz.

*Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,  
Kelturan amvojg'a bahri talotum Turdiman. (T.F.)*

**QUMITMAQ** Hayajonga solmoq, hayajonlantirmoq.

*Uzik meni qumitti,  
Saqinch menga yumitti. (D.L.T.)*

**QUMLAMOQ** Egarlamog, abzallamog.

*Bir kuni ul tevasini qumladi,  
Ortadig'an yuklarini jubladi. (Zm.)*

**QUMOSH** *a.* Kiyim.

*Suhayl kiydi turub avrad qumoshin,  
Chiqarsa kimsa yo'q, chohdin u boshin. (S.Sar.)*

**QUMRI** *f.* Kaptarlar turkumiga kiruvchi, quyrug'i uzun, bo'ynida  
kollari bo'lgan, kaptardan kichikroq bir qush.

*Qaysi ra'no sarvqadg'a qumriye bor men kibi?  
Qaysi qumrining qadingdek sarvi xushraftori bor? (Mu.)*

**QUNDUZ** Yuqori sifatli mo'ynali bir sutemizuvchi hayvon.

*Qaro kirpukungga qunduz tengolmas,  
Saqoqingni yoqang kunduz o'par bas. (Mn.)*

**QURBON** *a. ko'ch.* Biror kishi yoki narsa uchun jon fido qilish.

*Burung'ilar aning uchun: «Ebi birlan so'zlagonning qurboni bo'l», degan ekanlar. (Zm.)*

**QURMOQ** Tashkil qilmoq, o'tkazmoq.

*Halqai ushshoqda bazmu majolis qurdiman. (T.F.)*

**QUROQTURMOQ** Suvsizlikdan quritmoq, quruqsatmoq, qaqratmoq.

*Koming'a quy karam mayi, yo rab, chu havli hashr,  
Biltak tilimni aylasa og'zim quroqturub. (K.)*

**QURRATUL-AYN** 1.Ko'z qorachig'i. 2.ko'ch.Farzand, bola.

*Bizning qurratulaynimiz er yetibdur. (Zm.)*

**QURS** *a.* Kulcha non, kulcha.

*Yuzi tuban tushubon markabing iziga malak,  
Yer uzra qursni qilg'an kibi gadoy talosh. (N.Sh.)*

**Qursi fatir** Patir, patir non.

*Ko'rsa birov xonida qursi fatir,  
Der ani ko'k sahnida badri munir. (H.A.)*

**QURTULMOQ** Qutulmoq, xalos bo'lmoq, ozod bo'lmoq.

*Habibim naqshidin ma'ni bulayin,  
Tahayyurda o'zumdin qurtulayin. (Mn.)*

**QURULMOQ** Tikilmoq, qurilmoq, bino qilinmoq.

*O'lan uzra qurulg'an xaymada shoh,  
Zafardin shod bo'lub yotmishdi ogoh. (S.Sar.)*

**QURUMOQ** Qurimoq, qovjirab qolmoq.

*U sahro ichra chorasiz qoldi yolg'iz,  
Bo'lub tashna, qurub qolg'ontek ildiz. (S.Sar.)*

**QURUG'LUQ** Yerning dengiz va okeandan tashqari qismi, quruqlik.

*Men sudin aylasam azimat jazm,  
Ul qurug'luq soridin aylab azm. (S.S.)*

**QURG'U** Oqibatini o'ylamay ish qiladigan, yengil tabiat, yengiltak.

*Evak qurg'u qilqi qilinchi bushi  
Biligsizka belgu bo'lur bu ishi. (Q.B.)*

**QURG'ULUQ** Yengiltaklik.

*O'tunlug' evaklik yenig qurg'uluq,  
Qara qilqi ul bu yiraq turg'uluq. (Q.B.)*

**QURCH** Kuchli, baquvvat, chiniqqan.

*Bu beglikka ashnu tub asli kerak  
Atim alp qatig' qurch yana to'ng' yurak. (Q.B.)*

**QUSQI** Xushmuomala, kamtar.

*Kuvazlik bila ko'kka ag'mas kishi  
Qali qusqi bo'lsa buzulmas ishi. (Q.B.)*

**QUT** Baxt, tole, saodat; qut-baraka.

*Fasad qayda bo'lsa qachar qut teza  
Fasad chin yurir tutchi beglik buza. (Q.B.)*

**Qut etmak** Ichmoq.

*Tut manga ul bodanikim, qut etay,  
Kahrabo rangini yoqut etay. (H.A.)*

**QUTLUG'** 1. Baxtli, baxtiyor.

*Ekagun ajunug' bulug'li kishi  
Edi qutlug' ul bu tugal qut bashi. (Q.B.)*

2. Muqaddas, aziz.

*Tog' aydi: «Men qutlug'men», tengiz aydi: «Men haybatlik-  
men». (R.)*

**QUTQARMOQ** Chiqarib olmoq, ozod qilmoq.

*Dedi: Ul chahdin ani qutqarsam,  
Yig'labon zor-zor yoborsam. (S.S.)*

**QUTQI** Muloyim, yumshoq.

**Qutqi ko'ngul** Yumshoq ko'ngilli.  
*Beg alchaq kerak bo'lsa qutqi ko'ngul  
Muniteg yo'q ersa sen andin to'ngul. (Q.B.)*

**QUTU** Xil, tur; guruh, tabaqa.

*Bu eki qutu bulsa begdin sevinch  
Eli qapg'i etlur bulur beg avinch. (Q.B.)*

**QUTULMOQ** Xalos bo'lmoq, saqlanmoq.

*Andoq etsangki, bahrdin qutulub,  
Yaman ahli sori ravona bo'lub. (S.S.)*

**QUVANG'U** Quvongudek, quvonadigan.

*Men qamug'din zaifmen azaq astindamen, menda quvang'u  
narsa yo'q. (R.)*

**QUVANMAQ** Suyunmoq, sevinmoq, shodlanmoq.

*Qamug' narsalar bosh ko'turub o'zlarini o'ga quvandilar. (R.)*

**QUYI** Past, tuban.

*Nozukluk ichra belicha yo'q tori qisuyi,  
O'z haddini bilib, belidin o'lturur quyi. (L.)*

**QUYOSH** O'zidan kuchli nur va issiqlik taratadigan yumaloq yoritqich, planeta.

*Yuzung nuri quyosh nurindin ortar,  
Saqoqing shu'lasi olamni o'rtar. (Mn.)*

**Quyoshqa tegurmak** E'zozlamoq, ulug'lamoq, martabasini ko'tarmoq.

*Shoh tutqach qo'lumni o'lturdi,  
Zarra qadrin quyoshqa tegurdi. (S.I.)*

**QUG'U** 1. Oqqush. 2. ko'ch. Oq.

*Tegurdi menga algi ellik yashim,  
Qug'u qildi quzg'un tusiteg bashim. (Q.B.)*

**QUSH** Parranda.

*Faqat holin ko'rganlar etar oh,  
Uchar atrofda qushlar – dardli hamroh. (S.Sar.)*

**Qush solmoq** Qush ovlamoq.

*Bir qo'llarig'a o'zlarin ko'tartib qush solur ermish. (M.N.)*

**QUSHLOQ** Qush ovlanadigan joy.

*Xo'jandning ovlog'i va qushlog'i bisyor yaxshidur. (Bn.)*

**QO'DMAQ** 1. Qo'ymoq, to'xtatmoq.

*O'zun dunya uqba bo'layin tesa  
Bu qach ishni qo'dma qattig'lan o'sa. (Q.B.)*

2. Tashlamoq, voz kechmoq, qo'ymoq.

*Qamug'ach yesa ichsa axir to'dur  
Ko'zi ach kishi o'lsa achliq qo'dur. (Q.B.)*

**QO'DUNMAQ** Qo'ymoq; qoldirmoq.

*Bu neng alg'uqa bir kerak bay budun  
Budun bayliqinga to'ru tuz qo'dun. (Q.B.)*

**QO'L I** 1. Odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan a'zosi.

*Bog'ladi qo'llarin shitob bila,  
Muni ul bog'labon tanob bila. (S.S.)*

2. Kaft.

*Aqcha qo'lida ikki-uch mo'ysafid,  
Derki: «Bu nazringizu, bizlar murid». (M.)*

3. ko'ch. Ixtiyor, izm.

*Sabr qilib yaxshi ish qo'ldin ketsa, o'xshamas... (Zm.)*

**QO'L II** Yo'l.

*Gahi rindlar bazmig'a yo'l topib,  
Hamonoki maqsudg'a qo'l topib. (Mun.)*

- QO'LDAMOQ** 1. Qo'lidan ushlamoq, yuqori bilagidan tutmoq.  
*Yetib ko'rushub, «Inim bahodur emishsiz», deb iligimdin qo'ldab, chodirg'a kelturdi. (Bn.)*
- QO'LMOQ** So'ramoq.  
*Kemidin chiqmishdin kezin yilan kelib, Nuhdin ul etni qo'ldi. (R.)*
- QO'NMOQ** Uchishdan to'xtab bir narsaga o'tirmoq.  
*Himmating yo'lida bir kapa karomat qilg'il, Kapalak boz qo'nub, joyig'a bo'lg'ay Hapalak. (Max.)*
- QO'NG'ARMOQ** Buzmoq, qo'pormoq.  
*Tahammulsiz bo'lub uy sori borib, Eshik ochilmag'andin so'ng qo'ng'orib. (F.Sh.)*
- QO'NG'UZ** Usti qattiq qobiq bilan qoplangan hasharotlarning umumiy nomi.  
*Otasi urmas qo'ng'uzni, bolasi urar to'ng'uzni, degan so'zga ishonma. (Zm.)*
- QO'PMOQ** 1. Turmoq, o'rnidan turmoq.  
*O'tursang o'lturur fitna, ketar g'am, Agar qo'psang qiyomatlar qo'par ham. (Mn.)*  
 2. Sodir bo'lmoq, ro'y bermoq, ko'tarilmoq.  
*Suhayl ohidin shu dam qo'pti bo'ron, Aningtekkim, buzuldi charxi davron. (S.Sar.)*  
 3. Yoyilmoq, tarqalmoq, chiqmoq.  
*Qamug'da yaraqsiz ey elig quti Bu beglar uza qo'psa yalg'an ati. (Q.B.)*  
**Sihhat bo'lub qo'pmoq** Sog'ayib ketmoq.  
*Ul sihat bo'lub qo'pti. Men noxush bo'lub yiqildim. (Bn.)*
- QO'RQU** Qo'rquy, qo'rqinch, vahima.  
*Kecha go'yo eshitib shuhrati tillo pulini, Hapalak qo'rqusidin ucti misoli kapalak. (Max.)*
- QO'RQUVLI** Qo'rqinchli, vahimali.  
*Ko'rub uyquda ham qo'rquvli tushdin, Qolurdi ayrilib har damda hushdin. (S.Sar.)*
- QO'RG'ON** Qal'a, qo'rg'on.  
*Sabza rayohin, anvoyi gullar, chechaklar kasratidin qo'rg'ong'a qo'ng'on chog'da tovuqlarning parlaridek turlanib, munaqqash ko'runur erdi. (Zm.)*



**QO'SQI** Muloyim, yumshoq.

*Aqiliq kerak begka qo'sqi ko'ngul*

*Bu qo'sqi ko'ngul birla qilqi amul. (Q.B.)*

**QO'YMOQ** 1. Qo'ldan chiqarmoq, bo'shatmoq.

*Ko'r tutg'anini qo'ymas va kar eshitganin qo'ymas. (Zm.)*

2. Ozod etmoq, ketishga ruxsat bermoq.

*Qatlinga garchi tab'rog'ib emas,*

*Lek qo'ymoq dag'i munosib emas. (S.S.)*

3. Biror ishga tayinlanmoq, bir vazifa yuklamoq.

*To kema bo'ldi ul sori obir,*

*Kim, qo'yub erdi didbon Jobir. (S.S.)*

4. Dafn etmoq, ko'mmoq.

*O'tru chiqorib ahlu diyorumni mening,*

*Ko'yida qo'yung tani nizorimni mening. (A.N.Rub.)*

5. Omonlik bermoq, omon qoldirmoq.

*Bu navohida anglasam sizni,*

*Qo'ymag'umdur tirik biringizni. (S.S.)*

6. Otlarga qo'shilib qo'shma fe'l yasaydi.

*Sherki, tishlab bolasin dam-badam,*

*Beshada har yon qo'yar erdi qadam. (H.A.)*

**QO'YCHI** Cho'pon.

*Begu begzoda qolib, ilqichi, qo'ychilar bek,*

*Dutdi to'por hama, ketti eshikdin to'bichoq. (T.F.)*

**QO'ZI** Qo'yning bolasi.

*Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur, og'a bo'lur yigitning peshonasi keng bo'lur. (Zm.)*

**Qo'zi qulog'i** Ilk bahorda unib chiqadigan bir o'simlik, qo'ziquloq.

*Mehr istadi chun hamal farog'i,*

*Dasht uzra butar qo'zi qulog'i. (L.M.)*

**QO'ZMAQ** Qo'ymoq.

*Azroil ul tuproqni Makkali Toifli arasinda Daxno otlig' yerda qo'zdi. (R.)*

**QO'ZUTMOQ** Qo'zg'atmoq, sodir qilmoq.

*Qo'zutti jang bilan olamda to'fon,*

*Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon. (S.Sar.)*

**QO'ZG'ALMOQ** Joyidan siljimoq, jilmoq.

*Qo'zg'atar bo'lsa agar ganju sipohin yukini,*

*Larzag'a kelgay simobdek qo'zg'almas tog'ham. (S.Sar.)*



**QQ'ZG'AMOQ** Harakatga keltirmoq, qo'zg'atmoq.

*Qoldi chun ikki kunchalik maqsad,  
Yana yel suni qo'zg'adi behad. (S.S.)*

**QO'SH** Bir juft qadah (may).

*Kel, ey oy yuzlu dilbar, tut biror qo'sh,  
Biror qo'sh birla qilg'il bizni madhush. (Mn.)*

## Rr

**RAB(B)** a. Xudo, alloh, tengri, parvardigor.

*Neku kelsa rabdin tapi bo'l tapi  
O'zung qulluqi ul tapiliq tapi. (Q.B.)*

**RABT** a. Bog'lanish, aloqa.

*Raqam qilg'an parishon nomalardin,  
Yozilg'an rabti yo'q hangomalardin. (F.Sh.)*

**RAD** a. 1. Inkor, inkor qilish.

*Nozili hukmi qazo hech kim radu man' etmadi,  
Barcha bo'ynig'a solan bu rishtani qat' etmadi. (T.F.)*

2. Daf qilish, qaytarish.

*Jobir ar zarb urur edi behad,  
Borcha zarbin Suhayl etar edi rad. (S.S.)*

**RA'D** a. Momaqaldiroq.

*Sel emastur yer yuzin tutqon ko'zumning yoshidur,  
Ra'd emastur ko'kka chirmashqon ko'ngul afg'onidur. (B.)*

**RAF'** a. 1. Yuksaltirish; yuksalish. 2. ko'ch. Yo'q qilish, yo'qotish, oradan ko'tarish, ko'tarish.

*Ahli hole topmadim boshdin balo daf' etmadi,  
Kulfatu g'urbatni tuzluk sunnati raf' etmadi. (T.F.)*

**RA'FAT** a. Mehribonlik, g'amxo'rlik, rahmdillik, shafqat.

*Haqki solib soyai ra'fat sanga,  
Ro'zi etib taxti xilofat sanga. (H.A.)*

**RAFIQ** a. 1. Do'st, o'rtoq, jo'ra.

*Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq,  
Yolg'uzun aylar erdi qat'i tariq. (S.S.)*

2. Mahbuba, yor, sevgili.

*Tobakay jabr-u sitam birla yurursan, ey rafiq,  
Chiqti, Mashrab, ushbu g'amdin hu aziz jonim mening.  
(Mash.)*

- RAFOHIYAT** *a.* Farovonlik, mo'l-ko'Ichilik.  
*Samarqand ahlikim, yigirma-yigirma besh yil Sulton Ahmad mirzoning zamonida rafohiyat bila o'tkarib edilar.*  
 (Bn.)
- RAFTOR** *f.* Yurish.  
*Raftoriyu qaddig'a ravonim sadqa,  
 Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa. (B.)*
- RAG** *f.* Tomir.  
*Layli ishqin tanimda jon qil,  
 Layli shavqin ragimda qon qil. (L.M.)*
- RAHBAR** *f.* Yo'l ko'rsatuvchi, boshqaruvchi, rahnamo.  
*Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar tole'im,  
 Vojgundur, imtihon qildimki, aksar tole'im. (M.)*
- RAHBARLIG'** Yo'l boshlovchilik, yo'l ko'rsatuvchilik.  
*Alar dog'i rahbarlig' aylab anga,  
 Bori yo'l suxanvarlig' aylab anga. (S.I.)*
- RAHBON** *f.* Butparastlar rahbari, butparastlar boshlig'i.  
*Qo'shub hushyorvash besh yuz nigahbon  
 Aningdekkim but atrofida rahbon. (F.Sh.)*
- RAHM** *a.* Shafqat, rahm, rahm-shafqat, mehribonlik.  
*Ulusqa rahm etib g'amxor bo'lg'il,  
 Hamisha shodu barxurdor bo'lg'il. (Mn.)*
- RAHMATFIZOY** *a. -f.* Shafqat qiluvchi, shafqatli, rahm-shafqatli.  
*Yana Ardasher o'ldi kishvarxudoy  
 Jahon ahlig'a bo'ldi rahmatfizoy. (S.I.)*
- RAHNAMUN** *f.* Yo'l ko'rsatuvchi, yetakchi.  
*Xomaki tuzlukka erur rahnamun,  
 Kesilibon boshi bo'lur sarnigun. (H.A.)*
- RAHO** *a.* Xalos bo'lish, qutulish, ozod bo'lish.  
*Borcha umrin o'tkarib yuz ming mashaqqatlar bila,  
 Lahzaye zindoni kulfatdin rahosi yo'q aning. (Og.)*
- RAHRAV** *f.* Yo'l yuruvchi, yo'lovchi, sayohatchi.  
*Rahrav ul ikkidek bu ko'hna saro,  
 Qilmay ehsos barru bahr aro. (S.S.)*
- RAHZAN** *f.* Qaroqchi, yo'lto'sar.  
*Yo'q savohil ichinda rahzan ul,  
 Bahr aro ham anga kelib fan ul. (S.S.)*

- RAHSHUNOS** *f.* Yo'l biluvchi, yo'l boshlovchi.  
*Ko'z och, agar xud bor esang rahshunos,  
 Ish ravishin ayla aningdek qiyos. (H.A.)*
- RAIYAT** *a.* Halq, el, fuqaro.  
*Bo'ldi raiyat galavu sen shubon,  
 Ul shajari musmiru sen bog'bon. (H.A.)*
- RAIYATLIQ** Tobelik.  
*Raiyatliqqa bo'yun qo'yg'on raiyatliq qilg'ay. (Bn.)*
- RAM** *f.* Hurkish, cho'chish.  
*Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,  
 G'urbat bu aziz umrni kam qiladur. (B.)*
- RAMAQ** *a.* O'lish oldidan chiqadigan so'ngi nafas, oxirgi nafas.  
*Mening jismimda to jondin ramaqdur,  
 Ishim qo'rg'onda o'zni asramaqdur. (F.Sh.)*
- RANG** *f.* 1. Biror narsaning ko'rinishi, bo'yog'i, tusi.  
*Ham bu rang aylab erdi xil'atni,  
 Xayli dog'i bu rang kisvatni. (S.S.)*  
 2. Jilo, jilolanish, jilva.  
*G'azalida rang va hol bordur, devon tartib qilibtur. (Bn.)*
- RANJ** *f.* 1. Qiyinchilik, mashaqqat.  
*Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,  
 Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila. (M.Q.)*  
 2. Ozor, alam.  
**Ranjg'a solmoq** Ozor bermog, ranjitmoq.  
*Ranjg'a solg'on bu xasorat oni,  
 Aylamas ozod kaforat oni. (H.A.)*
- RANJA** *f.* Qiynalgan, azoblangan.  
**Ranja qilmoq** Qiynamoq.  
*Tutaykim, qildi o'z changini ranja,  
 Nekim urdi aning changig'a panja. (F.Sh.)*
- RANJKASH** *f.* Ranj tortuvchi, zahmat chekuvchi, zahmatkash.  
*Ranjcash bo'lkim, chu tortar chug'z vayron ichra ranj,  
 Ajdahodin biymi yo'q, ammo erur ummidi ganj. (H.A.)*
- RAQAM** *a.* Yozuv, xat.  
*Bo'ldi chu mistar xatig'a tuz raqam,  
 Boshini olmas raqamidin qalam. (H.A.)*  
**Raqam surmak** Yozmoq, bitmoq.  
*Qalam bargu guli nasringg'a surmak,  
 Raqam Farhod ila Shiring'a surmak. (F.Sh.)*



**Raqam qilmoq** Yozmoq, bitmoq.

*Neki yozding ani raqam qildim,*

*Shak emasdurki, sahv ham qildim. (S.S.)*

**Raqam chekmak** Yozmoq, bitmoq.

*Men xastaki, bu raqamni chekdim,*

*Tahriri uchun qalamni chekdim. (L.M.)*

**RAQAMKASH** *a. -f.* Yozuvchi, bituvchi.

*Biri mantiq rusumida raqamkash,*

*Biri hay'at ruqumida qalamkash. (F.Sh.)*

**RAQIB** *a.* Biror kimsani talashuvchilar (*bir-biriga nisbatan*), raqobat qiluvchi.

*Raqiblarga qilur la'ling tabassum*

*Qonimni g'ussadin toshurmog'ing ne? (A.)*

**RASAD** *a.* Observatoriya.

*Yana bir oliy imorati Pushtai Ko'hak domanasida rasad-  
durkim, zij bitmakning olatidur. (Bn.)*

**Rasad bog'lamoq** Astronomik jadval tuzmoq.

*Ma'mun xalifa rasad bog'labturkim, Ziji Ma'muniyni andin  
bitibturlar. Bir Batlimus ham rasad bog'labtur. (Bn.)*

**RASAN** *f.* Arqon, arg'amchi, ip.

*Aning a'zosidin rasan oldi,*

*Band ila choh qa'rig'a soldi. (S.S.)*

**RASM** *a.* Urf, odat, urf-odat.

*Ayttimki: «Bu Lutfiyg'a jafo qilma, vafo qil,*

*Ayturki: «Bizing davrda ul rasm qolibtur» (L.)*

**RAST** *f.* Qutulish, najot, xalos bo'lish.

*Turfa hukim, xattin aning ro'zgor,*

*«Rostiyu rasti» etib oshkor. (H.A.)*

**RASTA** *f.* Bozorda bir xil mol sotiladigan do'konlar qatori; qator.

*Choyxo'ridin ko'knori ko'p,*

*Bir rasta nosu bang ekan. (M.)*

**RAVANDA** *f.* Sayyoh, kezuvchi.

*Misr va Shom ko'rgan ravandalar muncha chog'liq yer  
nishon bermaydurlar. (Bn.)*

**RAVISH** *f.* Yo'l-yo'riq, tarz, yo'sin.

*Ko'z och, agar xud bor esang rahshunos,*

*Ish ravishin ayla aningdek qiyos. (H.A.)*

**RAVNAQ** *a.* Yog'du, shu'la, nur.

*Yaratti oy bikin zebo seni Haq,*

*Kim, ush chehrang berur olamg'a ravnaq. (Mn.)*

**RAVON I** *f.* Ketuvchi, yuruvchi.

**Ravon aylamak** Ketmoq; yubormoq.

*Borchasig'a ayladi hukmung ravon.* (H.A.)

**Ravon itmak** Ketmoq, uzoqlashmoq.

*Vahm etib ul guruh bu so'zdin,*

*Bahr aro ittilar ravon ko'zdin.* (S.S.)

**RAVON II** *f.* Tez, tezda, darhol.

*Dedi: «O'z mulkunguzga azm etingiz,*

*Jon keraklik esa ravon ketingiz.* (S.S.)

**RAVON III** *f.* 1. Ruh; arvoH.

*O'qig'il fotiha, dur qibla yoni*

*Sevunsun banda Xorazmiy ravoni.* (Mn.)

2. Jon.

*Raftoriyu qaddig'a ravnim sadqa,*

*Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa.* (B.)

**RAVONA** *f.* Ketuvchi, yuruvchi.

**Ravona bo'lmoq** Ketmoq, jo'namoq.

*Andoq etsangki, bahrdin qutulub,*

*Yaman ahli sori ravona bo'lub.* (S.S.)

**RAVONLIQ** O'tish, joriy bo'lish, amalga oshish.

*Ul nimakim, har kishi xonliq topib,*

*Hukmi aning birla ravonliq topib.* (H.A.)

**RAVOQ** *f.* 1. Bino, imorat.

*Ulug' ravzai charx toqi aning,*

*Yana bir falakcha ravoqi aning.* (S.I.)

2. *ko'ch.* Bu dunyo.

*Joyi osoyish emas hech kima bu ko'hna ravoq,*

*Yog'durur boshimiza sangi jafu, gardi firoq.* (T.F.)

**RAVZA** *a.* 1. Bog', gulbog'.

*Ziynat aro ravzai rizvondur ul,*

*Ravzani qo'y, mulki Xurosondur ul.* (H.A.)

2. Jannat, behisht.

*Bor emish ravzadek havosi aning,*

*Charxi minu kibi fazosi aning.* (S.S.)

**Ravzai rizvon** Jannat bog'i.

*Ziynat aro ravzai rizvondur ul,*

*Ravzani qo'y, mulki Xurosondur ul.* (H.A.)

**RAVSHAN** *f.* 1. Yorug', yorqin.

*Zamiring vasfi mustahsan emastur,*

*Quyosh ravshan demak ahsan emastur.* (F.Sh.)

2. Aniq, tushunarli, ochiq-oydin.

*Bari bolamning asbobi kulonkirligi tumshug'i bilan changalidin ma'lum va ravshan emasdurmu?* (Zm.)

**RAVSHANROY** *f.* Fikri aniq, fikri porloq; dono, mutafakkir.

*Kelgach o'ziga Mehri ravshanroy,*

*Dedikim: «Fitna bo'ldi bolkushoy»* (S.S.)

**RAXNA** *f.* 1. Yoriq, teshik, darz.

*Devornikim, eski bo'lg'on yeridin raxna qilib kirdilar.* (Bn.)

**Raxna bo'lmoq** Jarohatlanmoq, ozor topmoq.

*Yuragim raxna bo'ldi, bas qil istig'noni, jononim,*

*Arazingni qo'yub, lutf.aylasang hech yo'qdur armonim.* (Z.)

**RAXSH** *f.* Yugurik ot, chopqir ot, tulpor.

*Poshna raxshlarg'a urdilar,*

*Hay deguncha ani tushurdilar.* (S.S.)

**RAXSHON** *f.* Porloq, nurli.

*Demay o't onikim, barqi duraxshon,*

*Demay barqi duraxshon, mehri raxshon.* (F.Sh.)

**RA'Y** *a.* Tadbir, chora.

**Ra'yi savob** To'g'ri tadbir.

*Ko'p qilib fikr topti ra'yi savob,*

*O'qug'on nomag'a bitidi javob.* (S.S.)

**RAYHON** *a.* Bir yillik xushbo'y bir o'simlik.

*Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda,*

*Xush ichgil rohni rayhon ichinda.* (Mn.)

**RAYOHIN** *a.* (birligi **rayhon**) Rayhonlar.

*Sabza rayohin, anvoyi gullar, chechaklar kasratidin*

*qo'rg'ong'a qo'ng'on chog'da tovuylarning parlaridek*

*turlanib, munaqqash ko'runur erdi.* (Zm.)

**RAYOSAT** *a.* Raislik, rahbarlik.

*G'aribi xastag'a qilg'ay siyosat,*

*Zihi oyini arbobi rayosat.* (F.Sh.)

**RAZM** *f.* Urush, jang.

*Chun yetib qildi el halokig'a mayl,*

*Razmu kin ichra chobuk erdi Suhayl.* (S.S.)

**RAG'BAT** *a.* Istak, xohish, mayl, qiziqish.

*Odam Havvoni o'zidek suratlig' ko'rdi ersa rag'bati bo'lub:*

*«Menga yovuqroq kelgil», teb undadi.* (R.)

- RASHK** *a.* Sevgan kishisini birovdan qizg'anish  
**Rashki rizvon** Jannatning rashkini keltiruvchi.  
*Qoshing, erning, yuzung, ey rashki rizvon,*  
*Hilolu kavsaru bog'i jinondur. (L.)*
- REJA** *f.* Plan, tarh.  
**Reja chekmak** Pejalamoq.  
*To reja chekmas yerida bog'bon,*  
*Bog' hamon zebda, jangal hamon. (H.A.)*
- REV** *f.* Hiyla, makr, nayrang.  
*Ham oxir ko'rguzub makri nihoniy,*  
*Qilib yuz revu behush aylab oni. (F.Sh.)*
- RIDO** *a.* Shayxlar, so'fiylar va darveshlar yelkasiga tashlab yuradigan kiyim.  
*Mingboshisi so'finamo,*  
*Tasbehu bo'ynida rido. (M.)*
- RIF'AT** *a.* Martaba, obro', obro'-e'tibor.  
*Ey, falak avjiddin o'tub rif'ating,*  
*Oyu quyoshdin cholinib navbating. (H.A.)*
- RIKOB** *a.* Uzangi.  
*Banogah uchradi ot o'ynatib bir dilrabo yolg'uz,*  
*Rikobig'a surub ko'z, qo'l ochib qildim duo yolg'uz. (M.)*
- RIND** *f.* Mayxo'r, may ichuvchi, mayparast.  
*Xarobot ichra masjidida yerim bor,*  
*Kim ush ham rindmen, ham porsomen. (Mn.)*  
**Rindi sheroz** Hofiz Sheroziyning laqabi.  
*Biri Iso nafasliq rindi Sheroz,*  
*Fano dayrida mastu louboli. (A.N.Qit.)*  
**Rind ahli** Mayxo'rlar, mayparastlar.  
*Dayr ichra kirgil hamisha ixlos ila,*  
*Rind ahli bilan ichgali jom, ey zohid. (A.O'.)*
- RIOYAT** *a.* Hurmat, e'tibor.  
**Rioyat qilmoq** Hurmat qilmoq.  
*Firuzshoh bekkim, Shohrux mirzoning ulug'rioyat qilg'on begi edi. (Bn.)*  
*Bisyor muttaqiy va mutaddayyin kishi edi, agarchi shofiiy mazhab edi, har mazhabni rioyat qilur edi. (Bn.)*
- RIYOIY** *a.* Riyokor, munofiq, ikkiyuzlamachi.  
*Xaritasi to'la riyoiy so'fiylar zamiridek mutalavvin xavotir holotidin. (M.Q.)*

**RIQOB** *a.* Qul, xizmatkor.

*Ayo gulchehralar molik riqobi,  
Qamuq olam sening g'amzang xarobi. (Mn.)*

**RIQQAT** *a.* Go'zal, nafis, tushunarli, nozik.

*Tamomi erur koshg'ariy til bila,  
Aytmish adib riqqati til bila. (H.H.)*

**RIVOYAT** *a.* Aytib berish, hikoya qilish, naql qilish.

*Roviylar andog' rivoyat qilurlarkim, Farg'ona iqlimida  
Kayqubod otlig' podshohdin qolg'an bir eski shahriston bor  
erdi. (Zm.)*

**RIZO** *a.* Rozilik, ko'nish.

*Davr chu kajlikka qilur iqtizo,  
Sen tilasang rost, emastur rizo. (H.A.)*

**Rizoi do'st** Do'st roziligi.

*Kim o'la do'st rizosi hamin sanga hosil,  
Rizoi do'stlar asli tamatto', ey g'ofil! (Fuz.)*

**RISHTA** *f.* 1. Arqon, arg'amchi.

*Notavon tutti rishtani mahkam,  
Mehr chekti, ul ikki mahvash ham. (S.S.)*

2. Paxta, ipak, jun tolasidan ingichka qilib yigirilgan tikuv material, ip.

*Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,  
Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman. (T.F.)*

**RISHVA** *f.* Pora, rishvat.

*Harom yegan hokimlar, rishva olib yegonlar,  
O'z barmoqin tishlabon qo'rqub-qo'rqub qolmishlar. (A.Y.)*

**ROBITA** *a.* Aloqa, bog'lanish.

**Vositai robitai olamiyon** Olam ahli o'rtasidagi aloqa vositasi.

*Har tilni biluv emdi bani odama jondur,  
Til vositai robitai olamiyondur. (A.O'.)*

**ROFIZIY** *a.* 1. Inkor qiluvchi, rad etuvchi; dahriy, kofir.

*Yegani haqqi yetim madrasalar avqofi,  
Bularning oldida bor rofiziyning insofi. (T.F.)*

2. Shia mazhabidagi musulmon.

*Bovujudkim, ota, og'a, inisi bori sunniy, bu mundoq rofiziyy.  
(Bn.)*

**ROFIZIYA** *a.* Rofiziy ayol, shia mazhabidagi ayol.

*O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y xotun edi,  
rofiziya ham ekandur. (Bn.)*



- ROH I** *a.* Yo'l, usul, yo'l-yo'riq.  
*Ov va qushning roh va ravishini yaxshi bilur uchun Sulton Husayn mirzo aksar bu ishlarni anga ruju' qilur edi. (Bn.)*  
**Rohi majoz** Majoz yo'li.  
*Tutsam talabi haqiqata rohi majoz,*  
*Afsona bahonasila arz etsam roz. (Fuz.)*
- ROH II** *a.* ko'ch. May, sharob.  
*Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda,*  
*Xush ichgil rohni rayhon ichinda. (Mn.)*  
**Roh chekmak** May ichmoq.  
*Vale chekkanlar ushbu jomdin roh,*  
*Sarosar bo'ldilar, Xusravg'a maddoh. (F.Sh.)*
- ROHAT** *a.* Huzur, gasht, mazza.  
*O'n ikki oyda keladur bir tanob,*  
*O'zgalara rohatu menga azob. (M.)*
- ROHZAN** *f.* ayn. Rahzan.  
*Jobiri rohzan bo'lub firuz,*  
*Tun-u kun bog'i ichra bazmafruz. (S.S.)*
- ROJA** *h.* Hindistonda viloyat hokimi, hokim.  
*Yana g'animplari rojalar edi. Tamom Hinduston bir podshohta emas edi. Har roja bir viloyatqa o'z boshicha podshohliq qilur edi. (Bn.)*
- ROMIYA** *a.* Folchi, folbin.  
*Yana romiyu sohiri hunari,*  
*Daf' etardek ziyoni devu pari. (S.S.)*
- ROSIX** *a.* Mustahkam, qat'iy, barqaror.  
*Sendin ummid (bukim), haq yo'lig'a yurgaysan,*  
*Ahdinga rosix o'lub, bir so'zunga turg'aysan. (T.F.)*
- ROST** *f.* 1. To'g'ri.  
*Shohlig' uldurki, aning hukmu so'zi bir kerak,*  
*Adl bobini qurub, rost nishon tir kerak. (T.F.)*  
 2. Mos, muvofiq, to'g'ri.  
*Podshohliq bila yolg'uzluq rost kelmas. (Bn.)*  
 3. Naq, roppa-rosa.  
*Rost yarim tunga degin hol bu,*  
*Ham sanga, ham xaylinga ahvol bu. (H.A.)*  
**Rosti rasti** «To'g'ri bo'lsang najot topasan». Amur Temur muhri – uzuguga yozilgan mazkur iboraga ishora qilinmoqda.



*Turfa bukim, xattin aning ro'zgor,  
«Rostiyu rasti» etib oshkor. (H.A.)*

**ROSTLIQ** To'g'rilik, halollik.

*Rostliq ta'rifidakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpoy.  
(H.A.)*

**ROSTNISHON** f. Mo'ljalga to'g'ri teguvchi.

*Shohlig' uldurki, aning hukmu so'zi bir kerak,  
Adl bobini qurub, rost nishon tir kerak. (T.F.)*

**ROSTRAV** f. To'g'ri yuruvchi, to'g'ri, halol.

*Shohlig' uldurki, aning hukmu so'zu bir kerak,  
Adl yoyini qurub, rost nishon tir kerak,  
Rostrav, dini durust, peshasi tadbir kerak. (T.F.)*

**ROVIY** a. Rivoyat qiluvchi, aytib beruvchi, hikoya qiluvchi.

*Chun tugatti fasonani roviy,  
Pardador ochti pardai moviy. (S.S.)*

**ROY** a. Fikr, o'y, qarash, fikrlash.

*Roy ila zulmatni munir aylamak,  
Lutf ila olamni asir aylamak. (H.A.)*

**Roy urmoq** O'ylamoq, fikrlamoq.

*Roy ko'p urdilar tuzub mahfil,  
Shahsiz o'lsa sipah yo'q hosil. (S.S.)*

**ROYGON** f. Topib olingan, tekin.

*Berib ashk durrin, sarig' yuz zarin,  
Olibman emas roygon po'stin. (K.)*

**ROZ** f. O'zgalardan maxfiy tutilgan ish, gap va boshqalar, sir.

*Kimga ochayin rozki, yo'q mahrami roz,  
G'am kimga deyinki, g'amgusorim yo'qtur. (B.)*

**ROZDOR** f. Sirdosh.

*Xarobot aro kirganim, ey faqih,  
Deyin, bo'l dami rozdorim mening. (G'.S.)*

**ROZI** a. Mamnun, xursand.

**Rozi bo'lmoq** Ko'nmoq.

*Ori, balog'a sabr, qazog'a rozi bo'lmoqdin o'zga choram  
yo'q. (Zm.)*

**ROG'IB** a. Xohlovchi, istovchi, moyil.

*Qatlinga garchi tab' rog'ib emas,  
Lek qo'ymoq dag'i munosib emas. (S.S.)*

**RUB'** a. To'rtidan bir.

**Rub'i maskun** Yer yuzining inson yashaydigan quruqlik va obod qismi.

*Rub'i maskunda Samarqandcha latif. shahr kamroqdur.*  
(Bn.)

**RUBOIYOT** *a.* (*birligi ruboiy*) Ruboiylar.

*Yaxshi ruboiyoti ham bor.* (Bn.)

**RUD I** *f.* Anhor, katta ariq.

*Andijon rudi O'shning mahallotining ichi bila o'tub,*  
*Andijong'a borur.* (Bn.)

**RUD II** *f.* Musiqa asbobi.

*Bu xusron baski, chun g'am rudi tuzdum,*  
*Sirishkim selidin ka'bamni buzdum.* (F.Sh.)

**RUH** *a.* Diniy ta'limotga ko'ra inson vujudida mavjud bo'lgan, u o'lgandan keyin tanadan chiqib abadiy yashaydigan nomoddiy narsa.

*So'zdin o'lukning tanida ruhi pok*  
*Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.* (H.A.)

**RUHAFZO** *a. -f.* Ruhlantiruvchi, jonlantiruvchi.

*Ko'rub ul xayl aning farrux jamolin,*  
*Eshitib bo'yla ruhafzo maqolin.* (F.Sh.)

**RUJU'** *a.* Kimsaning zimmasiga biror vazifa yuklash, topshirish.

**Ruju' qilmoq** Topshirmoq, yuklamoq.

*Ov va qushning roh va ravishini yaxshi bilir uchun Sulton*  
*Husayn mirzo aksar bu ishlarni anga ruju' qilur edi.* (Bn.)

**RUQUM** *a.* Raqamlar, yozuvlar.

*Biri mantiq rusumida raqamkash,*  
*Biri hay'at ruqumida qalamkash.* (F.Sh.)

**RUQ'A** Xat, maktub.

*Malik Shohinning borgohig'a kelib, ta'zim va tavoze birla*  
*salom qilib, Yapaloqqushning ruq'asini uzatti.*(Zm.)

**RUST** *f.* Mahkam, mustahkam, qattiq.

*Yog'liq ila bog'ladi bo'ynini rust,*  
*Yuz hamyoning dog'i bo'ynini sust.* (H.A.)

**RUSTOXEZ** *f.* To'polon, g'avg'o.

**Rustoxez solmoq** To'polon qilmoq, g'avg'o solmoq.

*Go'yyokim esib hamul yel tez,*  
*Soldi bu elga dog'i rustoxez.* (S.S.)

**RUSTOYI** *f.* Nodon, johil.

*Rustoyi va nodida kishi, besh kunluk o'tar dunyo uchun*  
*mundoq yamon ot qozg'ondi.* (Bn.)

- RUSUL** *a.* (*birligi rasul*) Payg'ambarlar, nabilar.  
*Istab aning dinini bilgach yaqin,*  
*Ummat o'lurni rusuli mursalin. (H.A.)*
- RUSUM** *a.* (*birligi rasm*) Odatlar, udumlar, qoidalar.  
*Chiqib o'tru xoqong'a aylab hujum,*  
*Aningdekki ul chog'da bo'lg'ay rusum. (S.I.)*
- RUX** *f.* 1. Yuz, chehra.  
*Seni ko'rgan o'zindin yot bo'lur,*  
*Ruxungni ko'rsa ming shah mot bo'lur. (Mn.)*  
**Ruxi zard** Sariq yuz.  
*G'urbat to'zi yopqon ruxi zardimnimu dey?*  
*Yo hajr chiqarg'on ohi sardimnimu dey? (B.)*
2. To'ra (shahmat donalaridan biri).  
*Quyoshg'a tarh uchun tashlab ruxu ot,*  
*Vale yuz qatla har soat qilib mot. (F.Sh.)*
- RUXSOR** *f.* Yuz, chehra, bet.  
*Subh chu zohir qilib anvorini,*  
*Har yon sochib lam'ai ruxsorini. (H.A.)*
- RUXSORA** *f.* Yuz, bet, chehra.  
**Pari ruxsora** Pari yuzli, go'zal.  
*Pari ruxsoralarning ko'rkka boyi,*  
*Yuzung navro'zu qoshing bayram oyi. (Mn.)*
- RO'Y** *f.* Yuz, bet, chehra.  
**Ro'yi siyoh** Qora yuz.  
*Qolg'usi mahshar eli hayron gunohimni ko'rub,*  
*Tiyra bo'lg'ay yeru ko'k ro'yi siyohimni ko'rub. (Mash.)*  
**Ro'y-barro'y** Yuzni yuzga qo'yish.  
*Qo'yubon ro'y-barro'y, do'sh-bardo'sh,*  
*Bo'lub o'z bedili birla hamog'ush. (F.Sh.)*
- RO'YMOL** *f.* Ro'mol.  
*Za'faroniy ko'ylak uzra arg'uvoniy kamzihur,*  
*Ro'ymol og'ushidin peshonaning ahvoli tang. (F.)*
- RO'Z** *f.* Kun, sutka.  
*Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,*  
*Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman. (T.F.)*  
**Ro'zu shab** *f.* Erta-kech, erta-yu kech, kun bo'yi.  
*Mani bekas Uvaysiy, yig'lag'ayman ro'zushab tinmay,*  
*Uyumning ziynati, ko'z ravshani, xonimni sog'indim. (U.)*

- RO'ZGOR** *f.* 1. Turmush, hayot, tirikchilik.  
*Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,  
Tilarmen bir yo'li buzmoq, buzulg'on ro'zgorimni. (G'.S.)*
- RO'ZI** *f.* Rizq, rizq-ro'z, nasiba.  
**Ro'zi o'lmoq** Nasib qilmoq.  
*Ki, chekilgay bu intiqom oxir,  
Ro'zi o'lg'ay bu nav' kom oxir. (S.S.)*

## Ss

- SAB'A** *a.* Yetti.  
**Sab'ai sayyor** Yetti planeta, yetti sayyora.  
*To qilur charx gunbadi davvor,  
Aks etar sayr sab'ai sayyor. (S.S.)*
- SABAB** *a.* Vaj, bois.  
*Ul sababdin Havvoni dushman tutg'ay erdi. (R.)*
- SABIL** *a.* Yo'l.  
**Sabil qilmoq** Baxsh etmoq, bag'ishlamoq, bermoq.  
*Qazon osturub qildi qo'ylar qatil,  
Ki, molin ziyoratqa qilg'ay sabil. (S.I.)*
- SABO** *a.* Tonggi yengil shamol, tonggi mayin shabada.  
*Su yuzinda sabo kibi obir,  
Otini xalq aytibon Jobir. (S.S.)*
- SABR** *a.* O'zini tiya olish, kutish, bardosh, toqat.  
*Agar bir soat sabr qilsa edi, Havvo kelur erdi. (R.)*
- SABT** *a.* Yozish, qayd etish.  
*Sabt edikim, yururga qilsang mayl,  
Yaxshi, yo'qsa chekib sipoh Suhayl. (S.S.)*
- SABU** *f.* May solinadigan ko'zacha.  
*Sabuyi la'l birlan shishayi bayzou oltun jom,  
O'shal majlisda soqiy bir nigori siymtan bo'lsa. (F.)*
- SABU'** *a.* Yirtqich hayvon.  
*G'azabda – sabu', shahvat ichra – bahim,  
Agarchi erur odamizoda shayx. (N.Sh.)*
- SABUHIY** *a.* Ertalab, tongda ichiladigan may.  
*Kel, ey soqiy, keturgil xush sabuhiy,  
Kim ushbu dam erur jomning futuhi. (Mn.)*



**SABUK** *f.* Og'irligi kam, yengil.

*Ul minib zavraqi sabuksayre,  
O'ylakim suda sayr etar tayre. (S.S.)*

**SABUKPAY** *f.* Tezyurar, ildam.

*Ul po'yada markabi sabukpay,  
Olam-olam qilur edi tay. (L.M.)*

**SABUR** *a.* Sabr, to'zim, toqat, chidam.

*Saburdin yaxshi yo'qtur pesh qilsam,  
Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam. (Mn.)*

**SABZ** *f.* Yashil.

*Ul nadurkim, sabz to'nluq, yoz yog'ochning boshida,  
Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida. (U.)*

**SABZA** *f.* 1. Maysa, o't.

*Ichida beadam shajar butubon,  
Sabza o'rnig'a nilufar butubon. (S.S.)*

2. Yashil, yam-yashil.

*Sabza rayohin, anvoyi gullar, chechaklar kasratidin  
qo'rg'ong'a qo'ng'on chog'da tovuylarning parlaridek  
tovlanib, munaqqash ko'runur erdi. (Zm.)*

**SABZALIQ** Yam-yashil, o'tlar bilan qoplangan.

*Seshanba kun o'rdu to'g'risi sabzaliq orol bor ekandur. (Bn.)*

**SAD** *f.* Yuz (100).

**Sad hazor** Yuz ming.

*Biror ko'ngul g'amidin bo'lsa edi voqif do'st,  
Ne qayg'u dushman agar sad hazor bo'lsa edi. (S.)*

**SAD(D)** *a.* To'siq, devor.

*Eshiklar bog'labon har sori behad,  
Temur qufl anda mahkam, o'ylakim sad. (F.Sh.)*

**SADAF** *a.* Chig'anoqdan tayyorlanadigan, yaltiroq, tovlanuvchi modda.

*Xatdin anda dog'i bu sharaf,  
Xatti bo'lub gavharu xotam sadaf. (H.A.)*

**SADDAQ** *a.* To'g'ri, rost, chin, haqiqat.

*Chunki aning barcha so'zi haq durur,  
O'trusida el so'zi saddaq durur. (H.A.)*

**SADDAQA** *a.* To'g'ri, rost.

*Bu toifadin hech kishiga musallam tutub, saddaqa demakdin  
o'zga maqolu majol bo'lmag'ay. (M.L.)*

**SADPORA** *f.* 1. Yuz pora, pora-pora, chilpora. 2. *ko'ch.* O'kinchli, g'amli, alamli.

*Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari, bag'ri sadpora ekan mendek. (F.)*

**SADR** *a.* Boshliq, rais.

**Sadr aylamak** Boshliq etib tayinlamoq.  
*Garchi avval sadr aylab, bizni badnom ettilar,  
Lutf etib, oxir Hirida shayxulislom ettilar. (X.)*

**SAFAR** *a.* Sayohat qilish uchun biror yerga borish.

*To safar ahli ko'pi o'ldi talaf,  
Tushti har bir kema bir o'zga taraf (S.S.)*

**SAFHA** *a.* 1. Varaq; qog'oz.

*Olib ilgiga safhayu xoma,  
Qissa sharhini yozdi bir noma. (S.S.)*

2. Sahifa, bet.

*Bir xati gar egri tushar bir nuqat,  
Nusxada har safhadadur egri xat. (H.A.)*

3. Yuza, yuz, sath.

*Shom jahon safhasin aylab qaro,  
Pardai zulmat chu yopib el aro. (H.A.)*

**SAFID** *f.* Oq.

*Amoma boshida, safid jomalar,  
Xayol aylagaysizki, allomalar. (M.)*

**SAFO** *a.* 1. Xursandlik, shodlik; yaxshilik.

**Safo kelturdung!** Yaxshilik keltirding! (Kelgan mehmonga aytiladi.)

*Safo kelturdungu xush kelding, oxir,  
Qorong'u uyni ravshan qilding, oxir. (F.Sh.)*

2. **Obi safo** Tiniq suv, toza suv.

*Anhorida obi safo,  
Sebarga, obishor ekan. (M.)*

**SAFOBAXSH** *a.* -*f.* Shodlik baxsh etuvchi.

*G'azaldur safobaxshi ahli nazar,  
G'azaldur guli bo'stoni hunar. (Fuz.)*

**SAFOL** *f.* Sopol; sopol idish; sopol ko'za.

*Xarobot aro kirdim oshuftahol,  
May istarga ilgimda sing'on safol. (G'.S.)*

**SAFOLIQ** Xushhavo, havosi toza, yoqimli.

*Adibning yeri oti Yugnak erur,  
Safoliq ajab yer, ko'ngullar erur. (H.H.)*

- MAFSHIKAN** *a.* -*f.* Botir, qo'rqmas, jasur.  
*Bor ekandur Adanda javrfane,*  
*Javr qilmoq fanida safshikane. (S.S.)*
- SAGBON** *f.* It boquvchi, itboqar.  
*Raqib birla musohib qilma bizni,*  
*Quturg'on itga, sagbon hojat ermas. (A.)*
- SAHAR** *a.* Tong payti, tong, subhidam, azon.  
*Qolmadi yuz dardu g'am hamdam, musohib qoshima,*  
*Haq o'zi rahm aylagay, ohi sahar ko'z yoshima. (T.F.)*
- SAHBO** *a.* Qizil may.  
*Nasrin bargi to'kulsa sahbo,*  
*Kup yog'ini aylar oshkoro. (F.Sh.)*
- SAHL** *a.* Arzimas, sal, oz.  
*Bu iki bir nav' saxovat erur,*  
*O'rtasida sahl tafovat erur. (H.A.)*
- SAHN** *a.* Yuza, maydon.  
*O'ynab oqar obi ravon,*  
*Sahni gulu gulzor ekan. (M.)*
- SAHOB** *a.* Bulut.  
*Bu kunlar boshimizda bir sahob o'lsa ajab ermas,*  
*Munavvar zimmida bir oftob o'lsa ajab ermas. (Z.)*
- SAHOBA** *a.* Muhammad payg'ambarning suhbatdoshlari, yaqin safdoshlari.  
*Sahobadin Qusam ibn Abbos anda borg'ondur. (Bn.)*
- SAHRO** *a.* Suvsiz bepoyon dasht, cho'l, biyobon.  
*Alar ko'p yurdiyu sahrog'a kirdi,*  
*Gunashdin sahro ichra do'zax erdi. (S.Sar.)*
- SAHROYI** *a.* Qishloqda o'sgan, dashtda ulg'aygan, qishloqi.  
**Mardumi sahroyi** Qishloq kishilari, qishloqliklar.  
*Xo'ja so'zini munga bermay qaror,*  
*Mardumi sahroyi bo'lur beqaror. (M.)*
- SAHV** *a.* Xato, yanglish.  
*Sahv ila yolg'on demak ermas hisob,*  
*Bilgach ani chunki qilur ijtinob. (H.A.)*  
**Sahv ul-qalam** Qalam xatosi, yozuvdagi xato.  
*Yo'q-yo'q, emas bo'ylaki qildim raqam,*  
*Balki erur barchasi sahv ul-qalam. (H.A.)*
- SAJDA** *a.* Ibadat qilishda tiz cho'kib va bosh egib peshanani yerga tegizish.



*Qachon farishtalar sajda qildilar ersa, Iblisni ko'rdilar sajda qilmasdin turur. (R.)*

**Sajda qilmoq** *ko'ch.* Bosh egmoq, sig'inmoq, tiz cho'kmoq.  
*Tilarmen kim yuzungga sajda qilsam,  
Visoling qadrining shukrini bilsam. (Mn.)*

**SAJJODA** *a.* Joynamoz.

*May ustidagi xascha qilmon hisob,  
Agar su uza solsa sajjoda shayx. (N.Sh.)*

**SAK** *f.* It.

*Ko'rub suratda zohir shayxu so'fi, e'tiqod etma,  
Kirib masjidg'a chiqmoq birla qo'ymas (go'ng) yemakni sak. (T.F.)*

**SAKBON** *f.* Itboqar.

*Bo'yunlarig'a sakbon cheksa zanjir,  
Sog'inurlarmu zanjirimni bir-bir?(F.Sh.)*

**SALB** *a.* Inkor, inkor qilish.

*Aqrabolar suhbatimdin or edar, qoshin chatar,  
Salb dillarda, nazarlarda karih suprundiman. (T.F.)*

**SALIM** *a.* Sog'lom, sog', salomat.

*Tan xok esa xasmdin, salim angla ani,  
Zarbeki habib urar, alim angla ani. (N.J.)*

**SALIS** *a.* Ochiq, ravshan, ravon, silliq.

*Borcha serobu salisu dilkash,  
Tab' ahlig'a jalisu dilkash. (Shn.)*

**SALLA** *a.* Musulmon erkaklar bosh kiyimlari ustidan o'raydigan uzun mato, doka.

*Sallalari boshlarida oq savat,  
Ko'rpacha tagda hamavaqt uch qavat. (M.)*

**SALO** *a.* Nido, chaqiriq, xitob.

**Salo urmoq** Nido qilmoq, chaqirmoq, undamoq.  
*Sidq ila urg'onda salo ummati,  
Aytti «Kazzobuna lo ummati». (H.A.)*

**SALOH** *a.* 1. Biror ishning yaxshi tomonga o'zgarishi, yaxshilanish.

*Ki, chu ish, tushsa boshima yolg'uz,  
O'zga yanglig' topay salohig'a yuz. (S.S.)*

2. To'g'ri, ma'qul.

*Davlatxohlardin hech kim bizning anda qishlarimizni saloh ko'rmadilar. (Bn.)*

**SALOTIN** *a.* (*birligi sulton*) 1. Sultonlar, shohlar.

*Xuroson taxti aning tahti zabtida edi va Xorazm va Dorul Murz salotini anga mute' va munqod edi. (Bn.)*

2. *ko'ch.* O'ziga o'xshaganlar orasida eng zo'ri; shoh, sulton.

*Humo, uqob qarchig'ay, bahrin, lochin, itolg'u qushlarning salotinidurlar. (Zm.)*

**SALSABIL** *a.* Jannatdagi buloqning nomi.

*Go'yiyo ham jazirada bir shahr,*

*O'zi firdavsu salsabil anga nahr. (S.S.)*

**SALTANAT** *a.* Sulton qo'l ostidagi davlat, sultonlik, podshohlik.

*Buki sanga tengri berib imtiyoz,*

*Saltanat avjida qilib sarfarozi. (H.A.)*

**Saltanat qilmoq** Hukmronlik qilmoq.

*Bu tarixqacha uch kishi Hinduston viloyatig'a musallat bo'lub, saltanat qilibturlar. (Bn.)*

**SAMAND** *f.* Tezyurar ot, saman ot, saman.

**Samandi bodpoy** Tezyurar saman ot, uchqur ot.

*Kiyik erkin yururda rahnamoying?*

*Qulon erkin samandi bodpoying? (F.Sh.)*

**SAMAR** *a.* Meva; foyda.

*G'alla tugansayu qurusa shajar,*

*Xud sanga qolmas yana naf'u samar. (H.A.)*

**SAMO'** *a.* 1. Eshitish, tinglash.

*Baski samo'i g'azalu qavlu savt,*

*Bo'lubon ul kungi namoz elga favt. (H.A.)*

2. Darveshlar, mutasavviflarning zikr tushishi.

*Alisherbek qoshida mundoq mutasavviflar yig'ilib, vajd va samo' qilurlar ekandur. (Bn.)*

**SAMOVIIY** *a.* Samoviy, osmonga oid.

*Mehrkim, gulruxi samoviydur,*

*Nilufarvash libosi moviydur. (S.S.)*

**SAMUM** *a.* Issiq shamol, garmsel; yolqin, alanga.

**Samumi oh** Oh alangasi, oh-fig'on yolqini.

*Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin,*

*Kim esar ul dasht aro har yon qizil, sorig', yashil. (F.K.)*

**SAMUMOSO** *a. -f.* Garmselga o'xshash.

*Samumoso kelur har soridin yel,*

*Samum ichra samandarvash kezar el. (F.Sh.)*

**SANAD** *a.* 1. Dalil, hujjat; asos, tayanch.

*Xuroson fuzalosi va shuarosi qoshida aning daxli va so'zi mo'tabar va sanad edi. (Bn.)*

2. Bahona, vaj-korson.

*Zohirda muni sanad qildikim, Xalifa va Ibrohim Xoja qozining havodorlaridur. Mendin intiqom olg'ularidur. (Bn.)*

**SANAM** *a.* 1. Majusiylarning tosh, yog'och, metaldan yasaladigan ma'budi, but.

*Seni ko'rsa kechar tarso sanamdin, Vujudqa kelmadi sentek Odamdin. (Mn.)*

2. *ko'ch.* Go'zal, nozanin, barno.

*Men asru benavo, siz muhtashamsiz, Latifu noziku zebo sanamsiz. (Mn.)*

**SAN'AT** *a.* 1. Hunar, kasb.

*Amr qilibdur necha xizmat sanga, Ro'zi etibdur necha san'at sanga. (H.A.)*

2. Ustalik, mohirlik, mahorat, hunari.

*Ko'rki, erur egri aning xilqati, Birni iki ko'rmak erur san'ati. (H.A.)*

**SAN'ATOYIN** *a.* -f. San'atkor.

*Saodat birla tutqach anda taskin, Dedi: - Ey kordoni san'atoyin. (F.Sh.)*

**SANDAL** *a.* Tanasi qora-sariq rangli, xushbo'y hid taratuvchi daraxt.

*Sandal osoyishi ravon angla, Atri oning hayoti jon angla. (S.S.)*

**SANDON** *f.* Temirchilarning ustiga biror metalni qo'yib, urib ishlov beradigan temir kundasi.

*O'qi nogah agar sandong'a tekxa, Boshog'i itlanur sandon ichinda. (Mn.)*

**SANG** *f.* Tosh.

*Chidorg'a har nechakim ko'rguzub ko'p sa'i tish qisdim, Ushotib sangi shiddatin ayirdi borcha tishdin qish. (Og.)*

**SANGSORA** *a.* Toshbo'ron qilingan.

*Xaloyiqlar meni quvlar, yomon deb har shahar borsam, Ajab mardud, ajab mahrum, ajab sangsora Mashrabman. (Mash.)*

**SANJ** *f.* Ikki mis tovoqchasimon, birini biriga urib chalinadigan musiqqa asbobi.



*Qoqib ovuch sanj, qilib na'ra ko's,  
Ko'kka chekib nolai afg'on xuro's. (H.A.)*

**SANMAQ** 1. O'ylamoq, fikr qilmoq, fikrlamoq.

*Sanib so'zlagan er so'z sag'i,  
O'kush yangshag'an til unulmaz yag'i. (H.H.)*

2. ...deb o'ylamoq, ... deb hisoblamoq.  
*Gardishi davron berur har lahza yuz ming pechu tob,  
Har sori yeldim-yugurdum suv sanib mavji sarob. (T.F.)*

**SANO** a. 1. Maqtov, madh, hamd.

*Ishq mazhabig'a taqvi-yu toat chidayolmas,  
Tasbehu sano, zuhdu ibodat chidayolmas. (Mash.)*

2. Birovga yaxshi tilak tilash, duo qilish.  
*Agar kelsa ertin sanga ezguluk,  
O'kush qil, ul erning sanosin tila. (H.H.)*

**SANUBAR** a. 1. To'g'ri, tik o'sadigan, chiroyli bir daraxt.

*Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,  
Vafo qilg'an kishilarga vafo qil. (Mn.)*

2. ko'ch. Xushbichim, kelishgan.  
*Ayo bo'yi sanubar, chehrasi oy,  
Quyosh yanglig' jamoling olamoroy. (Mn.)*

**SAODAT** a. Baxt, tole, iqbol.

*Saodatni hunarg'a yor qilg'il,  
Hunardin bizni barxurdor qilg'il. (Mn.)*

**SAQ** Hushyor, sergak.

*Saq ersa begi elka tegmaz ilik  
Qali tegsa yetrur uqush o'g bilig. (Q.B.)*

**SAQAR** a. Do'zax, jahannam.

*Jannatu kavsar manam, ham do'zaxu saqar manam,  
Bir o'zumdurman bu dam, haft osmong'a sig'madim. (Mash.)*

**SAQINUQ** Taqvodor, dindor.

*Qali bo'lmasa beg saqinquq suzug  
Arig'siz bo'lur barcha qilqi uzug. (Q.B.)*

**SAQINCH** Tashvish, qayg'u, g'am.

*Qayu begda bo'lsa bu arquq qilinch  
Ishi barcha tetru sevinchi saqinch. (Q.B.)*

**SAQISH** 1. Sanoq, sanash. 2. Bamisoli, kabi, singari.

*Qali bo'lsa arslanqa it bashchisi.  
Bu arslan bo'lur barcha it saqishi. (Q.B.)*

**SAQLAMOQ** 1. Qutqarmoq, xalos qilmoq.

*Nuh aydi: «Bu kun kim ersani azobdin saqlaguchi yo'q izidin o'zga» (R.)*

**SAQLIQ** Hushyorlik, sergaklik.

*Eki neng turur elka bag'i beki  
Biri saqliq ul bir to'ru el ko'ki. (Q.B.)*

**SAQOQ** Iyak; bag'baqa.

*Yuzung nuri quyosh nurindin ortar,  
Saqoqing shu'lasi olamni o'rtar. (Mn.)*

**SAQCHI** Posbon, qo'riqchi.

*Qilich baldu bo'ldi bu el saqchisi  
Qilichin alir beg budun bashchisi. (Q.B.)*

**SAR** f. Bosh, kalla.

**Sar to sar** Boshdan oyoq, butunlay.  
*Yarodin jismi sar to sar ochib gul,  
Bu gullar qatra qonlardin sochib gul. (F.Sh.)*

**SARAFKANDA** f. Itoat etgan, bo'ysungan, bosh eggan.

*Andag'i bo'lub sarafkanda,  
Shah topib barcha bo'ldilar banda. (S.S.)*

**SARAN** Baxillik, xasislik, qizg'anchiqlik.

*Birisi evaklik, birisi saran,  
Uchunchi bushiliq serin o'z tiran. (Q.B.)*

**SARBALAND** f. Yuksak, baland, yuqori.

*Toj boshingdin bo'lubon sarbaland,  
Taxt ayoqingdin o'lub arjumand. (H.A.)*

**SARBASAR** f. Butunlay, tamoman, batamom.

*Qilibmen oncha isyonkim, agar do'zax aro kirsam,  
Mening behad gunohim birla do'zax sarbasar to'lg'ay.  
(B.V.)*

**SARD** f. Sovuq.

*G'urbat to'zi yopqon ruxi zardimnimu dey?  
Yo hajr chiqarg'on ohi sardimnimu dey? (B.)*

**SARF** a. Sarflash, ishlatish.

*Oh, bu umri kiromi, sarfi g'aflat ayladim,  
G'ussai behuda asbobi nadomat ayladim. (T.F.)*

**SARFAROZ** f. Yuksak, baland.

*Qaddikim naxli sarfarozi kelib,  
Husn bog'ida sarvinozi kelib. (S.S.)*

**SARGASHTA** *f.* Boshi aylangan, gangib qolgan, esankiragan.

*Erur sargashtai maqsudi imon yor gisui,*

*Kirib zohid so'ziga ushbu zunnoringni kuydurma. (Amir.)*

**SARHAD** *f. -a.* Chegara.

*Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog'lar, shimolida agarchi burun shaharlar bor ekan-dur. (Bn.)*

**SARHAVZ** *f. -a.* Katta hovuz.

*Hoji Zuhur ham O'rdada,*

*Sarhavzlar, oliy sada,*

*Borsa agar bir g'amzada,*

*Jonig'acha esor ekan. (M.)*

**SARI** Tomon, taraf.

*Ul sari azm qilg'ali Nu'mon,*

*Ham muayyan bor erdi vaqtu zamon. (S.S.)*

**SARIR** *a.* Taxt.

*Ki, o'lmasdin burun ochib ko'zumni,*

*Sarir uzra yigit ko'rsam o'zumni. (F.Sh.)*

**SARIG'** Samon rangidagi, sariq.

*Ul sababdin Odam o'g'lonlari bir-biringa mengzamazlar, kimi qora, kimi sarig'...(R.)*

**SARKASH** *f.* 1. O'jar, qaysar; bebosh, itoatsiz.

*Fitnaning o'tini so'ndurgan ul,*

*Kimki sarkash, ani ko'ndurgan ul. (Shn.)*

2. *ko'ch.* Tik o'sgan, adil.

*Niholi hebari sarkashdurur avomunnos,*

*Ne sud topmasa ma'nig'a ittisol kamol. (K.)*

**SARKASHLIK** Qaysarlik, o'jarlik; beboshlik, itoatsizlik.

*Kishikim, istasa sarkashlik etmak,*

*Boshi yo'lungda aning tuz bo'lsun. (Og.)*

**SARKOR** *f.* Boshliq, sardor.

*Bo'lg'ay o'shal Burhon omon,*

*Yaxshi yigitdur begumon,*

*Xursand qildi nogahon,*

*Mingboshi Xol sarkor ekan. (M.)*

**SARKO'B** *f.* 1. Bosh uruvchi, boshini yoruvchi.

*Anomg'a bu xabardin tushsa oshub*

*G'amimdin xora uzra bo'lsa sarko'b. (F.Sh.)*

2. Qal'a atrofidagi baland tuproq uyumi, tepacha.

*Buyruldikim, ikki-uch yerda sarko'blar yasab, naqblar solg'aylar. (Bn.)*

**SARMAD** *f.* Abadiy, doimiy.

*Gar ul mahbub vasli bo'ldi ummid,  
Budur iqboli sarmad, baxti jovid. (F.Sh.)*

**SARMASTONA** *f.* Mastlarcha, mast holda.

*Boshlab ul majma'da asrori shigarf,  
Fosh qildi bo'yla sarmastona harf. (L.T.)*

**SARMOYA** *f. -a.* Boylik, mol-mulk, davlat.

*Garchiki, yo'q shavkati sarmoyasi,  
Sendin erur ortuq aning poyasi. (H.A.)*

**SARNAVISHT** *f.* Taqdir, qismat, yozmish.

*Ki, ey dard-u alam birla sirishting,  
Azaldin ishq bo'lg'on sarnavishting. (F.Sh.)*

**SARNIGUN** *f.* Boshi egilgan, boshi quyi.

*Xomaki tuzlukka erur rahnamun,  
Kesilibon boshi bo'lur sarnigun. (H.A.)*

**SAROB** *f.* Cho'l yoki sahroda nurning sinishi natijasida uning mavjlanishining suv kabi ko'rinishi.

*Gardishi davron berur har lahza yuz ming pechu-tob,  
Har sori yeldim-yugurdum suv sanib mavji sarob. (T.F.)*

**SAROMAD** *f.* Ilg'or, peshqadam.

*Jang-sangda va yatimlikta xira va saromad edilar. (Bn.)*

**SAROPARDA** *f.* Podshoh chodiri.

*Farshi saropardasi yozi yobon,  
Qush paridin boshi uza soyabon. (H.A.)*

**SAROSAR** *f.* 1. Boshdan oyoq, butunlay, to'liq, hammasi.

*Ey, yuzi qaro, ko'zi ko'r, qulog'i kar beklar,  
Bilingiz bu so'zumi pand sarosar beklar. (T.F.)*

2. Ustma-ust, birin-ketin, ketma-ket.

*Savol etkay sarosar ta'naomez,  
Itiklik ichra har bir xanjari tez. (F.Sh.)*

**SAROY** *f.* Hashamatli katta bino, koshona, qasr.

*Atoyig'a bo'sag'angdin o'run ber,  
Saro-yu koxu ayvon hojat ermas. (A.)*

**SARPANJA** *f.* Qo'l panjalari, barmoqlar.

*Lutf qo'lin holinga hamdast etay,  
Xasmni sarpanja bila past etay. (H.A.)*

**SAROG'OZ** *f.* Boshlash.

*Yer o'pdi kordoni naqshpardoz,  
So'zun qildi duo birla sarog'oz.* (F.Sh.)

**SARRISHTA** *f.* Ishning borishi, ishning mohiyati.

*Yana har necha boqsang, ko'rmagung hech,  
Ishing sarrishtasig'a tushmagay pech.* (F.Sh.)

**SARSON** *f.* Ovora, sargardon.

*Osh yesalar o'rtada sarson ilik,  
Xo'ja-chirog' yog'i, Hakimjon – pilik.* (M.)

**SARTO-SAR** *f.* Boshdan oyoq.

*Oni sarto-sar havodis xayli manzil aylamish,  
Bexavotir sayr qilg'udek fazosi yo'q oning.* (Og.)

**SARV** *f.* Tik o'sadigan, qishda ham yashil bo'lib turadigan chiroyli bir daraxt.

*Yuzidin bargi gul xijil erdi,  
Qaddidin sarv munfail erdi.* (S.S.)  
**Sarvi gulrux ko'ch.** Gul yuzli, go'zal, nozanin.  
*Qoshig'a qo'ydi bir-ikki gulxad,  
Sarvi gulruxqa hamdamu hamqad.* (S.S.)

**SARVAR** *f.* Yo'l boshchi, yetakchi, rahbar.

*Siz edingiz millati chin rahbari,  
Turmushu insonni butun sarvari.* (H.)

**SARVINOZ** *f.* Go'zal ma'shuqa, go'zal yor.

*Qaddikim, naxli sarfarozi kelib,  
Husn bog'ida sarvinozi kelib.* (S.S.)

**SARVQAD** *f. -a.* Qaddi-qomati sarvnikiday go'zal, xushqomat, qomati kelishgan.

*Qaysi ra'no sarvqadg'a qumriye bor men kibi?  
Qaysi qumrining qadingdek sarvi xushraftori bor?.* (Mu.)

**SARVQOMAT** *f. -a.* Qaddi-qomati kelishgan, xushqomat.

*Atoyi, sen kimu ul sarvqomat,  
Ilik yetmas, ne hosil qo'lni sunmoq.* (A.)

**SARXAT** *f. -a.* Shogird uchun muallim tomonidan yozib beriladigan o'rnak xat; xat namunasi.

*«Boburiy xati» bila bitilgan sarxatlar bitildi.* (Bn.)

**SARXAYL** *f. -a.* Boshliq, yetakchi, yo'l boshchi.

*Deyolmasmenki, Xusrav yo Nizomiy,  
Va yo nazm ahlining sarxayli Jomiy.* (F.Sh.)



**SARXUSH** *f.* Kayfi bor, kayf qilgan, mast.

*Sen chu bo'lub sarxushu xilvatgaroy,  
Anda qilib har ne tilab nafsu roy. (H.A.)*

**SARG'ARMOQ** Sarg'aymoq.

*Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,  
Ko'rub, rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim. (B.)*

**SAS** Ovoz, tovush.

*Bunda turdi har ulusning har sasi,  
Butxonasi, o't uyasi, ka'basi. (Fit.)*

**SAVAT** *f.* Chiviqdan to'qilgan idish.

*Sallalari boshlarida oq savat,  
Ko'rpacha tagda hama vaqt uch qavat. (M.)*

**SAVDAR** Xizmatkor.

*Navkar va savdar va chokar jami' cherik bila bo'lg'onlar o'n  
ikki ming kishi qalamg'a keldi. (Bn.)*

**SAVDO** *a.* 1. Mashaqqat, kulfat, g'am-tashvish, tashvish.

*Umr kechti qamug' savdo ichinda,  
Necha yuzgay kishi daryo ichinda. (Mn.)*

2. Biror kimsa yoki narsaga bo'lgan ehtiros, shaydolik.

*Topqamen shoyad ushbu savdoda,  
Gavharimdin nishona daryoda. (S.S.)*

3. Orzu, havas, istak.

*Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana,  
Tiyra bo'ldi ro'zgorim ul qaro qoshdin yana. (B.)*

**Savdo ahli** Ishq ahli, oshiqlar.

*Dedikim: «Ishqdin yo'q juz ziyon bud»*

*Dedi: Bu keldi savdo ahlig'a sud». (F.Sh.)*

**SAVOB** *a.* To'g'ri, xatosiz.

*Ko'p qilib fikr topti ra'yi savob,  
O'qug'on nomag'a bitidi javob. (S.S.)*

**SAVOD** *a.* Qora, qoralik.

*Salomikim ko'ngul jonona aysa,  
Yorur ko'zlar savodidin bitisa. (Mn.)*

**Savod aylamak** Yozmoq, bitmoq.

*Xating ishtiyoqin savod ayladim,  
Ko'zumning qorasin midod ayladim. (N.)*

**SAVOHIL** *a.* (*birligi sohil*) Qirg'oqlar; sohillar; qirg'oq.

*Yo'q savohil ichinda rahzan ul,  
Bahr aro ham anga kelib fan ul. (S.S.)*

**SAVOL** *a.* So'roq, so'rash.

**Savol aylamak** So'roq qilmoq.

*Negaki, chun hashr kuni zuljalol,  
Zolimu mazlumni aylar savol. (H.A.)*

**SAVOSH** 1. Urush, jang. 2. Olishish, mushtlashish.

*Qila boshlab aning birla parxosh,  
Ishlari kema ichra bo'ldi savosh. (S.S.)*

**SAVOSHMOQ** Urushmoq, jang qilmoq.

*Xon dog'i o'zi savoshti bisyor,  
O'q bila bo'ldi base korguzor. (Shn.)*

**SAVSAN** *f.* Binafsha yoki sariq gulli bir o'simlik va uning guli, gulsapsar. **Savsani ozod** uzun gulsapsar.

*Til chekib ul xanjari po'loddek,  
Ochilibon savsani ozoddek. (H.A.)*

**SAVT** *a.* Tovush, ovoz, un.

*Sher eshitib aning ilhonini,  
Fahm qilib, savtida yolg'onini. (F.Sh.)*

**SAXIY** *a.* Qo'li ochiq, jo'mard.

*Anda shohi saxiyu donishvar,  
Qabzai hukmi ichra ul kishvar. (S.S.)*

**SAXO** *a.* 1. Saxiylik, saxovat, qo'li ochiqlik.

*Xayru saxo vajhig'a kar,  
Bir pulni yuz yerdin tugar. (M.)*

2. Saxiy, saxovatli, qo'li ochiq.

*Oni dog'i dema saxokim, kishi  
Nechaki isrof emastur ishi. (H.A.)*

**SA'Y** *a.* Tirishish, harakat, urinish, sa'y-harakat.

*Sidq bildi yaqin aning so'zini,  
Sa'y ila asray olmadi o'zini. (S.S.)*

**Sa'y etmak** Harakat qilmoq, tirishmoq, urinmoq.

*Suvni kelturmakka sa'y etmak base lozimdurur,  
Bo'lmasa taqvoyu toat topmas iste'mol suv. (K.)*

**SAYD** *a.* 1. Ov, shikor.

*Sayd qasdig'a o'yla qo'ydi ko'ngul,  
Ki, aduv chiqti yodidin bilkul. (S.S.)*

2. Ovlanadigan narsa, ov qilinadigan jonivor.

*Go'yiyo saydlardin ul jangal,  
Voqe' erdi to'la bug'uvu maral. (S.S.)*

3. Ovchining ovda qo'lga kiritgan o'ljasi.

*Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan mendek,  
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek. (F.)*

**SAYDGAR** a. -f. Ovchi.

*Bir kun aning qasdig'a bir saydgar,  
Hodisa domin yoyib erdi magar. (H.A.)*

**SAYL** a. Sayr, kezish, aylanish.

*Shu on kelturdilar chohqa Suhaylni,  
Guldursun boqibon to'xtatti saylni. (S.Sar.)*

**SAYQAL** a. Tozalaydigan, tozalagich.

*Kel, ey soqiy, nazardin solmag'il kel,  
Ketur ul mayki, bo'lg'ay bizga sayqal. (Mn.)*

**SAYR** a. Kezish, aylanish, aylanib tomosha qilish.

*Ul minib zavraqi sabuksayre,  
O'ylakim suda sayr etar tayre. (S.S.)*

**SAYRAMAK** 1. Xonish qilmoq, yoqimli ovoz chiqarmoq.

2. Chiroyli so'zlamog, ajoyib tarzda yoqimli so'zlamog.  
*Sening ishqingda sayrarga Xorazmiy,  
Bu kun olamda bir bo'ston yo'q, ey jon. (Mn.)*

**SAYU** Sayin.

*Kun sayu Jabroil kelib yorliq tegurur erdi. (R.)*

**SAYYOD** a. Ov bilan shug'ullanuvchi, ovchi.

*Dona bila su sari qilg'och xirom,  
Tortti sayyod aning ustiga dom. (H.A.)*

**SAYYOL** a. Oqadigan, oquvchi; suyuqlik.

*Ul iki lab hajrida maykim, ilojig'a hakim  
La'l ila yoqutni mahlulu sayyol aylamish. (N.Sh.)*

**SAYYOR** a. Sayr qiluvchi, kezuvchi.

*Bir necha zavraq asrabon tayyor,  
Yangi oy zavraqi kibi sayyor. (S.S.)*

**SAYYORA** a. Sayr qiluvchi, kezuvchi; sarson.

*Kim aningdek Suhayli sayyora,  
Charx zulmidin o'lg'ay ovora. (S.S.)*

**SAZA** f. Sazavor, loyiq, munosib.

*Beglikka saza bo'lg'uteg beg nekuteg kerakin aytur. (Q.B.)*

**SAZO** f. Jazo.

*Xanjari ko'krak aro kirguchidur,  
Qoba ko'krakka sazo berguchidur. (Bn.)*

**SAZOVOR** f. Loyiq, munosib.

*Munchaki chirmosh bila dastordur,  
Bosh uza chiqmoqqa sazovordur. (H.A.)*

**SAG'** 1. O'ng, o'ng taraf.

*Jabroil tizgin tutub, Mekoil sag'indin, Isrofil so'lundin bo'lub ko'klarni kezdilar. (R.)*

2. To'g'ri, chin.

*Sanib so'zlagan er so'z sag'i,*

*O'kush yangshag'an til unulmaz yag'i. (H.H.)*

**SAG'RAQ** Idish; qadah.

*Lola sag'raqin icharda sayrar usrub sanduvach,*

*Turna un tortib o'tarda sakrashur baqlan, qo'zi. (R.)*

**SEBARGA** f. Bargi uch bo'lakli, bedasimon ko'p yillik o't.

**Sebarga javshan** Metall yaproqchalardan yasalgan zirh.

*Marz uzra kiyar sebarga javshan,*

*Shashpar ko'tarur boshig'a savsan. (F.Sh.)*

**SEB** f. Olma. **Sebi zanaxdon** Bag'baqa.

*Iloj aylay desang qo'y islayin sebi zanaxdoning,*

*Mengakim sunbulung savdosidin za'fi dimog' o'lmish.*

*(N.Sh)*

**SEKKIZ** Sakkiz.

*Yetti do'zax anda bir uchqun kibi,*

*Sekkiz uchmog' anda bir shudrun kibi. (L.T.)*

**SEKSAN** Sakson.

*Nuh ul seksan kishi mo'min birla kemiga kirdi. (R.)*

**SEL** a. Shiddatli yog'in; jala.

*Kelib ko'ngluma Majnun, Layli yodi,*

*Dafotir ustina so'z seli yog'di. (S.Sar.)*

**SELOB** a. -f. Toshqin; sel.

*Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima,*

*Xonumon ovora, selobi havodis surdiman. (T.F.)*

**SENSIZIN** Sensiz.

*Kishining sensizin ne joni bo'lsun,*

*Aningtek umrning ne soni bo'lsun. (Mn.)*

**SENCHA** Sendagidek; sendek, senchalik, sen kabi.

*Birida sencha ko'rmadim jur'at,*

*Jur'ating bo'ldi maxlasingg'a jihat. (S.S.)*

**SENCHMAK** G'alaba qilmoq, zafar qozonmoq, yengmoq.

*Bu saqliq bila senchti beglar yag'i*

*O'salliq bila buzdi beglik bag'i. (Q.B.)*

**SERINMAK** Bardosh bermoq, chidamoq.

*Birisi evaklik, birisi saran*

*Uchinchi bushiliq serin o'z tiran. (Q.B.)*

**SEROB** *f.* 1. Ko'p, mo'l.

*Turki abyoti erur sharbati nob,  
Forsiy she'rlari ham serob. (Shn.)*

2. ko'ch. Porloq, yaltiroq.

*Bu duri serobni xor aylama,  
Buxl hisobida shumor aylama. (H.A.)*

**SERCHASMA** *f.* Buloqlari ko'p, chashmalari mo'l.

*Chun shahrdin chiqdim Qudash  
Ko'ngul bo'lub mahzunu g'ash,  
Majnunsifat, devonavash,  
Serchashmayu kamchang ekan. (M.)*

**SESKANMAK** Keskin qimirlamoq, cho'chimoq.

*Vahm ila seskanmak edi sher ishi,  
O'tturur erdi bolasig'a tishi. (H.A.)*

**SEVAR** Sevuvchi, yaxshi ko'ruvchi.

*O'kush sevmaguchi sevari az ul  
Kerishi telimrak eraji az ul. (Q.B.)*

**SEVDIK** Sevgili, yor.

*Gerak o'ldur, gerak qo'y, hukm-hukmung, roy-royindur,  
Ko'zum, jonim, afandim, sevdigim, davlatli sultonim. (Fuz.)*

**SEVGI** Ishq, muhabbat.

*O'lurmu sevgi ham bil, shundin ortuq,  
Ki, ikkisi qilur jonini tortuq. (S.Sar.)*

**SEVUK** Suyukli, sevimli.

*Agar uziyur bo'lsa, o'zindin yaratilg'anin bilmasa, ani  
sevmagay erdi. Har oyina ul sevukrak bo'lg'ay. (R.)*

**SEVUKLUK** Sevikli, sevgili, ma'shuqa.

*Odam Havvoni o'zindin yaratilg'anin ko'rdi ersa sevuklugi  
ko'nglunga tushdi. (R.)*

**SEVULMAK** Sevilmoq, hurmat qilinmoq, yoqmoq.

*Ey elig bu qach neng kerak begka ko'r  
Budunqa sevulsa o'run bo'lsa to'r. (Q.B.)*

**SEVUNMAK** Sevinmoq, shod bo'lmoq.

*O'qig'il fotiha, dur qibla yoni  
Sevunsun banda Xorazmiy ravoni. (Mn.)*

**SEVUNCHLUG** Xursand bo'lgan, sevingan.

*Sevunchlug tut, ey beg qilich urg'uchig'  
Sevunchin tilin tutchi ko'rma achig'. (Q.B.)*

**SEZIKSIZ** Shubhasiz, muqarrar, albatta.

*O't izti budunqa buzuldi eli*

*Yiqildi seziksiz bu beglik uli. (Q.B.)*

**SEZMAK** 1. Fahmlamoq, bilmoq, payqamoq.

*Uyanib bildi shunda tush ekanin,*

*Va sezdi botg'anin anduh tikanin. (S.Sar.)*

2. His etmoq.

*Suhayl boshin ko'tarib ko'rdi qizni,*

*Qul emas podshoh deb sezdi o'zni. (S.Sar.)*

**SIDQ** a. 1. Chin, rost.

*Har nechakim rost fig'on ayladi,*

*Sidqni ham kizb gumon ayladi. (H.A.)*

2. To'g'rilik, rostlik.

*Sidq ila urg'onda salo ummati,*

*Oyati «Kazzobuna lo ummati». (H.A.)*

3. Sadoqat, sodiqlik.

*Aningkim sidqi bo'lsa sizga zohir,*

*Ani sizteklar asrar bo'lur oxir. (Mn.)*

**SIDRA** a. Diniy e'tiqodga ko'ra yettinchi osmondagi bir daraxt.

*Qaysi habib ulki, falak xokidur*

*Sidrau to'biy – xasu xoshokidur. (H.A.)*

**SIFAMAQ** Siypamoq, siypalamoq, silamoq.

*Nuh ilkin arslan bashing'a sifadi. (R.)*

**SIFAT** a. 1. Xislat, xususiyat.

*Shahlar aro bo'yla sifat kam durur,*

*Kim shahi G'oziyig'a musallam durur. (H.A.)*

2. O'xshash, monand.

*Bu sifat mehri olamfuruze,*

*Mehr yo'q, shu'lai jahonso'ze. (S.S.)*

**SIFLA** a. Pastkash, past, nokas.

*Bu shahi asrida ko'p siflavu bangilar bek. (T.F.)*

**SIFLIY** a. Past, tuban.

*Jon Odamning boshi uza turuqti, kirgali unamadi.*

*«Men ulviyman, sifliyg'a netak kirayin», tedi. (R.)*

**SIFOT** a. (birligi sifat) Sifatlar, xususiyatlar.

*Bor erdi shoh qizi Guldursun oti,*

*Tilim evrulmas aytmog'a sifotin. (S.Sar.)*

**SIHHAT** a. Sog'lik, sog'lomlik, sihat. **SiHHat bo'lmoq** Sog'aymoq.

*O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi.*

*Ul sihhat bo'lub qo'пти. (Bn.)*

- SIHI** *a.* Tik, baland.  
*Bog'im ichra sarvi sihi sheva ul,*  
*Balki quruq naxlim aro meva ul. (H.A.)*
- SILIG** Pok, olijanob, yaxshi, xush, yoqimli.  
*Bu beglik iginga o'ti o'g bilig,*  
*Uqush birla emla ey qilqi silig. (Q.B.)*
- SILIGLIG** Olijanoblik, poklik.  
*Uqushlug' kerak ham biliglig kerak*  
*Aqiliq kerak ham siliglig kerak. (Q.B.)*
- SILK** *a.* Qator, saf, o'rin.  
*Vardu shajar shohid erur bog' aro,*  
*Lek o'tun silkidadur tog' aro. (H.A.)*
- SILKINMAK** O'z gavdasini qattiq tebratmoq.  
*G'azoldek silkinib qochti parivash,*  
*Suhayl ko'ngluga tashlab katta otash. (S.Sar.)*
- SILOH** *a.* Qurol, qurol-yarog'.  
*Ulum avroqi chun bir-bir yopildi,*  
*Dilovarliq silohi mayli qildi. (F.Sh.)*
- SIMOB** *f.* Suyuq holdagi kumush rang bir og'ir metall.  
*Qo'zg'atar bo'lsa agar ganju sipohin yukini,*  
*Larzag'a kelgay simobdek qo'zg'almas tog' ham. (S.Sar.)*
- SINAMOQ** Tekshirib ko'rmoq, tekshirmoq.  
*Neku ter eshitgil O'tukan begi*  
*Sinab so'zlamish so'zni yetrub o'gi. (Q.B.)*
- SINGAK** Ari, sariq kichik ari.  
*Singak aydi: «Qamug' etlardin odamiy eti totlig' turur». (R.)*
- SINGIR** Pay.  
*So'ngak, et, teri, tomur, singirlar bilgurdi. Tebranu boshladi.*  
*(R.)*
- SINJOB** *f.* 1. Silovsin. 2. Silovsin mo'ynasidan tikilgan kiyim.  
*Havo dog'i bulutdin kiydi sinjob,*  
*Bulut dog'i havog'a sochdi siymbob. (F.Sh.)*
- SINMAQ** 1. Ushalmoq, parchalanmoq.  
*O'nginda tushdakim ko'rganda u shod,*  
*Alam toshi sinib, dil bo'ldi ozod. (S.Sar.)*  
 2. Shikast topmoq, shikastlanmoq.  
*Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur,*  
*Ki, aning chiqsa egni, sinsa ali. (A.N.Qit.)*

**SINON** *a.* Nayza.

*Alar javshani barcha qolqonduruq*

*Sinon qo'llarida nechukkim suruq. (S.I.)*

**So'z sinonin chekmak** Yozmoq.

*Alar o'trusida men ham chekib tig'.*

*Chekarga so'z sinonin qilg'amen big'. (F.Sh.)*

**SINUQ** *Singan, siniq.*

*Garchi sinuq igna haqqunnosdur,*

*Bag'ring aro xanjari olmosdur. (H.A.)*

**SIPAH** *f.* lashkar, armiya.

*Men bo'lub kema ichra bahrxiom,*

*Sipahim birla tutmasam orom. (S.S.)*

**Sipah chekmak** Qo'shin tortmoq, harbiy yurish qilmoq.

*Sen qurug'luq bila sipah cheksang,*

*Charx uza avji borgah cheksang. (S.S.)*

**SIPEHR** *f.* 1. Osmon, osmon gumbazi, falak.

*Yuziga mehr bandau oti Mehr,*

*Uyrulub mehrdek boshig'a sipehr. (S.S.)*

2. *ko'ch.* Taqdir, qismat.

*Bal haqiqat aro aningdur Mehr,*

*Ki, bu mansuba zohir etti sipehr. (S.S.)*

**SIPOH** *f.* 1. Qo'shin, lashkar, askar.

*Zol dedikim: «Jam bila Zahhokcha johi aning,*

*Ikki Skandarcha sipohi aning. (H.A.)*

2. Shahmat o'yinida shoh va piyodalardan boshqa donalar, (fil, ot, rux, farzin).

*Borcha shatranj shohining sipahi,*

*Ko'rki, bormu hisob ichinda shahi. (S.S.)*

**SIPOHIY** *f.* -*a.* Jangchi, askar.

*Sipohiyilar qilolmay qoldi chora,*

*Faqat qoldurdi bu g'am dilda yora. (S.Sar.)*

**SIPQORMOQ** Bir simirishda ichmoq, qoldirmay ichmoq.

*Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zumdin boray,*

*Shart bukim, har necha tutsang labolab sipqoray. (M.L.)*

**SIQRIMAQ** Faryod chekmoq, nola qilmoq, fig'on qilmoq.

*Siqrib uni yurlayu,*

*Sig'tab ko'zi o'rtulur. (D.L.T.)*

**SIR** *a.* O'zgalarga noma'lum bo'lgan voqea, hodisa.

*Alar uzra to'kuldi, ko'mdi tuproq,*

*Bu sirni tanho sahro bildi ko'proq. (S.Sar.)*



**SIRA** Mutlaqo, aslo, hech.

*Va oni tashladilar katta chohqa,  
Sira osmay alar go'sh ohu vohqa. (S.Sar.)*

**SIRF** *f.* Zulm, jabr, jafo, haqsizlik.

*Siyosatlariki aylar shohi jabbor,  
Mening sori durur har sirfkim bor. (F.Sh.)*

**SIRISH** Yelim, kley.

*Paykari erdi odami monand,  
Latta birla sirishdin payvand (S.S.)*

**SIRISHK** *f.* Ko'z yoshi, yosh.

*Dahr zulmidin sirishki tinmay oqib aylanur,  
Charx javridin boshida osiyo, deb axtaring. (M.)*

**SIRISHT** *f.* Yaratilish, tabiat, xulq.

*Ki, ey dardu alam birla sirishting,  
Azaldin ishq bo'lg'on sarnavishting. (F.Sh.)*

**SIROT** *a.* Jahannam ustidan o'tadigan qil ko'prik, puli sirot.

*Dunyo uchun g'am yema, haqdin o'zgani dema,  
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro. (A.Y.)*

**SIROYAT** *a.* Ta'sir qilish, ta'sir; o'tish, yuqish.

*Kim etsa darddin oz-oz rivoyat,  
Qilib ul dard anga ko'p-ko'p siroyat. (F.Sh.)*

**SITAM** *f.* Jabr, zulm, jabr-u jafo.

*Ochibon elga sitam avbobini,  
Qilg'ali paydo tarab asbobini. (H.A.)*

**Sitam ahli** Zolimlar, zulmkorlar.

*Murodingg'a yetay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l,  
Sitam ahlin yutay desang qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
(Mash.)*

**SITEZ** *f.* Dushmanlik, xusumat.

*Kimga tikan bila qilibsen sitez,  
Urg'usidur ko'ksungga yuz tig'i tez. (H.A.)*

**SITORA** *f.* Yulduz.

*Bo'ldi sitorasi isig' xulqig'a mehri yori garm,  
Manda isig, sitora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay. (Og.)*

**SIYAR** *a.* (birligi **siyarat**) Xislatlar, xulqlar; ichki dunyo, botin.

*Razmitondin o'ta tushgay lashkar,  
Dedi sultoni pisandida siyar. (Shn.)*

**SIYASAT** *a.* 1. Davlatni, xalqni boshqarishda tutilgan yo'l.

*Siyasat bila beg tuzar el to'ru  
Qara qilqi ethur siyasat ko'ru. (Q.B.)*

2. Qo'rqituv, qo'rqitish.

*Esizka siyosat yuritg'u kerak*

*Budun bulg'anuqin siyosat suzar. (Q.B.)*

**SIYM** f. 1. Kumush; kumush tanga.

*Dedi: «Qisos aylasang olingda bosh,*

*Siymini ol, gar g'arazingdur maosh. (H.A.)*

2. ko'ch. Oq, oppoq.

*Muhabbat nori jondin ketmadi hech,*

*Qo'lum siym olmangizg'a yetmadi hech. (Mn.)*

**SIYMBAR** f. Badani kumushdek oq, oqbadan, go'zal, zebo.

*Siyam kuchidin bo'lubon siymbar,*

*Xalq laqab aylab anga "Zoli zar". (H.A.)*

**SIYMTAN** f. -a. Oq badan, oppoq, go'zal.

*Sabuyi la'l birlan shishayi bayzou oltun jom,*

*O'shal majlisda soqiy bir nigori siymtan bo'lsa. (F.)*

**SIYOQ** a. Arifmetika, hisob.

*Siyoyq ilmuni bilur edi, vale tab'i zulm va fisqqa moyil edi.*

*(Bn.)*

**SIYOSATLIG'** Qattiqqo'l, talabchan.

*Tariqatg'a siyosatlig' murshid kerak,*

*Ul murshidg'a e'tiqodlig' murid kerak. (A.Y.)*

**SIYT** a. Ovoza, shuhrat, dovruc.

*Ul yerda bog' yasarg'a amorat siytin solg'an amirzodalar,*

*balki saltanat ko'sin cholg'an shahzodalar. (V.)*

**SIYURMAQ** Sindirmoq.

*Tiling bekta tutg'il, tishing sinmasun,*

*Qali chiqsa, bekta tishingni siyur. (H.H.)*

**SIZ** 1. Ko'pchilikka nisbatan murojaatda ishlatiladi.

*Ki, kerak bo'lsa sizga jon ketingiz!*

*Qaydakim ko'nglunguz tilar yetingiz. (S.S.)*

2. Bir shaxsga nisbatan hurmat bildiradi.

*Evurman yuz nechakim kelsa mehnat,*

*Jafo sizdin tag'i bizdin muhabbat. (Mn.)*

**SIZMOQ** Chizmoq.

*Hamono qolmas o'z holida rangi,*

*Sizarda suratingni ko'rsa naqqosh. (F.K.)*

**SIG'INMOQ** Yaqinlashmoq, yondashmoq.

*Yaqin sig'inib kelib, ikki qulog'idin keyingi chakkasiga - o'q*

*choptim, kekirtaki - o'q ilinib qoldi. (Bn.)*

**SIG'OR** *a.* (*birligi sag'ir*) Kichiklar, go'daklar, kichik yoshdagi bolalar.

*Olam aro muncha sig'oru kibor,*

*Men bo'layu sen bo'lu har kimki bor. (H.A.)*

**SIG'TAMAQ** Yig'lamoq.

*Siqrib uni yurlayu,*

*Sig'tab ko'zi o'rtulur. (D.L.T.)*

**SOAT** *a.* 1. Bir kecha-kunduzning yigirma to'rtidan biriga teng vaqt.

*Agar bir soat sabr qilsa erdi, Havvo kelur erdi. (R.)*

2. Vaqt, payt.

*Emdi mav'id falon kun o'ldi yaqin,*

*Azm uchun soat ayladuk tay'in. (S.S.)*

**SOBIR** *a.* Sabr qiluvchi, sabrli, to'zimli.

*Bekase, mushti xase, bir bandai bechoraye,*

*Sobiram, ro'zi qazo, tiyri balog'a ko'ndiman. (T.F.)*

**SODIQ** *a.* 1. Sadoqatli, vafodor.

*Xotun sodiq, ani sevgil aziz er,*

*Har og'ir ishda ham doim seni der. (S.Sar.)*

2. Rost, to'g'ri.

**Muxbiri sodiq** To'g'ri xabar yetkazuvchi (Muhammad payg'ambarning sifati).

*Ulki habibim dedi xoliq ani,*

*Derlar ulus muxbiri sodiq ani. (H.A.)*

**SOF** *a.* Boshqa narsa aralashmagan, toza.

*Qiblagoho, mandin ikroh etma bir mayxoradin,*

*Jo'sh pur xum sof maysan, man g'ubori durdiman. (T.F.)*

**SOHIB** *a.* Ega, xo'jayin.

**Sohibi fan** Dono, donishmand.

*Ishq ul nurdur, ey sohibi fan,*

*Kim erur o'zluqi birla ravshan. (Shn.)*

**SOHIBQIRON** *a.* 1. G'olib, muzaffar; jahongir.

*Ayo sohibqiron kim uzarlar,*

*Qilichingdin aduvar qon ichinda. (Mn.)*

2. Boshqalar ichida eng zo'r; sulton, shoh.

*Latofat mulkinging sohibqironi,*

*Muvofiq surating birla maoni. (Mn.)*

**SOHIL** *a.* Suv cheti, qirg'oq, bo'y.

*Boshlabon ul cherikni sohil ila,*

*Su yaqosidag'i manozil ila. (S.S.)*

**SOHIR** a. 1. Sehrgar, jodugar.

2. Ajoyib san'atkor.

**Sohiri hind** Hind san'atkori, Hindistonlik buyuk so'z ustasi (Xisrav Dehlaviy).

*Biri mu'jizbayonliq sohiri hind,*

*Ki ishq ahlini o'rtar so'zu holi.* (A.N.Qit.)

**SOILLIK** Tilanchilik; tilanchi.

*Ko'r, tarbiyasiz hech shajar meva qilurmu?*

*Soillik eldin kimsaya davlat yig'ilurmu?* (H.)

**SOIM** a. Ro'za tutuvchi kishi, ro'zador.

*Xos qullardek kechalari qoim bo'lsam,*

*Mardonlardek kunduzlari soim bo'lsam.* (A.Y.)

**SOJID** a. Sajda qiluvchi, ta'zim qiluvchi, sig'inuvchi.

*Ul masjid bo'lsun, siz sojid bo'lung. Odamg'a sajda qiling.* (R.)

**SOKIN** a. Bir joyda yashovchi, istiqomat qiluvchi.

*Ul choh ichra qilurdi sokin,*

*Chiqmoq andin emas edi mumkin.* (S.S.)

**SOKIT** a. Sukut qilish; jim.

**Sokit aylamak** Jim qilmoq, tinchlantirmoq; qanoatlantirmoq.

*Ul qilur hal bori mushkillarni,*

*Sokit aylar bori soyillarni.* (Shn.)

**SOL I** Yog'och, taxtadan yasalgan va suvda odam, yuk tashiydigan transport vositasi.

*Sol ila kechti O'kuzdin Sulton,*

*Solu mah ko'rmadi andoq davron.* (Shn.)

**SOL II** f. Yil.

*Aylama fosid xayola sarf solu mohni,*

*Kir shariat yo'lig'a, ayningda ko'r allohni.* (T.F.)

**SOLIK** a. Tasavvuf yo'lini tutgan kishi, tasavvuf yo'lga kirgan kishi.

*Solik ani arshi muallo dedi,*

*So'fi ani olami kubro dedi.* (H.A.)

**SOLIM** a. 1. Sog'lom, sog'.

*Muqim mutaalliqdari bila solim va salomat borib, Tebaga tushti.* (Bn.)

2. Tugal, to'liq, bekam-u ko'st.

*Bir-ikki yildin so'ngra Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim topshurdi.* (Bn.)

**SOLMOQ** 1. Joylashtirmoq, joylamoq, o'tirg'izmoq.

*Yana ul elni soldi kema aro,*

*Bo'ldi bu nav' alarg'a nuktasaro. (S.S.)*

## 2. Tashlamoq.

*Quyosh har kun yuz urur ul qobuqqa*

*Jamoling soldi Yusufni quduqqa. (Mn.)*

## 3. Bermoq.

*Ikki shah kirdilar xudo yo'lig'a,*

*Mulklar in solib aning qo'lig'a. (S.S.)*

## 4. To'plamoq, yig'moq.

*Olig'a solibon borin surdi,*

*Tokim o'z maskanig'a yetkurdi. (S.S.)*

## 5. Tashlab ketmoq, tark etmoq.

*Solib borma meni, ey Yusufi husn,*

*Bukun' Ya'qubtek bayt ul-hazanda. (A.)*

## 6. Qochmoq.

*Ko'rdilar solur erdi bir bug'u xez,*

*Yetti oni qovub bir otlig' tez. (S.S.)*

## 7. Qo'shma otlar tarkibiga kiradi.

*Mehr yodi bila ichib sog'ar,*

*Sola olmay vale yuziga nazar. (S.S.)*

**SOMON** f. Tartib, saranjom-sarishtalik.

**Somon topmoq** Yo'lga tushmoq, izga tushmoq.

*Hinduston ishlari ham bir nav' somon topib keladur. (Bn.)*

**SON** 1. Miqdor, adad, sanoq.

*Bo'lub ming besh yuz ul majmu'g'a son,*

*Qilib o'lturg'an el sayrini oson. (F.Sh.)*

## 2. Baho, qiymat.

*Kishining sensizin ne joni bo'lsun,*

*Aningtek umrning ne soni bo'lsun. (Mn.)*

## 3. Qator, saf, o'rin, joy.

*Unuttung bu Muhammad Xo'jani oh,*

*Bizingteklarga anda son yo'q, ey jon. (Mn.)*

**SONIY** Ikkinchi.

*Muhammad Xo'jabek Jamshidi soniy,*

*Jahonning orzusiyu xalq xoni. (Mn.)*

**SOQIY** a. May quyuvchi, kosagul.

*Kel, ey soqiy, keturgil jomi Jamni,*

*Kishining ko'nglidin may yur g'amni. (Mn.)*

**SOQIZG'ON** Zag'izg'on, hakka.

*Tun-kunni qilur binafsh sizg'on,  
Kofur ila mushkdin soqizg'on. (F.Sh.)*

**SORI** Sari, tomon.

*Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda,  
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi. (B.)*

**SORILMOQ** O'ralmoq, chirmashmoq.

*Oyog'imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa, yana  
sen sari choparman. (Fit.)*

**SORIG'** Sariq.

*Xazondek qon yoshim sorig' yuzumdin el tanaffurda,  
Bahar rangi, bihamdillah, ulusdin o'zni qutqordim. (B.)*

**SORT** h. Fors.

*Agar yuzdin, balki mingdin biri bu tilni o'rganib so'z aytsa  
ham, har kishi eshitsu bilur va aning sort ekanini fahm qilur.  
(M.L.)*

**SORTCHA** Forscha, fors tili.

*Har kim sortcha aytsa, bir ayog' ichsun. (Bn.)*

**SORG'ORMOQ** Sarg'aymoq.

*Behroq ko'rar chu mandin ul oy g'ayrni, ne tong,  
Gar chehra sorg'orib mango rashki behi erur. (K.)*

**SOTG'UN:** Sotg'un olmoq Sotib olmoq.

*Manga haj qilg'on hojining savobin sotg'un olib bering, qi-  
yomatda hojilar birla turg'aymen. (X.)*

**SOYA** f. Ko'lanka, ko'laga.

**Soyayi ra'fat solmoq** Mehribonlik qilmoq, g'amxo'rlik  
qilmoq, himoya qilmoq.

*Haqki, solib soyai ra'fat sanga,  
Ro'zi etib taxti xilofat sanga. (H.A.)*

**SOYIL** a. Savol beruvchi, so'rovchi, istovchi.

*Har nima xalqqa mushkil bo'lsa,  
Ildin har necha soyil bo'lsa. (Shn.)*

**SOYIR I** a. Boshqa, o'zga.

*Hasan Ya'qubning ixtiloti soyir umaro va sipohi bila dag'i  
yaxshi emas edi. (Bn.)*

**SOYIR II** a. Sayr qiluvchi, sayyoh.

*Kiribon zavraq ichra soyir o'lub,  
Ul jazoir to'shida zoyir o'lub. (S.S.)*

**SOZ** Sozlangan, sozi to'g'rilangan.

*Tuz durur egri qili to soz erur,  
Egri bo'lur emdiki, nosoz erur. (H.A.)*

**SOZVOR** *f.* Ma'qul bo'ladigan, yoqimli, yaxshi.

*Bori yafroqlardin tut yafrog'i va qaroyig'och yafrog'i otqu  
sozvorroq emish. (Bn.)*

**SOG'AR** *f.* 1. May ichilading idish, qadah, jom.

*Ahli vabo tortib ajal sog'ari,  
Kon aro yoqut qo'yub javhari. (H.A.)*

2. May, sharob.

*Mehr yodi bila ichib sog'ar,  
Sola olmay vale yuziga nazar. (S.S.)*

**SOG'DOQ** O'q solinadigan to'rvacha, o'qdon, sadoq.

*Sog'dog'imda ham yigirmacha o'q bor edi. (Bn.)*

**SOG'INMOQ** 1. Sog'inch hissi tuymoq, ko'rgisi kelmoq.

*Tilimning zikriyu, ko'nglumni fikri, yaxshi farzandim,  
Azizim, yolg'uzum, davlatli sultonimni sog'indim. (U.)*

2. ...deb o'ylamoq, ... deb hisoblamoq.

*Durrojning yolg'onni chin o'rnig'a ayturidin hodisa domig'a  
tushganida, chin so'zin sher yolg'on sog'inib faryodig'a yet-  
magoni. (H.A.)*

3. Esga olmoq, eslamoq, xotirlamoq.

*Hujumi ishq tug'yonida gohi,  
Sog'ing'aysen meni, ham tortib ohe. (F.Sh.)*

**SOG'ISH** O'ylash, rejalash. **Sog'ish aylamak** O'ylamoq.

*Xon bu so'zni dedi, ammo Sul-ton,  
Dedi: Yaxshi sog'ush aylabtur xon. (Shn.)*

**SOCHMOQ** 1. Sepmoq.

*Ichaling bodani jonon yuziga,  
Xizir suyin sochaling jon yuziga. (Mn.)*

2. Sepmoq, ekmoq.

*Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,  
Suni teng ichmas necha yakson sochar. (H.A.)*

**SU I** 1. Suv.

*Har kim ul choh aro chu bo'ldi g'ariq,  
Non ikita edi, su bir ibriq. (S.S.)*

2. Daryo.

*Sayhun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashhurdur. (Bn.)*

- SU II** Qo'shin, lashkar, askar.  
*Bu el tutg'uqa ko'p erat su kerak*  
*Erat tutg'uqa neng tavar tu kerak. (Q.B.)*
- SUBH a.** Tong, sahar, saboh, subhidam.  
*Subh chu zohir qilib anvorini,*  
*Har yon sochib lam'ai ruxsorini. (H.A.)*  
**Subhi alast** Azaliy tong, azaliyat boshi.  
*Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast,*  
*Aning nash'asidin ko'ngul erdi mast. (G'.S.)*  
**Subhi anvar** Eng nurli tong, yorug' tong.  
*Majoziy ishq bo'ldi subhi anvar,*  
*Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar. (F.Sh.)*  
**Subhi sodiq** Haqiqiy tongotar.  
*Gavhar osqon halqalar siymin banogo'shida band,*  
*Ko'runur zulfi tunida subhi sodiqdek arang. (F.)*
- SUBHA a.** Tasbeh.  
*Yoyar domi tazvir el saydig'a,*  
*Qilib subhadin dona omoda shayx. (N.Sh.)*
- SUBHIDAM a.** -f. Tong chog'i, tong vaqti.  
*Subhidam tushub shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,*  
*Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar. (F.)*
- SUD f.** Foyda, naf.  
*Ul alam garchi soldi boshima dud,*  
*Bildim o'rtanmagimda yo'qtur sud. (S.S.)*
- SUDA f.** Maydalangan, parchalangan, ushatilgan.  
*Sinqardin teshavar osuda bo'lg'ay,*  
*Tugangay baski ishdin suda bo'lg'ay. (F.Sh.)*
- SUFT f.** Dasta.  
*Gar xud erur xanjari po'lod til,*  
*Suftidag'i injulari so'zni bil. (H.A.)*
- SUHAYL a.** Porloq bir yulduzning nomi, Kanopus.  
*Qamarning ikki yonida Suhaylu Zuhra kibi,*  
*Ko'rundi iki qulog'inda dur-u gavhar xush. (B.V.)*
- SUKUN a.** 1. Biror joyda turib qolish, harakatsizlik, to'xtash.  
*Xiroming chog'i yo'ldosh o'lsam erdi,*  
*Sukuning vaqti qo'ldosh o'lsam erdi. (F.Sh.)*  
**Sukunu murur** Yurish-turish.  
*Shahliq oyinin aylabon zanbur,*  
*Aylamas besipah sukunu murur. (S.S.)*



**SULH** a. 1. Yovlashgan tomonlar o'rtasidagi yarashuv.

*Sulhning so'zin arog'a soldi,  
Sulh ishini o'ziga oldi. (Shn.)*

2. Tinchlik.

*Ul parivash ishqidin goh telbadurman, goh sog',  
Chunki bordur oramizda gohi sulhu, gohi jang. (F.)*

**SULTON** a. 1. Podshoh, shoh.

*Haq seni adl etgali sulton etib,  
Zulm ila sen xalqni vayron etib. (H.A.)*

2. ko'ch. Ma'shuqa, sevgili.

*Bag'ishlasang qonim, sultonsen oxir,  
Ko'zumba nur, tanimg'a jonsen oxir. (Mn.)*

3. ko'ch. O'ziga o'xshaganlar orasida eng zo'ri; shoh.

*Latofat mulkida sultonsen, ey jon,  
Qamuq boshdin oyoqqa jonsen, ey jon. (Mn.)*

**SULTONIY** a. Sultonga oid, sultonga tegishli.

**Choshtgohi sultoniy** Ertalab kun ancha ko'tarilgan, quyosh yoyilgan payt.

*Onchaki sultoniy o'lub choshtgoh,  
Uyquda sulton bila xaylu sipoh. (H.A.)*

**SULUK** a. Muomala, aloqa.

*Va bir necha muddatg'acha bir yerda bo'lub, musohibona bir-  
bir bilan suluk qilur erduk. (Bn.)*

**SUMALAK** Bug'doy maysasi, un va yog'dan tayyorlanadigan taom.

*Ajirig' tomirini o'g'urida mayda tuyub,  
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak. (Max.)*

**SUMAN** f. Oq xushbo'y gul, yasmin, yosuman.

*Sumantek orazing guldur tikansiz,  
Manga do'zax erur uchmoh sansiz. (Mn.)*

**SUMANBAR** f. Sevgili, yor.

*Ilgini chekti mutag'ayyir bo'lub,  
Dedi sumanbar mutahayyir bo'lub. (H.A)*

**SUN'** a. Yaratish, vujudga keltirish. **Sun' naqqoshi** Xudo, alloh.

*Hayrat etman husni naqshidaki, har hayratki bor,  
Barchasi ezid taolo sun' naqqoshindadur. (B.V.)*

**SUUBAT** a. Qiyinchilik, azob, mashaqqat.

*Topqucha yel suubati orom,  
Kemaga oncha bo'lmish erdi xirom. (S.S.)*

**SUNBUL** *f.* Piyozgullilar oilasiga mansub, uzun bargli o'tsimon o'simlik va uning xushbo'y, chiroyli guli; giasint.

**Sunbuli tar** Yangi sunbul, barra sunbul.

*Chirmashibon sunbuli tar bog' aro,*

*Egrilik oning yuzin aylab qaro. (H.A.)*

**SUNMOQ** 1. Egmoq, quyiga engashtirmoq.

*Jumla farishtalar sajda qildilar... yolg'uz Azozil sajda qilma-  
di. Bo'yun sunmadi, ulug'sindi. (R.)*

2. Uzatmoq, cho'zmoq.

*Atoyi, sen kimu ul sarvqomat,*

*Ilik yetmas, ne hosil qo'lni sunmoq. (A.)*

**SUNNA** *a.* Farz namozlaridan boshqa namoz; namoz.

*Sunna vaqtida chaman o'rtasidag'i tolol ustida o'tturuldi.  
(Bn.)*

**SUNNAT** *a.* Odat, urf, qoida.

*Ul yo'ldin er-xotunlarg'a bormoq sunnat qoldi. (R.)*

**SUNNATULLOH** *a.* Allohning sunnati, allohning qonun-qoida-  
lari.

*Erur sunnatillohi rasmi qadim,*

*Bilurga sening dag'i misling adim. (S.I.)*

**SUPRUNDI** Supurindi.

*Aqrabolar suhbatimdin or edar, qoshin charar,*

*Salb dillarda, nazarlarda karish suprundiman. (T.F.)*

**SUQ** Biror narsaga ortiq darajada hirs qo'ygan, ochko'z.

*Ko'zi suq kishi nenga bo'lmas bu bay*

*Qamug' dunya bo'lsa axir suq chig'ay. (Q.B.)*

**SURAT** *a.* 1. Tashqi ko'rinish, ko'rinish, tashqi qiyofa.

*Xorazmiyning ketib aqli boshindin,*

*Turur tek surati yo'q jon ichinda. (Mn.)*

2. Hol, ahvol, kayfiyat. **Surati hol** Hol-ahvol.

*Tirigidin so'rub chu surati hol,*

*Zohir anglabki, ne durur ahvol. (S.S.)*

3. Biror narsaning ichki mazmuni emas, balki tashqi ifodasi haqida, shakl, forma.

*Nazmki ham surat erur xush anga,*

*Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga. (H.A.)*

**Surat bog'lamoq** Tasvirlamoq, chizmoq.

*Jamoling naqshina Sayfi Saroyi bog'ladi surat,*

*Na surat – surati husni, na husni – husni jonparvar. (S.Sar.)*

**SUR'AT** *a.* Tezlik, jadallik.

*Jahdu sur'at aro tay aylab arz,  
Holatim aylasang, Suhaylg'a arz. (S.S.)*

**SURATORO** *a. -f.* Suratga, shaklga e'tibor berish, tashqi ko'ri-  
nishga ahamiyat berish.

*Chamanda arg'uvondek suratoro bo'lmag'ing xub yo'q,  
Pisharda mevasiz sharmandadur, sirri ayon bo'ldi. (Z.)*

**SURMAK** 1. Yurgizmoq, yuritmoq, siljitmoq.

*To bu yanglig' necha kecha-kunduz,  
Yel surar erdi kemalarni tuz. (S.S.)*

2. Biror tomonga yurishga majbur etmoq.

*Olig'a solibon borin surdi,  
Tokim o'z maskanig'a yetkurdi. (S.S.)*

3. Surtmoq, surkamoq.

*Gar tahorat qi(l)sa qavmi suv topolmay nochor,  
Betini qum bila yub (ko'zi)ga surgay guvalak. (Max.)*

4. Boshdin kechirmoq.

*Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima,  
Xonumon ovora, selobi havodis surdiman. (T.F.)*

**SUROHIY** *a.* Qadah, jom.

*Surohiy to'lsa kub og'zin ochaling,  
Bukun mayxonada yormoq sochaling. (Mn.)*

**SURUQ** Xoda, uzun tayoq; siriq.

*Alar javshani barcha qolqonduruq  
Sinon qo'llarida nechukkim suruq. (S.I.)*

**SURUR** *a.* Quvonch, shodlik, sevinch.

*Ko'ngullarning sururi ilmdandur,  
Ko'rar ko'zlarning nuri ilmdandur. (F.)*

**SUST** *f.* Kuchsiz, zaif, bo'sh.

*Yog'liq ila bog'ladi bo'ynini rust,  
Yuz hamyoning dog'i bo'ynini sust. (H.A.)*

**SUTUH** *a.* Ojiz, darmonsiz.

*Kim, erur pilzo'ru shershukuh,  
Panjasidin kelib bu ikki sutuh. (S.S.)*

**SUTUN** *f.* Ustun.

*Rostliq ta'rifidakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpo.  
(H.A.)*

**SUUBAT** *a.* Qiyinchilik, azob, mashaqqat.

*Topqucha yel suubati orom,  
Kemaga oncha bo'lmish erdi xirom. (S.S.)*



**SUVORMOQ** Sug'ormoq.

*Ko'zidin hajr arokim ashk borib,  
Bori mujgon sinonlarin suvorib. (F.Sh.)*

**SUXAN** Gap; so'z.

*Og'izlari maqtanib o'n besh qarish,  
Mayda suxan, ezmachuruk, zanchalish. (M.)*

**SUXANDON** f. So'z ustasi, mohir san'atkor, shoir.

*O'lmishdi Navoiyi suxandon,  
Manzuri shahanshohi Xuroson. (Fuz.)*

**SUXANSANJ** f. Gapga chechan, so'zga usta, so'zamol.

*Lutf ayla, – dedilar, – ey suxansanj!  
Fosh ayla jahona bir nihon ganj! (Fuz.)*

**SUXANVAR** f. Chiroyli so'zlovchi, so'zamol; adib, shoir.

*Fasona aytur ustodi suxanvar,  
Bu yanglig' toqti so'z bikrig'a zevar. (F.Sh.)*

**SUYULMOQ** Shilinmoq.

*Qachon zillat bilgurdi ersa, ul terisi suyuldi va teri bilgurdi.  
Ul terining belgusi ernaklar ichinda qoldi. (R.)*

**SUYURG'AMOQ** Marhamat ko'rsatmoq.

*Agar bersa suyurg'ab haq taolo,  
Kerakmas sensizin firdavsi a'lo. (Mn.)*

**SUYURG'OL** Hukumdor tomonidan yirik harbiy xizmatlar ko'rsatgan kishilar yoki yaqinlariga doimiy foydalanish uchun beriladigan tuman, viloyat, qishloq .

*Ham Qaroko'l suyurg'oli aning,  
Qal'ai Karmana pomoli aning. (Shn.)*

**SUZMAK** Tozalamoq, poklamoq.

*Esizka siyosat yuritg'u kerak  
Budun bulg'anuqin siyosat suzar. (Q.B.)*

1. Halol, sofdil, to'g'ri.

*Qali bo'lmasa beg saqinuq suzug  
Ariqsiz bo'lur barcha qilqi uzug. (Q.B.)*

2. Halollik, to'g'rilik.

*Arig' ul bu qut qiv arig'liq tilar  
Suzug ul bu davlat suzugni yular. (Q.B.)*

**SUCHINMAQ** Zavqlanmoq; berilmoq, muhtalo bo'lmoq.

*Suchigka suchinsa ajun beglari  
Achig' bo'ldi el kun budun iglari. (Q.B.)*

**SUCHIG** 1. Shirin, chuchuk.

*Tilin so'zlasa so'z shakarday suchig  
Bo'yun berdi beg qul ulug' ya kichig. (Q.B.)*

2. Sharob, vino, may.

*Suchigka suchinsa ajun beglari  
Achig' bo'ldi el kun budun iglari. (Q.B.)*

**SUCHUK** Shirin.

*Kimi suchuk so'zruk, kimi achig' so'zruk. (R.)*

**SO'FI** a. Tasavvuf yo'lidan boruvchi, tasavvufchi.

*Yana Kamoliddin Husayn Gozurgohiy edi, agarchi so'fi  
emas edi, mutasavvif edi. (Bn.)*

**SO'FINAMO** a. -f. So'figa o'xshash, xudojo'y odamga o'xshash.

*Mingboshisi so'finamo,  
Tasbehu bo'ynida rido. (M.)*

**SO'G** f. 1. Motam, aza, musibat. **So'g tutmoq** Motam tutmoq.

*Tutub so'gin ato birla anosi  
Muni ko'rgach, halok etti hayosi. (F.Sh.)*

**SO'GVOR** f. Boshiga musibat tushgan, musibatli, motamli, azador.

*Motamin zohir aylamakka mafar,  
Rang aro so'gvor nilufar. (S.S.)*

**SO'KMAK** Haqorat qilmoq, qo'pol so'zlar bilan izzat-nafsga tegmoq.

*Nuhning yuzunga tufkurdi, tili birla so'kdi. (R.)*

**SO'KUNCH** La'nat; so'kish, haqorat.

*Axi bo'l, sanga so'z so'kunch kelmasun,  
So'kunch kelgu yo'lni axilik tiyur. (H.H.)*

**SO'L** Chap, chap taraf.

*Mekoil sag'indin, Isrofil so'lundin bo'lub ko'klarni kezdilar.  
(R.)*

**SO'LISAR** So'ladi.

*Ichaling bodani gullar so'lisar,  
Tanimiz oqibat to'praq bo'lisar. (Mn.)*

**SO'LMOQ** So'limoq, bujmaymoq.

*Agar ko'rsa seni ham lola so'lg'ay,  
Seningdek gul magar uchmohda bo'lg'ay. (Mn.)*

**SO'NA** O'rdakning erkagi.

*Su ichra binafsha har zamone,  
So'na boshidin berur nishone. (F.Sh.)*



**SO'NG** 1. Oxir, pirovard, nihoya.

*Tig' agar cheksa nechukkim quyosh,  
Aylamak oning so'ngg'ida mehr fosh. (H.A.)*

2. Keyin, so'ngra.

*Necha kundan so'ng o'lg'ay imkoni,  
Qobsamoq bu iki cherik oni. (S.S.)*

**SO'NGAK** Suyak, ustuxon.

*Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay?  
Tilim lolu ko'zum giryon, so'ngaklarni chunon o'rtar.  
(Mash.)*

**SO'NGICHA** Orqasidan, ortidan, ketidan.

*Umr bu ishlar so'ngicha ketti tut,  
Marg nihibi boshingg'a yetti tut. (H.A.)*

**SO'NGUK** ayn. So'ngak.

*Aning uchun «Tishilar ko'nulmas egri so'nguk turur» teb  
xalq orasinda yumoq bo'ldi. (R.)*

**SO'RMOQ** 1. Biror narsani bilish uchun savol bermoq, so'ramoq.

*Qarlug'ochqa so'rdi: «Naluk so'zlamas» (R.)*

2. Kimsaning hol-ahvolini so'roqlamoq.

*Kecha-kunduz yo'lig'a muntazirdurman, tikarman ko'z,  
Kelib holim so'rubon ketsa, mehmonimni sog'indim. (U.)*

**SO'RUSHMOQ** Bir-biridan hol-ahvol so'rashmoq.

*Qo'pubon yig'lashib ko'rushtilar,  
O'lturub bir-birin so'rushtilar. (S.S.)*

**SO'YMOQ** 1. Birovning kiyim-kechagini majburan yechib olmoq, yechintirmoq.

*Chunki Navdar adug'a bo'ldi asir,  
So'ydilar har ne kiyganin bir-bir. (S.S.)*

2. Archimoq, shilib tozalamoq.

*Buxoro olusidek hech yerda bo'lmas, terisini so'yub, qurutub  
tabarrukluk bila viloyattin viloyatqa elturlar. (Bn.)*

**SO'Z I** f. Kuydirish, o'rtash; otash, alanga.

*So'zu gudoz ko'ch. Otash, alanga.*

*Sening olingdadur ishq majoziy*

*Ki, jisming o'rtabon so'zu gudozi. (F.Sh.)*

**SO'Z II** Gap, gap-so'z; nutq.

*So'zi chin kerak beg ne qilqi butun*

*Inansa angar xalq tirilsa butun. (Q.B.)*

**So'z sinoni** So'z nayzasi; achchiq so'z.

*Agar o'trusida men ham chekib tig',*

*Chekarga so'z sinonin qilg'amen big'. (F.Sh.)*

**SO'ZAN** *f.* Igna.

*Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,*

*Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman. (T.F.)*

**SO'ZLAMAK** Gapirmoq, fikr bayon etmoq.

*Tilin so'zlasa so'z shakarda suchig*

*Bo'yun berdi beg qul ulug' ya kichig. (Q.B.)*

**SO'ZLI** Oldidan kelgan so'z bilan birgalikda shaxsning xarakterini bildiradi.

*Telim gulchehra nargis ko'zlilar bor,*

*Shakar dudog'li, shirin so'zlilar bor. (Mn.)*

**SO'ZLUK** So'zli.

*Agar ko'ni so'zluk ersangiz bu narsalarning oti ne turur menga aytu bering. (R.)*

**SO'ZCHI** So'zlovchi.

*So'zchi holin boqma, boq so'z holini,*

*Ko'rma, kim der ani, ko'rgilkim na der. (A.N.Qit.)*

## Tt

**TAAB** *a.* Mashaqqat, qiyinchilik, azob.

*Taab, ko'nglumi yuz ming pora ayla,*

*Adam sori borin ovora ayla! (F.Sh.)*

**TAADDI** *a.* Zulm, jabr, sitam.

*Burun xarj va tahmillarda ko'p faqir va miskin alarning himoyati bila zulm va taaddidin xalos bo'lurlar edi. (Bn.)*

**TAAJJUB** *a.* Diqqatni o'ziga tortadigan, qiziq, qiziqarli, ajib.

*Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,*

*Arz etayin emdi yozib nomalar. (M.)*

**TAALLUM** *a.* Bilim olish, ta'lim olish.

*Murod marifatullohdur taallumdin,*

*Emas mubohasau jang ila jidol kamol. (K.)*

**TAALLUQ** *a.* Aloqa, bog'lanish; Allohdan boshqa biror kimsaga tegishlilik.

*Uz diling taalluqdin, band qil xudo sori,*

*To degil kecha-kunduz: «Mosivo Uvaysiyman!»(U.)*

**TAAQQUL** *a.* Aqlga keltirish, aql yurgizish, o'ylash.

*Munga dog'i zarur erdi taaqqul,*

*Chiqormoq bir tikandin yuz tuman gul. (F.Sh.)*

**TAASSUB** *a.* Maqtanish, lof urish, gerdayish.

*Behush kishi mundoq shikast mahalida taassub qiladur,  
bemahal taassubdur. (Bn.)*

**TAASSUF** *a.* Afsuslanish, o'kinish; pushaymonlik.

*Bir buki, yolg'ong'a taassuf.bila,*

*To'g'ri degay so'zni takalluf bila. (H.A.)*

**TAB'** *a.* 1. Tabiat, xarakter,

*Tab'ig'a xissat g'olib edi. (Bn.)*

2. Ta'b, mijoz, ko'ngil.

*Qatlinga garchi tab' rog'ib emas,*

*Lek qo'ymoq dag'i munosib emas. (S.S.)*

3. She'r yozish qobiliyati; iste'dod.

*Ul hazrat tab'ining maddohlig'i. (Shn.)*

*Tab'idur asru biyik himmatidek,*

*So'z – uni yaxshi bori niyatidek. (Shn.)*

**Tab' ahli** Shoirlar.

*Borcha serobu salisu dilkash,*

*Tab' ahlig'a jalisu dilkash. (Shn.)*

**Tab'i salim** Sog'lom ta'bli.

*Bobur chu umid ila qilur arzi niyoz,*

*Shoyadki, qabul aylagay tab'i salim. (B.)*

**TABA'** *a.* Itoat etuvchilar, tobelar, bo'ysunuvchilar.

*Xaylu taba' Hurmuzu Xisrav anga,*

*Mulki Sulaymoncha qalamrav anga. (H.A.)*

**TABASSUM** *a.* Kulimsirash, jilmayish.

*Raqiblarg'a qilur la'ling tabassum,*

*Qonimni g'ussadin toshurmag'ing' ne? (A.)*

**TABIB** *a.* Kasalni davolovchi mutaxassis, doktor, vrach.

*Bemor tuzalgisi kelsa, tabib o'z oyog'i bilan kelur. (Zm.)*

**TABOH** *f.* Xarob, vayron, buzuq, yomon.

*Holi agar yaxshi durur, gar taboh,*

*Kimsadin etmas tama'yi molu joh. (H.A.)*

**TA'BPAZIR** *a.* -f. Kishining ta'biga yoqadigan, yoqimli.

*Nilufar rangi keldi ta'bpazir,*

*Kim libos etti oni Mehri munir. (S.S.)*



**TABUQ** Dargoh, huzur.

*Topilg'ay maqsudum tabqungda bori,  
Saodat qilsa Xorazmiyg'a yori. (Mn.)*

**TADBIR** *a.* Biror muammoni hal qilish yo'li, chora, iloj.

*Mundin o'zga bu ishga yo'q tadbir,  
Ki, ikkimiz cherik yig'ib bir-bir. (S.S.)*

**TADOVI** *a.* Davo.

*Talyin uchun bisyor yaxshi tadovidur. (Bn.)*

**TADRIJ** *a.* Astalik, asta-sekinlik.

*Va gar har soridin yig'nalsa qatra  
Bo'lur tadrij ila to'fon huvaydo. (Og.)*

**TAFAAHHUS** *a.* Atroflicha tekshirish, jiddiy o'rganish, surishtirish.

**Tafahhus aylamak** Tekshirmoq.  
*Tafahhus aylab andin ko'p nishone,  
Nishonin ko'nglida asrab nihoniy. (F.Sh.)*

**TAFARRUJ** *a.* Sayr, sayr-tamosho, ko'ngil ochish.

*Bir kun istab tengiz tafarrujini,  
Yel xiromiyu suv tamavvujini. (S.S.)*

**TAFHIM** *a.* Tushuntirish, anglatish.

*Ko'pi andoqdurki, aslo aning mazmunin tafhim qilmoq  
bo'lmas va ba'ziniki anglatsa bo'lg'ay. (M.L.)*

**TAFOVAT** *a.* Tafovut, farq.

*Bu iki bir nav' saxovat erur,  
O'rtasida sahl tafovat erur. (H.A.)*

**TAFOVUT** *a.* Farq, ayirma.

*Uchsa yolg'uz ko'rarga oq-u qaro,  
Ne tafovut ulu yana bul aro. (S.S.)*

**TAFRIQA** *a.* Bo'linish, ajralish, parokandalik.

*Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima,  
Xonumon ovora, selobi havodis surdiman. (T.F.)*

**TAFSIL** *a.* Batafsil bayon qilish, atroflicha tushuntirish.

*Bu erdi holimizkim topti ta'vil,  
Bu ham ijmol birla yo'qki tafsil. (F.Sh.)*

**TAFTISH** *a.* Tekshirish.

*Shohkim bag'rig'a tegib edi tish,  
Ayladi Mehr holini taftish. (S.S.)*

**TAHAKKUM** *a.* Hukm qilish, hukmronlik qilish, zo'rlik bilan boshqarish.

*Fuqaro boshig'a yetti bu qalin shum qullar,  
Hamdami shoh bo'lub, ahli tahakkum bumlar. (T.F.)*

**TAHAMMUL** *a.* Toqat, bardosh, chidam.

*Bataxis bizning ko'zumuzning o'trusida bizing otimizni minib, bizing to'numuzni kiyib, bizing qo'yumuzni yeb yurgaylar, munga kim tahammul qilg'ay? (Bn.)*

**TAHAYYUR** *a.* Hayratlanish, hayron bo'lish, hayrat.

*Habibim naqshidin ma'ni buloyin,  
Tahayyurda o'zumdin qurtuloyin. (Mn.)*

**TAH-BATAH** *f.* Qatma-qat, qat-qat.

*Dasta farsuda, yuzi qaytib, ayog'larda qolib,  
Ko'hna tig'i tah-batah g'am zangi tutg'on kundiman. (T.F.)*

**TAHMIL** *a.* Soliqning bir turi.

*Burun xarj va tahmillarda ko'p faqir va miskin alarning himoyati bila zulm va taaddidin xalos bo'lur edi. (Bn.)*

**TAHORAT** *a.* Namoz o'qish, qur'on tilovat qilish uchun bet, qo'l, oyoq va boshqa a'zolari yuvib poklanish.

*Gar tahorat qilsa qavmi suv topolmay nochor,  
Betini qum bila yuvib (ko'ziga) surgay guvalak. (Max.)*

**TAHQIQ** *a.* 1. Biror narsa, hodisaning mohiyatini, sababini tekshirish, haqiqatni aniqlash.

*Chunki holin bilurga ayladi mayl,  
Yaxshi tahqiq qilg'och, erdi Suhayl. (S.S.)*

2. Aniq, aniqlangan.

*Ko'ngul tilagudek tahqiq xabar kelturmadi. (Bn.)*

3. Haqiqat, rostlik, chinlik.

*Ba'zig'a gumon bo'ldikim, Samarqanddag'i kiynani saxlab,  
Mo'min Nuyong'a qasd qildi, tahqiqini kishi bilmadi. (Bn.)*

**TAHRIR** *a.* Yozish, bitish; asar yozish.

*Aylarda ishqing sharhini tahrir,  
Sig'mas qalam tiliga bayoni. (N.Sh.)*

**TAHVIL** *a.* Quyoshning bir burjdan boshqa burjga o'tishi, ko'chishi, o'zgarish.

*Oftob mezung'a tahvil qildi, sovuq tushti. (Bn.)*

**TAJALLI** *a.* Jilolanish, jilvalanish; Tasavvufda alloh jamolining jilvalanishi.

*Mashrab, bo'lubon ko'yunga chun barqi tajalli,  
Qolmay asarim, xohi inon, xohi inonma. (Mash.)*

**TAJAMMUL** *a.* Dabdaba, hashamat, zeb-ziynat.

**Tajammul xayli** Davlatmandlar, zeb-ziynatli kishilar.

*Tajammul xaylida imkondin ortuq,  
Necha yil fikrat etsa, ondin ortuq. (Shn.)*

**TAKALLUF** *a.* 1. Iltifot, mulozamat.

*Bir buki yolg'ong'a taassuf bila,  
To'g'ri degay so'zni takalluf bila. (H.A.)*

2. Ziynat, pardoz, bezak.

*Ikki oshiyonaliq, vale shiring'ina imorattur, yuqqorig'i  
oshiyonida takalluf ko'prak qilibturlar. (Bn.)*

3. E'tibor, ahamiyat berish.

*Sulton Husayn mirzoning zamonida mirzoning tasarrufidin  
va takallufidin Hirining zeb va ziynati birga o'n, balki yigir-  
ma taraqqiy qilib edi. (Bn.)*

**TAKALLUM** *a.* So'zlash, gapirish.

**Takallum qilmoq** Gapirmoq, so'zlamoq.

*Unutti aylamakni qatlu bedod,*

*Anga boqib takallum qildi bunyod. (F.Sh.)*

**Takallumg'a lab uyurmoq** Gapirmoq.

*Lab uyur takallumga, zulfungni parishon qil,*

*Qand qiymatin sindur, narxi anbar arzon qil. (Amir.)*

**TAKBAND** Otning ayili.

*Ushbu kun mening takbandimning oltun qullobini  
o'g'urladilar. (Bn.)*

**TAKJOY** Bozorda narsa sotganligi uchun sotuvchidan olinadigan joy puli.

*Mag'rur xasisi beshi kam,*

*Har gapda yuz ichgay qasam,*

*Takjoy olur moxovdan ham,*

*Hoji o'zi murdor ekan. (M.)*

**TAKYA** *a.* Suyanchiq.

**Takya qilmoq** Mizg'imoq.

*Takya qilsa, tunlar mavlo azza va jalla shifo berur erdi. (R.)*

**TALAB** *a.* Istak, orzu, xohish.

**Talab ahli** Muhtojlar, ehtiyojmandlar.

*Kech topardin talab ahli maqsadg'a yo'l,*

*Go'yiyo tinmayin nola aylar jaras. (N.Sh.)*

**TALABGOR** *a.* -f. Istovchi, xohlovchi.

*Erurman vaslinga doyim talabgor,*

*Nechakim tun uzun bo'lsa tongi bor. (Mn.)*

**TALAF** *a.* Halok bo'lish, nobud bo'lish, yo'q bo'lish.

*To safar ahli ko'pi o'ldi talaf,*

*Tushti har bir kema bir o'zga taraf. (S.S.)*

- TALAMOQ** Mol-mulkini tortib olmoq, talon-taroj qilmoq  
*Talabon molu, elni aylab halok,*  
*Yonibon komi dil bila bebok. (S.S.)*
- TAL'AT** *a.* Yuz, bet, chehra.  
*Ayo farxunda tole', tal'ati kun,*  
*Seni tengri murodingg'a tegursun. (Mn.)*
- TALASHLAMOQ** Teshmoq.  
*Sichqon paydo bo'ldi, kemini talashladi. (R.)*
- TALASHMOQ** 1. Biror narsani birovdan tortib olish uchun kurashmoq, nizolashmoq.  
*Andaki, G'oziy Shahi farxundabaxt,*  
*Toj olayin deb talashur erdi taxt. (H.A.)*  
 2. Mushtlashmoq, olishmoq, urushmoq.  
*Chun talashmoqqa ayladilar mayl,*  
*Ko'tarib yerga urdi oni Suhayl. (S.S.)*
- TALIM** Ko'p, bir talay, ancha.  
*Tama' dominda qolur qush emasman,*  
*Talim ayvon uza uchqon humoman. (Mn.)*
- TA'LIM** *a.* O'rganish, bilim berish.  
**Ta'lim bermoq** O'rgatmoq.  
*Jabroil Nuhg'a ta'lim berdi. (R.)*
- TALOTUM** *a.* Suv to'lqinlarining bir-biriga urilishi, po'rtana, dovul.  
*Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,*  
*Kelturan amvojj'a bahri talotum Turdiman. (T.F.)*
- TALOSH** *a.* To'palon, to's-to'palon, ostin-ustun.  
*Sayd jangal ichini qildi talosh,*  
*Yo'li ham tor ediyu ham chirmosh. (S.S.)*
- TALU** Tugal, bekam-u ko'st, yetuk, barkamol.  
*Talu beg bo'layin tesa belgulug*  
*Talu tutg'u erdam ey atilig' kulug. (Q.B.)*  
**Talu odrum** Mumtoz, sara.  
*Kishi odrumi bu budunda talu*  
*Talu o'drum ul bu iraksiz to'lu. (Q.B.)*
- TALX** *f.* Achchiq, taxir, yomon.  
*Shukr shahdin bilmadim, kufroni ne'mat ayladim,*  
*Zaxmi nishi ro'zgor ahlini talxu tundiman. (T.F.)*
- TALYIN** *a.* Ichni yumshatish, qabziyatni yo'qotish.  
*Talyin uchun bisyor yaxshi tadoviydur. (Bn.)*

**TAMA'** *a.* Birovdan bir narsa kutish, bir narsa undirishga intilish; ochko'zlik, hirs.

**Tam'ai xom** Amalga oshmaydigan orzu, puch umid.

*Har birisi yuz tama'i xom aro,  
Yoyilibon kishvari islom aro.* (H.A.)

**TAMANNO** *a.* Orzu, istak, tilak.

*Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum,  
Kishi bilmas onikim, qoldi qanda.* (A.)

**TAMATTU'** *a.* Bahra, naf, foyda.

*Kim o'la do'st rizosi hamin sanga hosil,  
Rizoi do'stlar asli tamattu', ey g'ofil.* (Fuz.)

**TAMAVVUJ** *a.* Mavjlanish, to'lqinlanish.

*Bir kun istab tengiz tafarrujini,  
Yel xiromiyu suv tamavvujini.* (S.S.)

**TAMIZ** *f.* Aql, idrok; fahm-farosat.

*Taqi Xonika degan xoni aziz,  
Kim anga bor edi idroku tamiz.* (Shn.)  
*Eshakka harne yuklasang ko'tarur va qayon sursang ul yon  
borur, aql va tamiz da'vosi yo'q.* (M.Q.)

**TAMKIN** *a.* Viqor, savlat; e'tibor.

*Ki mulki andog'u oyini mundoq,  
Sipohi andog'u tamkini mundoq.* (F.Sh.)

**TAMOM** *a.* 1. Barcha, hamma, bari.

*Bu fursattakim aksar cherik eli va mo'g'ullar tamom qochib  
Andijon va Axsig'a bordilar.* (Bn.)

2. Butun.

*Tamom Hinduston bir podshohda emas edi.* (Bn.)

3. Oxir, nihoya.

**Tamom etmak** Tamom qilmoq, nihoyasiga yetkazmoq.

*So'zni, Muqimiy, kerak etmak tamom,  
Mazzasi qolmas uzun bo'lsa kalom.* (M.)

**TAMOMI** *a.* Hammasi, barchasi; hamma, barcha.

*Tamomi erur koshg'ariy til bila,  
Aytmish adib riqqati til bila.* (H.H.)

**TAMOSHO** *a.* Ko'rish, ko'zdan kechirish, tomosha.

*Sening ishqingda bag'rimdin oqar qon,  
Jamolingning tamoshosin tilar jon.* (Mn.)

**TAMUZ** *a.* Yoz, yoz fasli.

*Fasli tamuz erdi, havo ko'p isig',  
Yo'lda temurdek edi qumlar qiziq.* (G.)

**TAMUG'** Do'zax, jahannam.

*Avfin aning tutmasang ummid sen,  
Bilki tamug' o'tida jovid sen. (H.A.)*

**TAN a.** 1. Tana, vujud.

*Tirik bo'lung, shaho, davron boricha,  
Qulunguzmen tanimda jon boricha. (Mn.)*

2. Jon.

*Tanim borincha sendin yuz chevurman  
Eshiking tuproqindin bosh ko'turman. (Mn.)*

3. Tirik jon, odam, inson.

*Tana'umning nadomatsiz, tamoshoning tasarrufsiz,  
Jahon istab yururda ko'rmadim bir tan taassufsiz. (T.F.)*

**TA'N a.** Ta'na.

*Bu ishda kimga tig'i ta'n uroyin,  
O'zumni, yo'qsa kimni yozg'uroyin? (F.Sh.)*

**TA'NA a.** Kishining nuqson va kamchiliklarini yuziga solish, ta'na qilish.

*Salomimni tegur ul ko'rkaboyg'a,  
Kim urur chehrasi ming ta'na oyg'a. (Mn.)*

**TANAFFUR a.** Nafratlanish, jirkanish.

*Xazondek qon yoshim sorig' yuzumdin el tanaffurda,  
Bahar rangi, bihamdillah, ulusdin o'zni qutqordim. (B.)*

**TANAND f.** Dangasa, yalqov, ishyoqmas.

*O'rganurdin qochg'an lavand va yuziga hiyal va bahona eshi-  
gin ochg'an tanand, emgak tortib ilm o'rgangan xiradmand.  
(M.Q.)*

**TA'NAOMIZ a. -f.** Ta'na qilgansimon, ta'nali, ta'na aralash.

*Savol etgay sarosar ta'naomiz,  
Itiklik ichra har bir xanjari tez. (F.Sh.)*

**TANA'UM a.** Noz-ne'mat ichida yashash, rohat-farog'atda yashash.

*Tana'umning nadomatsiz, tamoshoning tasarrufsiz,  
Jahon istab yururda ko'rmadim bir tan taassufsiz. (T.F.)*

**TANG I f.** Tor.

*Rafqonni bozor joyi tang,  
Mullolari chaqqon, garang. (M.)*

**TANG II f.** Ayil.

*Tang bo'shab ekandur, egar evruldi. (Bn.)*

**TANGCHASHM** *f.* Ko'zi tor, ziqna, baxil.

*Durahdu tangchashmu besaru ya'juvaj,  
Muxtalif.mazhab guruhi O'zbekistondur bu mulk. (T.F.)*

**TANHO** *f.* Yakka, yolg'iz.

*Alar uzra to'kildi, ko'mdi tuproq,  
Bu sirni tanho sahro bildi ko'proq. (S.Sar.)*

**TAN'IM** *a.* In'om, ehson.

*Dil- kabobim, qon-sharobim, ashki hasrat-nuqli bazm,  
Yetti qassomi azalning xizmati tan'imidin. (T.F.)*

**TANLIG'** Tirik mavjudot, inson va butun jonivorlar.

*Taqdir andoq qildim, qamug' tanlig'larning jonin senga  
oldurg'aymen. (R.)*

**TANOBO** *a.* 1. Arqon, arg'amchi.

*Mehr eshitgach bu so'zni soldi tanob,  
Ne tanob, ikki gisuyi purtob. (S.S.)*

2. 0,25 gektaga teng bo'lgan yer o'lchov birligi.

*Ikki tanobini qilay o'n tanob,  
Yurtunguzni kuydurub aylay xarob. (M.)*

3. Yer o'lchash marosimi.

*O'n iki oyda keladur bir tanob,  
O'zgalara rohatu menga azob. (M.)*

**TANQIR** *a.* O'yish, kovlash.

*Hamul Qoranki, aylar xora tanqir,  
Aning kayfiyatini ham ayla taqir. (F.Sh.)*

**TANQIS** *a.* Tanglik, mushkul ahvol, tanqislik.

*Kelib Dehlini qabarlar, urush ham sola olmaslar, qo'rg'on  
eliga tanqis ham bera olmaslar. (Bn.)*

**TANUMAND** *f.* Gavnali, barvasta.

*Ham tanumandu ham shujou daler,  
Ul sifatkim jazira ichraki sher. (S.S.)*

**TANUQ** Isbot, dalil.

*Bu so'zka tanuqi bu baytiq o'qi  
Bu so'zka anuq tut ko'ngul o'g taqi. (Q.B.)*

**TANUR** Tandir.

*Nuhning kofir evluki tanurda etmak pishururda tanur  
ichinda suv chiqti. (R.)*

**TAOLILLOH** *a.* Eng ulug' Alloh, Alloh taolo.

*Ayo zebo sanam shohi qaboyil,  
Taalilloh, zihi shakl-u shamoyil. (Mn.)*



- TAOLO** *a.* Eng oliy, eng yuksak. Xudoning ismiga qo'shib aytiladigan ulug'lovchi so'z, xudoning sifatlaridan biri.  
*Agar bersa suyurg'ab haq taolo,*  
*Kerakmas sensizin firdavsi a'lo.* (Mn.)
- TAOM** *a.* Ovqat, yemak.  
*Anda kezin qorning'a keldi ersa, qorni taom tiladi.* (R.)
- TAPI** Rozi, ko'nish, unash.  
*Neku kelsa rabdin tapi bo'l tapi*  
*O'zung qulluqi ul tapiliq tapi.* (Q.B.)
- TAPINMAQ** Sig'inmoq, topinmoq.  
*Ko'ni tut ko'ngul til bayatqa sig'in*  
*Idi yarlig'in sen ag'ir tut tapin.* (Q.B.)
- TAPONCHA** *f.* Shapaloq, shappati, tarsaki.  
*Yuziga bas taponcha urg'onidin,*  
*Nilufarlar ochib gulistonidin.* (S.S.)
- TAQDIR** *a.* Diniy e'tiqodga ko'ra, azaldan peshonaga yozilgan ko'rgilik, qismat, yozmish.  
*Qildilar ulcha bor edi taqdir,*  
*Ki, ne kelturdi olig'a taqdir.* (S.S.)
- TAQI** Yana, tag'in, tag'i.  
*Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub joni jahon o'rtar,*  
*Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar.* (Mash.)
- TAQOZO** *a.* Talab, talab qilish.  
*Borg'il yer yuzidagi etlarni totg'il, yilong'a beraling, tedi.*  
*Singak bordi, kech qoldi, yilon taqozo qildi.* (R.)
- TAQRIB** *a.* 1. Taxmin, chama. **Taqrib bilan o'qimoq** Suhbat mavzusiga moslab o'qimoq.  
*Taqrib bila xo'b abyot o'qur edi.* (Bn.)  
2. *ko'ch.* Bahona, sabab.  
*Qanbar Alining taqribi bila ha'zi cherik eliga ham ruxsat berildi.* (Bn.)
- TAQRIR** *a.* Bayon qilish, ifoda qilish.  
*Qildilar ulcha bor edi taqdir,*  
*Ki, ne kelturdi olig'a taqdir.* (S.S.)  
**Taqrira keturmak** Bayon qilmoq, ijod qilmoq, yozmoq.  
*Taqrira ketur bu dostoni*  
*Qil toza, bu eski bo'stoni.* (Fuz.)
- TAQSIR** *a.* Qusur, kamchilik.  
*Qullardin taqsir va salatindin goh afv va goh itob voqe' bo'la kelgandur* (Mun.)



**Taqsir qilmoq** 1. Sustlik qilmoq, sustkashlik qilmoq.

*Dedi Jobirki: «Ey qo'lumda asir,*

*Razmu ko'shishda qilmading taqsir.*

2. Xato qilmoq, kamchilik sodir qilmoq.

*Xojaning olig'a g'olibo betakallufroq dastorxon solmishlar...*

*Dastorxon solg'uchi taqsir qilibtur. (Bn.)*

**TAQVIY** a. O'zini nojo'ya ishlardan saqlash, taqvodorlik, taqvo.

*Shar' tariyqida, ibodatda ham,*

*Haq yo'lida taqviyu toatda ham. (H.A.)*

**TAQVIYAT** a. Yordam, ko'mak.

*Bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. (Bn.)*

**TAQVO** a. Taqvodorlik, xudojo'ylik.

*Ahvol va af'oling taqvo va toat bila ma'mur va ishtig'ol...*

*bila mashhur bo'ldi. (Mun.)*

**TAR** f. So'limagan, barra, yangi.

*Chirmashibon sunbuli tar bog' aro,*

*Egrilik oning yuzin aylab qaro. (H.A.)*

**Tar bo'lmoq** Xafa bo'lmoq, qattiq ranjimoq.

*Aning viloyatinikim, Astrobod bo'lg'ay, Muzaffar Husayn mirzog'a berdi... Bu jihatdin Badiuzzamon mirzo tar bo'ldi.*

*(Bn.)*

**TARAB** a. Shodlik, sevinch, xursandchilik, o'yin-kulgi.

*Vahmni qo'y, hamdamu hamrozim o'l,*

*Ayshu tarab vaqti navosozim o'l. (H.A.)*

**TARABGOH** a. -f. Xursandchilik, o'yin-kulgi qilinadigan joy.

*Tarabgohing aro xayyoti gardun,*

*Kanizu zoli xil'atdo'z bo'lsun. (Og.)*

**TARABNOK** a. -f. Shod, xursand.

*Ki, shoyad o'zgalardek Ogahiyni,*

*Tarabnok aylagay beg'oya navro'z. (Og.)*

**TARAF** a. Tomon, yoq, yon.

*Kemasi lekin ul taraf ketti,*

*Ki, burun o'g'li kemasi yetti. (S.S.)*

**TARAHHUM** a. Rahm; rahm-shafqat.

*Ne yerda bo'lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,*

*G'aribingg'a tarahhum aylagilkim, andijonidur. (B.)*

**Tarahhum ko'rguzmak** Rahm qilmoq.

*Bu holat ichra ko'rguzmay tarahhum,*

*Itobomiz qilg'ay shah takallum. (F.Sh.)*

**TARAKKUB** a. Tarkib topish, birikish.

*Borin ustodi ishq etgach murakkab,  
Tarakkubdin bu ism o'ldi murattab. (F.Sh.)*

**TARBIYAT** a. Parvarish, boqish; o'rgatish.

*Kim kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,  
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odamiy. (A.N.Qit.)*

**TARH** a. Loyiha, reja.

*Zaruratkim, solib bir o'zgacha tarh,  
Bu mehnatnomani qilg'umdurur sharh. (F.Sh.)*

**TA'RIF** a. Tavsif, tasvir.

*Rostliq ta'rifidakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpo.  
(H.A.)*

**TARIQ** a. 1. Yo'l, maslak.

*Bo'yla tariqi ki qabul aylading,  
Ko'yi talab sari nuzul aylading. (H.A.)*

2. Yo'l, safar.

*Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq,  
Yolg'uzun aylar erdi qat'i tariq. (S.S.)*

**TARIQAT** a. Yo'l, maslak, so'fiylik yo'li. Tasavvufda haqqa erishish yo'lidagi ikkinchi daraja.

*Tariqatg'a siyosatlig' murshid kerak,  
Ul murshidg'a e'tiborlig' murid kerak. (A.Y.)*

**TARIX** a. 1. Muhim narsa, voqea haqidagi xotira.

*Bo'lur bu bitigim, tarixqa yodgor,  
Bu yodgorimda yolg'on yo'g'u chin bor. (S.Sar.)*

2. Biror voqea-hodisaning ro'y bergan payti, vaqt.

*O'yla tarix aylasak miod,  
Ki, qachonkim bo'lur bu ish bunyod. (S.S.)*

3. Biror kimsaning hayot yo'li.

*Bitigan nomani ellar o'qug'ay,  
Suhaylning tarixini toza bulg'ay. (S.Sar.)*

**TARIY** a. Yangi, barra, so'limagan.

*Xizmat ahli guli tari yanglig'  
Yo'qki hammom aro pari yanglig'. (S.S.)*

**TARJIH** a. Afzal, afzal ko'rish.

*Tarjih qilmoq Afzal ko'rmoq.  
Men va ba'zi ichki beklar Hinduston tarafi bormoqni tarjih  
qilib, Lamg'ong'a mutavajjih bo'lduq. (Bn.)*

**TARK** *a.* Voz kechish, tashlash, bahridan o'tish.

*Zulmni tark aylavu dod aylagil,*

*Marg kunidin dog'i yod aylagil. (H.A.)*

**Tarki hush aylamak** Behush bo'lmoq, hushini yo'qotmoq.

*Dahrning ozoridin masti xarobotiy bo'lub,*

*Tarki hush aylab, bo'lub ul yerda hayron ikkimiz. (F.)*

**Tarki joh aylamak** Amal, martabadan voz kechmoq.

*Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,*

*Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga. (G'.S.)*

**Tarki nasihat aylamak** Nasihatni qabul qilmaslik.

*Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovvora bo'l,*

*Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga. (G'.S.)*

**TARKIB** *a.* 1. Bir narsani boshqa narsaga qo'shish, birlashtirish; birikma.

**Tarkib qilmoq** Qo'shmoq.

*Har lafz tashimi uchun necha lafzin tarkib qilmag'uncha bo'lmas, ul dag'i arabiy alfoz madadi bila. (M.L.)*

2. So'z birikmasi.

*O'qusalar har lafzlarig'a yuz ayb topilg'ay va har tarkiblarig'a yuz e'tiroz vorid bo'lg'ay. (M.L.)*

**TARROR** *a.* O'g'ri, qaroqchi, yo'lto'sar.

*O'z ishiga pishiq, haromzodai tarror, davlatmandlar asnofida mumsiki beor. (Zm.)*

**TARSO** *f.* 1. Xristian diniga mansub kishi, xristian, nasroniy.

*Gah o'rus, gohi cherkas, gohi mo'min, gohi tarsoman,*

*Ne kavnayn miyoni lou illollog'a sig'mamdur. (Mash.)*

2. Berahm, rahmsiz, zolim.

*Muncha zolim bo'lmish ul xunrez tarso ko'zlaring,*

*Kim solur islom eliga sho'ru g'avg'o ko'zlaring. (F.)*

**TARYOQ** *yun.* Zaharni kesuvchi dori.

*Bu ermish rasm bermak zoli ofoq,*

*Chu masmum o'ldi, andin so'ngra taryoq. (F.Sh.)*

**TASADDUQ** *a.* Najot izlab xudo yo'liga beriladigan ehson; xayrehsion; sadaqa.

*Ushmundoq dardlarg'a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. (Bn.)*

**TASALLUT** *a.* Istilo, zabt, bosib olish.

*G'olibo bu ot Chingizxon tasallutidin so'ng bo'lg'ondur. (Bn.)*

**TASARRUF** *a.* 1. Ixtiyor, egalik, xo'jayinlik.

*Yana jami' Mavorounnahr viloyatlari o'zbek xavonin va salotinning tasarrufida edi. (Bn.)*

2. Mahorat bilan boshqarish, yaxshi boshqarish.

*Sulton Husayn mirzoning zamonida mirzoning tasarrufidin va takallufidin Hirining zeb va ziynati birga o'n, balki yigirma taraqqiy qilib edi. (Bn.)*

**TASAVVUF** *a.* Shariatga amal qilib nafsni poklab, axloqni takomillashtirib taqvodorlik bilan yashash; allohga yetishish ta'limoti, so'fiylik.

*Kirsa tavidu tasavvuf so'ziga,*

*Yo'qturur hech tavaqquf so'ziga. (Shn.)*

**TASKIN** *a.* Turish, to'xtash, bir yerga joylashish.

**Taskin topmoq** Turmoq, joylashmoq, to'xtamoq.

*Qaydakim zavraqi topib taskin,*

*Anda bir didbon qilib ta'yin. (S.S.)*

**Taskin tutmoq** O'tirmoq, joylashmoq.

*Saodat birla tutqach anda taskin,*

*Dedi: – Ey kordoni san'atoyin! (F.Sh.)*

**TASLIM** *a.* Bo'ysunish, bo'yin egish.

*O'zini gul bildiyu bulbul – Suhaylni,*

*Uni sevdiyu taslim etti maylni. (S.Sar.)*

**TASVIR** *a.* Rassomchilik.

*Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa'y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. (Bn.)*

**TASXIR** *a.* Fath, zabt etish, istilo, bosib olish.

*Hindning tasxiri zamonida bu xabar kelgani uchun, shugun tutub, Hindol ot qo'ydim. (Bn.)*

**TATABBU'** *a.* O'xshatma, nazira, ergashish.

*Deyolg'aymenki ko'p aylab tazarru'*

*Bularg'a aylay olg'aymen tatabbu'. (F.Sh.)*

**TATIG'** Rohat, huzur, huzur-halovat.

*Ko'ru barsa tegma ishinda xatar*

*Xatarlig' ishig ko'rsa tatig' ketar. (Q.B.)*

**TAV'** *a.* Choh, chuqur.

*Zulfining har halqasida bir shikandur o'ylakim,*

*Habs zanjirida har tav' ichra bir ahli gunoh. (N.Sh.)*

**TAVAHHUM** *a.* Vahimaga tushish, qo'rqish; qo'rquv.

*Sahvunga de uzr tavahhum bila,*

*Zulmdin et tavba tazallum bila. (H.A.)*

- TAVAJJUH** *a.* Bir tomonga yo'l olish, yuzlanish, borish.  
*Topsamu topmasam sening sori,*  
*Aylagumdur tavajjuh izhori. (S.S.)*
- TAVAKKUL** *a.* Ko'pincha xudodan umid qilib, unga suyanib bir ishni boshlash, umuman birovga ishonib ish boshlash; tavakkal.  
*Bu hol va bu quvvat bila tavakkul qilib, o'zbekdek yuz ming qari yog'ini orqada qo'yub, Sul-ton Ibrohimdek qalin cheriklik, vase' mulkluk podshoh bila ro'baro' bo'lduq. (Bn.)*
- TAVAQQU'** *a.* Biror ishning voqe bo'lishiga umid qilish, umidvor bo'lish, ko'z tutish.  
*Dili vayronadin, jono, tavaqqu' qilma dog'ingni,*  
*Buzulg'an mulkdin, albattakim, sulton xiroj etmaz. (G.)*
- TAVAQQUF** *a.* To'xtash, davom etmay qo'yish, tek turish.  
*Kirsa tavidu tasavvuf so'ziga*  
*Yo'qturur hech tavaqquf so'ziga. (Shn.)*
- TAVAR** Mol-mulk, boylik.  
*Bu el tutg'uqa ko'p erat su kerak*  
*Erat tutg'uqa neng tavar tu kerak. (Q.B.)*
- TAVBA** *a.* Biror nojo'ya ish qilmaslikka ahd qilish, nojo'ya qilmishi uchun uzr so'rash.  
*Sahvunga de uzr tavahhum bila,*  
*Zulmdin et tavba tazallum bila. (H.A.)*
- TAVBAKOR** *a.* -f. Tavba qiluvchi.  
*Baski qilib tavbada nuqs oshkor,*  
*Tavba qilur-din bo'lubon tavbakor. (H.A.)*
- TAVHID** *a.* Allohning birligiga, yagonaligiga ishonish; tasavvufda kishi ruhining ilohiy ruhga qo'shilib ketishi.  
*Kirsa tavidu tasavvuf so'ziga*  
*Yo'qturur hech tavaqquf so'ziga. (Shn.)*
- TA'VIL** *a.* Sharhlash, bayon qilish, bayon, sharh  
**Ta'vil topmoq** Bayon qilmoq.  
*Bu erdi holimizkim topti ta'vil,*  
*Bu ham ijmol birla yo'qki tafsil. (F.Sh.)*
- TAVILA** *a.* Otxona.  
**Tavila-tavila** To'da-to'da, uyur-uyur.  
*- Yana bir bukim, ul fursatta andoq ot o'lati bo'ldikim, tavila-tavila otlar yiqilib o'la kirish-ti. (Bn.)*

**TA'VIZ** *a.* Tumor.

*Junun ta'vizig'a ko'rganda moyil,  
Qo'l etsam erdi bo'ynungg'a hamoyil. (F.Sh.)*

**TAVOF** *a.* Muqaddas hisoblangan joyga borib, unga sig'inish, ziyorat.

*Haj tavof qilmoqqa borurman, san borurmusan? (X.)*

**TAVORIX** *a.* (**birligi tarix**) Tarixlar.

*Burun jam et nekim bo'lsa tavorix,  
Boridin ista bu farxunda tarix. (F.Sh.)*

**TAVOZU'** *a.* O'zini kamtar tutish, kamtarlik, xokisorlik.

*Ul holda yer tavozi' qilib aydi: «Men qamug'din zaifmen,  
azoq ostindamen, menda quvong'u narsa yo'q». (R.)*

**TAVQ** *a.* Halqa; tuzoq.

*Solib shoh ko'ngliga o'z shavqini,  
Chekib bo'ynig'a zulfining tavqini. (S.I.)*

**TAVQI'** *a.* 1. Podshoning farmonlariga belgi qo'yish uchun ishlatiladigan muhr. 2. Tavqi qo'yilgan farmon.

*Tavqi' yetishgach ayla lozim  
Kim, jon bila bo'lg'asen mulozim. (V.)*

**TAVR** *a.* 1. Yo'l, yo'l-yo'riq, tarz, yo'sin.

*Har kishikim, istasa, tuzlukka g'avr,  
Angladik anikim, erur ikki tavr. (H.A.)*

2. Ajoyib, go'zal.

*Tavr shahre voqe' bo'lubtur. (Bn.)*

**Bu tavr** Bunday, bu kabi.

*Hech kim ko'rmadi bu tavr o'lat,  
Keldi ul qal'ag'a bir davri o'lat. (Shn.)*

**TAVSAN** *f.* Sho'x, maftunkor.

*Necha xotun kishi bor ersa tavsan,  
Bo'lub ozodalig'da sarvu savsan. (F.Sh.)*

**TA'XIR** *a.* Kechikish, kech qolish; cho'zilish.

**Ta'xir bo'lmoq** Cho'zilmoq.

*Bu yerda yetti so'z ta'xir bo'ldi,  
Burun o'n dedimu o'n bir bo'ldi. (Mn.)*

**Ta'xir aylamak** Hayallamoq, kech qolmoq.

*Elga yuz qilib xizmat, birin aylasang ta'xir,  
Ul yuzini yod etmay, bu biri hisob o'lmish. (K.)*

**TAXSIS** *a.* Xos qilish, xoslash; maxsus belgilash.

*Kim o'zi taxsisig'a imlodur ul,  
Muhri yo tavqi' yo tamg'odur ul. (L.T.)*

- TAXT** *f.* Podsho o'tiradigan qimmatbaho o'rindiq.  
*Adl eshigin elga kushod ayladi,*  
*Taxt uza o'turdiyu dod ayladi. (H.A.)*  
**Taxti xilofat** Xalifalik taxti.  
*Haqki, solib soyai ra'fat sanga,*  
*Ro'zi etib taxti xilofat sanga. (H.A.)*
- TAXSHANDOZ** *f.* Yonib turgan o'tni otuvchi.  
*Taxshandozlarimiz ko'pdur,*  
*Harb uchun sozlarimiz ko'pdur. (Shn.)*
- TAY** *a.* Yurish, bosib o'tish.  
*Jahdu sur'at aro tay aylab arz,*  
*Holatim aylasang Suhaylg'a arz. (S.S.)*  
**Tay o'lmoq** Bosib o'tilmoq; manzilga yetilmoq.  
*Shabi hijroniming poyoni tay o'lmaz, toyiri gardun*  
*Mahu xurshed o'lub ikki qanoti aylasa shabgir. (T.F.)*
- TAYARON** *a.* Uchish, parvoz etish, parvoz.  
*O'qki, tuz o'ldi tayaroni aning,*  
*Bo'lsa yer egri, ne ziyoni aning. (H.A.)*
- TA'YIN** *a.* Tayinlash, belgilash, ajratish.  
*Qildi bir kema borchag'a ta'yin,*  
*Ul kema ichra tuttilar taskin. (S.S.)*
- TAYR** *a.* Qush, parranda.  
*Ul minib zavraqi sabuksayre,*  
*O'ylakim suvda sayr etar tayre. (S.S.)*
- TAYYOR** *a.* Bir ishga hozirlab qo'yilgan, hozir, shay.  
*Bir necha zavraq asrabon tayyor,*  
*Yangi oy zavraqi kibi sayyor. (S.S.)*
- TAZALLUM** *a.* Zulmdan shikoyat qilish.  
*Sahvunga de uzr tavahhum bila,*  
*Zulmdin et tavba tazallum bila. (H.A.)*
- TAZARRU'** *a.* Yalinish, yolvorish, iltijo.  
*Deyolg'aymenki ko'p aylab tazarru',*  
*Bularg'a aylay olg'aymen tatabbu'. (F.Sh.)*
- TAZARV** *f.* Qirg'ovul, tustovuq.  
*Sening chehrangda, ey firdavs sarvi,*  
*Engin qon birla yur chimgan tazarvi. (Mn.)*
- TAZVIR** *a.* Hiyla, firib, aldov.  
*Yoyar domi tazvir el saydig'a,*  
*Qilib subhadin dona omoda shayx. (N.Sh.)*

**TAG'I** Tag'in, yana.

*Evurmen yuz nechakim kelsa mehnat,  
Jafa sizdin, tag'i bizdin muhabbat. (Mn.)*

**TAG'O** Tog'a.

*Ham yana Erhubbi bo'lodur tag'o,  
Ammamizning erlaridur Nurato. (M.)*

**TAG'OFUL** *a.* Esdan chiqarish, unitish; g'aflatda qolish.

*Tag'oful qilib, bir lahzadin so'ng haram sari mutavajjih  
bo'ldum. (Bn.)*

**TAG'YIR** *a.* O'zgartish; o'zgarish

**Tag'yir yetmoq** O'zgarish yuz bermoq.  
*Shukuhidin yetib Xisravg'a tag'yir,  
Qilib ishqi o'ti ko'ngliga ta'sir. (F.Sh.)*

**TASHADDUD** *a.* Zo'ravonlik, zulm, qiynoq.

*Ko'p taaddi va tashaddud qila boshladi.  
Balki bu taaddi va tashaddud Xojaning avlodig'a dag'i siro-  
yat qildi. (Bn.)*

**TASHNA** Chanqagan, suvsagan, chanqoq.

*Yiqildi tashna Guldursun ochindin,  
Ko'mak kimdin kelur, cho'l ichra kimdin? (S.Sar.)*

**TASHNALAB** *f.* Tashna, chanqoq.

*Ikisiga kin o'ti solg'ay g'azab,  
Ul o't qon icharga qilib tashnalab. (S.I.)  
Tashnalabdur Mashrabing, bo'ldi yurak bag'ri kabob,  
Furqatingda chashmai obi ravonim qaydasan? (Mash.)*

**TASHVIR** *a.* Falokat.

**Tashvir ko'rmak** Falokatga uchramoq.  
*Ko'rganin bahr mavjidan tashvir,  
Tushganin anda notavonu asir. (S.S.)*

**TEBA** Tepa, ust.

*Kemi qilurmen, tebasunga minib suv uzra yururmen. (R.)*

**TEBRAMAK** 1. Harakat qilmoq, harakatlanmoq, qimirlamoq.

*Qilich tebrar erkan yag'i tebramaz,  
Qilich qinqa kirsra beg inchlik yemaz. (Q.B.)*

2. Joyidan qo'zg'almoq, jilmoq, yurmoq, jo'namoq.

*Qodirberdidin xabar olmag'uncha xud bu yerdin tebrab  
bo'lmas. (Bn.)*

**TEBRANMAK** Qimirlamoq, qo'zg'almoq.

*So'ngak, et, teri, tomur, singirlar bilgurdi. Tebranu boshla-  
di. (R.)*



**TEGI** Qadar, dovor, -gacha.

*Nuh vaqtindaqi o'bdonliq qiyomatqa tegi bo'lmag'ay. (R.)*

**TEGIRMAK** Tegizmoq, tekkizmoq.

*Bedug ish budun bashlamaqi ag'ir*

*Bash ag'rig' bila tutchi emgak tegir. (Q.B.)*

**TEGMA** Har, har bir.

*Yuraklig yuraksizka bo'lsa bashi*

*Yuraklig bo'lur o'tru tegma kishi. (Q.B.)*

**TEGRA** Atrof, tevarak.

*Ul yetti yuz ming farishtalar izi azza va jalla yorlig'i birla kelib, Odamning tegrasunda turub tabug'inda to'ruqtillar. (R.)*

**TEGRU** Qadar, -gacha.

*Ayladi oni tiyra uyda nihon,*

*Anga tegruki tiyra bo'ldi jahon. (S.S.)*

**TEGURMAK** 1. Tegizmoq, tekkizmoq, tegdirmoq.

*Atoyi, yerga yel zulfin tegurmas,*

*Qaro yerga sening bosh urmog'ing ne? (A.)*

2. Yetkazmoq.

*Salomimni tegur ul xushliqog'a,*

*Qamug' boshdin-oyoq obi baqog'a. (Mn.)*

3. Tortmoq.

*Ul haromig'a tig'i kin sursak,*

*Keragidek jazog'a tegursak. (S.S.)*

**TEK** Harakatsiz, qimirlamaydigan, qotib qolgan.

*Xorazmiyning ketib aqli boshidin,*

*Turur tek surati yo'q jon ichinda. (Mn.)*

**TEKIN** 1. Qadar, -gacha.

*Qiyomatqa tekin qolsun oting teb,*

*Sening tabqungg'a bo'ldum oshno men. (Mn.)*

2. Kabi, singari, -dek.

*Og'ochlarda shakar tekin yemishlar,*

*Bu yerni ellari uchmoq demishlar. (S.Sar.)*

**TEKMA** Har, har bir.

*Ne bilur qadringizni tekma nodon,*

*Guhar qadrini a'mo bilmas, ey jon. (Mn.)*

**TEKMAK** Tegmoq, qadalmiq.

*O'qi nohah agar sandong'a tekxa,*

*Bashog'i itlanur sandon ichinda. (Mn.)*

**TELBA** Aqldan ozgan, jinni.

*Bazmdag'i qariyu gar xud yigit,  
Maydin bo'lub har biri bir telba it. (H.A.)*

**TELBARAMAK** Telbalanmoq, aqldan ozmoq; oshiq bo'lmoq.

*Dardi hajringdin Navoiy telbarabtur, ey pari,  
Gar eshitmak istasang devonavor abyot, kel. (F.K.)*

**TELURMAK** Aqldan ozmoq, jinni bo'lmoq.

*Qachon o'lsam sanga qadrim bilurgay,  
Bu yo'lg'a tushsa Aflotun telurgay. (Mn.)*

**TELVA** Telba.

*Ul o'g'long'a aydi: «Bu Nuh telva turur». (R.)*

**TEMAK** 1. Aytmoq, gapirmoq, demoq.

*Neku ter eshitgil urub yegli er  
Urub al ey alp er yana erka ber. (Q.B.)*

2. Nomlamoq, atamoq, demoq.

*Arab tilincha anga odam teyurlar. (R.)*

3. Biror ish-harakatni bajarishga harakat qilmoq, demoq.

*O'kush el tutayin tesa ey elik  
Uch ish qilg'u o'tru yetilsa ilik. (Q.B.)*

**TENG** 1. Mavqei, nufuzi, ahamiyati jihatidan baravar.

**Teng etmak** Tenglashtirmoq, teng deb hisoblamoq, teng ko'rmoq.

*Yarar jon desalar yoqutungizg'a,  
Teng etmon Zuhrani Horutungizg'a. (Mn.)*

2. Bir-biriga munosib, bir-biriga mos.

*Hech bilmasmusenki, «Teng tengi birla, tezak qopi birla».  
(R.)*

**TENGALMAK** Teng bo'lmoq, tenglashmoq.

*Qaro kirpukungga qunduz tengalmas,  
Saqoqingni yoqang kunduz o'par bas. (Mn.)*

**TENGINCHA** Teng keladigan, qadar, -dek.

*Taxt uza bir kursi erdi, Ka'ba tengincha erdi. (R.)*

**TENGIZ** Dengiz.

*Kemalarni tengiz aro surdi,  
Shiddatin lahza-lahza oshurdi. (S.S.)*

**TENGRI** Alloh, xudo, tangri.

*Tengriki insonni qilib ganji roz,  
So'z bila hayvondin anga imtiyoz. (H.A.)*

**Tengrining kalomi** Qur'on, Qur'oni karim.

*Barcha tengrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, hech kim bu qitoldin yuz yondurur xayol qilmag'ay. (Bn.)*

**Tengri rahmatig'a bormoq** Vafot etmoq, o'lmoq.

*Samarqandni ikkinchi navbat olg'onda birgina qizi bo'lub edi, necha kundin so'ng tengri rahmatig'a bordi. (Bn.)*

**TENGSIZ** 1. Nomunosib, noloyiq, nojoya, yarashmaydigan.

**Tengsiz qilmaq** Nojo'ya ishlar qilmoq.

*Bu yalg'an kishilar vafasiz bo'lur*

*Vafasiz kishi xalqqa tengsiz qilur. (Q.B.)*

2. Nojo'ya ish, noma'qulchilik, bema'nigarchilik.

*Qara tengsizin barcha beglar etar,*

*Begi qilsa tengsiz ani kim yetar. (Q.B.)*

**TENGSIZIN** Nojo'ya ish, noma'qulchilik, bema'nigarchilik

*Qara tengsizin barcha beglar etar,*

*Begi qilsa tengsiz ani kim yetar. (Q.B.)*

**TERI** 1. Odam tanasining ust qismi, po'sti.

*Odamning terisi bag'oyat ko'rkluk erdi. (R.)*

2. Po'stloq, po'st, qobiq.

*Buxoro olusidek hech yerda bo'lmas, terisini so'yub qurutub tabarrukluk bila viloyattin viloyatqa elturlar. (Bn.)*

**TERILMAK** Toplanmoq, yig'ilmoq.

*Aqa yiglu terlur erat su bo'lur*

*Erat su bila er tilakin bulur. (Q.B.)*

**TERKIN** Tez, darhol, darrov.

*Biri yarlig'ingni ag'ir tutsalar,*

*Neku ersa terkin, ani qilsalar. (Q.B.)*

**TERMAK** Yig'moq, to'plamoq.

*Deyub anga Suhayl: «Ne gul terursen?*

*O'zung gulshanda ko'rkli gul erursen». (S.Sar.)*

**TERS** Osonlik bilan hal qilib bo'lmaydigan, qiyin, murakkab.

*Yanut berdi O'gdulmish aydi elig*

*Edi ters ayitti menga bu bilig. (Q.B.)*

**TETRU** Ters, chappa.

*Qayu begda bo'lsa bu arquq qilinch*

*Ishi barcha tetru sevinchi saqinch. (Q.B.)*

**TEVA** Tuya.

*Buyurduqkim, o'rdu tevasini sanag'aylar, besh yuz yetmish teva chiqti. (Bn.)*

**TEZ** *f.* 1. Darrov, darhol, shu on.

*Bu kech sengayu menga keldi bir kez,  
Dedi Suhaylg'a Guldursun, turub tez. (S.Sar.)*

2. Sur'at bilan, shiddat bilan, jadal.

*Ko'rdilar solur erdi bir bug'u xez,  
Yetti oni qovub bir otlig' tez. (S.S.)*

3. Shiddatli, kuchli.

*Go'yyokim esib hamul yel tez,  
Soldi bu elga dog'i rustoxez. (S.S.)*

4. Yaxshi kesadigan, o'tkir, keskir.

*Kinga tikan bila qilibsen sitez,  
Urg'usidur ko'ksungga yuz tig'i tez. (H.A.)*

**TEZGINMAK** Aylanmoq, kezmoq.

*...jon Odanning boshung'a kirib ikki yuz yil tezgindi. (R.)*

**TEZGINCH** Taqdir, qismat.

*Yaratdi ko'r, evran tuchi evrular,  
Aning birla tezginch yema tezginur. (Q.B.)*

**TEZKURMAK** Qochirmoq, yiroqlashtirmoq, uzoqlashtirmoq.

*Tugug yuz irig so'z kuvaz kur qiliq  
Kishig tezkurur ko'ndru bilmas yo'riq. (Q.B.)*

**TEZMAK** Qochmoq, yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq, ketmoq.

*Fasad qayda bo'lsa qachar qut teza  
Fasad chin yurir tutchi beglik buza. (Q.B.)*

**TEG'** *f.* Tig'.

*Shu so'zni aytti, teg' urub o'ziga,  
Ko'runmay qoldi keng olam ko'ziga. (S.Sar.)*

**TESHAVARLIQ** Tosh yo'nuvchilik, tosh kesuvchilik.

*Hamul xayl ichra aylab peshavarliq,  
Demakim peshavarliq, teshavarliq. (F.Sh.)*

**TESHUK** Teshik.

*Nuh aydi: «Kim bu teshukni berkitsa, ne tilagi bo'lsa bergaymen», tedi. (R.)*

**TIFL** *a.* Go'dak, chaqaloq, yosh bola.

*Tarab tifli tug'urdi dahr zoli,  
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z. (Og.)*

**TIKAN** O'simliklarning ninaga o'xshash qismi; tikanak.

*Raqibingdur tikan, siz toza gulsiz,  
Chechak chimgan aro bo'lmas tikansiz. (Mn.)*

**TIKMAK** Ekmoq, o'tqazmoq.

*Nuh yig'och tikdi. (R.)*

**TIL** 1. Og'iz bo'shlig'ida joylashgan, ta'm bilish, gapirish (insonlarda) uchun xizmat qiladigan a'zo.

*Qarlug'och singak og'zin yizlayur bo'lub, tumshuqi birla singak tilin kesib oldi. (R.)*

2. Insonning gapirish qobiliyati, gap.

*Tili chin kerak bo'lsa ko'ngli ko'ni*

*Budunqa asig' qilsa tug'sa kuni. (Q.B.)*

3. Kishilar o'rtasida aloqa quroli bo'lib xizmat qiladigan vosita.

*Arab tilincha anga odam teyurlar. (R.)*

4. Ibora, gap, nutq, so'z.

*Tili yalg'an erning jafa qilqi ul*

*Jafa kimda ersa o'shul yilqi ul. (Q.B.)*

**Tilga kelmak** Aytilmoq.

*Tilga keldikim, dunyo moli aning evazig'a nechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkil bo'lubtur. (Bn.)*

**Tilga solmoq** Aytmoq.

*Ul ish iqrori uchun anga qilmag'an azob qolmadi, ammo ul maxfiy sirri ko'nguldin tilga solmadi. (M.Q.)*

**Tili bush** Tili achchiq, tili zahar.

*Xiradliqmu bo'lur tili bush kishi,*

*Telim bashni yedi bu til so'z bashi. (H.H.)*

**TILAMAK** 1. Xohlamoq, istamoq.

*Aning bo'ldi dunya bu ne'mat bila*

*Tilasa o'zung ye tilasa ula. (Q.B.)*

2. Talab qilmoq, taqozo etmoq.

*Iduq ul beglik arig'liq tilar*

*Arig'liq bila elda saqliq tilar. (Q.B.)*

3. Izlamoq, axtarmoq, qidirmoq.

*Nuh uyotlig' bo'lub singakni tilayu qarlug'ochni izdi. (R.)*

4. Chorlamoq, taklif qilmoq.

*Men dedimkim, men ham xotun kishining ichganini ko'rmaydurmen, suhbatqa tilang. (Bn.)*

**TILINCHA** Tilida.

*Arab tilincha tirikka «hay» atayurlar. (R.)*

**TILISM** *a.* Tilsim.

*Hamul ganjikim topmay ahli jahon,  
Ani bu tilism ichra aylab nihon. (S.I.)*

**TILLO** Oltin, zar.

**Tillo puli** Soliqning bir turi.

*Kecha go'yo eshitib shuhrati tillo pulini,  
Hapalak qo'rqusidin uchti misoli kapalak. (Max.)*

**TIMSOL** *a.* 1. O'xshash, kabi.

*Chu nogah o'tg'a ul yon mayl berdi,  
Ki Farhodi hazin timsoli erdi. (F.Sh.)*

2. Haykal; sanam, but.

*Aning ruxsorig'a chun boqti timsol,  
Tani timsol yanglig' bo'ldi behol. (F.Sh.)*

**TINDURMOQ** Dam bermoq, orom bermoq, dam oldirtirmoq.

*Otni lahza tindurub otlanduq. (Bn.)*

**TIRAMAK** Qadamoq, tayamoq.

*Xoh o'lung, xoh qoling bachchag'ar,  
Debki, uzangiga oyog'in tirar. (M.)*

**TIRANMAK** Qarshi turmoq, qarshilik qilmoq.

*Birisi evaklik, birisi saran  
Uchunchi bushiliq serin o'z tiran. (Q.B.)*

**TIRGAZ** *f.* O'q, kamon o'qi.

*Bir tirgaz otimi yer jibalik, kejimlik ot uzdurub o'ttuk. (Bn.)*

**TIRGUZMAK** Tiriltirmoq.

*Meni o'turdi jafou javr birla ul quyosh,  
Emdi tirguzmak uchun mehru vafosi qoldimu? (B.)*

**TIRI** Tirik, o'lmagan.

*U yatg'an choh ichi yo'q shu'lai nur,  
O'langamas tiriga erdi bir go'r. (Sar.)*

**TIRIGLIK** Hayot, turmush.

**Tiriglik bulunmaq** Yaxshi hayotga erishmoq.  
*Sening bo'ldi dunya tiriglik bila  
Tiriglik bulunsa yatib ye kula. (Q.B.)*

**TIRILMAK** 1. Jonlanmoq, jon kirmoq

*Anda kezin ko'zinga kirdi ersa, ko'zlari tirildi  
O'z yuzini ko'rdi. (R.)*

2. Yashamoq, hayot kechirmoq

*So'zi chin kerak beg ne qilqi qutun  
Inansa angar xalq tirilsa butun. (Q.B.)*

**TIRIZLIK** To'ning qo'ltiqdan etakkacha bo'lgan qismi.

**Bir tirizlik** Ahillik, ittifoqlik.

*Bir yaqodin bosh chiqarib, barcha bir to'ng'a kirib,*

*Bir o'ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling. (T.F.)*

**TIRNOG'LAMOQ** Tirnamoq, tirnoqlamoq.

*Marham istab kimsadin zaxmi dil izhor aylasang,*

*Choraye qilmoqdin o'zga ustiga tirnog'lar. (M.)*

**TIYIN** Olmaxon.

*Ko'kda o'ynar, qo'l solishur qug'u, g'oz, qil, qarlug'och,*

*Yerda yugurub juft olishur os, tiyin, kish, qunduzi. (R.)*

**TIYNAT** a. Yaratilish, tabiat, xarakter.

*Munungdek tiynati pokiza loyiq,*

*Duosin aytibon poki xaloyiq. (F.Sh.)*

**TIYR** f. O'q, kamon o'qi.

**Tiyri balo** Balo o'qi.

*Bekase, mushti xase, bir bandai bechoraye,*

*Sobiram, ro'zi qazo, tiyri balog'a ko'ndiman. (T.F.)*

**Tiyri rihlat** O'lim o'qi.

*Jibayi jon tiyri rihlatdin so'kulmasdin burun,*

*Ey ko'ngul, qasri asosi tan buzulmasdin burun. (T.F.)*

**TIYRA** f. 1. Qorong'i, qop-qorong'i.

*Ayladi oni tiyra uyda nihon,*

*Anga tegruki tiyra bo'ldi jahon (S.S.)*

2. Qora.

*Ermas alar tuprog'u sen nuri pok.*

*Xilqat alarg'au zanga tiyra xok. (H.A.)*

3. ko'ch. Baxtsiz, tolesiz.

*Ro'zgorim tiyra, iqbolim zabun, baxtim qaro,*

*Bo'lsa ravshan, bormukin tadbiri digar tole'im? (M.)*

**TIYRANDOZ** f. O'qni otadigan kishi, mergan.

*Tegmagay hargiz nishong'a otgan o'q yuz hajv ila,*

*Xoh zamonning shoiri bo'l, xoh tiyrandozi bo'l. (Z.)*

**TIYG'** f. Tig', xanjar, qilich.

*Tiyg'ing mening qonimdadur, zulfung qiribonimdadur,*

*Yuz ming alam jonimdadur, man muftalo qayg'a boray. (M.)*

**TIZ** Tizza.

*Boz izdihomi voizi,*

*Badkayfu ochilmas ko'zi,*



*Yuqori boshidin tizi,  
Ermaklari ko'knor ekan. (M.)*

**TIZGIN** Jilov.

*Jabroil tizgin tutub, Mekoil sag'indin, Isrofil so'lundin,  
bolub ko'klarni kezdilar. (R.)*

**TIZMAK** To'lamay qo'ymoq, bermay qo'ymaq, to'xtatmoq.

*Ekinch, tizmasalar xazina haqi,  
O'zimda tegursa, ey elchi aqi. (Q.B.)*

**TIZZA** Shim, ishton kabi kiyimlarning tizzani qoplab turadigan qismi.

*Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kulur, degandek, sen bizni faqir-  
notavon ko'rdungmu? (Zm.)*

**TIG' f.** Dami keskir qurollarning umumiy nomi. (Qilich, xanjar, pichoq kabi)

**Tig'i kin surmak** Nizo tig'i, dushmanlik tig'ini surmoq.

*Ato jon berib og'lin o'lturgali,  
O'g'ul ham anga tig'i kin surgali. (S.I.)*

**Tig'i tez** O'tkir tig'.

*Kimga tikan bila qilibsen sitez,  
Urgusidur ko'ksunga yuz tig'i tez. (H.A.)*

**Tig' chekmak** Qurol ishlatmoq, tig' tortmoq, kuch ishlatmoq.

*Zol dedikim: Qazoq erkanda shoh,  
Tig' chekibkim, chekar erdi sipoh. (H.A.)*

**TISHI** Ayol, xotin.

*Aning uchur «Tishilar ko'nulmas egri so'nguk turur» teb  
xalq orasida yumoq bo'ldi». (R.)*

**TISHLAMAK** Tishlari orasida tutmoq, tishida tutmoq, tishida ushlamoq.

*Tishlabon ul moyai payvandini,  
Og'zida asrar edi farzandini. (H.A.)*

**TO I f.** 1. -dan beri, -dan buyon.

*Senga to bo'ldum, ey jon, oshno men,  
Jafong ilgindin usru muftalo men. (Mn.)*

2. -ga qadar, -gacha.

*Mehr ko'ziga shomdek ayyom,  
Mehrdek ko'ngli o'rtanib to shom. (H.A.)*

3. Toki.



*Sa'y etay to tanimdadur jonim,  
Qilayin toki bo 'lg'ay imkonim. (S.S.)*

**TO II a.** Arab alifbosidagi o'n oltinchi «t» harfining nomi, itqi.  
*Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas.  
Iltifotni «to» bilan bitibsen. (Bn.)*

**TOAT a.** Toat-ibodat, ibodat, sig'inish, topinish.  
*Shar' tariyqida, ibodatda ham,  
Haq yo'lida taqviyu toatda ham. (H.A.)*

**TOB I f.** O'ralish, buralish, bukilish.  
*Tuz chekilur borgoh uzra tanob,  
Ko'rki, erur boshdin ayoq pechu tob. (H.A.)*

**TOB II f.** Nur, tovlanish.  
*Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar hinodin lolarang,  
Go'zadin yuzlarda tobu, o'smadin qoshlar tarang. (F.)*

**TOB III** Isitma.  
*Ne o'tdin ekin tobi oyo,  
Ko'ngli aro iztirobi oyo? (L.M.)*

**TOBADON f.** Uy ichiga yorug' tushishi uchun eshik tepasidan  
qo'yiladigan tuynuk.  
*Shishadek ko'nglumdadur gulzori husnung yodidin,  
Tobadonning aksidek alvon qizil, sorig', yashil. (F.K.)*

**TOBAKAY f.** Qachongacha.  
*Tobakay jabr-u sitam birla yurursan, ey rafiq,  
Chiqti, Mashrab, ushbu g'amdin bu aziz jonim mening.  
(Mash.)*

**TOBI' a.** Birovga ergashuvchi, bo'ysunuvchi.  
*Dev-u pari zumrai odam bila,  
Tobi'i amri edi xotam bila. (H.A.)*

**TOBON f.** Yorug', nurli, porloq.  
*Epi yeb isrigach bir onda posbon,  
Choh ichra boqti tez xurshidi tobon. (S.Sar.)*

**TOINKI f.** Shundan keyin, shundan so'ng, shoyadki.  
*Yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri  
taolo sihat bergay. (Bn.)*

**TOJ f.** Faqat podishohlar kiyadigan, qimmatbaho toshlar bilan  
bezatilgan bosh kiyim.  
*Toj boshingdin bo'lubon sarbaland,  
Taxt ayog'ingdin o'lub arjumand. (H.A.)*



- TOJDOR** *f.* Toj egasi, hukmdor, podshoh.  
*Ne chekkay ko'kka boshni tojdore,*  
*Yo'q ersa bir dur andin yodgore. (F.Sh.)*
- TOJVAR** *f.* Toj kiygan, tojdor, podshoh.  
*Chunki bo'ldung ikkisidin barxabar*  
*Sen o'zung hukm aylagil, ey tojvar. (L.T.)*
- TOKAY** *f.* Qachongacha.  
*Tokay yuray yo'lungda ko'zum yoshin oqturub,*  
*Tindur yoshim, ko'zumni jamolingg'a boqturub. (K.)*
- TOKI** *f.* To, -gacha.  
*Kunduzu kecha po'ya ettilar,*  
*Toki kishvarlarig'a yettilar. (S.S.)*
- TOKIM** *f. ayn.* Toki.  
*Olig'a solibon borin surdi,*  
*Tokim o'z maskanig'a yetkurdi. (S.S.)*
- TOL** Tol, tol daraxti.  
*O'rlasa bulutlari gulchirar bog'u bo'ston,*  
*Tol yig'ochlar yeng solishur o'ynayurtek qo'y-qo'zi. (R.)*
- TOLE'** *a.* 1. Baxt, saodat, iqbol.  
*Ayo farxunda tole', tal'ati kun,*  
*Seni tengri murodingg'a tegursun. (Mn.)*  
 2. Taqdir, qismat.  
*Qirq, yuz, ming aqrabolar ettilar mandin nufur,*  
*Ne balo, baxti qaroyu tolei shum Turdiman. (T.F.)*
- TOLP'** *a.* Chiqish, ko'rinish(kun, oy va yulduz haqida).  
*Angakim, qoldi g'am shomig'a jovid,*  
*Burun subh o'ldi toli', so'ngra xurshid. (F.Sh.)*
- TOLIB** *a.* Mayl qiluvchi, xohlovchi, istovchi.  
*O'zi yormoq yig'ishturmoqqa behad tolib, betajriba yigit edi.*  
 (Bn.)
- TOLIH** *a.* Yomon.  
*Laqabi Solihu, o'zi tolih,*  
*Nursaid o'g'li Muhammad Solih. (Shn.)*
- TOLOR** Ustunlarga o'rnatilgan baland so'ri.  
*Sunna vaqtida chaman o'rtasidag'i tolor ustida o'lturuldi.*  
 (Bn.)
- TOLG'ALANMOQ** 1. Dolg'alanmoq, to'lqinlanmoq. 2. Tirishmoq, burishmoq.

*Kecha uning nur tengizi bo'lg'on go'zal manglayin  
tolg'alanmish ko'rgach men. (Fit.)*

**TOM** Uyning ust qismi, binoning tepasi.

*Taqi aymishlar, mushuk tomdin tomg'a oshib yurusa, yuz  
yig'och yer yurur erdi. (R.)*

**TOMIA** a. Birovdan tama qiluvchi, tamagir.

*Oni dog'i qilma saxo doxili,  
Kim, kishini tomiayi komili. (H.A.)*

**TOMUR** Inson va hayvonlar tanasida qon oqadigan ipsimon organ, tomir.

*So'nguk, et, teri, tomir, singirlar bilgurdi. (R.)*

**TONGMOQ** Tang'imoq, mahkam bog'lamoq, bog'lamoq.

*Hariru hulla ichra bog'labon chust,  
Murassa' mahd ichinda tongdilar rust. (F.Sh.)*

**TONUG'** Guvoh, shohid.

*Dedi: «Gar ikki tonug' etsam havas,  
Ham aning – o'q adliyu insofi bas». (H.A.)*

**TOPMOQ** 1. Qidirib, axtarib kerakli narsani bilib olmoq.

*Bu hikoyatning bayonini istasang "Kalila va Dimna" din top.  
(Zm.)*

2. Uchratmoq.

*Ahli hole topmadim boshdin balo daf' etmadi,  
Kulfati g'urbatni tuzluk sunnati raf' etmadi. (T.F.)*

3. deb hisoblamoq, – deb bilmoq.

*Derki Hakimjoni: – Ayo oqsoqol,  
Bizni topibsana magaramkim o'sol. (M.)*

4. Ba'zi otlar bilan birga qo'shma fe'l hosil qiladi.

*Muni bilgach Suhayl zoru hazin,  
Shammai topti xotiri taskin. (S.S.)*

**TOPQOM** Topaman.

*Shaho, lutfungni topqom deb duochi banda Sakkokiy,  
Belin joni bilan bog'lab, bu xizmatg'a ravon keldi. (S.)*

**TOPSHIRDIQ** Topshirgan.

*Men qo'limga topshirdig'ing qilichni tashlab cholg'uni  
olmasa edim, Turonim talanmas edi! (Fit.)*

**TOPSHURMOQ** Bir narsani biror kishi ixtiyoriga bermoq, topshirmoq.

*Chunki qosid bitikni yetkurdi,  
Shoh Navdar qo'lig'a topshurdi. (S.S.)*

**TOQ a.** 1. Qubba shaklidagi narsa, gumbaz.

*Muncha oliy toq olamda kam nishon berurlar.*

*Derlarkim, Kisro toqidin bu biyikraktur. (Bn.)*

2. Mehrob, tokcha kabi narsalarning boshidagi yoysimon qismi.

*Falak ayvonina bosh indururmu,*

*Qoshing mehrobining toqina mushtoq. (A.)*

3. *ko'ch.* Dunyo.

*Ham ovozangni ofoq ichra solg'ay,*

*Ham ovozing kuhan toq ichra solg'ay. (F.Sh.)*

**Toqi abro'** Qayrilma qoshlar.

*Ey ko'ngul, qasri asosi tan buzulmasdin burun,*

*Toqi abro', kursiyi dandon to'kulmasdin burun. (T.F.)*

**Falak toqi** Osmon gumbazi.

*Yetib to'qquz falak toqig'a ho'yung,*

*Yeti kishvarni tutqay guftugo'yung. (F.Sh.)*

**TOR I f.** 1. Cholg'u asboblarning tebranib ovoz chiqaradigan ipi.

*Jismi qonundin nafas tori uzulmasdin burun,*

*Boshinga davri qazo bazmi qurulmasdin burun. (T.F.)*

2. Soch tolasi.

*Kel, ey mashshota, rahm et, yor zulfig'a tarog'urma,*

*Erur jon rishtasidin oni har torig'a payvandim. (Amir.)*

**Tori gisuyi** Ayollar sochining tolasi; soch.

*Nozukluk ichra belicha yo'q tori gisuyi,*

*O'z haddini bilib, belidin o'lturur quyi. (L.)*

3. Pilik.

**Torin parishon aylamak** Piligini titmoq.

*Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,*

*Sham' ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach. (G'.S.)*

**TOR II** 1. Qisqa, ensiz.

*Sayd jangal ichini qildi talosh,*

*Yo'li ham tor ediyu ham chirmosh. (S.S.)*

2. Kichkina, kichik, jajji.

*Qachonkim bo'lsa tor og'zing shakarbor,*

*Sabo gulg'unchani og'zini yirtor. (Mn.)*

3. *ko'ch.* Bag'ri kenglikni bilmaydigan, bag'rikenglik qilmaydigan.

*Tor ko'ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,*

*To'qson ikki bovli o'zbek yurtidur, tenglik qiling. (T.F.)*

**TORAM** *a.* 1. Qubbali baland uy, gumbazli baland uy.

**Torami axzar** Ko'k, osmon.

*Borgohi torami axzar kibi,*

*Xayli bu toram aro axtar kibi. (H.A.)*

2. *ko'ch.* Osmon, ko'k, samo.

*Qilib ishqing o'ti olamni ravshan,*

*Ne olam, nilgun toramni ravshan. (F.Sh.)*

**TORI** *a.* Kutilmaganda ro'y berish, qo'qqisdan paydo bo'lish.

*Manga bir kun baloyi bo'ldi tori,*

*Muqavvas ko'kdin o'qi tegdi kori. (F.Sh.)*

**TOROJ** *a.* Talon-taroj, talov.

**Toroj aylamak** Talamoq, shilmoq.

*Zihi ishqingda dardi dog'i hijroning matoimdur,*

*Qaroqchi aylamas toroj oningki, kimsa boj etmaz. (G.)*

**TORTIG'LIQ** Tortilgan, tutib qo'yilgan, tortiq, tortiqlik.

*Sindurub gunbazni, qizlar holidin olsam xabar,*

*Yuzlariga parda tortig'liq turarlar bag'ri qon. (U.)*

**TORTMOQ** 1. Biror tomonga surmoq.

*Sening ishqing kamandi bizni tortar,*

*Jamoling ravnaqi olamni o'rtar. (Mn.)*

2. Otlar bilan birikib qo'shma fe'l yasaydi.

*Temur Urganja tortib keldi lashkar,*

*Ko'rub ko'z ko'r bo'lub qoldi quloq kar. (S.Sar.)*

**TORTUQ** Tuhfa, sovg'a, armug'on.

*O'lurmu sevgi ham bil, shundin ortuq,*

*Ki ikkisi qilur jonini tortuq. (S.Sar.)*

**TOT** Dod! Voy!

*Qichqiribon dom aro ul muftalo,*

*Necha dedi, tot, meni tuttilo. (H.A.)*

**TOTLI** Mazali, lazzatli, shirin.

*Shakardin totli so'zli dilrabosen,*

*Dareg'okim, chechaktek bevafofen. (Mn.)*

**TOTLIG'** *ayn.* Totli.

*Qamug' etlardin odamiy eti totlig' turur. (R.)*

**TOTMOQ** Yeb ko'rmoq, biroz yeb, ichib mazasini bilmoq.

*«Borg'il yer yuzindagi etlarni totg'il, yilong'a beraling», tedi.*

*(R.)*

**TOTOR** *mo'g'.* Mo'g'ul; tatar, mo'g'ul tatarlari.

*Chun totor kuffori Xorazmg'a yetubturlar. (N.M.)*



**TOTURMOQ** Tottirmoq, yedirmoq.

*Mushtahiy el yuz esa non bergali,  
Luqma toturmas tilabon mumtali. (H.A.)*

**TOVON** *f.* O'ldirilgan kishi yoki keltirilgan zarar uchun to'lanadigan haq; xun.

*Bizing mazhabda oshiqhlarni sizlar,  
Agar o'ltursangiz tovon yo'q, ey jon. (Mn.)*

**TOVUS** *a.* Qirg'ovullar oilasiga mansub, erkaklarining dumi uzun, rang-barang patli chiroyli bir qush.

*Zabza rayohin anvoyi gullar, chechaklar kasratidin  
qo'rg'ong'a qo'ng'on chog'ida tovuслarning parlaridek  
turlanib, munaqqash ko'runur erdi. (Zm.)*

**TOYIB** *a.* Tavba qiluvchi; o'z gunohlaridan pushaymon bo'luvchi.

*Bu tarixda deydurlarkim, toyib bo'lub yaxshi tariqa paydo  
qilibtur. (Bn.)*

**TOYIR** *a.* Qush.

**Toyiri gardun** Falak qushi.

*Shabi hijroniming poyoni tay o'lmaz, toyiri gardun  
Mahu xurshed o'lub ikki qanoti aylasa shabgir. (T.F.)*

**Toyiri harim** Haram qushi, haramdagi qush.

*Ko'nglum qushi toyiri hariming,  
Sayd etma kabutari haramni. (Amir.)*

**TOZA** *f.* 1. Yosh, yangi.

*Jonimdag'i «jim» ikki dolingg'a fido,  
Andin so'ng «alif» toza niholingg'a fido. (A.N.Rub.)*

2. Eskirmagan, yangi, barra, so'limagan.

*Daftari nazmida chu sherozadur,  
Gul varaqi gulshan aro tozadur. (H.A.)*

3. Yaqinda paydo bo'lgan, yangi.

*Chunki Varzob suyidin lashkar  
O'tti, keldi yana bu toza xabar. (Shn.)*

4. Nihoyatda, rosa, juda.

*Dog'i firoq toza qo'yubtur ichingakim,  
Bag'rimni toza kuyduradur dog'i furqati. (F.K.)*

**TOSH I** 1. Qattiq, bo'lak-bo'lak holda va har xil rangda uchraydigan modda.

*Odam otlarin aytu berdi, bu yig'och, bu tosh, bu suv. (R.)*

2. *ko'ch.* Kishi qalbini ezadigan, g'am keltiradigan narsa, hodisa; yuk.

*O'nginda tushdakin ko'rganda u shod,  
Alam toshi sinib, dil bo'ldi ozod. (S.Sar.)*

**TOSH II** Tashqari, sirt.

*Barcha qushlarning so'ngoki ichida,  
Ul na qushdurkim, so'ngoki toshida. (U.)*

**TOSHMOQ** To'lib toshmoq; jo'sh urmoq, jo'shmoq.

*Ko'ngulning qoni qaynab barcha toshqay,  
Ko'zumning yoshidin kavsar buloshqay. (Mn.)*

**TU** Hamma; har bir; har xil, turli xil.

*Bu el tutg'uqa ko'p erat su kerak  
Erat tutg'uqa neng tavar tu kerak. (Q.B.)*

**TUB** 1. Tag, ost. 2. Asos, poydevor; mohiyat.

*Bu el tutruqi ham tubi begliki  
Eki neng turur asli yildiz ko'ki. (Q.B.)*

**Tub asil** Aslzoda, zodagon.

*Bu beglikka ashnu tub asli kerak  
Atim alp qatig' qurch yana to'ng yurak. (Q.B.)*

**TUFANG** Miltiq.

*O'shal kuni Ustod Aliquli besh kishini tufang bila otib yiqti.  
(Bn.)*

**TUFROQ** Tuproq.

*Hunarni asrabon netkumdur oxir,  
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir. (F.Sh.)*

**TUGAL** 1. Komil, kamolotga erishgan.

*Tugal beg bo'lur bu budunqa bashi  
Aningdin bulur edgu tekma kishi. (Q.B.)*

2. To'liq, bekam-u ko'st.

*Bu beglik bag'i ko'r bu ikki bo'lur  
Bu ikki tugal bo'lsa beglik turar. (Q.B.)*

**TUGAN** a. Iz, dog'; yara izi.

*Jismimda tuganlarni ayb aylama, ey zohid,  
Kim sabr iliki tikkan xirqamda yurunlardur. (F.K.)*

**TUGANMAK** Tugamoq, tamom bo'lmoq.

*Ozuq va zaxira kam edi. Bo'lg'oni ham tugandi. (Bn.)*

**TUGUG** Badqovoq, xo'mraygan, qovog'i soliq.

*Tugug yuz irig so'z kuvaz kur qiliq  
Kishig tezkurur ko'ndru bilmas yo'riq. (Q.B.)*

**TUL I** Eri o'lgan xotin, beva.

*Bor edi men tulg'a jigargo'shaye,  
Bal jigarim mazraidin xo'shaye. (H.A.)*

**TUL II** *a.* Uzunlik.

*Andoq mashhurdurkim, Temurbek degandurkim: mening bir bog'im borkim, tuli o'ttuz yig'ochtur.* (Bn.)

**TULU'** *a.* Chiqish, ko'rinish. (Oy, quyosh haqida)

**Tulu' etmak** Chiqmoq, ko'rinmoq.

*Tulu' etti chu ul raxshanda xurshid,*

*Adam shomig'a bo'ldi sham'i jovid.* (F.Sh.)

**TU'MA** *a.* Yem, oziq, yemak, luqma.

*Qo'yni shubon asramasa oyu yil,*

*Och bo'rilar tu'masidur bori bil.* (H.A.)

**TUMAN I** 1.O'n ming (10 000). 2.Ko'p, juda ko'p.

**Ming tuman** Minglab, juda ko'p.

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman.*

*Anin tutsa el kend ko'tursa tuman.* (Q.B.)

**TUMAN II** 1. Atmosferadagi mayda suv zarralari, tuman. 2. *ko'ch.*

Zulmat, jaholat.

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman*

*Anin tutsa el kend ko'tursa tuman.* (Q.B.)

**TUMONOT** (*birliği tuman*) Tumanlar, rayonlar.

*Yaxshi tumonoti bor. Ul jumladin, Sug'd tumani va Sug'dg'a payvast tumanlardur.* (Bn.)

**TUMOR** *a.* Duo yozilgan qog'oz.

**Tumori junun** Jinnilikka qarshi tumor.

*Menda tumori junundek pech, vahkim, bexabar,*

*Har taraf ko'nglumda qonlig' dog'i pinhonimdin el.* (B.B.).

**TUNAMAK** Talamoq, shilmoq, bor-yo'g'ini tortib olmoq.

*Borchasini tunadilar, ammo*

*Menga ko'rguzmadilar hech jafo.* (Shn.)

**TUND** 1. Qo'rqinchli, vahimali, qahrli.

*Bor edi bir beshada bir tund sher,*

*Vahshat aro ko'k asadidek daler.* (H.A.)

2. Shiddatli, kuchli, qattiq.

*Toki tund o'ldi bahr aro ko'lok,*

*Dedi malloh aylabon yaqo chok.* (S.S.)

**Insofi tund** Zo'r insof.

*Tig'ni ul adl ila insofi tund,*

*Zoli hazin tishlaridek qildi kund.* (H.A.)



**TUNGLUK** Tuynuk.

*Zidonki, tanimdur anda mahbus,  
Ham tungluki, ham eshiki madrus. (L.M.)*

**TUNMOQ** Xiralashmoq, xiralanmoq, ravshanligini yo'qotmoq.

*Ko'ngullar ohidin iymangil, ey moh,  
Kim oyina tunar ko'p qilsalar oh. (Mn.)*

**TUQG'ON** Tug'ishgan.

*Yana bir qiz Mehrbonubegim erdi. Nosir mirzo bila bir  
tuqq'on erdi. (Bn.)*

**TURFA** a. Odam hayron qoladigan, qiziq, g'alati, ajablanarli.

*Turfa bukim, xisravi odil ani  
Adl ila ul davrda aylab g'ani. (H.A.)*

**TURK** 1. Turkiy xalq, turkiy.

*Qamug' turklar Yofas urug'i turur. (R.)  
Sening Turoningni o'zim talatdim, sening turkingni o'zim  
ezdirdim, sening omonatlaringga xiyonat qildim. (Fit.)*

2. Jasur, botir, qo'rqmas.

*Mardona va turk va yaxshi kishi edi. (Bn.)*

**TURKI I** Eski o'zbek tili, turkiycha.

*Eli turkdur. Shahar va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur.  
(Bn.)*

*Turki ab'yoti erur sharbati nob,  
Forsiy she'rlari ham serob. (Sh.)*

**TURKI II** Qo'shiq, ashula.

*Bu uyda kelganda Jonak turki aytti. (Bn.)*

**TURKIYA** Kanizak.

*Ammo bir turkiyasi bor ermish jamilakim, ani o'zi bila elta  
olmas ermish va shaharda dog'i qo'yarda hech yerda e'timo-  
di yo'q ermish. (N.M.)*

**TURKLUK** Turkka xos xulq-atvor, xarakter.

*Nomusini bot kishilarning ayog'lari ostinda ko'rub, turkluk  
qoni qaynag'ay, musulmonlik hamiyati toshg'ay. (Fit.)*

**TURKONA** Turkcha, turkiy.

*Turkona ir irlag'uncha oning,  
Kuydurdi meni yalay-bulosi. (S.)*

**TURKCHA** Turkiycha, eski o'zbek tilida.

*Men turkcha boshlabon rivoyat,  
Qildim bu fasonani hikoyat. (L.M.)*



**TURLUG** Turli, har xil.

*Qamug' turlug erdam bu bilsa tugal  
Yiraq ersa andin yarag'siz mahal. (Q.B.)*

**TURMOQ** 1. Yotgan holatdan tik holatga kelmoq, qo'pmoq.

*Suhayl kiydi turub arvad qumoshin,  
Chiqarsa kimsa yo'q, chohdin u boshin. (S.Sar.)*

2. To'xtamoq, yurmay qo'ymoq.  
*Ikkisi chun yondashib o'turdilar,  
Har sori hayrat bila el turdilar. (H.A.)*

3. Yashamoq, mavjud bo'lmoq.  
*Bu beglik bag'i ko'r bu ikki bo'lur  
Bu ikki tugal bo'lsa beglik turar. (Q.B.)*

4. Tinmoq, to'xtamoq, bosilmoq.  
*Tonglasig'a qor va chopqun turdi. (Bn.)*

**TUROB** a. Tuproq, yer; chang, to'zon.

*Bu ishq o'ti xarob etti, yurak-bag'rim kabob etti,  
Meni xoki turob etti yuzi mohi tobon onam. (Mash.)*

**TURUNJ** Limon.

*Va ul jamoat olida turunj va turunj kesarga iliklariga  
pichoqlar erdi. (T.A.H.)*

**TURUQMAQ** To'xtamoq, turmoq.

*Ul yetti yuz ming farishtalar izi azza va jalla yorlig'i birla  
kelib, Odamning tegrasunda turub tabug'unda turuqtilar.  
(R.)*

**TURUR** Durur; -dir.

*Bu yanglig' turur barcha beglik ishi  
Qayusi eraj er qayu o'z bashi. (Q.B.)*

**TURUG'LAQ** Yashash joyi.

*Munuqi turug'laq Quz o'rdu eli,  
Tub asli, nasabdin yurumish tili. (Q.B.)*

**TURUSH I** f. Achchiq, kishiga botadigan.

*Boyvachchasidur badburush,  
To'g'ri so'zi achchig', turush. (M.)*

**TURUSH II** Bardosh, turish berish.

*Turush bermay durkurab qocha berdilar. (Bn.)*

**TURG'ULUQ** Turish kerak, turush lozim, bo'lish kerak.

*O'tunluq evaklik yenig qurg'uluq  
Qara qilqi ul bu yiraq turg'uluq. (Q.B.)*

**TUSLAMAK** Tusmollamoq, tusmol qilmoq.

*Qorbug' pushtasining shimolidin Xudak kentining oyog'i bila  
Ilon O'tini tuslab tebraduk. (Bn.)*

**TUTMOQ** 1. Qo'l bilan ushlamoq.

*Notavon tutti rishtani mahkam,  
Mehr chekti, ul ikki mahvash ham. (S.S.)*

2. Ushlab olmoq, qo'lga olmoq, qo'lga tushirmoq.

*Kim, kishi tutsalar keturgaylar,  
Xizmatig'a aning yeturgaylar. (S.S.)*

3. Bekitmoq, yopmoq.

*Yururda yeng bila og'zingni tutma,  
Nimakim yo'q turur, yoshurmog'ing ne? (A.)*

4. Uzatmoq, sunmoq, bermoq.

*Kel, ey oy yuzlu dilbar, tut biror qo'sh,  
Biror qo'sh birla qilg'il bizni madhush. (Mn.)*

5. Saqlamoq, ixtiyorida ushlab turmoq.

*Bu el tutg'uqa ko'p erat su kerak  
Erat tutg'uqa neng tavar tu kerak. (Q.B.)*

6. ko'ch. Zabt etmoq, egallamoq.

*Qilichtek til bila tuttum jahonni,  
Qanoat mulki ichra podshohmen. (Mn.)*

7. Ot bilan birga qo'shma fe'l hosil qiladi.

*So'zin qiyg'uchi begka tutma umunch  
Tiriglik yava bo'lg'a qilg'a o'kunch. (Q.B.)*

**Kanora tutmoq** Chekinmoq.

*Chun vasl so'zin deding unuttum,  
Ul barchasidin kanora tuttum. (L.M.)*

**Yer tutmoq** Joylashmoq, o'rnashmoq.

*Yer tutub bir hilol ichinda Suhayl,  
Mehr aqdig'a aylamish edi mayl. (S.S.)*

**TUTNUMAK** Tutamoq.

*Alinglangsa tutnub g'azab inad o'ti,  
Halimliq suvin sach, ul o'tni o'chur. (H.H.)*

**TUTRUQ** ko'ch. Suyanchiq, suyanch, tayanch, tayanchiq.

*Bu el tutruqi ham tubi begliki  
Eki neng turur asli yildiz ko'ki. (Q.B.)*

**TUTUNMAQ** O'zini tutmoq, o'zini biror tarzda ushlamoq.

*Qilinch edgu erdam kerak ming tuman  
Ati edgu bo'lsa tutunsa bo'dug'. (Q.B.)*



**TUTCHI** Doim, doimo, har vaqt.

*Saqinuq kerak beg ne qilqi arig'  
Arig'liq tilar tutchi urg'i arig'.* (Q.B.)

**TUVG'ON** 1. Ota-ona; qarindosh

*O'lub qatti so'g'ishda To'xtamishxon,  
Tiri ayrildi tuvg'ondin tug'ushg'on.* (S.Sar.)

2. Tug'ishgan, yaqin, qadrdon.

*Go'zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuvg'oni,  
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarg'a tushubsan?* (Fit.)

**TUXM** f. 1. Urug', tuxum.

*Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,  
Suvni teng ichmas necha yakson sochar.* (H.A.)

2. ko'ch. Urug', qarindosh-urug', qarindosh.

*To'yg'a o'z tuxmidin xotun demadi,  
Achchig'idin otasi osh yemadi.* (M.)

**TUZ** 1. To'g'ri, tekis, ravon.

*O'qki, tuz o'ldi tayaroni aning,  
Bo'lsa yer egri, ne ziyoni aning.* (H.A.)

2. To'g'ri, adolatli.

*Bu neng alg'uqa bir kerak bay budun  
Budun bayliqinga to'ru tuz qo'dun.* (Q.B.)

3. To'g'ri, chin.

*So'zni gar tuz dedim va gar ozdim,  
Neki taqdir aylading – yozdim.* (S.S.)

**TUZLUK** To'g'rilik, halollik.

*Har kishikim, tuzluk erur peshasi,  
Kajrav esa charx ne andeshasi.* (H.A.)

**TUZMAK** 1. Buzulgan narsani tuzuk holga keltirmoq, tuzatmoq.

*Tuzdi buzug'larni imorat bila,  
Zulmni daf' etti adolat bila.* (H.A.)

2. Belgilamoq, mo'ljallamoq, tanlamoq.

*Arig' tutg'u beglar ko'ni qilq qiliq  
Budun beg yo'lindin tuzar yo'l-yo'riq.* (Q.B.)

3. Qurmoq, barpo qilmoq.

*Siyosat bila beg tuzar el to'ru  
Qara qilqi etlur siyosat ko'ru.* (Q.B.)

4. Otlar bilan qo'shma fe'l hosil qiladi.

*Roy ko'p urdilar tuzub mahfil,  
Shahsiz o'lsa sipah yo'q hosil.* (S.S.)

**TUZU** Barcha, hamma, butun.

*Aya elchi beglar elig qulsa saq  
Bu saqliq bila sen tuzu elka baq. (Q.B.)*

**TUZUK** Nizom, qonun, tartib-qoida.

*Bormi senda butun dunyo tuzugin,  
O'z qopchig'in to'ldurg'ani buzg'anlar? (Fit.)*

**TUZUN** Bosiq, vazmin.

*Qamug' edguka bo'lsa algi uzun  
Uvutlug' silig ham qilinchi tuzun. (Q.B.)*

**TUG'AR** Kun chiqish, sharq.

*Tug'ardin esa keldi o'ngdun yeli,  
Ajun etguka achi ushtmah yo'li. (Q.B.)*

**TUG'MAQ** Tug'ilmoq, dunyoga kelmoq.

*Atasi beg ersa o'g'ul tug'di beg  
O'g'ul tug'sa beg ham atalariteg. (Q.B.)*

**TUG'RO** a. Nishona, belgi.

*Muhabbat nuri ollinda huvaydo,  
Jamolida vafo tug'rosi paydo. (F.Sh.)*

**TUG'URMAQ** Tug'moq, ko'zi yorimoq.

*Mavlo jalla jalolahu qirq yil yag'mur bermadi, yerdin nabot  
undurmadi, xotun o'g'il-qiz tug'urmadi. (R.)*

**TUG'USHQON** Bir ota-onadan tug'ilgan farzand, tug'ishgan.

*O'lub qatti so'g'ishda To'xtamishxon,  
Tiri ayrildi tavg'ondin tug'ushg'on. (S.Sar.)*

**TUSH I** Ro'para, qarshi. **Tush bo'lmoq** Duch kelmoq, ro'para bo'lmoq.

*Elimkim bo'lub qatlu yag'mog'a tush,  
Kelib o'n ulushtin bu yon bir ulush. (S.I.)*

**TUSH II** Do'st, yaqin, teng-tush.

*Ey ko'ngul, bu nuktadur qushlar tili,  
Ramzu imo mulkiga tushlar tili. (L.T.)*

**TUSHI** Doimo, doim, hamisha.

*Bayat kimka bersa bu beglik ishi  
Berur o'g' ko'ngul ko'r ul ishka tushi. (Q.B.)*

**TUSHMOQ** 1. Yuqoridan pastga harakat qilmoq, inmoq.

*Har kishikim birovga qozg'oy choh,  
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh. (S.S.)*

2. Ilinmoq, tutilmoq.

*Durrojning yolg'onni chin o'rnig'a ayturidin hodisa domig'a  
tushgonda... (H.A.)*



3. Yiqilmoq.

*Tushti ayog'ig'a bo'lub uzrxoh,  
Dediki, ey xisravi anjumsipoh* (H.A.)

**TUSHURMOQ** 1. Qo'lga tushirmoq, ushlab olmoq, qo'lga olmoq.

*Poshna raxshlarg'a urdilar,  
Hay deguncha ani tushurdilar.* (S.S.)

2. Yiqitmoq.

*Ibrohim tarxonni va yana xeyli o'bdon-o'bdon yigitlarni  
mo'g'ul talab ottin tushurub zoye' qildilar.* (Bn.)

**TUCHI** Doimo, doim, hamisha.

*Yaratti ko'r, evran tuchi evrulus,  
Aning birla tezginch yema tezginur.* (Q.B.)

**TO'BIY** a. Diniy e'tiqodga ko'ra jannatdagi chiroyli daraxt.

*Qaysi habib ulki, falak xokidur  
Sidrau to'biy-xasu xoshokidur.* (H.A.)

**TO'DMAQ** To'ymoq, ovqatga qonmoq.

*Qamug' ash yesa ichsa axir to'dur  
Ko'zi ach kishi o'lsa achliq qo'dur.* (Q.B.)

**TO'DUMSUZ** Yeb to'ymas, ochofat, badnafs.

*To'dumsuz bo'lur ul ko'zi suq kishi  
Ko'zi suqqa yetmaz bu dunya ashi.* (Q.B.)

**TO'FON** a. 1. Kuchli suv toshqini.

*Garchi Nu'mong'a ko'p yetishti nahib,  
Lek to'fondin o'lmadi osiyb.* (S.S.)

2. Diniy tasavvurlarga ko'ra Nuh payg'ambar zamonida butun dunyoni bosgan dahshatli suv toshqini.

*Nuh aydi: «Ey Kan'on musulmon bo'l, kemiga kirgil to'fon  
suvi halok qilmasin», tedi.* (R.)

**TO'KMAK** 1. Mayda, sochiluvchan narsalarni sochmoq.

*Tig' berib zolg'a bevahmu biym,  
Bir sori dog'i to'kubon ganju siym.* (H.A.)

2. ko'ch. Oqizmoq.

*Yosh to'kub bahri mavjvar yanglig',  
Ko'k libos ichra nilufar yanglig'.* (S.S.)

**TO'LU** 1. To'la, to'liq.

**Ko'ngli to'lu** Olijanob.

*Biliglik uqushlug' budunqa talu  
Aqi ham ko'zi to'q ne ko'ngli to'lu.* (Q.B.)

2. Barkamol, yetuk, kamolotga erishgan.  
*Uqushlug' kerak beg kishida talu*  
*Uqushlug' qilinchi izilmaz to'lu. (Q.B.)*
- TO'LG'AMA** Dushmanga qanotdan zarba berish, dushmani yon tomondan o'rab zarba berish, dushmanning orqasiga aylanib o'tish.  
*O'zbakning urushta bir uluq hunari ushbu to'lg'amadur, hech urushi to'lg'amasiz bo'lmas. (Bn.)*
- TO'N** Chopon.  
**Bir to'nga kirmak** Birlashmoq, yakdil bo'lmoq.  
*Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,*  
*Bir o'ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling. (T.F.)*
- TO'NG** Butun, yaxlit.  
**To'ng yurak** Qat'iyatli, qaytmas; matonatli.  
*Bu beglikka ashnu tub asli kerak*  
*Atim alp qatig' qurch yana to'ng yurak. (Q.B.)*
- TO'NGULMOQ** Umidni uzmoq, voz kechmoq.  
*Qali bo'lsa beglar xiyanat ko'ngul*  
*Budunqa asig' bo'lmas andin to'ngul. (Q.B.)*
- TO'NG'UZ** Cho'chqa.  
*Kemada mushuk, sichqon, uchunchi to'ng'uz yo'q erdi. (R.)*
- TO'POR** To'pori, jo'n.  
*Begu begzoda qolib, ilqichi, qo'ychilar bek,*  
*Dutdi to'por hama, ketti eshikdin to'bichoq. (T.F.)*
- TO'PCHOQ** Ot, nasldor ot.  
*Ahmad Hojibek yaxshi to'pchoqlar saxlab, yaxshi minar edi.*  
*Bu to'pchoqlar aksar xonazodi edi. (Bn.)*
- TO'RA I** Poygak qarshisidagi o'rin, to'r.  
*Yesa bersa dunya tirilsa qutun*  
*Taqi bir ajunda bu buldi to'ra. (Q.B.)*
- TO'RA II** Qonun, qoida, tartib, urf-odat.  
*Burunlar bizning ota-og'a Chingiz to'rasini g'arib rioyat qilurlar edi. (Bn.)*
- TO'RA III** Urushda foydalaniladigan, yog'ochlarni bir-biriga bog'lab yasalgan to'siq, himoya vositasi.  
*Farmon bo'ldikim, cherik eli to'ra va shotu va qo'rg'on olmoq asbobi tayyor qilg'aylar. (Bn.)*
- TO'RU** 1. Qonun, qoida, nizom.  
*Qayu beg to'ru bersa ko'ni*

*Elin etti qo'dti yarutti kuni. (Q.B.)*

2. Siyosat.

*Yumutsa erat bo'lsa kuchlug alig*

*Yuritsa to'ru tuz yetursa bilig. (Q.B.)*

**TO'RUN** Avlod, nasl.

*Yujixon o'g'liyu Chingiz to'runi,*

*Borcha xonlardin a'lo o'runi. (Shn.)*

**TO'RUTMAK** Yaratmoq, dunyoga keltirmoq.

*Kimi beg to'rutmak tilasa bayat*

*Berur ashnu qilq yang uqush yug qanat. (Q.B.)*

**TO'RTINCH** To'rtinchi.

*Bu to'rtinch yavuz begka arquq qilinch*

*Beshinchi yaraqsiz bu yalg'an erinch. (Q.B.)*

**TO'TAGIY** To'q ko'k.

*To'tagiy rang Ko'k rang.*

*Gar to'ti o'lurg'a qilmas ohang,*

*Aylar nega yerni to'tagiy rang. (L.M.)*

**TO'YAMOQ** a. -f. Irg'ishlamoq, sakramoq.

*Shayxni otlandururda ot sarkashlig' qilib va tundlug' qilib,*

*inonin olib to'ylab yugurdi. (N.M.)*

**TO'SH** ko'ch. Biror yerning atrofi.

*Kiribon zavraq ichra soyir o'lub,*

*Ul jazoir to'shida zoyir o'lub. (S.S.)*

## Uu

**UBUR** a. O'tish, kechish.

*Hech qari-uluq yod bilmaskim, bu ko'talning mundoq uluq qori bor erkanda kishi ubur etmish bo'lg'ay. (Bn.)*

**Ahli ubur** Sayyohlar, sayohatchilar.

*Dashtu daryoda lek ahli ubur,*

*"Jobiri rohzan" qilib mashhur. (S.S.)*

**UD** a. Chertib chalinadigan bir turli cholg'u asbobi; arfa.

*Boyo'g'li ud, daf jam aylab, mehmondorliq rasmini barpo tutdi. (Zm.)*

**UDUL** a. Qaytish, chekinish.

*Mehri xovar nuridin qilg'an udul,*

*Sham'u mash'al partavin etgan qabul. (L.T.)*



- UDUG'** Uyg' oq, sergak, hushyor.  
*Biliglig kerak beg uqushlug' udug'*  
*Angar tegmasa bir mufaja yudug'.* (Q.B.)
- UHDA** a. Udda, uddalash, eplash.  
*Kim qo'yubdur, uhdayi o'z mulkungizdin chiqmayin,*  
*Ikki, uch, to'rt da'vosin etmakni ko'tahlik qiling.* (T.F.)
- UHDABARO** a. -f. Har qanday ishni uddalay oladigan,  
uddaburro.  
*Do'malari ham xo'b bajo,*  
*Volosnoyi uhdabaro.* (M.)
- UJMOH** Jannat, bihisht.  
*Qachon Odamni ujmohqa kivrudilar esa, ne'matlarin,*  
*hurlarin.. ko'rundi.* (R.)
- UJUZ** Arzon.  
*Faqr ko'yi tufrog'ikim, uldur iksiri hayot,*  
*Jon berib ko'z yoriturcha olsang – olmişsen ujuz.* (B.Y.)
- UJUZLUQ** Tahqir, kamsitish, xo'rlik.  
**Ujuzluq ko'rmak** Tahqirlanmoq, kamsitilmoq.  
*Uluqsig' bedug tutsa beglar ko'ngul*  
*Sezigsiz ujuzluq ko'rur ey o'g'ul.* (Q.B.)
- UL I** 1. 3-shaxs kishilik olmoshining birligi, u.  
*Ulki Sulaymon edi oti aning*  
*Bahri nubuvvat duri zoti aning.* (H.A.)  
2. -dir kesimlik qo'shimchasi vazifasida ishlatiladi.  
*Neku ter eshitgil bag'irsaq kishi*  
*Bag'irsaqliq ul ko'r kishilik bashi.* (Q.B.)
- UL II** U (ko'rsatish olmoshi).  
*Biri ul xayldin chopib filhol,*  
*Berdi Jobirg'a mujdai iqbol.* (S.S.)
- UL III** Poydevor, asos, negiz, baza.  
*Bu saqliq bila artti beglar eli*  
*O'salliq ko'ru buzdi beglik uli.* (Q.B.)
- ULAMAK** Ulashmoq, bo'lib bermoq, taqsimlamoq.  
*Aning bo'ldi dunya bu ne'mat bila*  
*Tilasa o'zung ye tilasa ula.* (Q.B.)
- ULAMO** a. (birligi olim) Olimlar, bilimdonlar; din olimlari.  
*Hargiz ibodatdin va ulamo ilm ta'limidin xoli bo'lmag'ay.*  
(T.A.H.)

- ULAG'LI** Ulaydigan, bog'laydigan, bog'lovchi.  
*Qamug' tengsiz ishtin yig'ig'li o'vut*  
*Qamug' edgu ishka ulag'li o'vut. (Q.B.)*
- ULASHMOQ** Qo'shilmq, birlashmoq.  
*Mening dardimg'a darmon vasl erur bas,*  
*Vale hargiz ulashmas gavhara xas. (Mn.)*
- ULISHMAQ** Uvlashmoq.  
*Ulishib eran bo'rlayu*  
*Yirtin yaqa o'rlayu. (D.L.T.)*
- ULOQ** Ulov, transport.  
*Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, Turoni yot qo'llarg'a tushdi.*  
*(Fit.)*
- ULOQTURMOQ** Tentiratmoq, sarson-sargardon qilmoq.  
*Jon-u dil o'ldilar talabi vasling ichrakim,*  
*Hijronda qo'ymag'il bu ikovni uloqturub. (K.)*
- ULUFA** a. Askar va amaldorlarga belgilangan oylik maosh va oziq-ovqat.  
*Navkarining ulufasi aslo munkasir bo'lmas edi. (Bn.)*
- ULUG** Ulush, hissa.  
*Kiming himmati bo'lmasa ul o'lug*  
*Ekagun ajunda bu bulmas ulug. (Q.B.)*
- ULUM** a. (birligi ilm) Ilmlar.  
*Ulumdin sharafi oxirat emasdur yolg'uz,*  
*Ki munda ham sababi izzatu jalol kamol. (K.)*
- ULUQSIG'** Kibrli, takabbur, kekkaygan.  
*Uluqsig' bedug tutsa beglar ko'ngul*  
*Sezigsiz ujuzluq ko'rur ey o'g'ul. (Q.B.)*
- ULUS** Xalq, el.  
*Pardalari rishtasi el jonidin,*  
*La'liyu shingarfi ulus qonidin. (H.A.)*
- ULUG'** Katta, yoshi katta.  
*Tilin so'zlasa so'z shakarda suchug*  
*Boyun berdi beg qul ulug' ya kichig. (Q.B.)*  
**Ulug' ota** Ona yoki otaning otasi, bobo.  
*Necha navbat qoyin otasi Yunusxonnikim... mening ulug'*  
*otam bo'lg'ay, istid'o qilib kelturdi. (Bn.)*
- ULUG'SINMAQ** O'zini katta tutmoq, kekkaymoq, mag'rurlanmoq.  
*Bo'yun sunmadi, ulug'sindi, kofirlar jumlasindin bo'ldi. (R.)*

**ULVIY** *a.* Yuksak, oliy, ulug'.

*"Men ulviyman sifliygga netak kirayin", tedi. (R.)*

**ULG'ARMAQ** O'smoq, ulg'aymoq.

*Qirq yilg'a uch yig'och ulg'ardi. (R.)*

**ULCHA** U qadar, o'shancha.

*Qildilar ulcha bor edi taqrir,*

*Ki, ne kelturdi olig'a taqdir. (S.S.)*

**UMARO** *a.* (birligi **amir**) Amirlar.

*O'zining va umar osining ming chog'liq fili bor, derlar edi. (Bn.)*

**UMID** *a.* Orzu, istak.

**Umid kesmak** Umid uzmoq.

*Nuh ani ko'rdi, aning so'zin eshitdi, o'zindin umid kesti. (R.)*

**UMMAT** *a.* Bir payg'ambarga va bir dinga mansub kishilarning jami.

*Istab aning dinini bilgach yaqin,*

*Ummat o'lurni rasuli mursalin. (H.A.)*

**UMMID** *ayn.* Umid.

*Avfin aning tutmasang ummid sen,*

*Bilki tamug' o'tida jovid sen. (H.A.)*

**UMMIY** *a.* O'qish-yozishni bilmaydigan, savodsiz.

*Bovujudkim, ummiy edi, xushtab'ona zarofatlar qilur edi. (Bn.)*

**UMMON** *a.* Okean.

*Agar gashti labi daryo qilursen,*

*Ko'zumga kelki, ummon hojat ermas. (A.)*

**UMOQLANMOQ** Birgalashmoq; yig'ilishmoq.

*Ushmuncha bila Samarqand kishisi umoqlanib, Sulton Ali mirzoning o'trusig'a cherik tortib chiqtilar. (Bn.)*

**UMQ** *a.* Chuqurlik, tub.

*Tuli taxminan o'n to'rt-o'n besh qari bo'lg'ay, arzi yetti-sekkiz qari, umqi bir qari. (Bn.)*

**UMRKOH** *a.* -f. Jon azobi, qiynoq.

*Bandini anglab erdi choh ichra,*

*G'am-u anduhi umrkoh ichra. (S.S.)*

**UMUNCH** Umid.

**Umunch tutmaq** Umid qilmoq.

*So'zin qiyg'uchi begka tutma umunch*

*Tiriglik yava bo'lg'a qilg'a o'kunch. (Q.B.)*

**UMUR** *a.* (birligi **amr**) Ishlar, yumushlar.

*Bo'lsam o'zga umurdin emin,*

*Bor edi to'rt hafta ham mumkin. (S.S.)*

- UN** Ovoz, tovush.  
**Un tartmaq** Ovoz chiqarmoq.  
*Lola sag'raqin icharda sayrar usrub sanduvach,  
 Turna un tartib o'tarda sakrashur baqlan, qo'zi.* (R.)  
**Un chekmak** Tovush chiqarmoq, ovoz bermoq, ovoz chiqarmoq.  
*Keldi chah boshi uzra g'amparvard,  
 Chekti un: «Ki-ey asiri mehnatu dard».* (S.S.)
- UNA** Unga.  
*Una yo'qtur zulmkorlarda parvo,  
 Kima mung'aysun etib darda davo?* (S.Sar.)
- UNMAK** Hosil bo'lmoq, paydo bo'lmoq; ko'paymoq.  
*Kuyar o't turur kuch yag'usa kuyar  
 To'ru suv turur aqsa ne'mat unar.* (Q.B.)
- UNS a.** Do'stlik, ulfatchilik, yaqinlik.  
**Uns aylamak** Do'st bo'lmoq, ulfatchilik qilmoq.  
*Iting ko'rsam, manga uns aylasun deb,  
 Berurman gah ko'ngul, gohi bog'irni.* (Mu.)
- UNULMAQ** Unamoq, ko'nmoq.  
*Sanib so'zlagan er so'z sag'i,  
 O'kush yangshag'an til unulmaz yag'i.* (H.H.)
- UNUTMON** Unutmayman.  
*Ko'ngulga o'zganing mehrin yovutmon,  
 Yiroqliq birla men sizni unutmon.* (Mn.)
- UNVON a.** Adres.  
*Emdikim yozdi nomag'a unvon,  
 Nomaning homilini qildi ravon.* (S.S.)
- UPO** Upa, upa-elik.  
*Mardlar maydon chekib, rangin ko'tarib zaxmlar,  
 Sizga yo'q, ul javharu yuzga upo, englik qiling.* (T.F.)
- UQBO a.** Oxirat, u dunyo, narigi dunyo.  
*Mudom miskin erurman chun g'uloming*  
*Mashrabingdurman,*
*Meni bechora bu dunyo bilan iqbog'a sig'mamdur.* (Mash.)
- UQDA a.** 1. ko'ch. Tugun, chigal masala.  
*Bu uqdadin istabon kushoding,  
 Koming bila yetkuray muroding.* (L.M.)  
 2. ko'ch. Qiyinchilik, mashaqqat.

*Ul zuhalvash jazog'a xos o'lg'ay,  
Mehr ham uqdadin xalos o'lg'ay. (S.S.)*

**UQOB** a. Burgut.

*Bu ot: humo, uqob, qarchig'ay, bahrin, lochin, itolg'u qush-  
larning salotinidurlar. (Zm.)*

**UQUSH** Aql, idrok, zakovat, zehn.

*Qay erda bo'lsa uqush birla o'g'  
Ani er atag'il necha o'g'sa o'g'. (Q.B.)*

**UQUSHLUG'** Fahmli, ziyrak, zehnli, farosatli.

*Uqushlug' kerak beg kishida talu  
Uqushlug' qilinchi izilmas to'lu. (Q.B.)*

**UQUSHSIZ** Fahmsiz, farosatsiz.

*Biliglig biligsiz chig'ay bar ya bay  
Uqushlug' uqushsiz o'tun bar gaday. (Q.B.)*

**URLAMAQ** Baqirmoq, qichqirmoq.

*Ulishib eran bo'rlayu  
Yirtin yaqa urlayu. (D.L.T.)*

**URLUG'** ko'ch. Urug'; manba.

*Falak aylanmasila davr yetgay,  
Adolat urlug'undin baxt bitgay. (S.Sar.)*

**URMAK** Hurmoq, vovullamoq, akillamoq.

*Yilon netgay urub nesh ajdahoni,  
It urmak birla yonmas karvoni. (F.Sh.)*

**URMOQ** 1. Do'pposlamog, kaltaklamog.

*Arqonimi yeringa sudrab chiqay,  
Bachchataloq qishloqilarni uray. (M.)*

2. Sanchmoq, tiqmoq.

*Qilich ursang qulungmen jovidona,  
Va gar o'q otsangiz bag'rim nishona. (Mn.)*

3. O'ldirmoq, otib o'ldirmoq.

*Bir kiyik ollig'a kelur, o'q tortar ani urg'ali. (N.M.)*

4. Niqtamoq.

*Poshna raxshlarg'a urdilar,  
Hay deguncha ani tushurdilar. (S.S.)*

5. Yig'moq, to'plamoq.

*Aqi bo'l bag'ishla ichur ham yitur  
Qali eksuse ur yana al yetur. (Q.B.)*



**URULMAQ** To'qilmoq, aytilmoq. **Masal urulmaq** Maqol aytilmoq.

*Ya yalg'an so'z yigtek, ko'ni so'z shifa,  
Ya bir so'z o'zag'i urulmish masal. (H.H.)*

**URUNG** Oq.

*Ul tuproqda.. urung, qora, suchuk, achig', sarig', yashil,  
qizil, ko'k.. bor erdi. (R.)*

**URUNMAQ** ko'ch. Pinjiga kirmoq, panoh topmoq.

*Bag'irsaqni bulsa bag'irqa urun  
Menga mundag' aydi bilik ham uqush. (Q.B.)*

**URUG'** Bir ajdoddan tarqalgan kishilar, avlod; nasl.

*Qamuq turklar Yofas urug'i turur. (R.)*

**URYON** a. 1. Yalang'och, kiyimsiz.

*Agar uryon esa shoh-u gado jismi barobardur,  
Tafovut bu ikovga aylagan izhor xil'atdur. (Og.)*

2. Yalang'och, g'ilofsiz.

*Gulxaniyni qon tortdi – azmi ko'yi yor etdi,  
Qatl etarga mijgonlar chekti tig'i uryonlar. (G.)*

**USRAT** a. Qahatchilik, qattiqchilik.

*Andoq usrattin mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq  
amonliqqa kelduk. (Bn.)*

**USRU** Juda, rosa, ko'p.

*Senga to bo'ldum, ey jon, oshnomen,  
Jafong ilgindin usru muhtalomen. (Mn.)*

**USRUK** Mast, maston, mastona.

*Jahonning fitnasi usruk ko'zungda,  
Ayon Iso dami shirin so'zungda. (Mn.)*

**USRUMAK** Mast bo'lmoq, zavq-shavqqa to'lmoq, nash'alanmoq.

*Lola sag'roqin icharda sayrar usrub sanduvach,  
Turna un tartib o'tarda sakrashur baqlan, qo'zi. (R.)*

**USTANG** Ustun, baland.

**Ustang alik** Saxiy.

*Yanut berdi O'gdulmish aydi elig,  
Esan inch tirilgil ey ustang alig. (Q.B.)*

**USTIXON** f. Suyak.

*Bu dard ila xarob o'ldum, kelib holimni so'rmaysan,  
Unum chiqsa yurakdin bu tan-u jon, ustuxon o'rtar. (Mash.)*

**USTOD** *f.* Ustoz, murabbiy.

*Ko'ngul shirin so'zungga bo'ldi Farhod,*

*Ko'zung kashmir jodusing'a ustod. (Mn.)*

**USTURLOB** Rasadxonada yulduzlarni tekshiradigan asbob, astrolyabiya.

*Usturlob va nujumni yaxshi bilur edi. (Bn.)*

**UVAYSIY** *a.* Ilgari o'tgan avliyoning ruhiy madadi bilan yuksak maqomga erishgan kishi.

*Bilhaqiqat uvaysiy ermish va tarbiyat hazrati shayx ul-islom*

*Ahmadi Jom ruhidin topibtur. (N.M.)*

**UVUT** Uyat.

**Uvut andomi** Badanning uyat joyi.

*Nuh etagin ko'tardi, uvut andomi ochildi. (R.)*

**UVUTLUG'** Andishali, or-nomusli, hayoli.

*Qamug' edguka bo'lsa algi uzun*

*Uvutlug' silig ham qilinchi tuzun. (Q.B.)*

**UVUCH** Hovuch.

*Borg'il, yer yuzidin bir uvuch tuproq keturgil. (R.)*

**UYATLIG'** Uyatli, xijolatli.

*Nuh uyatlig' bo'lub singakni tilayu qarlug'ochni izdi. (R.)*

**UYOQMOQ** Botmoq (oy, quyosh haqida).

*Xurshed uyoqti bo'lmayin layl,*

*Devor yiqildi yetmayin sayl. (L.M.)*

**UYQULAMOQ** Uxlamoq.

*O'sh avboshining zarofati budurkim, har kim anda uyqulasa, ul shahjo'ydin su quyarlar. (Bn.)*

**UYQULI** Uyqudagi holat.

*Havvoni Odamdin uzog'li uyquli orasidin yaratmoqg'a na hikmat erdi? (R.)*

**UYQUCHI** Ko'p uxlaydigan, seruyqu.

*Og'ir uyquchi baxtim necha yotqay,*

*Visoling mashriqingdin ham tong otqay. (Mn.)*

**UYUB** *a.* (birligi **ayb**) Ayblar, nuqsonlar.

*Ridosi uyubining pardadori va riyo charxi igirgan har tori. (M.Q.)*

**UYUMOQ** Uxlamoq.

*Ba'zi ikki qatla va ba'zi uch qatla mast bo'lub, majlisdin chiqib, uyub, yana majlisg'a kelurlar erdi. (H.S.H.A.)*



**UYURMOQ** Ochmoq, gapirishga hozirlanmoq.

*Lab uyur takallumga, zulfungni parishon qil,  
Qand qiymatin sindur, narxi anbar arzon qil. (Amir.)*

**UYUTMOQ** Uxlatmoq.

*G'aflatdin agar va'z ila uyg'otsalar elni,  
Ul aylar uyutmoq uchun afsonag'a mashg'ul. (N.N.)*

**UZ** To'g'ri, soz, yaxshi.

*Begi ezgu bo'lsa budun barcha tuz,  
Bo'lur qilqi ezgu, yo'riqlari uz. (Q.B.)*

**UZA** Uzra so'zining qisqargan shakli.

*Adl eshigin elga kushod ayladi,  
Taxt uza o'lturdiyu dod ayladi. (H.A.)*

**UZAG'** Uyg'oq, uxlamagan.

*Odam uzag' bo'lsa ayag'usi ag'rig'ay erdi. (R.)*

**UZDURMA** Suzib o'tiladigan suvning chuqur yeri.

*Kejimlik – o'q sug'a kirduk. Yarimidin ko'prak yayab – o'q  
kelildi. Andin so'ngra uzdurma edi. (Bn.)*

**UZDURMAK** Suzdirmoq.

*Bir tirgaz otimi yer jibalik, kejimlik ot uzdurub o'ttuk. (Bn.)*

**UZIK** Sevgi, muhabbat, ehtiros.

*Uzik meni qumitti,  
Saqinch manga yumitti. (D.L.T.)*

**UZIMAQ** Uxlamoq.

*Bir kun Nuh alayhissalom uziyur erdi. (R.)*

**UZMAK** Suvda oyoq va qo'lni qimirlatib biror tomonga harakat qilmoq; suzmoq.

*Ayo sohibqiron kim uzarlar,  
Qilichingdin aduvlar, qon ichinda. (Mn.)*

**UZOR** a. Yuz, chehra, bet.

*Xud yuzi garchi musayqal durur,  
Girdi uzor anda mutavval durur. (H.A.)*

**UZAG'LIQ** Uyg'oq, uxlamagan.

**Uzog'liq uyquli orasinda** Chala uyg'oq holatda.  
*Uzag'liq uyquli arasinda Odamning biqini ayag'usidin so'l  
yanindin Havvoni yaratdi. (R.)*

**UZR** Kechirim.

*Alloh-alloh, bu ne so'z o'lg'ay,  
Ul qavmg'a tengri uzr qo'lg'ay. (L.M.)*



**UZRA** Ustida, tepasida; ustiga, tepasiga.

*Ma'arakada Zol bila Rustame,  
Boshlari uzra o'kulub olame. (H.A.)  
Kim, chiqib bir biyik shajar uzra,  
Ko'z solib bahri mavjvar uzra. (S.S.)*

**UZRXOH** a. -f. UZR so'rovchi, kechirim so'rovchi, afv tilovchi.

*Tushti ayog'ig'a bo'lub uzrxoh,  
Dediki: Ey xisravi anjumsipoh. (H.A.)*

**UZUK** 1. Kuchli ehtiros, kuchli his-tuyg'u.

*Kechmish uzuk irtadi,  
Tun-kun kechib irtalur. (D.L.T.)  
2. Nopok, nuqsonli, noqis.  
Qali bo'lmasa beg saqinuq suzuk  
Arig'siz bo'lur barcha qilqi uzuk. (Q.B.)*

**UZUN** 1. Uzunlasiga cho'zilgan, cho'ziq.

*Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,  
Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda. (A.)  
2. Uzoq davom etadigan, davomli.  
Neku ter eshitgil biliglik so'zun  
Yeyumadi zalim elin kech uzun. (Q.B.)  
3. Uzunlik.  
Kemi yo'ndilar, uzuni uch yuz qari, eni ikki yuz qari erdi. (R.)*

**USH** 1. Mana shu, ushbu.

*Yaratti oy bikin zebo seni haq,  
Kim, ush chehrang berur olamg'a ravnaq (Mn.)  
2. Xuddi, naq.  
Kim, ush yelteq kechar ayyomi foniy,  
Ajaldin hech kishining yo'q amoni. (Mn.)*

**USHBU** 1. Mana shu, shu.

*Kel, ey soqiy, keturgil xush sabuhi,  
Kim ushbu dam erur jonning futuhi. (Mn.)  
2. Mazkur, yuqorida aytilgan.  
Sen dog'i ushbu so'zni aylab jazm,  
Kerak etsang bu va'da birlan azm. (S.S.)*

**USHMUNCHA** Shuncha, mana shuncha; buncha.

*Agarchi yana tumanlari ham bor, bu mazkur bo'lg'onlarcha  
emas. Ushmuncha bila iktifo qilildi. (Bn.)*

**USHOQ** Mayda, kichkina, kichik.

*Aningdek teshadin sekrib ushoq tosh,  
Ki nozir bir yig'ochdin qochurub bosh. (F.Sh.)*

**USHTMAH** Jannat, bihisht.

*Tug'ardin esa keldi o'ngdun yeli,  
Ajun etguka achi ushtmah yo'li. (Q.B.)*

**USHTULUM** f. Zulm, jabr.

*Shukr qilib, aylamasang ushtulum,  
Debdur o'zikim, «Laazidannakum». (H.A.)*

**USHTURAK** Mavj, to'lqin.

*Ushturak urmoq Mavjlanmoq, to'lqinlanmoq.  
Tuz ko'runur nur chu turg'an suda,  
Egri bo'lur ushturak urg'an suda. (H.A.)*

**USHSHOQ** a. Oshiqlar, boshiga ishq savdosi tushganlar.

*Jafodin ingramas bu yo'lda usshoq,  
Vafodin javringiz ming qatla xushroq. (Mn.)*

**UCHMA** Ko'chgan (yer); bir tomoni tubsiz bo'lgan.

*Hargiz mundoq baland va tang ko'tal ko'rulgan emas, hech  
vaqt mundoq tangi va uchma yo'llar bila yurulgan emas. (Bn.)*

**UCHMOQ** Jannat, bihisht.

*Agar ko'rsa seni ham lola so'lg'ay,  
Seningdek gul magar uchmoqda bo'lg'ay. (Mn.)*

## Vv

**VADOYF** a. Omonatga berilgan narsa, omonat.

*So'ngra raiyyatni vadoyi' dedi,  
Xurram ani bilki, bu g'amni yedi. (H.A.)*

**VAFO** a. Vaqinlarga sadoqat, yorga sodiqlik.

*Vafodin ingramas bu yo'lda usshoq,  
Vafodin javrungiz ming qatla xushroq. (Mn.)*

**VAFOLIQ** Vafodor, vafoli.

*Kuchum yetguncha ko'p qildim vafolar,  
Vafoliq qulni asrar podsholar. (Mn.)*

**VAH** Oh; ajab, ajabo.

*Vah, bu ne izhori xijolat bo'lur,  
Bu ne degan lutfu adolat bo'lur. (H.A.)*

**VAHDAT** *a.* Birlik, yolg'izlik, tanholik.

*Vahdat mayini piri mug'on ilkidin ichtim,  
Mansur kibi boshimi dorg'a tuta qoldim. (Mash.)*

**VAHHOB** *a.* Saxiy, saxovatli. (Allohning sifatlaridan biri.)

*Ki haq bo'lsa vahhobu g'affor ham,  
Erur lek jabboru qahhor ham. (S.I.)*

**VAHM** *a.* Vahima, qo'rqinch, qo'rquv.

*Vahm ila seskanmak edi sher ishi,  
O'lturur erdi bolasig'a tishi. (H.A.)*

**VAHSHAT** *a.* Kishini dahshatga soladigan narsa, vahshiylik.

*Bor edi bir beshada bir tund sher,  
Vahshat aro ko'k asadidek daler. (H.A.)*

**VAID** *a.* Tahdid, qo'rqitish.

*Elni xud bu mufattinlar bila haromnamaklar andoq qilib  
edilarkim, va'da va vaid va nasihat va tahdid hech foyda  
qilmas edi. (Bn.)*

**VAJH I** *a.* Tomon, jihat, vaj.

*Xayru saxo vajhig'a kar,  
Bir pulni yuz yerdin tugar. (M.)*

**VAJH II** *a.* Pul, mablag', mol, mol-mulk.

*Ham oncha vajh andin elga yetsun,  
Ani yetkurgach, o'z mulkiga ketsun. (F.Sh.)*

**VALAD** *a.* (ko'pligi avlod) Bola, farzand, o'g'il.

*Zodasidin zoda bo'lub beaded,  
Zodag'a ham valid o'lub ham valad. (H.A.)*

**VALE** *a.* Lekin, ammo, biroq.

*Lek haqkim g'amu balo bermish,  
Dard bermish, vale davo bermish. (S.S.)*

**VALEK** *a.* Lekin, ammo, biroq.

*Oti Navdar valek o'zi nodir,  
Tab'i har nodir ish aro qodir. (S.S.)*

**VALEKIN** *a.* ayn. Valek.

*Eyki, qaviy ayladi davlat qo'lung,  
Zulm sori tushdi valekin yo'lung. (H.A.)*

**VALIAHD** *a.* Taxt vorisi.

*Bu kim mulkumga yo'q erdi valiahd,  
Og'u ta'mi berur erdi yesam shahd. (F.Sh.)*

**VALIAHDLIQ** Taxt vorisilik, vorislik.

*Bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasb qildim. (Bn.)*

**VANG-VANG** Itning ingrashini anglatadi, ang-ang.

*Ham boshda tong otquncha it,  
G'ingshib chiqib, vang-vang ekan. (M.)*

**VAQOYI'** *a.* (birligi **voqia**) 1. Voqealar.

*Bu vaqoyi'din ul hazratning muborak xotirig'a anchakim, tanbih va e'tibor va tajribai ro'zgor hosil bo'lmish bo'lg'ay. (Mun.)*

2. Boburning «Boburnoma» asarining asl nomi.

*Har kim bu «Vaqoyi'»ni o'qur, bilgaykim,  
Ne ranju ne mehnatu ne g'amlar ko'rdu. (B.)*

**VARAQ** *a.* 1. Yaproq, barg.

*Daftari nazmida chu sherozadur,  
Gul varaqi gulshan aro tozadur. (H.A.)*

2. Kitob yoki daftarning har ikki sahifasidan tashkil topgan qismi.

*Uzdi chu sherozasini daftari,  
Yel uchurur har varaqin bir sari. (H.A.)*

**VARAQNIGOR** *a.* -f. Qalam bilan biror narsa yozadigan, bitadigan.

*Kilk o'larda varaqnigor manga,  
Qayda bordi ixtiyor manga? (S.S.)*

**VARD** Atirgul.

*Vardu shajar shohid erur bog' aro,  
Lek o'tun silkidadur tog' aro. (H.A.)*

**VASE'** *a.* Keng; katta.

*O'zbekdek yuz ming qari yog'ini orqada qo'yub Sulton  
Ibrohimdek qalin cheriklik, vase' mulkluk podshoh bila  
ro'baro' bo'lduq. (Bn.)*

**VASF** *a.* Ta'rif, tavsif; maqtov.

*Jamoling vasfini qildim chamanda,  
Qizordi gul uyottin anjumanda. (A.)*

**VASILA** *a.* Vosita, sabab, bois.

*Teshib el kemasini hiyla bila,  
G'arq etib sug'a bu vasila bila. (S.S.)*

**VASL** *a.* Visol, yetishuv, uchrashuv.

**Vasl topmoq** Uchrashmoq, yor visoliga yetmoq.

*Evrulub kom birla davri sipehr,*

*Vasl topti Suhayl birlan Mehr. (S.S.)*

**VASSOF** *a.* Vaf etuvchi, maddoh, maqtovchi.

*Bo'yla nodon uchun yozib avsof,*

*Anga qilg'aylar o'zlarin vassof. (S.S.)*

**VATAN** *a.* 1. Ona yurt, tug'ilgan diyor.

*Bo'yla ming emgaktagi bechoradin,*

*O'z vatanu mulkidin ovoradin. (H.A.)*

2. Maskan, o'rin, joy.

*Qilmasa mazlum gunohing bihil,*

*Do'zax arodur vataning muttasil. (H.A.)*

**Vatan tutmoq** Joylashmoq, o'rnashmoq, biron joyni ixtiyor etmoq.

*Anda bir Boyo'g'li degan vatan tutmish erdi. (Zm.)*

**VATIRA** *a.* Yo'l, tarz, yo'sin, yo'l-yo'riq.

*Kelibdur sifat bu vatira anga,*

*Jihat buki bo'lmas jazira anga. (S.I.)*

**VAYRON** *a.* Xarob, xor, nochor.

*Haq seni adl etgali sulton etib,*

*Zulm ila sen xalqni vayron etib. (H.A.)*

**VIDOD** *a.* Do'stlik; muhabbat.

**Ahli vidod aylamak** Do'stlashmoq.

*Rafiqim jigarxasta afgorlar,*

*Alar birla ahli vidod ayladim. (N.)*

**VILOYAT** *a.* Mamlakat, yurt, diyor.

*Somni arab va ajam viloyatig'a izdi. (R.)*

**VIRD** *a.* Vazifa, mashg'ulot, odat.

*Tariqi inzivodur virdi oning,*

*Hunarda borhamiz shogirdi oning. (F.Sh.)*

**VISOL** *a.* Yor vasliga yetishuv, uchrashuv, vasl.

*Tilarmen kim yuzungga sajda qilsam,*

*Visoling qadrining shukrini bilsam. (Mn.)*

**VISOQ** *a.* Uy, xona.

*Tushub bo'lg'och oromgohi visoq,*

*Topib payku jannatqa yetib buroq. (S.I.)*



**VOFIR** *a.* Mo'l, ko'p.

*Xizonag'a ham vofir yormoqlar tushurdi, viloyatni ma'mur va obodon qildi. (Bn.)*

**VOIZ** *a.* Va'z aytuvchi, diniy tushunchalarni xalqqa tushuntiruvchi, va'zxon.

*Boqsamki, besh yuzcha xotun,  
Voiz so'zin tinglar ekan. (M.)*

**VOJGUN** *f.* Teskari, ters, chappa.

*Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar tole'im,  
Vojgundur, imtihon qildimki, aksar tole'im. (M.)*

**VOJUN** *f. ayn.* Vojgun.

*Xarob o'lsun, iloho, gunbazi davvor, charxi dun,  
Ki, doim davri kajdur, tavri shumu hay'ati vojun. (Og.)*

**VOLA** *a.* Maftun, shaydo, berilgan.

*Maylni qo'yki, volau zor ul,  
Jon berib vaslig'a xaridor ul. (S.S.)*

**VOLID** *a.* Ota, padar.

*Zodasidin zoda bo'lub beaded,  
Zoda ham valid bo'lub ham valad. (H.A.)*

**VOLIY** *a.* Boshliq, boshchi, rahbar; hokim.

*Anda bir shoh hokimu voliy,  
Mulki ma'muru himmati oliy. (S.S.)*

**VOLOSNOY** *r.* 1917-yilgi oktabr to'ntarishidan oldingi Turkistonda volost boshlig'i; bo'lis.

*Do'malari ham xo'b bajo,  
Volosnoyi uhdabaro. (M.)*

**VOMXOH** *f.* Qarzini berishni talab qiladigan, qarz qistovchi.

*Ko'rmaklik vomxohni motamidur,  
Alqissaki burch odamiyning g'amidur. (N.J.)*

**VOQE'** *a.* Yuz bergan, sodir bo'lgan.

*Go'yiyo saydlardin ul jangal,  
Voqe' erdi to'la bug'uvu maral. (S.S.)*

**VOQIF** *a.* Xabardor.

*G'ofil esa xalq bu ahvoldin,  
Voqif erur tengri xud ul holdin. (H.A.)*

**VOR** Bor, mavjud.

*Qoplab keliyur millatinga zulmatu g'orat,  
Inson sifating vor esa tur, ayla jasorat. (H.)*

**VORID** *a.* Keladigan; uchragan.

**Vorid bo'lmoq** Uchramoq; paydo bo'lmoq.

*O'qusalar har lafzlarig'a yuz ayb topilg'ay va har tarkiblarig'a yuz e'tiroz vorid bo'lg'ay.* (M.L.)

**VOVAYLO** *a.* Oh, voh, faryod.

*Soldilar jismini tobut aro,*

*Qilibon nola bilan vovaylo.* (Shn.)

**VOYA** *a.* Nasiba, nasib, bahra.

*Kelib fayzu nishotu aysh birla,*

*Muhayyo qildi elga voya navro'z.* (Og.)

**VUHUSH** *a.* Yovvoyi hayvonlar.

*Hayvonotkim, Hinduston maxsusidur, vuhushdin bir fil-durkim...* (Bn.)

**VUJUD** *a.* 1. Mavjudlik, borliq.

*Seni ko'rsa kechar tarso sanamdin,*

*Vujudqa kelmadi sentek adamdin.* (Mn.)

2. Kishining a'zoyi badani, uning butun borlig'i.

*Musofirman, g'aribman, bekasu ham benavodurman,*

*Vujudum dardg'a to'ldi, emdi darmonimni sog'indim.* (U.)

**VUQUF** *a.* Voqiflik, xabardorlik.

*Shahg'a ko'p erdi ov ishida vuquf,*

*Balki bor erdi asru ko'p mash'uf.* (S.S.)

## Xx

**XABAR** *a.* 1. Darak, axborot, ma'lumot.

*Uy eshigin falong'a topshurunguz,*

*Xabarin manga bot kelturunguz!* (S.S.)

2. Diniy rivoyat; diniy manba.

*Xabarda andog' kelur, Odamg'a so'rdilar: «Naluk Odam atanding?»* (R.)

**XABIR** *a.* Xabar beruvchi, xabar keltiruvchi.

*Shahg'a aylab edi ul ikki xabir,*

*Sa'dning muddaosini taqdir.* (S.S.)

**XADANG** *f.* Kamon o'qi, o'q.

*Yo'q qutulmoqlig' manga ul ofati jon dastidin,*

*Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadang.* (F.)

**XAFO** *a.* Maxfiylik, sir.

*Xurdadonlar aylamaslar fahm og'zing ramzini,  
Ne uchunkim, bordurur ul nuktada behad xafo. (N.Sh.)*

**XALAF** *a.* 1. O'rinbosar. 2. Farzand.

*Anga gar yo'q erdi xalafdin sharaf,  
Munga tengri berdi o'n olti xalaf. (S.I.)*

**XALAL** *a.* Buriyish, aynish; ayb, nuqson.

*Ilohi, yoqtu qilg'il jonimizni,  
Xalaldin saqlag'il imonimizni. (Mn.)*

**XALILOSO** *a. -f.* Xalilga o'xshash, Xalil kabi.

*Xaliloso bu yo'lda otashi Namrud – me'rojim,  
Hamon durri haqiqatmanki, har daryog'a sig'mamdur.  
(Mash.)*

**XALOS** *a.* Ozod bo'lish, qutulish.

*Aylay olmas kishi xalosima mayl,  
Ko'shishu kina birla g'ayri Suhayl. (S.S.)*

**XALOYIQ** *a.* Xalq, odamlar.

*Nuh mashriqdin mag'ribg'a tegi qamug' xaloyiqg'a  
payg'ambar erdi. (R.)*

**XALQ** *a.* El, xaloyiq, odamlar.

*Bu yalg'an kishilar vafasiz bo'lur  
Vafasiz kishi xalqqa tengsiz qilur. (Q.B.)*

**Xalq etmak** Yaratmoq.

*Tengri xalq etmish meni go'yo malolat chekkali,  
Kim dame yo'qkim, emasmen xalqi nodondin malul. (B.V.)*

**XAM** *f.* Egilgan, bukilgan, egri.

*Vale javr toshi yog'ib boshi uzra,  
Etipti boshini xam qoshi uzra. (S.Sar.)*

**XAMLIQ** Notekis, egri-bugri.

*Yo'l necha tuz, yo'lchig'a maqsad qarib,  
Xamlig'idin tushsa yiroq yo'q ajib. (H.A)*

**XANDA** *f.* Kulish, kulgi.

*Yuzungni ko'rsatib avval o'zungga bandalar qilding,  
Yana ko'nglum olib, yuz noz birla xandalar qilding.(Z.)*

**XANJAR** *a.* Har ikki tomoni tig'li urush quroli, dudama.

**Xanjari po'lod** Po'lat xanjar.  
*Til chekib ul xanjari po'loddek,  
Ochilibon savsani ozoddek. (H.A.)*



**XAR** *f.* Eshak.

*Bir poda joyi govu xar,  
Chun og'uli tayyor ekan. (M.)*

**XARIDOR** *f.* Xushtor, oshiq.

*Maylni qo'yki, volau zor ul,  
Jon berib vaslig'a xaridor ul. (S.S.)*

**XARIF** *a.* Xotiri parishon, parishonxotir; qartaygan, zaif.

*Tutki bo'lubmen xarifu notavon,  
Ayla meni toat uchun navjavon. (H.A.)*

**XARITA** *a.* To'rva, xalta.

*Xaritasi to'la riyoiy so'fiylar zamiridek mutalavvin xavotir  
holotidin. (M.Q.)*

**XARMUHRA** *f.* Eshak munchoq (ot va eshakka taqiladigan arzon, yirik munchoq.)

*Garchi so'zungdek gavhari qimmatbaho yo'q dahr aro,  
Bor alarning qoshida xarmuhradin arzon so'zung. (K.)*

**XAROB** *a.* 1. Vayron, buzulgan, qarovsiz qolgan.

*Ey, jahondori zafar, kavkabai davri falak,  
Go'sh qil, qissai qishloqi xarobi Hapalak. (Max.)*

2. Ahvoli tang, ahvoli og'ir.

*Choh ichinda Suhayl edi betob,  
Holini za'f qilmish erdi xarob. (S.S.)*

3. Oriq, ozg'in.

*Xalqini ko'rsang agar o'lasiyu, qoqu xarob,  
Ochlikdin egilib qomati misli kamalak. (Max.)*

4. Maftun, shaydo, oshiq.

*O'ylakim, Mehrning xarobi Suhayl!  
Mehrg'a ham Suhayl sori mayl. (S.S.)*

**XAROBOT** *a.* May ichiladigan yer, mayxona, qovoqxona; (tasavvufda) bu dunyo.

*Xarobot ichra masjidda yerim bor,  
Kim ush ham rindmen, ham porsomen. (Mn.)*

**XAROBOTIY** *a.* Mayxonaga qatnovchi, mayxo'r, mayparast.

*Uch xarobotiy erurmiz, sokini mayxonamiz,  
Xum boshidin charx urub, monandi bir parvonamiz. (F.)*

**XAROSH** *f.* Yo'nish, tarashlash.

*Kesib har teshasi qilg'och xaroshi,  
Falak fili yukidek pora toshi. (F.Sh.)*

**XAS** *f.* Xashak, cho'p.

*Qaysi habib ulki, falak xokidur,  
Sidrau tubi xasu xashokidur. (H.A.)*

**XASM** *f.* Dushman, yov, g'anim.

*Dediyu xasm sori qildi shitob,  
Xasmni hayrat ayladi betob. (S.S.)*

**XASORAT** *a.* Nuqson, ayb, kamchilik.

*Ranjg'a solg'on bu xasorat oni,  
Aylamas ozod kaforat oni. (H.A.)*

**XASPO'SH** *f.* Xas-xashak bilan bekitilgan.

**Xaspo'sh qilmoq** Xashak bilan yopib qo'ymoq.  
*Va Turkiston podshohi aning bir manzilida azim chohlar  
qazib, ustidin xaspo'sh qilib erdi. (T.M.A.)*

**XASTA** *f.* 1. Kasal, kasalmand, bemor.

*Dami alillarg'a davo va qadami xastalarg'a shifo. (M.Q.)*

2. *ko'ch.* Dardli, g'amnok, g'amgin, qayg'uli.

*Yo rab, ani xalq dilafro'zi et,  
Xasta Navoiyg'a dag'i ro'zi et. (H.A.)*

**XAT(T)** *a.* 1. Chiziq, iz.

*Bo'ldi chu mistar xatig'a tuz raqam,  
Boshini olmas raqamidin qalam. (H.A.)*

2. Yozuv.

*Xatdin o'lub anda dog'i bu sharaf,  
Xatti bo'lub gavharu xotam sadaf. (H.A.)*

3. *ko'ch.* Mahbubaning labi ustidagi mo'ylovga o'xshash mayin tuklar.

*Qildi Furqatni xarobu xastau zoru zabun,*

*Xolu xatting, qaddu ruxsoring, na tanho ko'zlaring. (F.)*

**XATAR** *a.* Xavf, tahlika, xavf-xatar.

*Ko'ru barsa tegma ishinda xatar*

*Xatarlig' ishig ko'rsa tatig' ketar. (Q.B.)*

**XATARLIG'** Xatarli, xavfli.

*Ko'ru barsa tegma ishinda xatar*

*Xatarlig' ishig ko'rsa tatig' ketar. (Q.B.)*

**XATARNOK** *a.* -*f.* Xatarli, tahlikali.

*Esa boshladi yel behad xatarnok,*

*Hujum etti tengiz yuzida ko'lok. (F.Sh.)*

**XATIR** *a.* O'ta xatarli, eng xavfli.

*Vale men erurmen bag'oyat haqir,  
Dag'i saltanat amri behad xatir. (S.I.)*

**XATM** *a.* Tamom qilish, tamomlash, tugatish.

*Yedi yuz to'qson olti, navro'z oyi,  
Xatm etti buni Sayfi Saroyi. (S.Sar.)*

**XATO** *a.* Yanglish; noto'g'ri.

*Iztirob aylabon ota tushti,  
Bir-ikki o'q, vale xato tushti. (S.S.)*

**XATOKOR** *a.* -f. Xato qiluvchi, aybdor.

*Valekin men necha bo'lsam xatokor,  
Bihamdillah, sen ermassen jafokor. (F.Sh.)*

**XATOLIG'** Xatoli; noto'g'ri.

*Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi. (B.)*

**XATOSIZ** Aniq nishonga olib, bexato.

*Qachonki g'amzasi ko'z qonima, qaro qilsa,  
Xatosiz o'qni urar jonima, xato qilsa. (L.)*

**XAVONIN** (*birligi xon*) Xonlar.

*Yana jami' Movarounnahr viloyatlari o'zbek xavonin va  
salotinning tasarrufida edi. (Bn.)*

**XAY** *f.* Ter.

*Olam aro chehradin gul ochib, -  
Xay birla gulob yerga sochib. (L.M.)*

**XAYL** *a.* 1. Kishilar to'dasi, guruh, to'p.

*Yana Jobir yetib alar sori bot,  
Topmay ul xaylning ko'pida hayot. (S.S.)*

2. Askar, qo'shin, lashkar.

*Shahg'a xayl o'lsa, fath aning ishidur,  
Bir kishi Rustam o'lsa, bir kishidur. (S.S.)*

**XAYMA** *a.* Chodir.

*O'lang uzra qurulg'an xaymada shoh,  
Zafardin shod bo'lub yotmishdi ogoh. (S.S.)*

**XAYOL** *a.* 1. O'y, fikr; o'ylash, fikrlash.

*Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,  
Go'yo xayol aylaki, qilmay nifoq. (M.)*

2. Biror narsaning aksi.

*Turubtur ko'zda qaddingiz xayoli,  
Aningdekkim suv uzra tol niholi. (Mn.)*

## 3. Orzu, niyat.

*Yuklabon necha jung aro amvol,  
Anda mavjud har ne qilsa xayol. (S.S.)*

**XAYR** a. 1. Yaxshi, ezgu.

*Ne amali xayr senga dastgir,  
Ne sitaming ko'rguchi po'zishpazir. (H.A.)*

## 2. Yaxshi ish, ezgu ish, xayrli ish.

*Senga gapirsam bu muhimi xayr kechga qolur. (Zm.)*

## 3. Birovga ko'rsatiladigan xolis yordam; saxovat.

*Xayru saxo vajhig'a kar,  
Bir pulni yuz yerdin tugur. (M.)*

**XAYRBOD** a. -f. Xayrlashayotganda aytiladigan so'z, xayr!

*Meni o'turdi ishqing bermading dod,  
Borurmen ostonangdin yor, xayrbod. (Mn.)*

**XAYRIYAT** a. Yaxshilik, ezgulik, yaxshi bo'lishlik.

*Yurt ishlarini doimo,  
Xayriyatini ko'zlar ekan. (M.)*

**XAYRULJAVOD** a. Saxiylarning xayrlisi.

*Seni judu ehsona targ'ib etib,  
Xitobingni xayruljavod ayladim. (N.)*

**XAYYOT** a. Tikuvchi.

*Tarabgohing aro xayyoti gardun  
Kanizu zoli xil'atdo'z bo'lsun. (Og.)*

**XAZON** f. Kuz, kuz fasli.

*Sarvkim, ul to'g'ri chekib qomatin,  
Ko'rmayin osibi xazon ofatin. (H.A.)*

**XAZOYIN** a. (birfigi **xazina**) Xazinalar.

*Tushti Jobir dafoyini qo'lig'a,  
Balki olam xazoyini qo'lig'a. (S.S.)*

**XASH** f. Xush. (**Xush** so'zi vazn, qofiya talabi bilan **xash** deb ham o'qiladi).

*Ulus podshohiyu darveshvas,  
Anga shohliqdin kelib faqr xash. (M.Q.)*

**XEYLI** a. Ancha, birmuncha, ko'p.

*Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni «to»  
bila bitibsen. (Bn.)*

**XEZ** f. So'z birikmasi tarkibida kelib, «qo'zg'ativchi, keltiruvchi» kabi ma'nolarda keladi.

*Xez solmoq Sakramoq.*

*Ko'rdilar solur erdi bir bug'u xez,  
Yetti oni qovub bir otlig' tez. (S.S.)*

**XESH** *f.* Qarindosh.

*Xeshman, darveshu miskin mustahiq, devonadin,  
San turub loyiqmudur qilmoq tama' begonadin. (T.F.)*

**XIDMAT** *a.* Xizmat, ish, yumush.

*O'tgan ishlarni dedilar qotida,  
Qildilar sharh borin xidmatida. (Shn.)*

**XIJIL** *a.* Xijolatli, xijolatda qolgan, uyalgan.

*Orazidin shamsu qamardur xijil,  
So'zlaridin shahdu shakar munfail. (Zm.)*

**XIL'ATDO'Z** *a.* -*f.* Kiyim tikuvchi, tikuvchi.

*Tarabgohing aro xayyoti gardun  
Kanizu zoli xil'atdo'z bo'lsun. (Og.)*

**XILOFAT** *a.* Xalifalik, o'rinbosarlik; shohlik.

*Haqki, solib soyai ra'fat sanga,  
Ro'zi etib taxti xilofat sanga. (H.A.)*

**XILQAT** *a.* 1. Yaratilish.

*Ko'zki erur egri aning xilqati,  
Birni iki ko'rmak erur sañ'ati. (H.A.)*

2. Qiyofa.

*K-ey bashar xilqatu farishta sifot,  
Bergan o'lgan tanimg'a toza hayot! (S.S.)*

**XILVATGARROY** *a.* -*f.* Xilvatda o'tiruvchi, o'zini chetga oluvchi

*Sen chu bo'lub sarxushu xilvatgarroy,  
Anda qilib har ne tilab nafsuy roy. (H.A.)*

**XING** *f.* Bo'z ot; ot.

*Juvong'orida erdi bartosu rus,  
Falak xingidek barcha tundu shamus. (S.I.)*

**XIRA** *f.* Jasur, qo'rqmas, shijoatli.

*Yana shahr yatimlaridin Devonai Jomabofni va Kal  
Qoshuqni kelturdilarkim, jang-sangda va yatimlikda xira va  
saromad edilar. (Bn.)*

**XIRAD** *f.* Aql, idrok, zakovat.

*O'zga xud bo'ldi ul sifat behad,  
Kim, dimog'idin uchti hushu xirad. (S.S.)*

**Xirad ahli** Donolar, donishmandlar.

*Bu oyin bila bersa har birga yer,  
O'zung de xirad ahli ani ne der. (S.I.)*



**Xiraddin ozdurmog** Aqldan ozdirmog, jinni qilmog.

*Xiraddin ozdurur g'amzang xumori,  
Yang'oqlaring Xalilulloh nori. (Mn.)*

**XIRADMAND** *f.* Donishmand, dono, aqli.

*O'rganurdin qochg'on lavand,  
Emgak tortib ilm o'rgangan xiradmand. (M.Q.)*

**XIROJ** *a.* Soliq.

*Dili vayronadin, jono, tavaqqu' qilma dog'ingni,  
Buzulg'an mulkdin, albattakim, sulton xiroj etmaz. (G.)*

**Xiroj bag'ishlamoq** Xirojdan voz kechmog.

*Olib kishvar elining ehtiyojin,  
Bag'ishlab elga uch yilliq xirojin. (F.Sh.)*

**XIROM** *f.* 1. Chiroyli yurish, noz-tamanno bilan yurish.

*Dona bila su sari qilg'och xirom,  
Tortti sayyod aning ustiga dom. (H.A.)*

2. Yurish, kezish.

*Shahr bar shahr edi xiromi aning,  
Yetguncha maqsadig'a gomi aning. (S.S.)*

**Su uzra xirom aylamak** Suzmog.

*Beribon kemalar aro orom,  
Yel kibi aylasak, su uzra xirom. (S.S.)*

**XIROMON** *f.* Chiroyli yuruvchi, noz-tamanno bilan yuradigan; nozanin.

*Eturdi fasli gul sayri xiyobon,  
Necha mahramlari birlan xiromon. (S.Sar.)*

**XIRQA** *a.* Darveshlar kiyadigan maxsus ust kiyim; janda.

*Farq aro birrangliq dushvor erur behad, valek,  
Xirqada tikmak erur oson qizil, sarig', yashil. (F.K.)*

**XISRAV** *f.* Hukmdor, podshoh.

*Turfa bukim xisravi odil ani,  
Adl ila ul davrda aylab g'ani. (H.A.)*

**Xisravi anjumsipoh** Askarlari yulduzlarday ko'p podshoh.

*Tushti ayog'ig'a bo'lub uzrxoh,  
Dediki: Ey xisravi anjumsipoh. (H.A.)*

**Xisravi farxundafol** Baxtli podshoh.

*Bo'yla chu ikki tonug' o'tkardi zol,  
Bo'ldi muqir xisravi farxundafol. (H.A.)*

**Xisravi oliy guhar** Eng qadrli oliy hukmdor, yuksak martabali podshoh.

*Suyunsun xisravi oliy guhar sulton Ulug'bekkim,*

*Shahanshoh Shohruxbektek shohi xisravnishon keldi. (S.)*

**XISRAVNISHON** *f.* Ulug' shohlikka sazovor, oliy hukmdorlikka loyiq.

*Suyunsun xisravi oliy guhar sulton Ulug'bekkim,*

*Shahanshoh Shohruxbektek shohi xisravnishon keldi. (S.)*

**XISSAT** *a.* Xasislik, qurumsoqlik.

*Zunnun arg'un bovujudi xissat va baxilliq yaxshi xizmatlar qildi. (Bn.)*

**XITOB** *a.* 1. Murojaat.

*Sidq xitobi yana yonmas anga,*

*Chin desa ham, xalq inonmas anga. (H.A.)*

2. Vahiy, xabar.

*Xitob keldi: «Ey Nuh, sendin aymoq, mendin eshitdurmak» (R.)*

**XITOIY** O'zbek urug'laridan birining nomi.

*Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,*

*Qirqu yuz, ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling. (T.F.)*

**XITTA** *a.* Mamlakat, o'lka.

**Xittai ma'mur** Obod o'lka.

*Chiqti bir kun mulki Nishopurdin,*

*Sayr uchun ul xittai ma'murdin. (L.T.)*

**XIYANAT** *a.* Ahdini buzish, so'zida turmaslik, xiyonat.

*Qali bo'lsa beglar xiyanat ko'ngul.*

*Budunqa asig' bo'lmas andin to'ngul. (Q.B.)*

**XIZIR** *a.* Rivoyat qilishlaricha, tiriklik suvini topib ichib, doimiy tirik yurgan bir payg'ambar.

**Xizir suyi** Hayot suvi, obihayot.

*Ichaling bodani jonon yuziga,*

*Xizir suyin sachaling jon yuziga. (Mn.)*

**XIZMAT** *a.* 1. Ish, yumush, mehnat.

*Amr qilibdur necha xizmat sanga,*

*Ro'zi etibdur necha san'at sanga. (H.A.)*

2. Huzur, old.

*Kim, kishi tutsalar keturgaylar,*

*Xizmatig'a aning yeturgaylar. (S.S.)*



**XIZR** *a. ayn.* Xizir.

*Xizr otamlarg'a burodar erur,  
Chimlig' azizlar menga dodar erur. (M.)  
Xizr suyi Tiriklik suvi, obihayot.  
Xizr suyidek anga ravshan zulol,  
Nutqi Masih anda nasimi shamol. (H.A.)*

**XISHT** *f.* G'isht.

*Xishtini masjid buzubon kelturub,  
Toshini el marqadidin yetkurub. (H.A.)*

**XOB** *f.* Uyc u.

*Yo q kunduzu kecha xo'rdu xobi,  
Dom ichida qushdek iztirobi. (L.M.)  
Xob qilmoq Uxlamoq.  
Ne bilursan kechalar faqr ahlidin ne o'tganin,  
Bistari zarrin uza, eykim, qilursan xob, qish. (Og.)*

**XODIM** *a.* Xizmat qiluvchi, xizmatkor.

*Ul maxdum bo'lsun, sizlar xodim bo'lung. (R.)*

**XOHARZODA** *f.* Opa yoki singilning farzandi, jiyan (xolaga nisbatan).

*Jahondin xotiri ozodasi bor,  
Ki bir gulchehra xoharzodasi bor. (F.Sh.)*

**XOHI-NOXOHI** *f.* Istar-istamas.

*Chora yo'q edi, xohi-noxohi rozi bo'ldum. (Bn.)*

**XOHION** *f.* Tarafdor.

*Dedilarkim, Xoja Yahyo ham podshohning xohonidur. (Bn.)*

**XOK** *f.* Tuproq.

*Ermas alar tufrog'u sen nuri pok,  
Xilqat alarg'au sanga tiyra xok. (H.A.)*

**XOKIROH** *f.* Kamtar, kamtarin, xokisor.

*Mehrkim, charx xokirohi edi.  
Nilufarzor jilvagohi edi. (S.S.)*

**XOKISTAR** *f.* Kul.

*Ey sabo, g'ambodadurman, bistarimni kavlama,  
Chun shafaqoludaman, xokistarimni kavlama. (Mash.)*

**XOLIQ** *a.* Yaratuvchi, xudo, tangri.

*O'shul kunkim, seni xoliq yaratti,  
Seni dilbar, meni oshiq yaratti. (Mn.)*



- XOLISA** *a.* Hukmdorga tegishli mulk, podsho mulki.  
*Kobul viloyatini xolisa qildim, o'g'lonlardin hech kim tama' qilmag'aysiz. (Bn.)*
- XOM** *f.* Teri.  
*Rum dasturi bila arobalarning orasida zanjir o'rnig'a o'yning xomidin arg'amchilar eshib, bir-biriga bog'laylar. (Bn.)*
- XOMA** *f.* Qalam.  
*Xomaki tuzlukka erur rahnamun  
Kesilibon boshi bo'lur sarnigun. (H.A.)*
- XOMUSH** *f.* So'zlamaydigan, indamaydigan, indamas, jim turuvchi.  
*Yiqilib zoyil o'ldi andin hush,  
Bir dam erdi o'luk xomush. (S.S.)*
- XON I** O'rta asrlarda ba'zi sharq mamlakatlarida davlat boshlig'i, davlatning mutlaq hokimi, podsho.  
*Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,  
Qirqu yuz, ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling. (T.F.)*
- XON II** *f.* Dasturxon.  
*Xonlarda har nav' gazaklar yasab edilar. (Bn.)*
- XONAQOH** *a.* Musulmonlar ibodat qiladigan, darveshlar zikru samo' etadigan joy.  
*Bu taqvodin kechay desang, xonaqohdin qochay desang,  
Haqiqatni ochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l. (Mash.)*
- XONAVODA** *f.* Sulola, xonadon, dinastiya.  
*Bu xonavoda uchun yot-yog'i bilakim muncha jang va jadal qilibturmen. (Bn.)*
- XONAZODI** *f. -a.* O'zi parvarishlagan, o'zi yetishtirgan, qo'lbola.  
*Bu to'pchoqlar aksar xonazodi edi. (Bn.)*
- XONUMON** *f.* Uy-joy, oila, ro'zg'or.  
*Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima,  
Xonumon ovora selobi havodis surdiman. (T.F.)*
- XOQON** Ulug' xon, xonlar xoni.  
*Men yolg'iz qonli ko'z yoshlarimni bu sag'anangga to'kmaq uchun emas, u yozuqlarimni iqrar etarga keldim, xoqonim. (Fit.)*
- Xoqoni ahd** Davr xoqoni.  
*Kimki erur qaysaru xoqoni ahd,  
Qaysaru xoqon ne, Sulaymoni ahd. (H.A.)*

**XOR I** *f.* 1. Tikan.

*Chu manzil qilib mulki Farxorni,  
Kesib ul gulistonda har xorni. (S.I.)*

## 2. Tikanzor.

*Sabr sening dardinga darmon bo'lur,  
Sabr bilan xor guliston bo'lur. (Zm.)*

**XOR II** *Obro'-e'tibori tushgan; kamsitilgan.*

*Xoru zabun qilib jafolar ko'rguzdilar. (M.Q.)*

**Xor tutmoq** Nazar-pisand qilmaslik, mensimaslik.

*Bundin bexabar o'xsharsanki «Cho'bni xor tutsang, ko'zga  
tushar».(Zm.)*

**XORA** *f.* Qattiq tosh, granit.

*Tiyri g'amzang muddaiy ko'ngliga zoye' qilmakim,  
Ul hadafdur xora, paykoning kerakmasmu sanga?(Mu.)*

**XORAREZ** *f.* Tosh maydalovchi.

*Bu kon ishqida teshang xorarez et,  
Ani Farhod toshi birla tez et. (F.Sh.)*

**XOROFIGAN** *f.* Qoya qazuvchi, tosh qazuvchi.

*Bu kon qazmoqni har kim qildi pasha,  
Kerak xorofigan ilkida tasha. (F.Sh.)*

**XOS** *a.* 1. Tegishli, oid.

*Kim, agar banddin xalos o'lg'ung,  
Bir shahi komrong'a xos o'lg'ung. (S.S.)*

## 2. Loyiq, munosib, sazovor.

*Ul Zuhalvash jazog'a xos o'lg'ay,  
Mehr ham uqdadin xalos o'lg'ay. (S.S.)*

**XOST** *f.* Xohish, iroda.

*Hech nima tengrining xostidin o'zga bo'lmas. (Bn.)*

**XOTAM** *a.* 1. Uzuk.

*Xatdin o'lub anda dog'i bu sharaf,  
Xatti bo'lub gavharu xotam sadaf. (H.A.)*

2. Farmon oxiriga bosiladigan tamg'a, muhr. Mazkur muhr ko'pincha uzukning ko'ziga o'rnatilgan.

*Devu pari zumrai odam bila,  
Tobi'i amri edi xotam bila. (H.A.)*

**XOTIB** *a.* Xutba o'quvchi, xatib.

*Bo'ldi xon xotibu ul maxtuba,  
Bo'ldi xon rog'ibu ul marg'uba. (Shn.)*

**XOTIMAT** *a.* Xotima, oxir, nihoya.

*Xotimat ul-kitob. (Mn.)*

**XOTIR** *a.* Ko'ngil, dil.

*Muni bilgach Suhayl zoru hazin,  
Shammai topti xotiri taskin. (S.S.)*

**XOVAR** *f.* Sharq, kunchiqar.

*Majoziy ishq bo'ldi subhi anvar,  
Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar. (F.Sh.)*

**XOYA** *f.* Tuxum, parranda tuxumi.

*Hamma o'ynab olib qo'lg'a yumurta,  
Mening ilgimda yo'qtur xoya navro'z. (Og.)*

**XOYIF** *a.* Qo'rquvchi, xavfsirovchi.

*Bir-biri birla muxolif borcha,  
Bir-biridin taqi xoyif borcha. (Shn.)*

**XOZIN** *a.* Xazinachi.

*Deb ermish xozini jannatki, Farhod  
Jahonda ishq tarhin soldi bunyod. (F.Sh.)*

**XOSHOK** *f.* Xas, xashak.

*Andakim, Mehr kemasin ko'lok,  
Surdi bahr ichra o'ylakim xoshok. (S.S.)*

**XUD I** *f.* 1. Albatta, shubhasiz.

*Yaxshidur avvalg'isi xud begumon,  
Lek ikkinchisi ham ermas yomon. (H.A.)*

2. Hech, sira.

*Gala tugansau qurusa shajar,  
Xud sanga qolmas yana naf'u samar. (H.A.)*

3. Xuddi, naq.

*Bu shakl-u shamoyil bila xud huru parisen,  
Kim jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas. (B.)*

**XUD II** *f.* Askarlar kiyadigan uzun uchli jez qalpoq.

*Bu toshikim uchurdi xudi mili,  
Hamuldur bosh uchurmog'ning dalili. (F.Sh.)*

**XUDKOM** *f.* Faqat o'zini o'ylaydigan, egoist, xudbin.

*Kim: «Bu xudkom uyida bormu,  
Shayxulislom uyida bormu?» (Shn.)*

**XUDORO** *f.* Bahri xudoro Xudo haqi, marhamat qilib, iltimos.

*Niyozim bu turur sendin nigoro,  
Unutma bandani bahri xudoro. (Mn.)*

**XUDROYLIQ** O'jarlik, qaysarlik.

*Necha dedim ul sanamg'a, bormog'in,  
Qilmadi ul tark oxir bormog'in.  
Munchakim xudroyliq ko'rguzdi ul,  
Aql hayrat qildi, tishlab bormog'in. (B.V.)*

**XUFFOSH** a. Ko'rshapalak.

*May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,  
Bul'ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur. (B.V.)*

**XUJASTA** f. Qutlug', muborak, baxtiyor.

**Xujasta ko'rmak** E'zozlamoq, ardoqlamoq.  
*Ani sindurg'an elni qil shikasta,  
Xujasta ko'rgan elni tut xujasta. (F.Sh.)*

**XULAFO** a. (*birligi xalifa*) Xalifalar.

*Ey xulafo o'rnida masnadrinishin,  
Ko'r o'z ishingniyu alarning ishin. (H.A.)*

**XULD** a. Jannat, bihisht.

*Sening husnung qamuq olamda mashhur,  
Yuzungdin kizlanibtur xuld aro hur. (Mn.)*

**Xuldi barin** Eng oliy jannat.

*Buki erur kufr elining mulki Chin,  
Ko'rkim erur g'ayrati xuldi barin. (H.A.)*

**XULQ** a. Kishining fe'l-atvori, xarakteri.

**Xulqi xush** Yaxshi xulq.  
*Lek hunar ichra, kamol ichra ham,  
Xulqi xushu lutfi maqol ichra ham. (H.A.)*

**XUM** f. Suyuqlik yoki don kabi narsalar saqlanadigan har xil katalikdagi sopol idish.

*Qiblagoho, mandin ikroh etma bir mayxoradin,  
Jo'shi pur xum sof maysan, man g'uboru durdiman. (T.F.)*

**XUMOR** a. Ishtiyoq; qo'msash.

*Xiraddin ozdurur g'amzang xumori,  
Yang'oqlaring Xalilulloh nori. (Mn.)*

**XUN** f. Qon.

*Seningtek podshoning marhabosi,  
Meningtek ming gadoning xun bahosi. (Mn.)*

**XUNBOR** f. Ko'zidan qonli yosh to'kuvchi, qon yig'lovchi, achchiq-achchiq yig'lovchi.

*Yetishgach hajr sharhi zor yig'lab  
Iki ko'z aylabon xunbor yig'lab. (F.Sh.)*

**XUNBORA** *f.* Ko'zlaridan qon to'kuvchi, achchiq-achchiq yig'lovchi.

*Muhabbat jomidin may tuttilar, ichmasga choram yo'q,  
Ko'zumdin qon yoshim tinmay oqar, xunbora Mashrabman.  
(Mash.)*

**XUNFISHON** *f.* Qon to'kuvchi, qon sochuvchi.

*Chekib bebok tig'i xunfishonni,  
Cherik birla qaro aylab jahonni. (F.Sh.)*

**XUNREZ** *f.* Qon to'kuvchi; berahm, shafqatsiz.

*Kirdi zavraqqa Jobiri xunrez,  
Yel kibi qo'ydi yuz alar sori tez. (S.S.)*

**XUNXOR** *f.* 1. Qonxo'r, zolim, berahm.

*Oqib vodida yuz daryoyi xunxor,  
Tog' ichra xud ming ajdarhoyi xunxor. (F.Sh.)  
2. Qon yutuvchi, qon yig'lovchi, azob chekuvch.  
Do'stlar, mensiz dame ohangi ishrat qilmangiz,  
Siz ichib sahbo, meni xunxori hasrat qilmangiz. (Mu.)*

**XURDA** *f.* 1. Zarra, mayda. 2. ko'ch. Sir.

*Tab' ganjidan maoniy xurdasin, yuz qatla hayf,  
Kim, nisor etmakka shohi xurdadone topmadim. (G'.S.)*

**XURDADON** *f.* Nozikfahm, nozikfahmli, nuktadon; chuqur bilimli.

*Xudo sirridur og'zing, oni bilmon,  
Ne haddi aqlu fahmi xurdadondur. (L.)*

**XURRAM** *f.* Xursand, shod, quvnoq.

*So'ngra raiyyatni vadoyi dedi,  
Xurram ani bilki, bu g'amni yedi. (H.A.)  
Sabzu xurram Yashnagan, barq urgan; shod, xursand.  
Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol  
Men archi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim. (B.)*

**XURO'S** *f.* Xo'roz.

*Qoqib ovuch sanju qilib na'ra ko's,  
Ko'kka chekib nolau afg'on xuro's. (H.A.)*

**XURSHID** *f.* Quyosh, oftob.

*Angakim, qoldi g'am shomig'a jovid,  
Burun subh o'ldi toli', so'ngra xurshid. (F.Sh.)  
Xurshidi tobon Porloq quyosh, go'zal, zebo.  
Epi yeb, isrigach bir onda posbon,  
Choh ichra boqti tez xurshidi tobon. (S.Sar.)*

**XUSHK** *f.* Quruq, ho'l emas, namsiz.

*Zanbaq varaqi aro separ mushk,  
Kim atri dimog'ini qilar xushk. (L.M.)*

**XUSRAV** *f.* Podsho, shoh. (Bu yerda Xusrav Dehlaviy nazarda tutilgan.)

*Nizomiy dedi, Xusrav bo'ldi payrav,  
Agar ul shoh edi, bu erdi xusrav. (F.Sh.)*

**XUSRON** *f.* Zarar, ziyon.

*Bu xusron baski, chun g'am rudi tuzdum,  
Sirishkim selidin ka'bamni buzdum. (F.Sh.)*

**XUTUR** *a.* 1. Bezovtalik, xavotir.

*Lek ko'ngli chu behuzur erdi,  
Anda har lahza bu xutur erdi. (S.S.)*

2. Xotirdan o'tish, xotirga kelish.

*Mundoq maoniy zuhur etgay, yana zisht xayollar anda xutur  
etgay. (Bn.)*

**XUSH** *f.* 1. Yaxshi, yoqimli.

*Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko'rdiman,  
Rind sarxayliyu xush ayshiq damodam surdiman. (T.F.)*

2. Yaxshi, baxtiyor, baxtli.

*Hoy-hoyi bazmlarda shahd no'sho-no'sh edim,  
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarpo'sh edim. (T.F.)*

3. Yoqimli, mayin.

*Ammo aning havosi xush va bodi dilkash. (Zm.)*

**XUSHGUVOR** *f.* Mazali, xushta'm, chuchuk.

*Chashmai erdi xushguvor anda,  
Zahr aro no'sh oshkor anda. (S.S.)*

**XUSHHOL** *f. -a.* Xursand, quvnoq, shod.

*Jobir aning xayolidin xushhol,  
Ko'ngliga kelmayin umidi visol. (S.S.)*

**XUSHJARANG** Yoqimli, yaxshi jaranglaydigan.

*She'r eshitmaydi birov, davron qulog'i kar anga,  
Bir hovuch oltun, kumushning xushjarang ovozi bo'l. (Z.)*

**XUSHLIQO** *f. -a.* Xushro'y, chiroyli, go'zal.

*Salomimni tegur ul xushliqog'a,  
Qamuq boshdin-oyoq obi baqog'a. (Mn.)*

**XUSHOMAD** *f.* Tamagirlik, manfaat uchun birovga yoqishga harakat qilish; laganbardorlik.

*Chun xushomad demakni boshlasa kosh  
Kim tutulsa dami, kesilsa tili. (A.N.Qit.)*

**XUSHRAFTOR** *f.* Chiroyli yuradigan, chiroyli yurishli.

*Qaysi ra'no sarvqadg'a qumriye bor men kibi?  
Qaysi qumrining qadingdek sarvi xushraftori bor?(Mu.)*

**XUSHTAB'** *f. -a.* Qobilyatli, iste'dodli, talantli.

*Xon xushtab' kishi edi, she'r aytur edi. (Bn.)*

**XUSHTAB'ONA** *f. -a. -f.* Go'zal, zarif, nozik, yoqimli.

*Bovujudkim, ummiy edi, xushtab'ona zarofatlar qilur edi. (Bn.)*

**XUSHXULQ** *f. -a.* Yaxshi xulqli, yoqimli.

*Harrof.va xushxulq kishi edi. (Bn.)*

**XO'B** *f.* Yaxshi, ma'qul.

*Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bil. to she'r aytib-  
turlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. (Bn.)*

**XO'DUK** Eshakning bolasi, xo'tik.

*Kim kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,  
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami. (A.N.Qit.)*

**XO'JA** *f.* Xo'jayin, sohib, ega; Markaziy Osiyoda ilgari ma'lum  
imtiyozlarga ega bo'lgan bir xalq tabaqasi.

*Derki: Ko'zunga hali kal jo'jaman,  
Maxdumi a'zamlig o'zum xo'jaman. (M.)*

**XO'JASAROY** *f.* Bichilgan haram qorovuli.

*Na adolat bo'lur ul shohda-o'lg'ay lo'lizoy,  
Hamdami xotunu kengash begisi xo'jasaroy. (T.F.)*

**XO'RD** *f.* Yeyish-ichish.

**Xo'rdu xob** Yeyish-ichish va uyqu.

*Yo'q kunduzu kecha xo'rdu xobi,  
Dom ichida qushdek iztirobi. (L.M.)*

**XO'Y** *f.* Odat, ko'nikma.

**Xo'y etmak** Odatlanmoq.

*Nochor furqati bila xo'y etmisham, netay,  
Chun vaslig'a o'zumni sazovor topmadim. (B.)*

**XO'SHA** *f.* Boshq, bosh.

*Bor edi men tulg'a jigargo'shaye,  
Bal jigarim mazraidin xo'shaye. (H.A.)*



## Yy

- YA I** **Yoy** so'zining qisqargan shakli; kamon.  
*Qilich baldu o'q ya qavi kuch yurak*  
*Bar erkan kad er nenga qo'rqmas kerak. (Q.B.)*
- YA II** **Yoki.**  
*Tilin so'zlasa so'z shakarda suchig*  
*Bo'yun berdi beg qul ulug' ya kichig. (Q.B.)*
- YA'JUJVAZ'** *a. -f.* Ya'jujga o'xshash, ya'juj-ma'juj kabi.  
*Durahdu tangchashmu besaru ya'jujvaz',*  
*Muxtalif mazhab guruhi O'zbekistondur bu mulk. (T.F.)*
- YAKFAN** *f. -a.* Mohir, bilag'on, o'z hunarini yaxshi biluvchi.  
*Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,*  
*Yuz ul fanliq aro har qaysi yakfan. (F.Sh.)*
- YAKRANG** *f.* Bir xil, birday.  
*Har yerda yotg'an xoru xas,*  
*Ko'zga tikan yakrang ekan. (M.)*
- YAKRO'** *f.* Bir yoqli.  
**Yakro bo'lmoq** Ora buzulmoq, munosabatlarga putur yetmoq, qarama-qarshi bo'lmoq.  
*Xon tilab turub, Jahongir mirzog'a berilsa, xon bila tamom yakro' bo'lmoq kerak edi. (Bn.)*
- YAKSAR** *f.* Birdan, birdaniga; birvarakay.  
*Qotig'roq kelmadi hargiz jahong'a ushbu qishdin qish,*  
*Ki aqlu hisg'a yaksar moni' o'ldi borcha ishdin qish. (Og.)*
- YAKSON** *f.* Baravar, teng, birday.  
*Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,*  
*Suni teng ichmas necha yakson sochar. (H.A.)*
- YAKTO** *f.* Bebaho, yagona, tengi yo'q, tengsiz.  
*Kishi o'zluqni qo'ymay, oni topmas,*  
*Tengiz kechmay, duri yaktoni topmas. (F.Sh.)*
- YALAY-BULO** Eski o'zbek qo'shiqlaridan birining nomi.  
*Turkona ir irlag'uncha oning,*  
*Kuydurdi meni yalay-bulosi. (S.)*
- YALDO** *f.* Qishning eng uzun, eng qorong'i kechasi bo'lib, u 22-dekabrga to'g'ri keladi.  
*Yaldo kechani sham'i shabiston etgan,*  
*Bir lahzada olamni guliston etgan. (A.Y.)*



**YALNGUQ** Odam, kishi.

*Arig'sizni yalnguq suvun yub arir*

*Qali artasa suv nekun yub arir. (Q.B.)*

**YALG'AN** 1. Yolg'onchi, yolg'on gapiruvchi, aldoqchi.

*Qamug'da yaraqsiz ey elig quti*

*Bu beglar uza qo'psa yalg'an ati. (Q.B.)*

*Bu yalg'an kishilar vafasiz bo'lur*

*Vafasiz kishi xalqqa tengsiz qilur. (Q.B.)*

2. Yolg'on gapiradigan, soxtako'.

*Tili yalg'an erning jafa qilqi ul*

*Jafa kimda ersa oshul yilqi ul. (Q.B.)*

3. Yolg'onchilik, aldoqchilik.

*Bu to'rtinch yavuz begka arquq qilinch*

*Beshinchi yaraqsiz bu yalg'an erinch. (Q.B.)*

**YANG** xit. Yo'riq, yo'l-yo'riq.

*Bu beklik ishin barcha beglar bilir*

*To'ru o'ngdi qilq yang ulardin kelir. (Q.B.)*

**YANGLIG'** Kabi, singari, o'xshash.

*Yosh to'kub bahri mavjvar yanglig'.*

*Ko'k libos ichra nilufar yanglig'. (S.S.)*

**YANGOQ** Betning ikki tarafidagi bo'rtgan joyi, yonoq.

*Ko'rurmen bog'i jannat mevasindin,*

*Yangoqing norini yuz qatla behroq. (A.)*

**YANGSIZ** Noloyiq ish, noma'qul ish.

*Necha yangsiz ishlar bo'z ichsa bo'lur*

*Necha edgu ishlar esursa qalur. (Q.B.)*

**YANGSHAMOQ** Aljiramoq, vaysamoq, valdiramoq.

*Sanib so'zlagan er so'z sag'i,*

*O'kush yangshag'an til unulmaz yag'i. (H.H.)*

**YANUT** Javob, javob qaytarish.

*Yanut berdi O'gdulmish aydi elig*

*Esan inch tirilgil ey ustag alig. (Q.B.)*

**YAPALOQ** Kechasi faol hayot kechiruvchi yirtqich qush; boyqush.

*Anda Ko'rqush aydi: «Ey, Yapaloq andog' bo'lsa, kuyov*

*bo'lur o'g'lingning otini aytg'il.» (Zm.)*

**YAPALOQQUSH** ayn. Yapaloq

*Yapaloqqush Ko'rqushni imlab olib, yonida o'tqazib aydiki...*

*(Zm.)*



**YAQMAQ** Ishga kirishmoq, ish boshlamoq.

*Budunug' bilig birla basti begi*

*Bilig bo'lmasa ishka yaqmas o'gi. (Q.B.)*

**YAQO** 1. Kiyimning bo'yin qismi, yoqa.

*Mehr gul yanglig' aylabon yaqo chok,*

*Nilufarzor aro kezib g'amnok. (S.S.)*

2. Qirg'oq, bo'y, sohil, chet.

*Boshlabon ul cherikni sohil ila,*

*Su yaqosidag'i manozil ila. (S.S.)*

**YARATQAN** Xudo, alloh, tengri.

*O'kush yillar yaratqan boqiy tutsun,*

*Hayotingni, begim, davron ichinda. (Mn.)*

**YARAG'SIZ** 1. Hech narsaga yaramaydigan, yaroqsiz.

*Qamug'da yarag'siz ey elig quti*

*Bu beglar uza qo'psa yalg'an ati. (Q.B.)*

**Yarag'siz un qilmoq** Tushunarsiz tovush chiqarmoq, tushunarsiz qilib gapirmoq.

*Singakka necha so'rsalar so'zlayumas. Yarag'siz un qilur. (R.)*

2. Ma'qul kelmaydigan, noma'qul, nojo'ya.

*Bu to'rtinch yavuz begka arquq qilinch*

*Beshinchi yarag'siz bu yalg'an erinch. (Q.B.)*

**YARLIG'** Farmon, buyruq, amr.

*Ko'ni tut ko'ngul til bayatqa sig'in*

*Idi yarlig'in sen ag'ir tut tapin. (Q.B.)*

**YARMAQ** Pul, aqcha.

*Kishi barcha yarmaq quli bo'ldilar. (Q.B.)*

**YAROQ** Qurol, qurol-yaroq, aslaha.

*Azm aylab cherik yarog'i bila,*

*Yurusun bahrning qirog'i bila. (S.S.)*

**Yaroq aylamak** Tayyorgarlik ko'rmoq.

*Mehrni charx etib asiri firoq,*

*Aylar erdi Suhayl atosi yaroq. (S.S.)*

**YARUTMAQ** Quvontirmoq, sevintirmoq, shodlantirmoq.

*To'ru birla buduni sevinsa turub*

*Kumush bo'lsa erat yarunsa ko'rub. (Q.B.)*

**YAS** Zarar, ziyon.

*Budunqa asig' qil bo'lub qilma yas*

*Qilinch edgu tutg'il esiz yasi bas. (Q.B.)*

**YASANMOQ** Jangga tayyorlanmoq, saflanmoq.

*Cheriki dog'i yasandilar bot,  
Hech kimda yo'q edi sabr-u sabot. (Shn.)*

**YASOL** Saf, qator.

*Ko'rdilar xasm yasolin tayyor,  
Lek qochmoqqa yasoli tayyor. (Sh 1.)*

**YATAN** Yog'ochdan yasalgan yoy, kamalak.

**YATIM** a. Bezori, to'polonchi, xuligan.

*Yana shahr yatimlaridin Devonai jomabofni va Kal Qoshuq-  
ni kelturdilarkim, jang-sangda va yatimlikda xira va saro-  
mad edilar. (Bn.)*

**YAVA** Behuda, bekorga, bekor, zoye.

*So'zin qiyg'uchi begka tutma umunch  
Tiriglik yava bo'lg'a qilg'a o'kunch. (Q.B.)*

**YAVUZ** 1. Yaramas, razil, yomon.

*Bu to'rtinch yavuz begka arquq qilinch  
Beshinchi yarag'siz bu yalg'an erinch. (Q.B.)*

2. Zararli, yomon.

*Evaklik biling ul qamug'qa yavuz  
Qali bo'lsa begka yuzi bo'ldi bo'z. (Q.B.)*

**YAX** f. 1. Muz.

*Agar qor va yax nima moni' bo'lmasa, bir oychaliq yo'l edi.  
(Bn.)*

2. Sovuq.

*Mayxonag'a kirdim, bila qoldim kuyarimni,  
Masjidg'a kirib, zohidi yaxdek qota qoldim. (Mash.)*

**Yax bog'lamoq** Muzlamoq.

*Bir ariq suyidakim yoqalari qalin muz to'ngub edi, o'rtasi  
suning tezligi jihatdin yax bog'lamaydur edi. (Bn.)*

**YAYOQ** Piyoda, piyoda jangchi.

*Ushbu holatda bir yayoq fasil ustidin qochib boradur. (Bn.)*

**YAZDON** f. Xudo, tangri, alloh.

*Kim: «Inoyat yo'q ersa yazdondin  
El kerakdur yumoq ilik jondin». (S.S.)*

**YAZDONIY** f. -a. Xudoga tegishli, allohga oid.

*Yozib ul noma ichra pinhoni,  
Kim, bu bo'lmish qazoyi yazdoniy. (S.S.)*



**YAZUQ** Gunoh, ayb.

*Beg alchaq kerak bo'lsa ko'ngli achuq  
Yazuqlug' kishidin kechursa yazuq. (Q.B.)*

**YAZUQLUG'** Gunohkor.

*Beg alchaq kerak bo'lsa ko'ngli achuq  
Yazuqlug' kishidin kechursa yazuq. (Q.B.)*

**YAG'I** Yov, g'anim.

*Yag'i qilmag'usun qilinchi qilur  
Yag'i bu yag'idin ne bar artuqi. (Q.B.)*

**YAG'MO** f. Talon-taroj, talash, g'orat.

*Chekma boshkim, emin ermassen xazon yag'mosidin,  
Bu chaman ichra agar savsan, agar shamshod bo'l. (G'.S.)*

**YAG'MUR** Yomg'ir.

*Mavlo jalla jalolahu qirq yil yag'mur bermadi. (R.)*

**YAG'UAMAQ** Yaqinlashmoq, yaqin kelmoq.

*Kuyar o't turur kuch yag'usa kuyar  
To'ru suv turur aqsa ne'mat unar. (Q.B.)*

**YASHNATMOQ** Yaraqatmoq, yarqiratmoq.

*Qilich yashnatsang urushta, aning qay shu'lasin dushman,  
Ko'rub aytur qamug': «Hay-hay, qoching, barqi yomon  
keldi». (S.)*

**YASHUNMOQ** O'zini panaga olmoq, yashirinmoq.

*Meni devona aylab ishva birla,  
Nedur hardam parilardek yashunmoq. (A.)*

**YEG** Yaxshi, durust, ezgu.

*Biliglig uqushlug' bo'gu elchi beg  
Ekagun ajunda bo'lur o'rni yeg. (Q.B.)*

**YEGLI** Yaxshi, olijanob.

*Neku ter eshitgil urub yegli er  
Urub al ey alp er yana erka ber. (Q.B.)*

**YEGUCHI** Talon-taroj qiluvchi, bosqinchi.

*Qayu beg budunqa to'ru bermasa,  
Ko'dazmasa budunin yeguchi yesa. (Q.B.)*

**YEL** Shamol.

*Atoyi yerga yel zulfin tegurmas,  
Qaro yerga sening bosh urmog'ing ne? (A.)*

**YEMA** Ham; yana.

*Bularda biri qalsa to'rti qalur  
Bu to'rti yema qalsa beglik o'lur. (Q.B.)*

**YEMAK** 1. Istemol qilmoq, tanovul qilmoq.

*Qamug' ach yesa ichsa axir to'dur*

*Ko'zi ach kishi o'lsa achliq qo'dur. (Q.B.)*

2. Foydalanmoq, bahra olmoq.

*Yesa bersa dunya tirilsa qutun*

*Taqi bir ajunda bu buldi to'ra. (Q.B.)*

3. Idora etmoq, boshqarmoq.

*Bu kuchkay kishi kend va beglik yemas*

*Bu kuchkay kuchini budun ko'trumas. (Q.B.)*

4. ko'ch. Xonavayron qilmoq, talon-taroj qilmoq.

*Qayu beg budunqa to'ru bermasa*

*Ko'dazmasa budunin yeguchi yesa. (Q.B.)*

**YEMISH** Meva.

*Og'ochlarda shakar tekin yemishlar,*

*Bu yerni ellari uchmoq demishlar. (S.Sar.)*

**YENGIL** Og'irligi kam, vazni oz.

**Yengil bo'lmoq** Yengil tortmoq, tuzalmoq.

*O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. (Bn.)*

**YENGILNAMO** Yengil tabiat, yengiltak; jizzaki.

*Yayfan agarchi xush havo*

*Odamlari yengilnamo. (M.)*

**YENIG** Yengil.

**Yenig qurg'uluq** Yengiltaklik.

*O'tunluq evaklik yenig qurg'uluq*

*Qara qilqi ul bu yiraq turg'uluq. (Q.B.)*

**YETKURMAK** Yetkazmoq, eltmoq.

*Anga yetkurdi so'zni Mehri munir*

*Ki, bu yanglig'ki men bo'lubmen asir. (S.S.)*

**YETMAK** To'g'ri yo'lga solmoq, yo'lga solmoq, tuzatmoq.

*Qara tengsizin barcha beglar etar,*

*Begi qilsa tengsiz ani kim yetar. (Q.B.)*

**YETRUMAK** Yetkazmoq; ishga solmoq.

*Aya elchi beglar elig qulsa saq*

*Bu saqliq bila sen tuzu elka baq. (Q.B.)*

**YETURMAK I** Olib bormoq, yetkazmoq.

*Shahni ul qasrg'a yeturdilar,*

*Borcha hukmni bajo keturdilar. (S.S.)*



**YETURMAK** II O'rnini to'ldirmoq, but qilmoq.

*Aqi bo'l bag'ishla ichur ham yitur,  
Qali eksusa ur yana al yetur. (Q.B.)*

**YEYUMAK** Idora qilmoq, boshqarmoq.

*Neku ter eshitgil biliglik so'zun  
Yeyumadi zalim elin kech uzun. (Q.B.)*

**YESHMAK** Yechmoq.

*Chiqti dog'i yeshib kamandini chust,  
Bog'lab oning ilik-ayog'ini rust. (S.S.)*

**YIG** Yaxshi, durust, ezgu.

*Eva qilmish ishlar bicha yig bo'lur  
Eva yesa ash suv bicha ig bo'lur. (Q.B.)*

**YIGIT** 1. Yosh erkak, yosh kishi.

*Ki o'lmasdin burun ochib ko'zumni,  
Sarir uzra yigit ko'rsam o'zumni. (F.Sh.)*

2. Askar, soldat.

*Jami' beklarni va yigitlarni chorlab dedimkim: Beklar va  
yigitlar! (Bn.)*

**YILDIZ** Ildiz, asos.

**Yildiz ko'ki** Asos, poydevor.  
*Bu el tutruqi ham tubi begliki  
Eki neng turur asli yildiz ko'ki. (Q.B.)*

**YILON** Ilon.

*Nuh alayhissalom baqa etin yilong'a berdi. (R.)*

**YILQI** 1. Qoramol; yilqi.

**Yilqi qara** Yilqi va qoramol.  
*Kemi uch qat erdi aldida yilqi qaralar erdi. (R.)*  
2. ko'ch. Hayvon, mol, qo'pol, madaniyatsiz.  
*Tili yalg'an erning jafa qilqi ul  
Jafa kimda ersa o'shul yilqi ul. (Q.B.)*

**YIPAR** Ipor, mushk.

*Elig aydi uqtun bu so'z barcha chin  
Ko'ni so'zladning so'z jipar burdi kin. (Q.B.)*

**YIRANMAQ** Yiroq turmoq, uzoqlashmoq, yiroqlashmoq.

*Birisi evaklik birisi saran  
Uchunchi bushiliq serin o'z yiran. (Q.B.)*

**YIRMAQ** Ayblamoq; nafrat etmoq, jirkanmoq.

*Yirarsan zamonangni, xalqni qo'yub,  
Zamonangni yirma, kishisini yir. (H.H.)*

**YIROQ** Olis, uzoq.

*Yo'l qiroqdin magar yiroq erdi,  
Bahrdin borsa yaxshiroq erdi. (S.S.)*

**YITURMAK** Yedirmoq, taom iste'mol qildirmoq.

*Aqi bo'l bag'ishla ichur ham yitur.  
Qali eksusa ur yana al yetur. (Q.B.)*

**YIZLAMAQ** Hidlamoq, iskamoq.

*Og'zingni ochg'il yizlayin, tedi. (R.)*

**YIG'IG'LI** To'siq bo'luvchi, mone bo'luvchi, tiyuvchi.

*Qamug' tengsiz ishtin yig'ig'li o'vut  
Qamug' edgu ishka ulag'li o'vut. (Q.B.)*

**YIG'MAQ** Tiymoq, erk bermaslik.

**Tiling yig'a tut!** Tilingni tiy!  
*So'zung bushlug' ezma, yig'a tut tiling,  
Yetar bashqa bir kun bu til so'z bashi. (H.H.)*

**YIG'NALMOQ** Yig'ilmoq, to'planmoq.

*Va gar har soridin yig'nalsa qatra  
Bo'lur tadrij ila to'fon huvaydo. (Og.)*

**YIG'OCH I** Taxminan 6–7 km ga teng bo'lgan masofa o'lchovi birligi

*Bir yig'ochqa yaqin jazirag'a davr,  
Davrida sug'a topmayin kishi g'avr. (S.S.)*

**YIG'OCH II** 1. Daraxt.

*Duongni ijobat qildim, borg'il chinor yig'och tikkil. (R.)*  
2. Yog'och.

*Yig'ochni yorg'u birla yordilar. (R.)*

**YIG'OCHCHI** Duradgor, usta.

*Emdiga tegi payg'ambar erding, emdi yig'ochchimi bo'ldung.  
(R.)*

**YO I a.** Arab alifbosidagi «Y» harfining nomi.

*Iltilotni «to» bilan bitibsen, qulunjni «yo» bilan bitibsen.  
(Bn.)*

**YO II a.** Kuchli his-hayajon bilan qilingan murojaatni bildiradi; ey.

*Yo rab, ani xalq dilafro'zi et,  
Xasta Navoiyg'a dag'i ro'zi et. (H.A.)*

**YOBON** f. Dasht, cho'l.

*Farshi saropardasi yozi yobon,  
Qush paridin boshi uza soyabon. (H.A.)*

**YOD** f. 1. Orzu.*Dedi: joningni olsa la'li yodi**Dedikim: ushbudur jonim murodi. (F.Sh.)*

2. Es, xotira, o'y, xayol.

*Mehr qildi fasonasin bunyod,**Boshig'a nekim o'tti, ayladi yod. (S.S.)***YODGOR** f. Yodgorlik, esdalik.*Bo'lur bu bitigim, tarixqa yodgor,**Bu yodgorimda yolg'on yo'g'u chin bor. (S.Sar.)***YOLAMOQ I** Yalamoq.*Yo rab, ul shahdu shakar yo labdurur?**Yo magar shahdu shakar yolabdurur? (A.N.Tuy.)***YOLAMOQ II** Joylamoq, joylashtirmoq, o'rnatmoq.*Jonima payvasta novak otqali,**G'amza o'qin qoshig'a yolabdurur. (A.N.Tuy.)***YOLBORMOQ** O'tinib so'ramoq, yalinmoq, yolvormoq.*Dedi, ul chahdin oni qutqorsam,**Yig'labon zor-zor yolborsam. (S.S.)***YOLIN** Yolqin, alanga.*Kuyuk tang'a yolin urmoq ne erdi?!**Momug' uzra choqin urmoq ne erdi?! (F.Sh.)***YOLG'UZUN** Yolg'iz holda, yolg'iz, bir o'zi.*Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq,**Yolg'uzun aylar erdi qat'i tariq. (S.S.)***YON** 1. Taraf, tomon.*Sudadur maqsuduma chun yetmagim,**Bas xatodur o'zga yon azm etmagim. (L.T.)*

2. Biqin.

*Tig' ila yorib jigarim yonini,**Yerga oqizdi jigarim qonini. (H.A.)***YONA I** ayn. Yana.*Mayxona aro soqiyu paymona kerak,**Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak. (A.N.Rub.)***YONA II** Qiyalik, yonbag'ir.*Oy tug'adi panadan**Qo'y yuradi yonadan. (Qo'sh.)***YONGILMOQ** Adashmoq, yanglishmoq.*Ne balodurkim, falak har kimga cheksa tiyg'i kin,**Yongilib, avval mening jonimg'a bedod aylagay. (B.V.)*



**YONMOQ** Orqaga, kelayotgan tomoniga yo'nalmoq, qaytmoq.

*Topmayin g'ayri qaytmoq chora,  
Buzulub yondilar bayakbora. (S.S.)*

**YOPMOQ** 1. Bekitmoq.

*U izlab chora, yaxshi chora topti,  
Solib ichina g'urniq evni yopti. (S.Sar.)*

2. Yummoq, berkitmoq.

*Fikrdin kecha ko'zni yopmas edi,  
Chora ko'p istar erdi, topmas edi. (S.S.)*

3. Qoplamoq, chulg'amoq, bekitmoq.

*Shom jahon safhasin aylab qaro,  
Pardai zulmat chu yopib el aro. (H.A.)*

**YOQTU** Yog'du, nur.

*Qachon qilg'ay ko'zumni yoqtu ul oy,  
Erur yuzi quyoshtek olamoroy. (Mn.)*

**YOQUT** 1. Har xil rangli qimmatbaho tosh.

*Chu asli pok gavhar keldi yoqut,  
Teshib bag'rini qon aylar anga qut. (F.Sh.)*

2. Qizil, qip-qizil, qirmizi.

*Qamuq yoqut erinli, so'zi durlar,  
Vafosizliqni sizdin o'rganurlar. (Mn.)*

**YOR** f. 1. Sevgili, ma'shuqa.

*Saloyin o'zumi o'zga diyora,  
Ko'ngulni bog'lag'oyin o'zga yora. (Mn.)*

2. Do'st, o'rtoq.

*Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dargo'sh edim,  
Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdo'sh edim. (T.F.)*

3. Oshna; xabardor.

*Saodatni hunarg'a yor qilg'il,  
Hunardin bizni barxurdor qilg'il. (Mn.)*

4. Yordamchi, qo'llovchi.

*Alhamdulillo, bexatar,  
Keldim Muqim aylab safar,  
Muztar qolib, ko'rmay zarar,  
Haq bandasig'a yor ekan. (M.)*

5. Alloh, xudo.

*Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?  
Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni na qilay? (Mash.)*



**YORIY** *f.* Ko'mak, yordam.

**Yoriy qilmoq** Qo'llab-quvvatlamog; hamroh bo'lmoq;  
kulib boqmoq.

*Topilg'ay maqsudum tabqungda boriy,  
Saodat qilsa Xorazmiyg'a yoriy.* (Mn.)

**YORLIQ I** Vahiy, ilohiy xabar.

*Yorliq keldi: «Ul sening ahling emas».*(R.)

**YORLIQ II 1.** Do'stlik, o'rtoqlik, birodarlik.

*Ko'ngli bu ishdin bo'lub ozorliq,  
Boshladi durroj bila yorliq.* (H.A.)

2. Yordam, ko'mak.

*Qilmasa bu muhr xati yorliq,  
Shohqa yo'q g'ayri giriftorliq.* (H.A.)

**YORLIG' ayn.** Yorliq II.

*Yaxshi kunumda har kishikim qildi yorlig',  
Do'ngach zamona, ayladi dushmanshiorlig'.* (K.)

**YORMOQ I** Teshmoq, o'ymoq.

*Xasmning kemasi tubiga kirib,  
Tig' ila kemaning tubini yorib.* (S.S.)

**YORMOQ II** Kumush tanga.

*Surohiy to'lsa kub og'zin ochaling,  
Bukun mayxonada yormoq sochaling.* (Mn.)

**YORMOSHQ** Tirmashmoq, chirmashib yuqori ko'tarilmoq.

*Sunnat vaqtida Qorbug' pushtasig'a yormoshtuq.* (Bn.)

**YORO I** *f.* Jur'at.

*Vasldin so'z derga yo'q yoro manga.* (B.)

**YORO II** *f.* Ey yor!'

*Hajr aro rahm aylagil, yoro, manga.* (B.)

**YOROMOQ** Yordam bermoq, ko'mak bermoq.

*Marhami lutfung bila yoro manga.* (B.)

**YORON** *f.* Do'stlar, o'rtoqlar.

*Nastarin yuvub yuzni, yosuman tuzub o'zni,  
Nargis ochibon ko'zni, intizori yoronlar.* (F.)

**YORONA** *f.* Do'stona.

*Jonvafo biy meni ko'rgach filhol,  
Ko'rushub ayladi yorona maqol.* (Shn.)

**YORG'U** Yog'och yoradigan asbob, daraxt kesadigan asbob.

*Yig'ochni yorg'u bila yordilar.* (R.)

- YOSUMAN** *f.* Xushbo'y, oq to'p gulli bir buta.  
*Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,  
 G'alatdur, qomating oldida guldan pirahan nozik. (F.)*
- YOT** Begona.  
*Seni ko'rgan o'zindin yot bo'lur,  
 Ruxungni ko'rsa ming shah mot bo'lur. (Mn.)*
- YOVAR** *f.* Do'st, birodar, o'rtoq.  
*Ne deb o'zbek bila yovar bo'ldung,  
 Xong'a bu yanglig' chokar bo'ldung? (Shn.)*
- YOYUQ** 1. Yaqin.  
*"Menga yovuqroq kelgil", teb undadi. (R.)*  
 2. ko'ch. Yaqin, qadrdon.  
*Yovuq kishilar va mo'tabar kishilar o'zini fasildin tashlab  
 qocha kirishti. (Bn.)*
- YOYUTMON** Yaqinlashtirmayman, yo'latmayman.  
*Ko'ngulga o'zganing mehrin yovutmon,  
 Yiroqliq birla men sizni unutmon. (Mn.)*
- YOZI** *f.* Dasht, cho'l, sahro.  
**Yozi yobon** Dasht-u biyobon, dasht-biyobon, sahro.  
*Farshi saropardasi yozi yobon,  
 Qush paridin boshi uza soyabon. (H.A.)*
- YOZMOQ** Yozg'irmoq, gina qilmoq, shikoyatlanmoq.  
*Charxi kajraftor elindin yozamen,  
 Chiqmadim hijron qishindin yoza men. (L.)*
- YOZUQ** Gunoh, ayb.  
*Men yolg'iz yozuqlarimni iqrar etarga emas, Turong'a  
 berdigim zararlarga to'lamoq uchun keldim. (Fit.)*
- YOZUG'** *ayn.* Yozuq.  
*Yozug'lug' kishining yozug'in kechur. (H.H.)*
- YOZUG'LUG'** Gunohkor, aybdor.  
*Yozug'lug' kishining yozug'in kechur,  
 Adivat ko'kini qazib kes, ko'chur. (H.H.)*
- YOZG'URMOQ** Ayblamoq, gunohkor deb bilmoq.  
*Bu ishda kimga tig'i ta'n uroyin,  
 O'zumni yo'qsa kimni yozg'uroyin? (F.Sh.)*
- YOG'I** Dushman, g'anim, yov.  
*O'zbekdek yuz ming qari yog'ini orqada qo'yub Sulton  
 Ibrohimdek qalin cheriklik, vase' mulkluk podshoh bila  
 ro'baro' bo'lduq. (Bn.)*

**YOG'IN** Yomg'ir.

*Aymishlar, qirq tun-kun yog'in yog'di. (R.)*

**YOG'IQMOQ** Dushmanlashmoq, yovlashmoq.

*Yog'iqib ketkan o'g'ullarg'a tamom,*

*Bitsa xatlar va qilsa payg'om. (Shn.)*

**YOG'IRIN** Yag'rin.

*Bilursan g'am yukin ko'p chekkanimni,*

*Yog'irnim ustida ko'rsang yog'irni. (Mn.)*

**YOG'LIG'** Ro'mol; ro'molcha.

*Yog'lig' ila bog'ladi bo'ynini rust,*

*Yuz hamyonning dog'i bo'ynini sust. (H.A.)*

**YOG'MIR** Yomg'ir.

*Qirq yil ul tuproq uza yog'mir yog'di. (R.)*

**YOG'OCH** ayn. Yig'och II.

*Ermon yog'ochning egilgani – singani. (Zm.)*

**YOG'OCHLIQ** Bir yog'och masofali, ya'ni uzoqligi taxminan 7 km masofali.

*Va aning yonida bir yog'ochliq yerda Yapaloqqush maskani ota-bobosidin qolg'on joyi bor erdi. (Zm.)*

**YOSHURUN** Hech kim bilmaydigan, maxfiy.

*Lek bir nukta bordur yoshurun,*

*Ki, seni mundoq asrasoq necha kun. (S.S.)*

**YUDUG'** Balo, balo-qazo, ofat.

*Biliglig kerak uqushlug' udug'*

*Angar tegmasa bir mufaja yudug'. (Q.B.)*

**YUG** Par, pat.

*Kimi beg to'rutmak istasa bayat*

*Berur ashnu qilq yang uqush yug qanat. (Q.B.)*

**YUGURIK** Tez, ildam.

*Oyoq yugurigi oshqa, og'iz yugurigi boshqa. (Zm.)*

**YUKANMAK** Yukunmoq, sig'inmoq.

*Eshit, but bu so'zga qamug' tengda teng,*

*Qo'zub, tilga yukanub tazarru' qilur. (H.H.)*

**YULMAQ** Taqozo qilmoq, talab qilmoq.

*Arig' ul bu qut qiv arig'liq tilar*

*Suzug ul bu davlat suzugni yular. (Q.B.)*

**YULO** Mash'ala, mash'ala.

*Jahon tutti qaro zulfung balosi,*

*Kuyurdi xalqni chehrang yulosi. (Mn.)*

**YULUG** Tarashlangan, qirilgan (soqol haqida).

*Yuzi ko'rki ko'rklug kerak beg yulug  
Bo'di o'rtu bo'lsa ne javluq kulug. (Q.B.)*

**YULUG'LAMOQ** Biror kishi yoki xalq uchun jon fido qilmoq, o'zini bag'ishlamoq.

*Bag'irsaqqa aytur kishi o'z so'zin  
Bag'irsaq yulug'lar kishika o'zin. (Q.B.)*

**YUMITMAQ** To'planmoq, yig'ilmoq, ko'paymoq.

*Uzik meni qumitti,  
Saqinch menga yumitti. (D.L.T.)*

**YUMAQ I 1.** Yuvmoq.

*Arig'sizni yalanguq suvun yub arir  
Qali artasa suv negun yub arir. (Q.B.)*

2. Ketkazmoq, yo'qotmoq.

*Kel, ey soqiy, keturgil jomi Jamni,  
Kishining ko'nglidin may yur g'amni. (Mn.)*

**YUMAQ II** Naql; maqol.

*Aning uchun «Tishilar ko'nulmas egri so'nguk turur», teb  
xalq orasinda yumaq bo'ldi. (R.)*

**YUMURTA** Tuxum, yumurtqa.

*Hama o'ynab olib qo'lg'a yumurta,  
Mening ilgimda yo'qtur xoya navro'z. (Og.)*

**YUNDI** Yuvindi.

*Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim,  
Bu zamon yuvg'on qozon ostida qolg'on yundiman. (T.F.)*

**YUQU** Uyqu.

*Tun-kun yuqu g'aflatda botub ayladuk odat,  
Shul uchun adam o'ldi mana bizlarda diyonat. (H.)*

**YURAKLIG** Yurakli, jasur, qo'rqmas.

*Yuraklig yuraksizka bo'lsa bashi  
Yuraklig bo'lur o'tru tekma kishi. (Q.B.)*

**YURIMAK** Yurmoq.

*Ujmoh ichinda yuriyur erdi. (R.)*

**YURLAMAQ** Hayqirmoq, baqirmoq.

*Siqrib uni yurlayu,  
Sig'tab ko'zi o'rtulur. (D.L.T.)*

**YUSUFLIQO** a. Yusufga o'xshash, Yusuf payg'ambarday chiroyli, go'zal.

*Qamuq ko'rkluklar ichra podshosen,  
Masih anfosliq Yusufliqosen. (Mn.)*

**YUZ I** Bet, chehra.

**Yuz yondurmoq** O'zini chetga olmoq, o'zini olib qochmoq.  
*Hech kim bu qitoldin yuz yondurur xayol qilmag'ay. (Bn.)*

**YUZ II** O'zbek urug'laridan birining nomi.

*Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,  
Qirqu yuz, ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling. (T.F.)*

**YUZLANMOQ** Biror tomonga qarab ketmoq, yo'l olmoq.

*O'z yerni qo'yub Hind sori yuzlandim,  
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi. (B.)*

**YUZMAK** Suzmoq.

*Umr kechti qamug' savdo ichinda,  
Necha yuzgay kishi daryo ichinda. (Mn.)*

**YUZCHA** Yuztacha, taxminan yuzta.

*Yuz, ikki yuzcha kishi birla qazoq,  
Gah yeri Xorazm edi, gah Adoq. (H.A.)*

**YO'LDIN** Sababdan, jihatdan; sababli.

*Ul yo'ldin er- xotunlarg'a bormoq sunnat qoldi. (R.)*

**YO'NMOQ** Yasamoq, qurmoq.

*Kemi yo'ndilar, uzuni uch qari, eni ikki yuz qari erdi. (R.)*

**YO'G'RULMOQ** Qorishtirilmoq, aralashtirilmoq.

*Manga sensiz o'lumdur bu hayotim,  
Sening mehring bila yo'g'rudli zotim. (Mn.)*

**YO'Q** 1. Mavjud emas.

*Jahonda sentek, ey, jonon yo'q, ey jon,  
Sening dardingg'a hech darmon yo'q, ey jon. (Mn.)*

2. Emas.

*Nozukluk ichra belicha yo'q tori gisuyi,  
O'z haddini bilib, belidin o'lturur quy. (L.)*

**YO'QOLMOQ** O'lmoq, yo'q bo'lmoq.

*Sening ishqingda Xorazmiy yo'qoldi,  
Va lekin yer yuzunda oti qoldi. (Mn.)*

**YO'QSA** Bo'lmasa, aks holda.

*Chora bu ishga intiqom durur,  
Yo'qsa bo'lmoq tirik harom durur. (S.S.)*

**YO'QSUL** 1. Kambag'al, qashshoq.

*Bormi senda o'ksuz yo'qsulning qonin  
Gurunglashib chog'ir kabi ichkanlar? (Fit.)*

2. Bechora, sho'rlik.

*Men ham senday baxtsizlikka tutundim,  
Umidsizlik ora tushub, yo'qsul jonim o'rtandi. (Fit.)*

**YO'RILMOQ** Charchamoq, horimoq, tolmoq.

*Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal,  
Hurkma – kurash, qo'rqma – yopish, yo'rilma – qo'zg'al. (Fit.)*

**YO'RIQ I** 1. Xulq, fe'l-atvor, xatti-harakat.

*Begi edgu bo'lsa yo'riqi ko'ni  
Taqi artuq edgu yurig'ay quli. (Q.B.)*

2. Hayot tarzi, yashash tarzi.

*Bayat kimka bersa bu edgu qiliq  
Bu edgu qiliq birla edgu yo'riq. (Q.B.)*

**YO'RIQ II** Ravon, ta'sirchan, ta'sirli.

*Bu qach nengda beglar yiraq tutg'u o'z  
Ati artamasa yo'riq bo'lsa so'z. (Q.B.)*

**YO'X** Yo'q.

*Layli-Majnun Ajamda cho'xdur,  
Atrokda ul fasona yo'xdur. (Fuz.)*

## Zz

**ZABARDAST** f. Kuchli, baquvvat, zo'r.

*Ayladi olingda biyiklarni past,  
Dahr zabardastlarin zerdast. (H.A.)*

**ZABON** f. Til.

*Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,  
«Nigoro!» deb oting aytsam ki, shavqingdin zabon o'rtar.  
(Mash.)*

**ZABUN** f. Kuchsiz, ojiz, zaif.

*Shaynda qoplondin agarchi fuzun,  
Nafs itining ilgida lekin zabun. (H.A.)*

**ZA'F** a. Holsizlik, zaiflik, ojizlik, kasallik.

*Shoh jismig'a za'f topib yo'l,  
Fahm qilmayki, ne kishidur ul. (S.S.)*

**ZA'FARON** a. Sariq.

*Za'faron o'lmoq Sarg'aymoq.  
Yuzum o'ldi za'faron dard ilgidin,  
Qil inoyatkim, mudovo sendadur. (L.)*

- ZAFARONIY** *a.* Za'faron rangli, sariq.  
*Za'faroniy ko'ylak uzra arg'uvoniy kamzihur,*  
*Ro'ymol og'ushidin peshonaning ahvoli tang. (F.)*
- ZAHR** *f.* Zahar, og'u.  
*Chashmai erdi xushguvor anda,*  
*Zahr aro no'sh oshkor anda. (S.S.)*
- ZAHRA** *f.* ko'ch. Jur'at, shijoat.  
*Ani ham vasf. etardin bahramiz yo'q,*  
*Otin dog'i tutarg'a zahramiz yo'q. (F.Sh.)*
- ZAKOT** *a.* Har yili boy, mulkdor musulmonlardan boyligining qirqdan bir ulushi miqdorida olinadigan diniy soliq.  
*Erur jon maqsudi urning naboti,*  
*Husnning ham bo'lur oxir zakoti. (Mn.)*
- ZALIL** *a.* Xor, tuban, nochor.  
*Yo'qki hijron g'amida zor-u zalil,*  
*Nilufar ichra oqizib edi Nil. (S.S.)*
- ZALOLAT** *a.* Adashish, yo'ldan ozish, gumrohlik.  
*Razolat kuyduray desang, zalolat o'lduray desang,*  
*Hamasin supuray desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.*  
(Mash.)
- ZAMIN** *f.* Yer.  
*Sho'ra zamin bog' ila bo'ston bo'lur. (Zm.)*
- ZAMINKAN** *f.* Yerto'la.  
*Dema uy, balki zaminkandur agar kirska kishi,*  
*Har taraf betiga urg'aylar aning ko'rshapalak. (Max.)*
- ZAMIR** *a.* Dil, ko'ngil, qalb.  
*Zamiring ayla musaffo kadardin oinadek,*  
*Desangki, jilvagar etsun anga jamol kamol. (K.)*
- ZAMON** *f.* Davr, vaqt.  
*Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko'rdiman,*  
*Rind sarxayliyu xush ayshi damodam surdiman. (T.F.)*
- ZAMONA** *f.* Zamon, davr.  
*Yo'qki, zamona shahi bu shevalik,*  
*O'z xudi holig'a ulug' to kichik. (H.A.)*
- ZANBAQ** *a.* Uzun poyali, piyoz ildizli xushbo'y gul, piyozgul.  
*Zanbaq varaqi aro separ mushk,*  
*Kim atri dimog'ini qilar xushk. (L.M.)*



**ZANBUR** *f.* Ari.

*Shahliq oyinin aylabon zanbur,  
Aylamas besipah sukunu murur. (S.S.)*

**ZANGI** *f.* Negr, zanji, qora tanli.

*Andag'ug urug'lari hindular, habashiylar, zangilar qamug'i  
aning urug'i tururlar. (R.)*

**ZANGOR** *f.* Yashil, yashil rang.

*Ey Navoiy, oltunu, shingarfu zangor istama,  
Bo'ldi nazming rangidin devon qizil, sorig', yashil. (F.K.)*

**ZANJIR** *f.* 1. Kishan, bo'g'ov.

*Qildi zanjiru banddin ani fard,  
Yer o'pub, dedi zori g'amparvard. (S.S.)*

2. ko'ch. Soch.

*Xirad birla jahon afsonasi men,  
Vale zanjiringiz devonasi men. (Mn.)*

**ZANCHALISH** *f.* Xotinchalish.

*Og'izlari maqtanib o'nbeshe qarish,  
Mayda suxan, ezmachuruk, zanchalish. (M.)*

**ZAR** *f.* 1. Oltin, tilla.

*Siyim kuchidin bo'lubon siymbar,  
Xalq laqab aylab anga «Zoli zar». (H.A.)*

2. Nur, yog'du.

*Alar qo'ydi ikkisi yo'l sari poy,  
Boqib turg'onda yo'lg'a zar sochib oy. (S.Sar.)*

**ZARB** *f.* 1. Zarba; urish.

*Jobir ar zarb urur edi behad,  
Borcha zarbin Suhayl etar edi rad. (S.S.)*

2. Qattiq, kuchli, shiddatli.

*Hozir kishimiz bila betavaqquf qishning zarb sovug'ida teng-  
riga tavakkul qilib, Andijondin Bandi Solor yo'li bila  
Sultonim bila Ahmadbekning ustiga otlanduq. (Bn.)*

**ZARD** *f.* Sariq, sarg'aygan.

*Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,  
Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim. (B.)*

**ZARKOR** *f.* Zar bilan bezalgan.

*Mug'anniylar chekib dilkash navolar,  
Solib zarkor toq ichra sadolar. (F.Sh.)*

**ZARNIGOR** *f.* Zar bilan bezatilgan, tilla suvi yugurtirilgan, zarrin, zarli.

*Shamsasi el moli bila zarnigor,  
El duru la'li bila gavharnigor. (H.A.)*

**ZARPOSHLIG'** Zar sochishlik.

*Bo'lmasa jinsi jamolingg'a xaridor oftob,  
Ne uchun zarposhlig'lar aylar izhor oftob. (Mu.)*

**ZARROT** *a.* (birligi **zarra**) Zarralar.

*Quyosh ma'shuqu har zot o'ldi oshiq,  
Dema har zot, zarrot o'ldi oshiq. (F.Sh.)*

**ZARUR** *a.* 1. Lozim, kerak, vojib.

*Va muddatdin so'ngra Movarounnahr mulkining saltanati  
anga musallam bo'ldi va manga aning xizmat va muloza-  
matin qilmoq zarur erdi. (N.M.)*

2. Majburlik, noilojlik, ilojsizlik.

*Bo'lg'on anda zarurdin sokin,  
Qolg'onin Jobir ilgidin emin. (S.S.)*

**ZARURAT** *a.* 1. Zarurlik, keraklik, ehtiyoj.

*Yana bir dag'i turfa surat durur,  
Ki shah bilmak oni zarurat durur. (S.I.)*

2. Noilojlik, ilojsizlik.

*Necha zarurat aro qolg'on chog'i,  
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i. (H.A.)*

**ZAVOL** *a.* Zarar, ziyon, shikast.

*Jamolingtek kishining yo'q jamoli,  
Darig'o, bo'lmasa erdi zavoli. (Mn.)*

**ZAVQNOK** *a.* -*f.* Zavqli, shod, xursand.

*Chun bo'lur erdi bolalab zavqnok,  
Mo'r bolasin qilur erdi halok. (H.A.)*

**ZAVRAQ** *f.* Qayiq; kema.

*Men bu zavraqni sug'a to surdum,  
Ming seningdekni suda o'turdum. (S.S.)*

**ZAXIRA** *a.* Kelgusida foydalanish uchun saqlab qo'yilgan narsa, zapas.

*Ozuq va zaxira kam edi. (Bn.)*

**ZAXM** *f.* Yara, jarohat.

*Mardlar maydon chekib, rangin ko'tarib zaxmlar,  
Sizga yo'q, ul javharu yuzga upo-englik qiling. (T.F.)*

**Zaxmi dil** Ko'ngul yarasi.

*Marham istab kimsadin zaxmi dil izhor aylasang,*

*Chorai qilmoqdin o'zga ustiga tirnog'lar. (M.)*

**ZAG'AN** f. Quzg'un.

*Munosibdur seningdek andalibu jannatiy, yo'qsa*

*Qachon bo'ldi jahon bog'ida har zog'u zag'an nozik. (F.)*

**ZEB** f. Ko'rinish, chiroy, husn.

*To reja chekmas yeriga bog'bon,*

*Bog' hamon zebda, jangal hamon. (H.A.)*

**Zebi torak** Bosh bezagi, bosh ustiga qo'yilgan bezak.

*Xalqqa zebi torak ayla ani!*

*O'qug'ong'a muborak ayla ani! (S.S.)*

**ZEBNOK** f. Ziynatli, bezakli; chiroyli, go'zal.

*Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok,*

*Qo'l bilarzukdin muzayyan, nuqradin og'izg'a chang. (F.)*

**ZEBO** f. Go'zal, chiroyli.

*Zebo sanam, qoshi qalam,*

*(Jonon)lari bisyor ekan. (M.)*

**ZER** f. Ost, tag, tub.

*Tashna lab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,*

*Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta mo'ndiman. (T.F.)*

**Zeru zabar o'lmoq** Xor-u zor bo'lmoq, og'ir ahvolga tushmoq, ezilmoq.

*Ishq ichra qani men kibi zer-u zabar o'lg'an,*

*Har kimki yo'q andin batar o'lg'an, batar o'lg'an. (M.A.)*

**ZERDAST** f. Tobe, qaram; mag'lub.

*Samarqand podshohi aning zerdasti edi. (Bn.)*

**Zerdast aylamak** Mag'lub qilmoq.

*Ayladi olingda biyiklarni past,*

*Dahr zabardastlarin zerdast. (H.A.)*

**ZIHI** a. Qanday yaxshi, ajoyib.

*Zihi ishqingda dardi dog'i hijroning matoimdur,*

*Qaroqchi aylamas toroj oningki, kimsa boj etmaz. (G.)*

**ZIKR** a. Tilga olish, so'zlash, gapirish, bayon etish, eslash.

*Hayotimg'a zikri labingdur sabab,*

*Yo'q ersa, tiriklik gumondur, gumon. (Mu.)*

**ZIL'** a. Taraf, tomon.

*Bu uying har zil'i musavvardur, agarchi bu imoratni Bobur*

*mirzo qilg'ondur, vale bu tasvirlarni Sul-ton Abusaid mirzo buyurg'ondur. (Bn.)*

**ZILLAT** *a.* Xorlik, zabunlik; gunohkorlik.

*Qachon zillat bilgurdi ersa, ul teri suyuldi va teri bilgurdi. (R.)*

**ZILOL** *a.* Toza, tiniq va totli suv.

**Ziloli Xizr** Xizr suvi, tiriklik suvi, hayotbaxsh suv.

*Tuttum o'lmakdin tirilmak hajrida tengdur manga,*

*Emdi gar bergil ziloli Xizr, agar jallod bo'l. (G'.S.)*

**ZIMISTON** *f.* Qish.

*Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar,*

*Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar. (F.)*

**ZIMN** *a.* Ich, asos, negiz.

*Nazmki ham surat erur xush anga,*

*Zimmida ma'ni dog'i dilkash anga. (H.A.)*

**ZINDA** *f.* Tirik, jonli.

**Zinda qilmoq** Tiriltirmoq.

*Masihdek bir boqishda murda jismim zindalar qilding,*

*«Senga men to qiyomat oshno», deb va'dalar qilding. (Z.)*

**ZINDON** *f.* Mahbuslar, jinoyatchilar tashlanadigan yer ostidagi qamoqxona.

*Azob ichra yotib zindonda Suhayl,*

*Etardi horg'onida uyquni mayl. (S.Sar.)*

**ZINDONIY** *f. -a.* Zindonga tashlangan, qamoqqa olingan kishi, mahbus.

*Muni bilkim, jahon fonidur asru,*

*Haqiqat ahli zindonidur asru. (F.Sh.)*

**ZINHOR** *f.* 1. Aslo, hech, sira.

*Siz bu g'urbatda turmangiz zinhor,*

*Meni istab yugurmangiz zinhor. (S.S.)*

2. Iltijo.

*Qildilar, chun ko'p ayladi bedod,*

*Qolg'oni zinhor ila faryod. (S.S.)*

**ZIRIH** *f.* O'q o'tmaydigan urush kiyimi, sovut.

**Zirihi Dovudi** Dovud payg'ambarning sovuti.

*Jibasidur zirihi Dovudi,*

*Anga loyiq boshi uzra xudi. (Shn.)*

**ZIYNAT** *a.* Bezak, naqsh, chiroy.

*Mani bekas Uvaysiy, yig'lag'ayman ro'zu shab tinmay,*

*Uyunning ziynati, ko'z ravshani, xonimni sog'indim. (U.)*

**ZIYO** *a.* Nur, yog' du.

*Qorong'u bo'ldi olam ko'zuma ushbu judolikdin,  
Ko'zu ko'nglum ziyosi mohi tobonimni sog'indim. (U.)*

**ZISHT** *f.* Yomon, noxush, xunuk.

*Bu ishq gar o'lsa zisht yo xo'b  
Aylarlar ulus bu hayg'a mansub. (L.M.)*

**ZIJ** *a.* Yulduzlar jadvali, yulduzlar holatini ko'rsatadigan jadval.

*Yana bir oliy imorati Pushtai Ko'hak domanasida rasad-  
durkim, zij bitmakning olatidur. (Bn.)*

**ZOD** *a.* Tug'ilgan.

**Zodu bud** Tug'ilib o'sgan.  
*Temurbekning zodu budi Keshdin uchun, shahr va poytaxt  
qilurg'a ko'p sa'y va ehtimomlar qildi. (Bn.)*

**ZODA** *f.* Farzand.

*Zoda muridu otani pir bil,  
Har ishda hukmig'a ta'sir bil. (H.A.)*

**ZOHID** *a.* Dunyoviy ishlardan voz kechib, faqat toat-ibodat bilan shug'ullanuvchi taqvodor kishi.

*Zohid, sanga huru, manga jonona kerak,  
Jannat sanga bo'lsun, manga mayxona kerak. (A.N.Rub.)*

**Zohidi yaxdek** Sovuq zohid, yoqimsiz zohid.

*Mayxonag'a kirdim, bila qoldim kuyarimni,  
Masjidge'a kirib, zohidi yaxdek qota qoldim. (Mash.)*

**ZOHIR I** *a.* Nurli, porloq, yorug'.

*Muftiyyi faqihe kerak mutadayyin va olime kerak mu'min,  
islom ilmida mohir va diyonat nuri jabinida zohir. (M.Q.)*

**ZOHIR II** *a.* Ko'rinib turgan, ochiq-oshkor, ayon, ma'lum.

*Jabinida muhabbat dardi zohir,  
Uzori uzra g'urbat gardi zohir. (F.Sh.)  
**Zohir etmak** Ma'lum qilmoq, ayon qilmoq, ko'rsatmoq.*

*Elga necha maxfiy esa bu sifat,  
Zohir etar yolg'on o'zun oqibat. (H.A.)*

**Zohir qilmoq** Oshkor qilmoq.

*Ahli dardlarg'a qilay zohir bu pinhon dardin,  
Bexabarlarg'a va lekin Nuhni to'foniman. (Mash.)*

**ZOHIRAN** *a.* Oshkor, aniq, ochiqcha.

*Yana biri bukim anda ba'zi ish,  
Zohiran nomunosabat tushmish. (S.S.)*

**ZOKIR** *a.* Xudoning nomini qayta-qayta tilga oluvchi, yod etuvchi, zikr qiluvchi.

*Ko'nglida zikr ila mashg'uldur ul,*

*Kimki zokir anga maqbuldur ul. (Shn.)*

**ZOL** *f.* 1. Keksa ayol, kampir.

*Zol kechib da'viyu dostonidin,*

*Yo'qki, o'g'ul qonidin, o'z jonidin. (H.A.)*

2. Firdavsiyning «Shohnoma» asari bosh qahramoni Rustamning otasi.

*Ma'arakada Zol bila Rustame,*

*Boshlari uzra o'kulub olame. (H.A.)*

**Zoli falak** *ko'ch.* Osmon, falak.

*Zolni anjum kibi siymi ravon,*

*Zoli falakdek qilibon navjuvon. (S.S.)*

**Dahr zoli** *Ko'hna* dunyo.

*Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli,*

*Anga bo'ldi magarkim doya navro'z. (Og.)*

**Zoli makkora** *Makkor* kampir.

*Zoli makkora, balki Farhodkushi xunxora. (F.Sh.)*

**Zoli ofoq** *Dunyo, falak.*

*Bu ermish rasm bermak zoli ofoq,*

*Chu masmum o'ldi, andin so'ngra taryoq. (F.Sh.)*

**ZOLIM** *a.* Zulm qiluvchi, ezuvchi.

*Negaki, chun hashr kuni zuljalol,*

*Zolimu mazlumni aylar savol. (H.A.)*

**ZOR** *f.* 1. G'amgin, g'amnok, dardli.

*Qilib ishq majoziy zoru g'amnok,*

*Etar oshiq tanin andoqki xoshok. (F.Sh.)*

2. Bechora, notavon, xor.

*Haq rizo ko'ngulni qo'shg'ay yorg'a,*

*Bir nazar qilsang bu Mashrab zorg'a. (Mash.)*

**Zori g'arib** *Kimsasiz, xor, bechora; musofir.*

*Nedur ahvoling, ey zori g'aribim,*

*Visolim davlatidin benasibim. (F.Sh.)*

3. Mushtoq, intizor.

*Maylni qo'yki, volau zor ul,*

*Jon berib vaslig'a xaridor ul. (S.S.)*

4. Faryod, fig'on, yig'i.  
*Yona chun keldi yodig'a yori,*  
*Yetti gardung'a nolavu zori. (S.S.)*

**ZOR-ZOR** O'ta zor, ortiq darajada zor.

**Zor-zor yig'lamoq.**  
 Ortiq darajada yig'lamoq, qaqshamoq.  
*Dedi ul, shahdin oni qutqorsam,*  
*Yig'labon zor-zor yalborsam. (S.S.)*

**ZOT** a. 1. O'zlik, mohiyat.

*Manga sensiz o'lumdur bu hayotim,*  
*Sening mehring bila yo'g'ruildi zotim. (Mn.)*

2. Nasl-nasab, kelib chiqish.

*Bor edi zotida sazovorliq,*  
*Kim haq anga berdi jahondorliq. (H.A.)*  
*Qaysiki qishloqqa tushar otidin,*  
*Elni yig'ib voqif etar zotidin. (M.)*

**ZOYI'** a Yo'qolgan, zoye bo'lgan.

**Zoyi' o'lmoq** Bekorga ketmoq, yo'qolmoq.  
*Munda to zoyi' o'lmish avqotim,*  
*Budur oning bila muloqotim. (S.S.)*

**ZOYIL** a. Yo'q bo'luvchi, mahv bo'luvchi, yo'qoladigan.

*G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,*  
*Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi dardu mehnatim. (T.F.)*

**ZOYIR** a. Ziyorat qiluvchi, ziyoratchi.

*Kiribon zavraq ichra soyir o'lub,*  
*Ul jazoyir to'shida zoyir o'lub. (S.S.)*

**ZOG'** Qarg'a.

**Zog'i alo** Olaqarg'a.  
*Cho'qub qochar zog'i alo,*  
*Bir dog'uli ayyor ekan. (M.)*

**ZUFUNUN** a. Bilimli, bilimdon, donishmand.

*Zamonning bori ishda zufununi,*  
*Erur gardun fununining zabuni. (F.Sh.)*

2. Fanlar egasi; barcha fanlarni biluvchi olim; alloh, xudo.

*Bu iki yafrog'ni qachon zufunun,*  
*Bir-biriga qo'ysa bo'lur «kofu nun». (H.A.)*

**ZUHALVASH** a. -f. Zuhal sayyorasiga o'xshash, Saturn planetasi kabi (Zuhal yulduzi qadimgi ilmi nujumda yomonlik va baxtsizlik ramzi hisoblangan).



*Ul zuhalvash jazog'a xos o'lg'ay,  
Mehr ham uqdadin xalos o'lg'ay.* (S.S.)

**ZUHD** *a.* Dunyo ishlaridan voz kechib, toat-ibodat bilan shug'ullanish.

*Bari Zebunisodek erdi shoir,  
Bari Maryam kibi zuhd ichra mohir.* (N.)

**ZUHRA** *Venera, Cho'lpon* (Juda porloq bu yulduz xonanda va sozandalar homiysi hisoblangan).

*Falak ishqing yo'lungda besaru poy,  
Isirg'ang donasi Zuhra, yuzung oy.* (Mn.)

**ZUHRAJABIN** *a. -f.* Zuhra yulduzi kabi porloq; go'zal, chiroyli.

*Amr qildiki, mohi Zuhrajabin,  
Kirdi bog' ichra bo'ldi qasrnishin.* (S.S.)

**ZUHUR** *a.* Zohir bo'lish, paydo bo'lish, ko'rinish.

*Sendin etsa bu nav' lutf zuhur,  
Har nechuk ishga aylasang ma'mur.* (S.S.)

**ZULF** *f.* Ayollarning ikki chakkasidagi kokili.

*Ikki zulfung ko'ngullarning panohi,  
Eshiking tuprog'i jon sajdagohi.* (Mn.)

2. Ayollar sochi.

*Atoyi, yerga yel zulfin tegurmas,  
Qaro yerga sening bosh urmog'ing ne.* (A.)

**ZULJALOL** *a.* Buyuklik egasi; alloh, xudo.

*Negaki, chun hashr kuni zuljalol,  
Zolimu mazlumni aylar savol.* (H.A.)

**ZULM** *a.* 1. Jabr, jabr-sitam, istibdod.

*Zulmung erur kunduzu fisqing kecha,  
Zulm ila fisqing necha bo'lg'ay, necha?* (H.A.)

2. Zo'rlik, zo'ravonlik.

*Zulm bilan elligu yuzni olur,  
Boz tanobini duchandon solur.* (M.)

**ZULMAT** *a.* Qorong'ulik, zim-ziyolik.

*Shom jahon safhasin aylab qaro,  
Pardai zulmat chu yopib el aro.* (H.A.)

**ZULMKOR** *a. -f.* Zulm qiluvchi, zolim, jafokor.

*Una yo'qtur zulmkorlarda parvo,  
Kima mung'aysun etib darda davo.* (S.Sar.)



**ZULOL** *f.* Tiniq va chuchuk sovuq suv, zilol suv.

**Zuloli zavq-shavq** Yor labining lazzati, zavq-shavqi; zavq-shavqning tiniqligi.

*Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,*

*Zuloli zavq-shavqin tashnai diydor o'landan so'r.* (Fuz.)

**ZULUMOT** *a.* Zulmatlar, qorong'iliklar.

*Adolat partavidin zulm zulumotin iturmak.* (N.J.)

**ZU'M** *a.* Gumon.

*Ulki xato so'ziga oyin erur,*

*Zu'mida ulkim, bu xato chin erur.* (H.A.)

**ZUMRA** *a.* Jins, toifa.

*Devu pari zumrai odam bila,*

*Tobi'i amri edi xotam bila.* (H.A.)

**ZUNNOR** *a.* Ilgari musulmon o'lkalarda xristian va yahudiylar majburan beliga bog'lab yuradigan chizimcha – belbog'.

*Qachon zulfung nasimi Ruma esgay,*

*Kim ul yo qoshlaring zunnor kesgay.* (Mn.)

**ZO'R** *f.* Zo'rlik, kuch.

*Bizning beklar va yigitlar ham borib tamom qish ba'zi qo'rg'onni sulh bila ilikladilar, ba'zini urushub zo'r bila oldilar.* (Bn.)

## O'o'

**O'BDON** Zo'r, baquvvat, yaxshi.

*Qalin o'bdon yigitlari ilikka tushti.* (Bn.)

**O'D** Vaqt, payt, zamon.

*O'dinda kechursa bu beglik ishin*

*Ani yetsa bo'lmas ezarsa qushin.* (Q.B.)

**O'DRUM** Sara, mumtoz, eng yaxshi.

*Kishi o'drumi bu budunda talu*

*Talu o'drum ul bu iruksuz to'lu.* (Q.B.)

**O'DUN** Vaqt bildiruvchi qo'shma ravishlarning ikkinchi komponenti hisoblanadi.

*Etilsa eli ham bayusa budun,*

*Ati edgu bo'lsa ul ertar o'dun.* (Q.B.)

- O'DURMAQ** Tanlamoq, ajratmoq, saralamoq  
*Tugal o'n sekiz ayda aydim bu so'z,  
 O'durdum, adirdim so'z evdib tera. (Q.B.)*
- O'G** Aql, zakovat, miya.  
*Ko'ngul bo'lmasa er ko'zi asg'i yo'q  
 O'gi bo'lmasa er o'gi o'sg'i yo'q. (Q.B.)*
- O'GLUG** Aqlli, zakovatli, aqli raso.  
*Bu o'glug kishilar o'ngarur ishig  
 Yiraq tutg'u ishta bu o'gsuz kishig. (Q.B.)*
- O'GMAK** Maqtamoq.  
*Qayu erda bo'lsa uqush birla o'g  
 Ani er atag'il necha o'gsa o'g. (Q.B.)*
- O'GRANMAK** O'rganmoq.  
*Qamuq yoqut erinli, so'zi durlar,  
 Vafosizliqni sizdin o'granurlar. (Mn.)*
- O'GSUZ** Aqlsiz, beaql, miyasiz.  
*Bu o'glug kishilar o'ngarur ishig,  
 Yiraq tutg'u ishta bu o'gsuz kishig. (Q.B.)*
- O'KSUK** Oz, kam.  
*Bir kun mehmonlardin bir kishi ortuq kelibtur va bir ayoq  
 osh o'ksuk. (N.M.)*
- O'KSUMAK** Kamaymoq, ozaymoq.  
*Oxir umrig'acha ixtiyor va e'tibori ortti, o'ksumadi. (Bn.)*
- O'KSUZ** Yetim, ota-onasiz.  
*Bormi senda o'ksuz yo'qsulning qonin  
 Gurunglashib, chog'ir kabi ichkanlar? (Fit.)*
- O'KSUZLANMOQ** O'ksimoq, o'ksinmoq, xafa bo'lmoq.  
*Yig'la biroz, o'ksuzlangan tilagim,  
 Umidsizlik ora tushub, yoqsul jonim o'rtandi. (Fit.)*
- O'KULMAK** Yog'ilmoq, to'kilmoq.  
*Javrunguzdin otam o'ldi netayin,  
 Boshima qayg'u o'kuldi netayin. (Shn.)*
- O'KUN** Boshqa, o'zga.  
*Birdin o'kun chun nima mavjud emas,  
 Ko'rgan ani ikki erur shirku bas. (H.A.)*
- O'KUNCH** Afsus, afsuslanish, o'kinch.  
*So'zin qiyg'uchi begka tutma umunch  
 Tiriglik yava bo'lg'a qilg'a o'kunch. (Q.B.)*

- O'KUZ** Amudaryoning qadimgi nomi; daryo.  
*Ul O'kuzdin o'tubon kelguncha,  
 Kemayu sol ishin qilg'uncha. (Shn.)*
- O'KUSH** Ko'p, mo'l.  
*O'kush el tutayin tesa ey elig  
 Uch ish qilg'u o'tru yetilsa ilig. (Q.B.)*
- O'L** Ho'l.  
*O'qlaring ko'nglumga tushgach, kuydi ham ko'z, ham badan.  
 Kim, kuyar o'lu quruq chun nayistong'a tushti o't. (G'.S.)*
- O'LA** Bo'lishi kerak; bo'lsa kerak; bo'lsa.  
*Kim o'la do'st rizosi hamin sanga hosil,  
 Rizoi do'stlar asli tamattu', ey g'ofil. (Fuz.)*
- O'LAN** O't-o'lan, maysazor.  
*O'lan uzra qurulg'an xaymada shoh,  
 Zafardin shod bo'lub yotmishdi ogoh. (S.Sar.)*
- O'LANG** O'tloq, o'tli maydon, maysazor.  
*Necha kun qishloqi uylar tayyor bo'lg'uncha o'langda o'ltu-  
 ruldi. (Bn.)*
- O'LASI** O'lar holga kelgan, nimjon, qoqsuyak.  
*Xalqini ko'rsangiz agar o'lasiyu qoqu xarob,  
 Ochlikdin egilib qomati misli kamalak. (Max.)*
- O'LMAK** O'lmoq; hayotdan ko'z yummoq.  
*O'lsam, yasamang munda mazorimni mening,  
 Yuklab eliting jismi figorimni mening. (A.N.Rub.)*
- O'LMOQ** Bo'lmoq.  
*Men dog'i lahning eshitib shod o'lay,  
 Nag'mang ila qayg'udin ozod o'lay. (H.A.)*
- O'LTURGULUK** O'ldirilishi kerak, o'ldirish lozim.  
*Va agar ajdahodek ganj ustida halqa urarkim o'lturguluk.  
 (H.A.)*
- O'LTURMAK** 1. O'ldirmoq.  
*Men bu zavraqni sug'a to surdum,  
 Ming seningdekni suda o'lturdum. (S.S.)*  
 2. So'ymoq, bo'g'izlamoq.  
*Ot o'lturub, etini shishlab, kabob qilib, otni lahza tindurub  
 otlanduq. (Bn.)*
- O'LTURMOQ** 1. O'tirmoq.  
*Ikkisi chun yondashib o'lturdilar,  
 Har sori hayrat bila el turdilar. (H.A.)*

2. Botmoq, sanchilmoq.

*Vahm ila seskanmak edi sher ishi,*

*O'lturur erdi bolasig'a tishi. (H.A.)*

**O'LUG** O'lik, joni yo'q.

*Kimning himmati bo'lmas ul o'lug*

*Ekagun ajunda bu bulmas ulug. (Q.B.)*

**O'LURTACHI** O'ldirajak.

*O'ngra qitayig' o'lurtachi terman, bani o'g'uzug'. (To'n.)*

**O'NGARMAQ** O'nglamoq, yaxshilamoq, tuzatmoq.

*Bu o'glug kishilar o'ngarur ishig*

*Yiraq tutg'u ishta bu o'gsuz kishig. (Q.B.)*

**O'NGAY** Muloyim, yumshoq, iltifotli.

*Qilinchi o'ngay bo'lsa qilqi ko'ni*

*Sevinchin kechar ul o'shul beg kuni. (Q.B.)*

**O'NGAYLAMOQ** Tuzatmoq, yaxshilamoq.

*Bilimsizlar anglashmadi, ohu voying tinglashmadi,*

*Bilguvchilar burchi ekan o'ng'aylamoq, o'nglashmadi. (H.)*

**O'NGDI** Nizom, qonun.

*Bu beglik ishin barcha beglar bilir*

*To'ru o'ngdi qilq yan ulardin kelir. (Q.B.)*

**O'NGDUN** Sharq; sharqiy.

*Tug'ardin esa keldi o'ngdun yeli,*

*Ajun etguka achi ushtmah yo'li. (Q.B.)*

**O'NGURLUK** Etakli.

*Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,*

*Bir o'ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling. (T.F.)*

**O'NG'URQA** Urug'don, pusht.

*Mavlo taolo aning shumliqidin Xomning o'ng'urqasindag'i  
nutfani qora qildi. (R.)*

**O'PTANMAQ** Uyalmoq, nomus qilmoq.

*Aning baxshishindin bulut o'ptanur. (H.H.)*

**O'Q I** Kamonga qo'yib otiladigan, uchi o'tkir temirdan qilingan,  
uzun, ingichka tayoqcha.

*G'ayr oning so'ngicha chopmas edi,*

*O'q otarg'a majol topmas edi. (S.S.)*

**O'Q II** 1. Xuddi, aynan, naq.

*Barcha fazlu hunarda yo'q misli,*

*Ko'zguga boqsa o'zi-o'q misli. (S.S.)*

2. Zahoti.  
*Yetgach – o'q bo'ldi razmu kin pardoz,  
 Qildilar kin alar dog'i og'oz. (S.S.)*
- O'QLAMOQ** Otmoq, o'qqa tutmoq.  
*Bir qashqa otliq kishi manga yaqin sig'inib keldi. Otini  
 o'qladim, yumalanib bordi. (Bn.)*
- O'R** Tapa; tepalik.  
*Buyurdi o'rga shodirvon uruldi,  
 Qadah kelturdilar, majlis quruldi. (Mn.)*
- O'RAM** Ko'cha.  
*O'ramung itlarining ittihodi,  
 Ko'ngullar maqsudi, jonlar murodi. (Mn.)*
- O'RDU** Qo'shin joylashgan yer, qarorgoh, shtab.  
*Seshanba kuni o'rdi to'g'risi sabzaliq orol bor ekandur.  
 (Bn.)*
- O'RGULMAK** Bir narsa tevaragida harakat qilmoq, aylanmoq.  
*O'shal holatqa kirib, uch qatla boshdin o'rgulub, dedimkim,  
 men ko'tardim, har ne darding bor. (Bn.)*
- O'RON** O'z kishisini tanish uchun uchrashganda aytiladigan va  
 oldindan belgilab qo'yilgan shartli maxfiy so'z, parol.  
*Bu o'ron ikki nav' bo'lur: biri ulkim qavmning o'roni bor,  
 nechukkim, ba'zi qavmning o'roni «durdona»dur. (Bn.)*
- O'RTAMAK** Kuydirmoq, yoqmoq, yondirmoq.  
*Yuzung nuri quyoshning nurin o'rtar,  
 Saqoqing shu'lasi olamni o'rtar. (Mn.)  
 Ulug' changallarni o'rtab, bug'u, maral ovlar eduk. (Bn.)*
- O'RTANMAK** 1. Kuymoq, yonmoq.  
*Egri uchish birla chu ko'p aylanib,  
 Qaydaki parvona borib o'rtanib. (H.A.)  
 2. ko'ch. Iztirob chekmoq, azob chekmoq, qiynalmoq.  
 Ul alam garchi soldi boshima dud,  
 Bildim o'rtanmagimda yo'qtur sud. (S.S.)*
- O'RTAQ** Sherik, hamkor.  
*Ishq aro Farhod va Majnun sherikimdur, vale  
 Dardu g'am chekmakka mencha yo'q bu ikki o'rtag'im. (F.K.)*
- O'RTMAK** Yopmoq, bekitmoq.  
*Yofas ani ko'rub, to'ni birla o'rtdi. (R.)*

**O'RTU** O'rtacha, o'rta.

*Yuzi ko'rki ko'rklug kerak beg yulug  
Bo'di o'rtu bo'lsa ne javlug' kulug. (Q.B.)*

**O'RTULMAK** Yopilmoq, yumilmoq.

*Siqrib uni yurlayu,  
Sig'tab ko'zi o'rtulur. (D.L.T.)*

**O'RU** Yuqori, ust, baland, yuksak.

*Qamug' erdami bo'lsa erda o'ru.  
Budunqa berur bo'lsa edgu to'ru. (Q.B.)*

**O'RUG** Bosiq, vazmin, og'ir tabiatli.

*Neku ter eshitgil ey elchi bashi  
O'rug kad ko'ngullug sinamish kishi. (Q.B.)*

**O'RUGLUG** Xotirjamlik, bosiqlik.

**Oruglug amulluq** Xotirjamlik, vazminlik.  
*O'ruglug amulluq bo'lur begka ko'rk  
Bu beglik ishing bu – ul bag'u o'rk. (Q.B.)*

**O'RUNG: O'runq qush** Oqqush.

*Azig'lig' kur erka bu neng eksumas  
Tug'ug'li o'runq qushqa meng eksumas. (Q.B.)*

**O'RUS** Rus.

*Gah o'rus, gohi cherkas, gohi mo'min, gohi tarsoman,  
Ne kavnayn miyoni lou illollog'a sig'mamdur. (Mash.)*

**O'SAL** Beg'am, beparvo, g'ofil.

*O'sal bo'lsa beglar ishin butrumaz  
O'sal beg butun bilgu beglik yemaz. (Q.B.)*

**O'SANMOQ** 1. Bezmoq, joniga tegmoq.

*Bani jondan o'sandirdi, jafodan yor o'sanmazmi?  
Falaklar yandi ohimdan, murodim sham'i yanmazmi? (Fuz.)*

2. Pushaymon bo'lmoq, afsuslanmoq.

*Alar bu kelmakdin o'sandilar, balki bu tavajjuh din  
pushaymon bo'lub, bemurod yondilar. (Bn.)*

**O'SMAQ** Harakat qilmoq, intilmoq.

*O'zung dunya uqba bo'layin tesa  
Bu qach ishni qo'dma qatig'lan o'sa. (Q.B.)*

**O'SUG'** Xarakter, tarz, yo'sin.

*Ko'ngul bo'lmasa er ko'zi asg'i yo'q  
O'gi bo'lmasa er o'g'i o'sg'i yo'q. (Q.B.)*

- O'T I** Otash, olov, alanga.  
*Avfin aning tutmasang ummid sen,  
 Bilki tamug' o'tida jovid sen. (H.A.)*
- O'T II 1.** Dori, dori-darmon.  
*Kishi iglasa o't o'tachi berur  
 O'tachi iginga emin kim qilur. (Q.B.)*  
 2. ko'ch. Davo, tadbir, chora, iloj.  
*Bu beglik iginga o'ti o'g bilig  
 Uqush birla emla ey qilqi silig. (Q.B.)*
- O'TACHI** Tabib, hakim.  
*Kishi iglasa o't o'tachi berur  
 O'tachi iginga emin kim qilur. (Q.B.)*
- O'TKARMAK** Qabul ettirmoq, e'tirof ettirmoq, ma'qullatmoq.  
*Bo'yla chu ikki tonug' o'tkardi zol,  
 Bo'ldi muqir xisravi farxunda fol. (H.A.)*
- O'TMAK I** Non.  
*Yo'q erdi suv, yemakka anda o'tmak,  
 Agar bo'lg'anda ham aqchasi lak-lak. (S.Sar.)*
- O'TMAK II 1.** Bir yerdan ikkinchi yerga kechmoq.  
*Nogahon bir shikoriyi gulrang,  
 O'tgali qildi olidin ohang. (S.S.)*  
 2. Voz kechmoq, bahridan o'tmoq.  
*To telbalig'im shuhrati olamni tutubdur,  
 Bir jilvasig'a ikki jahondin o'ta qoldim. (Mash.)*
- O'TRU 1.** Qarshi, ro'para, peshvoz, yuzma-yuz.  
*Chiqti o'trusidin Suhayl daler,  
 Ul sifatkim qobon masofig'a sher. (S.S.)*  
 2. So'ng, keyin.  
*Yuraklig yuraksizka bo'lsa bashi  
 Yuraklig bo'lur o'tru tegma kishi. (Q.B.)*
- O'TUN 1.** O'tin.  
*Boqmasa dehqon chamanin kun-u tun,  
 Naxli tarin angla qurug'on o'tun. (H.A.)*  
 2. ko'ch. Pastkash; qo'pol.  
*Begi ichguchi bo'lsa mufsid o'tun  
 Qamug' ichguchi bo'ldi buduni butun. (Q.B.)*
- O'TUNLUQ** Qo'pollik, dag'allik, qo'rslik.  
*O'tunluq evaklik yenig qurg'uluq  
 Qara qilqi ul bu yiraq turg'uluq. (Q.B.)*

**O'VUT** Or, nomus, uyat.

*Kimingda o'vut bo'lsa qilqi silig*

*Qamug' tengsiz ishka tegurmas alig. (Q.B.)*

**O'VUTLUG'** Andishali, hayoli.

*Ko'zi to'q kerak ham o'vutlug' tuzun*

*Achuq ham yazuq bo'lsa qilqin so'zun. (Q.B.)*

**O'Y** Ho'kiz.

*Yo'lida egrilar assor o'yidek,*

*Yo rab o'lturgali parvor o'yidek. (F.Sh.)*

**O'YLA** Unday; shunday; o'shanday.

*O'yla bahri falak misol ichra,*

*Kavkabi yer tutub hilol ichra. (S.S.)*

**O'YLAKI** Xuddi, kabi.

*Manga tushmish ko'zi yiroqdinu bas,*

*Yiqilib yerga yotti o'ylaki xas. (S.S.)*

**O'YRULMAQ** Aylanmoq.

*Yuziga mehr bandau oti Mehr,*

*O'yrulub mehridek boshig'a sipehr. (S.S.)*

**O'Z** 1. O'z (o'zlik olmoshi).

*Bu ish qilg'uchi er qilur o'z ishi*

*Mun erdam biligli ko'rugli kishi. (Q.B.)*

2. Mohiyat.

*Qamug' ishni uqtung ma bilding o'zun*

*Menga ma bag'irsaqa qilqin so'zun. (Q.B.)*

3. Jon.

*Bag'irsaqqa aytur kishi o'z so'zin*

*Bag'irsaq yulug'lar kishika o'zin. (Q.B.)*

**O'ZA** Oldin, avval, ilgari.

*Muningteg kitobni kim aymish o'za. (Q.B.)*

**O'ZAG'** Qadim, o'tmish, moziy.

*Ya yalg'an so'z yigtek, ko'ni so'z shifa,*

*Bu bir so'z o'zag'i urulmish masal. (H.H.)*

**O'ZBAK** 1. Avval Dashti Qipchoqda, so'ngra XV–XVI asrlarda O'rta Osiyoga Shayboniyxon boshchiligida kelib joylashgan turkiy xalq. Shayboniyxon o'zbeklari.

*Chig'atoy el meni o'zbek demasun,*

*Behuda fikr qilib g'am yemasun. (Shn.)*



2. O'zbek.

*Tor ko'ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,  
To'qson ikki bovli o'zbek yurtidur, tenglik qiling. (T.F.)*

**O'ZLAK** Zamon, vaqt.

*O'zlak o'chin aldimu?!*

*Emdi yurak yirtilur. (D.L.T.)*

**O'ZLUK** Menlik.

*Faqr vodiysig'a kirgan tashlasun o'zluk yukin,*

*Kim qilur yo'l qat'in osonroq necha bo'lg'an yengil. (N.Sh.)*

**O'ZMOQ I** Baxshilar, oqinlar qo'shiq qilib aytadigan she'r.

*O'zonlarning o'zmog'i. (M.A.)*

**O'ZON** Baxshi, oqin, xalq shoiri.

*O'zonlarning o'zmog'i va o'zbaklarning budi-budoyi hech  
vazn bila rost emas erdi. (M.A.)*

**O'ZRUM** Sara, tanlangan, mumtoz.

*O'zi yetti, tuzdi, ko'r, el-kun ishi,*

*Taqi ma tilar erdi o'zrum kishi. (Q.B.)*

**O'G'ON** Xudo, Tangri, yaratgan.

*O'g'on Yusuf jamolin sizga berdi,*

*Muhabbat kimyosin bizga berdi. (Mn.)*

**O'G'RAMAQ** Harakat qilmoq, urinmoq.

*Jabroil kelib olg'ali o'g'radi ersa, yer Jabroilg'a ont berdi  
mandin tuproq olmag'il, teb. (R.)*

**O'G'UR** O'g'ir, keli.

*Ajirig' tomirini o'g'urida mayda tuyub,*

*Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak. (Max.)*

**O'G'UZUG'** O'g'uzlarni, o'g'uz xalqini.

*O'ngra qitayig' o'lurtachi terman, bani o'g'uzug'.(To'n.)*

**O'SHUL** O'sha, o'shal.

*Bor edi durroje o'shul beshada,*

*Sheri jayon vahmidin andeshada. (H.A.)*

**G'g'**

- G'ADDOR** *a.* Hiylakor, hiylagar, makkor.  
*Falak zoli asru jafokor erur,*  
*Fusunsozu, makkoru g'addor erur. (Og.)*
- G'ADORAT** *a.* Xiyonatkorlik, xoinlik, xiyonat.  
*Topsunmu taraqqiy yana bizlarda kamolat,*  
*Ketsunmu taassuf elidan bug'zu g'adorat. (H.)*
- G'ADR** *a.* Xoinlik, xiyonat.  
*Sulhqa e'timod qilib, bularning bu makr va g'adridin*  
*bexabar va g'ofil eduk. (Bn.)*
- G'AFFOR** *a.* Kechiruvchi, afv etuvchi.  
*Ki haq bo'lsa vahhobu g'affor ham,*  
*Erur lek jabboru qahhor ham. (S.I.)*
- G'AFLAT** *a.* ko'ch. Johillik, nodonlik.  
*Har kecha bu shan'at ila tungacha,*  
*Har kecha bu g'aflat ila kungacha. (H.A.)*
- G'AFOLAT** *a.* G'aflat, g'ofillik, ogohsizlik, bexabarlik.  
*Ey, ahli vatan! Bosdi seni muncha g'afolat,*  
*G'arq ayladi muncha seni daryoyi jaholat? (H.)*
- G'ALABA** *a.* Ko'p, mo'l, ancha.  
*Deyildikim, har kishi turkcha aytsa, bir ayog' ichsun. Bunda*  
*ham g'alaba kishi ayog' ichti. (Bn.)*
- G'ALTON** *a.* Yumaloq.  
**Durri g'alton** Yirik yumaloq dur.  
*Ulki qilmaydur maoni bahrig'a g'avvosliq,*  
*Ko'rmagay munchoqcha gar bo'lsa durri g'alton so'zung.*  
*(K.)*
- G'AMBODA** *f.* Xasta, dardli, dardnok.  
*Ey sabo, g'ambodadurman, bistarimni kavlama,*  
*Chun shafaqoludaman, xokistarimni kavlama. (Mash.)*
- G'AMGOH** *a.* -*f.* G'am makoni, g'amli joy, g'amga to'la makon.  
*Jannatdakim, el onda bo'lur zindai jovid,*  
*Sensiz oni g'amgoh degumdur dag'i o'lgum. (A.)*
- G'AMGUSOR** *a.* -*f.* G'amni ketkazuvchi, g'amdan xalos qiluvchi.  
*Kimga ochayin rozki, yo'q mahrami roz,*  
*G'am kimga deyinki, g'amgusorim yo'qturur. (B.)*

- G'AMNOK** *a. -f.* G'amli, g'amgin, qayg'uli, xafa.  
*Mehr gul yanglig' aylabon yaqo chok,*  
*Nilufarzor aro kezib g'amnok. (S.S.)*
- G'AMPARVARD** *a. -f.* G'amli, g'amgin, qayg'uli, xafa.  
*Keldi chah boshi uzra g'amparvard,*  
*Chekti un, ki-ey asiri mehnatu dard. (S.S.)*
- G'AMZA** *a.* Nozu karashma, ishva.  
*Qachonki g'amzasi ko'z qonima, qaro qilsa,*  
*Xatosiz o'qni urar jonima, xato qilsa. (L.)*
- G'AMZADA** *a. -f.* G'amgin, g'amnok, qayg'uli.  
*Dunyo sorig'a bir kelibon, g'amzada kettim,*  
*Bir lahza dam olmay turubon, lahzada kettim. (Mash.)*
- G'ANI** *a.* Boy, badavlat, davlatmand.  
*Hojatingni ista ul sohibkaram dargohidin*  
*Kim, oning muhtojidurlar ham g'aniyu ham faqir. (Og.)*  
**G'ani aylamak** Boy qilmoq, boyitmoq.  
*Turfa bukim, xisravi odil ani,*  
*Adl ila ul davrda aylab g'ani. (H.A.)*
- G'ANIM** *a.* Dushman, yov.  
*Yana g'animlari rojalar edi. (Bn.)*
- G'ANIMAT** *a.* Dushmandan tortib olingan mol, o'lja.  
*G'animat ko'rdi har yon haddin afzun,*  
*O'kulgan har taraf yuz ganji Qorun. (F.Sh.)*
- G'ARAV** Qamish.  
*Alqissa, Kordon kamari himmatni g'aravdek necha yerdin*  
*bog'ladi. (Zm.)*
- G'ARAZ** *a.* Muddao, maqsad.  
*Chun g'araz so'zdin erur ma'ni anga,*  
*Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er. (A.N.Qit.)*
- G'ARIB** *a.* 1. Chorasiz, notavon.  
*Ko'rdi o'zni g'arib band ichra,*  
*Halqa-halqa xami kamand ichra. (S.S.)*  
2. Musofir, kelgindi.  
*G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,*  
*El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish. (A.N.Rub.)*  
3. Qiziq, g'alati.  
*Bu asnoda g'arib voqea dast berdi. (Bn.)*



**G'ARIBLIQ** Musofirlik.

*Ko'nglum bu g'aribliqta shod o'lmadi, oh,  
G'urbatta sevunmas ermish, albatta, kishi. (B.)*

**G'ARIQ** a. 1. G'arq bo'lgan, suvga cho'kkan.

*Ul su to'ldiyu bahr erdi amiq,  
Kemayu kema ahli bo'ldi g'ariq. (S.S.)*

2. Tushmoq, qamalmoq.

*Har kim ul choh aro chu bo'ldi g'ariq,  
Non ikkita edi, su bir ibriq. (S.S.)*

**G'ARRA** a. Mag'rurlanish, g'ururlanish.

*Lobaqodur qalbiy, qalbing bog'lama iqbolinga,  
Bo'lma g'arra oriyat dunyovu mulku molinga. (T.F.)*

**G'ASB** a. Zo'rlik bilan birovning narsasini tortib olish.

*G'asb ila molin olib, qo'ymadingizlar bitini,  
Qamchilar dog' solib bo'yung'a, tilib betini. (T.F.)*

**G'AVR** a. 1. Tub, ost, tag.

**G'avr topmoq** Tubiga yetmoq.

*Bir yig'ochqa yaqin jazirag'a davr,  
Davrida sug'a topmayin kishi g'avr. (S.S.)*

2. Biror narsaning mohiyatiga yetish; mohiyat, haqiqat.

*Har kishikim, istasa tuzlukka g'avr,  
Angladik anikim, erur ikki tavr. (H.A.)*

**G'AVVOSLIQ** G'avvoslik.

*Ulki qilmaydur maoni bahrig'a g'avvosliq,  
Ko'rmagay munchoqcha gar bo'lsa durri g'alton so'zung.  
(K.)*

**G'AYBAT** a. G'oyiblik, ko'zga ko'rinmaslik.

*Anga ham g'arib sahv tushtikim, Sul-ton Sohibqiron  
qullug'idin g'aybat ixtiyor qildi. (Bn.)*

**G'AYR** a. 1. Begona, yot.

*G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,  
Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi, dardu mehnatim. (T.F.)*

2. Boshqa, o'zga.

*Aylay olmas kishi xalosima mayl,  
Ko'shishu kina birla g'ayri Suhayl. (S.S.)*

3. Qayta, boshqa, tag'in, yana.

*G'ayr oning so'ngicha chopmas edi.  
O'q otarg'a majol topmas edi. (S.S.)*

**G'AYRAT** *a.* Rashk, qizg'anish.

*Dedikim: dilbaringning de sifotin!*

*Dedi: til g'ayratidin tutmon otin!* (F.Sh.)

**G'AZABKARDA** *a. -f.* G'azabga uchragan, birovning qahriga duchor bo'lgan.

*Turfa qishloqi g'azabkardaki, parrandalari,*

*Tovuqi ignachiyu, o'rdagu g'ozi – kapalak.* (Max.)

**G'AZAL** *a.* Birinchi baytning har ikki misrasi, qolgan baytlarning oxirgi misralari qofiyadosh bo'lib keladigan, asosan ishqi mavzuda yoziladigan lirik she'r.

*Bu navo kimga nasib o'lsa Navoiy yanglig';*

*Bu g'azal birla ichib bo'lsa kerak masti xarob.* (F.K.)

**G'AZANFAR** *a.* Sher, arslon.

*G'azanfar xud netar changolu yolin,*

*Chekar bo'lsa tishi o'ying maholin.* (F.Sh.)

**G'AZOL** *a.* Kiyik, ohu.

*G'azoldek silkinib qochti parivash,*

*Suhayl ko'ngliga tashlab katta otash.* (S.Sar.)

**G'ILMON** *a.* Musulmonlar e'tiqodiga ko'ra jannatdagi chiroyli erkak xizmatkor.

*Malaksan yo bashar, yo huru g'ilmonsan, bilib bo'lmas,*

*Bu lutfu bu nazokat birla sendin ayrilib bo'lmas.* (Mash.)

**G'INO** *a. 1.* Boylik, mol-mulk.

*Ganju tajammulin g'ino bilmagil,*

*Balki g'ino ganji qanoatni bil.* (H.A.)

**G'ino ahli** Boylar, badavlatlar.

*Manga mushkildurur topmoq ilojinkim, g'ino ahli,*

*Iloj aylar sovuqqa qoqimu sanjob kishdin qish.* (Og.)

*2. Kuy, musiqa.*

**Ahli g'ino** Sozandalar, cholg'uchilar.

*Bazmda soqiylar o'lub jilvasoz,*

*Ahli g'ino har sori dastonnavoz.* (H.A.)

**G'IREV** *f.* Dod, faryod.

**G'ireve tortmoq** Faryod qilmoq.

*G'ireve tortibon Farhodi mazlum,*

*Dedi: Bas qilki, bo'ldi qissa ma'lum!* (F.Sh.)

**G'IZO** *a.* Ovqat, yegulik, yemak, taom.

*Otam manga g'izo so'ngak mag'zidin o'zgakim nabotni un qilib, anga sepib berur erdi.* (T.M.A.)



- G'OFIL** *a.* 1. Bexabar, xabarsiz.  
*G'ofil esa xalq bu ahvoldin,  
 Voqif erur tangri xud ul holdin. (H.A.)*  
 2. Nodon, johil.  
*Bir kun o'lg'onda Jobiri g'ofil,  
 Bog'ni sayr etarga forig'dil. (S.S.)*
- G'OLIBO** *a.* Aftidan, chamasi.  
*G'olibo, manga bu so'zlar firib ekandur. (Bn.)*
- G'ORAT** *a.* Vayronagarchilik, talon-taroj, barbodlik.  
*Bir zarra yuzin toblamaz ul kelsa na holat,  
 Bosh uzra ko'rar kelsa na xayl ila g'orat. (H.)*
- G'OYAT** *a.* Chek, chegara, poyon, nihoya.  
*Sen hurmusen yo malak, ey turfai davron,  
 Ne husnunga bor haddiyu, ne lutfunga g'oyat. (A.)*
- G'OZA** *a.* Ayollar betiga surtadigan qizil modda, yog'upa.  
*Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang,  
 G'ozadin yuzlarda tobu o'smadin qoshlar tarang. (F.)*
- G'OZIY** *a.* G'azot qiluvchi; urushda g'alaba qozongan.  
*Andaki, G'oziy shahi farxunda baxt,  
 Toj olayin deb taloshur erdi taxt. (H.A.)*
- G'UBOR** *a.* Chang, to'zon.  
*Jonim fidosi aning koshki menim bu tanim,  
 Oti tuyuqidin uchqon g'ubor bo'lsa edi. (S.)*
- G'UBOROLUDA** *a.* -f Xira, notoza, kir.  
*Xotiri pokingni mashg'ul qilma hargiz dunyog'a,  
 Dil g'uboroluda bo'ldi, ul ko'rolmas yorni. (Mash.)*
- G'UL I** *a.* Zanjir halqa, halqa.  
*Yo'q esa nechun oning bo'ynida bordur g'uli,  
 So'yla mango, ey sanam, kimning sevar yorisan. (K.)*
- G'UL II** *Qo'shin markazi, markaz.*  
*Nechukkim, maymana va maysarakim, burong'or va  
 juvong'or derlar, yasolda qalbningkim, g'ul derlar. (Bn.)*
- G'ULOM** *a.* Qul.  
*Mudom miskin erurman chun g'uloming  
 Mashrablingdurman,  
 Meni bechora bu dunyo bilan uqbog'a sig'mamdur. (Mash.)*
- G'ULU(V)** *a.* 1. Qiy-chuv, baqiriq-chaqiriq, to'polon.  
*Ho'yu g'uludin bu nishoting kuni,  
 Anglamayin kimsa muazzin uni. (H.A.)*

2. G'ulg'ula, qo'rquv.

*Seningsiz manga olamdur qarong'u,  
O'lim-da solmag'ay bizlarga g'ulu. (S.Sar.)*

**G'ULG'UL** *f.* Sayrash, xonish, xonish qilish.

*Bo'lub mutrib gulistonlarda bulbul,  
Qilur ming turli nag'ma birla g'ulg'ul. (S.Sar.)*

**G'UNJ** *a.* Noz-karashma, ishva.

*Hiyla domig'a xaloyiqni giriftor etgusi,  
Ko'rguzub g'unju dalolu g'amzayu nozu ado. (Og.)*

**G'UNCHA** *f.* Hali ochilmagan gul.

**G'unchai xandon** Ochilgan g'uncha. *ko'ch.* Mashuqaning kulib turgan og'zi.

*Ul gul yuzinig ishqida men volau bulbul,  
Ul g'unchai xandon. (Mash.)*

**G'uncha dahan** G'unchaga o'xshagan og'iz; sevgilining og'zi.

*Ey, mening nozik nihol, oromijonim qaydasan?  
Bu ko'ngul bo'stonida g'uncha dahonim, qaydasan? (Mash.)*

**G'URBAT** *a.* 1. G'am, g'am-g'ussa, xafalik.

*Ahli hole topmadim boshdin balo daf' etmadi,  
Kulfatu g'urbatni tuzluk sunnati raf' etmadi. (T.F.)*

2. O'z yurtidan uzoqda yashash, musofirlik.

*G'urbatta g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish. (A.N.Rub.)*

**G'urbat chekmak** Vatandan uzoqda yashamoq, begona yurtda yashamoq.

*To chekmasa g'urbat, vatanning qadri bo'lurmu?*

*G'arq o'lmasa daryog'a guhar qo'lg'a kelurmu? (H.)*

**G'URNIK** Zanjir, halqa.

*U izlab chora, yaxshi chora topti,  
Solib ichina g'urnik evni yopti. (S.Sar.)*

**G'URRA** *a.* Har bir oyning birinchi kuni, oyning boshi.

*Chahorshanba kuni ramazon oyining g'urrasida Abulmuhsin  
mirzo Sulton Husayn mirzoning bir necha beklari va bir  
pora ilg'ori bila ilgarrak keldi. (Bn.)*

**G'USL** *f.* Butun badanga suv tekkizgan holda yuvinish.

*Bu sug'a kirib g'usl qildim. O'n olti qatla sug'a cho'mdum.  
(Bn.)*

## SHsh

**SHAB** *f.* Tun, kecha.

**Shabi hijron** Hijron tuni.

*Shabi hijroniming poyoni tay o'lmaz, toyiri gardun  
Mahu xurshed o'lub ikki qanoti aylasa shabgir. (T.F.)*

**SHABAFRO'Z** *f.* Tunni yorituvchi, qorong'ilikni oydinlatuvchi.

*Niginu la'l yo'q, durri shabafro'z,  
Dema dur, gavhare, lekin jahonso'z. (F.Sh.)*

**SHABGIR** *f.* Tun bo'yi yuruvchi.

**Shabgir aylamak** Tun bo'yi uchmoq.

*Shabi hijroniming poyoni tay o'lmaz, toyiri gardun  
Mahu xurshed o'lub ikki qanoti aylasa shabgir. (T.F.)*

**SHABISTON** 1. Qorong'ilik, zimziyolik.

*Shabistonida tug'di bir yangi oy,  
Yangi oy yo'qki, mehri olamoroy. (F.Sh.)*

2. Bazm qilinadigan joy, bazmgoh.

*Sham bo'yi tuz kelib ayvon aro,  
Shohidi bazm o'ldi shabiston aro. (H.A.)*

**Shabiston harimi** Xilvatxona.

*Va ul uy shabistoni harimida bu sham'i anvar majlisoroy  
durur. (H.A.)*

**SHABIXUN** *f.* Tung hujum.

*Bir kecha shabixun keldilar. O'rduning tashqarisidin bir  
pora o'q qo'g'ub yondilar. (Bn.)*

**SHABOB** *a.* Yoshlik, yigitlik.

*Burung'i o'tgan-u ketgan ko'ngulda yod ko'rgaysiz,  
Qarig'an chog'da Zavqiy bir shabob o'lsa ajab ermas. (Z.)*

**SHABCHAROG'** *f.* Tunda chiroq kabi yorug'lik beruvchi.

*Ne maxzan, har durri sham'i farog'i  
Ne dur, ne sham', durri shabcharog'i. (F.Sh.)*

**SHAF AQOLUDA** *f.* Shafaq rang, qizil.

*Ey sabo, g'ambodadurman, bistarimni kavlama,  
Chun shafaqoludaman, xokistarimni kavlama. (Mash.)*

**SHAFIQ** *a.* Shafqatli, rahmdil, mehribon.

*G'urbatta g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish. (A.N.Rub.)*



**SHAH** *f.* ayn. Shoh.

*Ikki shah kirdilar xudo yo'lig'a,  
Mulklar in solib aning qo'lig'a. (S.S.)*

**SHAHBOZ** *f.* Lochin.

*Arz ustidin ul arshg'acha shahbozini ko'rgach,  
Tan shahrida ul jon qushidek tolpina qoldim. (Mash.)*

**SHAHD** *a.* 1. Asal, bol.

*Achig' so'zi Qirim shahdig'a o'xshar,  
Jamol ayyomi gul ahdig'a o'xshar. (Mn.)*

2. May, sharob.

*Hoy-hoyi bazmlarda shahd no'sho-no'sh edim,  
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim. (T.F.)*

**SHAHID** *a.* Xudo yo'lida, islom dini uchun jonini fido qiluvchi musulmon.

*Shayx debturlarki, biz kuffor ilkida shahid bo'lurbiz. (N.M.)*

**SHAHJO'Y** *f.* Katta ariq.

*Tog' tarafidin bir ulug' shahjo'y oqar. (Bn.)*

**SHAHR** *f.* Shahar.

*Go'yiyo andag'i jazoir aro,  
Shahri ermish oti «Bihishtsaro». (S.S.)*

**SHAHRISTON** *f.* Shahar markaziy qo'rg'oni; ichki shahar.

*Roviylar andog' rivoyat qilurlarkim, Farg'ona iqliminda  
Kayqubod otlig' podshodin qolg'on bir eski shahriston bor  
erdi. (Zm.)*

**SHAHRİYOR** *f.* Buyuk podshoh, ulug' shoh.

*Ayo ohu nazarlar shahriyori,  
Husn maydonining chobuksuvori. (Mn.)*

**SHAHVOR** *f.* Yirik va qimmatbaho.

**Durri shahvor** Yirik va qimmatbaho dur.  
*Yorutur yaxshi amal qabringni, yo'qsa sud emas,  
Tojing uzra bo'lsa gar har durri shahvor oftob. (Mu.)*

**SHAHZODA** *f.* Shohning o'g'li.

*Oni ham bildi shohi ozoda,  
Kim, musofir shahzoda. (S.S.)*

**SHAJAR** *a.* Daraxt.

*Kim, chiqib bir shajar uzra,  
Ko'z solib bahri mavjvar uzra. (S.S.)*  
**Shajari musmir** Mevali daraxt.



*Bo'ldi raiyat galavu sen shubon,  
Ul shajari musmiru sen bog'bon. (H.A.)*

**SHAKARBOR** *f.* Shakar yog'diruvchi; shirin.

*Qachonkim bo'lsa tor og'zing shakarbor,  
Sabo gulg'unchani og'zini yirtar. (Mn.)*

**SHAKARGUFTOR** *h. -f.* Shirinso'z, shirinsuxan.

*Qoshlari yo, ko'zlari xunxordin ayrilmisham,  
Bir pari tal'at, shakarguftordin ayrilmisham. (Mash.)*

**SHAKARREZ** *a. -f.* Shakar to'kuvchi.

*Xuroson demakim, Sherozu Tabriz  
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez. (F.Sh.)*

**SHAKKARSHIKAN** *f.* Shirinso'z, shirinsuxan, so'zi odamga yoqadigan.

*Nigori gulbadanimni tushumda ko'rsam edi,  
Labi shakkarshikanimni tushumda ko'rsam edi. (N.)*

**SHAL** *Jiqqa ho'l, shalabbo.*

*Bo'ldum ivib yomg'urda shal,  
To'n shilta, ho'l ezor ekan. (M.)*

**SHAM'** *a.* Shamchiroq, sham.

*Jom bu ahvolinga qon yig'labon,  
Sham kuyub, ashkfishon yig'labon. (H.A.)*

**Sham'i shabiston** Bazmgoh shami.

*Yaldo kechani sham'i shabiston etgan,  
Bir lahzada olamni guliston etgan. (A.Y.)*

**Sham'i anvar** Eng yorug' sham.

*Va ul uy shabistoni harimida bu sham'i anvar majlisoroy  
durur. (H.A.)*

**SHAMIM** *a.* Xushbo'y hid.

*Haqiqiy ishqdin esgay nasime,  
Yetib oning nasimidin shamime. (F.Sh.)*

**SHAMMA** *a.* Biroz, ozgina, birqadar.

*Muni bilgach Suhayl zori hazin,  
Shammai topti xotiri taskin. (S.S.)*

**SHAMOMA** *a.* Xushbo'ylik, muattarlik.

*Boshig'a qo'ydilar amoma dag'i,  
Anda sandal nasim shamoma dag'i. (S.S.)*

**SHAMOYIL** *a.* Ko'rinish, shakl, surat.

*Ayo zebo sanam shohi qaboyil,  
Taolilloh zihi shakl-u shamoyil. (Mn.)*

**SHAMS** *a.* Quyosh, oftob.

*Orazidin shamsu qamardur xijil,  
So'zlaridin shahdu shakar munfail. (Zm.)*

**SHAMSA** *a.* Binoning peshtoqiga quyoshga o'xshatib aylana shaklida ishlangan naqsh.

*Shamsasi el moli bila zarnigor,  
El duru la'li bila gavharnigor. (H.A.)*

**SHAMUS** *a.* Sarkash, o'jar; qo'rs, badfe'l.

*Juvong'orida erdi bartosu rus,  
Falak xingidek barcha tundu shamus. (S.I.)*

**SHAMSHOD** *f.* Sarv daraxtiga o'xshash, tik o'sadigan, xushqomat daraxt. (Mumtoz adabiyotda mahbubaning bo'yi shu daraxtga o'xshatiladi).

*Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,  
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.  
(Og.)*

**SHAN'AT** *a.* Nojo'ya ish, bema'nilik, noma'qulchilik.

*Har kuni bu shan'at ila tungacha  
Har kecha bu g'aflat ila kungacha. (H.A.)*

**SHANE'** *a.* Yomon, qabih, yaramas.

*Har kimkim mundog' shane' harakatka iqdom qilg'ay va ul  
kishigakim bu nav' ishka ehtimom qilg'ay, yuz ming la'nat-  
dur qiyomatqachakim... (Bn.)*

**SHAR'** *a.* Shariat.

*Shah dedi: «Shar' etsa bu yanglig' ado,  
Shar'i nabi hukmig'a jonim fido» (H.A.)*

**SHARAR** *a.* Uchqun, alanga, yolqin.

*Kimki bo'lur bir shararing fosh anga,  
Do'zax o'ti bo'lg'usi podosh anga. (H.A.)*

**SHARBAT** *a.* Meva suvi; kompot.

*Toki berdi taom ila sharbat,  
Za fliq zor jismig'a quvvat. (S.S.)*

**SHARH** *a.* Izoh, bayon.

*Olib ilgiga safhayu xoma,  
Qissa sharhini yozdi bir noma. (S.S.)*

**SHARIAT** *a.* Qur'on va hadislar asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fuqarolik qonun va qoidalari majmuasi.

*Bid'atu fisq ahli bo'lub munzaviy,  
Adli shariat qo'lin etti qaviy. (H.A.)*

- SHARIATPANOH** *a-f.* Shariat suyanchig'i, din homiysi.  
*Nolavu afg'on chekibon tortib oh,*  
*Dediki, ey shohi shariatpanoh. (H.A.)*
- SHA'RIY** *a.* Taxminan 2–3 kmga teng keladigan uzunlik o'lchovi.  
*Mahalloti qo'rg'ondin bir sha'riy yiroqroq tushubtur. (Bn.)*
- SHAR'IY** *a.* Shariat qonun-qoidalariga mos keladigan, shariatga ko'ra to'g'ri.  
*Shah dedi: «Gar dav'i esa qonima,*  
*Shar'iy esa minnatidur jonima. (H.A.)*
- SHARMSORLIG'** *Uyat, hayo.*  
*Dardoki, yo'q jahon elida sharmsorlig',*  
*Ko'rganlar izzatimni menga berdi xorlig'. (K.)*
- SHAROB** *a.* May, vino.  
**Sharobi nob** Toza sharob, tiniq sharob.  
*Bahor ayyomidur dag'i yigitlikning avonidur,*  
*Ketur soqiy, sharobi nobkim ishrat zamonidur. (B.)*
- SHARORA** *a.* Alanga, uchqun.  
*Hajr ila za'fim o'ylakim, ohi hazinim o'tig'a*  
*Shu'la bila sharora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay. (Og.)*
- SHARORAT** *a.* Yomonlik, yaramaslik, yovuzlik.  
*Har kishi ont ichti sharorat bila,*  
*Kizb esa, daf' o'ldi kaforat bila. (H.A.)*
- SHARZA** *f.* G'azabli, g'azabkor, dahshatli, qo'rqinchli.  
*Qaydaki orom tutub sharza sher,*  
*Girdida durroj uchubon daler. (H.A.)*
- SHATRANJ** *f.* Shahmatga juda o'xshaydigan qadimiy bir o'yin.  
*Shatranj'a ko'p mash'uf edi. El bir ilik ila o'ynasa, ul ikki*  
*ilik ila o'ynar edi. (Bn.)*  
**Shatranj shohi** Shahmatdagi eng asosiy figura, shoh.  
*Borsa shatranj shohining sipahi,*  
*Ko'rdi, bormu hisob ichinda shahi. (S.S.)*
- SHAVKAT** *a.* 1. Obro', obro'-e'tibor, hurmat; shuhrat.  
*Garchiki, yo'q shavkati sarmoyasi,*  
*Sendin erur ortuq aning poyasi. (H.A.)*  
 2. Salobat, viqor; savlat.  
*Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq,*  
*Yolg'uzun aylar erdi qat'i tariq. (S.S.)*
- SHAVOHID** *a.* (birligi **shohid**) Shohidlar, guvohlar; hujjatlar.  
*Muncha qaviy daloyil va azim shavohid bila bu faqirning*

*vuqufi balki mahorati bu fanning forsiy va turkiy nazmidu sobitu ravshan bo'ldi. (M.L.)*

**SHAXS** *a.* Vujud, tana.

*Taxtni shaxsingg'a makon ayladi,  
Mulk uza hukmungni ravon ayladi. (H.A.)*

**SHAY** *a.* Narsa.

*Barchasig'a bor aning ilmi muhit,  
Gar murakkab bo'lsun ul shay, gar basit. (L.T.)*

**SHAYDO** *a.* Birovni qattiq sevib qolgan, maftun, giriftor.

**Shaydo qilmoq** Devona qilmoq, aqldan ozdirmoq, shaydoyi qilmoq.

*Qilur zulfung qamuq olamni shaydo,  
Bo'lur jodu ko'zungdin fitna paydo. (Mn.)*

**SHAYN** *a.* Kuch, quvvat.

*Shaynda qoplondin agarchi fuzun,  
Nafs itining ilgida lekin zabun. (H.A.)*

**SHAYOTIN** *a.* (birligi **shayton**) Shaytonlar.

*Botin aro boshlasa yuz makru rev,  
Fitna qilib muncha shayotinu dev. (H.A.)*

**SHAYX** *a.* Diniy ilmda yuksak mavqega ega bo'lgan kishi; ruhoniylar peshvosi, pir.

*Garchiki men olimu shayxi zamon,  
Qirqingiza emdi beray bir qozon. (M.)*

**SHAYXULISLOM** *a.* Butun shariat va din ishlari rahbari, bosh ruhoniy.

*Garchi avval sadr aylab, bizni badnom ettilar,  
Lutf etib, oxir Hirida shayxulislom ettilar. (X.)*

**SHASHPAR** *f.* Olti qirrali gurzi.

*Marz uzra kiyar sebarga javshan,  
Shashpar ko'tarur boshig'a savsan. (F.Sh.)*

**SHEFTA** *f.* 1. Maftun, berilgan, muxlis.

*To'rt yuz o'ttuz to'rtida Bag'dodg'a borib, dars aytdi va Iroq ahli barcha anga shefta va firifta bo'ldilar. (N.M.)*

2. ko'ch. Telba.

*Bir kun edi sayrg'a azmi durust,  
Shefta zoli etagin tutti rust. (H.A.)*

**SHERDIL** *f.* Jasur, dovyurak, qo'rqmas.

*Nari yuzda Iskandari sherdil,  
Qilib xayli oroyishin muttasil. (S.I.)*

**SHERGIR** *f.* Jasur, qo'rqmas, jasoratli.

*Bori shergiru bori pilzo'r*

*Tikib o'q bila ko'zlarin bo'lsa mo'r.* (S.I.)

**SHEROZA** *f.* Kitob yoki daftar varaqlarini tutub turuvchi ipak bog'.

*Uzdi chu sherozasini daftari,*

*Yel uchurur har varaqin bir sari.* (H.A.)

**SHERSHUKUH** *f. -a.* Sher kabi bahaybat, sherdek haybatli.

*Kim, erur pilzo'ru shershukuh,*

*Panjasidin kelib bu ikki sutuh.* (S.S.)

**SHEVA** *f.* 1. Odat, qiliq.

*Ilgiga hiyla shevasin oldi,*

*Yalang'ochlab o'zin sug'a soldi.* (S.S.)

2. Sehr, maftunkorlik.

*Ko'zum ko'rdi jamoling shevasini,*

*Ko'ngul totmadi bog'ing mevasini.* (Mn.)

**SHEVALIK** Xarakterli, odatli.

*Yo'qki, zamona shahi bu shevalik,*

*O'z xudi holig'a ulug' to kichik.* (H.A.)

**SHIDDAT** *a.* Qiyinchilik, mashaqqat, azob.

*To'rt-besh navbat ushmundoq shiddattin rohatqa va mashaqqattin farog'atqa muntaqil bo'lubtur.* (Bn.)

**SHIGOF** *f.* Yoriq, teshik.

**Shigof etmak** Yormoq, teshmoq.

*Ajal, ko'ksumni sar-tosar shigof et,*

*Borurda-ranjdin ko'nglumni sof et!* (F.Sh.)

**SHIHOB** *a.* Uchar yulduz.

*Tuzluk ila chunki shihob urdi gom,*

*O'rtadi o't boshdin-ayog'in tamom.* (H.A.)

**SHIKAN** *f.* O'ram, jingalak.

*Zulfining har xalqasida bir shikandur o'ylakim,*

*Xabs zanjirida har tav' ichra bir ahli gunoh.* (N.Sh.)

**SHIKANJ** *f.* 1. Bukilish, buralish, o'ralish.

*Keldi yilon jismida pechu shikanj,*

*Muhradur og'zidavu ostida ganj.* (H.A.)

2. Qiynoq, azob, mashaqqat.

*Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,*

*Jonima har birining javru jafosinmu deyin.* (N.N.)

**SHIKAST** *f.* ko'ch. Vayronlik, qattiq ozor topganlik, shikastalik.

**Shikast bermak** Zarba bermoq, mag'lubiyatga uchratmoq

*Kiray xasm aro o'ylakim sheri mast,*

*Borig'a beray bir dam ichra shikast. (S.I.)*

**SHIKASTA** *f.* Singan, siniq.

*Tashna lab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,*

*Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta mo'ndiman. (T.F.)*

**Shikasta qilmoq** Sindirmoq.

*Ani sindurg'an elni qil shikasta,*

*Xujasta ko'rgan elga tut xujasta. (F.Sh.)*

**SHIKOR** *f.* 1. Ov, ov qilish, ov bilan shug'ullanish.

*Aylamak har sori ohular shikor istar ko'ngul,*

*Kabk raftorin ko'rarga ko'hsor istar ko'ngul. (F.)*

2. Ovlanadigan jonivor, ov.

*Nogahon bir shikoriyi gulrang,*

*O'tgali qildi olidin ohang. (S.S.)*

3. ko'ch. Qo'lga tushirilgan kimsa, ov.

*Kim: «Bu yanglig' ish oshkor o'ldi,*

*Bo'yla saydi sanga shikor o'ldi. (S.S.)*

**SHINGARF** *f.* Naqqoshlikda ishlatiladigan qizil rangli mineral; qizil bo'yoq.

*Pardalari rishtasi el jonidin,*

*La'liyu shingarfi ulus qonidin. (H.A.)*

**SHIQ** *a.* Bo'lak, qism, parcha.

*Bo'yla nazm ichra ham erur necha shiq,*

*Fahm etar ul kishiki bo'lsa mudiq. (S.S.)*

**SHIRK** *a.* Bir necha xudo bor, deb e'tiqod qilish, ko'pxudolik.

*Birdin o'kun chun nima mavjud emas,*

*Ko'rgan ani ikki erur shirku bas. (H.A.)*

**SHIRKAT** *a.* Sheriklik, birgalik.

*Bu fursatlardakim, Hiriya og'a-ini shirkat bila podshoh edilar. (Bn.)*

**SHIRKATANDESH** *a. -f.* O'zini sherik deb hisoblash; sheriklik; sherik.

*Dedikim, shahg'a bo'lma shirkatandesh!*

*Dedi, ishq ichra tengdur shohu darvesh! (F.Sh.)*

**SHIYAM** *a.* (birligi **shima**) Odatlar, xulqlar, tabiatlar.

**Adolat shiyami** Adolatparvar.



*Ey, falak qadru adolat shiyami mulku malak  
Marhamat chog'ida rahm ayla ba holi Hapalak. (Max.)*

**SHISHLAMAK** Sixlamoq, sixga tizmoq.

*Kech namozi digar Ilon o'tida tushub, ot o'lturub etini shish-  
lab, kabob qilib, otni lahza tindurub otlanduq. (Bn.)*

**SHODKOM** f. Shod, xursand.

*Gahi maktab ichra kirib shodkom,  
Gahi madrasa sori aylab xirom. (Mu.)*

**SHODMON** f. Shod, shod-xurram, xursand.

*G'urbatta g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish. (A.N.Rub.)*

**SHOFIY** a. Qoniqarli, qanoatlanarli.

*Ul behush mardak javobi shofiy bermay, Xalifani tutturub  
o'lunga buyurdi. (Bn.)*

**SHOFIY** a. Imom Abu Abdulloh Muhammad ibni Idris tomonidan asos solingan mazhab va shu mazhabga mansub kishi.

*Bisyor muttaqiy va mutaddayyin kishi edi, agarchi shofiy  
mazhab edi, har mazhabni rioyat qilur edi. (Bn.)*

**SHOH** f. Podsho, podshoh.

*Bor erdi shoh qizi, Guldursun oti,  
Tilim evrulmas aytmog'a sifotin. (S.Sar.)*

**SHOHANSHAH** f. Shohlar shohi, podsholar podshosi. (Buyuk shohlarning unvoni).

*Anda tuzub masnadi shohanshahi,  
Ayshu tarab jomi uchun mushtahi. (H.A.)*

**SHOHID I** a. Guvoh.

**Shohidi bazm** Sham, chiroq.  
*Sham' bo'yi tuz kelib ayvon aro,  
Shohidi bazm o'ldi shabiston aro. (H.A.)*

**SHOHID II** a. Chiroyli, go'zal.

*Vardu shajar shohid erur bog' aro,  
Lek o'tun silkidadur tog' aro. (H.A.)*  
**Shohidi mahro'** Go'zal oy yuzli, go'zal mahbuba.  
*Necha musattah esa, ko'zgu yuzi,  
Tuz ko'runur shohidi mahro' yuzi. (H.A.)*

**SHOHVOR** f. Shohlarga yarashadigan, shohona.

*Emdikim, tuzdi bazmu ayshu farah,  
Qo'lig'a oldi shohvor qadah. (S.S.)*



- SHOISTA** *f.* Maqbul, ma'qul, munosib, loyiq.  
*Kecha-kunduz tinmayin jon qiynadim dunyo uchun,  
 Xizmati shoista hargiz qilmadim mavlo uchun. (F.)*
- SHOKIR** *a.* Minnatdor, mamnun, rozi.  
*Bu ham imkoni boricha sa'y va ehtimom qilib, oz fursatta  
 sipohi va raiyatni rozi va shokir qildi. (Bn.)*
- SHOM** *f.* Tun, kecha.  
*Yuzungdin shomlar zulfungni yig'sang,  
 Furug'i mohi tobon hojat ermas. (A.)*
- SHOMAT** Kasofat.  
*Zulm va fisqining shomatidin o'g'lonlari tamom juvonmarg  
 bo'ldilar. (Bn.)*
- SHOQ** *a.* Qiyin, og'ir.  
*Bisyor shoq va dushvor keldi. Ne uchunkim, to podshoh  
 bo'lub edim, bu nav' navkardin va viloyattin ayrilmaydur  
 edim. (Bn.)*
- SHOYI'** *a.* Keng tarqalgan, yoyilgan.  
*Jangaraliq rasmi Movarounnahrda shoyi'dur, Samarqand va  
 Buxoroda nomdor jangaralar aksar marg'inoniydur. (Bn.)*
- SHUARO** *a.* (birligi **shoir**) Shoirilar.  
*Nomurod o'ldilar usru shuaro,  
 Notavon bo'ldilar usru fuzalo. (Shn.)*
- SHUBON** *f.* Cho'pon.  
*Qo'yni shubon asramasa oyu yil,  
 Och bo'rilar tu'masidur bori bil. (H.A.)*
- SHUGUN** *f.* Yaxshilikka yo'yish.  
**Shugun tutmoq** Yaxshilikka yo'ymoq, yaxshilik alomati  
 deb hisoblamog.  
*Qilich olishib, boshini kesib, men Sangi Lahshak to'g'risidin  
 o'tganda kelturdi, shugun tuttuq. (Bn.)*
- SHUJO** *a.* Shijoatli, jasoratli, jasur.  
*Ham tanumandu ham shujou daler,  
 Ul sifatkim jazira ichraki sher. (S.S.)*
- SHUKRILILLAH** *a.* Xudoga shukur! Allohga shukur!  
*Muncha yil ketgan bu baxtu davlatim,  
 Shukrilillahkim, kelur bir-bir manga. (L.)*
- SHUKUH** *a.* Savlat, salobat, mahobat.  
*Shukuhidin yetib Xusravg'a tag'yir,  
 Qilib ishq o'ti ko'ngliga ta'sir. (F.Sh.)*

**SHUL** *Shu.*

*Tun-kun yuqu g'aflatda botub ayladuk odat,  
Shul uchun adam o'ldi mana bizlarda diyonat. (H.)*

**SHUM** *f.* 1. Makkor, makrli, ayyor.

*Koshki bir yerda bo'lsaq erdi jonon ikkimiz,  
Ko'zi shum ag'yorlardin anda pinhon ikkimiz. (F.)*

2. Baxtsiz, tolesiz.

**Tole'i shum** Baxti qaro, baxtsiz.

*Qirq, yuz, ming aqربولar ettilar mandin nufur,  
Ne balo, baxti qaroyu tole'i shum Turdiman. (T.F.)*

**SHUMOR** *a.* Sanoq, hisob.

**Shumor aylamak** Hisoblamoq.

*Bu duri serobni xor aylama,  
Buxl hisobida shumor aylama. (H.A.)*

**SHUMORA** *f.* Hisob, sanoq; sanash.

*Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay,  
Ohima ham shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay. (Og.)*

**Shumora qilmoq** Hisoblamoq.

*Ish hisobin shumora qilg'ungdur,  
Qatlu kining'a chora qilg'ungdur. (S.S.)*

**SHUNQOR** Lochinsimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich qush.

**Shunqor bo'lmoq** Halok bo'lmoq, o'lmoq.

*Ushbu tarixta dushanba kuni ramazon oyining to'rtida  
Umarshayx mirzo jaddin kabutar va kabutarxona bila  
uchub, shunqor bo'ldi. (Bn.)*

**SHUQQA** *a.* Bayroqning boshiga bog'lanadigan latta parchasi.

**Shuqqai la'l** Qizil parcha, qizil latta parchasi.

*Har g'unchayi lola huqqayi la'l,  
Ochilsa livoda shuqqai la'l. (L.M.)*

**SHO'R** *f.* G'avg'o, to'polon.

*Ham nubuvvat uyida sho'r andin,  
Ham nabiyg'a daliri mo'r andin. (S.S.)*

**Sho'ru shayn** To's-to'polon, g'avg'o.

*Keldi Koyin soridin ibni Husayn,  
Kim, Samarqandg'a solg'um sho'ru shayn. (Shn.)*

**SHO'RIDA** *f.* Bechora, sho'rlik, azob chekkan.

*Bulhavaslar torta olmas nozaninlar nozini,  
Furqatiydek bekasu sho'rida, rasvo tortadur. (F.)*

**SHO'X** *f.* O'ynoqi go'zal, serishva mahbuba.

*Sho'xdin chun emas edi ogoh,*

*Ko'zi tushti aning sori nogoh. (S.S.)*

## CHch

**CHAMAN** Gulzor, chamanzor; bog'.

*Sunna vaqtida chaman o'rtasidag'i tolol ustida o'tturuldi.*

*(Bn.)*

**CHANG** *f.* Changa; panja.

*Tutaykim, qildi o'z changini ranja*

*Nekim urdi aning changig'a panja. (F.Sh.)*

**CHARGA** Qator, saf.

*Xotun so'ziga kirib, o'zini neknomlar chargasidin chiqardi.*

*(Bn.)*

**CHARX** *f.* 1. *ko'ch.* Osmon, ko'k, falak.

**Charxi barin** Yuksak osmon.

*Anga dog'i gardishi charxi barin,*

*Saltanat ichra berib andoq nigin. (H.A.)*

**Charxi dun** Pastkash dunyo.

*Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim,*

*Bu zamon yuvg'on qozon ostida qolg'on yundiman. (T.F.)*

**Charxi minu** Ko'k osmon.

*Bor emish ravzadek havosi aning,*

*Charxi minu kibi fazosi aning. (S.S.)*

2. Davr, zamon.

*Kim aningdek Suhayli sayyora,*

*Charx zulmidin o'lg'ay ovora. (S.S.)*

3. *ko'ch.* Taqdir, tole.

*Mehrni charx etib asiri firoq,*

*Aylar erdi Suhayl atosi yaroq. (S.S.)*

**Charx urmoq** Aylanmoq.

*Uch xarobotiy erurmiz, sokini mayxonamiz,*

*Xum boshidin charx urub, monandi bir parvonamiz. (F.)*

**Charxi gardon** Aylanuvchi falak.

*Nasib g'am uza bo'ldi charxi gardondin,*

*Musibat uza musibat yetushti davrondin. (Mu.)*

**Charxi kajraftor** Teskari dunyo, teskari aylanuvchi falak.  
*Charxi kajraftorning bir shevasidin dog'man,  
 Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur. (F.)*

**CHARXFARSO** *f.* Ko'kka ulangan, osmono'par, juda baland.  
*Yeridur nazhat ichra jannatoso,  
 Aning yonida tog'i charxfarso. (F.Sh.)*

**CHARXSOY** *f.* Yuksak, baland.  
*Egriligidin ko'runur yangi oy,  
 Andaki bo'lmish qadami charxsoy. (H.A.)*

**CHATMOQ** Chimirmoq.  
**Qosh chatmoq** Qosh chimirmoq, takabburlik bilan qosh-qovog'ini burushtirmoq.  
*Aqrabolar suhbatimdin or edar, qoshin chatar,  
 Salb dillarda, nazarlarda karih suprundiman. (T.F.)*

**CHATR** *f.* Chodir, palatka.  
*Taxting o'lub davlati jovidi mulk,  
 Soyai chatring aro xurshedi mulk. (H.A.)*

**CHAVGON** *f.* Otda o'ynaladigan chimli hokkey.  
*O'qni yaxshi otar edi. Chavgonni yaxshi o'ynar edi. (Bn.)*

**CHAVRULMAK** Aylanmoq.  
*Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda,  
 Xush ichgil rohni rayxon ichinda. (Mn.)*

**CHASHM** *f.* Ko'z.  
**Chashmi giryon** Yig'lovchi ko'z, yig'lab turgan ko'z; intizor ko'z.  
*Nozu istig'no bilan kelgil, meni holimni so'r,  
 Termulub doim yo'lungda chashmi giryonim mening.  
 (Mash.)*

**Chashmi jallod** O'ldiruvchi ko'z; maftunkor ko'z.  
*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
 Qatlim uchun nas kelturur, «nun» eltibon «sod» ustina. (Og.)*

**Chashmi mardum** Ko'z qorachig'i.  
*Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,  
 Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman. (T.F.)*

**Chashmi so'zan** Igna teshigi.  
*Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,  
 Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman. (T.F.)*

**Chashmi tar** Yoshli ko'z, namli ko'z.  
*Xonavayronlar bilur aftodalarning holini,  
 Eyki, mahram bo'lmasang, chashmi tarimni kavlama.*  
 (Mash.)

**CHASHMA** f. Buloq.

*Chashmai erdi xushguvor anda,  
 Zahr aro no'sh oshkor anda. (S.S.)*  
**Chashmai hayvon** Tiriklik bulog'i, obihayot.  
*Anda dahlezu gunbazu ayvon,  
 Suyi andoqki chashmai hayvon. (S.S.)*

**CHEHRA** f. Yuz, bet.

*Skandar ochib chehra xurshiddek,  
 Murod ahlig'a subhi ummiddek. (S.I.)*  
**Chehrai zard** Sarg'aygan yuz, sariq yuz.  
*Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,  
 Ko'rub, rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim. (B.)*

**CHEKILMAK** Olinmoq.

*Ki, chekilgay bu intiqom oxir,  
 Ro'zi o'lg'ay bu nav'kom oxir. (S.S.)*

**CHEKMAK** 1. Tortmoq, o'ziga tomon surmoq.

*Notavon tutti rishtani mahkam,  
 Mehr chekti, ul ikki mahvash ham. (S.S.)*  
 2. Chuqurdan tortib olmoq, chiqarmoq.  
*Maxlasing ichra sa'y etib jondin,  
 Seni cheksam bu tiyra zindondin. (S.S.)*

**Mehnat chekmak** Ovora bo'lmoq, urinmoq.

*Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,  
 Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. (A.N.Qit.)*

**Sipah chekmak** Qo'shin tortmoq, qo'shin bilan bostirib bormoq.

*Sabt edikim, yururga qilsang mayl,  
 Yaxshi, yo'qsa chekib sipoh Suhayl. (S.S.)*

**Til chekmak** Gapirmoq, so'zlammoq.

*Shah bu so'zdin ochildi yog' kibi,  
 Til chekib shu'lai chirog' kibi. (S.S.)*

**Tig' chekmak** Tig' tortmoq, jang qilmoq, tig' ko'tarmoq.

*Zol dedikim: «Qazoq erkanda shoh,  
 Tig' chekibkim, chekar erdi sipoh» (S.S.)*



**Quyosh tig' chekmak** Quyosh tig' urmoq, quyosh nur sochmoq.

*Tig' agar cheksa nechukkim quyosh,  
Aylamak oning so'ngida mehr fosh.* (H.A.)

**Un chekmak** Ovoz chiqarmoq.

*Keldi chah boshi uzra g'amparvard,  
Chekti un: Ki-ey asiri mehnatu dard.* (S.S.)

**CHENAMAK** Hisoblamoq, o'lchamoq; taxmin qilmoq.

*G'animning hozir cherikini bir lak chenarlar edi.* (Bn.)

**CHERIK** Qo'shin, lashkar, askar.

*Boshlabon ul cherikni sohil ila,  
Su yaqosidag'i manozil ila.* (S.S.)  
*Mundin o'zga bu ishga yo'q tadbir,  
Ki, ikkimiz cherik yig'ib bir-bir.* (S.S.)  
*Necha kundan so'ng o'lg'ay imkoni,  
Qobsamoq bu iki cherik oni.* (S.S.)

**Cherik chekmak** Qo'shin bilan hujumga bormoq, lashkar tortmoq.

*Olibmen taxti farmoning'a oson,  
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.* (F.Sh.)

**CHERIKLIK** Qo'shinli, askarli.

*O'zbekdek yuz ming qari yog'ini orqada qo'yub, Sulton  
Ibrohimdek qalin cheriklik, vase' mulkluk podshoh bila  
ro'baro' bo'lduq.* (Bn.)

**CHERKAS** Cherkas, cherkas xalqi.

*Gah o'rus, gohi cherkas, gohi mo'min, gohi tarsoman,  
Ne kavnayn miyoni lou illollog'a sig'mamdur.* (Mash.)

**CHETMAK: Qash chetmak** Qosh chimirmoq.

*Achun kulchirar boz alin qash chetar,  
Bir ilkin tutub shahd, biri zahr qatar.* (R.)

**CHEVURMAK** O'girmoq, burmoq.

**Yuz chevurmak** Yuz o'girmoq.  
*Tanim borincha sendin yuz chevurman,  
Eshiking tuproqindin bosh ko'turman.* (Mn.)

**CHECHAK** 1. Gul.

*Raqibingdur tikan, siz toza gulsiz,  
Chechak chimgan aro bo'lmas tikansiz.* (Mn.)

2. ko'ch. Go'zal mahbuba.

*Quyosh aksi yuzungdin roh ichinda,  
Seningdek yo'q chechak uchmoh ichinda. (Mn.)*

**CHILTAN** *f.* Diniy e'tiqodga ko'ra g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan, bir-biridan ajralmaydigan qirq ruh.

*Ikki yoshda payg'ambarlar kelib ko'rdi,  
Uch yoshimda chiltan kelib holim so'rdi. (A.Y.)*

**CHIMGAN** Chimzor, maysazor.

*Sening chehrangda, ey firdavs sarvi,  
Engin qon birla yuz chimgan tazarvi. (Mn.)*

**CHIN I** Xitoy.

*Buki erur kufr elining mulki Chin,  
Ko'rkim, erur g'ayrati xuldi barin. (H.A.)*

**CHIN II** Qosh chimirilganda ustida paydo bo'ladigan yo'l-yo'l izlar, ajin.

*Kimki qilur chinliq alardin havas,  
Qoshlari ustida topar chinu bas. (H.A.)*

**CHIN III** Rost, to'g'ri.

*Emas afsona, chin ushbu bitilmish,  
Bu chin afsonatek ishqda yetilmish. (S.Sar.)*

**CHINIY** *xit.-a.* Chinnidan yasalgan; chinni.

*Ushbu bog'chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy, chiniyxona derlar. (Bn.)*

**CHINIYXONA** *xit.-a.-f.* Chinnixona.

*Ushbu bog'chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy, chiniyxona derlar. (Bn.)*

**CHIRMOSH** 1. Daraxtlar, butalar bir-biriga chirmashib ketgan, yurish qiyin bo'lgan.

*Sayd jangal ichini qildi talosh,  
Yo'li ham tor ediyu ham chirmosh. (S.S.)*

2. Egri.

*Nayza bo'lub tuzlugidin sarbaland,  
Chirmosh uchun bandg'a qolib kamand. (H.A.)*

**CHITFURUSH** *f.* Chit sotuvchi; bazzoz.

*«Ultarma»ga qildim yurush,  
Yo'ldosh edi bir chitfurush. (M.)*

**CHIG'** Qamish yoki na'matak novdasidan qator qilib, ip bilan bog'lab to'qilgan qurilish materiali, chiy.

*Eshigiga chig'dek nima to'qub, ikki boshini bir yerga qatib bog'larlar. (Bn.)*

**CHIG'AY** Kambag'al, qashshoq, faqir.

*Ko'zi suq kishi nenga bo'lmas bu bay,  
Qamug' dunya balsa axir suq chig'ay. (Q.B.)*

**CHOBUK** *f.* Chaqqon, tez, ildam.

*Chun yetib qildi el halokig'a mayl,  
Razmu kin ichra chobuk erdi Suhayl. (S.S.)*

**CHOBUKSUVOR** *f.* Chavandoz.

**Chobuksuvori daler** Shijoatli chavandoz.  
*Shoh olig'a chobuksuvori daler,  
Yetib sekribon ottin andoqki sher. (S.I.)*

**CHOH** *f.* Zindon; chuqur.

*Ul choh ichra qilurdi sokin,  
Chiqmoq andin emas edi mumkin. (S.S.)*

**CHOK** *f.* 1. Yirtiq, yirtilgan.

**Yoqa chok aylamak** Faryod qilmoq.  
*Toki tund o'ldi bahr aro ko'lok,  
Dedi malloh aylabon yaqo chok. (S.S.)*

2. Yara, jarohat.

**Chok qilmoq** Yaralamoq.  
*Shoh qilichi jigarim qildi chok,  
Ul jigarim porasin etti halok. (H.A.)*

**CHOKAR** *f.* Xizmatkor.

*Ne deb o'zbek bila yovar bo'ldung,  
Xong'a bu yanglig' chokar bo'ldung? (Shn.)*

**CHOLOK** *f.* Chaqqon, epchil, ildam.

*Ikkisi chunki erdilar cholok,  
Bir-biridin alarg'a yo'q edi bok. (S.S.)*

**CHOPMOQ** Talon-taroj qilmoq, g'orat qilmoq, talamoq.

*Ushbu kuni o'zbekning chopqunchisini Hamzabiy mang'it  
boshlab kelib, Dushi navohisini chopti. (Bn.)*

**CHOPQULAMOQ** Shiddatlanmoq, avjiga minmoq, kuchaymoq.

*Namozi xuftong'acha qor oncha chopqulab yog'dikim, men  
engashib o'turub edim. (Bn.)*

**CHOPQULASHMOQ** Qilichlashmoq.

*Qo'chbek chiqib, ushbu ilgari kelgan o'zbeklar bila yaxshi  
chopqulashib namoyon ish qildi. (Bn.)*

**CHOPQUN I** Bosqin, hujum, hamla.

*Seshanba kuni oyning yigirma uchida cherikni Hindubekka  
boshlatib, Panjko'rag'a chopqun yiborildi. (Bn.)*



**CHOPQUN II** Shiddatli yomg'ir, jala.

*Yog'in va chopqun andoq bo'ldikim, yana yonib o'rdug'a kelmakka tavahhum bo'ldi. (Bn.)*

**CHOPQUNCHI** Hujum qiluvchi, bosqin qiluvchi, bosqinchi.

*Tonglasi ba'zi munosib yerlarga chopqunchi yiborildi. (Bn.)*

**CHORASOZ** f. Chora topuvchi, chora qiluvchi.

*Bu o'zluqdin qutulmoq chorasoz,  
Nima yo'q o'ylakim ishqi majoziy. (F.Sh.)*

**CHORDARA** f. To'rt eshikli uy.

*Ushbu bog'chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamomchiny, chiniyxona derlar. (Bn.)*

**CHORDEVOR** f. Buzuq, tashlandiq uy, buzilgan uy.

*Umarxon zamonlarida bir bo'sh chordevor topilmas, uyalurmiz. (Zm.)*

**CHOV** Dovrug', shuhrat.

*Saroydin bordi Chin-Moching'a choving,  
Qiyo boqsang bo'lur arslonlar oving. (Mn.)*

**CHOYFURUSH** xit -f. Choy savdosi bilan shug'ullanuvchi tijoratchi.

*Sil, eski bachcha, choyfurush,  
Hofiz Umar, Qahhor ekan. (M.)*

**CHOG'IR** May, ichkilik.

*Najote istasang Munisg'a g'amdin,  
Ayoqchi, tut anga har dam chog'irni. (Mu.)*

**CHOSHNILIQ** ko'ch. Totli, lazzat bag'ishlovchi; Yoqimli, bama'ni.

*Yana Muhammad Solih edi, choshniliq g'azallari bor. (Bn.)*

**CHOSHTGOH** f. Choshgoh.

*Onchaki, sultoniy o'lub choshtgoh,  
Uyquda sulton bila xaylu sipoh. (H.A.)*

**CHU** 1. Modomiki.

*Yor ollida gar bor-yo'q ersa ajab ermas,  
Ag'yor chu bor anda, Navoiy, sanga ne bor. (G'.S.)*

2. Axir.

*Zoli falakdin necha ko'rsang alam,  
Shah chu qilur adl, Navoiy, ne g'am. (H.A.)*

3. Agar.

*Davr chu kajliqqa qilur iqtizo,  
Sen tilasang rost, emastur rizo. (H.A.)*

**CHUN** *f.* 1. Chunki, negaki.

*Nay tuz uchun istar ani ahli hol,  
Chun tuz emas egri ko'rar go'shmol. (H.A.)*

2. Agar.

*O'rnida tishlar duri manzum erur,  
Chun sochilur qiymati ma'lum erur. (H.A.)*

**CHUNON** *f.* Shu qadar, shunchalar, chunonam.

*Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,  
Go'yo xayol aylaki qilmay nifoq. (M.)*

**CHUST** *f.* Tez, chaqqonlik bilan.

*Chiqti dog'i yeshib kamandini chust,  
Bog'lab oning ilik-ayog'ini rust. (S.S.)*

**CHUG'Z** *f.* Boyqush, boyo'g'li.

*Ranjakash bo'lkim, chu tortar chug'z vayron ichra ranj,  
Ajdahodin biymi yo'q, ammo erur ummidi ganj. (F.K.)*

**CHO'B** *f.* Cho'p, xas.

*Cho'bni xor tutsang, ko'zga tushar. (Zm.)*

**CHO'BIN** *f.* Yog'ochdan yasalgan, taxtadan yasalgan.

**Cho'bin ot Tobut.**

*Oto-ono, qarindosh, qayon ketti, fikr qil,  
To'rt oyog'lig' cho'bin ot bir kun sanga yetaro. (A.Y.)*

**CHO'BON** *f.* Cho'pon.

*Arsai mulkni yobon bilsa,  
Elni qo'y, o'zni cho'bon bilsa. (Shn.)*

**CHO'Q** Ko'p, talay.

*So'zning asnofi bag'oyat cho'qdur, yolg'ondin yamonroq  
sinfi yo'qdur.' (M.Q.)*

**CHO'X** *ayn.* Cho'q.

*Layli-Majnun Ajamda cho'xdur,  
Atrokda ul fasona yo'xdur. (Fuz.)*

## Lug'atchilik tarixiga bir nazar

Lug'at arabcha so'z bo'lib, "so'z", "til" degan ma'nolarni anglatadi. Lug'atlarning paydo bo'lishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Ilk lug'atlar qadimgi Gretsiyada eramizdan oldingi beshinchi asrda tuzilgan.

Turkiy xalqlarning eng qadimgi lug'atlari sifatida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar to'plami"), Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" ("Adabga kirish") asarlarini ko'rsatish mumkin. Bu har ikki lug'at ham barcha turkiy xalqlarga va tillarga bab-baravar tegishlidir.

"Devonu lug'otit turk" birinchi navbatda turkiy bo'lmagan boshqa xalqlarga turkiy tilni o'rgatish maqsadida yozilgan. Ma'lumki, mazkur asar yozilgan davrda, ya'ni XI asrda turkiy xalqlar ulkan nufuzga ega bo'lib, ular juda katta hududga yoyilgan edi. Shuning uchun bu tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va zarurat kuchli bo'lgan. M.Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk"ning birinchi jildida shunday yozadi: "Xudo davlat quyoshini turklar burchida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko'tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo'liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, bularni to'g'ri yo'lga yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g'olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning [turklarning] o'qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo'lish uchun eng asosiy yo'l – ularning tillarida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o'z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar.

Ishonchli bir buxorolik olimdan va nisoburlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so'zni payg'ambarga nisbat berib aytgan edilar: payg'ambar qiyomatning belgilari, oxir zamon fitnalari va o'g'uz turklarining xuruji haqida gapirganda, shunday degan edi: turk tilini o'rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi.

Hadisning to'g'ri yoki to'g'ri emasligini javobgarligi aytgan kishilar gardaniga. Agar to'g'ri bo'lsa, turk tilini o'rganish vojib (zarur)dir: hadis to'g'ri bo'lmagan taqdirda ham uni o'rganish zarurligini aql taqozo qiladi" ("Devonu lug'otit turk", I tom, 43–44-betlar).

Shuni alohida qayd etish lozimki, turkiy (o'zbek) tilini boshqa xalq vakillari tomonidan o'rganilishi va ularga o'rgatish hozir ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan masalalardan biridir.

Lug'atlar maqsad va vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi: filologik (lingvistik) va ensiklopedik lug'atlar. Filologik lug'atlar so'zning ma'no va qo'llanishi, grammatik va stilistik va boshqa xususiyatlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Ensiklopedik lug'atlar esa so'z haqida emas, balki so'zlar orqali ifodalangan narsalar, tushunchalar, tarixiy shaxslar, joy nomlari haqida ma'lumot beradi. Ensiklopedik lug'atlarga, asosan, ot turkumiga xos so'zlar kiritiladi. Bunday lug'atlarga namuna sifatida "O'zbek sovet ensiklopediyasi", "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"ni keltirish mumkin.

Filologik yoki lingvistik lug'atlarni, odatda, tilshunoslar tuzadilar. Umuman, lug'at tuzish, lug'atchilik ishlari va uning nazariyasi bilan tilshunoslikning leksikografiya nomli maxsus sohasi shug'ullanadi.

Lug'atlar bir tilli va ikki yoki ko'p tilli bo'lishi mumkin. So'zlarni ma'lum bir tilning o'z vositalari bilan izohlovchi lug'atlar bir tilli lug'atlar hisoblanadi. Bunday lug'atlarning yorqin namunasi sifatida izohli lug'atlarni keltirish mumkin. Ikki jildan iborat ilk "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1981-yilda nashr etilgan. Oradan chorak asrdan ko'proq vaqt o'tgandan so'ng besh jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2007–2008-yillarda) nashr qilindi.

Izohli lug'atlarning yana bir turi sheva lug'atlaridir. Bunday lug'atlar dialekt yoki shevaga oid so'zlarni adabiy til vositasida izohlaydi. Mazkur tip lug'atlarning namunasi sifatida 1971-yilda nashr etilgan kichik "O'zbek xalq shevalari lug'ati"ni ko'rsatish mumkin. Afsuski, barcha o'zbek lahja va shevalarining mukammal lug'ati hali tuzilmagan. O'zbek tili turkiy tillar orasida eng ko'p shevaga egaligini (Y.D.Polivanov) hisobga olsak bunday lug'atni tuzish juda muhim ekanligi ayon bo'ladi.

Qiyosiy lug'atlar bir oila yoki guruhga mansub tillarning so'z boyligini qiyoslash orqali ulardagi tafovutlarni o'rganish maqsadida tuziladi. Bunday lug'atlarga M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", L.Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских

наречий” (Ч. 1–2, СПб., 1869), V.Radlovning “Опыт словаря тюркских наречий” (Т.Т. 1–4. СПб., 1888–1911), shuningdek, 1991-yilda Anqarada nashr etilgan “Karşılaştırmalı Türk Lehçeleri Sözlüğü” ni tilga olib o‘tish mumkin.

Bundan tashqari, yozuvchi lug‘ati ham borki, bu tipdagi lug‘atlar-da biror shoir yoki yozuvchi asarlari leksikasi o‘rin oladi. Mazkur tip lug‘atlarga to‘rt jildli “Словарь языка Пушкина” (1956–1961), P.Shamsiyev, S.Ibrohimovlarning “Navoiy asarlari lug‘ati” (1972), X.Nazarovanning “Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari uchun qisqacha lug‘at” (1972), E.Fozilov rahbarligida tuzilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” (1983–1985) kabi lug‘atlar misol bo‘la oladi.

Ters lug‘atlarda so‘zlar odatdagidek chapdan birinchi harfga ko‘ra emas, balki o‘ngdan birinchi harfga ko‘ra alifbo tartibida joylashtiriladi. Bunday lug‘atlar sirasiga R.Qo‘ng‘urov, A.Tixonovlarning “O‘zbek tilining chappa lug‘ati” (1968), B.Yusufning “Turk tilining ters lug‘ati” (2004) kabilarni kiritish mumkin.

Ikki tilli lug‘atlarda biror tilga oid lug‘aviy birliklar boshqa tilga tarjima qilinadi. Shuning uchun ham ushbu turdagi lug‘atlar tarjima lug‘atlari ham deyiladi. O‘rta Osiyo ruslar tomonidan bosib olingunga qadar bizda, asosan, arabcha-turkiycha, turkiycha-arabcha shuningdek, o‘zbekcha-forscha va forscha-o‘zbekcha lug‘atlar tuzilgan. Jumladan, M.Koshg‘ariyning (“Devonu lug‘otit turk”), M.Zamaxshariyning (“Muqaddimat ul-adab”), Toli Hiraviyning “Badoye’ ul-lug‘at” (XVI asr), “Abushqa” (XVI asr), Mirzo Mehdixonning “Sanglox” (XVIII asr), Xoksorning “Muntaxab ul-lug‘at” (XVIII), Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chag‘atoiy va turki usmoniy” (XIX asr) kabilarni ko‘rsatish mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar tuzila boshlandi. Bunday lug‘atlarning talabga javob beradiganlari, asosan, XX asrning 30-yillaridan so‘ng yuzaga keldi. Ruscha-o‘zbekcha lug‘atlarning eng kattasi 1950–55 yillarda tuzilgan besh jildli nashridir.

Umuman, L.V.Shcherba aytganidek, lug‘atning turlari juda ko‘p. Ammo o‘zbek lug‘atchiligida ahamiyati jihatidan zarur bo‘lgan lug‘atlarning bir qismi hali tuzilmagan yoki tuzilsa ham mukammal emas. Masalan, o‘zbek tilining tezaurus lug‘ati hali yaratilgan emas, yuqorida aytganimizdek o‘zbek tilining to‘la, mukammal sheva lug‘ati, hamda o‘zbek tilining mukammal etimologik lug‘ati yo‘q. Shuningdek,

Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Ogahiy kabi adiblar asarlari tilining mukammal izohli lug'ati tuzilmagan. Bizning leksikograflarimiz oldida ana shunday lug'atlarni tuzishdek sharaflı ish turibdi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, lug'at tuzish tilshunoslikda eng sermashaqqat va og'ir yumushdir. Buni leksikografik ish bilan shug'ullangan barcha zamonlardagi lug'atchilar ta'kidlaganlar. Ispan leksikografi X.Kasares lug'at tuzishning qiyinligi haqida shunday deydi: "Gap shunday bir sermashaqqat, murakkab va og'ir ish ustida boradiki, bu ishdan lazzat topa bilmagan, unga mayl qo'ya olmagan kishi uni tezda tashlab ketadi, chunki ko'pgina lug'at maqolalarini tuzish uchun kerak bo'ladigan vaqt ichida avtor, unga shuhrat ... keltirila oladigan monografiyalar yozishi mumkin." Topib aytilgan gap. Haqiqatan ham shunday.

Lug'atchilik ishining qiyinligi, murakkabligi haqida so'z ketganda albatta Fransuz filologi va tarixchisi Skaligerning (XVI asr) ko'pchilikka tanish bo'lgan quyidagi olti misrali (Chustiy tarjimasidagi) she'rini keltirish o'rinlidir.

Kimiki zo'r jazoga mahkum ersa,  
Shuningchun cheksa qayg'u, g'am har onda  
Temirchi bo'l dema qiynab uni sen,  
Ko'mir qazdirma-yu, ishlatma konda,  
Jazo berma, lug'at tuzdirgil unga,  
Buningdek mushkul ish yo'q hech jahonda.

Ma'lumki normativ lug'atlar nutq madaniyatini oshirish uchun xizmat qiladi. Umuman, lug'atlar madaniyat ko'zgusidir.

Tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo'lgan o'zbek leksikografiyasi uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Bugungi kunda ham lug'atchiligimiz jadal rivojlanib bormoqda.

**BERDAK YUSUF**

**Mumtoz adabiy asarlar lug'ati**

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent — 2010

Muharrir *M. Saparov*  
Badiiy muharrir *T. Qanoatov*  
Texnik muharrir *D. Gabdraxmanova*  
Sahifalovchi *L. Sobirov*  
Musahhihlar: *M. Ziyamuhamedova, J. Toirova*

Bosishga ruxsat etildi 16.02.2010. Bichimi 84x108<sup>1/32</sup>. Times garniturası.  
Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 27,72. Nashriyot-hisob tabog'i 32,2.  
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 4725. Bahosi kelishilgan narxda.

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41

3000

# MUMTOZ ADABIY ASARLAR LUG'ATI



ISBN 978-9943-00-345-3



9 789943 003453